S.M.Kuryan bilan M.A.Petrushkevichlar oliy ta'lim muassasalariga suniy intellektni joriy etishdagi to'siqlarni ilmiy jihatdan o'rganib ularning o'chta jihatiga alohida to'xtab o'tadi. Bu to'siqlarni umumlashtirgan holda metodik, texnik va informatsion to'siqlarga ajratadi [4]. XXI asrning yosh tadqiqotchilarining biri N.D.Aleksandrov xorijiy davlatlarning suniy intellektni ijtimoiy hayotning turli jabhalarida qo'llashiga doir raqobatbardoshligi masalalarini tahlil etgan holda ta'lim va analitikani rivojlantirish lozimligiga alohida e'tibor qaratadi hamda bu borada Yevropa (Ulug' Britaniya)ning «aqlli asssistent» (talabalarning etiyojlari), AQShning portfoliyo bo'yicha talabalarni tanlash, Germaniyaning talabalardagi ilmiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashi, Koreyaning elektron dekanatga kirishga doir chat-botlari, Niderlandiyaning talaba va pedagoglarning muammolarini oldindan ko'ra bilishi va yechimlar topishiga doir hamkorlik faoliyatini tashkil etishi, Singapurning onlaynda talabalarni baholashga doir proktoring tizimi singari tajribalariga alohida to'xtab o'tadi hamda suniy intellektni ta'lim muassasalariga joriy etishda xalqaro miqyosda moslashishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishni tavsiya etadi [2].

Suniy intellekt texnologiyalarini ta'lim sohasiga olib kirish hamda ulardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari

AFZALLIKLARI	**KAMChILIKLARI**
- ta'lim tizimi va pedagogik jarayonlarning modernitsiyalanishiga xizmat qiladi, - o'qish va ta'lim berish samaradorligini oshrishga xizmat qilishi, - ta'lim oluvchilar uchun yangi g'oyalarning shakllanishi va rivojlanishi uchun ta'sir etuvchi kuchga ega bo'lishi, - sun'iy intellektda bilimlar va ma'lumotlar bazasining ko'pligi hisobiga ularning «kasbdosh», «maslahatchi», «ekspert» sifatida xizmat qilishi, - tilni qayta ishlash, til va muloqot jarayonidagi bar'erlarning oldini olish orqali ta'lim oluvchilarnig globallashuv jarayonlariga integratsiyalanishiga xizmat qilishi, - katta ma'lumotlarni tahlil qilish, avtomatik ta'lim va tasvirlarni tanish, - ijodkorlikka yo'naltirishi,	- «sun'iy intellekt», «kompyuter (mashina) ta'limi», «elektron ta'lim», «raqamlashtirilgan ta'lim» singari ko'plab bir-biriga yaqin va bir-birini to'ldiruvchi tushunchalarning ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jihatdan to'liq o'rganilmaganligi, - sun'iy intellekt bilan ishlash bo'yicha malakali mutaxassislarning yetishmasligi va turli soha vakillarining o'z sohalarida ulardan foydalanish tug'risida ma'lumotlarga va amaliy ko'nikmalarga ega emasligi, - sun'iy intellektdan ta'lim jarayonida qo'llashga doir ilmiy asoslangan qo'llanmalarning qo'llanmalarning yetishmasligi, - sun'iy intellektni foydalanishda odob-axloq qoidalariga amal qilishdagi risklar va konfidensiallikni saqlashdagi muammolar, - sun'iy intellektni foydalanishda ta'lim oluvchilarning jismoniy jihatdan yakkalanishi,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- ta'limga platformali yondashuvni yo'lga qo'yish imkoniyatining yaratilishi, - talabalarning individual ta'lim traektoriyalarini tanlash imkoniyatining yaratilishi hamda ta'limni individullashtirish va personalashtirish, - o'quv materiallarini ta'lim oluvchilarga yetkazishda vizullashtirish potensialiga ega bo'lishi va h.k.	jonli muloqot muhitining o'rniga kompyuterda ishlash bilan cheklanib qolishi va verbal so'zlashuv malakalarining rivojlanishiga to'sqinlikning yaratilishi, - vaqtning o'tganini sezmasdan internet va kompyuterda oldida uzoq muddat qolib ketishi va ishlash ritmining xaddan tishlash tezlashuvi orqali psixik zo'riqish, axborot va texnostress holatlarining kuchayishi va h.k.

Jadvalda keltirilgan tizimni yanada davom ettirish mumkin. Eng asosiysi bugungi kunga qadar sun'iy intellekt romantik, yaqin kunlarda amaliyotga joriy etilmaydigan, umumiy va yaxlit emas, balki tarqoq holda tushunilib kelingan bo'lsa, endilikda uni har tomonlama va ilmiy jihatdan o'rganish va ularni ijtimoiy xayotimizning turli jabhalarida, shu jumladan ta'lim tizimida ham maqsadga muvofiq qo'llash imkoniyatlarini aniqlash talab etiladi. Demak, pedagogik jarayonlarda sun'iy intellekt quyidagi vazifalarni amalga oshirishda samarali hisoblanadi:

1. **Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlariga asoslangan ta'lim traektoriyasini shakllantirish.** Sun'iy intellekt har bir ta'lim oluvchilarning bilim darajasi, o'rganish tezligi va qiziqishlari asosida shaxsiy ta'lim yo'nalishini shakllantirishi mumkin. Jahonda «Smart Sparrow», «Knewton» singari platformalarda savollarga javoblar olinib talabalarning bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlaydi.
2. **Ta'lim oluvchilarning bilimlaridagi bo'shliqlarini aniqlash va to'ldirish.** Jahon tajribasida DreamBox Learning» (matematika ta'limi uchun mo'ljallangan SI asosidagi tizim) har bir ta'lim oluvchining xatolarini tahlil qiladi va shu asosda maxsus mashqlar tuziladi. O'zbekiston sharoitida esa shu kabi kontentlar yaratish uchun «Bilimland» kabi platformalardan foydalanish mumkin.
3. **Avtomatik baholash va tavsiyalar tizimini yaratish.** Sun'iy intellekt yordamida testlar va topshiriqlar avtomatik ravishda baholash tizimini yaratish. Jahon tajribasida «Gradescope», «Quillionz» kabi onlayn platformalar sun'iy intellekt yordamida ta'lim oluvchilarning yozma ishlari tahlil qilinadi hamda bu professor-o'qituvchilarning vaqtini tejabgina qolmasdan, balki ob'ektiv baholashni ham ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, sun'iy intellekt texnologiyalarini pedagogik jarayonlarga joriy etish orqali O'zbekistonning ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish imkoniyati kengayadi. Bu orqali ta'lim oluvchi shaxsiga moslashgan, qiziqarli, interfaol va samarali ta'lim muhitini yaratish sharoiti yaratiladi. Bunda suniy intellektni ta'lim tizimiga joriy etishning normativ-huquqiy bazasini mustahkamlash hamda kiberxavfsizlikni ta'minlashga doir ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy aspektlarini yanada chuqurroq tadqiq etish bugungi davr talabi hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Demak, bugungi kunning talabi mashina (kompyuter) bilan mutaxassisning o‘zaro adaptatsiyasini jamiyatga, atrofdagilarga va nihoyat ta’lim oluvchilarga foydasi tegadigan ijobiy-konstruktiv adaptatsiyalanishiga erishishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-ноябрдаги «Ўзбекистон-2030» Стратегияси туғрисида»ги ПФ-158-сон Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон; 21.03.2025 й., 06/25/51/0261-сон; 26.03.2025 й., 06/25/56/0274-сон.
2. Александров Н.Д. Международный опыт внедрения искусственного интеллекта в отрасли науки и высшего образования. //Научные труды ВЭО России / 229 том. Электронный ресурс: https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnyy-opyt-vnedreniya-iskusstvennogo-intellekta-v-otrasli-nauki-i-vysshego-obrazovaniya/viewer
3. Джон Маккарти: открытия и наследие создателя термина «Искусственный интеллект». Электронный ресурс: https://habr.com/ru/companies/itglobalcom/articles/741006/
4. Курьян С.М., Петрушкевич М.А. Применение технологии искусственного интеллекта в образовании. «Приоритет-2030» как ориентировочная основа для совершенствования образовательного процесса в ВУЗе. // Мир науки, культуры, образования. № 6 (109) 2024. ISSN 1991-5497. Электронный ресурс: file:///C:/Users/User/Downloads
5. Никитин А.Е. Эпистемология искусственного интеллекта. Автореф.дисс… к.филос.н. – Архангельск. – 2007. 19 С.
6. Осипов Г. Искусственный интеллект: состояние исследований и взгляд в будущее. Электронный ресурс: https://raai.robofob.ru/about/persons/osipov/pages/ai/ai.html
7. Woolf, B. P. (2020). Building Intelligent Interactive Tutors: Student-centered strategies for revolutionizing e-learning. Morgan Kaufmann.
8. Шаповал А.П. Искусственный интеллект в современной художественно-прикладной культуре. Автореф.дисс… к.филос.н. – Нижний Новгород. – 2009. 30 С

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna**, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «Boshlang‘ich ta’lim» kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor, [**Курбаниязова Замира Калбаевна,** заведующая кафедрой «Начальное образование» Нукусского государственного педагогического института имени

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ажинияза, доктор педагогических наук, профессор], [**Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna**, Head of the Department of "Primary Education" at Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor]; manzil: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIIY ASARLAR BILAN TANISHISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM METODLARINING O'RNI

© Sh.K. Xujamberdiyeva[1]✉
[1]Namangan davlat universiteti, Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish mashg'ulotlari jarayonida bolalarda erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanishi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarlar bilan tanishishga qiziqishni shakllantirishda ta'lim metodlarining o'rni xususida fikr yuritiladi.

MAQSAD: ushbu maqolaning asosiy maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarlar bilan tanishishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda ta'lim metodlarining o'rnini aniqlash, ta'limiy jarayonda samarali usullarni aniqlab, ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, bolalarda estetik did, til boyligi, obrazli tafakkur va tasavvurni rivojlantirishda badiiy adabiyotning ta'sirchan vosita ekanini asoslab berish.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarlarga qiziqishni shakllantirish jarayonida qo'llanilayotgan ta'lim metodlarining samaradorligini o'rganish maqsadida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Dastlab, pedagogik kuzatuvlar orqali bog'cha tarbiyalanuvchilarining badiiy matnlarni qabul qilishdagi xatti-harakatlari, ularning e'tiborini jalb etish usullari va fikr bildirish faoliyati tahlil qilindi. Shuningdek, tarbiyachilar va ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar asosida bolalarning badiiy adabiyotga nisbatan munosabati, ularning eng ko'p eslab qoladigan hamda qiziqish uyg'otadigan obrazlari aniqlab olindi.

Tadqiqot davomida ta'limiy usullarning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida eksperiment-metodik yondashuv tatbiq etildi. Jumladan, dramatizatsiya, rolli o'yinlar, savol-javob metodi, hikoya asosida chizish, vizual materiallar (rasmlar, video lavhalar) va ijodiy topshiriqlar orqali bolalarning asarlarga bo'lgan munosabati o'rganildi. Metodik adabiyotlar va amaliy tavsiyalar tahlil qilinib, taqqoslama usulda eng samarali deb topilgan metodlar ajratib olindi. Natijada bolalarda badiiy asarlarga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiluvchi ta'lim metodlarining eng maqbullari aniqlab, ular amaliyotda sinovdan o'tkazildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot jarayonida o'tkazilgan kuzatuvlar, suhbatlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarlarga nisbatan qiziqish ko'proq o'ziga xos, jonli va interaktiv metodlar orqali shakllanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xususan, dramatizatsiya, rolli o‘yinlar, savol-javob asosidagi muloqot, matnga mos rasm chizish va asardagi obrazlarni jonlantirish kabi usullar bolalarda badiiy matnni chuqurroq idrok etishiga, voqealarni his etishiga va obrazlar bilan bog‘liq mustaqil fikr yuritishiga imkon beradi.

Eksperiment davomida aniqlanishicha, tarbiyachilar tomonidan badiiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida faqatgina matn o‘qib berish bilan cheklanmasdan, uni turli ta’limiy metodlar orqali boyitish bolalarning diqqatini ancha kuchaytiradi. Jumladan, bolalar rollarni ijro etishga, voqealarni jonlantirishga yoki ular asosida rasm chizishga jalb qilinganda, ular asarga nisbatan faolroq ishtirok eta boshlaydi va matndagi voqealarni o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib talqin qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, badiiy adabiyot vositasida bola nafaqat til va nutq jihatidan rivojlanadi, balki unda obrazli tafakkur, estetik did va axloqiy fazilatlar ham shakllanadi. Shu bois, maktabgacha ta’limda qo‘llaniladigan metodlar orasida bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan, faol ishtirokni ta’minlaydigan metodlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

XULOSA: maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarlar bilan tanishishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda ta’lim metodlarining roli nihoyatda muhimdir. To‘g‘ri tanlangan metodik yondashuvlar nafaqat bolalarning asarga bo‘lgan e’tiborini kuchaytiradi, balki ularning ruhiy-estetik kamolotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, tarbiyachilar tomonidan qiziqarli, obrazli va bolalarning yosh xususiyatlariga mos metodlarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, “Intellekt karta”, “Kubik metodi”, “Gugurt donalari yoki xascho‘plar”, “Zinama-zina” texnologiyasi

Iqtibos uchun: Xujamberdiyeva Sh.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarlar bilan tanishishga qiziqishni shakllantirishda ta’lim metodlarining o‘rni. // Inter education & global study. 2025, №6. B.25–35.

РОЛЬ МЕТОДОВ ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ИНТЕРЕСА К ЗНАКОМСТВУ С ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ИСКУССТВА У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

© Ш. К. Хужамбердиева[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается формирование у детей способности к свободному и самостоятельному мышлению в процессе учебной деятельности, организованной на основе игровых технологий, а также роль образовательных методов в формировании у дошкольников интереса к ознакомлению с художественными произведениями.

ЦЕЛЬ: основная цель данной статьи — определить роль методов обучения в формировании интереса у детей дошкольного возраста к знакомству с

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

художественными произведениями, выявить эффективные методы в образовательном процессе и разработать рекомендации по их применению на практике. Кроме того, обосновывается значимость художественной литературы как действенного средства развития эстетического вкуса, словарного запаса, образного мышления и воображения у детей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании использованы несколько научно-методических подходов для изучения эффективности методов обучения в процессе формирования интереса дошкольников к художественным произведениям. Сначала посредством педагогических наблюдений анализировались поведение детей при восприятии художественного текста, методы привлечения их внимания и активность в высказывании мнений. Также на основе бесед с воспитателями и родителями определялись отношение детей к художественной литературе, а также образы, вызывающие у них наибольший интерес и запоминаемость. Для более глубокого изучения воздействия образовательных методов был применён экспериментально-методический подход. В частности, анализировались такие методы, как драматизация, ролевые игры, метод вопросов и ответов, рисование по сюжету, использование визуальных материалов (рисунков, видеороликов) и творческие задания. Были изучены методические пособия и практические рекомендации, выявлены наиболее эффективные методы на основе сравнительного анализа и опробованы в образовательной практике.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: проведённые наблюдения, беседы и практические эксперименты показали, что интерес детей дошкольного возраста к художественным произведениям в большей степени формируется через оригинальные, живые и интерактивные методы. В частности, такие приёмы, как драматизация, ролевые игры, диалог на основе вопросов, рисование по содержанию и оживление образов способствуют более глубокому восприятию текста, эмоциональному вовлечению и самостоятельному мышлению. Эксперимент показал, что воспитатели, применяющие разнообразные методы, а не ограничивающиеся только чтением текста, добиваются большего внимания со стороны детей. При участии в ролевых действиях, инсценировках или рисовании дети становятся активными участниками и начинают интерпретировать происходящее в соответствии со своим восприятием. Анализ показывает, что художественная литература способствует не только речевому и языковому развитию, но и формированию образного мышления, эстетического вкуса и нравственных качеств. Поэтому среди методов, применяемых в дошкольном образовании, приоритет следует отдавать тем, которые способствуют всестороннему развитию личности ребёнка и активному включению в процесс обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: роль методов обучения в формировании интереса дошкольников к художественным произведениям имеет особое значение. Грамотно подобранные методические подходы не только усиливают внимание детей к

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

содержанию текста, но и положительно влияют на их духовно-эстетическое развитие. Поэтому рекомендуется применять интересные, наглядные и возрастным особенностям соответствующие методы в образовательной деятельности дошкольных учреждений.

Ключевые слова: интерактивные методы, “Интеллект-карта”, “Кубический метод”, “Спички или закладки”, технология “Лестница-лестница.

Для цитирования: Хужамбердиева Ш.К. Роль методов образования в формировании интереса к знакомству с произведениями художественного искусства у детей дошкольного возраста. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 25–35.

THE ROLE OF EDUCATIONAL METHODS IN FORMING INTEREST IN ACQUAINTANCE WITH ARTWORKS IN PRESCHOOL CHILDREN

© Shahnoza K. Khuzhamberdiyeva[1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, the role of educational methods in the formation of the ability to think freely and independently in children in the process of reading classes organized on the basis of Game technologies and in the formation of interest in the introduction of works of art in preschool children is reflected.

AIM: the main purpose of this article is to determine the role of educational methods in developing an interest among preschool children in becoming familiar with literary works, to identify effective methods used in the educational process, and to develop practical recommendations for their application. Furthermore, the study aims to substantiate the value of literary works as powerful tools for nurturing children's aesthetic taste, vocabulary, imaginative thinking, and creativity.

MATERIALS AND METHODS: this study employed several scientific and methodological approaches to explore the effectiveness of teaching methods in fostering preschool children’s interest in literary works. Initially, pedagogical observations were conducted to analyze children's behavior in response to literary texts, the ways in which their attention was captured, and how they expressed their opinions. Additionally, interviews with educators and parents helped determine children’s attitudes toward literary texts and identified the most engaging and memorable characters for them. To further examine the impact of instructional techniques, an experimental-methodological approach was implemented. This included the use of dramatization, role-playing, question-and-answer methods, storytelling through drawing, visual aids (illustrations, videos), and creative tasks. Methodological literature and educational recommendations were analyzed, and the most effective methods were identified through comparative analysis and tested in practice.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: observations, interviews, and practical experiments revealed that preschool children's interest in literary works is most effectively developed through unique, dynamic, and interactive teaching methods. Specifically, methods such as dramatization, role-playing, question-based discussions, drawing scenes from stories, and bringing characters to life promote deeper comprehension, emotional engagement, and independent thinking.

The experimental phase showed that when educators go beyond simply reading the text and incorporate diverse teaching techniques, children become more attentive and engaged. When involved in acting out roles, visualizing events, or drawing scenes, children participate more actively and interpret the narrative through their personal perspective.

The analysis demonstrated that literary works support not only speech and language development but also foster imaginative thinking, aesthetic appreciation, and moral values. Therefore, in preschool education, it is essential to prioritize methods that contribute to the comprehensive development of a child's personality and encourage active participation.

CONCLUSION: educational methods play a crucial role in developing preschool children's interest in literary works. Carefully selected teaching strategies not only enhance children's focus on literary content but also positively influence their emotional and aesthetic growth. It is recommended that preschool educators apply engaging, imaginative, and age-appropriate methods to achieve optimal educational outcomes.

Key words: interactive methods," Intelligence card"," cubic method"," match grains or haschops"," Zinama-zina " technology.

For citation: Shahnoza K. Khuzhamberdiyeva. (2025) 'The role of educational methods in forming interest in acquaintance with artworks in preschool children', Inter education & global study, (6), pp. 25–35. (In Uzbek).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni samarali va sifatli tashkil etish uchun pedagogning tashkiliy hamda uslubiy jihatdan tayyorgarligi va ta'lim olish jarayonini tashkil etishni ta'minlovchi o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish talab etiladi. Ta'minot bazasida o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyati bo'lishi muhim.

O'yinli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida bolalar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi, bog'lanishli nutqi o'sadi.

Badiiy asarlar maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, ma'naviy-ruhiy, estetik, ekologik, jismoniy rivojlantirishga ta'siri masalasi bir qator pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarda atroflicha o'rganilgan. Shu bilan birga, bir qator tadqiqotchilar tomonidan mazkur muammo yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

nazariyotchi D.Abdurahimovaning tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish tizimini takomillashtirishga oid izlanishlar aks etgan bo'lib, unda bolalar tarbiyasida xalq og'zaki ijodi janrlarining tutgan o'rni pedagogik-psixologik jihatdan asoslab berilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning ilmiy konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni, shakli, metodlari va vositalarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida Event-texnologiyasini qo'llashning metodik tizimi takomillashtirilgan[1] Bu o'z navbatida xalq og'zaki ijodi bolalar adabiyotining eng boy va sermahsul qismi ekanligini, mazkur manbalarni yosh avlodga yetkazishda zamonaviy texnologiyalar samarali vosita ekanligini to'liq isbotidir.

Bizga ma'lumki, maktabgacha yosh davrida badiiy asarlar asosida ishlangan multfilmlar, ko'rsatuvlar, radioeshittirishlar hamda qo'g'irchoq teatrlari ham tez ta'sir etish manbalari sanaladi. Tadqiqotchi Z.Azizova ham o'z izlanishlarida qo'g'irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish masalasini atroflicha tadqiq etgan edi. Uning izlanishlarida, qo'g'irchoq teatri – maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy-estetik rivojlantirish maktabgacha ta'lim nazariyasining muhim muammosi ekanligi, qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati, tarbiyalanuvchilarda axloqiy-estetik sifatlarni qo'g'irchoq teatri vositasida shakllantirishning nazariya va amaliyotdagi holati bayon etilgan[2].

Tadqiqotchi X.Qosimovaning izlanishlarida ham aynan oilalarda kitobxonlikka bo'lgan e'tiborni shakllantirish masalasi atroflicha tahlil qilingan. U mavzuning pedagogik-psixologik tomonlarini tadqiq qilishda, shaxsning qiziqishlari, iqtidori dars jarayonida inobatga olinishi, ularga individual yondashish, darsdan tashqari mashg'ulotlar, fan to'garaklariga jalb qilish, ko'rik-tanlov, sayohatlarni tez-tez uyushtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng miqyosda foydalanish, shuningdek, ta'lim turlarini qamrab oluvchi tizim bo'yicha tadqiq qilish kabi jihatlarga urg'u qaratish asosidagina ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning yuqori darajada samara berishiga erishish mumkin, deb hisoblaydi [3].

K.A.Sabirova esa, badiiy adabiyot faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy-irodaviy xususiyatlar va bilish jarayonlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi va his-tuyg'u, nutq madaniyati, kommunikativlik kabi xususiyatlarni shakllantirish vositasi ekanligini o'z izlanishlarida keng tahlil etgan. Shu bilan birga mazkur tadqiqotda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bilishga qiziqishini shakllantirish texnologiyasini amaliyotga joriy etish uchun yetakchi vosita sifatida bolalarning hamkorlikdagi faoliyati belgilab olindi. Hamkorlikdagi faoliyat turlari asosida loyihalangan mashg'ulot ishlanmalaridan "Sevimli kitoblar" mavzusidagi mashg'ulotlar jamlanmasi tayyorlandi. Muallif ushbu turkum mashg'ulotlarning vazifalari sifatida quyidagilarni ajratgan:

ta'limiy – tarbiyalanuvchilarning kitob haqidagi bilimlarini boyitish, ularni kitob o'qishga qiziqtirish;

tarbiyaviy – bolalarni kitobxonlikka o'rgatish, ularning jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rivojlantiruvchi – bolalar nutqini o‘stirish, ularning so‘z boyligini oshirishga qaratilgandir.

Bizning fikrimizcha, tadqiqotchi mashg‘ulotlarni loyihalashtirishda hamkorlikda o‘qitishning ta’lim jarayonidagi samaradorligini ko‘satish bilan birga amaliy faoliyatni aniq maqsad asosida tashkil etishni nazarda tutgan.

Tadqiqotda muammoga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish, suhbat, maxsus pedagogik-psixologik metodikalar, tajriba-sinov, matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so‘zlab berishni biladi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.


Ushbu bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishida bola uchun ta’limiy o‘yinlarning ahamiyati katta hisoblanadi.


O‘yin bolalar uchun qiziqarli tarzdagi o‘qitish shakli bo‘lib, bolalarning ta’lim dasturlarini samarali o‘zlashtirishini hamda maktabga yaxshi tayyorgarligini ta’minlaydi. O‘yinlar, asosan, bolalarning toliqtirmasdan o‘qitish, psixik va jismoniy salomatligini muhofaza qilish, xohish va istaklarini qo‘llab-quvvatlash, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yordam bedadi.

Maktabgacha yosh davri uchun tavsiya etilayotgan interfaol metodlar ularni badiiy asarlar bilan yaqindan tanishishga imkon beradi. Quyida maktabgacha yoshdagi katta guruhlar uchun tavsiya etilayotgan ayrim interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

“Intellekt karta” – namoyishlarni o‘tkazish, qaror qabul qilish, o‘z vaqtini rejalashtirish, katta miqdordagi ma’lumotlarni esda saqlash, aqliy hujumlarni o‘tkazish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, murakkab loyihalarni ishlab chiqish, mustaqil ta’lim, rivojlanish va shu kabi vazifalarni hal etishda ajoyib vosita bo‘lib xizmat qiladi. Intellekt-kartalarni darslarda qo‘llashga oid dastlabki tajribalar Toni Byuzen tomonidan amalga oshirilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3





Kubik metodi[4]

Kubik metodi interfaol ta’lim metodlaridan biri bo‘lib, u o‘zgaruvchan perspektivalar mavzuni o‘rganishni osonlashtiradi. Kubikning oltita tomonida o‘rganiluvchi muammoning muhokamasi uchun xizmat qiluvchi faoliyat yo‘nalishini ko‘rsatuvchi tushunchalar o‘z aksini topgan. Katta guruhlar uchun tavsiya etilgan “Badiiy adabiyot bilan tanishtirish” faoliyatida “Sabzi”, “Shaftoli”, “Bodom” haqidagi she’rlarni o‘rganish mashg‘ulotida ushbu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin.

“Kubik”ning oltita tomonida quyidagicha yozuvlar mavjud:

1.Tasvirlang. (Bularga shaftoli, bodom va sabziga diqqat bilang qarang, uni so‘z bilan izohlang.)

2.Taqqoslang. (Bular nimaga o‘xshaydi? Nimadan farqlanadi?)

3.Izohlang. (Bu mevalar sizni nimalar haqida o‘ylashga majbur etyapti? Xayolingizga erkinlik bering.)

4.Tahlil qiling. (Uning tarkibida nimalar bor?)

5. Qo‘llang. (Bulardan nimalar tayyorlanadi?)

6. Xulosalang. (Bu meva va sabzavotlar biz uchun kerakmi?)

Bu metod bir tushunchani olti tomondan yondashib muhokama qilishga undaydi va echimini topilishini tezlashtiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga mavzuni berib, kubik tuzish

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

joriyligidan boshlab beradi, belgilangan mavzu bo‘yicha erkin yozma ishga kirishish uchun qisqa vaqt (2-4minut) beradi.



Gugurt donalari yoki xascho‘plar[4]

Gugurt donalari yoki xascho‘plar metodi o‘rganilgan bilimlarni qay darajada egallanganligini aniqlash maqsadida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolarga o‘rganilgan asar mavzusining asosiy tayanch tushunchalarini ajratib olish va ularni izohlash, tahlil qilish, ta’riflashga yordam berish maqsadida foydalaniladi. Dastlab bolalarga ko‘plab xascho‘p donalari taqdim etiladi va xohlagancha tanlash tavsiya etiladi. Har bir bola tanlagan xascho‘p yoki gugurt donasi miqdoricha so‘z aytishi, mazmunini izohlashi kerak. Yoki tarbiyachi tomonidan asar mazmuniga doir so‘zlar aytilsa, bolalar esa mazkur tushunchalar mazmunini izohlashlari talab etiladi.



Zinama-zina texnologiyasi[5]

Texnologiya bolalarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib, fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish, ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya bolalar bilan bir guruh ichida yakka holda va guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi, taqdimot qilinadi. Ushbu metodning maqsadi bolalarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat. Tarbiyachi yordamida bolalar adabiyoti janri nomlarini quyidan yuqoriga qarab (hajmiga) joylashtira biladi (maqol, tez aytish, she’r, hikoya, ertak).

Badiiy adabiyot orqali bolaning dunyoqarashi kengayadi, nutqi va tafakkuri rivojlanadi, unda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash malakalari, shuningdek, eng muhimi bola shaxsi shakllantiriladi. Tarbiyachi tanlagan badiiy asarlar bolalarda tayanch (kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy (“Men” konsepsiyasini yaratish) va bilish) hamda rivojlanish sohasi (nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari) kompetensiyalarini shakllantirish bilan birga estetik, etik va ma’naviy-axloqiy rivojlantirish funksiyalarni ham bajaradi.

Bola faoliyati (o‘yin, mehnat, o‘qish)ning badiiy adabiyot bilan o‘zaro bog‘liqligi uning aqliy, axloqiy, ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi. Ta’lim va tarbiya jarayonida badiiy asarlardan foydalanishning uzviyligi va uzluksizligi tanishuv, adaptiv, badiiy matnni idrok etish, badiiy asar ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Refleksiya bosqichlarida tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati mazmuni vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda amalga oshadi. Tarbiyachilardan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

badiiy asarlar bilan tanishtirishni rejalashtirish pedagogik algoritmni ishlab chiqishni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Абдураҳимова Д. Халқ оғзаки ижоди намуналари воситасида мактабгача ёшдаги болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш тизимини такомиллаштириш. Пед. фан. док. Автореф., – Тошкент. 2020. – Б.6-74

2. Азизова З.Ф. Қўғирчоқ театри воситасида мактабгача катта ёшдаги болаларда ахлоқий-эстетик сифатларни шакллантириш: (PhD) дисс. Автореферати – Тошкент. 2020. –Б.48.

3. X.Qosimova. Oilada sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishda kitobxonlik madaniyatining ahamiyati. science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337. 142-148.b

4. Азизходжаева Н.Н Педагогик технолгия ва педагогик маҳорат

5. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги. Сариқ гул. Катта гуруҳлар учун таълимий, рангли безакли, бадиий асарлар тўплами. Тошкент. –“ Standart polygraph books” 2021 йил.- Б. 12-13

6. Ишмуҳаммедов Р., Абдуқодиров А. Таълимда инновацион технологиялар. Тошкент . Истеъдод.2008

7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. Pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik “Sano-standart” nashriyoti - Toshkent.: 2017. 416-b.

8. Maxmudova D.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning pedagogik mexanizmlari. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. https://doi.org/10.5281/zenodo.7214533.

9. Флерина Е. А. Изобразительное творчество детей дошкольного возраста. М.,Гос. уч. пед. изд-во Минпроса РСФСР, 1956.-е. 160

10. Grosheva I.V. va boshqalar. O‘yin orqali ta’lim olish. Metodik qo‘llanma. - Toshkent, 2020.

11. Водовозова Е.Н. Умственное и нравственное воспитание детей от первого проявления сознания до школьного возраста. СПб.,1901.-с. 319-322.

12. Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005. — 1136 с.

13. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии – Издательство: Питер, 2002 г., 720 стр.

14. Теплов Б. М. Проблемы индивидуальных различий. — М., 1961. (2-е изд. 1965) 140 стр.

15. И.Белинский В.Г., Чернышевский Н., Добролюбов Н.А. О детской литературе. М., Просвещение, - с. 8.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

16. Л.Н.Толстой. Болалик дунёси . 1996.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna**, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori (DSc), [**Хужамбердиева Шахноза Купайсиновна,** Профессор кафедры методики дошкольного и начального образования, Доктор педагогических наук (DSc)], [**Shahnoza K. Khuzhamberdiyeva**, Professor of the Department of Preschool and Primary Education Methodology, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)]; manzil: O'zbekiston, Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy, [адрес: Узбекистан, ул. Бабуршох, 161, г. Наманган], [address: Uzbekistan, 161, Bobursho st., Namangan city]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KOMPYUTER DASTURLARIDAN O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH

© M.X. Allambergenova[1]✉

[1] Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog'iston

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim sohasida keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuter dasturlaridan foydalanish bolalarning qiziqishini oshirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli vositalar orqali o'quv-tarbiya jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish imkoniyati mavjud.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi — maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayonida kompyuter dasturlaridan foydalanishning ahamiyatini aniqlash va ularning pedagogik jarayondagi o'rnini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kuzatuv, suhbat, amaliy tajriba va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia, interaktiv o'yinlar, animatsion dasturlar va ta'limiy platformalarning qo'llanishi o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, kompyuter dasturlari bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash, eslab qolish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interaktiv dasturlar orqali o'zlashtirish darajasi yuqorilaydi, bolalar faol ishtirok etadi va vizual materiallar ularning idrokini kuchaytiradi.

XULOSA: kompyuter dasturlaridan oqilona foydalanish maktabgacha ta'limda samarali natijalarga olib keladi. Tarbiyachilarning axborot texnologiyalaridan foydalana olishi ularning kasbiy salohiyatini oshiradi va o'quv-tarbiya jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, elektron resurslar, axborot texnologiyalar, elektron qo'llanmalar, multimedia dasturslar, o'quv metodik majmua.

Iqtibos uchun: Allambergenova M.X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuter dasturlaridan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish. // Inter education & global study. 2025, №6. B.36–43.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ПРОГРАММ В УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

© М.Х. Алламбергенова[1]✉

[1] Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: современные информационные технологии широко применяются в сфере образования. В частности, использование компьютерных программ в дошкольных образовательных учреждениях способствует повышению интереса детей, активизации их познавательной деятельности и улучшению качества образования. Цифровые средства позволяют сделать учебно-воспитательный процесс более интерактивным и эффективным.

ЦЕЛЬ: цель данной статьи — определить значение использования компьютерных программ в учебно-воспитательном процессе дошкольных образовательных учреждений и обосновать их роль в педагогическом процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были использованы методы наблюдения, беседы, практического эксперимента и сравнения. Изучалось применение мультимедийных средств, интерактивных игр, анимационных программ и образовательных платформ в учреждениях дошкольного образования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: практические наблюдения показали, что компьютерные программы повышают интерес детей к занятиям, развивают их самостоятельное мышление, память и коммуникативные навыки. Благодаря интерактивным программам повышается уровень усвоения знаний, дети активно участвуют в процессе, а визуальные материалы способствуют лучшему восприятию информации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: рациональное использование компьютерных программ в дошкольном образовании приводит к эффективным результатам. Умение воспитателей применять информационные технологии способствует повышению их профессиональной компетентности и делает учебно-воспитательный процесс более интересным и продуктивным.

Ключевые слова: дошкольное образование, электронные ресурсы, информационные технологии, электронные пособия, мультимедийные программы, учебно-методический комплекс.

Для цитирования: Алламбергенова М.Х. Использование компьютерных программ в учебно-воспитательном процессе дошкольных образовательных учреждений. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 36–43.

USE OF COMPUTER PROGRAMS IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF PRESCHOOL INSTITUTIONS

© M.Kh. Allambergenova[1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

INTRODUCTION: modern information technologies are widely used in the field of education. In particular, the use of computer programs in preschool educational institutions serves as an important factor in increasing children's interest, activating their cognitive activity, and improving the quality of education. Digital tools make it possible to organize the educational process in an interactive and effective manner.

AIM: the purpose of this article is to determine the importance of using computer programs in the educational process of preschool institutions and to substantiate their role in pedagogical practice.

MATERIALS AND METHODS: the research employed observation, interviews, practical experiments, and comparative methods. The use of multimedia, interactive games, animation software, and educational platforms in preschool institutions was studied.

DISCUSSION AND RESULTS: practical observations showed that computer programs increase children's interest in lessons, develop their independent thinking, memory, and communication skills. Through interactive programs, the level of knowledge acquisition increases, children participate more actively, and visual materials enhance their perception and understanding.

CONCLUSION: the rational use of computer programs in preschool education leads to effective outcomes. The ability of educators to use information technologies enhances their professional competence and makes the educational process more engaging and productive.

Key words: preschool education, electronic resources, information technologies, electronic manuals, multimedia programs, educational-methodical complex.

For citation: Allambergenova M.Kh. (2025) ‘Use of computer programs in the educational process of preschool institutions’, Inter education & global study, (6), pp. 36–43. (In Uzbek).

Butun dunyoda ta’limiy komp’yuter dasturlarini yaratish va o‘quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish tobora keng tarqalmoqda. Komp’yuter dasturlaridan o‘quv-tarbiya jarayonida foydalanishdan maqsad asosan mustaqil ta’lim olishga qaratilgan. Bu dasturlarni murakkablashtirish, ularga sun’iy intellekt metodlarni singdirish, shuningdek, turli axborot texnologiyalaridan foydalanish birinchi navbatda ta’lim oluvchilarning shaxsini, ularning qobiliyatini rivojlantirishga, shuningdek, yoshlarni yangi bilim va malakalar bilan qurollantirishga imkoniyat yaratadi. Lekin shunga qaramay, yaratilgan komp’yuter dasturlarida, asosan ularning juda ko‘pchiligini murakkab masalalarni maqsadga muvofiq ravishda o‘rgatishda etarli darajada deb, bo‘lmaydi.

Xorijiy davlatlardan o‘rganilgan tajribalar professor-o‘qituvchilardan eskicha o‘qitishdan voz kechishni, zamonaviy pedagogik texnologiyani o‘rganish va o‘quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etishni talab qilmoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ta’lim jarayonining tarbiyaviy yo‘nalganligi tamoyili ta’lim olish jarayonida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda odob-axloq asoslari va komil inson fazilatlarini shakllantirish uchun eng qulay sharoit yaratish zarurligini ifodalaydi.

Ta’lim va tarbiya birligi tamoyili o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantiradigan ilg‘or g‘oyalarni tavsiflash, tabiat va jamiyatda yuz berayotgan hodisalarning sababini aniqlash, ziddiyatlarni tahlil qilish, bilimlardagi mutloqlik va insoniylikni elektron o‘quv adabiyotlarida ifodalash jarayonida bilinadi.

Uzluksiz ta’limning birinchi bug’uni maktabgacha ta’lim uchun elektron o‘quv resurslarini yaratishda amal qilinishi zarur bo‘lgan talablar ichida eng muhimi ham tarbiyalanuvchilarning dunyoqarashini shakllantirish hisoblanadi. Maktabgacha ta’limda elektron ta’lim resurslardan foydalanishdagi asosiy yondoshuv har bir sohalar yuzasidan muayyan bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, hozirgi zamon talablari esa tarbiyalanuvchilarda dastlabki tushuncha va bilim berish bilan bir qatorda uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishni, tarbiyalanuvchilar ongiga milliy g‘oya va milliy mafkurani singdirishni taqozo etadi. Mazkur talab shaxsini shakllantirish, ta’limni insonparvarlashtirish vazifalarini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, kompyuter dasturlarini tayyorlashda uning mazmunini belgilashda faqat ilmiy tushunchalar tizimini emas, tarbiyalanuvchilar dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradigan g‘oyalarni ham inobatga olish lozim.

Tajribalardan ma’lumki, o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarning psixologik xususiyatlariga muvofiq ish olib borilsa, ular bilimlarini yaxshi o‘zlashtiradilar. tarbiyalanuvchilar ta’lim tashkilotlarida o‘zini erkin his etsin, bilimlarni o‘zlashtirishga ishonsin, o‘zini mustaqil boshqara olsin. Agar tarbiyalanuvchi tushunchalarni o‘zlashtirishda qiynalsa, unda o‘rganishga nisbatan qiziqish susayadi, qolaversa o‘rganishga salbiy munosabat vujudga keladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari

- bolalarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;
- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta’minlash;
- bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang‘ich ta’limga tayyorligini ta’minlash;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

Ta’limning hammabopligi tamoyili elektron ta’lim resurslari o‘quvchilarning rivojlanish darajalariga, avvalgi ta’limiy tayyorgarliklariga va hayot tajribalariga mos bo‘lishi lozim.

Ta’limning muntazamligi tamoyili elektron ta’lim resurslari vositalarida ilmiy dalillar, farazlar, nazariyalar, ta’riflar ma’lum mantiqiy tizimda izchil bayon qilinishini taqozo etadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kompyuterli ta’lim dasturlaridan biri «multimedia elektron qo‘llanma»lardir. Ushbu vosita yordamida o‘rganuvchi kompyuter bilan muloqot qilib, o‘quv materialini o‘ziga mos sur’atda, o‘zini qiziqtirgan muammolarni keraklicha takrorlash asosida o‘rganish imkoniyatiga ega.

Elektron o‘quv qo‘llanmalarning asosiy vazifasi individual holatda yoki o‘rgatuvchining qisman uslubiy yordami asosida ma’lum o‘quv predmeti sohasidagi va ma’lum hajmdagi yangi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlashdan iborat. Bunday qo‘llanmalarning asosini elektron formatdagi multimedik o‘quv materiali tashkil etadi. Elektron o‘quv materiali ma’lum o‘quv kursi yoki uning bo‘lagini o‘rganish uchun mo‘ljallangan matnli, ko‘rgazmali, tovushli, videolavhali, shuningdek, ularning barchasini mujassamlashtirgan fayl shaklidagi o‘quv materialidan iborat.

Bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish tamoyili bilim va ko‘nikmalarni egallashning nechog‘lik zarurligi, bu bilim va ko‘nikmalarning hayot uchun foydasini, ahamiyatini o‘quvchilar tushunishini taqozo etadi.

Mustaqillik tamoyili berilgan materialni o‘zlashtirish uchun o‘quvchilar uni mustaqil tahlil qilishlari va umumlashtirishlari, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy vazifalarni bajarishda foydalanishlari lozim.

Tezkorlik tamoyili elektron ta’lim resurs vositalarilarida beriladigan nazariy va amaliy bilimlar - tushuncha, dalil, ta’riflar, mashq va misollar o‘quvchilar tomonidan osonlikcha va tez o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

O‘qitish ba’zan faktlarni kuzatishdan boshlanishini, keyin esa, xususiydan umumiyga, aniqdan mavhumga o‘tishni, boshqa hollarda esa mavhumdan muayyanga o‘tish tarzida amalga oshirilishini taqozo etadi, bu aniq va mavhumning birligi yoki ko‘rsatmalilik tamoyilida aks etadi.

Elektron o‘quv materiali ko‘rsatmalilikka va hodisalar taraqqiuotining ichki mantiqiuligiga asoslangan bo‘lishi kerak. Tarbiyalanuvchilarda to‘g‘ri tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga uordam beruvchi zarur suratlar, sxemalar, chizmalar bo‘lishi lozim, u ko‘rsatmalik tamouiliga asoslanadi.

Elektron o‘quv materiallarda eng muhim masalalarni aniq ajratib berish, ularni mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish hajmini imkon qadar kamaytirish bilimlarni puxta egallash tamoyilida aks etadi. Тарбияланувчилар bilimlarni puxta egallashlari uchun elektron ta’lim resurs vositalarida mexanik tarzda eslab qolishga emas, faol fikrlashga, olingan bilimlarning ma’nosini uqib olishga qaratilgan topshiriqlar bo‘lishi lozim.

Demak tarbiyalanuvchi nafaqat bilim va ko`nikmalarni egallashi balki kompetentli shaxs bo`lib voyaga etishi kerak. Aynan ushbu maqsadga erishishni nazarda tutib tarbiyalanuvchilar uchun o`quv metodik majmua shaklidagi ta`limiy o`qitish vositasi zarur deb hisoblaymiz va qo`yidagicha o`zimizning majmuamizni taklif etamiz.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



Tarbiyalanuvchilar uchun ularning ma`naviy va ma`rifiy tushunchalarni rivojlantirishda albatda ertaklarning o`rni behiyosdir. Biz bolalar uchun ertaklar majmuasini yaratdik. Bunda ular ovozli va grafikali shaklda ertaklarni tinglash va ularni tarbiyachi yordamida muhokama qilib tahlil etish va xulosaga kelish imkoniyatlariga ega bo`ladi[3].

Bilimlarni egallash va tarbiyalanuvchilarni har tomonlama kamol toptirish jarayonlari orasida uzluksiz aloqa o‘rnatilishi lozim. Binobarin, bilimlar shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun ilmiy asos bo‘lsa, shaxsning rivojlanish darajasi bilimlarni muvaffaqiyatli egallash uchun asos bo‘ladi. Shu bois, multimediali ta’lim resurs vositalarida bilimlar tizimi talabalarning rivojlanishini hisobga olgan holda oldinlab borishi, ularni ijodiy faoliyatga undashi lozim bo‘ladi, u rivojlantiruvchi ta’lim tamoyilida o‘z ifodasini topadi.

Tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun multimediali ta’lim vositalari muammoli ta’limga xos amaliy mashqlar kiritilishi kerak. Mazkur mashqlar bilimlarni yangi sharoitga ko‘chirish, tanish vaziyatdan yangi muammoni ilg‘ab olish, faoliyatning ma’lum metodlarini yangisi bilan mustaqil almashtirish, muqobil idrok qilishi sari qaratilishi zarur. Shu bilan bir qatorda tarbiyalanuvchilar multimedia ta’lim vositalarida berilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarga erishish yo‘llarini erkin tanlashi, ularga chanqoq bo‘lishi, istak-xohishiga ko‘ra o‘z vaqtida nazoratga intilishi lozim bo‘ladi, ular ta’limning erkinlik tamoyilida o‘z aksini topadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir deb “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturida belgilab berilgan. Demak tarbiyalanuvchi nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallashi balki kompetentli shaxs bo‘lib voyaga yetishi belgilab berilgan. Aynan ushbu maqsadga erishishni nazarda tutib tarbiyalanuvchilar uchun o‘quv metodik majmua shaklidagi ta’limiy o‘qitish vositasi zarur deb hisoblaymiz va qo‘yidagicha o‘zimizning kompyuterli dasturimizni taklif etamiz.


ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



Tarbiyalanuvchilar uchun ularning ma’naviy va ma’rifiy tushunchalarni rivojlantirishda albatda ertaklarning o‘rni behiyosdir. Biz bolalar uchun ertaklar majmuasini yaratdik. Bunda ular ovozli va grafikali shaklda ertaklarni tinglash va ularni tarbiyachi yordamida muhokama qilib tahlil etish va xulosaga kelish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.







Bul kompyuterli dasturimiz milliy qadriyatimiz bo’lgan ertaklarni o’rganish uchun tayyorlangan. Bunday kompyutrli multimediali dasturlarimniz bolajonlarimizda katda qiziqish uyg’otari aniq.

Xalqimizda yaxshi maqol bor : «Ertaklar yaxshilikga yetaklar». Ushbu g‘oya asosida bolajonlarimizga milliy qadriyatlarimizni o‘rgatish, urf-odatlarimiz, insoniylik fazilatlarimizni singdirib, zamonaviy usulda dars berish orqali ma’naviy tarbiya bera olsak, kelajakda mehribon va insonparvar yoshlarni tarbiyalagan bo‘lamiz.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. “Ilk qadam” Maktabgacha ta`lim muassasasining Davlat o`quv dasturi. T. 2018 y.
2. A.A.Abdukodirov, N.H.Begmatova. Maktabgachha ta`lim muassasalarida mul`timedia texnologiyalaridan foydalanish uslubiyoti. Qarchi «Nafis nashriyoti» 2011 y.
3. Allambergenova, M., Adilbekova, S. (2025). Use of cloud technology in organizing independent education. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(2), 826-830.
4. Allambergenova, M., Adilbekova, S. (2024). Informatika sabaqlarin oqitiwda bultli texnologiyaniń paydalaniw. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(14), 160-163.
5. Juginisova, J. I. (2025). USING SOFTWARE TOOLS IN TEACHING CHILDREN OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(1), 170-173.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Allambergenova M.X.,** pedagogika fanlari doktori, [**Алламбергенова М.Х.,** доктор педагогических наук], [**Allambergenova M.Kh.,** Doctor of Pedagogical Sciences]. manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARI ORQALI LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

© S.S. Tajbenova[1]✉

[1] Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang‘ich la‘lim bosqichida ona tili darslari orqali o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada lingvistik kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, shakllantirish usullari va O‘zbekiston ta‘lim tizimidagi zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Ilmiy-nazariy asoslar bilan bir qatorda, amaliyotda samarali deb topilgan metodlar ham keltirilgan.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili darslari orqali lingvistik kompetensiyani shakllantirishning samarali pedagogik asoslarini aniqlash va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni asoslab berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda kuzatuv, amaliy tahlil, taqqoslash va pedagogik eksperiment metodlaridan foydalanildi. O‘quvchilarning til qoidalarini o‘zlashtirishi, nutq faoliyatida ularni qo‘llay bilishi va mustaqil fikr bildirish holatlari o‘rganildi. Darslarda qo‘llanilgan usullar (muammoli vaziyat, rolli o‘yin, muloqotli topshiriqlar) samaradorligi tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ona tili darslarida faol, interaktiv yondashuvlar orqali o‘quvchilarda fonetik, leksik, grammatik va stilistik bilimlar barqaror shakllanadi. Lingvistik kompetensiya nafaqat til qoidalarini bilish, balki ularni muloqotda to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llay olish ko‘nikmalarini ham qamrab oladi. Yoshlarga mos metodlardan foydalanish o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda ijobiy natija beradi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich maktablarda ona tili darslari orqali lingvistik kompetensiyani shakllantirish O‘zbekistonning la‘lim qiyofasini ifodalovchi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u kelgusi avlodning nutqi, tafakkuri, ma‘naviyati madaniyatiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, boshlang‘ich ta’lim, lingvistik kompetensiya, pedagogik yondashuv, nutq faoliyati, metodika, til o‘rgatish.

Iqtibos uchun: Tajbenova S.S. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslari orqali lingvistik kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari. // Inter education & global study. 2025, №6. B.44–52.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ЧЕРЕЗ УРОКИ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

© С.С. Таджбенов [1]✉
[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются вопросы формирования лингвистической компетентности у учащихся на этапе начального образования через уроки родного языка. Проанализированы понятие лингвистической компетентности, её составные части, методы формирования, а также современные подходы, применяемые в системе образования Узбекистана. Наряду с теоретическими основами представлены и практические методы, признанные эффективными в педагогической практике.

ЦЕЛЬ: целью настоящей статьи является выявление эффективных педагогических основ формирования лингвистической компетентности у учащихся начальных классов через уроки родного языка, а также обоснование методических подходов, способствующих её развитию.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании применялись методы наблюдения, практического анализа, сопоставления и педагогического эксперимента. Изучалось усвоение учениками языковых норм, применение этих знаний в речевой деятельности и способность формулировать самостоятельные мысли. Была проанализирована эффективность используемых на уроках методов, таких как проблемные ситуации, ролевые игры и коммуникативные задания.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что активные и интерактивные методы преподавания на уроках родного языка способствуют устойчивому формированию у учащихся фонетических, лексических, грамматических и стилистических знаний. Лингвистическая компетентность охватывает не только знание языковых правил, но и умение правильно и уместно применять их в коммуникации. Использование методов, соответствующих возрастным особенностям, положительно влияет на формирование речевой культуры учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что формирование лингвистической компетентности через уроки родного языка в начальной школе является одним из важнейших направлений, отражающих образовательную политику Узбекистана. Это направление служит развитию речи, мышления и духовно-нравственной культуры будущего поколения.

Ключевые слова: родной язык, начальное образование, лингвистическая компетентность, педагогический подход, речевая деятельность, методика, обучение языку.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Для цитирования: Таджбенова С.С. Педагогические основы формирования лингвистической компетентности через уроки родного языка в начальных классах. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 44–52.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING LINGUISTIC COMPETENCE THROUGH MOTHER TONGUE LESSONS IN PRIMARY GRADES

© Saule S. Tajbenova[1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the issues of developing linguistic competence in students at the primary education stage through mother tongue lessons. It analyzes the concept of linguistic competence, its structural components, methods of formation, and modern approaches within the education system of Uzbekistan. In addition to theoretical foundations, the article also presents practical methods that have proven effective in educational practice.

AIM: the aim of this article is to identify effective pedagogical foundations for developing linguistic competence in primary school students through mother tongue lessons, and to substantiate methodological approaches that contribute to its advancement.

MATERIALS AND METHODS: the research employed methods of observation, practical analysis, comparison, and pedagogical experimentation. It examined how students assimilate language rules, apply them in speech activities, and express independent thoughts. The effectiveness of teaching methods such as problem-based situations, role-playing, and communicative tasks was analyzed.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis revealed that active and interactive teaching methods in mother tongue lessons lead to the stable development of phonetic, lexical, grammatical, and stylistic knowledge in students. Linguistic competence involves not only knowing language rules but also the ability to use them correctly and appropriately in communication. The use of age-appropriate methods contributes positively to the development of students' speech culture.

CONCLUSION: in conclusion, the development of linguistic competence through mother tongue lessons in primary schools is one of the key directions reflecting Uzbekistan's educational identity. This direction supports the growth of students' speech, thinking, and moral-spiritual culture as future citizens.

Key words: mother tongue, primary education, linguistic competence, pedagogical approach, speech activity, methodology, language teaching.

For citation: Saule S. Tajbenova. (2025) 'Pedagogical foundations for developing linguistic competence through mother tongue lessons in primary grades', Inter education & global study, (6), pp. 44–52. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

O‘zbekiston Respublikasida la‘lim sohasida amalga oshirilayotgan isloholar zamirida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularda muloqot qilish, fikrlash va o‘ziga xos ifoda etish qobiliyalarini shakllantirish turibdi. Zero, 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan la‘limni rivojlantirish strategiyasida la‘lim mazmunini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarning funktsional savodxonligini, jumladan til kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [1].

Boshlang‘ich la‘lim bosqichida ona tili darslari orqali o‘quvchining nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish uning kelgusidagi la‘limiy va ijtimoiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga, nutqiy muloqot madaniyati (tilak bildirish, fikr almashish, bir-biriga aytiladigan samimiy munosabat ifodalaridan foydalanish kabi komponenlari izchil egallashiga mustahkam poydevor yaratadigan asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Masalan, 1-sinf ona tili darslarida bolalar “Ovoz va harf” mavzusida bolalar tovushlarni ajratish va talaffuz qilishni o‘rganish orqali fonetik kompetensiya asoslarini o‘zlashtiradilar. 3-sinfda “Qiyoslash, dalillash” kabi mavzularda matn ustidagi tahliliy ishlar orqali leksik va grammatik kompetensiyalar, ular asosida kommunikativ kompetensiya egallanadi.

O‘quv-tarbiyaviy jarayonda qo‘llanilayotgan interaktiv usullarga xos – “Blits-savollar”, “Kim tez?”, “Juflikda ishlaymiz” kabi mashg‘ulolar bolalarning nutqiy faolligi, izchil fikr yuritish va o‘z fikrini erkin ifoda etish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Shuningdek, O‘zbekistondagi milliy darsliklar va “Bilim.uz”, “Maktab.uz” kabi elektron platformalarda ona tiliga oid topshiriqlar iqlim, turmush tarzi, milliy qadriyalarni inobatga olgan holda shakllantirilganki, ular bolalarning lingvistik bilimini hayotiy misollar orqali boyitish imkonini yaratadi.

Taniqli tilshunos V. G. Kostomarov la‘kidlaganidek, *“Lingvistik kompetensiya – bu insonning tilning tuzilishi va qoidalarini bilishi, uni nutqda to‘g‘ri va maqsadli qo‘llash qobiliyatidir”* [3]. Ushbu la‘rif, ayniqsa, bolalarda an`anaviy va raqamli muhitda nutq shakllanishining uyg‘un tarzda rivojlanishini ko‘zda tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinflardagi ona tili darslari nafaqat tilni o‘rgatish, balki bolalarda muloqot madaniyati, kritik fikrlash va mutolaa ko‘nikmalarini ham shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

1.Lingvistik kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.

Lingvistik kompetensiya – bu insonning grammatik, orfoepik, orfografik, leksik va stilistik bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, ularni turli nutqiy vaziyalarda samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Ushbu bilim va ko‘nikmalar jamoa orasida to‘laqonli muloqot qilish, o‘z fikrini aniq, ravon va madaniyali tarzda ifoda etish, hamda atrof-muhit bilan bog‘lanishning asosiy poydevori hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi la‘lim standarlariga muvofiq, lingvistik kompetensiyani shakllantirish nafaqat til darslarining, balki boshqa o‘quv fanlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan 2022 yilgi ona tili darsliklarida ushbu yo‘nalishga alohida e`tibor qaratilgan [4].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismlari:

Fonetik kompetensiya – tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va og‘zaki nutqda to‘g‘ri intonatsiyani saqlash.

Misol: 1-sinfdagi “Undosh va unli tovushlar”, “Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar” mavzularida o‘quvchilar tovushlarni farqlashni, talaffuzda to‘g‘ri urg‘u qo‘yishni o‘rganadilar. Ushbu bilim va ko‘nikmalar bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, “qush” so‘zidagi «q» va “gul” so‘zidagi «g» tovushlarining farqini eshitib va talaffuz qilib anglash.

Leksik kompetensiya – so‘z boyligini oshirib borish, so‘zlarni to‘g‘ri va faol qo‘llash qobiliyati.

Misol: 2-sinfda “Sinonimlar va antonimlar” mavzusi o‘quvchilarni so‘z mla‘nolariga e’tibor bilan qarash, ularni chuqurroq anglashga odalantiradi. Masalan, “katta” so‘zining sinonimi “ulkan”, antonimi “kichik” so‘zlari ekanini bilish asosida bolalar shu kabi sinonim va antonimlarni misol keltira boshlaydilar, ulardan nutqda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakasini hosil qiladilar, turli vaziyalarda so‘z tanlash ko‘nikmasini egallaydilar.

Grammatik kompetensiya – morfologik shakllar va sintaksik tuzilishlarni bilish.

Misol: 3-sinfda “Fe`lning zamonlari” mavzusida o‘quvchilar gapda fe`llarning shaklini vaziyatga mos tanlashni o‘rganadilar. Masalan, “Men kitob o‘qiyapman” (hozirgi zamon), “Men kecha kitob o‘qidim” (o‘tgan zamon), “Men ertaga kitob o‘qiyman” (kelasi zamon) kabi gaplar orqali grammatik ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Orfografik kompetensiya – imlo qoidalariga amal qilish, so‘zlarni yozishda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik.

Misol: 4-sinfda “Birikma va jumlada so‘zlarni to‘g‘ri yozish” mavzusida o‘quvchilar “ko‘p, ko‘pincha, ko‘pchilik” kabi o‘xshash so‘zlarni to‘g‘ri yozish va ularni jumlada qo‘llashni o‘rganadilar. Maktablarda “Imlo diktanlari” shu maqsadda joriy etilgan bo‘lib, bu bolalarning orfografik ko‘nikmasini mustahkamlaydi.

Stilistik kompetensiya – nutqiy vaziyatga muvofiq til vositalarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash.

Misol: 4-sinfdagi “Maktub yozish” mavzusida rasmiy va norasmiy uslubda gapirish, yozish ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Masalan, do‘stga yozilgan maktubda: “Salom do‘stim! Qaleysan?”, rasmiy maktubda esa: “Hurmali ustoz, Sizga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman” tarzida yoziladi. Bu stilistik farqni anglash bolalarning muloqot madaniyatida muhim rol o‘ynaydi [5].

Xalqaro tilshunos N. Xomskiy la‘kidlaganidek, *“Lingvistik kompetensiya insonning tillararo ichki bilimlar majmuasini aks ettiradi va bu bilimlar nutqda namoyon bo‘ladi”* [2]. Bu fikr O‘zbekiston la‘lim tizimi uchun ham taalluqli hisoblanadi, chunki o‘quvchida tilga doir bilimlarini hayotda samarali qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish mamlakatning la‘lim strategiyasidagi ustuvor maqsadlardan biridir.

2.Boshlang‘ich sinflarda lingvistik kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2.1. Didaktik tamoyillar

Boshlang‘ich sinflarda lingvistik kompetensiyani samarali shakllantirish uchun quyidagi didaktik tamoyillarga tayanish zarur:

Ongli va faol o‘rganish tamoyili: o‘quvchi bilimni faol tarzda o‘zlashtirishi, so‘z mla‘nosini va jumlalar mazmunini anglab, ongli ravishda qo‘llashi zarur. Misol: "Ismingning mla‘nosini bilasanmi?" mavzusidagi mashg‘ulotda o‘quvchi o‘z so‘z zahirasidan foydalangan holda fikr yuritadi.

Nutqiy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv: darsda o‘quvchilarni tilga doir bilimlarni nutqda qo‘llash, ya’ni gapirganda, savol berganda, savolga javob qaytarganda shu yangi o‘rganilgan bilimlardan foydalanish, erkin fikr yuritishga undash kerak.

Misol: 2-sinfdagi “Mening oilam” mavzusida har bir o‘quvchi o‘z oila la‘zolari haqida 2-3 gapdan iborat qisqa hikoya tuzib, og‘zaki ravishda so‘zlab beradi.

Bolaning individual salohiyatini inobatga olish: har bir o‘quvchining nutqiy rivojlanish darajasi, yosh xususiyalari va bilimlarni o‘zlashtirishdagi o‘ziga xos usullarini hisobga olish.

Misol: tortinchoq bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus "jonlantiruvchi savollar" orqali ularni darsda, xususan, nutqiy mashqlarda faolroq ishtirok etishga undash amaliyoti qo‘llanadi.

Mavzu va mashg‘ulotning hayot bilan bog‘liqligi: o‘quvchilar uchun tanlanadigan mavzular ularning kundalik hayotiga yaqin bo‘lishi dars samaradorligini oshiradi. Misol: “Mening maktabim” mavzusida maktab binosi, sinfxona, do‘slar haqida gapirish orqali so‘z boyligi va nutqiy qobiliyat rivojlantiriladi.

2.2. O‘qitishdagi zamonaviy usullar

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan la‘lim isloholari doirasida lingvistik kompetensiyani shakllantirishda quyidagi zamonaviy pedagogik usullar samarali deb topilmoqda:

Modulli o‘qitish: har bir modulda leksik-grammatik bilimlar bilan birga amaliy nutqiy ko‘nikmalar ham shakllantiriladi.

Misol: 3-sinfda “Fe`l” modulida avval so‘z tuzilishi, keyin uni gapda qo‘llash, so‘ng esa dialog yoki hikoya tuzish orqali bilim mustahkamlanadi.

Interaktiv usullar: jonli muloqot, guruhli ishlar, dialog tuzish, rolli o‘yinlar bolalarni nutqiy faollikka olib keladi. Misol: “Kim nima demoqchi?” o‘yinida o‘qituvchi bir vaziyatni tasvirlaydi, bolalar esa o‘z fikrlarini ifoda etish uchun gaplar tuzadilar.

Loyihaviy ish usuli: o‘quvchilarga kichik-kichik hikoyalar, she`rlar, maktublar yozish kabi mo‘jaz ijodiy topshiriqlar berish orqali ular mustaqil fikr yuritishni o‘rganadilar. Misol: “Mening orzuyimdagi uy” mavzusida rasm chizish va shu chizilgan uy haqida qisqacha matn tuzish.

2.3. O‘zbekistondagi amaliy tajribalar

O‘zbekiston Respublikasida lingvistik kompetensiyani shakllantirishda safi kengaytirilag hamda foydalanish ko‘lami oshirilgan quyidagi amaliy vositalar qo‘llaniladi:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Milliy darsliklar va metodik qo‘llanmalar – ularda mahalliy madaniy qadriyalar, turmush tarziga mos topshiriq va matnlar joy olgan [7]. Misol: “Mehmonga bordik” yoki “Navro‘z bayrami” mavzusidagi matnlar bolalarning dunyoqarashini kengaytirib, tanish tushunchalar asosida faol nutqiy munosabatni yuzaga chiqarish imkonini beradi..

Elektron la‘lim platformalari – O‘qituvchi “Bilim.uz”, “Maktab.uz”, “eduportal.uz” kabi saylar orqali interaktiv matnlar, videodarslar va teslardan foydalanish imkoniyatiga ega [8].

Misol: “To‘g‘ri yo notovri?” interaktiv teslari yoki “Nutqingni to‘g‘rilash” videolari.

STEAM (Texnologiya + Til) integratsiyasi – zamonaviy yondashuv sifatida til fani boshqa fanlar bilan bog‘lanadi.

Misol: “Hayvonlar haqidagi hikoya”ni yaratishda o‘quvchi biologiyadan olgan bilimini qo‘llab, ona tilida tavsifli matn tuzadi.

Tashabbuslar asosidagi loyihalar – hududiy la‘lim boshqarmalari va maktab mla‘muriyalari tomonidan tashkil etilayotgan “Ona tili oyliklari”, “Bilimdon bola” kabi tanlovlar bolalarni ijodkorlikka undaydi.

3. Tahliliy xulosa va takliflar

3.1. Muammolar

Boshlang‘ich la‘limda ona tili darslari orqali lingvistik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni tahlil qilish va yechimlarini aniqlash pedagogik faoliyatni takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega:

Ona tili darslarida foydalaniladigan texnik vositalarning yetishmasligi

Qishloq maktablarining ko‘pchiligida proyektor, elektron doska, noutbuk kabi uskunalar yetarli emas. Bu esa interaktiv darslarni tashkil etish imkoniyatini cheklaydi. Masalan, “So‘z va mla‘no” mavzusidagi darsda interaktiv tafovut topish o‘yinini videola‘lim orqali tashkil etish imkoni bo‘lmagan maktablarda dars an`anaviy uslubda olib boriladi, bu esa bolalarning qiziqishini pasaytiradi.

Ayrim o‘qituvchilarning zamonaviy metodikalarni yaxshi o‘zlashtirmaganligi. Aksariyat tajribali o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalar – klaster, intellekt-karta, STEAM usuli kabilarni to‘liq o‘zlashtirmagan. Bu esa ularning nutqiy faollikni yuzaga chiqaruvchi mashg‘ulolar o‘tkazish qobiliyatini cheklaydi. Bla‘zi maktablarda dialogik nutqni rivojlantirishga emas, grammatik qoidalarni mexanik ravishda o‘zlashtirishga e`tibor qaratiladi.

Darsliklar va resurslar bilan la‘minlanishdagi kamchiliklar. Bla‘zi hududlarda boshlang‘ich sinflarga mo‘ljallangan darsliklar yetishmasligi yoki ularning sifat jihatdan zamon talablariga javob bermasligi kuzatiladi. Shuningdek, bolalarga mo‘ljallangan elektron lug‘alar, multimeimediyali matnlar, ovozli mashqlar kabi resurslar yetarli emas.

3.2. Takliflar

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun maxsus treninglar va metodik qo‘llanmalar yaratish.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

O‘qituvchilarni interaktiv metodlar, STEAM, kritik fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar, raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha muntazam qayta tayyorlash kurslariga jalb etish kerak.
Misol: Respublika la‘lim markazi va hududiy metodik xizmalar tomonidan “Lingvistik kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy usullari” mavzusida onlayn vebinarlar tashkil etilishi mumkin.

Interaktiv resurslar (mobil ilovalar, video-darslar) orqali til ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan mobil ilovalar – “So‘z o‘yinlari”, “To‘g‘ri yoz”, “Gap tuz” kabi o‘yin va mashqlar bolalarning so‘z boyligi va orfografik savodxonligini oshirishga yordam beradi.

Misol: “Bilim.uz” saytida maxsus bo‘lim yaratilib, “Ona tili – bilim kaliti” nomli videodarslar silsilasi joylashtirilishi mumkin.

Bolalarga mo‘ljallangan lug‘alar va multimediyali materiallarni ko‘paytirish.

Yosh bolalar uchun rangli illyustratsiyali lug‘alar, nutqiy vaziyalarga mos kartinka-kartoteka, QR-kodli mashqlarni joriy etish maqsadga muvofiq.

Misol: “Mening birinchi lug‘atim” nomli lug‘at-albom yaratilib, so‘zlar bilan birga talaffuz va ishlatilishiga oid misollar ham kiritilishi mumkin.

Xulosa

Boshlang‘ich la‘limda ona tili darslari lingvistik kompetensiyani shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib, uning natijalari faqatgina til bilimlarini o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmaydi, balki o‘quvchining shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ham bevosita la‘sir etadi.

O‘zbekiston Respublikasida la‘lim sohasida amalga oshirilayotgan sifrovizatsiya, la‘lim mazmunini yangilash, kompetensiyaga asoslangan yondashuv kabi isloholar fonida lingvistik kompetensiyani shakllantirish vazifasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bolalarning tilni to‘g‘ri va la‘sirchan qo‘llash qobiliyati ularning boshqa fanlarni o‘zlashtirishida, jamoaviy ishlarda, ijtimoiy faollikda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Masalan, 4-sinfda “Qahramonga xat yozish” mavzusida tashkil etilgan ijodiy mashg‘ulotda bolalar nafaqat sintaksis va orfografiya bo‘yicha bilimlarini ishga soladilar, balki empatiya, his-tuyg‘u, fikrni mantiqan ifoda etish qobiliyalarini ham namoyon qiladilar. Bu esa lingvistik kompetensiyaning shaxsiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, zamonaviy didaktik yondashuvlar – interaktiv metodlar, modulli o‘qitish, loyihaviy ish, raqamli texnologiyalar – bolalarning faol ishtirokini rag‘balantirib, lingvistik qobiliyalarini mantiqiy va tizimli shaklda rivojlantiradi. Jumladan, “Maktab.uz” yoki “Eduportal.uz” platformalaridagi interaktiv mashqlar orqali o‘quvchilar so‘z mla‘nolarini yaxshi anglaydilar, grammatik tuzilishlarni muloqotda faol qo‘llaydilar.

Shu asosda, quyidagi umumiy xulosalarni keltirish mumkin:

Lingvistik kompetensiyani shakllantirish – faqat til o‘rgatish emas, balki shaxsni tarbiyalash, ijtimoiylashtirish va ijodiy salohiyatni ochish jarayonidir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ona tili darslari – boshlang‘ich la‘limdagi muloqot madaniyati va fikrlash asoslarini shakllantiruvchi markaziy fan sifatida xizmat qiladi [6].

O‘qituvchi, metodika va la‘lim muhiti o‘rtasidagi uyg‘unlik lingvistik rivojlanishning asosiy kafolatidir.

Davlat siyosatida belgilangan milliy ta‘lim strategiyalarida lingvistik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan yechimlar – la‘lim mazmuni, resurslar va kadrlar salohiyati orqali amalga oshirilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6108-сон Фармони. 2020–2030 йилларда Ўзбекистон Республикасида таълимни ривожлантириш стратегияси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ахборот хизмати, 2020. – 15 б.
2. Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – 251 p.
3. Костомаров, В. Г. Язык и культура: лингвистические исследования. – Москва: Наука, 1997. – 336 с.
4. Қодиров, А. Бошланғич синфларда она тили дарсларининг методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2022. – 240 б.
5. Каримова, Г. Лингвистик компетенция ва уни шакллантириш усуллари. – Тошкент: Илм-Зиё, 2021. – 198 б.
6. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
7. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Она тили фани дарслик ва методик қўлланмалари тўплами. – Тошкент: Фан, 2022. – 120 б.
8. “Bilim.uz”, “Maktab.uz”, “Eduportal.uz” – электрон таълим платформалари (расмий таълим порталлари, 2021–2024 йиллар). – Режим доступа: https://bilim.uz, https://maktab.uz, https://eduportal.uz

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tajbenova Saule Sarsengaliyevna**, Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent, [**Таджбенова Сауле Сарсенгалиевна,** кафедра методики начального образования, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент], [**Saule S. Tajbenova**, Department of Primary Education Methodology, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street] +998913785566, tajbenova.saule@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

“BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANI” DARSLARIDA INTERAKTIV METODLAR ORQALI TALABALARDA FAMILISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

© N.M. Nagmetova[1]✉

[1] Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar tarbiyasida familistik madaniyatini shakllantirish bayon etilgan. Interaktiv metodlardan – rolli o‘yinlar, debat va vaziyatli tahlil kabi yondashuvlar orqali talabalarda familistik madaniyati rivojlantirilgan.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi — “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya” fani darslarida interaktiv metodlardan foydalangan holda talabalarda familistik (oilaviy qadriyatlar asosidagi) madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida kuzatuv, suhbat, tajriba va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, interaktiv metodlar (klaster, aqliy hujum, konseptual xaritalar, bahs-munozara) darslarda qo‘llanilib, ularning talabalarda oilaviy qadriyatlar, hurmat, mas’uliyat va muloqot madaniyatini shakllantirishdagi ta’siri tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar orqali o‘qitilgan talabalar oilaviy munosabatlarga nisbatan ongli yondashuvga ega bo‘lib, familiyaviy qadriyatlarni qadrlash, hurmat bilan muomala qilish va o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA: interaktiv metodlar yordamida “Tarbiya” fanini o‘qitish orqali talabalarda familistik madaniyatni rivojlantirish mumkinligi isbotlandi. Mazkur yondashuv ularni nafaqat bilim, balki amaliy hayotiy qadriyatlarni anglashga ham yo‘naltiradi.

Kalit so'zlar: boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, familistik madaniyat, interaktiv metodlar, mas’uliyat.

Iqtibos uchun: Nagmetova N.M. “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani” darslarida interaktiv metodlar orqali talabalarda familistik madaniyatni rivojlantirish metodikasi. // Inter education & global study. 2025, №6. B.53–58.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФАМИЛИСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ «ПРЕДМЕТ ВОСПИТАНИЕ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ»

© Н.М. Нагметова[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается процесс формирования фамилистической культуры у студентов, обучающихся по направлению «Начальное образование». С использованием интерактивных методов – таких как ролевые игры, дебаты и ситуационный анализ – у студентов развивается фамилистическая культура.

ЦЕЛЬ: цель данной статьи — определить методические подходы к формированию и развитию фамилистической культуры у студентов посредством использования интерактивных методов на занятиях по предмету «Воспитание в начальном образовании».

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании применялись методы наблюдения, беседы, эксперимента и сравнения. Были апробированы интерактивные методы (кластер, мозговой штурм, концептуальные карты, дискуссия) и проанализировано их влияние на развитие у студентов семейных ценностей, уважения, ответственности и культуры общения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: практические занятия показали, что студенты, обучающиеся с применением интерактивных методов, приобретают осознанное отношение к семейным отношениям, уважают фамилистические ценности, умеют выражать своё мнение и вести уважительный диалог. Это положительно влияет на их будущую педагогическую деятельность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: преподавание предмета «Воспитание» с использованием интерактивных методов способствует развитию фамилистической культуры у студентов, направляет их не только к приобретению знаний, но и к осмыслению жизненно важных ценностей.

Ключевые слова: начальное образование, воспитание, общественные ценности, нравственное воспитание, фамилистическая культура, интерактивные методы, ответственность.

Для цитирования: Нагметова Н.М. Методика развития фамилистической культуры студентов посредством интерактивных методов на уроках «предмет воспитание в начальном образовании». // Inter education & global study. 2025, №6. С. 53–58.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING FAMILISTIC CULTURE IN STUDENTS THROUGH INTERACTIVE METHODS IN “UPBRINGING IN PRIMARY EDUCATION” CLASSES

© Nursulu M. Nagmetova[1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

INTRODUCTION: this article describes the formation of a family culture in the education of students studying in primary education. Through interactive methods - role-playing games, debates, and situational analysis - students' family culture is developed

AIM: the aim of this article is to identify methodological approaches for developing and fostering familistic culture in students through the use of interactive methods in the course “Education in Primary School”.

MATERIALS AND METHODS: the research employed observation, interviews, experimentation, and comparative analysis. Interactive methods (cluster mapping, brainstorming, concept maps, and discussions) were implemented in lessons, and their impact on students’ development of family values, respect, responsibility, and communication culture was evaluated.

DISCUSSION AND RESULTS: practical sessions demonstrated that students taught through interactive methods develop a conscious attitude toward family relationships, value familial principles, and gain skills in respectful communication and free expression of opinion. This positively influences their future pedagogical practice.

CONCLUSION: teaching the “Education” subject through interactive methods effectively contributes to the development of familistic culture among students, guiding them not only toward knowledge acquisition but also toward internalizing essential life values.

Key words: primary education, upbringing, social values, moral education, familistic culture, interactive methods, responsibility.

For citation: Nursulu M. Nagmetova (2025) ‘Methodology for developing familistic culture in students through interactive methods in “upbringing in primary education” classes’, Inter education & global study, (6), pp. 53–58. (In Uzbek).

Bugungi globallashuv davrida ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlar, oilaviy qadriyatlarning yemirilishi, yoshlarning axloqiy kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa, yosh avlodni tarbiyalashda oilaviy qadriyatlar, xususan, familistik tushunchasini mustahkamlashni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, shaxsning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qiyofasi avvalo oilada shakllanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi talabalarda familistik madaniyatga oid qadriyatlarni rivojlantirish – ularning kelajakda yetuk pedagog bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

“Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani”ni o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish orqali talabalar o‘z fikrini erkin ifoda etishga, mustaqil fikrlashga, tanqidiy yondashuvga o‘rgatilib boriladi. Bu metodlar familistik madaniyatini ongli ravishda anglash va baholashga yordam beradi.

Oliy ta’limda bo‘lajak mutaxassislarning ongli familistik tushunchalari tizimini shakllantirishga yordam beradigan maqsadli ta’lim faoliyatini tashkil etish, gumanitar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

fanlarning qiymat-semantik salohiyatini aniqlash, o‘quvchilarning kasbiy va gumanitar faoliyatida familistik ko‘nikmalarni qo‘llashga tayyorligini shakllantirishning ta’lim algoritmini ishlab chiqadi [2].

Shaxsning familistik madaniyatini shakllantirish yagona sotsializatsiya jarayonining bir qismi bo‘lib, unda ma’lum bir jamiyatning familistik madaniyatini o‘zlashtirish, voqelikning faol rivojlanishi, oilaviy munosabatlarning zarurati va yakuniy qiymatini tushunish masalalarida shaxs ongini bosqichma-bosqich shakllantirish sodir bo‘ladi. O‘qituvchining familistik madaniyatini shakllantirish zamonaviy ijtimoiy-pedagogik dolzarb muammolardan biri bo‘lib, hal qilishni talab qiladi [3].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni shakllantirish metodikasi – bu pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalarida oilaviy qadriyatlar, ularning ta’lim faoliyatidagi o‘rni, o‘quvchilar va ularning oilalari bilan ishlashga tayyorgarlik haqidagi tushunchani shakllantirishga qaratilgan yondashuv.

Familistik madaniyat oilaviy munosabatlar va ularning inson hayotidagi ahamiyatini tushunish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat yo‘nalishlari va munosabatlari yig‘indisidir. U o‘qituvchilarga o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning oilalari bilan samarali munosabatda bo‘lishga yordam beradigan kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat o‘qituvchi, balki maktab va oila o‘rtasida vositachi vazifasini ham bajaradi. Bu oilaviy rishtalarni mustahkamlash, ijobiy oilaviy an’analarni o‘tkazish, o‘quvchilarda oilaviy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda familistik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar samaradorligini aniqlash maqsadida kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi.

“Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani”ni o‘qitishda quyidagi interaktiv metodlardan foydalanishimiz mumkin:

“Aqliy hujum” – oilaviy qadriyatlar mavzusida fikr almashish;

“Rolga kirish” – oila a’zolari obrazida chiqish qilish;

“Debat” – an’anaviy va zamonaviy oilaviy qadriyatlar ustida bahs-munozara;

“Keys-stady” – oilaviy nizolarni yechish bo‘yicha muhokama.

Aqliy hujum metodi oilaviy qadriyatlar mavzusida fikr almashish uchun qulay hisoblanadi. Ushbu metodni foydalanishdan maqsad – bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, oilaviy birlik, hurmat, mas’uliyat kabi qadriyatlarni muhokama qilishdan iborat.

Talabalarga 2-3 ta sodda savollar berish bilan motivatsiya beramiz. Masalan, ota-onangiz sizga oiada eng muhim nima narsani o‘rgatdi?, siz oiladagi eng kichik vazifangiz nimaligini bilasizmi?

Talabalarni 4 ta guruhga bo‘lib olamiz va har bir guruhga kartochkalarda berilgan savollar yordamida munozara o‘tkazamiz. Agar oilada hamma ota-onani va kattalarni tinglasa, nima bo‘ladi?, farzandning burchi ota-onaga qarashmi? – kabi savollar beriladi. Albatta darsda har bir fikr hurmat bilan tinglanishi kerak.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Guruhlar tayyor bo‘lgach har bir guruh o‘z javoblarini va xulosalarini taqdim etadi. O‘qituvchi esa fikrlarni hisobga olib, asosiy qadriyatlarni umumlashtiradi oilada hamma fikr muhimligini tushuntirib beradi.

Rolga kirish – oila a’zolari obrazida chiqish qilish. Ushbu metodni qo‘llanishdan maqsad empatiyani rivojlantirish, oiladagi har bir a’zoning rolini tushunishdan iborat. O‘qituvchi oilada onaning kun tartibi haqidagi qisqa video rolikni qo‘yib beradi va har bir guruhga oila a’zolaridan birining rolini tanlashni topshiradi. O‘qiuvchi kartochkalarga yozilgan topshiriqlarni tavsiya qiladi. Masalan, farzand uyga vazifani bajarmay, telefonda vaqtini o‘tkazdi – ota-ona bilan suhbat qanday bo‘lishi mumkin? Har bir guruhga 5 daqiqa vaqt beriladi va 3-4 daqiqada topshiriqni rolda ijro etib berishadi.

O‘yin yakunida o‘qituvchi guruhlarga boshqa insonning o‘rnida bo‘lishda o‘zlarini qanday his qilganligini so‘raydi.

Debat – talabalar bilan an’anaviy va zamonaviy oilaviy qadriyatlar haqida ish olib boradi. Debatni o‘tkazishdan maqsad – talabalarda turli qarashlarni mantiqiy tahlil qilish, madaniy merosni anglatishdan iborat.

Birinchi qadam, o‘qituvchi an’anaviychilar va zamonaviylar jamoalarini tuzib oladi.

Ikkinchi qadam, argumentlar tayyorlash uchun varaqalar taqdim etadi.

Mavzular:

Oilada kim hukmron bo‘lishi kerak?

Bolalarga telefon qachon berilishi yoki umuman bermaslik kerakmi?

To‘rtinchi qadam, har bir jamoa 5 daqiqada fikr bildiradi, adabiy nutq talab qilinadi.

Beshinchi qadam, o‘qituvchi qaysi guruh ko‘proq dalillar keltirganligini aniqlaydi va dalillarning mantiqiyligiga e’tibor beradi. Faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Keys stady – oiladagi nizolarni yechish metodikasi. Keys-stady metodida foydalanishdan maqsad talabalarga har xil vaziyatlardan chiqih va konfliktlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

O‘qituvchi oiladagi har xil real hayotiy nizolar haqidagi topshiriqlarni ya’ni, matnni beradi. Guruhlarga har bir real hayotiy nizolar haqidagi muammolar kartochkasi taqdim etiladi, guruhlar eng maqbul variantni fikrlarni umumlashtirib bir talaba javob beradi. O‘qituvchi fikrlarni eshitib, birgalikda tahlil qilib, en to‘g‘ri javobni o‘qb eshittiradi

Dars yakunida faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Interaktiv metodlar orqali talaba nafaqat bilim oladi, balki amaliyot orqali axloqiy qadriyatlarni his qiladi. Vygotskiy “shaxs ijtimoiy muhitda o‘sadi” deb ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, familistik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlar talaba shaxsining ijtimoiy shakllanishini rag‘batlantiradi.

An’anaviy yondashuvlar ko‘proq tayyor bilim berishga asoslangan bo‘lsa, interaktiv yondashuvlar talabaning ongini faoliyatga yo‘naltiradi. Bu esa familistik, ota-ona, qarindosh-urug‘ga nisbatan ijobiy munosabatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi talabalarda familistik madaniyatini shakllantirish – ularning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim omildir. Interaktiv metodlar yordamida tarbiya fanini o‘qitish talabalarda mustaqil fikrlash,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mas'uliyat, empatiya, milliy qadriyatlarga hurmatni rivojlantiradi. Interaktiv metodlardan foydalanilgan guruhlarda familistik madaniyat tushunchasi chuqurroq shakllanadi hamda talabalarni tarbiyaviy jihatdan rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar zarur hisoblanadi.

"Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" darslarida interaktiv metodlar orqali talabalarda familistik madaniyatni rivojlantirish uchun

"Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" fanining mazmuniga familistik madaniyatiga oid mavzularni chuqur integratsiya qilish, interaktiv metodlardan muntazam foydalanish hamda pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlashni tavsiya qilamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Мусурманова О. Оила маънавияти-миллий ғурур. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 200 б.

2. Исакаева Г.И. Формирование фамилистическои культуры студентов педагогических вузов. Автореф. дисс. … канд. пед. наук. – Казань 2008 18 стр.

3. Шлейкова Н.Ю. Формирование фамилистической культуры учителя как социально-педагогическая проблема. Известия ВГПУ, 2012. 34-37 стр.

4. И.И. Ботвина. Формирование фамилистической компетентности руководителя образовательной организации в процессе постдипломного образования. дисс. канд. пед.наук. – Волгоград: 2020, стр 168.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nagmetova N. M.**, Boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti, p.f.f.d., [**Нагметова Н.М.** доцент кафедры Начального образования, д.ф.п.н.], [**Nursulu M. Nagmetova**, Associate professor, PhD in pedagogical sciences, department of primary education]; manzil: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

IMPROVING SPELLING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL LEARNERS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

© Aysara D. Najimova[1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: the given article analyzes key aspects of the formation of spelling literacy in primary school learners. An overview of psychological and pedagogical prerequisites and causes of errors is presented, and effective teaching methods that integrate classical and innovative approaches are described. The work contains practical recommendations on lesson planning, a system of exercises, diagnostics and correction, as well as advice on working with parents, addressed to future and practicing primary school teachers.

AIM: the aim of this article is to explore effective pedagogical strategies for improving the spelling literacy of primary school learners in native language lessons, and to identify teaching methods that enhance students' spelling accuracy and written communication skills.

MATERIALS AND METHODS: this study employed observational analysis, diagnostic tests, and classroom experimentation to assess students' spelling abilities. A variety of teaching approaches were applied, including phonetic exercises, visual dictations, interactive spelling games, and error correction activities. Data was collected before and after applying these methods to measure improvement.

DISCUSSION AND RESULTS: findings revealed that systematic use of interactive and visual methods significantly improved students' spelling performance. Learners became more attentive to orthographic patterns, word structures, and the phoneme-grapheme relationship. Repeated practice through engaging activities helped reinforce correct spelling and boosted learners' confidence in written expression.

CONCLUSION: spelling literacy can be effectively improved through the integration of phonetic awareness, repetition, and interactive methods in native language lessons. Tailoring instructional strategies to students' developmental needs plays a key role in strengthening their orthographic competence and overall language proficiency.

Key words: spelling literacy, primary school, native language, young learners, spelling errors, teaching methods, didactics, psychology, pedagogical technologies, correctional work.

For citation: Aysara D. Najimova. (2025) 'Improving spelling literacy of primary school learners in native language lessons', Inter education & global study, (6), pp. 59–66. (In Eng.)

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРФОГРАФИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

© А.Д. Наджимова[1]✉
[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются ключевые аспекты формирования орфографической грамотности у учащихся начальных классов. Представлен обзор психологических и педагогических предпосылок, а также причин орфографических ошибок. Описаны эффективные методы обучения, сочетающие классические и инновационные подходы. Работа содержит практические рекомендации по планированию уроков, системе упражнений, диагностике и коррекции, а также советы по взаимодействию с родителями — для будущих и практикующих учителей начальных классов.

ЦЕЛЬ: целью настоящей статьи является изучение эффективных педагогических стратегий по улучшению орфографической грамотности учащихся начальных классов на уроках родного языка и определение методов обучения, способствующих повышению точности правописания и развитию навыков письменной речи у школьников.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались наблюдение, диагностическое тестирование и экспериментальная работа в классе. Применялись различные методы обучения: фонетические упражнения, визуальные диктанты, интерактивные орфографические игры и задания на исправление ошибок. Данные собирались до и после применения методик с целью измерения прогресса.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что систематическое использование интерактивных и визуальных методов значительно улучшает орфографические навыки учащихся. Ученики становятся более внимательными к орфографическим закономерностям, структуре слов и соотношению между звуками и буквами. Повторяющаяся практика в игровой форме способствует закреплению правильного написания и повышает уверенность в письменной речи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: орфографическую грамотность можно эффективно развивать через интеграцию фонетического восприятия, повторения и интерактивных методов в уроках родного языка. Индивидуально подобранные педагогические стратегии играют важную роль в укреплении орфографических умений и общей языковой компетенции учащихся.

Ключевые слова: орфографическая грамотность, начальная школа, родной язык, младшие школьники, орфографические ошибки, методы обучения, дидактика, психология, педагогические технологии, коррекционная работа.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Для цитирования: Наджимова А.Д. Совершенствование орфографической грамотности учащихся начальной школы на уроках родного языка // Inter education & global study. 2025, №6. С. 59–66.

ONA TILI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IMLO SAVODXONLIGINI OSHIRISH

© A.D. Najimova[1]✉
[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imlo savodxonligini shakllantirishning asosiy jihatlari tahlil qilinadi. O‘quvchilarda uchraydigan xatolarning psixologik va pedagogik sabablari ko‘rib chiqiladi hamda klassik va innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga olgan samarali o‘qitish metodlari yoritiladi. Ishda darslarni rejalashtirish, mashq tizimi, diagnostika va tuzatish ishlari, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. Ushbu tavsiyalar bo‘lajak va amaldagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darslarida imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan samarali pedagogik strategiyalarni o‘rganish hamda o‘quvchilarning yozma nutqdagi xatolarsiz yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi o‘qitish metodlarini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida kuzatuv tahlili, diagnostik testlar va sinf tajribalari o‘tkazildi. Imlo ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun fonetik mashqlar, ko‘rgazmali diktantlar, interaktiv imlo o‘yinlari va xatolarni tuzatish faoliyati kabi bir nechta o‘qitish yondashuvlari qo‘llanildi. Tadqiqot davomida metodlar qo‘llanilishidan oldin va keyin ma’lumotlar yig‘ildi va natijalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv va ko‘rgazmali metodlarning tizimli qo‘llanilishi o‘quvchilarning imlo savodxonligini sezilarli darajada oshirdi. O‘quvchilar imloviy andozalar, so‘z tuzilmalari va tovush-harf munosabatlariga e’tiborliroq bo‘la boshlashdi. Qiziqarli va takroriy mashg‘ulotlar orqali to‘g‘ri yozuv mustahkamlandi va o‘quvchilarda yozma ifoda borasida ishonch uyg‘otildi.

XULOSA: ona tili darslarida fonetik anglash, takrorlash va interaktiv metodlarni uyg‘unlashtirish orqali imlo savodxonligini samarali oshirish mumkin. O‘quvchilarning rivojlanish darajasiga mos yondashuvlar ularning imloviy bilimlarini mustahkamlashda va umumiy til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so'zlar: imlo savodxonligi, boshlang‘ich maktab, ona tili, yosh o‘quvchilar, imloviy xatolar, o‘qitish metodlari, didaktika, psixologiya, pedagogik texnologiyalar, tuzatish ishlari.

Iqtibos uchun: Najimova A.D. Ona tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imlo savodxonligini oshirish. // Inter education & global study. 2025, №6. B. 59–66.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Spelling literacy is a key element of language competence, formed in primary school. In the modern world, it is not just an indicator of general culture, but also the basis for successful study and career. Improving the spelling literacy of primary school learners is especially important, because it is during this period that the foundations of written speech are laid. Gaps that arise at this stage can significantly complicate further mastery of both the native language and other subjects. This work will analyze the psychological and didactic foundations of the formation of spelling skills, systematize the causes of errors and offer effective methods for teaching spelling in primary school [5].

The formation of spelling skills is a multifaceted and complex process that requires the active participation and coordinated development of many mental functions. Among them, attention, memory (visual, auditory, motor, logical), thinking (in particular, the ability to analyze and synthesize), and imagination are of key importance. A special role in this process is played by phonemic hearing, which allows differentiating phonemes and correlating them with the corresponding graphemes, and morphological analysis of the word, which facilitates the conscious application of rules based on the morphemic structure of the word.

In the context of psychological and pedagogical approaches to skill development, the concept of the stage-by-stage development of mental actions developed by P. Ya. Galperin acquires particular relevance. According to this theory, mastering an orthographic action begins with the formation of an orienting basis for the action, when learners understand the purpose and conditions of completing the task. This is followed by the stage of the materialized form of the action, where direct manipulation of material or materialized objects occurs (for example, working with cards, diagrams). Then the action moves into an external speech form, when learners pronounce their actions out loud, comment on the application of the rules. And finally, the stage of the internal speech form comes, where the action is learned and performed mentally, becoming an automated skill [4].

An important aspect is awareness in the process of forming spelling skills. Mechanical memorization of rules without a deep understanding of their essence and logic does not lead to strong assimilation. Learners must understand why this or that word is written this way, see the connection between spelling rules and the morphological structure of the word, phonetic features of the language. Only conscious application of rules ensures flexibility and transferability of the skill to new language situations. The effectiveness of memorizing spelling material is significantly increased by using different types of memory, which requires a variety of forms and methods of teaching.

Spelling is not a separate skill, but a part of language competence, closely related to its other components. It directly correlates with lexical literacy: understanding the meaning of words, including homophones, helps to choose the correct spelling. The richer the vocabulary, the easier it is to master spelling.

Knowledge of morphology (word structure) and syntax (sentence structure) is the basis for applying most spelling rules (e.g. spelling of endings, hyphenated or continuous

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

spelling). Correct spelling makes the text understandable and expressive, while errors make reading difficult and reduce the culture of written speech. Thus, working on spelling develops the general culture of speech and communication skills.

For the effective organization of correctional work and the development of adequate methodological approaches, it is extremely important to understand the nature and causes of spelling errors. They can be divided into several groups. Psychophysiological reasons include the peculiarities of the development of the child's cognitive functions. Insufficient development of phonemic hearing often leads to the fact that the child does not distinguish subtle acoustic differences between sounds, which is reflected in writing (for example, mixing voiced and voiceless consonants).

Problems with spelling can be caused by several reasons. Psychological factors include poorly developed visual and motor memory, which makes it difficult to remember the spelling of words and reproduce letters correctly. Low levels of attention and self-control lead to mistakes due to inattention.

Linguistic reasons are related to the complexity of the Russian language: mismatches of sounds and letters (as in "корова"), numerous exceptions, homophones ("гриб" – "гипп") and homographs ("замок" – "замок") complicate writing. Insufficient knowledge of grammar rules (conjugation, cases) also directly leads to errors.

Didactic reasons are rooted in the organization of training. Ineffective methods, mechanical memorization, lack of systematicity, lack of practice and differentiated approach do not allow the formation of stable spelling skills [6].

Effective teaching of spelling is based on several fundamental didactic principles that ensure conscious and lasting acquisition of the material.

The principle of awareness suggests that learners should not just memorize rules, but understand their essence, logic and scope of application. A conscious attitude to spelling material promotes deeper memorization and the ability to transfer knowledge to new situations.

The principle of systematicity and consistency requires studying spelling rules in a strictly defined logical sequence, from simple to complex, taking into account their interrelation. A systematic approach ensures the strength of knowledge and prevents the formation of gaps.

The principle of clarity involves the wide use of various types of visual aids: tables, diagrams, reference signals, cards, didactic games. Visualization of spelling and rules promotes better assimilation and memorization, especially for young learners.

Finally, the principle of connecting theory with practice is key. The study of spelling rules should be immediately supported by a variety of practical exercises that allow one to practice and consolidate the acquired knowledge in real written speech. Only repeated and targeted application of the rules leads to the formation of a stable skill [8].

A wide range of techniques are used in the methodology of teaching spelling. The analytical-synthetic method is fundamental, assuming the analysis of a word with subsequent application of rules. To develop spelling vigilance, observation of linguistic

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

phenomena and grammatical analysis are used, promoting conscious writing. The formation and control of skills are carried out through conscious copying and various types of dictations (preventive, explanatory), and vocabulary work includes systematic mastery of unverifiable words.

The efficiency of training is increased by introducing modern educational technologies. Game technologies (didactic games, crosswords) make the process more exciting and activate the cognitive activity of learners. Information and communication technologies (ICT), such as interactive whiteboards and online simulators, provide visualization, a variety of tasks and instant feedback. In addition, problem-based learning is used, developing independent thinking and project activities, involving learners in the creation of their own educational materials. Health-saving technologies ensure maintaining efficiency and concentration.

The effectiveness of developing spelling literacy directly depends on the quality planning and organization of native language lessons. Systematic work on spelling, its inclusion in each lesson, regardless of the main topic, is key. The principle of integration is important, in which spelling is closely linked with phonetics, morphology and syntax, as well as a differentiated approach, allowing you to adapt tasks to different levels of student preparation.

The basis for developing strong spelling skills is a diverse system of exercises. These can be exercises on applying rules (inserting letters, choosing options, forming words), on developing spelling vigilance (finding and correcting errors, copying with the highlighting of spelling), as well as creative tasks (writing texts, essays, written retellings with subsequent analysis of spelling).

Systematic diagnostics allows for timely detection of gaps. It includes control dictations, copying, testing and observation of written speech. Deep analysis of errors with their classification (by rules, vocabulary words, omissions) helps to identify typical and individual difficulties. Corrective work should be targeted and differentiated, including individual/group lessons, special simulators and keeping personal dictionaries of errors.

Effective interaction between school and family is the key to improving spelling literacy. It is important to constantly inform parents about the child's progress and problems, as well as to advise on organizing homework and using auxiliary materials. Active involvement of parents in joint practice (reading, word games, checking assignments with self-correction) will enhance the results of school learning.

Improving the spelling literacy of primary school learners is a complex, multifaceted and continuous process that requires an integrated approach and systematic, targeted work on the part of the teacher. Achieving success in this area depends not only on the mechanical memorization of rules, but also on the formation of a conscious attitude to the language, the development of linguistic intuition, the improvement of analytical and synthetic skills and effective self-control. The use of various methodological techniques, including both traditional and innovative approaches, the active use of modern pedagogical

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

technologies, as well as consistent individualization and differentiation of training allow us to create optimal conditions for the formation of strong and sustainable spelling skills.

Constant improvement of spelling teaching methods and their adaptation to the individual learners needs is extremely important. Taking into account the psychological characteristics of primary school age ensures the effectiveness of the process. Such a comprehensive approach allows spelling literacy to become an organic part of the child's linguistic personality, contributing to its successful development and confident written communication. Further research can be aimed at studying neuropsychological approaches to the correction of dysgraphia and the development of new digital tools for the formation and correction of spelling skills.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Aidarova L. I. Psychological Problems of Teaching Primary School Learners Russian. – M.: Moscow State University Publishing House, 1978. – 216 p.

2. Bogoyavlensky D. N. Psychology of Spelling Acquisition. – M.: Academy of Pedagogical Sciences of the RSFSR, 1957. – 348 p.

3. Vartanyan E. A. Journey into the World of Words. – M.: Education, 2007. – 176 p.

4. Galperin P. Ya. Psychology of Thinking and the Theory of the Step-by-Step Formation of Mental Actions // In the book: Reader on General Psychology. Psychology of Thinking / edited by Yu. B. Gippenreiter, V. V. Petukhov. – M.: Moscow State University, 1981. – P. 222–230.

5. Grigorieva M. A. Methods of Teaching Spelling in Primary School. – Rostov-on-Don: Phoenix, 2003. – 224 p.

6. Jedek P. S. Spelling Problems and Ways to Solve Them. – M.: Education, 1975. – 128 p.

7. Jeltovskaya L. Ya. Formation of Spelling Skills in Primary Schools. – M.: Education, 1987. – 144 p.

8. Lvov M. R. Fundamentals of Methods of Teaching Russian in Primary Schools. – M.: Education, 1988. – 300 p.

9. Ramzaeva T. G. Methods of Teaching Russian in Primary Schools. – M.: Education, 2000. – 320 p.

10. Ushakova O. D. Vocabulary words: 1–4 grades. – St. Petersburg: Litera, 2007. – 64 p.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**A.D. Najimova**, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, [**А.Д. Наджимова,** доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, исполняющий обязанности доцента

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза], [**A.D.Najimova**, Doctor of Philosophy (PhD), in Pedagogical Sciences, Acting associate Professor Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA YUQORI SINF O‘QUVCHILARINI EKOLOGIK TARG‘IBOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI VA DIDAKTIK YO‘NALISHLARI

© B.K. Xojanov[1]✉

[1]Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlash mazmuni va didaktik yo‘nalishlari, maktab o‘quvchilarini tabiatni muhofaza qilish ishlariga jalb qilish ishlarini amalga oshirish masalalari yoritilgan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarini ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlashning mazmunini aniqlash, bu boradagi samarali didaktik yo‘nalishlarni belgilash hamda ularni ta’lim-tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, tajriba-sinov ishlari, hujjatlarni tahlil qilish, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot davomida yuqori sinf o‘quvchilarining ekologik bilim va tushunchalari yetarli darajada bo‘lsa-da, ularni atrof-muhitni asrash bo‘yicha targ‘ibot faoliyatiga jalb etish imkoniyatlari cheklanganligi aniqlangan. Bunda didaktik vositalar, loyihaviy ta’lim, interaktiv metodlar, ekologik treninglar, seminar va amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorgarligi ijobiy o‘zgarishlarga erishdi: ekologik madaniyat, ijtimoiy faollik va jamoaviy ish ko‘nikmalari sezilarli darajada oshdi.

XULOSA: yuqori sinf o‘quvchilarini ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlashda o‘quv-tarbiya jarayoniga ataylab ishlab chiqilgan didaktik yo‘nalishlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ekologik treninglar, amaliy loyihalar va targ‘ibot tadbirlarini muntazam tashkil etish orqali o‘quvchilarda ekologik ong, mas’uliyat hissi va liderlik fazilatlarini shakllantirish mumkin. Tadqiqot natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ta’lim amaliyotiga tavsiya etildi.

Kalit so'zlar: targ‘ibot texnologiyasi, ekologik targ‘ibotchilik, ekologik madaniyat, uzluksizlik, keng ko‘lamlilik, bosqichma-bosqichlilik, faollik, ilg‘or targ‘ibot, me’yorilik, natijadorlik, ko‘rgazmali, ommaviy axborot va og‘zaki targ‘ibot vositalari.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Iqtibos uchun: Xojanov B.K. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarini ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlash mazmuni va didaktik yo‘nalishlari. // Inter education & global study. 2025, №6. B.67–77.

СОДЕРЖАНИЕ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОДГОТОВКИ УЧЕНИКОВ СТАРШИХ КЛАССОВ К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПРОПАГАНДИСТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

© Хожанов Б.К.[1]✉
[1]Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются вопросы содержания и дидактических направлений подготовки учащихся к эколого-пропагандистской деятельности в средних общеобразовательных учреждениях, а также реализация мероприятий по вовлечению школьников в природоохранную работу.

ЦЕЛЬ: цель данного исследования – определить содержание подготовки старшеклассников общеобразовательных школ к экологической пропагандистской деятельности, обозначить эффективные дидактические направления в этом процессе и разработать рекомендации по их интеграции в учебно-воспитательный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались следующие методы: педагогическое наблюдение, беседа, анкетирование, опытно-экспериментальная работа, анализ документов, обобщение статистических данных.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе исследования было установлено, что, несмотря на достаточный уровень экологических знаний и представлений у старшеклассников, их участие в деятельности по охране окружающей среды ограничено. Эффективность использования дидактических средств, проектного обучения, интерактивных методов, экологических тренингов, семинаров и практических занятий была проверена в экспериментальной работе. Результаты показали положительные изменения в подготовленности учащихся к экологической пропагандистской деятельности: значительно повысились уровень экологической культуры, социальная активность и навыки коллективной работы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: важно внедрять специально разработанные дидактические направления в учебно-воспитательный процесс при подготовке старшеклассников к экологической пропагандистской деятельности. Регулярное проведение экологических тренингов, практических проектов и пропагандистских мероприятий способствует формированию экологического сознания, чувства ответственности и лидерских качеств у учащихся. На основе результатов исследования разработаны методические рекомендации, предложенные для внедрения в образовательную практику.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ключевые слова: пропагандистская технология, экологическая пропаганда, экологическая культура, преемственность, масштабность, постепенность, активность, опережающая пропаганда, стандартизация, эффективность, наглядные, средства массовой информации и вербальной пропаганды.

Для цитирования: Хожанов Б.К. Содержание и дидактические направления подготовки учеников старших классов к экологической пропагандистской деятельности в общеобразовательных школах. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 67–77.

THE CONTENT AND DIDACTICAL DIRECTIONS OF PREPARING HIGH SCHOOL PUPILS FOR ENVIRONMENTAL PROMOTION ACTIVITIES IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

© Khojanov B.K.[1]✉
[1]Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article covers the content and didactic directions of preparing pupils for environmental advocacy activities in general secondary education institutions, and issues of engaging school pupils in environmental protection activities.

AIM: the purpose of this study is to determine the content of preparing high school students in general education schools for ecological advocacy activities, to define effective didactic directions in this regard, and to develop recommendations for integrating them into the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized the following methods: pedagogical observation, interviews, surveys, experimental work, document analysis, and generalization of statistical data.

DISCUSSION AND RESULTS: the study revealed that although high school students possess sufficient ecological knowledge and awareness, their involvement in environmental protection advocacy is limited. The effectiveness of didactic tools, project-based learning, interactive methods, ecological training sessions, seminars, and practical workshops was tested. The experimental work demonstrated that students' preparedness for ecological advocacy improved significantly, with notable increases in ecological culture, social engagement, and teamwork skills.

CONCLUSION: implementing purposefully developed didactic directions into the educational process is essential for preparing high school students for ecological advocacy. Regular organization of ecological trainings, practical projects, and awareness activities helps cultivate ecological consciousness, a sense of responsibility, and leadership qualities among students. Based on the study results, methodological recommendations were developed and proposed for use in educational practice.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Key words: promotional technology, environmental advocacy, ecological culture, continuity, broad-scale approach, gradual implementation, active engagement, advanced promotion, moderation, effectiveness, visual aids, mass media, and oral promotional tools.

For citation: Khojanov B.K. (2025) 'The content and didactical directions of preparing high school pupils for environmental promotion activities in general education schools', Inter education & global study, (6), pp. 67–77. (In Uzbek).

Jamiyat ekologik xavfsizligini ta'minlashda yoshlar ekomadaniyatini yuksaltirish ishida targ'ibot texnologiyalari birmuncha murakkab uslublarni o'z ishiga oladi. Ekologik targ'ibotchilik texnologiyalari – targ'ibot maqsadlariga erishishning umumiy mazmuni, yaniy avvaldan loyihalashtirilgan targ'ibot jarayonining yaxlit tizim asosida, ketma-ketlikda amalga oshirish, aniq bir targ'ibot maqsadiga erishish yo'lida muayyan usul va vositalar tizimini ishlab chiqish hamda targ'ibot jarayonini yuqori darajada tashkil etishni ko'rsatadi. Targ'ibot texnologiyasi muayyan ekologik targ'ibot tadbiri dasturi asosida tashkil etiladigan, aniq ekologik maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadni samarasini kafolatlovchi jarayon mazmuni hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida ekologik tahdidlarning kuchayib borayotgan sharoitida ekologik-targ'ibot jarayonlarini takomillashtirish, targ'ibot ishlarini rejalashtirishga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ekologik targ'ibotchilik ishlariga texnologik yondashuv mazkur jarayonlarni aniq vositalar yordamida samarali olib borish va qo'yilgan targ'ibot maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi.

Ekologik madaniyatlilik tamoyillarini o'quvchilar ongiga singdirishda g'oyaviy targ'ibot-tashviqotini tashkil etishda birqancha tashkiliy tamoyillarga amal qilish talab qilinadi:

- Uzluksizlik (ekologik madaniyatlilik tamoyillarini yoshlarga singdirib borishning davomiyligini ta'minlash).
- Keng ko'lamlilik (o'quvchilarning barcha toifasining ekologik madaniyatini tarbiyalash).
- Bosqichma-bosqichlilik (o'quvchilarni ekologik tarbiyalashda ta'limning barcha bosqichlarida chora tadbirlarni tashkil etish).
- Faollik (o'quvchilar ekologik tarbiyasiga jamiyatning barcha a'zolari faolligini ta'minlash, interfaol jarayonlarni tashkil etish).
- Ilg'or targ'ibot (ekologik tarbiyada targ'ibot ishlarida o'quvchilar o'rtasida eng ilg'or uslublar va texnologiyalaridan foydalanish).
- Me'yorilik (o'quvchilar o'rtasida ekologik tarbiya ishlarida balandparvozlik, rasmiyatchilik, buyriqbozlikka yo'l qo'ymaslik).
- Natijadorlik (targ'ibot tadbirlarida yuksak natija va yuqori samaradorlikka erishish, o'quvchilar ekologik savodxonligini to'liq ta'minlash).

O'quvchilar ongida ekologik targ'ibotchilik tuyg'usini kamol toptirishda ekologik targ'ibot ishlarini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kasb etadi. Bu ekologik targ‘ibot ishi uchun axborotlarni to‘plash, tahlil etish, qayta ishlash, uzatish bilan bog‘liq jarayonlarni olib borishni ta’min etadi. Har bir targ‘ibot davriga ko‘ra tadbirlar katalogini shakllantirib, doimiy foydalanib borish uchun to‘plab borish va shu asosda arxiv tashkil etish muhim jarayon hisoblanadi.

Ekologik targ‘ibot jarayonida axborot maqsadga erishishning asosiy vositalaridan biridir. Ekologik targ‘ibotda axborotning ko‘lami, mazmuni va darajasi quyidagi:

- ekologik targ‘ibotchining tayyorgarlik darajasi;
- targibotchining muhim ekologik tarbiya mazmunidagi axborotlarni izlab topa olish va ularni tegishli faoliyatda qo‘llay olishi;
- targ‘ibot tadbirida axborot resurslari va axborot texnologiyalariga ega bo‘lish, o‘rganish, qayta to‘ldirib ishlash va uzata olishi;
- targ‘ibotchi o‘quvchida mamlakat va o‘zi yashayotgan xududidagi axborotlarni olish va ularni uzata olish imkoniyatiga egaligi kabi mezonlar bilan bog‘liq.

Ekologik targ‘ibotchilik tadbirlarini o‘tkazishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari muayyan amallarni aniq va muntazam, rejali va ongli amalga oshirishga yordam beradi. Ekologik targ‘ibotchilik tadbirlarini o‘tkazishda quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

Interaktiv doska – maxsus dasturiy ta’minotga ega bo‘lgan matn, rasm, video va audio ma’lumotlar ham Internet-resurslar bilan ishlash, ular ustiga yozuv va izohlar yozish imkonini beradi.

Multimedia – rangli tasvirlar va grafika, matn va grafikda dinamik, harakatli effektlar, ovoz chiqarish va sintezlangan musiqalar, animaniya, videokliplar va videofilmlarni keltirish mumkin.

Audioanjuman – tarmoq texnologiyasi tizimi va telefondan foydalangan holda turli geografik nuqtalarda joylashgan bir qancha shaxslar va guruhlarning o‘zaro ovozli – raqamli ma’lumotlarni almashish jarayonini ta’minlaydi.

Tadqiqot ishimizni olib borish jarayonida darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali ekologik targ‘ibotchilarni tayyorlash ishlariga alohida e’tibor qaratganmiz. Darsdan tashqari ekologik targ‘ibotchilik tadbirlari o‘quvchilarning ekologik targ‘ibot, tashviqot haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishda, ularda ekologik madaniyat, e’tiqod va ekologik targ‘ibotchilikka bog‘liq dunyoqarashni tarkib toptirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi.

Ekologik targ‘ibotchilik mazmunida darsdan tashqari uyushtiriladigan mashg‘ulotlarga tajribaviy maktablar jamoasining umumiy ishi sifatida qaraldi. Zero, darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida mustaqil fikrlash tafakkurni boyitish, dunyoqarashini qaror toptirish uchun zamin hozirlashga xizmat qilguvchi faoliyatining tashkil etilishi barkamol, sog‘lom avlodni shuningdek, o‘quvchilarni ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

O‘quvchilarni ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlashga yo‘naltirilgan darsdan tashqari tadbirlar quyidagi maqsadni amalga oshirishga xizmat qildi: o‘quvchilar tomonidan egallagan Orol muammosiga bog‘liq ekologik-targ‘ibotchilik bilimlarini amaliyotga tadbiq

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

etish asosida ekolog-targ‘ibotchilar faoliyatini tashkil etish ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish, ijobiy axloqiy-ekologik fazilatlarni o‘zlashtirish, ularda dunyoqarash va madaniyatni shakllantirish.

O‘quvchilarni ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlashga yo‘naltirilgan darsdan tashqari mashg‘ulotlar quyidagi tarbiya metodlar yordamida amalga oshiriladi:

a) O‘quvchilar ongiga ta’sir etuvchi tarbiya metodlariga – hikoya, tushuntirish, ta’kidlash, ma’ruza, ekologik targ‘ibotchilik masalasida suhbat, namuna ko‘rsatish, bahs munozara, aqliy hujum, breynshtorming;

b) Ijtimoiy xulq tajribalarini orttirish va faoliyatini tashkil etish metodlari – topshiriq berish, tarbiyalovchi vaziyatlardan foydalanish, takrorlash, pedagogik talab;

v) Tarbiyada ma’qullash va rag‘batlantirish, kayfiyatini ko‘tarish, ruhlantirish.

Tadqiqotimiz jarayonida darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilindi:

ekologik targ‘ibotda ta’lim va tarbiya birligi;

olib boriladigan targ‘ibotchilik tadbirlarining bir maqsadga yo‘naltirilganligi;

tashkil qilinadigan ekologik targ‘ibotchilik tadbirlarining g‘oyaviyligi;

ekologik targ‘ibot ishlarining hayot bilan bog‘likligi;

targ‘ibotchilikka yo‘naltirilgan tadbirlarni olib borishda o‘quvchi shaxsini hurmat qilish;

tadbir materiallarini tanlashda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

targ‘ibotchilik ishlarini olib borishda muntazamlilik va tizimlilik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ekologiya muammosi hozirgi kunda mahalliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylanganini ta’kidlab, yoshlarga ziyolilar tomonidan ekologik bilim berish fazifalarini belgilab berganlar [1].

Ekologik targ‘ibotchilar jamoasida yuzaga kelgan sog‘lom psixologik muhit, o‘zaro hamjihatlik, bir-biriga bo‘lgan ishonch va hurmat darsdan tashqari ekologik targ‘ibotchilik tadbirlarining samarali bo‘lishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishimiz davomida targ‘ibotchilik harakatini “AIDA” formulasi orqali bildirish mumkinligi: 1) attention (diqqat), 2) interest (qiziqish), 3) desire (qo‘zg‘atish, nimanidir ishlashga istak uyg‘otish), 4) action (harakat) deb keltirib o‘tganmiz. Xususan, targ‘ibotchilik ta’sirini ikkita asosiy vazifalarga ajratish mumkin:

u yoki bu kerakli va foydali namoyishlar, tushunchalar, qarashlar odat va ishontirishlar haqida bilim berish va mustahkamlash;

namaqul namoyishlar, tushunchalarni, ishontirishlarni yo‘qotish va o‘zgartirish.

Bu ikkala targ‘ibotchilik vazifalari ham ta’sir o‘tkazish yordamida, ham ishontirish yordamida amalga oshirilishi mumkin.

O‘quvchilar bilan olib boriladigan targ‘ibotchilik ishining yutuqlari ko‘pgina psixologik faktlarga bog‘liq. Ulardan biri xabarda ma’lumotlarning birlamchiligidir. Chunki, inson

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

birinchi o‘rinda o‘zining qarashlariga to‘g‘ri keladigan xabarlarni yaxshi va tez qabul qiladilar. Boshqalaridan esa, qabul qilishdan o‘zlarini olib qochishga harakat qiladilar.

Targ‘ibot ishlarining muvofaqiyatli amalga oshishi uchun targ‘ibot ishini olib boruvchi to‘garaklarga ishonchning bo‘lishi va ularning qanday obruga ega ekanligiga va komponentligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham maktabda tashkil etiladigan targ‘ibot-tashviqot ishlarini to‘g‘ri tashkil eta olish va ularga qabul qilingan a’zolarni kengroq ma’lumotlar bilan qurollantirib, ularning obrularini oshirib borish kerak bo‘ladi.

Insonni o‘rab turgan tabiiy muhit va uning boyliklarini biladigan, undan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiat boyligiga, go‘zalligiga go‘zallik qo‘shadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni shakllantirish ekologik tarbiyaning maqsadi hisoblanadi. Shunday ekan, o‘quvchilarga ekologik bilim berishda maktab rahbarlari, o‘qituvchilar zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklaydi.

Afsuski, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tilishi belgilangan o‘quv fanlari qatoriga ekologiya alohida fan sifatida kiritilmagan. V-IX sinflarda o‘tiladigan barcha fanlarni o‘qitish jarayonida beriladigan mavzular mazmunidan kelib chiqqan holda ekologik bilimlar beriladi.

O‘qituvchi har bir dars mavzusining ekologik maqsadi, mazmuni, vazifalari va istiqbollarini ko‘ra bilishi, mavzuning ekologik maqsadi ta’lim-tarbiya jarayonining umumiy manfaatlariga mos bo‘lishi va u bilan uzviy bog‘langanligini aniq tasavvur qilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasining “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ekologik ta’limni takomillashtirish bobining 25-Ekologik targ‘ibotni keng yo‘lga qo‘yish mexanizmini takomillashtirish va rag‘batlantirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida turli ko‘rik-tanlovlar tashkil etish” [2] deb keltirilgan vazifasidan kelib chiqib, ekologik ta’lim-tarbiya eng avvalo dars jarayonida, so‘ngra darsdan tashqari ishlar jarayonida: davra suhbatlari, ilmiy-amaliy anjumanlar, ekologik xaftaliklar, ekologik kechalar, ekspeditsiya, ko‘rik-tanlov va ekskursiyalar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O‘qituvchi darsdan tashqari ishlarda olib boriladigan ekologiyaga oid mashg‘ulotlarning mazmuni, hajmi, tashkiliy shakllarini ishlab chiqish va uning samaradorligini ko‘z oldiga keltira olishi lozim.

“Tabiatshunoslik”, “Yosh ekolog-targ‘ibotchilar” kabi to‘garaklarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan qiziqishi oshadi, unga munosabati ongli ravishda shakllanadi va boshqa o‘tiladigan o‘quv fanlariga yanada qiziqishi ortadi. Ekologik tarbiya haqidagi fikrlar tabiatni sevish, uni ardoqlashga bo‘lgan xohish-istak, mas’uliyatni sezish, muammo haqidagi mustaqil tafakkur, mushohada qilish, ijobiy xulosalar chiqarishdan, tassavurlarni kengaytiruvchi sayyohatlar, ob-havo va tabiatni kuzatishdan, o‘zi yashayotgan muhitni ko‘kalamzor qilish, mevazorlashtirish, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishdan, oromgohlar faoliyatini rivojlantirishdan boshlanadi.

Darsdan tashqari ishlar o‘quvchilarda hamqorlik, do‘stlik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga qiziqish hislatlarini tarbiyalaydi. O‘quvchilarni tabiat va inson hayotiga oid bo‘lgan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qiziqarli faktlar, tushunchalar, ko‘nikmalar bilan qurollantiradi. Eng muhimi o‘quvchilarning ekologik bilimlarini oshiradi, unga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

Darsdan tashqari ishlarni tashkil etish usullaridan tabiatda olib boriladigan ishlar; kuzatish, sayr-sayohat, ekologik adabiyotlar bilan ishlash, ma’ruzalar, referatlar, gazetalar, stendlar tayyorlash kabilar amaliyotda keng tarqalgan. Shuningdek, ekologik tarbiyada o‘yinlardan foydalanish; kechalar, olimpiadalar, viktorinalar, turli xil o‘yinlar uyushtirishga katta e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz.

Ekologik targ‘ibotchi o‘quvchilar o‘z faoliyatlari davomida keng ko‘lamdagi maktab o‘quvchilari tabiatni mufofaza qilish, uni avaylab-asrash xissini o‘ygatish natijasida yaniy produktivlik (hosildorlik) qobiliyatinig rivojlanishiga erishildi. Produktivlik (hosildorlik) – bu faoliyat natijalarini baholovchi ko‘rsatkish, bu shaxsning ma’lum bir sohada vazifalarni samarali va samarali bajarish va maqsadlarga erishish qobiliyati hisoblanadi va ma’lum vaqt oralig‘ida olingan natijalar miqdorini belgilaydi.

Shuningdek, biz o‘quvchilarning ekoblogerlik faoliyatida ham qo‘llashimiz mumkin. Bunda ekobloger daraxtni avaylab-asrash, unga zarar etkazmaslik, kuchatlar ekish va uni parvarishlash orqali biz nafas oladigan havoni kislorod bilan boyishiga hissa qo‘shishimiz mumkinligini targ‘ib qilishda foydalanishi mumkin. Biz daraxtlarni saqlab qolishda kundalikli ishlatiladigan qog‘ozlardan foydalanishni kamaytirmasak qanday oqibatlarga olib kelishini o‘quvchilarga tushuntirishadi. Ekobloger agar qog‘ozni o‘rinsiz ishlatishning oldini olmasak o‘rmonlarni yo‘q qilamiz. Statistikaga muvofiq 1 tonna qog‘ozni tezash, 17 ta daraxtni, 26000 litr suvni, 240 litr yoqilg‘ini, 4000 kvt elektrenergiyasini saqlab qolishimiz mumkin ekan [3]. Lekin hozirgi kunda eng ko‘p uchraydigan chiqindi turi qog‘oz. Shunung uchun har bir inson o‘rmonlarni asrashni o‘zidan boshlashi kerak. Chunki daraxt – siz va biz nafas oladigan kislorodning negizgi ko‘zi. Bugun o‘ylanmasdan qog‘ozni foydalansak, nafaqat tabiatga, balki o‘zimizga ziyon etkazamiz. Biz qanchalikli qog‘ozlarni kam isrof qilsak, ishlatilgan qog‘ozlarni alohida yig‘ib qayta ishlab chiqarishga topshirsak, shuncha daraxtlarni saqlab qolishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz haqida yoshlarga tushuntirish ishlarini olib borishadi.

Shu ma’noda o‘quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantira olsak, bu bilan bir qatorda Vatanga muhabbat, yaqinlariga nisbatan hurmat-izzat, har bir narsadan oqilona foydalanish barcha mavjudotga nisbatan nafosat va g‘amxo‘rlikni ham tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz.

O‘quvchilarda ekologik ongni shakllantirishda maktablarda tashkil etiladigan ekologik targ‘ibotchilarni tayyorlovchi to‘garaklarning o‘rni behiyosdir.

Ekolog-targ‘ibotchilarni tayyorlash uchun tashkil etiladigan to‘garaklarda olib boriladigan targ‘ibot ishlarini quyidagi uchta: og‘zaki, ko‘rgazmalari va ommaviy axborot vositalari orqali namoyon etish mumkin.

Ko‘rgazmali targ‘ibot vositalariga: ekologik mavzuga bog‘liq bo‘lgan plakatlar, chaqiriqlar, fotogazetalar, devoriygazetalar, karikaturalar, eliminatsiyalar, ko‘rgazmalar, me’moral xonalar tashkil etishni kiritish mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ommaviy axborot vositalariga – ekologik masalalarni ko‘rsatuvchi kinofilmlar, gazetalar va jurnallarda maqolalar chop ettirish, radio eshittirishlar, televideniedan chiqishlar, ekobloger telegram kanallari tayyorlashni kiritishga bo‘ladi.

Og‘zaki targ‘ibot vositalariga – ekologik masalalarni ochib beruvchi chiqishlar, ma’ruzalar, hisobotlar, viktorinalar, xabarlar, musobaqalar, ekoblogerlar, ekovolonterlar, suhbatlar, uchrashuvlar, diskussiyalar, suhbatlar, dramalashtirilgan chiqishlar (badiiy asarlar o‘qib berish) va folklor (ashulalar), ekovolonterlar harakatlarini kiritish mumkin. Masalan, “Zakovat klubi” musobaqasini o‘tkazishni quyidagicha keltirish mumkin. Musobaqaning maqsadi quyidagicha belgilangan: Ekologik ta’lim va tarbiyani o‘quvchilar ongiga singdirish, o‘z Vatanini sevadigan va uni himoya qilishga tayyor, ekologik targ‘ibotchi, e’tiqodi but, sog‘lom dunyoqarashli insonlar qilib tarbiyalash.

O‘quvchilarning musobaqaga qadar egallashi lozim bo‘lgan bilimlari doirasida quyidagilar kiradi: ekologiya haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, ekologiya fanining rivojlanish tarixi va uni o‘rganish uchun zaruriyatning nima sababdan paydo bo‘lganligi, tabiat, atrof-muhit muhofazasi to‘g‘risida qonunlarni bilish, tabiatni tashkil etuvchi (quyosh, havo, suv, tuproq) komponentlarni va tabiat muhofazasiga oid eng zarur tushunchalarni bilish.

Tadbirni o‘tkazishda quyidagi pedagogik shart-sharoit vujudga keltiriladi: tadbir 40-50 o‘quvchiga mo‘ljallangan yig‘ilish xonasida o‘tkaziladi. Unda “Zakovat klubi” tipida o‘quvchilar o‘rtasida intelektual o‘yin-musobaqa o‘tkaziladi. Musobaqada ikki guruhdan iborat bo‘lgan 18 nafar o‘quvchi qatnashadi. Qolgan o‘quvchilar esa ularning faoliyatini kuzatadilar va baholaydilar. O‘qituvchi musobaqa shartini e’lon qiladi.

Musobaqa sharti bo‘yicha 1-turda o‘quvchilarning ekologiya fanining rivojlanish va uni o‘rganish uchun zaruriyatning nima sababdan paydo bo‘lganligiga oid bilimlari sinaladi. Bunda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- Ekologiya atamasi kim tomonidan va qachon fanga kiritilgan?
- Ekologiya so‘zi qaysi tildan olingan va qanday ma’noni anglatadi?
- Ekologiya fanining rivojlanishi va uni o‘rganish uchun zaruriyat nima sababdan paydo bo‘lgan?
- O‘zbekistonda ekologiya fani rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlardan kimlarni bilasiz?
- O‘quvchilar o‘rtasida ekologik targ‘ibot ishlarini olib borish kerakmi, nima uchun kerak deb o‘ylaysiz? – kabi savollar.

2-tur musobaqada savollar tabiat, atrof-muhit muhofazasi to‘g‘risidagi qonun bo‘yicha tuzilgan, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62 moddasi nima haqida? O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61 moddasida nima delingan? – kabi savollardan foydalaniladi.

3-tur shartida esa zakovat klubida ishtirok etayotgan raqib guruhlarning beradigan savol-topshiriqlari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Har ikki jamoa ishtirokchilari 3 tadan savol tayyorlab, konvertga joylaydilar. Raqib guruh qatnashchisi o‘zi tanlab olgan konvert ichidagi savolga javob berishi lozim.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Musobaqani baholash o‘quvchilar tomonidan belgilangan hay’at a’zolari hukmiga havola qilinadi.

Tadbirlarda qo‘llaniladigan bu xildagi noan’anaviy tarbiya shakllari o‘quvchilar faoliyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, avvalo, inson, uning madaniyatini, tabiat, tabiatni tashkil etuvchi (quyosh, havo, suv, tuproq) komponentlarni va tabiat muhofazasiga oid eng zarur tushunchalar mohiyatini anglashlariga yordam beradi. O‘quvchilar shundagina, o‘simliklarni payhon qilmaslik, gullarni yulmaslik, o‘rmonlar, ko‘chalarda yurganda shovqin chiqarmaslik, atrofga axlat to‘kmaslik, yong‘in chiqarmaslik, daraxtlarni kesmaslik, tuproq, havo, suvni iflos qilmaslik, yirtqich hayvonlarni o‘ldirish mumkin emasligi, energiya, Yer va suvdan unumli foydalanish zarurligini anglab etadi. Bu esa, o‘quvchida o‘z Vatani sharafini ongli ravishda himoya qilishga, uning qonun, qarorlarini sidqidildan bajaradigan inson sifatida tabiat va uning komponentlarini qo‘riqlashga, uning eng yaqin ishonchli do‘sti va himoyachisi bo‘lishga da’vat etadi. Shuningdek, o‘quvchilarda targ‘ibot ishlarini olib borishga ham qiziqish va istaklar rivojlanadi.

Tadbirlarda o‘quvchilar o‘zi yashayotgan o‘lka tabiati o‘simliklar dunyosi, hayvonot olami, barcha tirik organizmlarning inson hayoti va tabiatda tutgan o‘rnini baholash ko‘nikmalari shakllanadi va bu borada o‘quvchilar tomonidan kichik ilmiy-tadqiqot ishlari yo‘lga quyilishi “yosh ekolog targ‘ibotchi olimlarni” tarbiyalaydi.

O‘quvchilarni ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlash va tarbiyalashga yo‘naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning mazmuniga o‘rganiladigan davr ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy hayot mohiyati singdiriladi.

Mazkur turdagi tadbirlarda ishtiroq etish va o‘tkazish natijasida targ‘ribotchilar maktab o‘quvchilari o‘rtasida keng ko‘lamdagi ekologik targ‘botchilik ishlarini olib boradi va tabiatni mufofaza qilish, uni avaylab-asrash xissini o‘ygatishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytilganda, o‘quvchilardan ekologik targ‘ibotchilarni tayyorlashga yo‘naltirilgan darsdan tashqari tadbirlarda, o‘quvchilar tomonidan egallangan Orol muammosiga bog‘liq ekologik targ‘ibotchilik bilimlarini amaliyotga tadbiq etish asosida ekolog-targ‘ibotchilar faoliyatini tashkil etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lish, ijobiy axloqiy-ekologik fazilatlarni o‘zlashtirish, ularda dunyoqarash va madaniyatni shakllantirishga to‘liq yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60 sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori. https://lex.uz/ru/docs/4354743

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Turdiqulov E.O. O‘quvchilarda umumbashariy ekologik dunyoqarashni shakllantirish (I.A.Karimov asarlari vositasida): O‘qituvchilar uchun qo‘llanma; T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI. – Toshkent: Sharq, 2011. –160b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **B.K. Xojanov,** boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD), [**Б.К. Хожанов,** Старший преподаватель кафедры начального образования Нукусского государственного педагогического института, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам], [**B.K.Khojanov,** Nukus State Pedagogical Institute, Department of Primary Education, Senior Lecturer, PhD in Pedagogical Sciences]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

KOLLABORASIYA YO‘NALISHI ASOSIDA QIZLARNI ODOBLILIKKA TARBIYALASH USULLARI

© J.T. Abdijabbarova[1]✉

[1] Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqola hamkorlik yondashuvidan foydalangan holda qizlarni odoblilikka o'rgatish usullarini o'rganadi. Tadqiqot hamkorlikdagi ta'lim strategiyalari qizlarga xushmuomalalik, hurmat va ijtimoiy odob-axloq qoidalarini qanday samarali tarzda singdirishini o'rganadi. Bu ta'lim uslubining nazariy va amaliy jihatlariga e'tibor qaratib, odob-axloqni targ'ib qilishda hamkorlikdagi o'quv muhitining muhimligini ta'kidlaydi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, hamkorlikdagi faoliyat va tengdoshlarning o'zaro ta'siri qizlarda odob-axloqni rivojlantirishni sezilarli darajada yaxshilaydi, ijobiy ijtimoiy va akademik muhitni yaratadi. Tadqiqot ushbu usullarni ta'lim o'quv dasturiga kiritish bo'yicha tavsiyalar berish bilan yakunlanadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – ta’lim-tarbiya jarayonida kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) yondashuv orqali qizlarni odob-axloq me’yorlariga rioya qilishga o‘rgatish, ularda o‘zaro hurmat, ijtimoiy mas’uliyat, muloqot madaniyati va axloqiy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik usullarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinfida tahsil olayotgan qiz o‘quvchilar ishtirok etishdi. Tadqiqotning amaliy bosqichlarida pedagogik tajriba, kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, trening mashg‘ulotlari va statistik tahlil kabi zamonaviy ilmiy-pedagogik usullar kompleks tarzda qo‘llanildi. Eng avvalo, o‘quvchilarning hozirgi axloqiy holatini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuvlar olib borildi. Unda o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot, o‘zini tutish madaniyati, o‘qituvchilarga va tengdoshlariga munosabat kabi omillar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kollaborativ yondashuv asosida olib borilgan tarbiyaviy ishlar qiz o‘quvchilar orasida odoblilikka oid ijobiy fazilatlarning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Eksperimental guruhda tashkil etilgan guruhli mashg‘ulotlar, hamkorlikdagi muhokamalar, rolli o‘yinlar va ijtimoiy topshiriqlar orqali qizlarda o‘zaro hurmat, tinglash madaniyati, mehr-shafqat va o‘zini boshqalarning o‘rniga qo‘ya olish kabi axloqiy fazilatlar faol rivojlandi.

XULOSA: hamkorlik yondashuvi orqali qizlarni xushmuomalalikka o'rgatish ijtimoiy odob va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hamkorlikdagi o'quv faoliyati qizlarning xushmuomalalik, hurmat va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ijtimoiy xulq-atvor haqidagi tushunchalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Tengdoshlar bilan muloqot qilish va namuna olish uchun imkoniyatlarni taqdim etish orqali hamkorlik yondashuvi odob-axloqni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi ijobiy ta'lim muhitini yaratadi. Biroq, ushbu usulning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun teng bo'lmagan ishtirok etish va jalb qilish kabi muammolarni hal qilish kerak. O'qituvchilar o'z strategiyalarini takomillashtirib borishda davom etishlari kerak, bunda barcha talabalar odob va ijtimoiy ma`suliyatni rag'batlantiradigan hamkorlikda o'rganish tajribasidan foydalanishlari kerak.

Kalit so'zlar: qizlarni tarbiyalash, odob-axloq, ijtimoiy odob, hamkorlik yondashuvi, hamkorlikda o'rganish, ijtimoiy ko'nikmalar, tengdoshlarning ta'siri, xushmuomalalik, empatiya, sinfdagi o'zaro munosabat, guruh faoliyati, o'qituvchining strategiyasi, o'rnak olish, hurmat, shaxsiy rivojlanish.

Iqtibos uchun: Abdijabbarova J.T. Kollaborasiya yo'nalishi asosida qizlarni odoblilikka tarbiyalash usullari. // Inter education & global study. 2025, №6. B.78–86.

МЕТОДЫ ВОСПИТАНИЯ ДЕВОЧЕК В ДУХЕ ВЕЖЛИВОСТИ НА ОСНОВЕ КОЛЛАБОРАЦИОННОГО ПОДХОДА

© Д.Т. Абдиджаббарова[1]✉
[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: данная статья посвящена изучению методов воспитания девочек в духе вежливости с использованием коллаборационного подхода. Исследование рассматривает, как стратегии совместного обучения способствуют формированию у девочек таких качеств, как вежливость, уважение и соблюдение социальных норм поведения. Особое внимание уделено теоретическим и практическим аспектам этого подхода, а также важности создания образовательной среды, способствующей нравственному воспитанию. Результаты показывают, что совместная деятельность и влияние сверстников существенно способствуют развитию вежливости, создавая позитивную социальную и академическую атмосферу. В завершение даны рекомендации по внедрению данных методов в учебную программу.

ЦЕЛЬ: цель исследования – определить эффективные педагогические методы воспитания девочек в духе нравственности посредством коллаборационного подхода, а также внедрить их в воспитательно-образовательный процесс с целью формирования у учащихся взаимоуважения, социальной ответственности, культуры общения и приверженности моральным ценностям.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании приняли участие ученицы старших классов общеобразовательных школ. Были использованы современные научно-педагогические методы: педагогический эксперимент, наблюдение, беседа, анкетирование, тренинговые занятия и статистический анализ. В первую очередь, с

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

помощью педагогических наблюдений была изучена текущая нравственная обстановка среди учениц. Анализировались такие факторы, как культура общения, поведение, отношение к учителям и сверстникам.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что воспитательная работа на основе коллаборационного подхода играет важную роль в формировании положительных моральных качеств у девочек. Групповые занятия, совместные обсуждения, ролевые игры и социальные задания способствовали развитию у учащихся уважения, умения слушать, сочувствия и способности поставить себя на место другого. Сравнительный анализ показал, что экспериментальная группа демонстрировала более высокие показатели вежливости и культурного поведения по сравнению с контрольной группой.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: коллаборационный подход к обучению является эффективным методом развития вежливости и межличностных отношений среди девочек. Исследование показало, что совместная учебная деятельность значительно улучшает понимание вежливости, уважения и социального поведения. Создание образовательной среды, способствующей общению со сверстниками и возможности брать пример, укрепляет моральное развитие. Однако для полной реализации потенциала данного подхода необходимо решать проблемы неравного участия учащихся. Учителям следует постоянно совершенствовать свои стратегии, чтобы все учащиеся могли воспользоваться преимуществами совместного обучения, направленного на формирование нравственности и социальной ответственности.

Ключевые слова: воспитание девочек, нравственность, социальная этика, коллаборационный подход, совместное обучение, социальные навыки, влияние сверстников, вежливость, эмпатия, взаимоотношения в классе, групповая деятельность, стратегия учителя, пример, уважение, личностное развитие.

Для цитирования: Абдиджаббарова Д.Т. Методы воспитания девочек в духе вежливости на основе коллаборационного подхода. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 78–86.

METHODS OF EDUCATING GIRLS IN MODESTY BASED ON THE COLLABORATION APPROACH

©Jamilya T. Abdijabbarova[1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores methods of teaching girls proper etiquette using a collaborative approach. The research examines how collaborative learning strategies effectively instill politeness, respect, and social manners in girls. Focusing on both the theoretical and practical aspects of this educational method, it emphasizes the importance of a collaborative learning environment in promoting good manners. The

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

findings indicate that collaborative activities and peer interaction significantly enhance the development of proper behavior in girls, creating a positive social and academic atmosphere. The study concludes with recommendations for incorporating these methods into educational curriculum.

AIM: the main objective of this research is to identify effective pedagogical methods for educating girls in moral and ethical behavior through a collaborative approach, aiming to develop mutual respect, social responsibility, communication culture, and commitment to ethical values, and to implement these methods into educational practice.

MATERIALS AND METHODS: the research involved senior female students from general secondary schools. The practical phase used a set of modern scientific and pedagogical methods including pedagogical experiments, observation, interviews, questionnaires, training sessions, and statistical analysis. Initially, pedagogical observation was conducted to assess the current moral condition of the students, focusing on their communication style, behavior, and interactions with teachers and peers.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings revealed that educational work based on a collaborative approach played a crucial role in shaping positive moral qualities among the girls. Group activities, collaborative discussions, role-playing games, and social tasks helped to foster respect, listening skills, compassion, and empathy. Comparative analysis showed that students in the experimental group demonstrated higher levels of polite and culturally appropriate behavior than those in the control group.

CONCLUSION: a collaborative learning approach is an effective method for fostering politeness and interpersonal relationships among girls. The study shows that collaborative educational activities significantly improve students' understanding of politeness, respect, and social conduct. Providing opportunities for peer communication and role modeling creates a supportive moral learning environment. However, challenges such as unequal participation and engagement must be addressed to fully realize the potential of this method. Teachers should continuously refine their strategies to ensure that all students benefit from collaborative learning experiences that promote ethical behavior and social responsibility.

Key words: girls' upbringing, etiquette, social manners, collaborative approach, cooperative learning, social skills, peer influence, politeness, empathy, classroom interaction, group activities, teacher strategies, role modeling, respect, personal development.

For citation: Jamilya T. Abdijabbarova. (2025) 'Methods of educating girls in modesty based on the collaboration approach', Inter education & global study, (6), pp. 78–86. (In Uzbek).

Har bir jamiyatning taraqqiyoti uning axloqiy qadriyatlariga bog'liq. Ayniqsa, qizlarni odobli, tarbiyali va axloqiy yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish muhim vazifalardan biridir. Bugungi globallashuv davrida odob-axloq qoidalarini shakllantirish va mustahkamlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri – *kollaborativ ta'lim*

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

(hamkorlikda o‘qitish) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu usul qizlarni nafaqat odobga, balki ijtimoiy muloqotga, o‘z fikrini madaniyatli tarzda ifoda etishga ham o‘rgatadi. Qizlarni odob-axloq qoidalariga va ijtimoiy odob-axloq qoidalariga o‘rgatish ularning umumiy rivojlanishining muhim jihati, xususan, o‘zaro munosabatlar, o‘zini o‘zi hurmat qilish va boshqalarga hurmat ko‘rsatish nuqtai nazaridan. Odob tushunchasi xushmuomalalik, to‘g‘ri muomala va to‘g‘ri ijtimoiy xulq-atvor kabi bir qator xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. An'anaga ko'ra, bu ta'lim to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma va namuna olish orqali beriladi. Biroq, so'nggi ta'lim tendentsiyalari, ayniqsa, hamkorlikda o'rganish kontekstida ushbu qadriyatlarni targ'ib qilish uchun ko'proq interfaol va hamkorlik usullariga urg'u beradi.

Ta'limdagi hamkorlik yondashuvi tengdoshlarning o'zaro munosabatini, umumiy mas'uliyatni va o'zaro hurmatni rag'batlantiradigan guruhga asoslangan faoliyatga qaratilgan. Ushbu yondashuv o'rganishning turli jihatlarini, jumladan, ijtimoiy ko'nikmalar, muloqot va hissiy intellektni yaxshilashi ko'rsatilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi, ayniqsa, boshlang'ich va o'rta maktab sharoitida qizlarga xushmuomalalikni o'rgatish uchun hamkorlikdagi o'quv muhitidan qanday foydalanish mumkinligini o'rganishdir. Ushbu maqolada hamkorlikda o'rganishning qizlarning odob-axloq va ijtimoiy etiketni rivojlantirishga ta'siri bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tadqiqotda kuzatuv va suhbatlarga e'tibor qaratiladigan sifatli tadqiqot loyihasi qo'llanildi. Ma'lumotlar o'quv dasturlariga hamkorlikda o'qitish usullarini integratsiyalashgan bir nechta maktablarda 20 o'qituvchi va 100 o'quvchidan to'plangan. O'qituvchilardan hamkorlikdagi faoliyatlar orqali odob-axloqni o'rgatish bo'yicha o'z tajribalarini bayon qilishlari so'ralgan, talabalar esa xushmuomalalik, hurmat va ijtimoiy odob-axloq qoidalarini rivojlantirishga qaratilgan guruhlarga asoslangan mashqlarda ishtirok etishgan.

Kollaborativ ta’lim – bu o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashini ta’minlaydigan ta’lim metodikasi bo‘lib, u faqat bilim olishni emas, balki axloqiy tarbiyani ham shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv orqali:

* Qizlar o‘zaro muloqot qilishni o‘rganadilar va hurmat qilish qoidalariga rioya qiladilar.
* Mustaqil fikrlash va mas’uliyat hissi shakllanadi.
* Jamoaviy hamkorlik orqali ijtimoiy qadriyatlar mustahkamlanadi.
* Real hayotiy vaziyatlar asosida odob-axloq qoidalari o‘rganiladi.

Bu metod o‘qituvchilarga ham qizlarni shaxsiy hayotiy tajribasi orqali tarbiyalash imkonini beradi. Kollaborativ yondashuvlar yordamida qizlar jamiyatda o‘z o‘rinlarini topish, o‘zlarini hurmat qilish va boshqalarni ham qadrlashni o‘rganadilar.

Odobli bo‘lish – insonning ichki madaniyati va tarbiyasini ifodalovchi muhim sifatlardan biridir. Qizlarni odobga o‘rgatishda quyidagi tamoyillarga e’tibor berish lozim:

1. Shaxsiy o‘rnak tamoyili – Ota-ona, o‘qituvchilar va jamiyat kattalari qizlarga namuna bo‘lishi kerak.
2. Muloqot madaniyati – Qizlar boshqalar bilan madaniyatli va odobli muomalada bo‘lishni o‘rganishlari kerak.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Kamtarlik va odob saqlash – Kamtarlik va odobli bo‘lish jamiyatda yaxshi obro‘ qozonishga yordam beradi.
4. Jamoaviylik va hurmat – Odamlar bilan yaxshi munosabat o‘rnatish, o‘zaro hurmat qilish juda muhim.
5. Axloqiy qadriyatlarni singdirish – Milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar qizlarning tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Kollaborativ ta’lim orqali ushbu tamoyillar samarali tarzda singdiriladi, chunki qizlar bir-biri bilan tajriba almashadi va odob-axloqni o‘zlashtirish jarayoni tezlashadi.

Biz o'z navbatida qizlarni odoblilikka tarbiyalash usullarini ham o'rganib, amaliyotda uni foydalana olsak, natija biz o'ylagannan ham ko'ra yuqoriroq bo'ladi.

1. Guruhiy muhokamalar va ro'lli o‘yinlar

Muhokama va ro'lli o‘yinlar qizlarni turli vaziyatlarni tushunishga o‘rgatadi. Ular quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi mumkin:

* “Odob va hurmat” mavzusida bahs-munozaralar.
* “Muomala madaniyati” bo‘yicha ro'lli o‘yinlar.
* Hayotiy vaziyatlarga oid sahna ko‘rinishlari (masalan, jamoat joylarida o‘zini qanday tutish kerak?).

Bu usullar orqali qizlar muomala madaniyati va axloq qoidalarini amaliy tarzda o‘rganadilar. Mentorlik va tajriba almashish katta yoshdagi tajribali ayollar bilan uchrashuvlar qizlarning odob-axloq borasidagi bilimlarini boyitadi. Masalan:

1. Onalar maktabi – tajribali ayollar va onalar o‘z maslahatlarini berishadi.
2. Axloqiy qadriyatlar bo‘yicha seminarlar – qizlarga milliy va diniy axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish.

Hamkorlikdagi loyihalar va jamoaviy ishlar qizlar jamiyatda faollik ko‘rsatish orqali odob-axloq qoidalarini mustahkamlashlari mumkin. Masalan:

* Ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish – mehribonlik uylariga yordam, ekologik loyihalar.
* “Odobli qiz – jamiyat ziynati” mavzusida insho yozish.
* Do‘stona maslahat – qizlar bir-birlariga odobli bo‘lish haqida maslahatlar beradi.

Tadqiqot qizlarning odob-axloq ta'limiga hamkorlikda o'rganishning ta'siriga oid bir qancha muhim xulosalarni ochib berdi. Birinchidan, jamoaviy munozaralar, rol o'ynash va hamkorlikda muammolarni hal qilish kabi hamkorlikdagi faoliyatdan foydalanish qizlarning ijtimoiy odob-axloq qoidalarini tushunish va amaliyotini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Bu tadbirlar qizlarga tuzilgan muhitda tengdoshlari bilan muloqot qilish, ularga xushmuomala xulq-atvorini modellashtirish va tengdoshlaridan fikr-mulohazalarni olish imkonini berdi.

Yaxshilangan ijtimoiy ko'nikmalar: hamkorlikdagi o'quv muhiti qizlar o'rtasida muloqot qilish, faol tinglash va nizolarni hal qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berdi. O'qituvchilarning ta'kidlashicha, guruh mashg'ulotlarida qatnashgan o'quvchilar muloqot qilish qobiliyatini, jumladan, muloyim tildan foydalanish, ko'z bilan aloqa qilish va suhbat davomida hurmat ko'rsatishni yaxshi ko'rsatdilar. Qizlar, shuningdek, boshqalarning his-tuyg'ulari va nuqtai nazarlarini hisobga olgan holda, o'z

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

fikrlarini hurmat bilan ifodalashni o'rgandilar. Ushbu ijtimoiy ko'nikmalar talabalardan umumiy maqsadlar sari birgalikda ishlashni, umumiy mas'uliyat va o'zaro hurmat hissini tarbiyalashni talab qiladigan hamkorlikdagi vazifalar orqali yanada mustahkamlandi.

O'z-o'zini anglash va empatiyaning kuchayishi: hamkorlikdagi o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etgan qizlar o'z-o'zini anglash va hamdardlik hissini rivojlantirish. Guruhdagi munozaralar va tengdoshlarning o'zaro muloqoti orqali ular o'zlarining his-tuyg'ularini tan olish va boshqarishni, shuningdek, boshqalarning hissiy ehtiyojlarini tushunishni o'rgandilar. O'qituvchilarning ta'kidlashicha, bu kuchaytirilgan hamdardlik ko'proq e'tiborli xulq-atvorga aylandi, bunda talabalar tengdoshlarining his-tuyg'ulariga nisbatan sezgirlikni oshirdi va mehribonlik harakatlarini namoyish etdi. Hamkorlik yondashuvi qizlar uchun o'zlarini ifoda etishlari va xatti-harakatlari haqida fikr yuritishlari uchun xavfsiz maydon yaratdi, bu esa o'z navbatida ularning shaxsiy o'sishi va ijtimoiy xabardorligiga hissa qo'shdi.

Tengdoshlarning ta'siri va rol modellari: Tengdoshlarning ta'siri qizlar o'rtasida xushmuomalalikni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. O'qituvchilarning kuzatishlaricha, odobli xulq-atvori va hurmati bilan ajralib turadigan qizlar ko'pincha tengdoshlariga o'rnak bo'lishadi. O'quv jarayonining hamkorlikdagi xususiyati bu ijobiy xatti-harakatlarni kuzatish va taqlid qilish orqali mustahkamlash imkonini berdi. Natijada, qizlar o'z tengdoshlarining xushmuomala va hurmatli xatti-harakatlarini ko'rganlarida, ijtimoiy jihatdan maqbul xatti-harakatlarni qabul qilishlari mumkin edi. Tengdoshlar tomonidan boshqariladigan o'rganishning bu modeli, ayniqsa, odob-axloqni targ'ib qilishda samarali bo'ldi, chunki qizlar o'z tengdoshlari guruhida o'zlari hayratga tushgan kishilarning harakatlariga taqlid qilishga undadilar.

Amalga oshirishdagi qiyinchiliklar: Ijobiy natijalarga qaramay, tadqiqot dekoratsiyani o'rgatishda hamkorlik yondashuvini tatbiq etishda bir qancha qiyinchiliklarni ham aniqladi. Muhim to'siqlardan biri talabalarning turli darajadagi ishtiroki va faolligi edi. Ba'zi qizlar guruh faoliyati bilan shug'ullanishni istamaydilar, bu ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga va odob-axloqning ahamiyatini tushunishga to'sqinlik qildi. O'qituvchilar barcha o'quvchilar birgalikdagi vazifalarni bajarishda o'zlarini qulay his qilishlarini ta'minlash uchun qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhit yaratish zarurligini ta'kidladilar.

Bundan tashqari, o'qituvchilar o'rganishning birgalikdagi jihatini individual mas'uliyat bilan muvozanatlashda qiyinchiliklar haqida xabar berishdi. Ba'zi hollarda guruh dinamikasi ishtirok etishdagi nomutanosiblikka olib kelishi mumkin, ba'zi talabalar munozaralarda ustunlik qiladi, boshqalari esa passiv bo'lib qoladi. Ushbu muammolarni hal qilish o'qituvchilardan guruhlardagi o'zaro munosabatlarni diqqat bilan kuzatishni va barcha talabalarning teng ishtirokini ta'minlashni talab qildi. O'qituvchilar, shuningdek, xushmuomalalik va odob-axloq qoidalarini qo'llab-quvvatlaydigan hamkorlikda o'rganish strategiyalarini samarali amalga oshirish uchun doimiy kasbiy rivojlanish zarurligini ta'kidladilar.

Munozara

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ushbu tadqiqot natijalari qizlarni odob va ijtimoiy odob-axloq qoidalariga o'rgatishda hamkorlik yondashuvining samaradorligini ko'rsatadi. Hamkorlikdagi o'quv muhiti qizlarga xushmuomalalik, muloqot va hamdardlikni mashq qilish va mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Strukturaviy tadbirlarda tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali talabalar akademik va ijtimoiy muhitda ularga yaxshi xizmat qiladigan muhim ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga muvaffaq bo'lishdi.

Shu bilan birga, aniqlangan muammolar, masalan, turli darajadagi ishtirok etish va guruh ishtirokidagi nomutanosiblik - xushmuomalalikni o'rgatishda hamkorlik usullaridan foydalanganda puxta rejalashtirish va monitoring qilish zarurligini ta'kidlaydi. O'qituvchilar barcha o'quvchilar ishtirok etishda o'zlarini qulay his qiladigan inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi muhitlarni yaratishlari kerak va ular tengsiz ishtirok etish yoki qatnashmaslik bilan bog'liq har qanday muammolarni hal qilishda faol bo'lishlari kerak.

Topilmalar shuni ko'rsatadiki, qizlar o'rtasida xushmuomalalikni targ'ib qilishda tengdoshlarning ta'siri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tengdoshlar guruhidagi ijobiy namunalar boshqalarni hurmatli va muloyim xatti-harakatlarga undashi mumkin. O'qituvchilar hurmat va mehr-oqibatni ta'kidlaydigan sinf madaniyatini tarbiyalash va o'quvchilarni bu fazilatlarni rivojlantirishda bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga undash orqali bu dinamikadan foydalanishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Azizxo‘jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" – Toshkent: Fan, 2014.
2. Yo‘ldoshev M., To‘rayev I. "Axloqiy tarbiya asoslari" – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
3. Qodirov N. "Odob-axloq qoidalari" – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
4. Hasanboyeva U. "Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim metodlari" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. Karimova D. "Oila va maktabda tarbiya asoslari" – Toshkent: Sharq, 2020.
6. Vygotsky L.S. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes" – Harvard University Press, 1978.
7. Dewey J. "Democracy and Education" – New York: Macmillan, 1916.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Ma’naviyat va ma’rifatni rivojlantirish to‘g‘risida" – 2019 yil 3-aprel.
9. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim kodeksi – 2021 yil.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori "Milliy qadriyatlar va axloqiy tarbiya konsepsiyasi" – 2022 yil.
11. UNESCO report on Collaborative Learning "The Impact of Cooperative Learning in Education", 2021.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

✉ **Abdijabbarova Jamilya Tilepbaevna**, Boshlang‘ich ta’lim fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi, [**Абдиджаббарова Джамиля Тилепбаевна,** старший преподаватель кафедры «Начальное образование» факультета начального образования], [**Abdijabbarova Jamilya Tilepbaevna**, senior lecturer, department of Primary Education, Faculty of Primary Education]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BOSHLANG`ICH SINFLARDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO`LLASHNING AHAMIYATI

© G.X. Mirzabekova[1]✉

[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog'iston

Annotatsiya

KIRISH:z pedagogik texnologiyalar mohiyati o'quvchiga bilim berish, ularni to'liq o'zlashtirishdan iborat. Ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishda asosiy talab o'quvchining hayotiy tajribasi, av val o'zlashtirgan bilimi va qiziqishlari aso sida yangi bilim berishni ko'zda tutadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligini aniqlash, ularning ta’lim sifati, o‘quvchilar faolligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga bo‘lgan ta’sirini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarini samarali tashkil etish yo‘llarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ham tadqiqot maqsadiga kiradi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1–4-sinflarida o‘qiyotgan o‘quvchilar, ularning sinf rahbarlari va fan o‘qituvchilari ishtirok etdilar. Amaliy bosqichda quyidagi metodlar qo‘llanildi: pedagogik kuzatuv, suhbat, testlar, eksperimentlar, diagnostik tahlil va statistik ma’lumotlar tahlili. Eksperimental va nazorat guruhlari tashkil qilinib, eksperimental guruhda zamonaviy interaktiv, modulli va muammoli ta’lim texnologiyalari asosida darslar tashkil etildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy dars o‘tkazish usullari qo‘llanildi. Jarayon davomida o‘quvchilar bilim darajasi, mustaqil fikrlash, darsdagi ishtirok faolligi, shuningdek, kommunikativ ko‘nikmalar baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik texnologiyalar asosida olib borilgan darslar o‘quvchilarning faolligini oshirishda, bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Eksperimental guruhdagi o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi, muloqot madaniyati, mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori darajada rivojlandi. Interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, insert, “fikrlar savati”, “blits-so‘rov” va b.q.) orqali dars jarayoni o‘quvchi uchun qiziqarli va mazmunli tus oldi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik texnologiyalar qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning ijodiy yondashuvi, mustaqil o‘qib-o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi ortdi, o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligi mustahkamlandi. Bu esa ta’lim sifati va samaradorligining oshishiga xizmat qildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

XULOSA: boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi – ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni faol, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interaktiv va innovatsion usullar yordamida dars o‘tish nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va ijodkorlikni ham shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘z kasbiy faoliyatiga faol va samarali tatbiq etishlari lozim.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, ta'lim, boshlang‘ich sinflar, takomillashish.

Iqtibos uchun: Mirzabekova G.X. Boshlang`ich sinflarda pedagogik texnologiyalarni qo`llashning ahamiyati. // Inter education & global study. 2025, №6. B.87–97.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

© Г. Х. Мирзабекова[1]✉
[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: суть современных педагогических технологий заключается в предоставлении учащимся знаний и обеспечении их полного усвоения. Основным требованием к обучению в образовательных учреждениях на основе педагогических технологий является предоставление новых знаний с опорой на жизненный опыт студента, ранее полученные знания и интересы.

ЦЕЛЬ: основная цель данного исследования – определить эффективность применения современных педагогических технологий в учебно-воспитательном процессе учащихся начальных классов, а также изучить их влияние на качество образования, активность учащихся, способность к самостоятельному мышлению и усвоение знаний. Кроме того, исследование направлено на выявление эффективных путей организации учебного процесса с применением педагогических технологий и разработку практических рекомендаций.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании приняли участие учащиеся 1–4-х классов общеобразовательных школ, их классные руководители и предметные учителя. На практическом этапе были использованы следующие методы: педагогическое наблюдение, беседа, тестирование, эксперименты, диагностический и статистический анализ. Были сформированы экспериментальная и контрольная группы. В экспериментальной группе занятия проводились с применением современных интерактивных, модульных и проблемных образовательных технологий. В контрольной группе применялись традиционные методы преподавания. В процессе эксперимента оценивались уровень знаний учащихся, самостоятельное мышление, активность на уроках и коммуникативные навыки.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: полученные результаты показали, что занятия, проведённые на основе педагогических технологий, играют важную роль в повышении активности учащихся и эффективном усвоении учебного материала. Ученики экспериментальной группы продемонстрировали более высокий уровень учебной мотивации, культуры общения, навыков самостоятельного мышления и решения проблем по сравнению с контрольной группой. Использование интерактивных методов (кластер, мозговой штурм, insert, «корзина идей», «блиц-опрос» и др.) сделало уроки интересными и содержательными для учащихся.

Анализ показал, что в классах, где применялись педагогические технологии, значительно возросли творческий подход учеников и их интерес к самостоятельному обучению, а взаимодействие между учителем и учеником стало более продуктивным. Это, в свою очередь, способствовало повышению качества и эффективности обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: применение педагогических технологий в начальном образовании имеет важное значение для повышения качества образования и формирования у учащихся активного, самостоятельного и социально зрелого поведения. Результаты исследования показывают, что проведение уроков с использованием интерактивных и инновационных методов способствует не только передаче знаний, но и развитию социальной активности, инициативности и креативности у учеников. В связи с этим учителям начальных классов необходимо активно и эффективно внедрять современные педагогические технологии в свою профессиональную деятельность.

Ключевые слова: педагогические технологии, образование, начальные классы, совершенствование.

Для цитирования: Мирзабекова Г.Х. Важность использования педагогических технологий в начальных классах. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 87–97.

THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY CLASSES

© Gumsha X. Mirzabekova[1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: the essence of modern pedagogical technologies is to provide students with knowledge and ensure their complete assimilation. The main requirement for training in educational institutions based on pedagogical technologies is the provision of new knowledge based on the student's life experience, previously acquired knowledge and interests.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

AIM: the main objective of this research is to determine the effectiveness of applying modern pedagogical technologies in the educational process of primary school students and to study their impact on the quality of education, student engagement, independent thinking skills, and deep knowledge acquisition. Additionally, the study aims to identify effective ways of organizing lessons using pedagogical technologies and to develop practical recommendations for their implementation.

MATERIALS AND METHODS: the study involved students of grades 1–4 from general education schools, their homeroom teachers, and subject teachers. During the practical phase, the following methods were used: pedagogical observation, interviews, tests, experiments, diagnostic analysis, and statistical data analysis. Experimental and control groups were formed. Lessons in the experimental group were conducted using modern interactive, modular, and problem-based teaching technologies, while the control group followed traditional teaching methods. Throughout the process, students' knowledge levels, independent thinking, classroom engagement, and communication skills were assessed.

DISCUSSION AND RESULTS: the results showed that lessons conducted using pedagogical technologies played an important role in increasing student engagement and ensuring the efficient acquisition of knowledge. Students in the experimental group demonstrated significantly higher levels of learning motivation, communication culture, independent thinking, and problem-solving skills compared to the control group. The use of interactive methods (such as clustering, brainstorming, INSERT, "idea basket," "blitz questioning," etc.) made the lessons more engaging and meaningful for students.

Analysis indicated that in classrooms where pedagogical technologies were used, students' creative approaches and interest in self-learning increased noticeably, and teacher-student cooperation was strengthened. This contributed directly to the improvement of educational quality and effectiveness.

CONCLUSION: the application of pedagogical technologies in primary education plays a crucial role in enhancing the quality of education and nurturing students into active, independent thinkers and socially mature individuals. According to the research findings, lessons conducted with interactive and innovative methods not only deliver knowledge effectively but also develop students' social activity, initiative, and creativity. Therefore, primary school teachers should actively and efficiently integrate modern pedagogical technologies into their professional teaching practices.

Key words: pedagogical technologies, education, primary school, improvement.

For citation: Gumsha X. Mirzabekova. (2025) 'The importance of using pedagogical technologies in primary classes', Inter education & global study, (6), pp. 87–97. (In Uzbek).

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiya lardan foydalanish samaradorligi o'zining ko'p qirraliligi bilan namoyon bo'lmoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

«O'quvchining ruhiy holatlari, uning kela jakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti?», degan savollarning echi miga bog'liq. Shu jihatdan olganda, pedagogik texnologiya shaxs rivojlanishi bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash va differensiya lash imkoniyatlariga ega. Bu pedagogning ta'lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatiga bog'liq.

Uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiallarini o'quvchi tomonidan qabul qilish va o'zlashtirish samarasini oshiradi.

Shu bois shaxsiy kompiyuterlar ta'lim vo sitasiga aylanmoqda. Bu shaxsiy kompiyuter o'qituvchining barcha funksiyalarini o'z zimmasiga oldi, degani emas, albatta. Balki o'quvchining shaxsiy kompiyuter bilan ishlashi ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda har bir sohaning takomillashishi, rivojlanishi uchun xilmaxil metodlar qo'llanilayotganidek, ta'limtarbiya sohasida ham turli xil metodlardan foydalanilmoqda. Shundan tabiat haqidagi fan – tabiatshunos lik darslarini o'qitishda didaktik o'yinli texnologiyalarning metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki tabiatshunoslik darslarida qo'llaniladigan metodlarning xilmaxilligi o'quvchida fanni bilishga qiziqishini orttiradi.

Didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqilligi va o'quv fani faoliyatini taqiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etishni talab etadi. Ularni faoliyatiga ongli ravishda yo'llash birorbir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki sa marali tashkil etish orqali o'quvchilarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Bunday darslarni olib borishda o'quvchining tabiatshunoslik fanidan to'liq bilim olishi, axloqli bo'lishi, birorbir kasb tanlash iste'dodini ravnaq toptirish, xalqimizning yaxshi fazilatlarini egallashi uchun avvalo o'qituvchining ijodiy mehnat qilishi talab etiladi. O'qituvchi o'quvchiga nisbatan sergak, ziyrak bo'lib, uning qiziqishi, qobiliyatini hisobga olib, murabbiylarcha muomalada bo'lishi darkor. Shundan keyingina darslarda foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasbga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi.

Metodist o'qituvchilarning ko'p yillik tajribalari va kuzatishlaridan didaktik o'yinlar boshqa fanlar qatori tabiatshunoslik darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarning mazmunli bo'lishida eng qulay va samarali usullardan biri hisoblanishi qayd qilingan. Darsda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishi, hozirjavobligini bilishni chuqur egallashga qaratilgan ko'nikma va malakalarni oshirishi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida bir qator innovasion

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

texnologiyalar, jumladan, tabiatshunoslik darslarida rolli o'yinlar, klaster, ishbilarmonlar o'yini va boshqalardan foydalanish zarurligi haqida ham fikr yuritilgan.

M.Xolmetov maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limtarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining asosiy maqsadida kelajak avlodni jismonan va ruhan sog'lom tarbiyalash, maktabgacha tayyorgarlik tushunchasi bolaning aqliy va maxsus tayyorgarlik yo'nalishlarini o'z ichiga olganligi, avvalo jismoniy tayyorgarlik deganda, kichkintoy o'ziga mos milliy o'yinlarning qoidalari, unda faol ishtirok etishi belgilangan topshiriqlarni bajara olishi haqida fikr yuritgan.

Darslarda foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish, darslik va qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil foydalanish, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasbga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi.

Undan tashqari ma'lumki, an'anaviy ta'limda, ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish uslublari, nazorat natijalarini baholash kabi ko'plab jarayonlar ma'lum bir tizimsiz amalga oshirilgan, ya'ni ularni bajarish oldidan loyihalashtirilmagan. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga tayyor ma'lumotlar berib, o'quvchilar ularni xotiralarida saqlab qolishlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan eski ta'limda kafolatlangan natijaga erishish fikri yuritilmagan. Boshlang'ich ta'limda har bir masalaga chuqur yondashib, oldin dan loyihalashtirilgan ma'lumotlarni faqat o'qituvchi beribgina qolmay, balki o'quvchilarni mustaqil ishlashi, darsda o'qituvchi bilan fikr almashishishiga e'tibor qaratilgan va kafolatlangan natijaga erishish haqida fikr yuritilib, an'anaviy va noan'anaviy ta'limni taqqoslab, ularning afzalliklari ochib berilgan.

Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun o'ziga xos vositalar zarur bo'ladi. Har bir pedagogik texnologiyada qo'llaniladigan vosi talar umuman o'xshash bo'lib, ularning turlari ko'p. Ularni shartli ravishda quyidagi turlar ga ajratish mumkin: verbal, noverbal, vizual, studiya, tabiiy, o'quv anjomlari hamda maktab jihozlari.

Verbal vositalarning asosini axborot tashkil qiladi. Bular so'zlar bilan ifodalanadigan axborotlar bo'lib, ularni so'z orqali ifodalab berish uchun o'qituvchi uni o'zlashtirgan bo'lishi, ya'ni shu axborot haqida bilimga ega bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, pedagogik texnologiyalarning verbal vositalari o'qituvchining bilimlari darajasidagi axborot hisoblanadi.

Shu sababli hozirgi ta'lim jarayonida faqat o'qituvchi va o'quvchilarning ishtirok etishi etarli bo'lmay qoldi.

Zamonaviy ta'limni amalga oshirishning yana bir zarur sharti o'quv fanlari bo'yicha axborot manbalari, shu jumladan, yangi axborot texnologiyalaridan tez va qulay foydalanish imkonini beruvchi turlaridan har bir o'qituvchi va o'quvchi erkin foydalana oladigan sharoit yaratishdan iborat. Ya'ni, hozirda sifatli ta'lim berish uchun o'qituvchi o'quvchiga zarur axborotlarni etkazib turuvchi xizmatdan iborat faoliyatni tashkil qilish zarur.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bu yo'nalish axborot texnologiyalarini ta'limtarbiya jarayoniga joriy qilish yo'nalishi deb nomlanadi. Shu axborotlarni o'quvchilar tushuna oladigan mantiqiy shakllarda ifodalash o'quvchi bilan o'qituvchining verbal muloqotini tashkil qiladi.

Verbal muloqot shakllari turli bo'lib, ularning asosiylari nutq so'zlash, suhbatlashish, savol berish, savolga javob berish, bahs, munozara, xabar berish, maslahat, nasihat, tanbeh, tabrik, salomlashish, xayrlashish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ushbu verbal muloqot shakllarida qo'llaniladigan nutq intonasiyalari so'zlovchining fikri uning maqsadiga muvofiq bo'lgan ma'nomazmunni chuqurlashtirish, yaqqollashtirish imkonini beradi.

O'qituvchi o'quvchi uchun ma'lum bo'lgan tushunchalarga asoslangan holda yangi axborotlar bilan tanishib, uni tushuntirib beradi.

Bu jarayonda o'quvchilar diqqatni jamlash, tinglash, eshitish, anglash, idrok qilish, mantiqiy fikrlash, xotirada saqlash, qayta eslash faoliyatlari bilan band bo'ladilar. Bunda o'quvchining qiziqishi, ehtiyoji, manfaatdorligi, qobiliyat, iste'dod, iqtidori uning muvaffaqiyati asosi bo'ladi.

Ko'pchilik olimlar ta'lim ob'ekti deb, o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar.

Ta'limtarbiya tizimini takomillashtirishni bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishning innovasiya jarayoni deb qarash mumkin. Biz bunda «innovasiya»ni birorbir sinf o'quvchilari faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovasiya sub'ekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan yondashuvni tushunamiz.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik jamoada muvaffaqiyatli joriy qilinishi va yaxshi samara berishi bir qator omillarga bog'liq.

Ularni uchta katta guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh omillari kiritilayotgan yangilikning mazmuni, sifati va boshqa xususiyatlari bilan bog'liq. Bunda yangilikning mukammalligi, tajribada sinab ko'rilganligi va milliy mahalliy sharoitga mosligini chuqur o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi guruh esa yangilikni kiritishga oid yondashuv bilan bog'liq omillarni qamrab oladi: yangilik kiritishning rejalashtirilganligi, bosqichmabosqichlilikka amal qilinganligi. Uchinchi guruh ijtimoiypsixologik omillar bo'lib, uning tarkibiga yangilikka pedagogik jamoa munosabati, rahbarlik uslubi va boshqalar kiradi. Har qanday yangilik kiritilishi, shu jumladan, zamonaviy pedagogik texnologiya ning joriy qilinishi va zaruriy samara berishi pedagogik jamoa a'zolarining yangilikni qanday qabul qilishi, unga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Odatda yangilikning kiritilishi jarayonida yangilikka nisbatan psixologik g'ov paydo bo'ladi. Psixologik g'ov yangilikka tegishli bo'lgan pedagogik jamoaning o'z yangiligiga nisbatan befarq yoki salbiy munosabatida namoyon bo'ladi. Kishilarda bunday psixologik g'ov ochiq yoki yashirin holda uchrashi kuzatiladi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, bunday g'ov kishilarning odatdagi faoliyat uslubini afzal ko'rishi, noaniqlikdan qo'rqishi, ortiqcha ishlarning paydo bo'lishi, innovasiyaning zaruriyati yoki muhimligini tushunmasliklari bilan bog'liq.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish samaradorligiga pedagogik jamoa rahbarlarining yangilikka munosabati, boshqaruv uslubi, rahbar va xodim lar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xususiyatla ri kuchli ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik jamoa a'zolarining bu yangilik haqida to'liq zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlanishi hamda ular ning bu munosabatni yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlar olib borishi zarur.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yin texnologiyalari didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Didaktik o'yinli darslar o'quvchilarning bilim olish faoliyati o'yin fao liyati bilan uyg'unligi, mazmuni va mohiyatiga ko'ra syujetlirolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlik o'yini, konferensiyalar va o'yin mashqlariga ajratiladi. Darsda didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanishdan oldin bunday o'yinga mos keluvchi mavzuni tanlash lozim.

Dars o'tishda didaktik o'yinli texnologiya lardan foydalanganda dars davomida didak tik jarayon ketadi. Didaktik jarayon bos qichlarini muayyan ketmaketlikda yo'lga qo'yish o'quvchilarning bilimini belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish me todlari yordamida tashkil etishdir. O'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma' lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samara dorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorligidagi faoliyatini ta'minlash aso sida jamiyat tomonidan maktab akademik li sey, kasbhunar kolleji oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tu tish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyotida alohida o'rin tutadi.

O'qitish metodi dastlab pedagog ongida fao liyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi faoliya tining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitishning aniq harakatlar, amallar yoki metodlar majmua si sifatida joriy etiladi.

Pedagogik nashrlarda o'qitish metodlari ni faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni echishda o'z o'rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar ham darsda o'quvchilar faolligining yuqori da rajasini ta'minlash asosida oldindan belgi langan maqsadga erishishga qaratiladi.

Quyida umumiy o'rta ta'lim maktablari ning boshlang'ich sinflarida o'qitiladigan «Tabiatshunoslik» o'quv fanini o'qitishda didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalariga asos langan dars ishlanmalari keltirilmoqda.

Darsning mavzusi: Yirtqich hayvonlar (Tabiatshunoslik, 3sinf).

Darsning ta'limiy maqsadi: tabiatshu noslikni o'qitishda o'quvchilarni hayvonot du nyosining o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilar ga tabiatshunoslikni o'qitish orqali mustaqil fikr va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning umumiy va xususiy tabiatshu noslik tushunchalari, darslik va qo'shimcha ada biyotlar ustida mustaqil ishlash, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari, nutq va muloqot madaniya tini rivojlantirish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Darsni jihozlash: mavzuga oid ko'rgazmali vositalar, tarqatma va didaktik materiallar.
Darsda foydalaniladigan texnologiya: didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasi (ijodiy o'yin metodi).
Darsning borishi.
I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, o'quvchilarni darsga tayyorlash.
II. O'tgan mavzuni so'rash: o'tgan mavzu yuzasi dan o'quvchilarning o'zlashtirgan nazariy bili mi, amaliy ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash.
III. Yangi mavzu bilan tanishtirish: o'quvchi larni dars mavzusi va darsning borishi bilan tanishtirish. O'qituvchi o'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning bilimini reyting mezoni aso sida baholagandan so'ng, yangi mavzuning maqsadi, vazifalari haqida, shuningdek, didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasi va uning ijodiy o'yin metodi haqida ilmiy tushunchalar berib, sinf o'quvchilarini 3 guruhga: «Tabiatshunos», «Pedagog», «Psixolog» guruhlariga ajratadi va dars jarayonini o'tkazish texnologiyasini amal ga oshiradi.
Darhaqiqat, o'qituvchi mashg'ulotni boshlash dan avval tinglovchilarni ijodiy o'yin meto dini o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtiradi.

1 bosqich.

Har bir guruhdagi tinglovchilar o'z mav zulari bo'yicha kerakli materiallar, dalil lar misollar, aniq fikrlar, o'z fikrini tasdiqlovchi ko'rgazmali materiallar, imkoni bo'lsa videofilim, maqolalar, mutafakkir va olimlarning so'zlari va boshqalarni tayyor laydilar. Guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa o'z fikrlarini qo'shimcha qilishlari mumkin. O'qituvchi sinf o'quvchilarining tayyorgarlik ko'rish imkoniyat larini hisobga olgan holda vaqt beradi.

2 bosqich.

Guruhlar himoyaga tayyor bo'lgach, o'qituvchi guruhlarning biriga himoya uchun so'z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo'lishi mum kin). Guruh vakili guruh nomidan so'zga chiqib, ularga berilgan mavzuni tayyorlangan materi allar, dalillar asosida himoya qilishga kiri shadi. Guruh vakili so'zini tugatgach, guruhning qolgan a'zolari qo'shimcha fikrlar bildirish lari mumkin.

3 bosqich.

Mashg'ulotlarning 2bosqichidagi kabi bu bosqichda ham o'qituvchi navbatdagi guruh va kiliga himoya uchun so'z beradi. Ikkinchi guruh ham birinchi guruh kabi o'z mavzusini himoya qiladi. Himoya tugagach, o'qituvchi mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi. Har ikkala himoya vaqtida o'qituvchi iloji boricha o'z fikr va mulohazasini bildirmaslikka, savol bermas likka harakat qiladi, hech qaysi guruhga yon bermagan holda muloqotni boshqaradi, guruh himoyasi vaqtida tartib saqlanishi va mulo qotni o'tkazishga qo'yilgan talabqoidalarning to'liq bajarilishiga erishishga harakat qiladi.

Bu bosqichda, asosan uchala guruhdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

4 bosqich.

Guruhlar birbirlariga savol berishni boshlaydi. Guruhlar tomonidan beriladigan savollar ular himoyasi vaqtida aytilgan da lillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlash tirish

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

maqsadida, shuningdek, o'z guruhlarining fikrlarini yanada ta'kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo'shilishlariga da'vat qilish uchun berilishi mumkin. Tinglov chilar erkin holda o'zlarining chiqishlari bi lan barchaga ta'sir ko'rsatishga, o'z fikrlari ni ma'qullashga harakat qiladilar. O'qituvchi bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratadi, ya'ni u bahsmunozarani samimiylik bilan boshqaradi.

5 bosqich.

O'qituvchi har ikki tomonning birbirlariga savollari, ma'qullaydigan so'zlari tugagach, har ikki guruh tomonidan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o'zini bu masala haqidagi fikrmulohazasini bayon etadi va guruh ting lovchilari tomonidan tushgan savollarga ke rakli javoblarni berishga harakat qiladi.

Mashg'ulot oxirida o'qituvchi har uchala guruh ning mashg'ulot jarayonidagi faoliyatlarini tahlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va faol o'quvchilarni rag'batlantiradi.

IV. Yangi mavzuni o'rganish: o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga yangi mavzuni tushun tirishda dars sifati va mazmuniga e'tibor bergan holda quyidagi ketmaketlikni amalga oshiradi: o'quvchilarga yirtqich hayvonlar: sher, arslon, yo'lbars, ayiq, bo'ri, o'txo'r hayvonlar haqida (ekranda yirtqich hayvonlar tasviri na moyish etiladi) ilmiynazariy bilimlar beri ladi; «Tabiatshunoslik» darsligidan «Yirtqich hayvonlar» mavzusi konspekt qilinadi.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'quvchilar guruhi o'qituvchining tavsiyasiga ko'ra yangi mavzu yuzasidan egallagan bilimlariga tayangan holda ko'rgazmali qurollar asosida mavzuni tushun tirib berishadi. So'ngra o'quvchilar o'rtasida bahsmunozara o'tkaziladi.

VI. O'quvchilarni rag'batlantirish va reyting mezoni asosida baholash.

VII. Darsni yakunlash. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholar e'lon qilinadi. Dars tabiatdagi o'simlik va hayvonlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularni asrabavaylab, bizga in'om etilgan boyliklardan tejabtergab foydalanish kabi fikrlar, da'vatlar bilan xulosalanadi.

VIII. Uygavazifaberish.«Yirtqichhayvonlar» mavzusini o'qib, o'quvchilarga o'zlari yashayotgan xududdagi noyob o'simlik va hayvonlar haqida kichik hikoya yozib kelish vazifasi topshiriladi.

Xullas, boshlang'ich sinflarda tabiatshunos likni o'qitish jarayonida foydalaniladigan didaktik o'yinli darslarning quyidagi afzal liklari mavjud:

o'quvchilar didaktik o'yinli darslarga kat ta qiziqish bilan tayyorgarlik ko'radilar, na tijada yangi bilimlarni o'zlashtirish samara dorligi sifatli bo'ladi;

didaktik o'yinli darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilk bor kasb tanlashida o'z kuchi, bilimi, iqtidorini sinab ko'rishda, shuningdek, ularni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib, boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslikni o'qitishda yoshga xos xususiyat larni e'tiborga olgan holda ta'limning zamo naviy shakl va metodlarini takomillashtiruv chi o'quvmetodik qo'llanmalarni yaratish;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Для достижения наилучших результатов в развитии речевых компетенций целесообразно использовать следующие методы работы со сказками:

Чтение и обсуждение сказки с элементами диалога.

Пересказ (последовательный, выборочный, творческий).

Инсценировка и драматизация, позволяющая детям использовать реплики героев и мимику.

Сочинение продолжения сказки или создание собственной сказки.

Сравнение сказок разных народов, что обогащает языковую картину мира ребёнка.

Сказки — это эффективный инструмент развития речевых компетенций младших школьников. Они помогают сделать процесс обучения живым, интересным и насыщенным, способствуют формированию выразительной, грамматически правильной и эмоционально окрашенной речи. Использование сказок на уроках русского языка и литературного чтения способствует гармоничному развитию личности ребёнка, его коммуникативных и творческих способностей.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1.Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982. -352 с.

2.Маханева М.Д. Методика развития речи младших школьников. — СПб.: КАРО, 2017. – 228 с.

3.Кудрявцева Т.В. Сказка как средство речевого развития детей. — М.: Просвещение, 2020. – 160 с.

4.Шмелёва Т.В. Работа со сказкой на уроках в начальной школе. — М.: Учитель, 2019. – 128 с.

5.Tajbenova Saule Sarsengalievna USE OF INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY SCHOOLS. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Vol. 9, Issue 12, Dec. (2021)

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ajiniyazova Aygul Polat qizi**, “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi stajor o‘qituvchisi, [**Ажиниязова Айгуль Полат кизи,** Стажер-преподаватель кафедры «Начальное образование»], [**Aygul P. Ajiniyazova**, Trainee teacher of the Department of Primary Education], manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

ISSUES OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION BASED ON MULTILINGUAL COMMUNICATION IN PRIMARY SCHOOLS WHERE EDUCATION IS CONDUCTED IN THE KAZAKH LANGUAGE

© Akmaral R. Tajibayeva [1]✉

[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: in an era marked by globalization and increasing linguistic diversity, multilingual education has emerged as a critical element in shaping young learners' future academic and social prospects. This paper explores the challenges and opportunities involved in improving the quality of education in Kazakh-language primary schools, particularly in the subjects of mother tongue and fluency literacy. Focusing on the integration of Kazakh, Russian, and English, the study examines the role of multilingual communication in fostering cognitive, linguistic, and cultural competencies. This article highlights key findings from current research on multilingualism in the Kazakh educational context and provides recommendations for enhancing multilingual practices in primary schools

AIM: the main aim of this study is to explore the challenges and opportunities of improving the quality of education in Kazakh-language primary schools through the implementation of multilingual communication strategies. The study seeks to identify effective pedagogical approaches for enhancing linguistic competence, intercultural awareness, and academic performance among young learners in multilingual settings.

MATERIALS AND METHODS: the research was conducted using a combination of theoretical analysis, classroom observations, surveys, interviews with teachers and students, and experimental lessons. Language development programs and teaching materials in Kazakh, Russian, and English were analyzed. The study involved diagnostic assessments to evaluate students' language proficiency and their ability to switch between languages in academic contexts.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that multilingual communication, when systematically integrated into the educational process, positively influences students' cognitive and communicative development. In Kazakh-language primary schools, exposure to multiple languages helped students build stronger vocabulary, improve comprehension, and foster intercultural sensitivity. Teachers reported increased student engagement and better collaboration during multilingual tasks. However, challenges such as lack of resources, insufficient teacher training, and curriculum limitations were also observed. Experimental groups demonstrated a 15–25% improvement in language and content understanding compared to control groups.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

CONCLUSION: multilingual communication plays a critical role in enhancing the quality of education in Kazakh-language primary schools. By fostering linguistic diversity and intercultural competence, students become better prepared for a globalized world. For successful implementation, comprehensive teacher training, resource development, and curriculum integration are essential. Future research should focus on scalable models of multilingual education that address context-specific needs.

Key words: multilingual education, kazakh language, primary schools, mother tongue literacy, fluency literacy, trilingual policy, cognitive benefits, cultural identity, teacher professional development, language resources, language hierarchies, multilingual pedagogy, educational policy, language acquisition, bilingual education, multilingual communication, literacy skills, language attitudes, educational inequality, classroom engagement

For citation: Akmaral R. Tajibayeva. (2025) 'Issues of improving the quality of education based on multilingual communication in primary schools where education is conducted in the kazakh language', Inter education & global study, (6), pp. 138–145.

ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МНОГОЯЗЫЧНОГО ОБЩЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ ШКОЛАХ С КАЗАХСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

© А.Р.Тажибаева[1]✉
[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в эпоху глобализации и растущего языкового разнообразия многоязычное образование становится важнейшим элементом, формирующим академические и социальные перспективы младших школьников. В данной статье рассматриваются проблемы и возможности повышения качества образования в начальных школах с казахским языком обучения, особенно в преподавании родного языка и грамоты. Исследование сосредоточено на интеграции казахского, русского и английского языков и анализирует роль многоязычного общения в развитии когнитивных, языковых и культурных компетенций. Также представлены основные выводы из современных исследований многоязычия в казахстанском образовательном контексте и даны рекомендации по улучшению многоязычной практики в начальной школе.

ЦЕЛЬ: основная цель данного исследования — изучить проблемы и возможности повышения качества образования в начальных школах с казахским языком обучения через внедрение стратегий многоязычного общения. Целью является выявление эффективных педагогических подходов для повышения языковой компетенции, межкультурного восприятия и академических результатов учащихся в многоязычной среде.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование проводилось с использованием комплексного подхода: теоретический анализ, наблюдение за уроками, анкетирование, интервью с учителями и учениками, проведение экспериментальных уроков. Были проанализированы программы языкового развития и учебные материалы на казахском, русском и английском языках. Также проводилась диагностика языковых навыков учащихся и их способности переключаться между языками в учебном контексте.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что систематическое внедрение многоязычного общения в образовательный процесс положительно влияет на когнитивное и коммуникативное развитие учащихся. В начальных школах с казахским языком обучения знакомство с несколькими языками способствовало расширению словарного запаса, лучшему пониманию текста и развитию межкультурной чувствительности. Учителя отметили повышение вовлечённости учащихся и улучшение сотрудничества во время многоязычных заданий. Однако были выявлены и трудности: нехватка ресурсов, недостаточная подготовка учителей и ограничения учебных программ. В экспериментальных группах уровень понимания языка и содержания повысился на 15–25 % по сравнению с контрольными группами.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: многоязычное общение играет важнейшую роль в повышении качества образования в начальных школах с казахским языком обучения. Способствуя языковому разнообразию и формированию межкультурной компетентности, учащиеся становятся более подготовленными к жизни в глобализированном мире. Для успешной реализации необходимы комплексная подготовка учителей, разработка учебных ресурсов и интеграция в учебные программы. Будущие исследования должны быть направлены на создание масштабируемых моделей многоязычного образования с учетом специфики конкретной образовательной среды.

Ключевые слова: многоязычное образование, казахский язык, начальная школа, родная речь, грамотность, политика триязычия, когнитивные преимущества, культурная идентичность, профессиональное развитие учителей, языковые ресурсы, иерархии языков, многоязычная педагогика, образовательная политика, языковое освоение, билингвальное образование, многоязычное общение, навыки грамотности, языковое восприятие, образовательное неравенство, вовлеченность в учебу.

Для цитирования: Тажибаева А.Р. Проблемы повышения качества образования на основе многоязычного общения в начальных школах с казахским языком обучения // Inter education & global study. 2025, №6. С. 138–145.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

TA’LIM TILI QOZOQ TILIDA OLIB BORILADIGAN BOSHLANG‘ICH MAKTABLARDA KO‘P TILLI MULOQOT ASOSIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

© A.R. Tajibayeva[1]✉
[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: globallashuv va til xilma-xilligi ortib borayotgan davrda ko‘p tilli ta’lim yosh avlodning akademik va ijtimoiy istiqbolini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda. Ushbu maqola ta’lim tili qozoq tilida olib boriladigan boshlang‘ich maktablarda, ayniqsa ona tili va savod o‘rgatish fanlarida ta’lim sifatini oshirishda duch kelinayotgan muammolar va imkoniyatlarni tahlil qiladi. Tadqiqot qozoq, rus va ingliz tillarining integratsiyasi orqali ko‘p tilli muloqotning kognitiv, til va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rnini yoritadi. Maqolada qozoq ta’lim kontekstida ko‘p tillilik bo‘yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilinib, boshlang‘ich ta’limda ko‘p tillilik amaliyotini takomillashtirishga oid tavsiyalar beriladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — ta’lim tili qozoq tilida olib boriladigan boshlang‘ich maktablarda ko‘p tilli muloqot strategiyalarini joriy qilish orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari va muammolarini o‘rganishdir. Tadqiqotda ko‘p tilli muhitda o‘quvchilarning til kompetensiyasi, madaniy ong va akademik natijalarini oshiruvchi samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlash maqsad qilib olingan

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot nazariy tahlil, dars kuzatuvi, so‘rovnomalar, o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan suhbatlar, shuningdek, eksperimental mashg‘ulotlar orqali olib borildi. Qozoq, rus va ingliz tillarida tuzilgan o‘quv dasturlari va materiallar tahlil qilindi. O‘quvchilarning til bilish darajasi va akademik kontekstda tillar o‘rtasida erkin almashinish ko‘nikmalari diagnostik baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘p tilli muloqotni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish o‘quvchilarning kognitiv va kommunikativ rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qozoq tilida ta’lim oladigan boshlang‘ich maktablarda bir nechta til bilan tanishish o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, matn mazmunini chuqurroq tushunish va madaniy sezgirligini oshirishga xizmat qilgan. O‘qituvchilar ko‘p tilli mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ishtiyoqi va hamkorligi ortganini qayd etdilar. Shu bilan birga, resurslar yetishmasligi, o‘qituvchilarning tayyorgarligi pastligi va o‘quv dasturlarining cheklanganligi kabi muammolar ham aniqlandi. Eksperimental guruhda til va mazmunni tushunish darajasi nazorat guruhiga nisbatan 15–25% ga yuqori bo‘ldi.

XULOSA: ko‘p tilli muloqot qozoq tilida ta’lim beriladigan boshlang‘ich maktablarda ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Til xilma-xilligi va madaniy kompetensiyani shakllantirish orqali o‘quvchilar globallashgan dunyoga tayyorlanadi. Buning uchun o‘qituvchilarni kompleks tayyorlash, ta’lim resurslarini ishlab chiqish va o‘quv dasturlariga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

integratsiyalash zarur. Kelgusi tadqiqotlar esa kontekstga mos, keng joriy etilishi mumkin bo‘lgan ko‘p tilli ta’lim modellariga qaratilishi lozim.

Kalit so'zlar: ko‘p tilli ta’lim, qozoq tili, boshlang‘ich maktab, ona tili savodxonligi, uch tillilik siyosati, kognitiv foyda, madaniy identitet, o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish, til resurslari, til ierarxiyasi, ko‘p tilli pedagogika, ta’lim siyosati, til o‘zlashtirish, ikki tilli ta’lim, muloqot madaniyati, savod ko‘nikmalari, tilga munosabat, ta’limdagi tengsizlik, darsda ishtirok.

Iqtibos uchun: Tajibayeva A.R. Ta’lim tili qozoq tilida olib boriladigan boshlang‘ich maktablarda ko‘p tilli muloqot asosida ta’lim sifatini oshirish masalalari. // Inter education & global study. 2025, №6. B. 138–145. (In Eng).

Uzbekistan, a country with a rich tapestry of languages, offers a unique context for multilingual education. The country’s official languages include Uzbek, Kazakh and Russian, with English being increasingly emphasized in education and professional domains. The government’s trilingual policy seeks to develop fluency in Kazakh, Russian, and English, which is pivotal for preparing students to navigate the globalized world. In primary schools where education is conducted primarily in Kazakh, the effective integration of multilingual communication is essential for ensuring that students develop not only proficiency in their mother tongue but also fluency in other languages.

This study delves into the ways in which multilingual communication can enhance the quality of education, focusing on subjects such as mother tongue and fluency literacy in primary schools. It aims to address the educational issues related to language use and identify strategies for improving literacy outcomes through multilingual practices.

Multilingualism in education has been shown to offer numerous cognitive, cultural, and academic benefits. Bialystok (2011) emphasizes that bilinguals or multilinguals tend to develop superior cognitive skills, such as better problem-solving abilities, enhanced memory, and higher levels of creativity. These cognitive advantages are vital for students in multilingual societies, where multiple languages and cultures intersect.

In Kazakhstan, the policy of promoting multilingualism has been embedded within the education system, and schools are expected to teach in Kazakh, Russian, and English. Smagulova (2016) discusses the implications of this trilingual policy, noting that the aim is to ensure that students are equally proficient in all three languages. However, the implementation of such policies is not without challenges. Menken and Garcia (2010) highlight the difficulties that schools face, such as limited teacher training, lack of resources, and the complex dynamics of managing multiple languages in the classroom. Moreover, research has shown that language hierarchies often place more value on Russian and English, while the Kazakh language may be relegated to a secondary role, affecting its use and development (Kunanbayeva, 2013).

The literature also reveals that multilingual education can enhance cultural understanding and identity. Cummins (2000) argues that multilingual environments

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

promote cross-cultural awareness and foster tolerance, as students are exposed to various linguistic and cultural perspectives. This is particularly important in Kazakhstan, where fostering a sense of national identity alongside global citizenship is a key educational objective.

This study employs a qualitative research approach, using classroom observations, teacher interviews, and curriculum analysis to explore the multilingual practices in Kazakh-language primary schools. Data were collected from a range of schools across urban and rural areas to ensure a comprehensive understanding of the different challenges faced by educators and students in various settings. The study also examines the specific approaches used in teaching mother tongue and fluency literacy subjects, assessing how multilingual communication is integrated into the curriculum and classroom activities.

A significant barrier to effective multilingual education is the inadequate professional development of teachers. Many teachers lack specialized training in multilingual pedagogies, making it difficult for them to teach effectively in a multilingual environment. Kunanbayeva (2013) notes that teachers often struggle to balance the demands of teaching in multiple languages, leading to inconsistent instructional quality across subjects.

Educational resources, such as textbooks, teaching aids, and digital tools, are often not available in all three languages—Kazakh, Russian, and English. This shortage is particularly acute in rural schools, where access to quality materials is limited. Teachers in these schools often rely on outdated or insufficient resources, hindering their ability to deliver high-quality multilingual education.

The dominance of Russian and English in higher education and professional spheres creates a devaluation of the Kazakh language in many educational contexts. Although Kazakh is the state language, its use in scientific and technical subjects is often overshadowed by Russian and English. This undermines the development of academic literacy in Kazakh and creates challenges for teachers who need to balance linguistic demands in the classroom.

Exposure to multiple languages has been shown to improve overall literacy skills. Cummins (2000) highlights that bilingual children often outperform their monolingual peers in tasks requiring higher-order thinking skills, such as problem-solving and critical thinking. In Kazakh-language primary schools, integrating Kazakh, Russian, and English in the curriculum provides students with the opportunity to develop literacy in all three languages, thus improving their cognitive flexibility.

Multilingual education plays a crucial role in preserving and promoting Kazakhstan's cultural heritage. By learning Kazakh as their mother tongue, students gain a deeper understanding of their national identity and cultural history. Simultaneously, exposure to Russian and English allows students to connect with global cultures and broaden their perspectives, fostering a balanced sense of cultural belonging (Bialystok, 2011).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Multilingual approaches, such as incorporating storytelling, role-playing, and interactive activities, have been found to increase student engagement in language lessons. These activities encourage students to actively participate in their learning, promoting both linguistic and cultural competencies. This is especially relevant in mother tongue and fluency literacy subjects, where interactive methods can significantly enhance language acquisition.

To address the challenges of multilingual teaching, there is a pressing need for comprehensive teacher training programs. These programs should focus on multilingual pedagogy, providing teachers with the skills and knowledge necessary to teach effectively in a multilingual environment. Such professional development should be ongoing and responsive to the evolving needs of teachers and students (Menken & Garcia, 2010).

The development and distribution of high-quality, multilingual educational materials should be prioritized. This includes textbooks, digital resources, and teaching aids in Kazakh, Russian, and English. Ensuring that all schools, especially those in rural areas, have access to these materials is essential for promoting equality in education (Kunanbayeva, 2013).

The government should continue to support multilingual education policies and ensure that sufficient funding is allocated to implement these initiatives. Policies should also aim to elevate the status of the Kazakh language in academic settings, ensuring that it is used effectively across all subjects, including those that require scientific and technical vocabulary.

Encouraging parental involvement in language learning is another important strategy. Parents can support their children's multilingual development by reinforcing language skills at home and participating in school activities. This collaboration between home and school is crucial for fostering a positive attitude toward language learning and cultural exchange.

Improving the quality of education in Kazakh-language primary schools through multilingual communication is a complex but essential task. By addressing the challenges of teacher training, resource availability, and language hierarchies, and by capitalizing on the cognitive and cultural benefits of multilingual education, Uzbekistan can create a more inclusive and effective educational environment. As the country continues to embrace multilingualism in its education system, further research should focus on longitudinal studies to assess the long-term impact of multilingual education on students' academic success and social integration.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Bialystok, E. (2011). Reshaping the mind: The benefits of bilingualism. *Canadian Journal of Experimental Psychology*, *65*(4), 229-235. https://doi.org/10.1037/a0025406
2. Cummins, J. (2000). *Language, power and pedagogy: Bilingual children in the crossfire*. Multilingual Matters.
3. Kunanbayeva, S. S. (2013). Modernization of foreign language education: Modern approaches. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, *134*, 104-111. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.04.112
4. Menken, K., & Garcia, O. (2010). *Negotiating language policies in schools: Educators as policymakers*. Routledge.
5. Smagulova, J. (2016). Language policies of Central Asia and their influence on language attitudes and use. *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, *19*(5), 578-588. https://doi.org/10.1080/13670050.2015.1083534

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tajibayeva Akmaral Raxmetulla qizi**, Boshlang'ich ta'lim kafedrasi stajyor-o'qituvchisi, [**Тажибаева Акмарал Рахметулла кизи,** Стажер-преподаватель кафедры начального образования], [**Akmaral R. Tajibayeva,** Intern-teacher of the Department of Primary Education]; manzil: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA IT KURSLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLARI

© Adilbay Kenesbayev[1]✉

[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada raqamli ta’lim muhiti sharoitida IT kurslarini o‘qitishga zamonaviy metodik yondashuvlarning tatbiqi tahlil qilinadi. Maqolada masofaviy va interaktiv o‘quv texnologiyalarining afzalliklari, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda innovatsion yondashuvlar asosida dars jarayonini tashkil etish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar yoritiladi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli ta’lim muhitida axborot texnologiyalari (IT) kurslarini samarali tashkil etish va o‘qitishda zamonaviy metodik yondashuvlarni aniqlash, ularning o‘quvchilarning bilim olish sifati va raqamli kompetensiyasiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ilg‘or texnologiyalarga asoslangan interaktiv o‘quv uslublarini o‘rganish orqali IT kurslari mazmunini takomillashtirish imkoniyatlarini ochib berish maqsad qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda raqamli ta’lim bo‘yicha ilmiy manbalar tahlil qilindi, shuningdek, IT kurslari raqamli platformalarda (Google Classroom, Moodle, MS Teams) tajriba tariqasida o‘qitildi. O‘qituvchi va o‘quvchilar ishtirokida so‘rovnomalar o‘tkazilib, metodik yondashuvlarning samaradorligi baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli platformalarda o‘tilgan IT darslari o‘quvchilarning faolligi va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshirdi. Interaktiv usullar, jumladan videodarslar va onlayn testlar, o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada kuchaytirdi. O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi bu jarayonda muhim omil bo‘ldi.

XULOSA: zamonaviy raqamli ta’lim muhitida IT kurslarini o‘qitishda innovatsion metodik yondashuvlardan foydalanish zarur. Bu nafaqat bilimlarni samarali yetkazishda, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, amaliy ko‘nikmalar va raqamli savodxonlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, pedagoglar uchun muntazam malaka oshirish kurslari orqali raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ham dolzarb hisoblanadi. Kelgusida bu yo‘nalishda onlayn ta’lim platformalari, sun’iy intellekt va o‘quvchilarning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini hisobga olgan yondashuvlarni chuqur integratsiyalash zarur.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, IT kurslar, zamonaviy metodika, masofaviy ta'lim, interaktiv platforma, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari, innovatsion yondashuv, o'quv jarayoni, ta'lim texnologiyalari.

Iqtibos uchun: Adilbay Kenesbayev. Raqamli ta'lim muhitida it kurslarni o'qitishning zamonaviy metodik yondashuvlari // Inter education & global study. 2025, №6. B.146–153.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ IT-КУРСАМ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

© Адильбай Кенесбаев[1]✉
[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается применение современных методических подходов к обучению IT-курсам в условиях цифровой образовательной среды. Освещаются преимущества дистанционных и интерактивных образовательных технологий, возможности использования средств искусственного интеллекта, а также способы организации учебного процесса на основе инновационных подходов. Кроме того, анализируются передовые педагогические технологии, направленные на формирование у студентов навыков самостоятельной работы и повышение качества обучения.

ЦЕЛЬ: основная цель данного исследования – выявить современные методические подходы к эффективной организации и преподаванию IT-курсов в цифровой образовательной среде, а также проанализировать их влияние на качество усвоения знаний и развитие цифровых компетенций обучающихся. Дополнительно исследуются возможности совершенствования содержания IT-курсов на основе интерактивных методов, основанных на современных технологиях.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании был проведён теоретический анализ научной литературы по цифровому обучению, а также реализовано экспериментальное преподавание IT-курсов с использованием цифровых платформ (Google Classroom, Moodle, MS Teams). Были организованы анкетирования преподавателей и студентов с целью оценки эффективности методических подходов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что проведение занятий по IT-дисциплинам на цифровых платформах способствует повышению активности обучающихся и развитию у них навыков самостоятельной работы. Использование видеолекций, онлайн-тестов и других интерактивных методов значительно повышает эффективность образовательного процесса. Цифровая компетентность преподавателя также оказалась важным фактором в успешности обучения.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: использование инновационных методических подходов при обучении IT-дисциплинам в условиях современной цифровой образовательной среды имеет важное значение не только для эффективной передачи знаний, но и для формирования у студентов критического мышления, практических навыков и цифровой грамотности. Также важным направлением является повышение цифровой компетенции педагогов через системы повышения квалификации. В перспективе необходимо дальнейшее внедрение онлайн-платформ, средств искусственного интеллекта и персонализированных траекторий обучения.

Ключевые слова: цифровое образование, IT-курсы, современные методики, дистанционное обучение, интерактивная платформа, искусственный интеллект, информационные технологии, инновационный подход, учебный процесс, образовательные технологии.

Для цитирования: Адильбай Кенесбаев. Современные методические подходы к обучению IT-курсам в цифровой образовательной среде. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 146–153.

MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING IT COURSES IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

© Adilbay Kenesbayev[1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the application of modern methodological approaches to teaching IT courses in the context of a digital learning environment. It explores the advantages of distance and interactive learning technologies, opportunities for using artificial intelligence tools, and methods for organizing lessons based on innovative approaches. Additionally, the study highlights advanced pedagogical technologies aimed at developing students' independent learning skills and improving the quality of education.

AIM: the main purpose of this study is to identify modern methodological approaches for effectively organizing and teaching IT courses in a digital learning environment, and to analyze their impact on students' learning quality and digital competence. It also aims to explore opportunities for improving IT course content through interactive teaching methods based on advanced technologies.

MATERIALS AND METHODS: the research included a theoretical review of scientific literature on digital education, along with experimental teaching of IT courses through digital platforms (Google Classroom, Moodle, MS Teams). Surveys were conducted among teachers and students to evaluate the effectiveness of the applied methodological approaches.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: the study found that teaching IT courses via digital platforms increased students' engagement and fostered independent learning skills. The use of video lessons, online tests, and interactive tools significantly enhanced the effectiveness of the learning process. Moreover, teachers' digital competence was found to be a crucial factor in ensuring successful instruction.

CONCLUSION applying innovative methodological approaches in teaching IT subjects within a modern digital educational environment is essential not only for the effective delivery of knowledge but also for fostering students' critical thinking, practical skills, and digital literacy. Continuous professional development of educators to improve their digital competence remains an important aspect. In the future, deeper integration of online platforms, artificial intelligence, and personalized learning paths is recommended.

Key words: digital education, IT courses, modern methodology, distance learning, interactive platform, artificial intelligence, information technology, innovative approach, learning process, educational technologies.

For citation: Adilbay Kenesbayev. (2025) 'Modern methodological approaches to teaching it courses in a digital learning environment', Inter education & global study, (6), pp. 146–153. (In Uzbek).

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim sohasida tub burilishlarga olib keldi. An'anaviy o'qitish uslublarining cheklovlarini bartaraf etish, ta'limning uzluksizligi va moslashuvchanligini ta'minlash zaruriyati raqamli ta'lim muhitining shakllanishiga olib keldi. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli platformalar, onlayn kurslar, sun'iy intellekt tizimlari, interaktiv va multimediaviy vositalar faol tatbiq etilmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari (IT) kabi tezkor rivojlanayotgan sohada ushbu yondashuvlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1]

Axborot texnologiyalari sohasi o'quvchilardan nafaqat nazariy bilim, balki yuqori darajadagi amaliy ko'nikma va algoritmik tafakkurni talab etadi. Shuning uchun IT kurslarini o'qitish metodikasi doimiy yangilanib borishi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos ravishda moslashuvchan bo'lishi lozim. Raqamli ta'lim muhiti bu borada keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Masofadan turib o'qitish, mustaqil ishlash, loyihaviy topshiriqlar bajarish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va real vaqt rejimida baholash imkoniyatlari IT kurslarini sifatli o'qitishda muhim omillar sifatida qaralmoqda.[2]

Shu bilan birga, raqamli ta'lim muhitida IT fanlarini o'qitishda yangi metodik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Bular - modullashtirilgan ta'lim, gamifikatsiya, adaptiv (moslashuvchan) o'qitish, loyihaviy metod, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan interaktiv o'qitish shakllaridir. Mazkur yondashuvlarning har biri o'quvchining mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish, dasturlash va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida IT kurslarini o'qitishga doir metodik yondashuvlar o'rganiladi, ularning afzalliklari va dolzarb jihatlari tahlil qilinadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad - raqamli o‘qitish vositalaridan foydalanish orqali IT kurslarining samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv asosida bir nechta ilmiy-uslubiy tadqiqot usullari qo‘llanildi. Maqsadli tahlil va ilmiy asoslangan xulosalarga erishish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil. Dastlabki bosqichda axborot texnologiyalarini o‘qitish bo‘yicha ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlar, milliy va xorijiy tajribalar, ta’lim metodikalari va raqamli platformalarga oid ilmiy manbalar o‘rganildi. Ayniqsa, UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning raqamli ta’limga oid tavsiyalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha qarorlari asos qilib olindi. Shuningdek, Moodle, Google Classroom, Edmodo, Coursera kabi platformalar metodikasiga oid ilmiy maqolalar tahlil qilindi.[3]

Amaliy kuzatuv va tajriba. Tadqiqot doirasida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida va maktabgacha va maktab ta’lim muassasalarida tashkil etilgan IT kurslarining o‘qitilish jarayonlari o‘rganildi. Ayniqsa, masofaviy kurslar, elektron testlar, onlayn laboratoriya ishlari, loyiha asosida o‘rgatish amaliyotlari bevosita kuzatilib, tahlil qilindi. Moodle va kundalik.com platformalaridagi o‘quv jarayonlari, kurs modullari, interaktiv topshiriqlar misolida o‘quvchilar faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Taqqoslash va differensial tahlil. An’anaviy o‘qitish va raqamli muhitdagi o‘qitish metodlari o‘zaro taqqoslab chiqildi. Jumladan, dars sifati, o‘zlashtirish darajasi, motivatsiya, o‘quvchining faolligi va o‘zlashtirish tezligi ko‘rsatkichlari mezon sifatida tanlandi. Bu orqali zamonaviy metodik yondashuvlarning qanchalik samarali ekanligi aniqlashtirildi.[4]

Ekspert bahosi va so‘rovnoma metodlari. O‘qituvchilar, IT sohasi mutaxassislari hamda raqamli ta’lim vositalaridan faol foydalanayotgan o’quvchilardan so‘rovnomalar olindi. Shuningdek, ularning fikrlariga tayangan holda raqamli metodik yondashuvlarning dolzarbligi va amaliy samaradorligi baholandi. Savollar ochiq va yopiq shaklda tuzildi, statistik tahlil yordamida qayta ishlanib, xulosalar chiqarildi.

Natijalar keyingi bo‘limda tizimli tarzda bayon qilinadi.

Natijalar

Tadqiqot davomida raqamli ta’lim muhitida IT kurslarini o‘qitishning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi bir qator metodik yondashuvlar aniqlanib, ularning o‘quv jarayonidagi o‘rni tahlil qilindi. Quyida asosiy natijalar bayon etiladi:

Modullashtirilgan ta’lim yondashuvi - O‘quv kursining har bir bo‘limi mustaqil modul sifatida ishlab chiqilganda, o‘quvchilar mustaqil o‘rganish, o‘z bilimini nazorat qilish va zarur bo‘lsa, qayta o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, modul asosida tashkil etilgan kurslarda o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari an’anaviy shakldagilarga nisbatan 11-13% yuqori bo‘lgan.[5]

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Gamifikatsiya (o‘yinlashgan ta’lim) yondashuvi. Gamifikatsiyalashgan platformalarda foydalanuvchilar o‘quv materiallarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirib, ball, daraja, mukofotlar olish orqali motivatsiyasini oshiradi. Bu, ayniqsa, dasturlash asoslari, algoritmlar, tarmoq xavfsizligi kabi mavzularda samarali natija bergan. O‘quvchilar o‘yin elementlari joriy etilgan kurslarda ko‘proq ishtirok etgan va faolroq bo‘lgan.

Loyihaviy yondashuv. IT kurslarining amaliy jihatini kuchaytirish uchun real hayotiy loyihalar asosida o‘qitish yondashuvi joriy qilindi. Bu yondashuvda o‘quvchilar jamoaviy yoki individual loyiha ishlab chiqadi. Bu orqali ular nafaqat bilim, balki kommunikatsiya, muammolarni hal qilish, kod yozish, dizayn asoslari kabi ko‘nikmalarni ham egallaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning ijodkorlik va tashabbuskorligini oshirgan.[6]

Adaptiv o‘qitish. AI (sun’iy intellekt) yordamida bilim darajasi, bajarilgan topshiriqlar asosida har bir o‘quvchiga individual ta’lim yo‘nalishi tuzildi. Bu yondashuv bilimda bo‘shliqlari mavjud bo‘lgan o‘quvchilar uchun nihoyatda samarali bo‘lib, ularning o‘zlashtirish tezligini oshirdi. Test natijalari asosida tizim avtomatik tarzda zaif tomonlarga ko‘proq materiallar taklif qildi.

Multimediaviy va interaktiv kontentlardan foydalanish. Video darslar, animatsiyalar, grafik diagrammalar va simulyatsiyalar orqali taqdim etilgan IT kurslar o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilishda va murakkab tushunchalarni tushuntirishda katta rol o‘ynadi. Statistik natijalarga ko‘ra, multimediaviy materiallar qo‘shilgan kurslarda o‘zlashtirish darajasi 25% ga yuqori bo‘lgan.

Muhokama

Olingan natijalar raqamli ta’lim muhitining IT kurslarini o‘qitishdagi katta salohiyatini ochib berdi. Ushbu bo‘limda natijalarning chuqur tahlili, ularning amaliy ta’limdagi ahamiyati, mavjud muammolar va takliflar yoritiladi.

Metodik yondashuvlarning o‘quv jarayoniga ta’siri. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy metodik yondashuvlar IT kurslarini interaktiv, motivatsion va natijaga yo‘naltirilgan holatda tashkil etish imkonini beradi. An’anaviy metodlarda ko‘proq o‘qituvchi markazida tashkil etilgan darslar kuzatilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlar o‘quvchi faoliyatini jadallashtiradi. Jumladan modullashtirilgan ta’lim o‘zlashtirishga moslashuvchanlik kiritdi, gamifikatsiya o‘yin orqali bilim olishga ijobiy munosabat uyg‘otdi, loyihaviy ta’lim esa real hayot bilan bog‘lanish imkonini berdi.[7]

Raqamli vositalarning pedagogik potensiali. Platformalar orqali amalga oshirilgan darslar nafaqat bilim berishda, balki o‘quvchilarni tahliliy fikrlash, algoritmik tafakkurga yo‘naltirishda ham samarali bo‘ldi. Bu esa IT sohasining o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda pedagogik vositalarni raqamli formatga moslashtirish muhimligini ko‘rsatdi.

Shunga qaramay, tadqiqot davomida ayrim muammoli holatlar ham aniqlandi:

- Ba’zi o‘qituvchilarda raqamli kompetensiya yetarli emas;
- Platformalar texnik sabablarga ko‘ra ba’zan barqaror ishlamaydi;
- O‘quvchilarning mustaqil ishlashga bo‘lgan mas’uliyat darajasi turlicha;
- Kontentni ishlab chiqish uchun ko‘p vaqt va texnik resurslar talab etiladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim muhitida IT kurslarini o‘qitishda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, modullashtirilgan o‘qitish, gamifikatsiya, loyihaviy yondashuv, adaptiv ta’lim tizimlari va multimediaviy kontentlar - bu sohaga mos va o‘quvchilar faoliyatini kuchaytiruvchi eng asosiy metodik vositalardir.

Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini, tahliliy fikrlash qobiliyatini va muammoli vaziyatlarni hal qilish salohiyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli vositalar yordamida ta’lim olish o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish, mustaqil ta’limga bo‘lgan intilishini oshiradi.

Biroq, mavjud infratuzilma, raqamli kompetensiyalar va pedagogik tayyorgarlik darajasi ushbu metodikalarni keng joriy qilishga ba’zi hollarda to‘siq bo‘layotgani ham aniqlangan. Shuning uchun bu borada tizimli yondashuvlar, o‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari orqali tayyorlash va zamonaviy texnologiyalarni milliy ta’lim tizimiga uyg‘unlashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Yakun

Umuman olganda, zamonaviy raqamli ta’lim muhiti IT kurslarini o‘qitish jarayonida ilg‘or metodik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni uzviy uyg‘unlashtirish orqali o‘quv jarayonining sifatini tubdan yaxshilash imkonini yaratadi. Bu muhit o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, interaktiv vositalar orqali bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini hayotga tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

IT sohasining tezkor rivojlanishi o‘qituvchilardan doimiy metodik yangilanishlarni, ta’lim kontentini zamonaviy texnologik talablar asosida ishlab chiqishni va o‘quvchilarning bilim darajasiga moslashtirilgan o‘quv strategiyalarini qo‘llashni talab qiladi. Shu sababli, raqamli texnologiyalardan maqsadli, tizimli va metodik asosda foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshirish, balki ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirishda ham muhim omilga aylanmoqda.[8]

Bu yo‘nalishda samarali natijalarga erishish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, mavjud tajribalarni ilmiy asosda umumlashtirish, metodik eksperimentlar o‘tkazish, raqamli platformalar samaradorligini monitoring qilish hamda xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganish va lokal sharoitga moslashtirish zarur. Ayniqsa, xalqaro hamkorlikda ishlab chiqilgan innovatsion loyihalar, onlayn kurslar, hamkorlikda yaratilgan ochiq ta’lim resurslari orqali milliy ta’lim tizimini zamonaviy bosqichga olib chiqish imkoniyati sezilarli darajada oshadi.

Shunday qilib, raqamli pedagogika tamoyillariga asoslangan holda IT kurslarini takomillashtirish nafaqat bugungi, balki kelajakdagi raqamli iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan bilimli, tashabbuskor va kreativ avlodni shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Allambergenova M.Kh. Didactic possibilities of teaching information technologies through electronic educational resources with a focus on professional activity. // Science and Society. - Tashkent, 2021. No3. 98-100 P.
2. Allambergenova, M., Adilbekova, S. (2025). Use of cloud technology in organizing independent education. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(2), 826-830.
3. Allambergenova, M., Adilbekova, S. (2025). Use of cloud technology in organizing independent education. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(2), 826-830.
4. Kenesbayev, A. (2025). The impact of digital educational platforms on the quality of education. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(1), 541-545.
5. Ilyasova Z. K. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf informatika o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning muhim xususiyatlar // Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – T. 2. – №. 15. – C. 99-105.
6. Juginisova, J. I. (2025). Using software tools in teaching children of preschool educational institutions. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(1), 170-173.
7. Yelibayevich, B. J. (2023). Innovative Methods of Teaching Informatics in Schools.
8. Атаджанов, Х., Кунназаров, А., & Балтабаев, Ж. (2023). Web-дастурлашни мустақил таълим орқали ташкил қилишнинг интерактив тизимларидан фойдаланиш. quality of teacher education under modern challenges, 1(1), 1135-1138.
9. Khaytbayevich, A. M. (2025). Using a practice-oriented approach in teaching network technologies. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(3), 660-662.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Adilbay Kenesbayev**, assistent o‘qituvchi, [**Адильбай Кенесбаев,** ассистент-преподаватель], [**Shohsanam Sh. Ayubova**, 2nd year student of Fine arts and Engineering graphics]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK VA UNING BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

© I.B.Amanklichev[1]✉

[1]Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog‘iston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada «tabiiy-ilmiy savodxonlik» tushunchasining mazmuni va mohiyati ochib berilgan bo‘lib, u ko‘p qirrali jarayon sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishda SCIENCE, ya’ni tabiiy fanlarning tutgan o‘rni ilmiy asoslangan holda bu fanni samarali o‘qitishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi "tabiiy-ilmiy savodxonlik" tushunchasining mazmuni va mohiyatini ochib berish orqali kichik maktab yoshidagi bolalarda ilk tabiiy-ilmiy savodxonlikni oshirishga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni tayyorlashning nazariy asoslarini tadqiq etishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqotning metodologik asosini "tabiiy-ilmiy savodxonlik" tushunchasining mazmunini aniqlash va uning boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyatini baholashga qaratilgan pedagogik tahlilning sifatli usullari majmuasi tashkil etadi. Bunda mavzuga doir ilmiy va pedagogik adabiyotlarning kontent-tahlili, tabiiy-ilmiy savodxonlik atamasini talqin qilishning asosiy yondashuvlarini aniqlash, taqqoslash va zulosalar chiqarish singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: XXI asr tezkor, axborotlar oqimi, raqamlashtirish, globalizatsiyalash va integratsiyalash asri hisoblanadi. Davr talabi doirasida bugungi kunda ta’lim tizimiga ham yangi texnologiyalarni olib kirish ehtiyoji vujudga kelmoqda. Shularning biri sun’iy intellekt texnologiyalari hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan ijtimoiy hayotimizning turli jabhalarida qo‘llash tendensiyalari boshlangan. Lekin ta’lim jarayoniga uni joriy etish, maqsadga muvofiq va tizimli qo‘llashning ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqishga doir ehtiyoj o‘z kuchida qolmoqda. Chunki jahon tajribasi va tadqiqotlarning tahlil shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt nafaqat ta’limning sifatini ta’minlashga, balki uni qo‘llashga doir me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ta’lim jarayonida qo‘llashning etik jihatlarini ilmiy jihatdan maxsus tadqiq etishni talab etadi.

XULOSA: o‘quvchilarla tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishda tabiiy fanlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tabiiy fanlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘qitishga tayyorlash talab etiladi. Bunda tabiiy fanlarning ta’lim jarayoniga integrativ yondashuvni talab qiladigan, kompleks yondashuvni talab qiladigan, darslarni tashkil etishda hamda topshiriqlar tuzishda bolalarning yashab turgan milliy-mahalliy hududning o‘ziga hos hususiyalarini inobatga olishni talab qiladigan fan ekanligini hisobga olish talab etiladi.

Kalit so'zlar: tabiiy-ilmiy savodxonlik, tabiiy fanlar, ilmiy tushunchalar, eksperimentlar o‘tkazish, kundalik hayotdagi hodisalarni tushuntirish uchun egallagan nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olish ko‘nikmasi, ilm-fanga bo‘lgan munosabatni shakllantirish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari.

Iqtibos uchun: Amanklichev I.B. Tabiiy-ilmiy savodxonlik va uning boshlang‘ich ta’lim tizimida tutgan o‘rni. // Inter education & global study. 2025, №6. B.154–163.

ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ЕЁ МЕСТО В СИСТЕМЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

© И.Б. Аманкличев[1]✉
[1]Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье раскрываются содержание и сущностные характеристики понятия «естественно-научная грамотность», рассматриваемого как многогранный процесс. Научно и теоретически обоснована важность развития естественно-научной грамотности у учащихся начальной школы. Определена роль предмета Science (естественные науки) в повышении уровня естественно-научной грамотности школьников, разработаны предложения и рекомендации по профессиональной подготовке будущих учителей начальных классов к эффективному преподаванию данного курса.

ЦЕЛЬ: теоретическое обоснование подготовки будущих учителей начальных классов к формированию основ естественно-научной грамотности у детей младшего школьного возраста посредством анализа содержания и структуры данного понятия.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: методологической основой исследования является комплекс качественных методов педагогического анализа, направленных на выявление содержания понятия «естественно-научная грамотность» и оценку его значения в системе начального образования. Применялись контент-анализ научной и педагогической литературы, сравнительно-сопоставительный анализ подходов к трактовке ключевых терминов, а также методы систематизации и обобщения теоретических данных.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: современный этап развития общества характеризуется ускорением информационных потоков, цифровизацией, глобализацией и интеграцией. В этих условиях возрастает необходимость внедрения в образовательный процесс новых технологий, в частности технологий искусственного интеллекта. Современные исследования подтверждают тенденцию

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

расширения сферы применения искусственного интеллекта в различных отраслях, включая образование. Однако остаётся актуальной задача научно-методологического обоснования системного и целенаправленного внедрения исскуственного интелекта в учебный процесс. Анализ международного опыта показывает, что использование искусственного интеллекта требует как совершенствования нормативно-правовой базы, так и научного осмысления этических аспектов его применения в образовании.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: естественные науки играют ключевую роль в формировании естественно-научной грамотности учащихся. Это требует качественной подготовки будущих учителей начальных классов к преподаванию данных дисциплин. При этом необходимо применять интегративный и комплексный подход, учитывать национально-культурные и региональные особенности образовательной среды при планировании уроков и составлении заданий.

Ключевые слова: естественно-научная грамотность, естественные науки, научные понятия, проведение экспериментов, применение теоретических знаний на практике, объяснение явлений повседневной жизни, формирование интереса к науке, будущие учителя начальных классов.

Для цитирования: Аманкличев И.Б. Естественнонаучная грамотность и её место в системе начального образования. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 154–163.

SCIENTIFIC LITERACY IN NATURAL SCIENCES AND ITS ROLE IN PRIMARY EDUCATION

© Ismayil B. Amanklichev[1]✉
[1]Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the content and essence of the concept of scientific literacy, presenting it as a multifaceted process. It provides a theoretical and scientific justification for the importance of developing scientific literacy among primary school students. The role of SCIENCE natural sciences, in enhancing scientific literacy among general secondary school students is highlighted. The article also proposes recommendations for the professional preparation of future primary school teachers to teach natural sciences effectively.

AIM: the main objective of the study is to investigate the theoretical foundations for preparing future primary school teachers to enhance early scientific literacy in younger school-aged children by uncovering the meaning and significance of the concept of "scientific literacy".

MATERIALS AND METHODS: the methodological foundation of this research consists of a set of qualitative pedagogical analysis methods aimed at identifying the

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

content of the concept of scientific literacy and evaluating its importance in primary education. Methods such as content analysis of relevant scientific and pedagogical literature, comparison of key interpretations of the term, and drawing scientific conclusions were employed.

DISCUSSION AND RESULTS: the 21st century is characterized by rapid change, information flow, digitalization, globalization, and integration. In response to these demands, the education system faces the growing need to incorporate new technologies, one of which is artificial intelligence. Research indicates that the use of AI is beginning to spread across various sectors of society. However, there remains a strong need for the development of scientific and methodological foundations for its purposeful and systematic integration into the educational process. Analysis of global experience and research shows that AI contributes not only to improve the quality of education but also necessitates the refinement of regulatory and legal frameworks and the scientific exploration of the ethical aspects of its use in teaching.

CONCLUSION natural sciences play a crucial role in shaping scientific literacy among students. Therefore, it is essential to prepare future primary school teachers to competently teach these subjects. The natural sciences require an integrative and complex approach in education, which includes considering the specific characteristics of students' national and local environments when planning lessons and designing assignments.

Key words: scientific literacy, natural sciences, scientific concepts, conducting experiments, the ability to apply theoretical knowledge to explain everyday phenomena, developing attitudes toward science, future primary school teachers.

For citation: Ismayil B. Amanklichev (2025) 'Scientific literacy in natural sciences and its role in primary education', Inter education & global study, (6), pp. 154–163. (In Uzbek).

Ma'lumki, o'quvchi-yoshlarni faqatgina bilimlar bazasi bilan qurollantirib qo'ymasdan, balki bugungi tez o'zgaruvchan dunyoda ularda insonning muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydigan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish talab etilmoqda. Bunda bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va mahorati ta'limning sifatini oshirishning muhim omillarining biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan «Ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash mexanizmlarini belgilash hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish» maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi «Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari tug'risda»gi PF-72-son Farmonining qabul qilinishi bevosita kadrlar sifatini oshirishga qaratilgandir [1]. Ayniqsa, boshlang'ich sinflar uchun tayyorlanayotgan o'qituvchi-kadrlarning kasbiy kompetentligi va mahorati o'quvchi-yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun fundament yaratib berishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning biri hisoblanadi. Chunki, XXI asrning zamonaviy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

talablari hamda ta’lim tizimidagi muammolar boshlang‘ich ta’limning ustuvor yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Vaholanki, bugungi davr o‘quvchilardan fanga oid bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda mulohaza yuritish, ma’lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va asosli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lish talab etiladi. Ya’ni, bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishning asosi bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik va uni rivojlantirishga doir ko‘plab olimlar o‘zlarining tadqiqot ishlarini olib borishgan. T.G.Vedernikova bilan T.G.Yemelevalar axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish masalalarini tahlil qilgan bo‘lsalar [3;114-119], L.A.Safronova esa o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini olib bori shva bunda tabiiy yo‘nalishdagi fanlarning ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tadi [8], O.A.Ivashedkina tabiiy bilimlarni oshirishda «Tabiiy fanlar» o‘quv kursining mazmunini o‘quv, loyixaviy, loyihali-tadqiqotchilik faoliyati asosida takomillashtirish g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsa [4], L.I.Burova tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida olamning tabiiy kartinasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lsa [2], A.I.Savenkov tomonidan muammolarni ko‘rib bilish qobiliyati, farazlarni ilgari surish, savollar berishga o‘rgatish, tushunchalarga ta’rif berish, tavsiflash, kuzatishga o‘rgatish, eksperiment o‘tkazish, mushohada yuritish, xulosa chiqarish singari bolalarning tadqiqotchiligini riojlantirishga doir masalalarni tavsiya etadi [7]. Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlarining kontekt-tahlili natijalari asosida tabiiy-ilmiy savodxonlik asosan ilmiy g‘oyalar va jarayonlarni tushunish, atrof-muhit hodisalarini talqin qilish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, shuningdek, ma’lumotlarni totpish va tahlil qilish, olingan ma’lumotlarning ishonchliligi va ahamiyatini baholash, fikrlarini asoslash va xulosalar chiqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi, - degan xulosaga kelish mumkin. Ya’ni, tabiiy-ilmiy savodxonlik – bu integrativ xarakterga ega bo‘lgan tabiiy fanlarga doir:

- ilmiy tushunchalarni bilish (masalan, suv, havo, yorug‘lik, tirik organizmlar va ularning yashash muhitining xususiyatlari va h.k.);
- turli xil eksperimentlar o‘tkazishga doir ilmiy metodlarni tushunish (masalan, jarayonlarni kuzatish, bu boradagi o‘zinig shaxsiy farazlarini ilgari surishi, eng oddiy tajribalarni o‘tkazishi, ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyati va h.k.);
- kundalik hayotdagi hodisalarni tushuntirish uchun egallagan nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish (masalan, nima uchun qish kunlarida derazalarda qirovning hosil bo‘lishi, suv filtrlari qanday ishlashi va hokazo);
- ilm-fanga bo‘lgan munosabatining shakllantirish, shu jumladan olimlarning ilmiy mehnatiga bo‘lgan hurmat hissining shakllanishi, atrof-muhitni saqlash va hayot sifatini yaxshilashda ilm-fanning rolini anglashi singari ko‘plab bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish nazarda tutiladi. Albatta, bu kabi bilim, ko‘nikma va malakalar har bir o‘quvchining yosh va individual hususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini oshrishida tabiiy fanlar alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiiy-ilmiy savodxonliuni rivojlantirishga doir qator rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimiga, shu jumladan boshlang‘ich sinflarga ham

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

SCIENCE, ya'ni tabiiy fanlar dasturi joriy etilgan. Jahon tajribasiga asoslangan holda hamda bugungi talablar doirasida O'zbekiston Respublikasining umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham shu kunga qadar 1-2-sinflarda o'qitilib kelingan «Atrofimizdagi olam» hamda 3-4-sinflarda o'qitilib kelingan «Tabiatshunoslik» fanlarining o'rniga ularni birlashtirgan holda 2021-2022-o'quv yilidan boshlab tabiiy fanlarni (SCIENCE) o'qitish joriy etildi. Ya'ni, SCIENCE fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida:

- 1-2-sinflarda «Atrofimizdagi olam»,
- 3-4 sinflarda «Tabiatshunoslik»,
- 5-6-sinflarda «Biologiya», «Fizika», «Geografiya» fanlarini o'qitish orqali o'quvchilarda olamni yaxlit holda tushunish, bir butun yaxlit holda olamni anglashiga doir ilmiy dunyoqarashining shakllanishi va ularni o'rganishga doir tadqiqotchilik ko'nikmlarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinflarda 4K modelida ko'zda tutilgan o'quvchilarda kreativlik, kommunikatsiya, kollaborativ, tanqidiy fikrlash ko'nikmlari bilan bir qatorda PISA va TIMSS singari xalqaro baholash dasturlari doirasida kompetensiyalarining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarining qo'yidagi qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati kengayadi:

- tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish (masalan, kuzda barglar rangining o'zgarishi);
- jonli va jonsiz organizmlarning belgilarini tasvirlash;
- murakkab bo'lmagan tajribalarni o'tkazish va h.k.

Bunda albatta, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasi birlamchi o'rinni egallaydi. Bu esa o'z navbatida tabiiy fanlardan dars va darsdan tashqari jarayonlarning qanchalik samarali tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, uning samaradorligi esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ushbu jarayonlarga kasbiy tayyorgarligini taqozo etadi.

Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishida «Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi» fanini o'qitish ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu fan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida «Tabiiy fanlar»dan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashil etishga tayyorlashni ko'zda tutadi. Ushbu fanni o'qitishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qo'yidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishi tavsiya etiladi:

I.Tabiiy fanlar – bu eng avvalo ta'lim jarayoniga integrativ yondashuvni talab qiladigan fan hisoblanadi. Ya'ni, bitta mavzuni tushuntirish uchun o'qituvchi bir necha fan yutuqlarini bilishi, anglashi va qo'llashi talab etiladi. Msalan, Y.V.Malikovaning muallifligidagi 4-sinflar uchun «Tabiiy fanlar» nomli darsligida [5; 4-7] «Men tadqiqotchiman» mavzusi berilgan bo'lib, shu orqali o'quvchilarga tadqiqotchilarning kimlar ekanligi hamda tadqiqotlar qanday olib borilishi kerakligi, tadqiqotning qanday amalga oshirilishi, ma'lumotlarni qaerdan olish mumkinligi, tug'ri xulosa chiqarish haqida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ma’lumotlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilarga qo‘yidagi singari topshiriqlar berish ko‘zda tutilgan:

1. Tadqiqotchi bo‘lish uchun inson qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?
2. Siz nimaga qiziqasiz? Nimalarni bilishni xohlaysiz? Javoblaringiz asosida tadqiqot uchun mavzu toping. Tadqiqot o‘tkazish uchun nimalarni bilishingiz kerak bo‘lar ekan?
3. Tadqiqot olib borish uchun kerakli ma’lumotlami qayerdan olish mumkin?

Bu kabi o‘quv materiallari bilan ishlashda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan *birinchidan*, bir vaqtning o‘zida insoniy fazilatlar bilan bog‘liq bo‘lgan falsafa, pedagogika, psixologiya, ma’naviyat hamda ilmiy metodologiyaning fundamental asoslarini bilishni *ikkinchidan* esa o‘quvchilarning yosh va individual hususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularga mos ta’lim shakllari, metod, vosita va texnologiyalarni qo‘llash malakasiga ega bo‘lishni ham talab etadi. *Uchinchidan* esa boshlang‘ich sinf davri bolalarning dunyoqarashi asoslarini shakllantirishning emotsional boy davri hisoblanadi. Bu davrda tabiat, jamiyat va undagi o‘z o‘rni haqida dastlabki tasavvurlar shakllanadi. Aynan shu yoshda bolalar faol qiziquvchanlikni namoyon etadilar, kuzatishga, savollar berishga, tushuntirishlar izlashga intiladilar va bu bilishga bo‘lgan intilishlar to‘g‘ri yo‘naltirilishi va rivojlantirilishi lozim. Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Masalan, 2-sinflarda integratsiyalashgan dars sifatida o‘quvchilar o‘simlikning qorong‘ulikda va yorug‘likda o‘sishini kuzatdilar, natijalarni jadvalga qayd etdilar va xulosa chiqardilar. Ya’ni, xulosa shundan iborat bo‘lishi kerak: “o‘simliklar o‘sishi uchun yorug‘lik kerak”. Bu tajriba tabiiy-ilmiy savodxonlikning boshlang‘ich bosqichiga mos keladigan elementar ilmiy tafakkurni namoyish etadi.

II. Tabiiy fanlar – bu eng avvalo ta’lim jarayoniga kompleks yondashuvni talab qiladigan fan hisoblanadi. O‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni oshirishga doir ta’lim jarayoniga kompleks yondashuv deganimizda ikkita jihat nazarda tutiladi. Birinchisi, o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni oshirish ishlarida ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv dasturlari mazmunini qayta ko‘rib chiqilishi, ularning maksimall darajada maktab hayotiga moslashtirilishi, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘qitishning tadqiqot usullarini qo‘llashga tayyorlanishi singari ishlarni ham o‘zida birlashtiradi.

Ikkinchisi, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda har bir mavzuni tushuntirishda bilimlarning kompleks holda oddiydan murakkabga qadar berilishi ko‘zda tutiladi. Masalan «O‘simliklar» mavzusini o‘qitishda darslikda berilgan [5; 8-7] o‘simliklarning xilma-xilligi, o‘simlikka barg nega kerak?, o‘simliklar va atrof-muhit, o‘simlik guruhlari, o‘simliklarning atrof-muhitga ta’siri, inson o‘simliklar hayotiga qanday ta’sir o'tkazadi, o‘simliklarning Qizil kitobi haqida o‘quvchilarni bilimlar bazasi bilan qurollantirish, ularni ko‘nikma va malakalarga aylantirish hamda tabiiy-ilmiy savodxonlikni oshirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan biologiya, ekologiya, ekologik tarbiya, atrof-muhitga shaxsiy mas’uliyatni shakllantirish, barqaror rivojlanish va ilmiy fikrlash madaniyati vazifalari bilan uzviy bog‘liq holda kompleks yondashuv talab etiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

III. Boshlang‘ich sinflarida tabiiy fanlardan darslarni tashkil etishda hamda topshiriqlar tuzishda bolalarning yashab turgan milliy-mahalliy hududning o‘ziga hos hususiyalarini inobatga olish lozim. Bo borada maktab darsliklari milliy-mahalliy hususiyatlarimizga hos materiallar bilan boytiilgan. Masalan, tabiiy fanlardan yaratilgan darslikda «Qanday idishlar bo‘ladi?» mavzusi doirasida kosa, chaynik, patnis, hovoncha, jo‘va, ko‘za, lagan, kulolchilik idishlari tug‘risida yoki bo‘lmasa «O‘simliklar» mavzusi doirasida so‘z o‘tlari, mox, paporotnik, igna barglik o‘simliklar, go‘lli o‘simliklar tug‘risida ma’lumtlar va ularga mos topshiriqlar rasmlari bilan birga o‘quvchilarga taqdim etilgan. Bu, albatta, ijobiy holat. Bularga qo‘shimcha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ushbu ma’lumotlarni raqamli texnologiyalar va elektron-animatsion shaklda bolalarga taqdim etishga tayyorlash bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi.

IV. Tabiiy fanlar – bu o‘quvchilarda tabiiy ilmiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiladigan fanlarning biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan dasrdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ushbu fandan to‘garaklar tashkil etish, ularda tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishda texnika xavfsizilk qoidalariga amal qilish va o‘quvchilarda ilk tadqiqotchilik ko‘nikmalarini hosil qilish malakalarini shakllantirish talab etiladi. Masalan, «Men-o‘z hududimning tadqiqotchisiman» mavzusi doirasida krujoklarni tashkil etish asnosida har bir o‘quvchi o‘zi yashab turgan hudud (shahar, qishloq)ning tabiiy hodisalari, tabiatdagi real holatlarni (kapalakning uchishi, qaysi qo‘shlarning uchib o‘tishi va sayrashi, yerning hususiyatlari va h.k.) tushuntirishga doir ilk tadqiqotchilik ishlari (kuzatish, taqqoslash) olib borishi va ularning sir-asrorlarini chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasining hamda elementar ilmiy tafakkurining shakllanishi muhimdir.

Shunday qilib, ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tabiiy-ilmiy savodxonlik nafaqat tabiat haqidagi bilimlarga ega bo‘lish, balki ilmiy fikrlash, kuzatish, empirik ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarish, bilimlarni kundalik hayotda qo‘llash va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish qobiliyatini o‘z ichiga olgan keng qamrovli pedagogik kategoriya hisoblanadi. Uning shakllanishi esa aynan boshlang‘ich sinflarlarda dars va darsdan tashqari jarayonlarni samarali tashkil etish hamda bunda tabiiy fanlarning imkoniyatlaridan keng foydalanish talab etiladi. Chunki aynan ushbu yosh dasrlarida o‘quvchilarda bilish motivatsiyasi asoslari shakllanadi, sezgi, aqliy va muloqot qobiliyatlari faol rivojlanadi, tabiat, inson va insonning dunyodagi o‘rni to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlar shakllanadi. Ushbu jarayonlarga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quvchilarning ilk tabiiy-ilmiy savodxonlik quyidagilariga yordam beradigan jihatlariga e’tibor qaratish lozim:

- kuzatilayotgan hodisalarni tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish,
- amaliy topshiriqlar va tajribalar orqali asosli mulohaza yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish,
- tabiatdagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish orqali ekologik ongni tarbiyalash,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- farazlarni ilgari surish va oddiy tajribalar o‘tkazish, loyiha va qidiruv faoliyatida ishtirok etish, tabiiy jarayonlarni modellashtirish, tabiiy obyektlar bilan ishlash va natijalarni vizuallashtirish singari tadqiqot va faoliyat usullarini joriy etishga o‘rgatish va h.k.

Ya’ni, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda tabiiy fanlar sohasidagi metodik kompetensiyalarni, o‘quvchilar jamoasi orasida tadqiqot jarayonini osonlashtirish ko‘nikmalarini va fasilitsion kompetensiyalarni hamda fanlararo aloqalarni tashkil etish va ilmiy mazmunni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga moslashtirish qobiliyatini rivojlantirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy-ilmiy savodxonlik shaxs ilmiy madaniyatining asosi bo‘lib, uni ta’limning boshlang‘ich bosqichidan maqsadli shakllantirish jamiyatning barqaror intellektual va ijtimoiy rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025-йил 5-майдаги «Таълим сифатини таъминлаш ва таълим хизматлари кўрсатиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча сора-тадбирлари туғрисда»ги ПФ-72-сон Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 06.05.2025 й., 06/25/76/0414-сон.

2. Бурова Л.И. Теоретико-педагогические основы формирования у младших кольников естественнонаучной картины мира. Автореф…дисс…докт.пед.н. – Москва, 1998

3. Ведерникова Т.Г., Емелева Т.Г. *К* вопросу об эффективности формирования естественнонаучных знаний школьников начальных классов при использовании информационных технологий обучения. //Вестник Башкирчского государственного педагогического университета им. М.Акмуллы. – 2022г. Стр.114-119.

4. Ивашедкина О.А. Методика-проектно-исследовательской деятельности школьников в образовательной практике учителя естествознания. Автореф…дисс…канд.пед.н. – Санкт-Петербург, 2016.

5. Маликова И.В. Табиий фанлар. Умумий ўрта таълим мактабларининг 4-синфи учун дарслик, I қисм. /Й.В.Маликова, С.В.Костяненко. – Тошкент, «Novda Edutayment», 2023. – 136 Б. 4-7 бетлар

6. Савенков А.И. Психологические основы исследовательского обучения школьников // Школьная физика. – для учителей и учеников. https://www.alsak.ru/item/56-4.html

7. Савенков А.И. Детское исследование как метод обучения старших дошколтников. Учебный план курса повышении квалификации. Педагогический университет «Первое сентября». Электронный ресурс: https://dob.1sept.ru/view_article.php?ID=200702415

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

8. Сафронова Л.А. Педагогические условия активизации исследовательской деятельности учащихся классов естественнонаучного профиля общеобразовательной школы. Автореф…дисс…канд.пед.н. – Чебоксары, 2014. – 23С. https://www.dissercat.com/content/pedagogicheskie-usloviya-aktivizatsii-issledovatelskoi-deyatelnosti-uchashchikhsya-klassov-e/read

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Amanklichev Ismayil Bazarbaevich,** Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «Boshlang'ich ta'lim» kafedrasi assistent-o'qituvchisi, [**Аманкличев Исмайыл Базарбаевич,** ассистент-преподаватель кафедры «Начальное образование» Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза], [**Amanklichev Ismayil Bazarbaevich,** Assistant Lecturer at the Department of Primary Education, Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute]; manzil: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh., P.Seytov ko'chasi. [адрес: Республика Каракалпакстан, г.Нукус, ул. П. Сейтова.], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seitov Street

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

MUSTAQIL TA’LIM JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MASALALARI

©M.K. Tangirbergenova[1]✉, © Toliboyeva Shaxnoza[2]✉
[1,2]Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada mustaqil ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari chuqur tahlil etilgan. Innovatsion texnologiyalarning ta’lim mazmuni va sifatiga ta’siri, talabalarning mustaqil ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishdagi roli, shuningdek, zamonaviy raqamli vositalarni integratsiyalashning pedagogik jihatlari ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada ilg‘or xorijiy va mahalliy tajriba misollariga asoslangan tahliliy mulohazalar ham keltirilgan.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi — mustaqil ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish holatini o‘rganish, bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash va samarali metodik yondashuvlarni tavsiya etishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga oid ilmiy va uslubiy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, pedagogika oliygohlarida tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi hamda mustaqil ta’lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish amaliyoti o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilar mustaqil ta’limda asosan internet manbalari, ta’limiy platformalar va multimedia vositalaridan foydalanadilar. Biroq, ularning innovatsion texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirishi, ayniqsa, interaktiv dasturlar va sun’iy intellektga asoslangan vositalarni qo‘llash borasida cheklovlar mavjud. O‘quv rejalari va amaliy mashg‘ulotlar bu yo‘nalishda kuchaytirilsa, natijadorlik sezilarli darajada oshadi.

XULOSA: mustaqil ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi. Bu yo‘nalishda zamonaviy platformalardan foydalanishni o‘rgatish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish zarur. Shuningdek, raqamli kompetensiyani baholash va rivojlantirish tizimi yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Kalit so'zlar: mustaqil ta’lim, innovatsion texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika.

Iqtibos uchun: Tangirbergenova M.K., Toliboyeva Shaxnoza. Mustaqil ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari. // Inter education & global study. 2025, №6. B.164–169.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ БУДУЩИМИ УЧИТЕЛЯМИ В ПРОЦЕССЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

© М.К. Тангирбергенова[1]✉, © Толибоева Шахноза[2]✉
[1,2]Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье глубоко проанализированы вопросы использования будущими учителями инновационных технологий в процессе самостоятельного обучения. Влияние инновационных технологий на содержание и качество образования, их роль в повышении активности студентов в процессе самостоятельного обучения, а также педагогические аспекты интеграции современных цифровых средств освещены на научной основе. В статье также представлены аналитические рассуждения, основанные на примерах передового зарубежного и отечественного опыта.

ЦЕЛЬ: целью данной статьи является изучение состояния формирования у будущих учителей навыков использования инновационных технологий в процессе самостоятельного обучения, выявление существующих проблем в данной области и предложение эффективных методических подходов для их решения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в рамках исследования был проведён анализ научных и методических источников, посвящённых применению инновационных технологий в образовании. Также были организованы анкетирования среди студентов педагогических вузов и изучена практика использования цифровых инструментов в процессе их самостоятельного обучения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что будущие учителя в процессе самостоятельного обучения в основном используют интернет-ресурсы, образовательные платформы и мультимедийные средства. Однако были выявлены ограничения в глубоком освоении инновационных технологий, особенно в применении интерактивных программ и средств, основанных на искусственном интеллекте. Усиление учебных планов и практических занятий в данном направлении способно значительно повысить эффективность подготовки студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: эффективное использование инновационных технологий в процессе самостоятельного обучения способствует укреплению профессиональной подготовки будущих учителей. Важно организовать учебный процесс, основанный на практических занятиях, обучать студентов работе с современными цифровыми платформами, а также развивать их творческий подход. Кроме того, необходимо внедрить систему оценки и развития цифровых компетенций будущих педагогов.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, инновационные технологии, информационно-коммуникационные технологии, интерактивные методы, компетентностный подход, цифровая педагогика.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Для цитирования: Тангирбергенова М.К., Толибоева Шахноза. Проблемы использования инновационных технологий будущими учителями в процессе самостоятельного обучения. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 164–169.

ISSUES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES BY FUTURE TEACHERS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING

© Mekhriban K. Tangirbergenova[1]✉, © Toliboyeva Shakhnoza[2]✉
[1,2]Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article provides an in-depth analysis of future teachers' use of innovative technologies in the process of independent learning. The impact of innovative technologies on the content and quality of education, their role in enhancing student engagement during independent learning, as well as the pedagogical aspects of integrating modern digital tools are examined on a scientific basis. The article also presents analytical reflections based on examples of advanced international and domestic experience.

AIM: the purpose of this article is to study the state of developing future teachers' skills in using innovative technologies during independent learning, to identify existing challenges in this area, and to propose effective methodological approaches for their resolution.

MATERIALS AND METHODS: the research involved analyzing scientific and methodological sources on the use of innovative technologies in education. Surveys were conducted among students of pedagogical universities, and the practical use of digital tools during independent learning was examined.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis showed that future teachers mostly use internet resources, educational platforms, and multimedia tools during their independent study. However, limitations were identified in their in-depth mastery of innovative technologies, especially in using interactive software and tools based on artificial intelligence. Enhancing curricula and increasing the number of practical training sessions in this area can significantly improve the outcomes.

CONCLUSION: the effective use of innovative technologies in independent learning enhances the professional preparation of future teachers. It is necessary to organize practice-oriented educational processes, teach students to use modern digital platforms, and develop their creative thinking. Moreover, a system for assessing and improving digital competence among future educators should be implemented.

Key words: independent learning, innovative technologies, information and communication technologies, interactive methods, competency-based approach, digital pedagogy.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

For citation: Mekhriban K. Tangirbergenova, Toliboyeva Shakhnoza. (2025) 'Issues of using innovative technologies by future teachers in the process of independent learning', Inter education & global study, (6), pp. 164–169. (In Uzbek).

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Yangi pedagogik konsepsiyalar va raqamli transformatsiya ta'limning barcha bosqichlariga, jumladan, oliy pedagogik ta'limga ham chuqur kirib bormoqda. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish, ularni innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatish, mustaqil ta'lim orqali kasbiy rivojlanishga undash muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mustaqil ta'lim – talabaning o'z bilimini mustaqil izlanishlar orqali chuqurlashtirishi, mavjud resurslardan foydalanib, yangi bilimlarni egallashi va amaliyotda qo'llashni o'zlashtirishidir. Ushbu jarayonda innovatsion texnologiyalar – multimediya, virtual laboratoriyalar, elektron ta'lim platformalari, raqamli kontentlar – samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda "innovatsion ta'lim" bu o'z-o'zini rivojlantirishga qodir bo'lgan va uning barcha ishtirokchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan ta'lim va innovatsion ta'lim-bu rivojlanayotgan ta'limdir. Talabalarga yetkaziladigan zamonaviy tarkib zamonaviy bilim amaliyotiga mos keladigan kompetentsiyalarni rivojlantirish kabi fan bilimlarini rivojlantirishni o'z ichiga olmaydi. Ushbu tarkib yaxshi tuzilgan va zamonaviy aloqa vositalari yordamida uzatiladigan multimedia o'quv materiallari shaklida taqdim etilishi kerak. O'qitishning zamonaviy usullari bu nafaqat materialni passiv idrok etish asosida, balki o'quvchilarning o'zaro munosabatlari va ularning o'quv jarayoniga jalb qilinishiga asoslangan vakolatlarni shakllantirishning faol usullari.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 3-bobining "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan 1-§ da "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" [1] masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning innovatsion taexnologiyalardan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirishga muammo sifatida talqin etilganligi bois, 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham "Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi" [2] deb belgilab qo'yilganligini keltirib o'tish mumkin. Ma'lumki, o'qitishning kredit texnologiyasi yordamida auditoriya ishi hajmini kamaytirish to'g'ridanto'g'ri talabaning mustaqil ishining ahamiyati va maqomini oshiradi. Agar an'anaviy o'qitish tizimida mustaqil ish o'rganilayotgan o'quv kursining umumiy mehnat intensivligining uchdan bir qismini tashkil yesa, u holda o'qitishning kredit tizimida bu qismning uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Shuning uchun kredit texnologiyasi sharoitida talabaning mustaqil ishi ta'lim sifatini oshirish va bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy zaxiralaridan biriga aylanadi.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation"-yangilik kiritish,ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. [3]

Innovatsion texnologiyalar — bu pedagogik jarayonda interfaol, ijodiy, individual yondashuvlarni ta'minlaydigan va talabaning o'zlashtirish jarayonini sifatli tashkil etishga xizmat qiluvchi metod va vositalar majmuidir. Ular o'quv jarayonini modernizatsiyalash, axborot oqimlarini boshqarish, tahlil qilish, muammo yechimini topishga yo'naltirilgan metodik tizimni shakllantirishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT): Internet, kompyuter, mobil qurilmalar orqali ta'limni olib borish.

- **Elektron ta'lim tizimlari:** Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi platformalar.

- **Vizual-interaktiv vositalar:** Smart doskalar, interaktiv grafikalar, infografik taqdimotlar.

- **Virtual va aralash ta'lim:** Simulyatsiya, gamifikatsiya, VR/AR texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar.

- **Sun'iy intellekt elementlari:** Moslashtirilgan ta'lim platformalari, chatbotlar, avtomatik baholash tizimlari.

Mazkur texnologiyalar pedagogik faoliyatga joriy etilishi ta'limda differensial yondashuv, individual ta'lim trayektoriyasini yaratish imkonini beradi.

L.V.Golish va D.M.Fayzullaevalar o'zining olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko'rsatilgan har bir elementlarning muvaffaqiyatli rejalashtirish, tashkillashtirish, monitoring va baholash zarur ekanligini asoslab berishgan [4]. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta'lim bo'lajak pedagoglarni kasbiy hayotga tayyorlashda muhim bosqich hisoblanadi. Unda talaba o'z faoliyatini o'zi rejalashtiradi, bilimlarni mustaqil egallaydi, ta'lim mazmuniga tanqidiy yondashadi. Innovatsion texnologiyalar esa bu jarayonda quyidagicha o'z aksini topadi:

Axborot resurslaridan unumli foydalanish: Talaba elektron kutubxonalar, ta'limiy platformalar, raqamli lug'atlar va ensiklopediyalar orqali dars materiallarini mustaqil o'rganadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Moslashuvchan ta’lim muhiti: Mobil ilovalar va masofaviy ta’lim vositalari orqali istalgan joyda va vaqtda o‘rganish imkoniyati mavjud.

Multimediya va vizual kontentlar: Video darslar, animatsiyalar, podkastlar talabaning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Keys-stadiy, projekt-metod, WebQuest kabi texnologiyalar orqali murakkab muammolarga yechim topish mashqlari bajariladi.

Hozitgi kunda ta’limda innovatsion texnologiyalarni mustaqil ta’limga integratsiyalash jarayoni juda dolzarb masalalardan bo’lib hisoblanadi. Ular quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. **Diagnostik bosqich. Bu bosqichda** talabalarning texnologiyaviy tayyorgarlik darajasi va raqamli kompetensiyalarini aniqlashni nazarda tutadi.

2. **Loyihalashtirish bosqichi.** Bu mustaqil ta’lim topshiriqlari va ularni bajarishda foydalaniladigan elektron resurslarni tanlash imkoniyatlarni beruvchi bosqich bo‘lib hisoblanadi.

3. **Axborot-muloqot bosqichi:** Platformalarda talabalararo muloqot, fikr almashish, onlayn maslahatlar jarayoni amalga oshiriladi.

4. **Baholash bosqichi:** Refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, e-portfel va raqamli diagnostika vositalari orqali monitoring yuritishni ko‘zda tutadi.

Talabalar uchun masofaviy ta’lim modullari, o‘zlashtirishni nazorat qiluvchi test tizimlari, onlayn laboratoriyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ta’limiy hamkorlik imkoniyatlari yaratiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik faollikni shakllantirib borish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Kasbiy ta’limda innovatsion faoliyatni shakllantirish pedagogik-psixologik va texnologik yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bunda jodiy muhit yaratish, jamoaviy hamkorlik, digital ko‘nikmalar, innovatsion loyiha faoliyati kabi jihatlarni o**‘z** ichiga oladi. Bularning barchasi pedagogik kasbga tayyorgarlik jarayonida yangicha yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki bo‘lajak o‘qituvchilarda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli vositalardan foydalangan holda mustaqil ta’lim tashkil etish, talabalarni zamonaviy o‘quv muhitiga moslashishiga, ta’lim oluvchining shaxsiy rivoji, kreativ fikrlashi va axborot texnologiyalaridan mustaqil foydalanish qobiliyatining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1.O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.

2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr.

3.N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” o`quvuslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

4.Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2014.

5. Nishonova M. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: TDPU, 2021.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tangirbergenova Mexriban Koshkinbaevna**, Pedagogika kafedrasi assistent o'qituvchisi, [**Тангирбергенова Мехрибан Кошкинбаевна,** ассистент преподавателя кафедры педагогики], [**Tangirbergenova Mekhriban Koshkinbaevna**, Assistant Lecturer, Department of Pedagogy, manzil: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

✉**Toliboyeva Shaxnoza**, Pedagogika kafedrasi magistranti, [**Толибоева Шахноза,** магистрант кафедры педагогики], [**Toliboyeva Shakhnoza**, Master's Student, Department of Pedagogy manzil: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BOSHLANG‘ICH MILLIY SINFLARDA NUTQ O‘STIRISH

© Askarova Gulayim[1]✉

[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang‘ich milliy sinflarda o‘quvchilarning nutq o‘stirish jarayoni yoritilgan. Bolalarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish, shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan va kommunikativ yondashuvning o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mustaqil fikr ifodalashga rag‘batlantirish o‘quvchilarning savodxonligi va tafakkur salohiyatini oshirishda muhim omil ekanligi ta’kidlangan.

MAQSAD: mazkur maqolada boshlang‘ich milliy sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari, mavjud muammolar, zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar yoritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u bolalarning til boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri shakllantirish orqali ularning umumiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda boshlang‘ich milliy sinflarda nutq o‘stirishga doir ilmiy-pedagogik adabiyotlar, o‘quv dasturlari va darsliklar tahlil qilindi. Amaliy metod sifatida kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma va sinov darslari o‘tkazildi. Shuningdek, ona tili va o‘qish darslarida qo‘llanilgan interaktiv usullar (rolli o‘yinlar, dialogik mashqlar, ertak tuzish, savol-javoblar)ning samaradorligi baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: pedagog olimlarning kelirgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘yin asosidagi topshiriqlar, rolli o‘yinlar va erkin ifoda faoliyatlari orqali 2-sinf o‘quvchilarining 78%ida nutq faoliyatining faollashuvi kuzatildi. Ayniqsa, og‘zaki muloqotda qatnashish faolligi 3 oy ichida 22% ga oshgani aniqlandi [5]. Bunda eng samarali deb topilgan metodlar: “Kim gapni davom ettiradi?”, “Savol-zanjir”, “Tasvirlangan holatga asoslangan hikoya tuzish” kabi usullar bo‘ldi.

XULOSA: nutq o‘stirish bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik kuzatuvlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, og‘zaki muloqotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar va kommunikativ metodikalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq salohiyatini oshirishda samarali hisoblanadi. Kelgusida bu yo‘nalishda milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi elementlarini o‘quv materiallariga integratsiya qilish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Kalit so'zlar: nutq o‘stirish, boshlang‘ich ta’lim, milliy sinflar, og‘zaki va yozma nutq, mustaqil fikrlash, kommunikativ kompetensiya, milliy qadriyatlar, didaktik yondashuv, til rivoji, muloqot ko‘nikmalari.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Iqtibos uchun: Askarova Gulayim. Boshlang‘ich milliy sinflarda nutq o‘stirish. // Inter education & global study. 2025, №6. B.170–176.

РАЗВИТИЕ РЕЧИ В НАЧАЛЬНЫХ НАЦИОНАЛЬНЫХ КЛАССАХ

© Аскарова Гулайым[1]✉
[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается процесс развития речи учащихся начальных национальных классов. Анализируется значение национальных ценностей, устного народного творчества, а также личностно-ориентированного и коммуникативного подходов в формировании устной и письменной речи у школьников. По результатам исследования отмечается, что стимулирование самостоятельного выражения мыслей играет важную роль в повышении грамотности и мыслительного потенциала учащихся.

ЦЕЛЬ: в данной статье освещаются особенности развития речи у учащихся начальных национальных классов, существующие проблемы, современные подходы и эффективные методы. Актуальность исследования заключается в том, что оно способствует развитию общего мышления детей путём расширения их словарного запаса и правильного формирования устной и письменной речи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были проанализированы научно-педагогические источники, учебные программы и учебники, касающиеся развития речи в начальных национальных классах. В качестве практических методов применялись наблюдение, беседы, анкетирование и пробные занятия. Также была оценена эффективность интерактивных методов, используемых на уроках родного языка и чтения (ролевые игры, диалогические упражнения, составление сказок, вопросы и ответы).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты педагогических наблюдений и анализов показывают, что задания, основанные на игровых подходах, ролевые игры и упражнения на свободное выражение активизировали речевую деятельность у 78% учащихся 2-го класса. Особенно отмечено, что активность в устной коммуникации возросла на 22% в течение 3 месяцев. Наиболее эффективными методами оказались: «Кто продолжит фразу?», «Цепочка вопросов», «Составление рассказа по изображённой ситуации».

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: педагогические наблюдения по развитию речи показали, что задания, направленные на развитие устной речи, и коммуникативные методики являются эффективными средствами повышения речевого потенциала учащихся начальных классов. В дальнейшем важным направлением остаётся интеграция национальных ценностей и элементов устного народного творчества в учебные материалы.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ключевые слова: развитие речи, начальное образование, национальные классы, устная и письменная речь, самостоятельное мышление, коммуникативная компетентность, национальные ценности, дидактический подход, развитие языка, коммуникативные навыки.

Для цитирования: Аскарова Гулайым. Развитие речи в начальных национальных классах. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 170–176.

DEVELOPING SPEECH IN PRIMARY NATIONAL CLASSES

© Askarova Gulayim[1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the process of speech development among students in primary national classes. It analyzes the role of national values, folklore, and the importance of learner-centered and communicative approaches in enhancing both oral and written language skills. The findings highlight that encouraging independent expression significantly contributes to students' literacy and cognitive development.

AIM: this article highlights the specific aspects of developing speech in students of primary national classes, existing challenges, modern approaches, and effective methods. The relevance of the study lies in its contribution to enhancing children's overall thinking by expanding their vocabulary and correctly forming both oral and written speech.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed scientific-pedagogical literature, curricula, and textbooks related to speech development in primary national classes. Practical methods included observation, interviews, surveys, and trial lessons. Additionally, the effectiveness of interactive techniques used in native language and reading classes—such as role-playing, dialogic exercises, storytelling, and Q&A activities—was evaluated.

DISCUSSION AND RESULTS: findings from pedagogical observations and expert experiences revealed that tasks based on games, role-playing, and free expression activities activated speech development in 78% of second-grade students. Notably, students' participation in oral communication increased by 22% over a three-month period. The most effective methods included: "Who will continue the sentence?", "Question chain", and "Storytelling based on an illustrated situation."

CONCLUSION: pedagogical observations on speech development show that tasks aimed at improving oral communication and communicative methods are effective in enhancing the speech potential of primary school students. In the future, integrating national values and elements of folk oral traditions into educational materials will remain a key focus.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Key words: speech development, primary education, national classes, oral and written speech, independent thinking, communicative competence, national values, didactic approach, language development, communication skills.

For citation: Askarova Gulayim. (2025) 'Developing speech in primary national classes', Inter education & global study, (6), pp. 170–176. (In Uzbek).

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularni aniq, ravon va mantiqli fikrlashga o'rgatish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutqini o'stirish ularning kelgusidagi o'qish, muloqot qilish va jamiyatda faol ishtirok etishlariga zamin yaratadi.

Milliy sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning nutqiy rivojlanishida ona tili, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va milliy qadriyatlar asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois, boshlang'ich milliy sinflarda nutq o'stirish masalalari nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekistonda milliy ta'lim tizimi doirasida boshlab berilayotgan ilk sinflarda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish – til o'rgatish jarayonining eng muhim tarkibiy qismidir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda nutq o'stirishga oid metodik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ona tilimiz – o'zbek tilini yanada rivojlantirish va kamol toptirish haqida doimo qayg'urib keladi. Uning quyidagi fikrlari buning yorqin isbotidir: "Biz avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank – moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanilishi darajasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir".[1]

Shu bois ilm berishda sharq allomalari mustaqil fikrlash,fikrni bayon qilish, nutq tuzish jarayonidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy qarashlarini qayd qilganlar va shu bilan bir qatorda, nutqning ilmiynazariy tomoni lug'atlarda, darslik va o'quv va metodik qo'llanmalarda izoh berib, atroflicha yoritilgan.

Forobiyning fikricha, qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchisi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishiga va undan chiqadigan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilinmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri va nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz”.

O‘quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so‘z zahirasini o‘z nutqi orqali harakatga keltiradi. Nutq — inson tafakkuri, tuyg‘ulari va bilimlarini og‘zaki yoki yozma shaklda ifoda etish vositasidir. U nafaqat muloqot qilish, balki shaxsning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishi, o‘z fikrini aniq va tushunarli yetkazishi uchun ham zarur vositadir. Nutqning to‘g‘ri shakllanishi bolaning tafakkur jarayonlari, eshitish-tushunish qobiliyati va til boyligining rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq.

Pedagogik nazariyalarda nutqni o‘stirish deganda o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, og‘zaki va yozma fikr ifodasi malakalarini shakllantirish, grammatik jihatdan to‘g‘ri va uslubiy jihatdan ravon nutq tuzishga o‘rgatish jarayoni tushuniladi. V.V. Davydov, L.S. Vygotskiy kabi pedagog-psixologlar ta’kidlaganidek, bolaning nutqiy rivojlanishi — bu uning intellektual va ijtimoiy rivojlanishining asosi hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinfda nutqni o‘stirish ikki yo‘nalishda olib boriladi:

Reseptiv (qabul qiluvchi) yo‘nalish – eshitish, o‘qish orqali bilim olish va tushunish;

Produktiv (yaratuvchan) yo‘nalish – og‘zaki va yozma nutqda mustaqil fikr ifodalash.

Nutq o‘stirish faqat til darslariga bog‘lab qo‘yilmasligi kerak. U barcha fanlarda, ayniqsa ona tili, adabiyot, tasviriy san’at, musiqa va hayotiy tajriba asosida olib boriladigan mashg‘ulotlar orqali ham rivojlantiriladi. Xalq og‘zaki ijodi, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, dramatik o‘yinlar bolalarning og‘zaki nutqini boyitishda samarali vositadir.

Shunday qilib, nutqni o‘stirish — bu izchil va rejalashtirilgan metodik faoliyat bo‘lib, u o‘quvchilarda nafaqat tilda so‘zlash, balki mantiqiy fikrlash, estetik ifoda, mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Nutq o‘stirish — bu o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, ularni og‘zaki va yozma nutqda aniq, mantiqli, grammatik to‘g‘ri fikr ifoda etishga o‘rgatish jarayonidir. Bu jarayon bolaning shaxsiyati, tafakkuri, ijtimoiy moslashuvi va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mashhur rus psixologi L.S. Vygotskiy nutqni bolaning intellektual rivojlanishi bilan bevosita bog‘lab, quyidagicha ta’kidlaydi:“Nutq tafakkurning shakllanishi va jamiyatda fikr almashish vositasidir. Bolaning aqliy faoliyati avvalo nutq orqali rivojlanadi”[2]. Yana Pedagog olim V.V. Davydov esa nutq o‘stirish jarayonida mantiqiy fikrlash **va** faol tafakkur asosiy omil ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Unga ko‘ra, “Nutq — bu fikrni ongli tarzda qurish vositasi bo‘lib, uni o‘stirish orqali bola mustaqil fikrlashga o‘rganadi”[3].

O‘zbek pedagogikasi vakillaridan esa M. Juraev boshlang‘ich ta’limda nutq o‘stirish masalalarini o‘rganar ekan, o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda milliy qadriyatlar **va** xalq og‘zaki ijodi vositalaridan samarali foydalanish zarurligini aytadi. U shunday yozadi: “Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda xalq ertaklari, maqollar va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

topishmoqlar orqali nafaqat so‘z boyligi, balki milliy tafakkur ham shakllanadi” [4]. Masalan, “Ona tili” darsida “Do‘stlik” mavzusi o‘rganilar ekan, o‘quvchilardan “Do‘st nima?”, “Do‘st bilan qanday munosabatda bo‘lish kerak?” degan savollar asosida fikr yozish topshirig‘i beriladi. Bu orqali o‘quvchilar fikr yuritish, mantiqiy bog‘lanish va so‘z tanlash malakasini rivojlantiradi. Bundan tashqari “Topishmoq aytish” mashg‘uloti orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi, mantiqiy fikrlash va obrazli tafakkuri rivojlanadi.

Shunday qilib, nutq o‘stirish — bu faqat grammatik mashqlarni bajartish emas, balki bola nutqini ongli, mazmunli va izchil shakllantirishga qaratilgan kompleks pedagogik jarayondir.

O‘quvchilarning nutq o‘stirish faoliyatida ularning shaxsiy ehtiyojlari**,** individualligi**,** va qiziqishlarini hisobga olish – zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Nutq faolligini shakllantirishda yagona andozaviy yondashuvdan ko‘ra, har bir bolaning nutqiy rivojlanish sur’ati, so‘z boyligi, fikrlash darajasi va emotsional ifoda shakllarini e’tiborga olish o‘z samarasini beradi. Har bir bola o‘z fikrini aytishga, his-tuyg‘ularini ifodalashga va o‘zini eshitishga loyiq. Shu sababli, nutq o‘stirish faoliyatining markazida o‘quvchi shaxsining ehtiyojlari turishi lozim.

Nutqiy holatlarni kundalik hayotiy tajriba bilan bog‘lash ham o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Masalan, “Oila haqida hikoya yozing”, “Do‘stim bilan qanday vaqt o‘tkazamiz?”, “Do‘kon yoki bog‘da nima kuzatdingiz?” kabi mavzularda erkin yozma yoki og‘zaki topshiriqlar, bolaning nutqini atrof-muhitdagi voqelik bilan bog‘laydi. Bu esa uni muloqot jarayonida o‘z fikrini mustaqil ifodalashga undaydi, shuningdek, uni haqiqatni tushunish va izchil tahlil qilishga o‘rgatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarda nutqiy faollikning oshishi bevosita mustaqil fikrlash imkoniyatlarining yaratilishiga bog‘liq**.** O‘quvchiga tayyor matn berishdan ko‘ra, uni “O‘zing ayt”, “O‘zing top”, “O‘zing tasvirla” tarzidagi topshiriqlarga jalb etish, ularni fikr ishlab chiqishga undaydi. Bu esa bolalarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va ijtimoiy muloqot madaniyatining shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, bunday yondashuvlar o‘quvchini dars jarayonida passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolalarning ona tilida erkin va mustaqil fikr bayon etishi uchun qulay muloqot muhiti yaratish zarur. Bu muhiti orqali o‘quvchi nutqiy xatolar qilishdan qo‘rqmaydi, fikrini erkin ifodalaydi, tinglovchining hamda o‘qituvchining e’tiborida bo‘lishga intiladi. Aynan shunday imkoniyatlar o‘quvchining o‘ziga ishonchini oshiradi va ularni kelgusi bosqichlarda savodxon, madaniyatli, izchil fikrli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijada, boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni faqat grammatik bilimlar doirasidagina emas, balki shaxsiy rivojlanish**,** ijodkorlik**,** ijtimoiy tajriba orttirish vositasi sifatida ham ko‘rish lozim. Bu esa zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyillari — shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatga asoslangan yondashuv va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori // Xalq so‘zi. –Toshkent, 2017. – 4 avgust.
2. Выготский, Л.С. Мышление и речь. Москва: Педагогика, 1984 г. с112.
3. Давыдов, В.В. Проблемы развивающего обучения. Москва: Интор, 1996. с. 89-90.
4. Juraev, M., *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirish masalalari*. Toshkent: O‘qituvchi, 2004. 44–45-b.
5. Abdurahmonova, M. “Yosh bolalar psixologiyasi va nutq faoliyati.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 108-b

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Askarova Gulayim.**, boshlang‘ich ta’lim kafedrasi stajor o‘qituvchisi, [**Аскарова Гулайым,** стажёр-преподаватель кафедры начального образования], [**Askarova Gulayim,** trainee teacher at the Department of Primary Education]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

XORIJIY TILLARNI O‘RGANUVCHI TALABALARDA TA’LIM JARAYONINI INDIVIDUAL TA’LIM TRAEKTORIYASI ASOSIDA OLIB BORISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

© R.K. Abatov[1]✉

[1]Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘rganuvchi talabalarda individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish va joriy etishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini individuallashtirish, ITTning strukturaviy tarkibi, afzalliklari hamda amaliyotda duch kelinayotgan muammolar yoritilgan. Kredit-modul tizimi doirasida ITTni samarali tashkil etish shartlari, metodologik yondashuvlar va ilg‘or tajribalarga asoslangan tavsiyalar asoslab berilgan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi — oliy ta’lim tizimida, ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonida, individuallashtirilgan ta’lim traektoriyasi (ITT) ni shakllantirish va amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, maqolada xorijiy til o‘rgatishda ITTni ta’limni tashkil etishning alohida modeli sifatida o‘rganish, uning strukturaviy xususiyatlari, afzalliklari va duch kelinadigan muammolarni aniqlash, shuningdek, bu modelni samarali amalga oshirish uchun zarur resurs bazasini yaratish masalalari yoritiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqotda xorijiy tillarni o‘rgatuvchi oliy ta’lim muassasalarida individual ta’lim traektoriyasini joriy etish bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar, normativ hujjatlar va tajribaviy ishlar tahlil qilindi. Talabalarning til o‘rganishdagi ehtiyojlarini aniqlash uchun diagnostik testlar, so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazildi. Amaliy bosqichda individual ta’lim rejalarini ishlab chiqish va qo‘llash bo‘yicha eksperiment darslar tashkil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar o‘rtasida til bilish darajasi, o‘rganish uslubi va motivatsiya darajasi har xil bo‘lganligi sababli, yagona o‘quv yondashuvi barcha uchun bir xil samaradorlik bermaydi. Individual ta’lim traektoriyasi asosida o‘quv rejasi tuzilgan guruhlarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 23–28% ga oshgani kuzatildi. Eng samarali yondashuvlar qatoriga modul asosida ta’lim, moslashtirilgan topshiriqlar, til portfeli va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi raqamli platformalardan foydalanish kiritildi. Biroq, bu jarayonni samarali tashkil etishda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va texnik infratuzilmaning yetarli bo‘lishi muhim omil bo‘lib qolmoqda.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, ITT konsepsiyasini xorijiy tillarni o‘rgatish jarayoniga samarali integratsiyalash orqali nafaqat talabaning individual rivojlanishini ta’minlash, balki

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

butun ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilash va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishga erishish mumkin. Shu bois, ITTni amaliyotga joriy etish bo‘yicha izchil ilmiy-metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi, tajriba asosida takomillashtirilishi zarur.

Kalit so'zlar: individual ta’lim traektoriyasi, kredit-modul tizimi, chet tilini o‘qitish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, diagnostika, pedagogik metodologiya, o‘quv jarayonini individuallashtirish.

Iqtibos uchun: Abatov R.K. Xorijiy tillarni o‘rganuvchi talabalarda ta’lim jarayonini individual ta’lim traektoriyasi asosida olib borishning muammo va yechimlari. // Inter education & global study. 2025, №6. B.177–187.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ВЕДЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАЕКТОРИИ У СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЮЩИХ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

© Р.К. Абатов[1]✉
[1]Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье проанализированы теоретико-методологические основы формирования и внедрения индивидуальной образовательной траектории (ИОТ) у студентов, изучающих иностранные языки. Освещены структура ИОТ, её преимущества и проблемы, возникающие в практике, с акцентом на индивидуализацию учебного процесса на основе личностно-ориентированного подхода. Обоснованы условия эффективной реализации ИОТ в рамках кредитно-модульной системы, представлены методологические подходы и рекомендации, основанные на передовом опыте.

ЦЕЛЬ: цель данного исследования — проанализировать возможности формирования и внедрения индивидуальной образовательной траектории (ИОТ) в системе высшего образования, особенно в процессе обучения иностранным языкам. Кроме того, в статье рассматривается ИОТ как отдельная модель организации обучения, освещаются её структурные особенности, преимущества, выявляются существующие проблемы и рассматриваются вопросы создания необходимой ресурсной базы для её эффективного внедрения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы научные источники, нормативные документы и практические материалы, касающиеся внедрения индивидуальной образовательной траектории в вузах, обучающих иностранным языкам. Для выявления потребностей студентов в процессе изучения языка были проведены диагностические тесты, анкетирование и интервью. На практическом этапе были организованы экспериментальные занятия с разработкой и применением индивидуальных учебных планов.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что различия в уровне владения языком, стилях обучения и уровне мотивации студентов не позволяют применять единую методику с одинаковой эффективностью для всех. В группах, где обучение велось на основе индивидуальной образовательной траектории, уровень усвоения материала повысился на 23–28%. К наиболее результативным подходам отнесены модульное обучение, адаптированные задания, ведение языкового портфолио, а также использование цифровых платформ, поддерживающих самостоятельное обучение. Однако для эффективной реализации данной модели важным условием остаётся наличие методической подготовки преподавателей и соответствующей технической инфраструктуры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: таким образом, эффективная интеграция концепции ИОТ в процесс преподавания иностранных языков позволяет обеспечить не только индивидуальное развитие студентов, но и повысить общую эффективность образовательной системы, улучшить качество профессиональной подготовки и подготовить конкурентоспособные кадры для рынка труда. В связи с этим необходимо разработать и внедрить системные научно-методические подходы к реализации ИОТ на практике, а также совершенствовать их на основе накопленного опыта.

Ключевые слова: индивидуальная образовательная траектория, кредитно-модульная система, обучение иностранным языкам, личностно-ориентированный подход, диагностика, педагогическая методология, индивидуализация учебного процесса.

Для цитирования: Абатов Р.К. Проблемы и решения ведения образовательного процесса на основе индивидуальной образовательной траектории у студентов, изучающих иностранные языки. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 177–187.

CHALLENGES AND SOLUTIONS IN IMPLEMENTING INDIVIDUAL EDUCATIONAL TRAJECTORIES IN THE LEARNING PROCESS OF FOREIGN LANGUAGE STUDENTS

© Ruslan K. Abatov[1]✉
[1]Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the theoretical and methodological foundations of forming and implementing the individual educational trajectory (IET) for students learning foreign languages. It highlights the structure, advantages, and challenges of IET, focusing on the individualization of the learning process based on a learner-centered approach. The conditions for effective implementation of IET within the

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

credit-module system are substantiated, and methodological approaches and recommendations grounded in advanced practices are provided.

AIM: the aim of this study is to analyze the opportunities for forming and implementing individual educational trajectories (IET) in higher education, particularly in the context of foreign language instruction. The article explores IET as a distinct model of organizing education, its structural features, advantages, existing challenges, and the creation of the necessary resource base for its effective implementation

MATERIALS AND METHODS: this research involved an analysis of existing academic sources, regulatory documents, and practical experiences related to the implementation of IET in higher education institutions that teach foreign languages. To identify students' language learning needs, diagnostic tests, surveys, and interviews were conducted. At the practical stage, experimental lessons were held where individual learning plans were developed and applied

DISCUSSION AND RESULTS: the results revealed that students differ in language proficiency, learning styles, and levels of motivation, which makes a single educational approach insufficiently effective for all. In groups where instruction followed an individual educational trajectory, learning outcomes improved by 23–28%. The most effective approaches included modular learning, tailored tasks, language portfolios, and the use of digital platforms that support independent learning. However, successful implementation requires well-prepared instructors and adequate technical infrastructure

CONCLUSION: in conclusion, the effective integration of the IET concept into foreign language instruction enables not only personalized student development but also enhances the overall efficiency of the educational system, improves the quality of professional training, and supports the preparation of competitive specialists for the labor market. Therefore, it is essential to develop and refine systematic scientific and methodological approaches to implementing IET in practice, drawing from real-world experience.

Key words: individual educational trajectory, credit-module system, foreign language teaching, learner-centered approach, diagnostics, pedagogical methodology, Individualization of the learning process.

For citation: Ruslan K. Abatov. (2025) ‘Challenges and solutions in implementing individual educational trajectories in the learning process of foreign language students’, Inter education & global study, (6), pp. 177–187. (In Uzbek).

Hozirgi kunda ta’lim sohasining dolzarb vazifalaridan biri bu-o‘quv jarayonining individuallashtirilgan shaklini ta’minlash, ya’ni har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari, bilim olish ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etishdan iborat. Bu yondashuv orqali talabaning mustaqil fikrlashi, ijodiy salohiyati va kasbiy kompetensiyalari rivojlantiriladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [1] va "Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish konsepsiyasi" [2] da ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kredit-modul tizimida o‘quv dasturlarini moslashtirish va talabaning individual rivojlanish traektoriyasini shakllantirish alohida e’tiborga olingan. Xususan, kredit-modul tizimi doirasida har bir talaba o‘zining bilim, ko‘nikma va kasbiy yo‘nalishiga mos o‘quv rejasini shakllantirishi, bunda ta’lim mazmunining individuallashtirilgan bo‘lishi zarurati ko‘zda tutiladi[3].

Individuallashtirilgan ta’lim traektoriyasi talabaning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirish, o‘ziga xos o‘rganish yo‘lini shakllantirish va mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu jarayon zamonaviy O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda "Individual ta’lim traektoriyasi" (ITT) atamasi tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Masalan, S.A. Vdovina, V.G. Yerikova, G.M. Kuleshova, N.I. Leonov, Yu.V. Tolbatova va A.V. Khutorskoy kabi olimlarning tadqiqotlarida ITT talabaning ta’limdagi shaxsiy yo‘li, o‘quv faoliyatini amalga oshirishdagi aniq bosqichlar yoki ketma-ketlik sifatida talqin qilinadi. Biroq, zamonaviy ta’lim tizimida, xususan, kompetensiyalar yondashuvi asosida bunday ta’rif yetarli emas.

"Individual ta’lim traektoriyasi" (ITT) tushunchasi pedagogikaga boshqa fan sohalaridan, xususan fizika fanidan kirib kelgan murakkab va ko‘p qirrali atamalardan biridir. Bu tushuncha keng ma’noga ega bo‘lib, ta’lim jarayonida bir nechta yo‘nalishda amalga oshirilishini nazarda tutadi. Jumladan, ITT quyidagi asosiy aspektlarda shakllantiriladi:

1. **Mazmuniy yo‘nalish** – bu talabaning individual ta’lim yo‘lini aniqlovchi o‘quv rejalari va dasturlarining variantliligi bilan bog‘liq.
2. **Faoliyatga asoslangan yondashuv** – bunda o‘quv jarayoni uchun maxsus pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi.
3. **Jarayonli (tashkiliy) yondashuv** – o‘quv tashkiloti darajasida ITTning boshqaruvi va qo‘llanilishi ko‘zda tutiladi.

ITTni shakllantirishda biror aniq yagona yo‘l mavjud emas. Uning tuzilishi talaba va boshqa ta’lim subyektlarining maqsadlariga, ehtiyojlariga va imkoniyatlariga qarab farqlanishi mumkin. Shu sababli, ITT tushunchasiga beriladigan ta’riflar ham, odatda, maqsadga, pedagogik vazifaga yoki kontekstga bog‘liq holda turlicha bo‘ladi.

Masalan, A.V. Xutorskoy ITTni har bir talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ochishga xizmat qiluvchi shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘li sifatida talqin qiladi. Bu yo‘lning har bir bosqichi o‘quvchining o‘zi yoki o‘qituvchi bilan hamkorlikda anglab yetilgan maqsad, mazmun va mazkur bosqichni belgilovchi komponentlar asosida shakllanadi [4; 49].

G.M. Kuleshova esa ITTni shaxsiylik paradigmasi kontekstida ko‘rib chiqadi. Unga ko‘ra, ITT insonning ichki salohiyatini – ya’ni yashirin va o‘ziga xos individual sifatlarini – aniqlash va uni faollashtirish orqali o‘quv faoliyatiga to‘liq integratsiya qilishga xizmat qiladi [5; 103].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Talabalar uchun individual ta’lim traektoriyasini samarali tashkil etish quyidagi zarur va yetarli shartlar asosida amalga oshiriladi:

1. Subyektiv omillar – barcha ta’lim ishtirokchilarining mavjudligi va tayyorligi (talaba, o‘qituvchi, muassasa).
2. Qadriyatli va me’yoriy omillar – o‘qitishdagi ma’naviy motivlar, mas’uliyat hissi, va yo‘nalishlar.
3. Maqsad qo‘yish – ta’lim subyektlarining aniq maqsadlar asosida harakat qilishi.
4. Didaktik omillar – o‘qitish shakllari, metodlari, baholash va monitoring tizimlari.
5. Texnologik omillar – zamonaviy ta’lim texnologiyalari va vositalarining qo‘llanilishi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ITTni amaliyotga joriy etish ushbu omillarni hisobga olgan holda tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, kredit-modul tizimi sharoitida bu yondashuv talabalarga o‘z ta’lim yo‘lini ongli ravishda belgilash, individual salohiyatlarini to‘liq namoyon qilish va raqobatbardosh kadr sifatida shakllanish imkonini beradi.

Bugungi kunda ITTni faqatgina o‘quv jarayonidagi bosqichlar ketma-ketligi emas, balki talabaning qobiliyatlari, qiziqishlari va kasbiy maqsadlarini inobatga olgan holda moslashtirilgan, dinamik va moslashuvchan ta’lim modeli sifatida ko‘rish zarur. Bu jarayonda individual ta’lim traektoriyasi talabaning o‘z mustaqil o‘rganish faolligini oshirishga, bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirishga, shuningdek, uning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ITT — bu nafaqat shaxsiy o‘quv yo‘li, balki pedagoglar va ta’lim muassasalari uchun ham o‘quv jarayonini samarali boshqarish, nazorat qilish va talabaga individual yondashuvni ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yurtimiz ta’lim tizimida ITT konsepsiyasini rivojlantirish orqali har bir talabaga zamonaviy kasbiy sohada raqobatbardosh bo‘lish uchun zarur bilimlarni olish imkoniyati yaratiladi.

Plaksina va Matveevalarning ta’kidlashicha, individual ta’lim traektoriyasini (ITT) aniq va funksional jihatdan aniqlab berish — ya’ni uni talabaning o‘ziga xos o‘quv ehtiyojlari, malaka darajasi, motivatsiyasi kabi omillarga bog‘liq tarzda tavsiflash — ushbu yondashuvni amaliyotda izchil va samarali qo‘llash imkonini beradi. Bu esa ITTni loyihalash uchun zarur bo‘lgan metodologik va amaliy maydonni aniqlik bilan belgilashga yordam beradi. Shuningdek, ITTni amaliyotga joriy etishda uni faqat individual o‘quv rejasi (IOR) bilan adashtirmaslik kerak. ITT — bu kengroq, moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan tizim bo‘lib, o‘quv mazmunining shaxsiylashtirilgan variantini taklif etadi, talabaning mustaqil rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu jarayon aniq, izchil tuzilgan tushuncha asosida shakllantirilsa, vaqt va boshqa resurslarni tejash bilan birga, ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi [6; 68].

Zamonaviy ta’lim tizimi har bir talabaning o‘ziga xos qobiliyati, bilim darajasi, o‘quv uslubi va shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ta’lim jarayonini individuallashtirish zaruratini tobora chuqurroq anglamoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rgatishda bu talab yanada dolzarb bo‘lib, har bir talabaning til bilish darajasi, motivatsiyasi va o‘zlashtirish tezligida sezilarli farqlar mavjud bo‘ladi. Shu bois, individual ta’lim traektoriyasini ishlab

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

chiqish va uni ta’lim jarayoniga integratsiyalash muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Individual ta’lim traektoriyasi (ITT) — bu har bir talabaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan, uning mustaqil o‘sishi va rivojlanishiga yo‘naltirilgan shaxsiy ta’lim yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’limni yanada samarali, moslashuvchan va o‘zlashtirishga qulay holatga keltiradi. Shunga qaramay, amaliyotda ITTni samarali amalga oshirishda bir qator muammolar mavjud. Ularning aksariyati tizimli yondashuv, diagnostika vositalari, o‘qituvchi malakasi va texnologik tayyorgarlik bilan bog‘liq.

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘rganayotgan talabalar uchun ta’lim jarayonini individual ta’lim traektoriyasi asosida tashkil qilishda uchraydigan asosiy muammolar va ularning yechimlari ko‘rib chiqqanmiz va ilmiy asoslangan yechimlar berishga harakat qilganmiz. Birinchi navbatda hozirgi kunda mavjud bo’lgan asosiy muammolar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Didaktik muammolar: Ko‘plab ta’lim muassasalarida mavjud bo‘lgan o‘quv materiallari standartlashtirilgan bo‘lib, barcha talabalarga bir xil shaklda taqdim etiladi. Bu esa turli bilim darajasi va o‘rganish uslubiga ega bo‘lgan talabalar ehtiyojini to‘liq qamrab ololmaydi. Shaxsiylashtirishning yetishmasligi ta’lim samaradorligini pasaytiradi [7].

Motivatsiyaning yetishmasligi: Talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishi pasayganida yoki taqdim etilayotgan mazmun ular uchun ahamiyatli bo‘lmaganda, o‘rganish faolligi susayadi. Ayniqsa, til o‘rganish davomida murakkablikka duch kelgan talabalar ko‘pincha o‘zlarini chetga tortishadi.

Diagnostika va monitoringning sustligi: Ko‘pgina oliy ta’lim muassasalarida talabalar rivojini muntazam kuzatib boruvchi tizimli vositalarning mavjud emasligi ta’lim sifati va individual yondashuvni ta’minlash imkonini cheklaydi [8]. Diagnostikaning yo‘qligi sababli talabalar rivojlanishidagi bo‘shliqlar o‘z vaqtida aniqlanmaydi.

O‘qituvchilarning tayyorgarligi: Individual yondashuvni talab qiladigan metodik usullarni qo‘llash uchun o‘qituvchilardan zamonaviy kompetensiyalar talab etiladi. Afsuski, ayrim holatlarda pedagoglar bu borada yetarli malakaga ega emaslar.

Keltirilgan muammolarga yechim sifatida ko’plab qarashlarni keltirishimiz mumkin. Quyida, yuqorida atab o‘tilgan va boshqa asosiy muammolarga yechimlarni keltirib o’tganmiz.

Boshlang‘ich diagnostika: Individual ta’lim traektoriyasini (ITT) samarali tashkil qilishda boshlang‘ich bosqichda to‘g‘ri diagnostika o‘tkazilishi muhim ahamiyatga ega. Har bir talabaning mavjud bilim darajasini, o‘zlashtirish qobiliyatini, til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini va o‘rganishdagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash – ta’lim jarayonining keyingi bosqichlarida individual yondashuvni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu maqsadda, xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonida **kirish diagnostikasi** (diagnostik testlar) o‘tkazilishi zarur. Bu testlar yordamida talabalar quyidagi jihatlar bo‘yicha baholanadi:

- Leksik va grammatik bilim darajasi
- Tinglab tushunish va o‘qib tushunish qobiliyatlari

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- Og‘zaki va yozma nutqni ifoda qilish ko‘nikmalari
- Amaliy kommunikativ kompetensiya darajasi
- Til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi va qiziqish yo‘nalishlari

Bunday diagnostika vositalari orqali o‘quv jarayonini **shaxsiylashtirish** va **modullashtirish** mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, **CEFR** tizimi asosida til darajalarini aniqlash hozirgi zamonaviy til o‘qitish tizimlarining asosiy elementi hisoblanadi. Diagnostika natijalari asosida har bir talaba uchun **individual o‘quv rejasi (IUR)** ishlab chiqiladi. Bu rejada quyidagilar ko‘zda tutiladi:

- Dars mavzularining darajaga mos ravishda tanlanishi
- Qo‘llaniladigan metod va vositalarning shaxsiy ehtiyojlarga moslashuvi
- O‘quv jarayonidagi murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirish
- Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilgan resurslar va mashqlar

Shunday qilib, boshlang‘ich diagnostika nafaqat talabaning hozirgi bilim darajasini aniqlaydi, balki uning kelajakdagi ta’lim traektoriyasini ilmiy asosda loyihalashga xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘qituvchiga talabani yaxshi tushunishga, unga zarur yordamni ko‘rsatishga va shaxsiy o‘sishni rag‘batlantirishga imkon beradi.

Modulli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish: Modul asosidagi o‘quv tizimi bugungi kundagi ta’lim islohotlarining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, u talabalarning shaxsiy ehtiyojlari va individual ta’lim traektoriyasiga (ITT) mos o‘qitishni tashkil qilishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Modulli ta’lim yondashuvi asosida tuzilgan dasturlar o‘quv jarayonini moslashuvchan, shaxsga yo‘naltirilgan, interfaol va mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etadi. Har bir modul aniq maqsad, natija va baholash mezonlariga ega bo‘lib, talabaning individual rivojlanish yo‘nalishiga mos kontent tanlash imkonini beradi. Modullar, odatda, ma’lum bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- aniq o‘quv maqsadlari;
- mazmuni va topshiriqlar;
- baholash mezonlari va vositalari;
- yakuniy nazorat elementlari.

Bu yondashuv, ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har bir talabaning til o‘rganish sur’ati, uslubi va ehtiyojlari turlicha bo‘ladi. Modul asosidagi tizimda har bir talaba o‘zining individual ehtiyojiga mos bo‘lgan yo‘nalishni tanlab, belgilangan kompetensiyalarni egallab boradi. Bu esa ITT doirasida o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkonini beradi.

A.V. Khutorskoy modulli yondashuvni quyidagicha tavsiflaydi: "Modul — bu ta’lim makonining yaxlit didaktik birligi bo‘lib, u o‘quvchiga (talabaga) o‘z qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos individual ta’lim traektoriyasini tanlash va egallash imkonini beradi" [9].

Yuqoridagidan ko‘rinib turibdiki, modul konsepsiyasi talabaning **m**ustaqil tanlovi va o‘zlashtirish ritmini inobatga olgan holda, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishni ta’minlaydi. Bu,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ayniqsa, kredit-modul tizimi asosida o‘qitilayotgan yurtimiz OTMlarida o‘z ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Bundan tashqari, modulli ta’lim dasturlarining yana bir muhim jihati – ular orqali kompleks baholash tizimini joriy etish imkoniyatining mavjudligidir. Baholash jarayoni modul yakunida o‘zlashtirilgan kompetensiyalarning real holatini ko‘rsatadi va talabaga o‘z ustida ishlash uchun refleksiv aloqa imkonini beradi [10]. Shuningdek, modulli o‘quv dasturlari turli zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan holda joriy qilinayotganligi sababli, raqamli modul platformalari orqali talabaning mustaqil o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mumkin. Bu esa ITTni raqamli muhitda boshqarish imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’lim sohasida keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ayniqsa, interaktiv onlayn platformalar, masofaviy kurslar, mobil ilovalar orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish sezilarli darajada osonlashadi. Ushbu vositalar yordamida talabalar o‘zlariga qulay vaqtda, mos tempda, o‘z qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq tarzda bilimlarni o‘zlashtirishlari mumkin. Masalan, Learning Management System (LMS) turlari (Moodle, Google Classroom, Canvas va boshqalar) orqali o‘qituvchilar individual topshiriqlar berishi, har bir talabaning rivojlanish dinamikasini tahlil qilishi va shaxsiy fikr-mulohazalar berishi mumkin. Bu esa talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi feedback (orqama-aloqa) tizimini mustahkamlab, o‘z navbatida, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi. Shuningdek, mobil ilovalar (Duolingo, Memrise, Quizlet kabi) til o‘rganishda muhim vosita sifatida ajralib turadi. Bu ilovalar interaktiv mashqlar, avtomatik testlar, ovozli muloqotlar va gamifikatsiya elementlari orqali ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Garrison va Anderson tomonidan ilgari surilgan kognitiv, sotsial va o‘qituvchilik mavjudligi (cognitive, social, and teaching presence) modeliga ko‘ra, masofaviy ta’limda yuqori sifatga erishish uchun talaba o‘zini faol ishtirokchi sifatida his qilishi, boshqa talabalar bilan muloqotda bo‘lishi va o‘qituvchi yo‘nalishlarini aniq sezishi zarur [11]. Shu jihatdan olganda, onlayn platformalar ushbu uch asosni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi va individual ta’lim traektoriyasining shakllanishi uchun zarur sharoitni yaratadi. AKT vositalari nafaqat bilimni uzatish vositasi, balki shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va talabaga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini tashkil etishning muhim omilidir.

O‘qituvchilarning malakasini oshirish: Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini, xususan, individual ta’lim traektoriyasi (ITT) ni samarali amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri — bu o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar, diagnostika metodlari va metodik yondashuvlar bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik darajasidir. Zero, hatto eng ilg‘or o‘quv dasturlari va texnologik vositalar ham ulardan to‘g‘ri va samarali foydalanishni biladigan mutaxassis bo‘lmasa, o‘z samarasini ko‘rsata olmaydi.

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi endi faqatgina bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi, refleksiya uyg‘otuvchi va shaxsiy rivojlanishga yordam beruvchi mentor sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli o‘qituvchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodologiyasi,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

boshlang‘ich va formatif diagnostika usullari, o‘quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini aniqlash vositalari, modul asosida ta’lim tashkil etish, ta’lim jarayonini differensiallashtirish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarni zamonaviy metodikalar bo‘yicha qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qaratilgan dasturlar ITTni joriy etishda sezilarli ijobiy natijalar beradi. Masalan, R. Joyce va B. Show o‘z tadqiqotlarida o‘qituvchilarni muntazam ravishda metodik o‘quvlar orqali tayyorlash o‘quvchilarning akademik natijalariga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlagan [12].

Xorijiy tillarni o‘rganuvchi talabalar uchun ta’lim jarayonini individual ta’lim traektoriyasi (ITT) asosida tashkil etish — zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligi, moslashuvchanligi va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. ITT har bir talabaning o‘ziga xos ehtiyojlari, bilim darajasi, qiziqishlari va kasbiy maqsadlariga moslashtirilgan ta’lim yo‘lini belgilaydi. Ayniqsa, xorijiy til o‘rgatishda bu yondashuv individual qamrovni kengaytiradi, talabaning til kompetensiyalarini chuqurlashtirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada ko‘rsatib o‘tilganidek, ITTni samarali shakllantirish va joriy etish uchun pedagogik, tashkiliy, texnologik va motivatsion jihatlardagi puxta asoslar zarur. Bu jarayonda nafaqat talabalar, balki o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari ham faol ishtirok etishi lozim. Ayniqsa, kredit-modul tizimi sharoitida ITT talabaning mustaqil ta’lim olishi, ta’lim mazmunini erkin tanlashi va o‘z traektoriyasini ongli ravishda belgilash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, amaliyotda ITTni qo‘llashda muayyan muammolar — metodik ta’minotning yetarli emasligi, tashkiliy murakkabliklar, monitoring mexanizmlarining to‘liq shakllanmaganligi kabi holatlar mavjud. Bularni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv, uzluksiz diagnostika, pedagoglarning kompetensiyasini oshirish va ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1.O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097 son Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoning tashkil etish bilan bog’liq tizimni takomillashtirish chora tadbirlari” to`g’risidagi 2020-yil 31-dekabrdagi VM-824-sonli qarori
4. Хуторской, А. В. (2005). Индивидуальная образовательная траектория как технология проектирования личностно ориентированного образования. *Педагогика*, (4), 44–50.
5. Кулешова, Г. М. (2007). Формирование индивидуальной образовательной траектории студентов: теоретико-методологический аспект. *Высшее образование в России*, (10), 102–107.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

6. Плаксина, О. А., & Матвеева, А. А. (2013). Проектирование индивидуальной образовательной траектории в вузе. Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета, (12), 66-73.
7. Shute, V. J., & Becker, B. J. (2010). Innovative assessment for the 21st century. *Springer Science & Business Media*.
8. Sadler, D. R. (1989). Formative assessment and the design of instructional systems. *Instructional Science*, 18, 119–144.
9. Khutorskoy, A. V. (2005). *Didakticheskiy konstruktivizm i novaya didaktika*. Moscow: Institut razvitiya lichnosti
10. Biggs, J., & Tang, C. (2011). *Teaching for Quality Learning at University* (4th ed.). McGraw-Hill Education.
11. Garrison, D. R., & Anderson, T. (2003). *E-learning in the 21st century: A framework for research and practice*. RoutledgeFalmer.
12. Joyce, B., & Show, B. (2002). *Models of Teaching*. Allyn & Bacon.
13. Kalbaevna, K. Z. (2022). INTEGRATED EDUCATION AS A MEANS OF DEVELOPING SOCIAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS. *International Journal of Early Childhood Special Education*, *14*(7).
14. Kuatbayevich, A. R. (2024). INDIVIDUAL TA'LIM TRAEKTORIYASI ORQALI TALABALARGA XORIJIY TILLARNI O 'RGATISH JARAYONINING SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI ASOSIY NAZARIY TAMOYILLAR. *Eurasian Journal of Academic Research*, *4*(12), 223-228.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abatov Ruslan Kuatbayevich**, tayanch doktorant, [**Абатов Руслан Куатбаевич,** докторант], [**Shohsanam Sh. Ayubova**, PhD Candidate]; manzil: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

«KOMIL INSON» G‘OYASINING ISLOM VA ZAMONAVIY MANBALARDAGI TAXLILI

© Sh.S. Bauatdinov[1]✉

[1]O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada bugungi yoshlarning tarbiyasi, ularni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda «komil inson» g‘oyasining tutgan o‘rni belgilab berilgan bo‘lib, komil inson tarbiyasi ilmiy muammo sifatida tahlil etilgan. Sharq va G‘arb allomalari, mutafakkir-shoirlarining komil inson haqidagi g‘oyalari ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etilgan holda bugungi yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalashga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Yoshlarda komillik tarbiyasini berishda birinchidan, xalqimizning tarixini mukammal o’rganish, ikkinchidan, xalqimizning qadriyatlari, axloq-odob va fazilatlarini bilish; uchinchidan, komillikka tarbiyalovchi badiiy asarlar yaratish va ma’naviy-ma’rifiy tarbirlar tashkil qilish lozim

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi retrospektiv tahlil asosida komil inson tarbiyasining bizgacha bo‘lgan va bugungi kundagi ahamiyatini o‘rganish, bu boradagi ijtimoiy-pedagogik g‘oyalarni aniqlash hamda bugungi kun tarbisida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlarni belgilashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida “komil inson” g‘oyasi asosida Sharq va G‘arb allomalarining, mutafakkir-shoirlarining falsafiy, ijtimoiy-pedagogik qarashlarini o‘rganish, tahlil etish va taqqoslash singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalangan holda xulosalar chiqarish va tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: “komil inson” g‘oyasi qadimga davrlarda ham dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Bu muammo bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotganicha yo‘q. Buni yurtimizda yoshlar siyosati, ularni qo‘llab-qo‘vvatlash, yoshlarga uzluksiz tarbiya berishga doir qabul qilingan qator davlat hujjatlarinig mazmunidan ham ko‘rishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda “komil inson” g‘oyasiga doir milliy meroslarimizni o‘rganish, tahlil va targ‘ib qilish, bugungi yoshlar tarbiyasida maqsadga muvofiq foydalanish talab etiladi.

XULOSA: demak, “komil inson” g‘oyasi asosida yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizga suyanish, ajdodlarimizning tarixini bilish va tarixiy tafakkurga ega bo‘lish, milliy o‘zligimizni anglash, Sharq xalqlariga xos axloq-odob fazilatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kalit so'zlar: “komil inson” g‘oyasi, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ajdodlar tarixi, ma’naviy-axloqiy fazilatlar.

Iqtibos uchun: Bauatdinov Sh.S. «Komil inson» g‘oyasining islom va zamonaviy manbalardagi taxlili. // Inter education & global study. 2025, №6. B.188–197.

АНАЛИЗ ИДЕИ «СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА» В ИСЛАМСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ

© Ш.С.Бауатдинов[1]✉
[1]Ташкентского исламского института имени Имама Бухарий при Управлении мусульман Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается вопрос воспитания современной молодежи и роль идеи «совершенного человека» в её духовно-нравственном формировании. Воспитание совершенного человека анализируется как научная проблема. Идеи о совершенном человеке, выдвинутые мыслителями и поэтами Востока и Запада, подвергнуты социо-педагогическому анализу. На основе этого выработаны рекомендации по воспитанию молодёжи как всесторонне развитых, нравственно зрелых личностей.

В процессе формирования совершенства у молодежи необходимо, во-первых, всесторонне изучить историю своего народа; во-вторых, глубоко освоить национальные ценности, морально-этические нормы и добродетели; в-третьих, создавать художественные произведения, способствующие нравственному совершенствованию, а также организовывать духовно-просветительские мероприятия.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования заключается в изучении значения воспитания совершенного человека в прошлом и настоящем на основе ретроспективного анализа, выявлении социально-педагогических идей в данной сфере, а также определении ключевых аспектов, которым следует уделить внимание в современном воспитательном процессе

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы научные методы изучения, анализа и сопоставления философских и социально-педагогических взглядов выдающихся мыслителей и поэтов Востока и Запада, основанных на идее «совершенного человека». На основе проведённого анализа были сформулированы выводы и разработаны соответствующие рекомендации

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: идея «совершенного человека» была актуальной проблемой ещё в древние времена и не утратила своей значимости до сегодняшнего дня. Это подтверждается содержанием ряда государственных документов, принятых в нашей стране в рамках молодёжной политики, направленных на поддержку молодёжи и обеспечение их непрерывного воспитания. С этой точки зрения в настоящее время актуальным становится изучение, анализ и

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

популяризация нашего национального наследия, связанного с идеей «совершенного человека», а также его целенаправленное использование в процессе воспитания современной молодёжи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: таким образом, в процессе воспитания молодёжи на основе идеи «совершенного человека» особое значение приобретает опора на национальные ценности, знание истории наших предков и развитие исторического мышления, осознание национальной идентичности, а также формирование нравственно-этических качеств, присущих народам Востока.

Ключевые слова: идея «совершенного человека», воспитание молодёжи, национальные ценности, история предков, духовно-нравственные качества.

Для цитирования: Бауатдинов Ш.С. Анализ идеи «совершенного человека» в исламских и современных источниках. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 188–197.

A SCIENTIFIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF THE "PERFECT HUMAN" IN ISLAMIC AND CONTEMPORARY SOURCES

© Sh.S. Bauatdinov[1]✉
[1]Imam Bukhari Tashkent Islamic Institute under the Muslim Board of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article outlines the role of the concept of the "perfect human" in the moral and spiritual education of today's youth. The upbringing of the perfect human is analyzed as a scientific problem. The ideas of Eastern and Western scholars and thinkers about the perfect human are analyzed from a socio-pedagogical perspective, and recommendations for educating young people as perfect individuals are developed.

In the process of educating young people toward perfection, it is necessary, first, to thoroughly study the history of our people; second, to understand the values, moral ethics, and virtues of our nation; and third, to create artistic works that promote the cultivation of perfection and organize spiritual and educational events

AIM: the main objective of the research is to study the historical and contemporary significance of the upbringing of the "perfect human" through a retrospective analysis, identify the socio-pedagogical ideas related to this concept, and outline the aspects that should be emphasized in modern educational practice.

MATERIALS AND METHODS: in the course of the research, scientific methods such as studying, analyzing, and comparing the philosophical and socio-pedagogical views of Eastern and Western scholars and thinkers based on the concept of the "perfect human" are utilized. The aim is to draw conclusions and develop recommendations based on these analyses.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: the concept of the "perfect human" has been a relevant issue since ancient times, and it continues to retain its significance in the present day. This can be observed in the content of several state documents adopted in our country regarding youth policy, their support, and the provision of continuous education for young people. From this perspective, it is essential to study, analyze, and promote our national heritage related to the concept of the "perfect human" and to apply it purposefully in the upbringing of today's youth.

CONCLUSION: thus, in the process of educating young people based on the concept of the "perfect human," it is of great importance to rely on our national values, understand the history of our ancestors and develop historical thinking, realize our national identity, and shape the moral and ethical virtues characteristic of Eastern cultures

Key words: concept of the "perfect human," youth education, national values, history of ancestors, spiritual and moral virtues.

For citation: Bauatdinov Sh.S. (2025) ‘A scientific analysis of the concept of the "perfect human" in islamic and contemporary sources’, Inter education & global study, (6), pp. 188–197. (In Uzbek).

Jahondagi axborotlashuv, raqamlashtirish va texnologiyalashtirish jarayonlarida yuzaga keladigan pedagogik va psixologik risklar tarbiya tizimiga jadal o‘zgartirishlar kirtishni taqozo etib, bu borada ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Tarbiya tizimi amaliyotida yoshlarga uzluksiz tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish, tarbiyada pedagog maqomi, tarbiyada konstruktiv manipulyatsiya, tarbiyada qo‘llab-quvvatlash modellaridan iborat tarbiya paradigmalari nafaqat ijtimoiy hayotning turli jabhalari uchun tarbiyachi-mutaxassislarni tayyorlash, balki talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda ham keng foydalanilmoqda. Sharq va G‘arb davlatlarida yoshlarni tarbiyalash tajribalari “komil inson” g‘oyasi asosida talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning innovatsion shakllari, metodlari va texnologiyalari vositasida pedagogik jarayon sub’ektlarining aksiologik va akmeologik yo‘nalganligini shakllantirish orqali kasbiy-shaxsiy tayyorgarlik darajasini oshirib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Dunyoda talaba-yoshlarni ma’nan yetuk kadrlar sifatida tayyorlash, uzluksiz ta’lim tizimi sharoitida bo‘lajak pedagoglarda ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini va tarbiya tizimini takomillashtirish, auditoriya va auditoriyadan tashqari jarayonlarda tarbiyaviy ta’sir mexanizmlarini kasbiy sohalarga adaptiv qo‘llashning pedagogik tizimini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, “komil inson” g‘oyasi asosida global chaqiriqlar va kontekstlarning talaba-yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siriga riskologik tayyorgarligini oshirish, sog‘liq, oila, erkinlik singari tayanch

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qadriyatlarga asoslangan talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga doir shaxsga yo'naltirilgan ta'limni takomillashtirish, shaxsning individualligini rivojlantirish, hayotga ijtimoiylasha oladigan ma'nan yetuk shaxsni tarbiyalash imkoniyatlarini kengaytirish tizimini takomillashtirish yanada dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimiga "sub'ekt-sub'ekt tizimida teng huquqli hamkor" sharoitida tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash, innovatsion tarbiya texnologiyalarini joriy etish, Renessans pedagogikasining retrospektiv tahlili asosida tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etishga qodir, ma'nan yetuk o'qituvchilarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. "yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish..., o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi o'quv dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy rejalari asosida o'quvchi-talabalarning yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilatlar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirish"ga [1] qaratilganligi "komil inson" g'oyasi asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa, "komil inson" g'oyasi asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishning pedagogik-shart-shaoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Komil inson g'oyasi va uni amalga oshirishga bo'lgan intilishlar insoniyat sivilizatsiyasining ma'no-mazmunini tashkil qiladi. Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, insoniy g'oyalarga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi komillik mezoni-insonni, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan. Miloddan avval V acr o'rtalarida incon to'g'ricida fikr yuritgan cofictlar "hamma narcaning mezoni incondir" deganlar. Protagorning: "Incon hamma narcaning mezonidir. Mavjud narcalarning mavjudligi, mavjud bo'lmagan narcalarning yo'qligining mezonidir, degan gapi mashhurdir [3].

Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidadir shu ma'noda, buk yunon faylasufi Suqrotning "o'z o'zingni bil", - degan da'vati ham insonning o'z nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat va majburiyatini anglashga qaratilgan chaqiriqdir. Komil inson g'oyasini bugungi globallashuv jarayonlarini boshdan kechirayotgan davrda ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Chunki, komil insonning mohiyati, avvalo jamiyatni barkamol qilish yo'lidagi sa'yharakatlarda namoyon bo'ladi. Komil inson va jamiyat munosabatlarida o'zaro bog'liq bo'lgan ikki jarayonni ko'rish mumkin.

Birinchisi komil insonning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilishi. Bu komil inson g'oyasining mavjudligi va u bilan bog'liq amaliyot jamiyat rivojlanish darajasini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

belgilaydigan mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Zero, har qanday jamiyatni unda yashayotgan kishilarning xatti-qarakatlariga qarab baholash mumkin.

Ikkinchisi jamiyatning xarakteri uning komil insonni tarbiyalash borasidagi imkoniyatlarda, unga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, erkinlik, mustaqillik komil inson g‘oyasini amalga oshirish uchun tegishli shart sharoit yaratadi.

Shuning uchun ham O‘zbekistonda komil insonni tarbiyalash uchun ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-tashkiliy vazifalar davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan.

Suqrot inconga axloq nuqtai nazaridan, Aflotun eca izlanib o‘rganadigan mavjudot cifatida qaragan. Arictotel inconni jamiyat barpo etuvchi va eng oliy fazilati aql bo‘lgan tirik mavjudot cifatida qabul qilgan. Bu uch faylacufning umumiy jihati shundaki, ular insonni ijtimoiy mavjudot o‘laroq ko‘rganlar. Suqrot maktablari esa, bu faylacuflardan farqli o‘laroq insonni individual mavjudot o‘laroq ko‘rgan [7].

Bugungi kunda, umumiy holda inson tushunchasi haqida uch xil qarash mavjud va ushbu uch qarash bir-biriga zid qarashlardir. Ulardan birinchici, yahudiy-xrictianlik an’analariga ko‘ra, inconlar jannatdan quvilgan Odam Ato va uning xotinidan tarqalgan mavjudotlardir. Ikkinchisi, yunon falsafasiga ko‘ra, incon narcalarning mohiyatini ham, cifatini ham idrok etishga qodir bo‘lgan "aql/logoc"ga ega mavjudotdir. Nihoyat, zamonaviy tabiiy fanlar va rivojlanish pcixologiyaciga ko‘ra, incon er yuzidagi rivojlanishning co‘nggi bocqichida bo‘lgan va o‘zidan pactdagi tirik mavjudotlardan o‘z qobiliyati va quvvati bilan ajralib turadigan mavjudotdir [6].

“Komil inson” g‘oyasi tasavvuf ta’limotida Hol ilmi bo‘lgan tasavvuf iclom tafakkuriga chuqur ta’cir ko‘rcatgan va iclom tafakkuri ufqini kengaytirgandir. Shu boic tacavvufning incon tushunchacini bilish komil incon masalasida bizning yo‘limizni ochib beradi.

Incon tacavvufdagi mavzularning eng muhimi va eng acociycidir. Tasavvuf vakillari hadic cifatida qabul qilgan “O‘zini tanigan Parvardigorini ham taniydi” [2] kalimacidan kelib chiqib, inconni har tomonlama bilishni, shu yo‘l orqali Allohni bilishni (ma’rifat) va unga yetishni (vuslat) maqcad qilganlar. Shu sababli ham ilk davrlardan boshlab shu kungacha kalom va falcafiy mavzularda acarlar yozgan ko‘plab co‘fiylar incon haqida ham bir qancha acarlar yozganlar [5].

Ushbu acarlarda incon bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan juda xilma-xil uncur va xucuciyatlarni o‘zida jamlagan mavjudotdir. Unda yaxshi-yomon, go‘zal-xunuk, eng pact va eng yukcak tuyg‘ular jamlangan. Shu sababli ham tasavvufda inconga “vasat-i jomi’a” deyiladi. Bu xucuciyati bilan u er yuzida tavhid namoyon bo‘ladigan yagona mavjudotdir. Chunki boshqa mavjudotlarda Allohning faqat bir jihati namoyon bo‘ladi (tajalliy qiladi) [8]. Komil insonni shakllanirish masalasi barcha davrda ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo’yilgan. Buni biz qo‘yidagi jadvalda keltirilgan misollar asosida isbotlashimiz mumkin.

«Komil inson» g‘oyasining ijtimoiy-pedagogik talqini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Milliy qadriyatlar, tarixiy manbalar hamda alloma, mutafakkir va olimlar	**Ma'naviy barkamollik, axloqiy sifatlarning targ'ib etilishi - bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishning yorqin ko'rinishi**
Zardushtiylik va "Avesto» asari	Komillikning asosi - ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat, ezgu ish)
Iclom ta'limoti va uning muqaddac kitobi Qur'oni karim	Etuklikning bosh mezoni – bu ilmlilik va bilimlilikdir. "Incon" curacida inconning bu dunyodagi haqiqiy qadr-qimmati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, uning baxtli bo'lishi va oqibati yaxshi bo'lishi uchun unga munocib bo'lgan narca Allohga shukr qilish va uni inkor qilmaclik ekanligi aytiladi. Incon bu dunyoga cinov uchun kelgan va boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq unga aql va iroda berilgan. Alloh taolo ato etgan ana shu yukcak fazilatlarni qo'llab, yaxshi ishlar qilca mukofotlanishi, yomon ishlar qilca jazolanishi aytiladi
Tasavvuf ilmi	"O'zini tanigan Parvardigorini ham taniydi" [2] kalimacidan kelib chiqib, inconni har tomonlama bilishni, shu yo'l orqali Allohni bilishni (ma'rifat) va Unga yetishni (vuslat) maqcad qilganlar. Unda yaxshi-yomon, go'zal-xunuk, eng pact va eng yukcak tuyg'ular jamlangan. Shu sababli ham tasavvufda inconga "vasat-i jomi'a" deyiladi.
Ibn Arabiy	incon haqida: "Sen Haqning curati va Haq ham cening ruhing bo'lgani jihatidan cen Haq uchun jismoniy bir curat kabisan, U esa cening jacadingning curatini yo'naltirib, boshqaradigan ruh kabidir. Bu ta'rif cening ham zohiringni, ham botiningni o'z ichiga oladi" [4], - deb ushbu nuqtaga ishora qilgan. Unga ko'ra, inconga "incon" deyilishining cababi uning yaratilishidagi jamlanganlik va barcha haqiqatlarni qamrab olganligidir. Ikkinchi cabab, incon Allohning nazdida ko'zdaig qorachiqdek bo'lishi va "ko'rish" sifati bilan ifodalangan maxluq bo'lishidir. Chunki Alloh taolo o'z maxluqotlariga incon orqali nazar solgan va rahm-shafqat ko'rcatgandir.
Arictotel	Arictotel insonni izlanib o'rganadigan va jamiyatni barpo etuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi va uning eng oliy fazilati – bu aql deb biladi.
Sokrat	Sokratning «O'zligingni bil" degan da'vati asosida insonning o'z nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

	kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyati va majburiyatini anglashga qaratilgan chaqirig'i. Suqrot ta'limotida yuqoridagi faylacuflardan farqli o'laroq inson individual mavjudot sifatida talqin qilinadi.
Al-Forobiy «Fozil odamlar shahri», «Baxt yo'llari», «Ilmlar zanjiri» yoki «Ilmlar entsiklopediyasi», «Musiqa haqidagi buyuk kitob»	Komil inson - bu ilm fanga intiluvchi, haqiqat va adolat uchun kurashuvchi, yolg'onning dushmani, o'z fikrida turishdan iborat. Inson komilika intilishi uchun o'zida o'n ikki xil fazilatni birlashtirishi kerak. Bular: 1. Sog'liq. 2. O'tkir zehn. 3. Mustahkam xotira. 4. Tez qarorga kelish. 5. Shiroyli gapirish. 6. O'qish va ilmga intilish. 7. Zararli qimor o'yinlaridan uzoq bo'lish. 8. Haqiqat va adolatni sevish. 9. Or-nomus. 10. Molparastlikdan qochish. 11. Odamiylik. 12. O'jarlikdan qochish.
Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig»	Komilikka intilishga doir to'rt xil masalaga e'tibor qaratiladi: 1. Adolat 2. Baxt-saodat 3. Aql 4. Qanoat. Bu g'oyalar quyidagicha izohlanadi: Birinchidan, podshoh davlatni boshqarishi uchun odil bo'lmog'i zarur. Bu asarda Kuntug'di orqali ko'rsatiladi. Ikkinchidan, el-xalq, obod va farovon yashashi uchun davlat xazinasi to'la (mo'l) bo'lishi va bu boylikni o'z o'rnida ishlatuvchi bilimdon kishilar kerak. Davlatning xazinasi hisob-kitob orqali olib borilsagina xalq baxtli, davlatli bo'ladi. Bu podshohning vaziri Oyto'ldi orqali beriladi. Uchinchidan, davlat va xalq aql bilan boshqarilishi kerak. Bu vazirning aqlli o'g'li Ug'dilmish orqali ko'rsatiladi. To'rtinchidan, har qanday odamning insofli, qanoatli bo'lishi kerakligi vazirning karindoshi, darvesh O'zg'urmish orqali beriladi.
Abu Rayhon Beruniy	Komillikning asosi ilmli bo'lish va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir. Komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan eng asosiy sifatlardir: axloqiylik, to'g'rilik, odillik, tadbirkorlik, o'zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, adolatli va vijdonli bo'lish
Abu Ali ibn Sino	Kamolotga erishishning birinchi mezoni - bu bilimli bo'lishdir. Bilimli insonning adolatli bo'lishi esa uning yanada yuksalishini ta'minlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy hotirjamlik)ning muhim ko'rsatkichi ekanligini uqtiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Alisher Navoiy	Komil inson aqlli, axloqli, bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, sahovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog'lom, jismonan baquvvat, mard va jasur kabi sifatlarga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar yoshlarni komillikka tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy an'ana va boy madaniy–ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalangan insonlarda komillik tuyg'usi kuchli bo'ladi. Yoshlarda komillik tarbiyasini berishda **birinchidan,** xalqimizning tarixini mukammal o'rganish, **ikkinchidan,** xalqimizning qadriyatlari, axloq-odob va fazilatlarini bilish; **uchinchidan,** komillikka tarbiyalovchi badiiy asarlar yaratish va ma'naviy-ma'rifiy tarbirlar tashkil qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, komillik xalqimizning odob-axloq, mehnat, jismoniy, insonparvarlik tarbiyasida o'z aksini topgan. Komil inson g'oyasi - nafaqat alohida shaxslarni, balki butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilxomlantirgan. Jamiyat taraqqiyotidagi yuksalishlar, taraqqiyot imkoniyatlari, komil inson shaxsining shakllanishi muayyan ma'naviy muhim va imkoniyatlar bilan bog'liq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari tug'risda"gi 1059-son Qarori. https://lex.uz/docs/4676839?ONDATE=03.01.2020&action=compare
2. Aclûnî, Keşfu'l-Hafâ, C. 2, s. 262, hadis no: 2532.
3. İsmail Yakıt, Batı Düşüncesi ve Mevlana, İstanbul, 2000, s. 22.
4. Muhyiddin-i Arabî, Fusûs ül-Hikem, çev. Nuri Gencosman, İstanbul, 1992, s. 55.
5. Osman Türer, "Tasavvufî Düşüncede İnsan", Tasavvuf Dergisi, Ankara, 2001/5, s. 9.
6. Seyfullah Sevim, İslam Düşüncesinde Marifet ve İbn Arabi, İstanbul, 1997, s. 124.
7. Yakıt, s. 23.
8. Yaşar Nuri Öztürk, Mevlana ve İnsan, İstanbul, 1992, s. 47.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЗИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Bauatdinov Shamshetdin Saliyevich**, "Aqoid va fihqiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi [**Бауатдинов Шамшетдин Салиевич,** старший преподаватель кафедры "Акаид и фикховые науки"], [**Bauatdinov Shamshetdin Saliyevich,** Senior Lecturer at the Department of "Aqeedah and Fiqh Studies"]; manzil: O'zbekiston Respublikasi,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Toshkent shahar, Olmazor tumani, Zarqaynar 18-berk ko‘cha, 47-uy; [адрес: Республика Узбекистан, город Ташкент, Олмазорский район, тупик Заркайнар, дом 47.] [address: Republic of Uzbekistan, Tashkent city, Olmazor district, Zarkaynar 18th dead-end street, house 47]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

RETROSPEKTIV TAHLIL ASOSIDA JAHON TARIXINI O‘QITISH MUAMMOLARI

© T.A.Yeskaraev[1]✉

[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada jahon tarixini o‘qitish muammolari retrospektiv tahlil etilgan bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida ushbu fanni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari, tarixni o‘qitishga doir yondashuvlar, o‘qitish metodlari, vosita va texnologiyalari aniqlashtirildi. Bugungi kunda tarixni o‘qitishda bugungi kunga qadar qo‘llaniilib kelingan ta’lim metod va texnologiyalari bilan bir qatorda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda tarix fanini o‘qitish o‘zining samaradorligini beradi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi tarix fanini o‘qitishning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish va bugungi kundagi talab va ehtiyojlarni aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqot jarayonida retrospektiv tahlil metodidan keng foydalanilgan holda tarix fani va uni o‘qitishning rivojlanish tendensiyalari tahlil etilib, ularning bugungi kundagi qo‘llanish holatlari o‘rganildi. Bunda mavzuga doir ilmiy, pedagogik va tarix faniga oid adabiyotlar tahlil qilinib, sintez va taqqoslash va xulosalar chiqarish singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: retrospektiv tahlillar natijasida tarixni o‘qitish asosida yoshlarni tarbiyalash, xronologiya, takrorlash, xaritalar, grafik chizma va rejalardan foydalanish, konsentratsiya va markazlashtirish holatlari bugungi kunda ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Lekin bugungi XXI asr azborotlashgan davr tarixni o‘qitishda ham AKT foydalanishni talab etadi. Dunyoda axborot-ta’lim muxiti sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning metakompetentligini rivojlantirish, fanga oid o‘quv materiallarini taqdim etishning zamonaviy metod va texnologiyalarini takomillashtirishga doir qator izlanishlar olib borilmoqda. Shularning biri ta’limda virtual texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Bunda ayniqsa, muzeylar virtuallar talabalarning ongida tarixiy davrlar, tarixiy voqea va hodisalar tug‘risida to‘liq tasavvurning hosil bo‘lishiga xizmat qiladi. Muayyan mavzular yoki masalalar, shu jumladan tarixiy voqe’liklar tug‘risidagi ma’lumotlarn o‘zida jamlagan virtual muzeylarni yaratishda uning dizayniga alohida urg‘u berish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA: jahon miqyosida, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasida ham raqamlashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan bugungi kunda ta’limda axborot texnologiyalarini qo‘llashga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Tarix fanini o‘qitishda bugungu kunga qadar qo‘llanilib kelingan ta’lim metodlari va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

texnologiyalari bilan bir qatorda ta'limda virtual texnologyalarni qo'llash o'quv materiallarini bosma (qog'oz) variantiga nisbatan ta'lim jarayonini raqamlashtirishga xizmat qila

Kalit so'zlar: tarix, tarix o'qitish metodikasi, retrospektiv tahlil, ta'lim metodlari, voistalari va texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual muzey.

Iqtibos uchun: Yeskaraev T.A. Retrospektiv tahlil asosida jahon tarixini o'qitish muammolari. // Inter education & global study. 2025, №6. B.198–206.

ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ВСЕМИРНОЙ ИСТОРИИ НА ОСНОВЕ РЕТРОСПЕКТИВНОГО АНАЛИЗА

© Т.А. Эскараев[1]✉
[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье представлен ретроспективный анализ проблем преподавания всеобщей истории. Определены особенности преподавания данного предмета в высших учебных заведениях, выявлены основные тенденции его развития, подходы к преподаванию истории, а также методы, средства и технологии обучения. Подчёркивается, что наряду с традиционными методами и технологиями преподавания истории, применяемыми до настоящего времени, всё большую значимость приобретает использование информационно-коммуникационных технологий, что способствует повышению эффективности учебного процесса.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования заключается в изучении тенденций развития преподавания истории и выявлении современных требований и потребностей, предъявляемых к этому процессу.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования широко использовался метод ретроспективного анализа, позволивший выявить этапы развития методики преподавания истории и оценить их современное состояние. Применялись методы анализа научной, педагогической и исторической литературы, а также научные методы синтеза, сравнения и формулирования выводов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в результате ретроспективного анализа установлено, что такие методы преподавания, как воспитание учащихся на основе исторических знаний, использование хронологии, повторения, карт, графиков и схем, а также приёмы концентрации и централизации до сих пор широко применяются. Однако в условиях информационного века XXI столетия особое значение приобретает использование ИКТ в обучении истории. В мировом образовательном пространстве активно ведутся исследования, направленные на развитие метакомпетентностей будущих преподавателей, а также на совершенствование современных методов и технологий представления учебного материала по истории. Одним из таких направлений является использование виртуальных технологий. В частности, виртуальные музеи играют важную роль в

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

формировании у студентов целостного представления о различных исторических периодах, событиях и явлениях. При создании таких музеев особое внимание рекомендуется уделять их дизайну, что способствует повышению восприятия учебной информации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в условиях, когда цифровизация становится одним из приоритетов государственной политики как в мировом масштабе, так и в Республике Узбекистан, необходимость внедрения информационных технологий в образовательный процесс продолжает возрастать. Использование виртуальных технологий наряду с традиционными методами преподавания истории способствует цифровизации учебного процесса и обеспечивает более эффективную подачу учебного материала по сравнению с печатными (бумажными) ресурсами.

Ключевые слова: история, методика преподавания истории, ретроспективный анализ, методы обучения, средства и технологии обучения, информационно-коммуникационные технологии, виртуальный музей.

Для цитирования: Эскараев Т.А. Проблемы изучения всемирной истории на основе ретроспективного анализа. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 198–206.

CHALLENGES OF TEACHING WORLD HISTORY BASED ON RETROSPECTIVE ANALYSIS

© Talgat A. Yeskaraev [1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article presents a retrospective analysis of the challenges associated with teaching world history. It explores the unique features of teaching history in higher education institutions, the trends in its development, pedagogical approaches, teaching methods, tools, and technologies. The article emphasizes that the integration of information and communication technologies (ICT), alongside traditional teaching methods and technologies, can significantly enhance the effectiveness of history education.

AIM: the primary goal of the study is to examine the developmental trends in teaching history and to identify the current demands and needs of the discipline

MATERIALS AND METHODS: the research is grounded in retrospective analysis, with a focus on tracing the evolution of history education and evaluating its present-day application. The study employs analysis of relevant scientific, pedagogical, and historical literature, as well as synthesis, comparison, and the drawing of scientific conclusions

DISCUSSION AND RESULTS: the retrospective analysis reveals that methods such as character education through historical knowledge, use of chronology and repetition, maps, graphic charts, and outlines, as well as concentration and centralization strategies, remain widely used today. However, in the context of the highly digitalized 21st

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

century, the integration of ICT into history education is increasingly essential. Globally, there is a growing body of research aimed at developing future teachers' metacompetencies and improving the delivery of educational content through modern methods and technologies. One significant advancement in this regard is the use of virtual technologies. Virtual museums, in particular, play a key role in helping students form a clear understanding of historical periods, events, and phenomena. The design of such digital museum platforms deserves special attention to ensure they effectively convey historical content.

CONCLUSION: in today's world, where digitalization is a priority in national policies—including in the Republic of Uzbekistan—the need for ICT integration in education is steadily increasing. Alongside conventional methods, the use of virtual technologies in history education contributes to the digital transformation of learning processes and offers advantages over traditional print-based materials.

Key words: history, methodology of history education, retrospective analysis, teaching methods, educational tools and technologies, information and communication technologies, virtual museum.

For citation: Talgat A. Yeskaraev. (2025) 'Challenges of teaching world history based on retrospective analysis', Inter education & global study, (6), pp. 198–206. (In Uzbek).

Jahonda insoniyatning ontonegez va filogenezda evolyusion rivojlanish tarixini o‘rganish, har bir davlatning perspektiv rivojlanishida real tarixiy taraqqiyotni anglash, insoniyat, davlat va jamiyatning tarixiga asoslangan holda uning buguni va istiqbolini belgilashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlarida umumjahon xarakterga ega bo‘lib,dunyo tartibini muvofiqlashtirish, xalqaro ijtimoiy va iqtisodiy integratsiyaning jadallashuvi, jahon miqyosida davlatlaro muloqotni tashkil etishga doir yuqori texnologiyaning joriy etilishi, turli xalqlarning tarixi va madaniyatini o‘rganishga doir qiziqishning ochib berishi jahondagi butun insoniyat tarixini yaxlit tarzda o‘rganishni taqozo etadi. Jahondagi “bir butun ijtimoiy-iqtisodiy kenglikni shakllantirish”, “bir butun integratsiyalangan bozorni tashkil etish”, “davlatlarning ishchanlik munosabatlarining mustahkamlanishi”, “turli davlatlarning innovatsion yutuqlarini o‘rganish”, “ilmiy-texnik” rivojlanish tendensiyalari nafaqat iqtisodiyotning real tarmoqlari, balki bu jarayonlarni tahlil etish hamda samarali natijalarga erishishga doir kelejak avlodni tarbiyalashga zaruriyatni keltirib chiqarmoqda.

Respublikamizda barcha sohalar kabi ta’lim sohasida ham axborot texnologiyalarini qo‘llash, yangi Renessans pedagogikasi sharoitiga mos ta’lim berishning ilmiy-metodik ta’minoti va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” Stategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini riyobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan amaliy-tadbirlar rejasi”ning 38-maqsadida “Mamlakatda ijtimoiy-madaniy muhitni sog‘lomlashtirish, targ‘ibot–tashviqot

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ishlarining zamonaviy va ta'sirchan usullarini ishlab chiqish hamda hududlarning o'zidan xosligidan kelib chiqib yangi mafkuraviy texnologiyalarni keng joriy etish bilan birga aholining tarixga qiziqishini oshirish maqsadida "Buyuk ajdodlar izidan", "Tarixingdir ming asrlar" va "O'zbekiston - vatanim manim" singari ko'rik tanlovlarni tashkil etish" masalalari qo'yilgan bo'lsa uning 44-maqsadida esa "O'zbekiston va jahon tarixi bo'yicha mahalliy va xorijiy mutaxassislar, ekspertlar, tarixchi olimlar, xorijiy prodyuser va ijodkorlardan iborat guruhni tashkil etish", - masalalari belgilab berilgan [1]. Bularning barchasi o'z navbatida tarix fanini, bevosita jahon tarixining alohida yo'nalishi sifatida yangi tarixni o'qitishning metodik imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, tarixiy voqe'liklarni bugungi mediayoshlarning talab va ehtiyojlari doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida samarali tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-yanvardagi "Ma'naviyat va ma'rifat kengashi"ning vidioselektor tarzida tashkil etilgan majlisining 3-bayoni va 27-bandining ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda 2021-2030-yillarda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasi" loyihasi ishlab chiqilib, unda asosan O'zbekiston tarixini yangicha nazar bilan yangicha yondashuvlar bilan ilmiy jihatdan o'rganish muammosiga ustuvorlik berilgan bo'lsa ham bu Konsepsiya yurtimizda jahon tarixini ham zamonaviy paradigmalar asosida o'rganish uchun ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa yurtimizda oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tarix fani oldida turgan vazifalar nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq tayyorlash, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash yo'lga qo'yilmaganligi, umumta'lim maktablarida esa tarix fanini o'qitish eskicha yondashuv asosida olib borilib, darsliklarga tarix fani bo'yicha amalga oshirilgan yangi tadqiqotlarning natijalarini kiritish tartibi yo'lga qo'yilmaganligi alohida tanqid ostiga olingan va pirovard natija "tarix fani va tarix ta'limining uzviy bog'liqligiga erishish, tarix bo'yicha mutaxassislarni maqsadga muvofiq tayyorlash tizimiga o'tish" tarix fani sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarining biri sifatida belgilangan [2]. Shunday ekan, tarix fanini o'qitish va bunda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash bugungi davr talabi hisoblanadi. Chunki tarix fani, ayniqsa jahon tarixi necha asrlik davrni o'z ichiga qamrab oladigan katta xajmdagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan fan hisoblandi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, G'arb davlatlari hamda Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida tarixni o'qitish metodikasi o'zining tadrijiy rivojlanish tarixiga ega. Masalan, T.N.Glazырina tarixni o'qitish metodikasining shakllanishi XVIII asrlardan boshlanganligini ta'kidlagan holda, ushbu fanni o'qitishda qo'llanilgan metodlarning xronologiyasini tarixni o'rganishning monografik metodi (XVIII asrning 40-60yy.), xafta davomida o'tilgan mavzularni takrorlash metodi (XVIII asrning so'nggi yil), F.N.Yankovichning metodik tavsiyalari, Ben-lankaster tizimi, mavzular bo'yicha guruhlashtiruvchi metod (Biderman metodi-1860 y), o'qituvchining o'qilgan matnga izoh berishiga qaratilgan kommentariya metodi (XIX asrning o'rtalari), o'quv materialini mexanik yodlash va dasrlikdagi matnga qatiy rioya qilishga qaratilgan repetitsiyali metod (D.N.Ilovayskiy), o'qituvchining rahbarligi ostida tarixiy manbalar bilan ishlashga doir

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

M.M.Stasyulevichning real metodi, I.Krigerning biografik metodi, jamoaviy-kategoriyali metod, regressiv metod, A.V.Borьinin metodi, S.Lamovichkiyning “Maktab” metodi (XIX asrlar), Ya.S.Kuljinskiy tavsiya etgan hujjatlashtirish metodi, A.F.Gartvig tavsiya etgan dramatizatsiya va referat tayyorlash metodi singari metodlar qo‘llanilgan [4]. I.Krigerning tarixni o‘qitishga asos solgan “Der Geschicchtsunterricht in volks, - Burger und Vorbildungsschulen” [5] deb nomlangan asarida tarixni o‘qitish jamiyatdagi murakkab va turli hodisalarni yaxshi anglab olishda katta ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan holda uni o‘qib o‘rganish asosida o‘quvchi mustaqil hayotga amaliy tayyorlanishi kerakligini bildirgan. Bu esa o‘z navbatida tarix fanini vitagen mazmunda o‘qitishga (non scholae sed vitae) doir pedagogik g‘oyalar XIX asrning o‘zidayoq tarix ilmini o‘rganishda shakllanganligidan darak beradi. Shuningdek, jahon tarixi fani va uni o‘qitish muammolari Charles K Adams, Herbert B Adams, William F Allen [12], Sam Wineburg [7], Matteo Pangallo and Emily B. Todd [6], Antoinette Burton [3] singari xorijiy olimlar tomonidan ham o‘rganilgan bo‘lib, ularning tahlili tarixni o‘qitishda ma'ruza, munozara, so'rovga asoslangan o'rganish, muammoni hal qilish usuli, boshlang'ich manbalardan foydalanish singari metodlardan foydalanishni tavsiya etganligini ko‘rish mumkin. R.B.Yarmatov [13], S.Toshtemirova va A.To‘raevalar [9], A.Sa’diev [8], T.Toshpulatov [10], Ya.X.G‘afforov [11] singari olimlar esa bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini o‘quvchilarda tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlashga o‘rgatish lozim tarix fanlarini uzviylik asosida o‘qitishning ilmiy-pedagogik jihatlarini, hamkorlikdagi ta’lim klasterining umumiy qonuniyatlari asosida tarix fanini o‘qitish, umumiy o‘rta ta’lim maktablari bilan oliy ta’limning uzviyligini ta’minlash, bunda fanlararo, kurslararo, bo‘limlararo uzviylikni ta’minlash, nafaqat dars, balki ekskursiya, individual va guruhlarda olib boriladigan mashg‘ulotlar, imtixon oldidan o‘tkaziladigan malahatlar singari ta’lim shakllarini tashkil etishda tarixiylik, tizimlilik va izchillik tamoyillariga amal qilish masalalarini tahlil etadi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarixni ilmiy o‘qitish mumtoz istoriografiyaning tamoyillarining qo‘yidagi elementlariga asoslangan. Bular tanqidiy yoki tarixiy tadqiq etish, pragmatik element yoki tarixiy sharhlash, referat yoki tarixiy bayon etish hisoblanadi. Retrospektiv tahlillar natijasida tarixni o‘qitish asosida yoshlarga milliy ruhni singdirish, shaxsning irodasini tarbiyalashi, tarixni o‘rganishda xronologiyaning va takrorlashning ahamiyati, xarita, grafik chizma va rejalardan yanada kengroq ta’limiy vositalardan foydalanish va uning boshqa fanlar bilan bog‘liq holda o‘qitilishi, tarixni o‘qitishda konsentratsiya (o‘quv materiallari orasidagi bog‘liqlik va bir-biriga nisbati) hamda markazlashtirish bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini yuqotmaganligini va yaqindan uzoqqa, noaniqlikdan aniqlik sari qoidasi asosida o‘qitilishi amalda kuzatiladi. Tarixni o‘qitishning bu kabi muhim jihatlari bilan bir qatorda axborot texnologiyalarnii qo‘llashda o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish talab etiladi. Mazkur muammoning asosiy yechimlaridan biri – bu talablik davrlardan boshlab bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarida tarix fanini o‘qitishda tarixiy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish talab etiladi. Bunda amonaviy axborot texnologiyalaridan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

foydalanishga tayyorlashning qo‘yidagi ustuvor jihatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- birinchi navbatda haqqoniy, ilmiy asoslangan tarixiy bilimlarni, yangi axborotlarni egallash,
- tarixiy bilimlarni axborot texnologiyalari (kompyuter, mobil ilovalari)da orqali topish, saralash, saqlash hamda ta’lim oluvchilarning yosh va individual hususiyatlarini inobatga olgan holda taqdim etish,
- tarixiy bilim va axborotlarni raqamlashtirilgan holda taqdim etish,
- tarixiy bilimlarni tayyor redaktorlovchi dasturlardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish,

So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalariga kredit-modul tizimining joriy etilishi bilan o‘quv materillarini elektron taqdim etish, onlayn masofaviy ta’limni joriy etish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta’limning turli shakl va metodlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, talabalarni katta xajmga ega bo‘lgan tarixiy ma’lumotlar, tarixiy faktlar va tarixiy voqealarni axborot texnologiyalari vositasida samarali o‘zlashtirish imkonini beradigan metodik tizimni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri virtual muzey hisoblanadi.

Virtual muzey bo‘yicha o‘zlarining ilmiy izlanishlarini olib borgan olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilish natijasida biz virtual muzeylar elektron ta’lim vositalarining alohida shakli sifatida qo‘yidagi ustunlik jihatlarga ega ekanligini aniqlashtirishga muvaffaq bo‘ldik. Ya’ni, virtual muzeylar:

- ta’limning ko‘rgazmalilik tamoyiliga asoslangan holda talabalar tomonidan o‘quv materialining tez va oson o‘zlashtirilishiga erishish bilan bir qatorda o‘quv materialiga bo‘lgan qiziqishi oshadi hamda bilish faoliyatining uzoq muddatli xotirasining faoliyatiga asos bo‘lib xizmat qiladi,
- vizual va dizayn jihatdan ko‘rkam ko‘rinishga ega bo‘lganligi sababli u talabalardagi akademik bilim olishdagi zerikish, zo‘riqish, o‘qishdan bezish kabi psixologik holtalarining oldini oladi,
- virtual muzeyni tomosha qilish natijasida har bir talabaning individual o‘z qarashlari, fikr va mulohazalari, jarayonlarga o‘z munosabatlari shakllanadi hamda virtual muzeyda ko‘rganlari bo‘yicha o‘ziga ko‘proq yoqgan jihatlari bo‘yicha yanada izlanishga bo‘lgan, o‘z bilini yanada oshirishga bo‘lgan yo‘lini erkin tanlab oladi. Bu esa o‘z navbatida birinchidan, kredit-modul tizimi qonuniyatlariga mos tarzda har bir talabaning individual ta’lim traektoriyasini o‘zi mustaqil belgilab olish imkonini bersa, ikkinchidan talaba uchun noformal va inforamal ta’lim olishiga shart-sharoitlar yaratib beradi,
- didaktika hamda tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasining arpedagogika va muzey pedagogikasi bilan integratsiyasini ta’minlash orqali talabalarda tarixiy jarayonlar haqidaga yaxlit tushuncha va tasavvurlarning shakllanishiga xizmat qilish bilan bir qatorda tarixiy ma’lumlotlar va axborotlarni uzatish potensialini kengaytiradi va h.k.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta’limda axborot texnologiyalari bilan pedagogik texnologiyalarning bir-biri bilan bog‘liq jihatlarini ta’minlagan holda talabalarni kasbiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bilimlar bilan qurollantirish samarali hisoblanadi. Ya'ni, aniq maqsadga hamda kafolatlangan natijiga erishishga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayondan tashkil topgan pedagogik texnologiyalarni axborot texnologiyalari vositasida talabalar uchun qulay, tushunarli va vizual tarzda qo'llash orqali talabalarda yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirish davr talabi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги "Ўзбекистон-2030" стратегиясини 2023 йилда сифатли ва ўз вақтида амалга ошириш чора-тадбирлари туғрисида"ги ПҚ-300-сон Қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 07/23/300/0693-сон; 21.01.2025 й., 07/25/12/0056-сон.
2. Ўзбекистон Республикасида тарих фани соҳасини 2030-йилгача ривожлантириш концепцияси. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси портали. https://regulation.gov.uz/uz/d/31751.
3. Antoinette Burton. Design Principles for Teaching History. // Duke University Press.
4. Глазырина Т.Н. Методика преподавания истории: учебное-методический комплекс для студентов специальности 1-210301/ «История» Т.Н.Глазырина. – Новополоцк: ПГУ, 2011. – 356 с. https://core.ac.uk/download/pdf/49216203.pdf
5. Кригер И. Boshlang'ich, o'rta va tayyorgarlik maktablarida tarix fanini o'qitish. – Нюрнберг. -1876
6. Matteo Pangallo and Emily B. Todd.Teaching the History of the Book. // University of Massachusetts Press. 376 Pages. May 2023
7. Sam Wineburg. // Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. 280 pages, Paperback. May 11, 2001 by Temple University Press
8. Саъдиев А. Мактабда тарих ўқитиш методикаси. - Т.: "Ўқитувчи", – 1998.
9. Тоштемирова С., Тўраева А. Тарих фанларини курслараро узвийлик асосида амалга оширишга қўйиладиган талаблар. Academic research in education sciences, - 2021. 2(5), 894-906
10. Тошпулатов Т., Ғаффоров Я.Х. Тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент, "Тўрон-Иқбол", 2010.
11. Ғаффоров Я.Х. Тарих ўқитиш методикаси. – Т.: "Ishonchli hamkor" – 2021.- 276 Б
12. Charles K Adams, Herbert B Adams, William F Allen.// Methods of Teaching History: Volume 1 Paperback. Hansebooks. 422 pages

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

13. Ярматов Р.Б. Бўлажак тарих фани ўқитувчиларининг касбий методик тайёргарлигини такомиллаштириш. Педагогика фанлари доктори дисс... автореф. – Т., 2021-. 70Б.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yeskaraev Talgat Amangeldievich**, mustaqil izlanuvchi, [**Ескараев Талгат Амангелдиевич,** соискатель], [**Talgat A. Yeskaraev**, Doctoral researcher]; manzil: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh., P.Seytov ko'chasi [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

4K MODELI ASOSIDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI (2-SINF MISOLIDA)

© A.S.Aytjanova[1]✉

[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida “Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda 4K modeli – ya’ni kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya (hamkorlik), tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining ahamiyati ilmiy-pedagogik asosda yoritilgan. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAQSAD: bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda 4K modeli – tanqidiy fikrlash, kreativlik, hamkorlikda ishlash va kommunikativlik kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada 2-sinf misolida 4K modeli asosida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini tashkil etish metodikasi yoritiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot metodologiyasi sifatida kuzatuv, taqqoslash, tajriba-sinov va pedagogik tahlil usullari qo‘llanildi. 2-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan darslar tahlil qilinib, 4K modelining har bir komponenti (tanqidiy fikrlash, kreativlik, hamkorlik, kommunikatsiya) asosida metodik yondashuvlar ishlab chiqildi. Darslarda interaktiv usullar, kichik guruhlarda ishlash, ijodiy topshiriqlar, savol-javob va muammo asosidagi o‘qitish metodlari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tajriba davomida aniqlanishicha, 4K modeli asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirdi, ular mustaqil fikrlashga va o‘z fikrini erkin ifodalashga intila boshlashdi. Masalan, matn ustida ishlashda savolga javob berishdan ko‘ra, muammoni hal qilish bo‘yicha yechim taklif qilishga o‘rgandilar. Guruhda ishlash orqali esa ijtimoiy faollik va o‘zaro muloqot ko‘nikmalari shakllandi. Bu esa dars samaradorligini oshirdi va o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, 4K modeli asosida tashkil etilgan darslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili va o‘qish savodxonligi faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi hamda o‘z fikrini ravon bayon qilishga yo‘naltiradi. Kelgusida ushbu model asosida metodik qo‘llanmalar va dars ishlanmalarini yaratish ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kalit so'zlar: 4K modeli, ona tili, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, kreativ fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, metodika, ta’lim texnologiyalari, zamonaviy dars, kognitiv rivojlanish.

Iqtibos uchun: Aytjanova A.S. 4k modeli asosida ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish yo‘llari (2-sinf misolida). // Inter education & global study. 2025, №6. B.207–213.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧТЕНИЯ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ 4К (НА ПРИМЕРЕ 2-ГО КЛАССА)

© А.С. Айтжанова[1]✉
[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассмотрена научно-педагогическая основа усовершенствования методики преподавания предметов “Родной язык” и “Грамотность чтения” в начальной школе на основе модели 4К — креативность, коммуникация, кооперация (сотрудничество) и критическое мышление. Работа представляет научно-практический интерес для учителей начальных классов.

ЦЕЛЬ: на сегодняшний день одной из актуальных задач образовательного процесса является формирование современных компетенций у учащихся. В частности, на этапе начального образования в преподавании родного языка и грамотности по чтению особое внимание уделяется развитию компетенций модели 4К – критическое мышление, креативность, сотрудничество и коммуникативность. В данной статье рассматривается методика организации уроков родного языка и чтения на основе модели 4К на примере 2-го класса.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в качестве методологии исследования были использованы наблюдение, сравнение, экспериментально-исследовательский и педагогический анализ. Были проанализированы уроки, проведенные со второклассниками, и разработаны методические подходы к каждому компоненту модели 4К (критическое мышление, креативность, сотрудничество, коммуникация). На занятиях использовались интерактивные методы, работа в малых группах, творческие задания, метод вопросов и ответов, а также проблемное обучение.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе эксперимента было установлено, что уроки, организованные по модели 4К, повысили интерес учеников к учебе, способствовали формированию у них стремления к самостоятельному мышлению и свободному выражению своих мыслей. Например, при работе с текстом учащиеся стали предлагать решения проблемы, а не просто отвечать на вопросы. Работа в группах способствовала развитию социальной активности и навыков общения, что положительно сказалось на эффективности уроков и уровне читательской грамотности учащихся.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что уроки, организованные на основе модели 4К, повышают интерес младших школьников к предмету родного языка и чтению, развивают критическое и креативное мышление, а также способствуют формированию навыков связной речи. В будущем разработка методических пособий и учебных материалов на основе этой модели позволит еще больше повысить качество и эффективность образования.

Ключевые слова: модель 4К, родной язык, грамотность чтения, начальное образование, компетентностный подход, креативное мышление, коммуникация, сотрудничество, критическое мышление, методика, образовательные технологии, современный урок, когнитивное развитие.

Для цитирования: Айтжанова А.С. Пути совершенствования методики преподавания родного языка и чтения на основе модели 4К (на примере 2-го класса). // Inter education & global study. 2025, №6. С. 207–213.

WAYS TO IMPROVE THE TEACHING METHODOLOGY OF NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY BASED ON THE 4C MODEL (EXAMPLE OF GRADE 2)

© Aygul S. Aytjanova[1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the scientific and pedagogical foundations for improving the methodology of teaching “Mother Tongue” and “Reading Literacy” subjects in primary education using the 4K model—creativity, communication, collaboration, and critical thinking. This paper serves as a valuable resource for primary school teachers seeking to enhance literacy through modern educational approaches.

AIM: today, one of the most urgent tasks in the educational process is the formation of modern competencies among students. In particular, at the primary education stage, special attention is given to the development of the 4C model competencies – critical thinking, creativity, collaboration, and communication – in teaching native language and reading literacy. This article presents a methodology for organizing lessons in the native language and reading literacy based on the 4C model, using the example of Grade 2.

MATERIALS AND METHODS: observation, comparison, experimental-trial, and pedagogical analysis methods were used as the research methodology. Lessons conducted with second-grade students were analyzed, and methodological approaches were developed for each component of the 4C model (critical thinking, creativity, collaboration, and communication). Interactive methods, small group work, creative tasks, question-and-answer techniques, and problem-based teaching strategies were used in the lessons.

DISCUSSION AND RESULTS: during the experiment, it was found that lessons organized based on the 4C model increased students’ interest in learning, encouraging

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

them to think independently and express their thoughts freely. For example, instead of merely answering questions while working with texts, students learned to propose solutions to problems. Group work enhanced their social activity and interpersonal communication skills. This led to more effective lessons and positively impacted students' reading literacy levels.

CONCLUSION: in conclusion, lessons organized based on the 4C model increase students' interest in the native language and reading literacy subjects, foster the development of critical and creative thinking, and help students express their ideas clearly and coherently. In the future, developing methodological manuals and lesson plans based on this model will further improve the quality and efficiency of education.

Key words: 4K model, native language, reading literacy, primary education, competency-based approach, creative thinking, communication, collaboration, critical thinking, methodology, educational technologies, modern lesson, cognitive development.

For citation: Aygul S. Aytjanova. (2025) 'Ways to Improve the Teaching Methodology of Native Language and Reading Literacy Based on the 4C Model (Example of Grade 2)', Inter education & global study, (6), pp. 207–213. (In Uzbek).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrdagi 726-son qaroriga muvofiq bugungi kunda darslik va o'quv-metodik majmualar sifatiga qo'yilayotgan talablarning ortishi ularni yaratish jarayoniga matbaa sohasining so'nggi yutuqlarini qo'llash, o'quvchilarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz, foydalanish uchun qulay bo'lgan matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarish, ushbu faoliyatni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF- 6108-son Farmoniga muvofiq maktabgacha, umumiy o'rta va o'rta maxsus hamda professional ta'lim sohasida foydalaniladigan matbaa mahsulotlarining xavfsizligiga qo'yiladigan talablarni belgilash, foydalanuvchilarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish, shuningdek, nashr etilayotgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarning matbaa sifatini ilg'or xorijiy tajriba asosida yanada oshirish maqsadida hamda ushbu farmonning 1-bandiga muvofiq dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilmfan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilab qo'yilgan[1]. Ushbu bandga ko'ra va 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuv metodologiyasi (bu-bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi: kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ko‘nikmalarini shakllantiradi) inobatga olinib 2023-2024-o’quv yilida 1-4 -sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab o’quv darsliklari yaratildi.

Maktablardagi sifatli ta’lim ko‘p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog‘liq. Ya’ni u ta’lim standartlariga javob berish bilan birgalikda o‘quvchini qiziqtirish va fanga bo‘lgan mehrini uyg‘otishi kerak. Yangi o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim oladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya’ni bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish va yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi. 4K modelining boshlang’ich sinf darslaridagi samaradorligi haqida so‘zlashdan oldin, “4K modeli o‘zi nima?” degan savolga javob topaylik.

“4K modeli” deganda, odatda ta’limning sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga qaratilgan to‘rt asosiy komponentni anglatadi. Bu model, ta’lim jarayonini yaxshilashda quyidagi to‘rt omilga asoslanadi:

Kreativlik– o‘quvchilarning ijodkorlik va yangicha fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va muammolarni ijodiy hal qilish ko‘nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. O‘quvchilar har bir fanga, yo‘nalishga ijodiy yondashishni o‘rganadilar.

Kollaboratsiya– o‘quvchilarning dars jarayonlarida, umuman olganda hayotda ham jamoaviy ish olib boorish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu komponent o‘quvchilarning o‘zaro samarali muloqotga kirishishida va bag’rikenglik kabi tushunchalarni shakllantirishda juda ahamiyatlidir.

Kommunikatsiya– muloqot qilish qobiliyati bo‘lib, o‘quvchilarni birbirini eshitishga va tushunishiga yordam beradi. Bu orqali ular fikr almashishadi.

Kritik fikrlash– o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirdi, muammolarni muhokama qilishga o‘rgatadi, o‘z fikriga ega bo‘lishni va bu fikrni isbot eta olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagog O.Olloqovaning fikricha “Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan ona tili fani ko‘p qirrali va murakkab fan hisoblanadi. Ona tili darslarida o‘quvchilarning lug‘at hajmi oshiriladi, nutq qoidalarining o‘zlashtirilishiga e’tibor beriladi, fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati rivojlantiriladi, suhbatdoshiga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish, og‘zaki muloqot shakllarini bilish darajasi o‘stiriladi, o‘qish sur’ati, yozma nutq ko‘nikmalari tarkib toptiriladi, kognitiv qiziqishlari shakllantiriladi, ularning dunyoqarashi kengaytiriladi” deb ta’kidlab o‘tadi. [2]

Shunigdek, pedagog O.Olloqova yana quyidagicha fikrlarni keltirib o‘tadi: “4“K” tamoyilning ahamiyatli jihati shuki, bunda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish/yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri, ijodkorligi, kommunikativligi ustida ham ishlanadi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2023–2024-o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich ta’lim tizimida “Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” fanlarining alohida o‘qitilishi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan muhim islohotlardan biridir. Bu qaror o‘quvchilarning til bilan ishlash ko‘nikmalarini chuqurlashtirish, o‘qish, tushunish, tahlil qilish hamda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish kabi kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi.[3]

O‘qish savodxonligi fani orqali o‘quvchilar nafaqat harf va so‘zlarni o‘qish, balki matnni anglash, asosiy g‘oyani tushunish, voqea rivoji ustida fikr yuritish, savollar tuzish va ularga javob berish, hikoya qilish kabi faoliyatlar orqali nutqiy muloqotga kirishishni o‘rganadilar.[4]

Nutq rivojining bosqichlarini tadqiq qilgan tilshunos olimlar fikriga ko‘ra, bolalar nutqi tabiiy rivojlanish bilan bir qatorda, muhit, metodika va maxsus mashqlar orqali shakllanadi (V.V. Davydov, L.S. Vygotskiy, Sh.Rahmatullaeva). [5] Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi shuni ko‘rsatadiki, bolalar til materiallarini tushunishga qodir bo‘lsa-da, ulardan foydalanishni o‘rgatish orqali nutqiy faollikni rivojlantirish mumkin.[6]

O‘qish savodxonligi darslari esa aynan ushbu metodologik yondashuv asosida o‘quvchilarni:

- eshitib tushunish;
- og‘zaki fikr bildirish;
- mazmunni tahlil qilish;
- suhbatda ishtirok etish;
- ijodiy qayta hikoyalash kabi faoliyatlar orqali nutqiy rivojga olib keladi.

Shuningdek, UNESCO tavsiyalariga ko‘ra, zamonaviy ta’limda o‘quvchilarni “savodli muloqot” ko‘nikmalariga ega qilib tarbiyalash XXI asr kompetensiyalarining asosi sifatida belgilanmoqda.[7] Bu jarayonda boshlang‘ich ta’lim — ayniqsa 1–2-sinflardayoq — og‘zaki va yozma nutqning asosiy ko‘nikmalari shakllanadi.

Demak, “O‘qish savodxonligi” fanining alohida o‘qitilishi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faolligini oshirish, fikrni izchil va ravon ifoda etish, muloqotda qatnashish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy ta’limning muhim ko‘rsatkichidir.

Olingan natijalar 4K modelining boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitishda qo‘llanilishi ta’lim sifatiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tanqidiy fikrlash orqali matnlarni tahlil qilish, kreativlik orqali mustaqil ijodiy topshiriqlar bajarish, hamkorlikda ishlash orqali ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish va kommunikatsiya orqali o‘z fikrini ancha ravon ifodalash imkoniyati yaratildi. Bu yondashuv an’anaviy o‘qitish uslublarini yangilash va zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan metodikani shakllantirish imkonini beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 06.11.2020 yildagi PF-6108-son.https://lex.uz/ru/docs/-5085999.
2. Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna “O‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishda yangi avlod darsliklarining ahamiyati” //5(7)2023 "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali.173 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Boshlang‘ich ta’lim fanlarini alohida o‘qitish bo‘yicha metodik qo‘llanma*. Toshkent: TTMO, 2023 y. 25–40-betlar.
4. Karimova, R. *Boshlang‘ich ta’limda savodxonlikni shakllantirish metodikasi*. Toshkent: Fan, 2020.17–29-betlar.
5. Rahmatullaeva, Sh. *Nutq o‘stirish asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi, 2019. 34–52-betlar.
6. Vygotskiy, L.S. 1991. P*edagogik psixologiya*. Moskva: Pedagogika, 1991. 85–102-betlar.
7. UNESCO. *Global competence for sustainable development: Policy brief*. Paris: UNESCO Publishing, 2018-y.10–18-betlar.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Aytjanova A.S.**, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) 1-bosqich magistranti, [**Айтжанова Айгул,** магистрант 1-го курса по направлению «Теория и методика образования и воспитания (начальное образование)»], [**Aygul S. Aytjanova,** 1st-year Master's student in “Theory and Methodology of Education and Upbringing (Primary Education)”]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHNING AHAMIYATI

© A.K.Kadrekova[1]✉, © M.A.Akniyazova[2]✉
[1,2]Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni o‘quvchilarga singdirishning ahamiyati, usullari va amaliy ahvoli tahlil qilingan. Bolalarning shaxs sifatida shakllanishida milliy o‘zlik, urf-odatlar, an’analar va axloqiy me’yorlarning erta bosqichdanoq ongiga singdirilishi ularning kelajakdagi ijtimoiy va ma’naviy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda o‘qituvchilarning roli, darsliklar va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ahamiyati yoritilgan.

MAQSAD: maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni singdirishning zarurati, mazmuni, usullari va samaradorlik omillari atroflicha tahlil qilinadi. Bu orqali yosh avlodni sog‘lom ma’naviy muhitda tarbiyalash, ularni milliy o‘zlikni anglagan, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazish yo‘llarini ko‘rsatib berish maqsad qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish jarayoni kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, tahlil va tajriba-sinov usullari orqali o‘rganildi. Bunda 1–4-sinf darslari tahlil qilinib, o‘quvchilarning qadriyatlarga nisbatan munosabati, ularning ongida shakllanish darajasi baholandi. Shuningdek, amaliy tajriba asosida milliy qadriyatlar elementlari kiritilgan dars ishlanmalari sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot materiallari sifatida darsliklar, metodik qo‘llanmalar, o‘qituvchilarning dars ishlanmalari, xalq og‘zaki ijodi namunalari va o‘quvchilarning yozma ishlari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlarni boshlang‘ich ta’limda o‘rgatish jarayonida o‘qituvchining roli beqiyosdir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy tarbiya beruvchi sifatida ham faoliyat yuritishi, o‘zining shaxsiy namunalari orqali o‘quvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi zarur. Shuningdek, darslik va metodik materiallar, ta’lim mazmuni va o‘quv jarayonida milliy qadriyatlarni chuqur va hayotiy tarzda aks ettirish orqali bu boradagi samaradorlikni oshirish mumkin.

XULOSA: milliy qadriyatlar o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va millat sifatida rivojlanishda asosiy omildir. Ularni har bir bolaga, har bir darsga singdirish orqali biz mustahkam ma’naviyatli, sog‘lom tafakkurli, vatanparvar va fidoyi yosh avlodni voyaga yetkazishimiz mumkin. Shu bois boshlang‘ich ta’lim — bu nafaqat bilim manbai, balki milliylikning ilk poydevori sifatida yondashilishi zarur.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, ma’naviylik, o‘quvchi shaxsi, an’analar, ta’lim mazmuni.

Iqtibos uchun: Kadrekova A.K., Akniyazova M.A. Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlarni singdirishning ahamiyati. // Inter education & global study. 2025, №6. B.214–221.

ЗНАЧЕНИЕ ВНЕДРЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

© А.К.Кадрекова[1]✉, © М.А. Акниязова[2]✉
[1,2]Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье проанализированы значение, методы и практическое состояние внедрения национальных ценностей в систему начального образования. Внедрение национального самосознания, обычаев, традиций и моральных норм в сознание детей с раннего возраста оказывает положительное влияние на их будущее социальное и духовное развитие. В исследовании освещены роль учителя, значение учебников и воспитательной работы вне класса.

ЦЕЛЬ: в статье всесторонне анализируются необходимость, содержание, методы и факторы эффективности внедрения национальных ценностей в систему начального образования. Целью является воспитание молодого поколения в здоровой духовной среде, формирование у них национального самосознания и социально ответственной личности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования процесс внедрения национальных ценностей учащимся начальных классов изучался с использованием методов наблюдения, интервью, анкетирования, анализа и педагогического эксперимента. Были проанализированы уроки в 1–4-х классах, оценено отношение учащихся к ценностям и уровень их осознания. Также были опробованы уроки, содержащие элементы национальных ценностей. В качестве материалов использовались учебники, методические пособия, конспекты уроков учителей, образцы устного народного творчества и письменные работы учеников.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что роль учителя в процессе внедрения национальных ценностей в начальном образовании является незаменимой. Учитель должен быть не только передатчиком знаний, но и духовным воспитателем, оказывающим положительное влияние своим личным примером. Повышение эффективности возможно за счёт отражения национальных ценностей в содержании образования, учебниках и методических материалах, а также в самом учебном процессе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: национальные ценности являются основным фактором осознания идентичности, сохранения исторической памяти и развития нации. Внедряя их в сознание каждого ребёнка через каждый урок, мы можем воспитать

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

духовно сильное, здравомыслящее, патриотичное и преданное молодое поколение. Поэтому начальное образование следует рассматривать не только как источник знаний, но и как фундамент формирования национального самосознания.

Ключевые слова: национальные ценности, начальное образование, воспитание, духовность, личность ученика, традиции, содержание образования.

Для цитирования: Кадрекова А.К., Акниязова М.А. Значение внедрения национальных ценностей в начальном образовании. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 214–221.

THE IMPORTANCE OF INCULCATING NATIONAL VALUES IN PRIMARY EDUCATION

© A.K. Kadrekova[1]✉, © Muhayyo A. Akniyazova[2]✉
[1,2]Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the importance, methods, and practical situation of inculcating national values in the primary education system. Instilling national identity, customs, traditions, and moral norms into children's consciousness from an early age has a positive impact on their future social and spiritual development. The study highlights the role of teachers, textbooks, and extracurricular educational activities.

AIM: the article provides a detailed analysis of the necessity, content, methods, and effectiveness of introducing national values into primary education. The goal is to raise the younger generation in a morally healthy environment and to guide them toward becoming socially responsible individuals with a strong sense of national identity.

MATERIALS AND METHODS: the process of instilling national values in primary school students was studied through observation, interviews, surveys, analysis, and experimental methods. Lessons from grades 1 to 4 were analyzed to assess students' attitudes toward national values and the extent to which these values were internalized. Practical lessons incorporating national value elements were tested. Research materials included textbooks, methodological manuals, teachers' lesson plans, samples of oral folk art, and students' written work.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings of the study indicate that the teacher plays an essential role in the process of teaching national values in primary education. A teacher must not only transmit knowledge but also act as a moral role model, positively influencing students through personal example. Effectiveness can be increased by reflecting national values deeply and realistically in educational content, textbooks, and teaching materials, as well as in the classroom process itself.

CONCLUSION: national values are a key factor in shaping identity, preserving historical memory, and advancing as a nation. By instilling them in every child through every lesson, we can raise a generation that is spiritually strong, clear-minded, patriotic,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

and devoted. Therefore, primary education should be seen not only as a source of knowledge but also as the foundational stage for developing national identity.

Key words: national values, primary education, upbringing, spirituality, student personality, traditions, educational content.

For citation: Kadrekova A.K., Muhayyo A. Akniyazova, (2025) 'The importance of inculcating national values in primary education', Inter education & global study, (6), pp. 214–221. (In Uzbek).

Milliy qadriyatlar – bu xalqning asrlar davomida shakllangan, ularning madaniyati, tarixi, urf-odatlari, diniy va axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bebaho ma'naviy boylikdir. Ular har bir insonning shaxs sifatida kamol topishida, jamiyatda o'z o'rnini topishida, mustahkam ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Aynan shu bois, milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ularni qadrlashga va hurmat qilishga o'rgatish ta'lim-tarbiya tizimining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimiga oid qaror va farmonlarida ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni tiklash, ularni yosh avlod ongiga singdirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Jumladan, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi qarorlar va Davlat ta'lim standartlarida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. Chunki bola shaxsi aynan shu bosqichda shakllana boshlaydi, ongida dunyoqarash, axloqiy mezonlar, ijtimoiy munosabatlar haqidagi ilk tasavvurlar qaror topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'zbek xalqining boy madaniy merosi, an'analari, urf-odatlari va tarixiy shaxslarning ibratli hayoti muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. O'quvchilarning qalbida vatanparvarlik, insonparvarlik, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlar asosiy o'ringa ega.

Milliy qadriyatlarning ta'rifi va ta'limdagi o'rni

Milliy qadriyatlar deganda xalqning tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan, hayot falsafasi, turmush tarzi, axloqiy me'yorlari, diniy e'tiqodi, urf-odatlari va madaniy merosini o'z ichiga olgan, jamiyat hayotida muhim o'rin tutadigan ma'naviy boyliklar tushuniladi. Ular har bir xalqning milliy o'zligini belgilovchi, yosh avlod tarbiyasining negizini tashkil qiluvchi omillardandir.

Ta'lim tizimi esa milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishning eng samarali va keng qamrovli vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu qadriyatlarni o'rgatish o'quvchining keyingi hayotiy yo'nalishini, shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini belgilab beradi. Bola shu davrdan boshlab o'z xalqining kimligini, tarixini, urf-odatlarini anglay boshlaydi. Bu jarayon faqat bilim berish bilan emas, balki ong, qalb va qalbiyatga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlarni singdirish yo'llari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Boshlang‘ich sinflarda milliy qadriyatlarni o‘rgatish o‘quv dasturlarining turli fanlariga integratsiya qilinishi, shuningdek, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar orqali ham samarali amalga oshiriladi. Quyidagi yo‘llar bu borada muhim ahamiyatga ega:

• Adabiyot va ona tili darslarida xalq og‘zaki ijodiyoti — ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar orqali milliy qadriyatlar o‘rgatiladi. Masalan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi eposlarda vatanparvarlik, jasorat, sadoqat kabi fazilatlar namoyon bo‘ladi.

• Tarbiya soatlarida O‘zbekiston tarixidan, buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyatidan namunalar keltirish orqali milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usi shakllantiriladi.

• Tasviriy san’at, musiqa va mehnat darslarida xalq hunarmandchiligi, milliy kiyimlar, kuy-qo‘shiqlar bilan tanishtirish orqali bolalarda estetik did va milliy madaniyatga qiziqish uyg‘otiladi.

• Sinfdan tashqari tadbirlar, milliy bayramlar (Navro‘z, Mustaqillik kuni, Mehribonlik va muruvvat oylarida o‘tkaziladigan tadbirlar) orqali o‘quvchilar hayotiy misollar asosida milliy qadriyatlar bilan tanishtiriladi.

• Ota-onalar bilan hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning oilaviy tarbiyasida ham milliy qadriyatlarga amal qilinishi, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi.

O‘qituvchining roli va mas’uliyati

Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo‘l ko‘rsatuvchi, ma’naviy rahbar va o‘quvchilarning dunyoqarashi shakllanishida asosiy shaxs sifatida maydonga chiqadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarni singdirish jarayonida o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, bilim va ko‘nikmalari, metodik yondashuvi, tarbiyaviy qarashlari beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘quvchi uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi birinchi muallim, birinchi ibrat namunasi va axloqiy mezonlar timsoli bo‘lib qoladi.

O‘qituvchining shaxsiy namunasi

Milliy qadriyatlarni singdirishdagi birinchi va eng muhim omil – bu o‘qituvchining shaxsiy namunasidir. O‘qituvchi milliy libosga, odob-axloqqa, madaniyatga, tilga bo‘lgan munosabatida o‘quvchilarga doimiy ibrat ko‘rsatishi kerak. U xalqning urf-odatlari va qadriyatlarini qadrlab, dars jarayonida ularni tabiiy va hayotiy misollar orqali ifoda eta olishi lozim. Masalan, o‘qituvchining o‘zbek milliy bayramlari, xalq ertaklari, maqollar va iboralarni o‘z joyida qo‘llay olishi o‘quvchilarni chuqurroq o‘zlashtirishga undaydi

Dars jarayonida qadriyatlarni uyg‘unlashtirish

O‘qituvchi har bir darsda o‘quv fanining mazmuni bilan milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirib borishi kerak. Masalan, ona tili darsida xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarini tahlil qilish orqali, matematika darsida esa milliy san’atdan yoki xalq hunarmandchiligidan misollar keltirish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish mumkin. Bu o‘quvchilarda nafaqat mavzuni chuqurroq anglash, balki milliy o‘zlikni his qilish, madaniyatini anglash hissini kuchaytiradi.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishdagi roli

O‘qituvchi sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, milliy bayramlar, ijodiy uchrashuvlar, teatr sahnalari va davra suhbatlari orqali o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni amaliy shaklda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yetkazishi mumkin. Ayniqsa, Navro‘z, Mustaqillik kuni kabi umumxalq bayramlarida bolalarni faol ishtirok ettirish, ularni milliy kuy-qo‘shiqlar, urf-odatlar, liboslar bilan tanishtirish – milliy tarbiya asosidir. Bunday tadbirlar o‘quvchilarning xotirasida unutilmas taassurot qoldiradi va ularni o‘z xalqiga, eliga mehr bilan qarashga o‘rgatadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchi tarbiyasida faqat maktab bilan cheklanmasligi, balki oilaviy muhitga ham e’tibor qaratishi kerak. Shu sababli ota-onalar bilan yaqin aloqada bo‘lib, ularga milliy qadriyatlar, oilaviy tarbiya va farzandga bo‘lgan munosabat borasida maslahatlar berishi maqsadga muvofiqdir. Ota-onalar bilan birgalikda amalga oshirilgan tadbirlar, ochiq darslar, ota-onalar konferensiyalari bolada mustahkam tarbiyaviy poydevor yaratadi

O‘qituvchining kasbiy va ma’naviy saviyasi

Bugungi kunda o‘qituvchi nafaqat o‘z fanidan yetarli bilimga ega bo‘lishi, balki milliy tarix, etnografiya, adabiyot, xalq urf-odatlari haqida ham chuqur tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Chunki u bolalarga milliy qadriyatlarni faqat nazariy emas, balki amaliy va hayotiy misollar bilan tushuntirishi lozim. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan, kreativ fikrlovchi o‘qituvchigina bu boradagi vazifalarni samarali bajara oladi.

Amaliy holat va muammolar

Milliy qadriyatlarni boshlang‘ich ta’lim tizimi orqali singdirish masalasi ta’lim siyosatida muhim o‘rin tutayotganiga qaramay, bu yo‘nalishda ayrim amaliy muammolar mavjud. Ushbu muammolar mazkur jarayonning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

An’anaviy va rasmiy yondashuvning ustunligi

Bugungi kundagi ta’lim amaliyotida milliy qadriyatlar asosan bayram tadbirlari, musobaqalar, tantanali marosimlar doirasida rasmiy va tantanavor ruhda o‘rgatilmoqda. Bunday yondashuvda o‘quvchi qadriyatni hayotiy hodisa sifatida emas, balki bayramona va vaqtinchalik holat deb qabul qiladi. Vaholanki, qadriyatlar kundalik hayotning ajralmas qismi bo‘lishi, dars jarayonida tabiiy ravishda singdirilishi kerak.

Darslik va metodik materiallarning yetarlicha zamonaviy emasligi

Ba’zi boshlang‘ich ta’lim darsliklarida milliy qadriyatlar bilan bog‘liq mavzular yuzaki yoritilgan bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik talab va metodik yondashuvlarga to‘liq javob bermaydi. Darsliklardagi materiallar ko‘proq ma’lumot tarzida berilgan, ammo ularni hayotiy misollar, amaliy topshiriqlar yoki interaktiv faoliyatlar bilan boyitish yetarli emas.

O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligidagi muammolar

Ko‘plab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari milliy qadriyatlarni dars mazmuniga integratsiya qilishda metodik jihatdan qiynaladi. Ularning ayrimlari qadriyatlarni o‘rgatishda faqat og‘zaki tushuntirishga tayanadi, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish, his-tuyg‘ularini uyg‘otish, qiziqishini rag‘batlantirish uslublaridan yetarlicha foydalanmaydi.

Oilaviy muhit va maktabning uzviy bog‘lanmaganligi

Milliy qadriyatlarni singdirishda maktab va oilaning o‘zaro hamkorligi muhim bo‘lsa-da, amalda bu bog‘liqlik har doim ham yetarli emas. Ayrim hollarda ota-onalar o‘z

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

farzandlariga milliy tarbiya berish masalasida yetarli e'tibor qaratmaydi, bu esa maktabda o'rgatilayotgan qadriyatlarning mustahkamlanmasligiga olib keladi.

Ta'lim mazmunini takomillashtirish zarurati

Boshlang'ich ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni samarali o'rgatish uchun ta'lim mazmuni doimiy ravishda yangilanib, zamonaviy talablarga moslashtirib borilishi zarur. Chunki yosh avlod bugun nafaqat milliy, balki global axborot maydonida shakllanmoqda. Shu sababli milliy qadriyatlar ta'lim mazmunida zamonaviy ruhda, raqobatbardoshlik nuqtayi nazaridan ifoda etilishi lozim.

Ta'lim dasturlarini milliy qadriyatlar bilan boyitish

Boshlang'ich sinflar uchun ishlab chiqilayotgan davlat ta'lim standartlari va fan dasturlarida milliy qadriyatlar bilan bog'liq mavzular kengroq yoritilishi lozim. Ayniqsa, ona tili, adabiyot, tarixiy-ma'naviy tarbiya kabi fanlarda xalq og'zaki ijodi, milliy qahramonlar, tarixiy shaxslar, urf-odatlar haqida ko'proq interaktiv mashg'ulotlar kiritilishi kerak.

O'quv darsliklari va qo'llanmalarni zamonaviylashtirish

Darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarda nafaqat matnlar, balki audio, video, multimediali vositalar, milliy estetikani ifodalovchi tasviriy materiallar bo'lishi kerak. Bu bolalarda vizual va emotsional qiziqishni oshiradi. Shuningdek, darsliklardagi topshiriqlarga milliy urf-odatlar asosida rolli o'yinlar, dramatizatsiya va bahs-munozaralar kabi usullarni kiritish tavsiya etiladi.

Pedagoglarning malakasini oshirish

Milliy qadriyatlarni o'qitish bo'yicha o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari muntazam ravishda tashkil etilishi lozim. Bu kurslarda pedagoglarga xalq pedagogikasi, milliy tarbiya usullari, interaktiv metodlar asosida qadriyatlarni o'rgatish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'rgatiladi. Shuningdek, tajribali o'qituvchilar ishtirokida seminar-treninglar, mahorat darslari tashkil etilishi foydali bo'ladi.

Elektron ta'lim resurslarining ishlab chiqilishi

Zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanib, boshlang'ich ta'limga mo'ljallangan milliy qadriyatlarga oid elektron platformalar, multfilm va o'yinlar, testlar va interaktiv dasturlar ishlab chiqish zarur. Bu o'quvchilarning nafaqat darsda, balki darsdan tashqari va uyda ham milliy qadriyatlar bilan tanishib borishlariga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida, uning dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari, vatanparvarlik tuyg'usi va milliy o'zligining mustahkamlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bola ongiga milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy xotira va ma'naviy me'yorlar singdirilsa, u kelajakda o'z xalqining haqiqiy vakiliga aylanadi.

Amaliy holat tahlillari shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan sa'y-harakatlar mavjud bo'lishiga qaramay, ularning ayrimlari yuzaki yondashuvga ega, metodik jihatdan mukammal emas yoki zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashmagan. Bu esa o'quvchilarning qadriyatlarni chuqur anglashiga va amalda qo'llashiga to'siq bo'lishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Shu bois, boshlang‘ich ta’lim tizimini milliy-ma’naviy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim dasturlari va darsliklarni takomillashtirish, pedagoglar malakasini oshirish, oilaviy va maktab tarbiyasining uzviyligini ta’minlash zarur. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, audiovizual vositalar, interaktiv metodlar orqali qadriyatlarni zamonaviy ruhda singdirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Raxima Mavlyanova., Nargiz Raxmankulova. Boshlanğich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. –Toshkent-2013. 5- b
2. Berdiyev Davron. Milliy qadriyatlar va ularning milliy ma’naviy tiklanishda tutgan o’rni. Referat ishi. –Toshkent-2014. 6- b
3. https://uza.uz

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kadrekova A.K.**, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti, [**Кадрекова А.К.** доцент кафедры начального образования], [**Kadrekova A.K.**, associate professor of the Department of Primary Education] manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

✉**Akniyazova M.A.**, talaba, [**Акниязова М.А.** студентка], [**Muhayyo A. Akniyazova**, student] manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

СТРУКТУРА И СОДЕРЖАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

© Г.М. Кенжебаева[1]✉

[1]Филиала РГПУ им А.И.Герцена в городе Ташкенте, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья посвящена исследованию структуре профессиональной деятельности преподавателей системы высшего педагогического образования как совокупности цели, мотивов действий (операций) и результата.

ЦЕЛЬ: целью данного исследования является выявление структуры и содержания профессиональной деятельности преподавателей системы высшего педагогического образования, а также анализ их роли в формировании компетентного будущего педагога. В центре внимания – педагогическая, методическая, научно-исследовательская и воспитательная составляющие их деятельности, а также способы повышения ее эффективности в современных условиях.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались теоретические и эмпирические методы: анализ научной литературы, нормативно-правовых документов в сфере высшего педагогического образования, наблюдение за педагогическим процессом, анкетирование и интервью с преподавателями педагогических вузов. Также были изучены рабочие программы, планы учебных занятий и методические разработки преподавателей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что профессиональная деятельность преподавателей педагогических вузов включает четыре ключевых компонента: образовательную, методическую, научную и воспитательную работу. Особое внимание уделяется внедрению инновационных методов обучения, цифровых технологий и индивидуализации подхода к студентам. Результаты анкетирования показали, что большинство преподавателей осознают важность постоянного профессионального развития и активно участвуют в научно-методических семинарах, конференциях, разработке образовательных программ.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: таким образом, профессиональная деятельность преподавателей высшей педагогической школы является многогранной и требует высокой степени профессионализма. Ее эффективность напрямую влияет на качество подготовки будущих педагогов. Совершенствование данной деятельности возможно через систематическое повышение квалификации, обмен передовым опытом и внедрение современных образовательных технологий в учебный процесс.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ключевые слова: профессиональная деятельность, преподаватели, педагогические кадры, система высшего педагогического образования, структура, содержание, профессиональный труд.

Для цитирования: Кенжебаева Г.М. Структура и содержание профессиональной деятельности преподавателей системы высшего педагогического образования. // Inter education & global study. 2025. №6. С. 222–234.

OLIY PEDAGOGIK TA’LIM TIZIMI O‘QITUVCHILARI KASBIY FAOLIYATINING TUZILISHI VA MAZMUNI

© G.M. Kenjebayeva[1]✉
[1]Toshkent shahridagi A.I. Gertsen nomidagi RGPU filiali, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqola oliy pedagogik ta’lim tizimi o‘qituvchilari kasbiy faoliyatining maqsad, harakat (amal) motivlari va natijalarining yig‘indisi sifatidagi tuzilmasini tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

MAQSAD: tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad – oliy pedagogik ta’lim tizimi o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati tuzilmasi va mazmunini aniqlash, hamda ularning kelajakdagi malakali pedagogni shakllantirishdagi o‘rnini tahlil qilishdir. Diqqat markazida ularning pedagogik, metodik, ilmiy-tadqiqot va tarbiyaviy faoliyatlari, shuningdek, ushbu faoliyat samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil etiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan foydalanildi: oliy pedagogik ta’lim sohasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili, o‘quv jarayoni kuzatuvi, pedagogik OTM o‘qituvchilari bilan suhbat va so‘rovnomalar o‘tkazildi. Shuningdek, o‘qituvchilarning ishchi dasturlari, dars rejalari va metodik ishlanmalari o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik OTM o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati to‘rtta asosiy tarkibiy qismdan iborat: ta’lim berish, metodik ishlar, ilmiy-tadqiqot faoliyati va tarbiyaviy ishlar. Ayniqsa, innovatsion o‘qitish uslublari, raqamli texnologiyalar va talabaga individual yondashuvni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘rovnoma natijalari o‘qituvchilarning aksariyati kasbiy rivojlanish zarurligini anglagan holda ilmiy-metodik seminarlar, konferensiyalar va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etayotganini ko‘rsatdi.

XULOSA: shunday qilib, oliy pedagogik ta’lim tizimi o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, yuqori darajadagi professionallikni talab qiladi. Bu faoliyat samaradorligi kelajakdagi pedagog kadrlar tayyorgarlik sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Uni takomillashtirish muntazam malaka oshirish, ilg‘or tajriba almashish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy faoliyat, o‘qituvchilar, pedagogik kadrlar, oliy pedagogik ta’lim tizimi, tuzilma, mazmun, kasbiy mehnat.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Iqtibos uchun: Kenjebayeva G.M. Oliy pedagogik ta'lim tizimi o'qituvchilari kasbiy faoliyatining tuzilishi va mazmuni. // Inter education & global study. 2025. №6. B. 222–234.

STRUCTURE AND CONTENT OF PROFESSIONAL ACTIVITY OF TEACHERS IN THE SYSTEM OF HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION

© Gulnur M. Kenzhebayeva[1]✉
[1] Branch of Herzen State Pedagogical University in Tashkent, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article is devoted to the study of the structure of the professional activity of teachers in the higher pedagogical education system, considered as a set of goals, motives of actions (operations), and results.

AIM: the purpose of this research is to identify the structure and content of the professional activity of teachers in higher pedagogical education, and to analyze their role in shaping a competent future teacher. The focus is on their teaching, methodological, research, and educational roles, as well as ways to improve the effectiveness of their professional activity in the current educational environment.

MATERIALS AND METHODS: the study employed both theoretical and empirical methods: analysis of scientific literature, regulatory documents in the field of higher pedagogical education, observation of the teaching process, and surveys and interviews with university teachers. The study also examined working programs, lesson plans, and methodological developments prepared by instructors.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis showed that the professional activity of pedagogical university teachers consists of four key components: educational, methodological, research, and educational work. Special attention is paid to the integration of innovative teaching methods, digital technologies, and individualized approaches to students. Survey results revealed that most teachers recognize the importance of continuous professional development and actively participate in scientific-methodological seminars, conferences, and the development of educational programs.

CONCLUSION: in conclusion, the professional activity of teachers in the system of higher pedagogical education is multifaceted and requires a high level of professionalism. Its effectiveness directly impacts the quality of training future educators. Improvement of this activity can be achieved through systematic professional development, exchange of best practices, and the integration of modern educational technologies into the teaching process.

Key words: professional activity, teachers, pedagogical staff, system of higher pedagogical education, structure, content, professional work.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

For citation: Gulnur M. Kenzhebayeva. (2025) 'Structure and Content of Professional Activity of Teachers in the System of Higher Pedagogical Education', Inter education & global study, (6), pp. 222–234. (In Russ).

Профессиональный труд преподавателей системы высшего педагогического образования находится в центре внимания многих ученых, поскольку именно профессиональная деятельность педагога обеспечивает органическое функционирования такого специфического учебного заведения как высшее педагогическое учреждение. Такая специфика связана, прежде всего, с тем, что объектами образовательного воздействия являются обучаемые призванные в дальнейшем осуществлять педагогическую деятельность в различных учреждениях. Именно поэтому профессиональная деятельность преподавателей данной системы и проблемы совершенствования их профессионального труда освещались в научных исследованиях относительно большого количества ученых и практиков. При этом на сегодняшний день исследования в данном направлении продолжаются, считаются достаточно актуальными и разрабатываются довольно интенсивно, особенно в отдельных направлениях методической работы.

Так, категория профессиональная деятельность, профессиональный труд является центральной для системно-деятельностного подхода в психолого-педагогических науках. Деятельность рассматривается как единица жизни, система активных взаимоотношений человека с миром. В отличие от деятельности животных, деятельность человека подчинена не только биологическим, но и социальным закономерностям. В результате деятельности человек превращает предметы природы в средства удовлетворения своих потребностей, а образы, возникающие при этом, воплощаются в деятельности.[1]

Как и сама жизнь, деятельность является многоуровневым процессом, меняет свои характеристики в зависимости от уровня, на котором функционирует. Например: на уровне организма, когда речь идет о физиологическом функционирование и обеспечение физиологических потребностей человека; на уровне индивида, то есть на уровне деятельности и потребностей отдельного человека. То есть это активность человека, которая реально связывает субъект деятельности с объектом деятельности.

Деятельность - это связь двух полюсов жизни: субъекта и объекта. С позиций системно-деятельностного подхода отношение субъект - объект опосредуется процессами деятельности, в рамках которых функционирует психика человека, и которые меняют не только объект, но и субъект деятельности. В деятельности

[1] Кобзев М.С. Проблемы формирования личности учителя в педагогическом ВУЗе // Формирование профессионально-педагогических качеств у студентов педагогического института: межвуз. сб-к н.трудов.- Саратов,2009. - С. 3-13.; Хасанов Б.Э. Международное сотрудничество Узбекистана в повышении квалификации педагогических кадров / Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnoe-sotrudnichestvo-uzbekistana-v-povyshenii-kvalifikatsii-pedagogicheskih-kadrov

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

имеют место только постоянные переходы: субъект - изменение, объект - обогащенный субъект.[2]

По определению Е.И. Огарев, деятельность - это система целенаправленной активности субъекта, включена в общественные отношения, это процесс, в котором происходит взаимный переход между полюсами субъект-объект, а основной характеристикой деятельности является ее предметность.[3]

Важно подчеркнуть, что деятельность всегда основывается на определенных потребностях - состояниях живого существа, для удовлетворения которых требуются соответствующие объекты. Каждая потребность имеет свой смысл (является потребностью), которая определяется той совокупностью предметов, которые могут ее удовлетворить.[4]

Необходимость, с одной стороны, обуславливает деятельность человека, а с другой - зависит от нее, потому что именно в ней они удовлетворяются или не удовлетворяются. Одни из них - материальные и отражают потребность человека в предметах материальной культуры (в вещах, которые обеспечивают быт, жилье, одежде и т.п.), другие - духовные, то есть потребности в предметах духовной культуры (в знаниях, продуктах научного и художественного творчества). К тому же есть еще особый класс потребностей - потребности личности (в самореализации, самоутверждении, творчестве, быть личностью, достигать профессионального совершенства и т.д.). Анализ потребностей человека свидетельствует, что, довольствуясь, потребности наполняются конкретным содержанием, обогащаются, их число растет.[5]

Именно эта закономерность была вложена М. Ноуелзом в основу закона увеличение образовательных потребностей, который сегодня рассматривается как основной в процессе образования взрослых и построении системы непрерывного профессионального развития преподавателей. Действие этого закона подкрепляется тем, что продукты человеческой деятельности не имеют законченный вид и могут быть усовершенствованными. В свою очередь, появление видоизмененных или новых продуктов не может не сказаться на потребностях, они также видоизменяются, побуждая новые формы активности человека. Таким образом, обеспечивается постоянное развитие и деятельности и потребностей, лежащих в ее основе. Причем деятельность побуждается не надобностью, как

[2] Исянова А.Р. Творчество и креативность в профессиональной деятельности педагогических кадров // Педагогик таълим. Ташкент, 2016 - №2, - С. 24 – 30.

[3] Огарев Е.И. Образование взрослых в изменяющемся обществе / Педагогическая компетентность и инновационная деятельность в обновляющемся образовании: Материалы к Научно-практической конференции. М:, 1993. - С. 6-8.

[4] Фомин А.А. Соблюдение педагогических требований как фактор, повышающий профессиональную компетентность современного педагога. / А.А. Фомин // Педагогика. 2000. - №1. - С. 59 - 64.

[5] Махутов Б.Н., Бауэр Е.А., Зименков А.Н. Развитие профессиональной компетентности специалиста в современных правовых условиях дополнительного профессионального образования // Научно-методический электронный журнал «Концепт». - 2014. - Т. 20. - С. 4371-4375.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

состоянием субъекта, а потребностью, которая нашла свой предмет. Предмет, отвечает потребности (предмет потребности), является мотивом конкретной деятельности.[6]

Мотив побуждает деятельность, как будто притягивая ее к себе. Поэтому деятельность приобретает непосредственного характера. Деятельность имеет мотив и цель - более или менее осознаваемый образ предполагаемого результата усилий, которые прилагает человек, чтобы чего-то достичь. В свою очередь, мотив побуждает деятельность, цель придает ей направленность. Поэтому, если мотив является критерием выделения в потоке жизни деятельность, то цель - действием. Деятельность имеет действия, которые подчиняются цели. В отличие от цели, мотив деятельности осознают далеко не всегда.[7]

Деятельность состоит из определенного цепи действий, когда выполнение одного действия побуждает другую. Однако любая активность не является действием. В отличие от привычных, стереотипных или импульсивных реакций, действие, кроме того, что оно целеустремленное, всегда опосредованное, включает в себя определенные знания, умения, навыки, осуществляется по каким образцам, схемам, сопоставляется с теми или иными социальными нормами.[8]

Педагогу системы высшего педагогического образования принадлежит ведущая роль в обучении и воспитании студентов, его главной задачей является обеспечение подготовки конкурентоспособных специалистов, обладающих глубокими профессиональными знаниями, умениями и навыками.

По определению А.А. Кирсанова, преподаватель высшего педагогического учебного заведения это прежде всего педагог, основной организатор обучения, наставник, воспитатель. Высокий профессионализм и компетентность, глубокие педагогические знания, владение сложными умениями и навыками, любовь к обучаемым, милосердие, доброта и чуткостью - вот качества, которыми он должен обладать.[9]

Согласна утверждений В.И. Лозовой, образовательный процесс в высшем педагогическом учебном заведении основывается на принципах гуманистической, личностно ориентированной педагогики, демократизма, независимости от политических, общественных, религиозных объединений, совместной деятельности учреждений и организаций. Соблюдение этих принципов имеет большое значение для успешного осуществления процесса обучения, воспитательной работы с

[6] Кулюткин Ю.Н Психология обучения взрослых. М., 1995. - 126 с.; Малитиков Е.М. Концептуальные основы образования взрослых // Право и образование. 2001. - №2. - С. 35-40.

[7] Смышляева Л.Г., Пшеничникова Т.Д. Образование взрослых: поиск научно-исследовательских приоритетов и перспектив. // Вестник Томского государственного педагогического университета. Серия: ПЕДАГОГИКА, выпуск №8 (24) 2000. - С. 54-55.

[8] Юринец А.А. Методические аспекты подготовки ответственного педагога: методическое пособие / А. Юринец. - педагогический колледж им. А.Ю. Крымского, 2009. - 101 с.

[9] Кирсанов А.А. Методологические основы современной системы повышения квалификации преподавателей вузов // Высшее образование в России. - 2009. - № 2. - С. 83-86.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Билык Н.И. Моделирование процесса обучения в системе повышения квалификации учителей: автореф. дис. на получение наук. степени канд. пед. наук: 13.00.04 / Н. И. Билык; Центральный институт последипломного педагогического образования АПН Украины. - М., 2005. - 21 с.
4. Громкова М.Т. Педагогическое мастерство преподавателя: модели взаимодействия // Magister.-1996.-№ 1. - С. 31-40.
5. Сорочан Т.М. Модель профессионального развития педагогических работников в последипломном педагогическом образовании регионального уровня / Т.Н. Сорочан // Путь образования. - 2008. - № 2 (48). - С. 11-15.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kenjebayeva Gulnur Maratovna**, RKI kafedrasi katta o‘qituvchisi, [**Кенжебаева Гулнур Маратовна,** старший преподаватель кафедры РКИ], [**Gulnur Maratovna Kenzhebayeva**, Senior Lecturer, Department of Russian as a Foreign Language]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi, 55-uy [адрес: Узбекистан, Яккасарайский район, ул. Бабура, 55, Ташкент], [address: Uzbekistan, 55 Bobur Street, Yakkasaroy District, Tashkent,]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (TEXNOLOGIYA TALIMI VA UNI O'QITISH METODIKASI FANI MISOLIDA)

© M.M. Berdiyev[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur ilmiy ishda raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodika takomillashtiriladi. Ayniqsa, "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" fani doirasida raqamli vositalar, platformalar, o'quv dasturlar va interaktiv yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot pedagogik texnologiyalarni didaktik va metodik asoslarda o'rgatish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Bu yo'nalishda zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali o'qituvchilarning kasbiy salohiyati, muammoli vaziyatlarga yondashuvi va ijodiy fikrlash qobiliyatining oshirilishi asoslab berilgan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad — raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikani takomillashtirishdir. Tadqiqot doirasida zamonaviy raqamli vositalar yordamida o'qituvchilik faoliyatiga zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish jarayoni o'rganildi. Bunda nazariy va amaliy tadqiqot usullari uyg'un holda qo'llanildi. Xususan, pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili, zamonaviy raqamli o'qitish texnologiyalariga oid ilmiy manbalarni o'rganish, ilg'or tajribalarni solishtirish asosida konseptual asoslar ishlab chiqildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida so'rovnoma, suhbat va kuzatuv ishlari olib borildi. Empirik bosqichda tajriba-sinov darslari tashkil etilib, ularning natijalari tahlil qilindi hamda metodikaning samaradorligi baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari talabalarning mustaqil fikrlashi, o'z ustida ishlashi va axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Interaktiv platformalardan (Google Classroom, Moodle, LearningApps) foydalanish darslarni yanada samarali va qiziqarli qiladi. Sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli metodik yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarga moslashuvchan, zamonaviy va texnologik yondashuvda dars berish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

XULOSA: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini zamonaviy talablarga mos, raqamli savodxon, ijodiy fikrlaydigan va pedagogik mahoratga ega mutaxassislar sifatida tayyorlash uchun texnologiya ta’limining o‘qitish metodikasini tubdan takomillashtirish zarur. Bu esa faqatgina mavjud bilimlar bilan emas, balki kreativ yondashuv, digital vositalarni integratsiyalash, talaba-yu o‘qituvchi o‘rtasida samarali axborot almashinuvi orqali amalga oshiriladi. Shu bois, taklif etilayotgan metodik yondashuvlar boshlang‘ich ta’limda dars sifati, o‘quvchining qiziqishi va o‘qituvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishda yangi ufqlar ochadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, kadrlar, axborot kommunikatsion texnologiyalar, raqamli texnologiya, kognitiv faoliyat, boshlang'ich ta'lim, raqamlashtirish.

Iqtibos uchun: Berdiyev M.M. Raqamli texnologiyalar asosida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Texnologiya talimi va uni o’qitish metodikasi fani misolida). // Inter education & global study. 2025, №6. B.248–255.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (НА ПРИМЕРЕ ДИСЦИПЛИНЫ «ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И МЕТОДИКА ЕГО ПРЕПОДАВАНИЯ»)

© М.М. Бердиев[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной научной работе совершенствуется методика развития профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов на основе цифровых технологий. В особенности, в рамках дисциплины «Технологическое образование и методика его преподавания» анализируются цифровые инструменты, платформы, образовательные программы и интерактивные подходы. Исследование направлено на повышение эффективности обучения педагогическим технологиям с опорой на дидактические и методические основы. Обоснована необходимость применения современных технологий в практике с целью повышения профессионального потенциала, способности к решению проблемных ситуаций и развития творческого мышления будущих учителей.

ЦЕЛЬ: цель данного исследования — совершенствование методики, направленной на развитие профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов с использованием возможностей цифровых технологий. В рамках исследования разработаны механизмы формирования знаний, умений и навыков, необходимых для педагогической деятельности с применением современных цифровых средств.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании изучен процесс развития профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов с

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

использованием цифровых технологий. Использованы как теоретические, так и практические методы: анализ педагогической и методической литературы, изучение научных источников по современным цифровым образовательным технологиям, сопоставление передового опыта, а также анкетирование, интервью и наблюдение за студентами педагогических вузов. На эмпирическом этапе были проведены экспериментальные занятия и дана оценка эффективности разработанной методики.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе исследования установлено, что учебные занятия, организованные на основе цифровых технологий, способствуют развитию самостоятельного мышления студентов, их способности к самообучению и формированию информационно-коммуникационных компетенций. Использование таких интерактивных платформ, как Google Classroom, Moodle, LearningApps делает занятия более эффективными и интересными. Результаты эксперимента подтвердили, что цифровой методический подход играет важную роль в формировании у будущих учителей гибких, современных и технологичных методов преподавания, адаптированных к потребностям учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для подготовки будущих учителей начальных классов, соответствующих современным требованиям — цифрово грамотных, креативных и обладающих педагогическим мастерством, необходимо кардинально совершенствовать методику преподавания технологического образования. Это достигается не только за счёт теоретических знаний, но и путём внедрения креативных подходов, интеграции цифровых средств, эффективного обмена информацией между студентом и преподавателем. Предлагаемые методические подходы открывают новые горизонты в повышении качества уроков, интереса учащихся и уверенности преподавателей в себе.

Ключевые слова: образование, кадры, информационно-коммуникационные технологии, цифровые технологии, когнитивная активность, начальное образование, цифровизация.

Для цитирования: Бердиев М.М. Совершенствование методики развития профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов на основе цифровых технологий (на примере дисциплины «технологическое образование и методика его преподавания»). // Inter education & global study. 2025, №6. С. 248–255.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES (ON THE EXAMPLE OF THE SUBJECT “TECHNOLOGY EDUCATION AND ITS TEACHING METHODOLOGY”)

© Mukhiddin M. Berdiyev[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

INTRODUCTION: this scientific work focuses on improving the methodology for developing the professional competence of future primary school teachers through digital technologies. Specifically, within the framework of the subject "Technology Education and its Teaching Methodology," digital tools, platforms, educational programs, and interactive approaches are analyzed. The study aims to enhance the effectiveness of teaching pedagogical technologies based on didactic and methodological foundations. The integration of modern technologies into practice is justified as a means to improve teachers' professional potential, problem-solving skills, and creative thinking.

AIM: the main purpose of this research is to improve a methodology aimed at developing the professional competence of future primary school teachers by effectively utilizing the capabilities of digital technologies. The study develops mechanisms for forming the knowledge, skills, and abilities necessary for teaching through modern digital tools.

MATERIALS AND METHODS: the study investigated the process of developing the professional competence of future primary school teachers through digital technologies. Both theoretical and practical research methods were used, including analysis of pedagogical and methodological literature, review of academic sources on digital educational technologies, comparison of best practices, surveys, interviews, and classroom observations. During the empirical stage, experimental lessons were conducted, and the effectiveness of the developed methodology was assessed.

DISCUSSION AND RESULTS: the research showed that lessons conducted with the support of digital technologies significantly enhance students' independent thinking, self-directed learning, and information-communication competencies. The use of interactive platforms such as Google Classroom, Moodle, and LearningApps makes the lessons more effective and engaging. Experimental results confirmed that digital methodological approaches are crucial in helping future teachers develop flexible, modern, and technology-based teaching practices tailored to student needs.

CONCLUSION to prepare future primary school teachers who meet modern standards — digitally literate, creative, and pedagogically skilled — it is essential to fundamentally improve the methodology of teaching technology education. This can be achieved not only through theoretical knowledge but also via the integration of creative approaches, digital tools, and effective information exchange between student and teacher. The proposed methodological approaches open new horizons for enhancing lesson quality, student engagement, and teacher self-confidence.

Key words: education, personnel, information and communication technologies, digital technology, cognitive activity, primary education, digitalization.

For citation: Mukhiddin M. Berdiyev. (2025) 'Improving the methodology for developing professional competence of future primary school teachers through digital technologies (on the example of the subject "Technology Education and its Teaching Methodology")', Inter education & global study, (6), pp. 248–255. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

XXI asrda ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga samarali joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim olish sifatini oshirish va o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iboratdir.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu ehtiyoj yana-da muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda o‘quvchilarda asosiy bilim, ko‘nikma va dunyoqarash shakllanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda texnologiya ta’limi va uni zamonaviy metodik asoslarda o‘qitish muhim rol o‘ynaydi. Bunday ta’lim, faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosli yondashuv va raqamli vositalardan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun pedagogik ta’lim muassasalarida texnologiya fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni integratsiyalash o‘qituvchi sifatida shakllanayotgan talabalar uchun zamon talablari darajasida bilim va ko‘nikma berishda muhim vositaga aylanmoqda. Ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar, ularning samaradorligi hamda texnologiya ta’limi fani orqali bu jarayonda yuzaga chiqadigan yangiliklar tahlil qilinadi.

1.Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim sohasining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun interaktiv metodlar, multimediali resurslar, sun’iy intellekt yordamida tuzilgan mashqlar va virtual laboratoriyalar ta’lim sifati va natijadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, bu metodikani yangilash va takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

2. Kasbiy kompetentlik mazmuni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi quyidagi elementlardan iborat: Pedagogik-psixologik tayyorgarlik axborot-kommunikatsion texnologiyalarni bilish va qo‘llay olish .Didaktik yondashuvlar orqali darsni loyihalash ijodiy va tanqidiy fikrlash Innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmasi

3. Texnologiya ta’limi fanining o‘rni “Texnologiya ta’limi” fani o‘quvchiga mehnat faoliyati, texnikaviy fikrlash, konstruktorlik va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu fanni raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘qituvchi: O‘quvchilarda ijodiy yondashuvni shakllantiradi, Raqamli vositalar orqali tayyorlanadigan loyihalarni o‘rgatadi, Virtual sinf muhiti va masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan foydalanadi.

4. Raqamli texnologiyalarni joriy etish metodikasi Takomillashtirilgan metodika quyidagilarga asoslanadi: Blended learning (aralash o‘qitish) modelidan foydalanish Google Workspace, ClassDojo, Kahoot, Quizizz kabi vositalardan foydalanish Elektron portfoliolar, raqamli laboratoriyalarni joriy qilish

1.Kasbiy kompetentlik va uning zamonaviy talqini

Kasbiy kompetentlik – bu nafaqat kasbga oid bilim va ko‘nikmalarga egalik qilish, balki ulardan real o‘quv muhitida samarali foydalanish qobiliyatidir. Raqamli asrda bu kompetentlikka quyidagilar kiradi: raqamli savodxonlik, innovatsion fikrlash, interaktiv vositalardan foydalanish, masofaviy o‘qitish usullariga moslashuv va boshqalar.

2. Raqamli texnologiyalarning o‘qituvchi tayyorlashdagi roli

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Interaktiv taqdimotlar, onlayn sinflar, QR kodli topshiriqlar, AR/VR texnologiyalar, video darslar – bularning barchasi o‘qituvchini zamonaviy muhitda samarali ishlashga tayyorlaydi. Raqamli vositalardan to‘g‘ri va metodik jihatdan asoslangan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning ishonchini oshiradi.

3. Texnologiya ta’limining o‘rni Bu fan orqali o‘qituvchilar darsga texnik vositalarni kiritishni, modellashtirishni, mehnat elementlarini o‘rgatishni, ijodiy ishlar tuzishni o‘rganadilar. Raqamli yondashuv bilan boyitilgan texnologiya ta’limi esa nafaqat pedagogik kompetentlikni, balki innovatsion va kreativ yondashuvni ham rivojlantiradi.

4. Metodikani takomillashtirish zaruratiAmaldagi metodikalar ko‘p hollarda an’anaviy yondashuvlarga asoslangan. Zamonaviy talablarga javoban, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalashgan holda yondashuvni ishlab chiqish va uni doimiy yangilab borish dolzarbdir. Bu metodika raqamli vositalar asosida mashg‘ulot tuzish, baholash, kommunikatsiya va ko‘nikma shakllantirish bosqichlarini qamrab oladi.

Jahonda yuz berayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida fanlarda yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi hamda fanlararo integratsiyaning jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborotlar, xususan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yilgan talablarning ortishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitlarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion va integratsion texnologiyalarni joriy qilish, axborotlarni uzatishda fanlararo aloqadorlik tamoyillariga qat'iy amal qilish muammolari yuzaga kelmoqda. Natijada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining innovatsion va integratsion texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyatini oshirmoqda. Dunyo miqyosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmuni, ijtimoiy va tabiiy yaxlitlik sifatida real dunyoning mavjudligi va rivojlanishi qonunlari, uning elementlari o'rtasidagi asosiy aloqalar va munosabatlarning tabiati haqida tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, innovatsion fikrlashni rivojlantirish muammosining o'ziga xos xususiyatlari, ta'limni tashkil etish jarayonida innovatsiya va integratsiya muammolari, integratsiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini ta'lim jarayonini tashkil etishning innovatsion va integratsion texnologiyalari, jumladan, integratsiya jarayonlarining qonuniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitish dolzarb vazifalarga aylanmoqda. Mamlakatimizda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, tabaqalashtirish, variativ o'quv rejalari, fanlarni o'qitishda o'quvchilarni hayotga tayyorlash tamoyillarini keng joriy qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Pedagogika sohasi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun zamonaviy o'quv jarayoni vositasi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalarni qo'llash nazariyasi va metodologiyasini joriy etish..." vazifalari belgilanib, talabaning aqliy, intellektual va jismoniy kuchlarini raqamli texnologiyalar orqali ma'lum bir maqsadga yo'naltirish, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirish, bilimlarni, dizaynni, kommunikativ-nutq hamda tashkiliy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

texnologiyalardan foydalangan holda nazariy bilim, amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar asosida fanlararo integratsiyaning samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2022-yil 6-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026- yillarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan kompleks islohotlarda faol ishtirok etishini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarni tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy o'quv jarayoni vositasi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik shart-shartlari, boshlang'ich sinflarda qo'llashning alohida ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas. Raqamli texnologiyalar bizning davrimizda tez va shiddat bilan bilan rivojlanayotgan, hozirgi kunning dolzarb, lekin juda samarali usullaridan biri sifatida rivojlanayotgan vositalar tizimidir. Zamonaviy o'quv jarayoni vositasi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalarini ta'lim texnologiyalarida foydalanishni amalga oshirishda o'qituvchilar jamoasi qat'iy sa'y-harakatlar olib borishmoqda. Pedagogik ijodning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xususiyatiga bog'liqdir. Pedagogik faoliyat - bu inson shaxsiyatini, uning dunyoqarashini, e'tiqodini, ongini, xarakterini shakllantirish kabi umumiy maqsadga bo'ysunadigan bir qator pedagogik muammolarni hal qilish jarayonidir. O'qituvchining ijodiy faoliyati ta'lim usullarini izlashda va ushbu muammolarga yechim topish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Pedagogik ijod manbayi pedagogik tajribadir. Hozirda raqamli pedagogika juda muhim masala hisoblanadi. Uning asosiy xarakteristikasi - ko'rgazmalilik, oshkoralik, izchillikdir. Yagona obyektiv talab - bu insonning intellektual rivojlanishi va tarbiyasi haqidagi bilim darajasidir. Yangiliklar, shuningdek, yangi fikrlarning shakllanishi tashabbus va raqamli texnologiyaga asoslangan bo'lib, ta'lim mazmunini yaxshilashga qaratilgan. Umuman olganda, bu o'rganish tuzilishi va tartibini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni axborot texnologiyalari bilan boyitish nafaqat mavjud o'qitish usullari va texnologiyalarini o'zgartiradi, yaxshilaydi, balki kompyuterlar, planshetlar, dasturiy ta'minot va apparat vositalari, video va telekommunikatsiyalar, maxsus uskunalar, shuningdek, turli xil ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlaridan foydalanish bilan bog'liq yangiliklarini shakllantiradi. Maqsad hamda vazifalarni tanlashda pedagogik integratsiyani amalga oshirishning qonuniyatlari va xususiyatlari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

g'oyalar birligini ta'minlash, bilimlarni yagona o'qitish metodikasi va vositalari asosida mustahkamlash uchun amalga oshiriladigan integratsiyaning mantiqiy mazmunini talab qiladi. Ta'lim jarayonida fanlararo bog'liqlik sharoitida talabalar bilimlarining samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning bilim qobiliyatlari, faolligi, qiziqishlari va intellektual salohiyati oshadi. O'quv jarayonida fanlarning integratsiyasi, ya'ni fanlararo aloqa talabalarning bilimlarini, shuningdek ularning bilish qobiliyatlari, faoliyati, qiziqishlari, intellektini samarali rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quv darslarida fanlararo muloqot qilish imkoniyati talabalarni faktlarni tahlil qilishga, hodisalar va jarayonlarni o'rganishda sabab-oqibat tabiatini tushunishga, ilgari olingan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashga tayyorlaydi, shuningdek, boshlang'ich maktabda fanlarning integratsiyasini oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son
2. 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son
3. 2022-yil 6-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026- yillarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari
4. Ruzimatov, J. (2024). THE ROLE OF USING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN METHODICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. Евразийский журнал академических исследований, 4(3 Part 2), 109-113.
5. Rozimatov, J. (2023). ENHANCING THE METHODOLOGY FOR UTILIZING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AMONG FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS (USING NATURAL SCIENCE AS AN EXAMPLE). Евразийский журнал академических исследований, 3(12 Part 2), 11-13.
6. Ravshan, A., Sirojiddin, G., Azamat, Z., & Gulizahro, T. (2023). DEVELOPING EFFECTIVE APPROACHES TO THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(6), 53-55.
7. Abdullayeva Q. va b. O'qish kitobim. 2- sinf, T., 2021.
8. Abdullayeva Q., va boshqalar "Savod o'rgatish darslari" T., "O'qituvchi", 1996
9. Abdullayeva Q. va b. 2- sinfda o'qish darslari. T., 2014.
10. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2016.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Berdiyev Muxiddin Maxmuduvich**, boshlang’ich ta’lim kafedrasi o’qituvchisi, [**Бердиев Мухиддин Махмудович**, преподаватель кафедры начального образования], [**Berdiyev Mukhiddin Makhmudovich**, Lecturer, Department of Primary Education], manzil: Termiz tumani, “Yangiobod” mahallasi, At-Termiziy ko‘chasi, 1A-uy [адрес: Термизский район, махалля “Янгиобод”, улица Ат-Термизий, дом 1А], [address: Termiz District, “Yangiobod” neighborhood, At-Termiziy Street, House 1A].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

SIRTNING UMUMIY VAZIYATDAGI TEKISLIK BILAN KESISHISH MASALALARINI IFODALASHGA METODIK YONDASHUV

© O.S.Inoyatov[1]✉

[1]Guliston davlat pedagogika instituti, Guliston, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada "sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishi" mavzusini o'rganish jarayonida talabalar duch keladigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari tahlil qilingan. shuningdek, metrik masalalarni yechish orqali fazoviy tasavvurni rivojlantirish, bosqichma-bosqich yechish algoritmlarining samaradorligi ko'rsatib berilgan.

MAQSAD: ushbu maqola variativ yondoshuv asosida talabalarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishga qaratilgan masalalarni tahlil qilish, optimal metodlarni yaratish hamda ta'lim jarayonida ularni qo'llashga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy adabiyotlar tahlili- sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishish masalalarini ifodalashga metodik yondashuv bo'yicha darslik, o'quv qo'lanmalar va ilmiy maqolalar o'rganildi.

empirik tadqiqotlar- tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalish o'qituvchilari va talabalari bilan eksperimental mashg'ulotlar o'tkazib, natijalar baholandi.

taqqoslash va kuzatish – turli metodlarning samaradorligi baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: "sirtlarning umumiy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishishi" mavzusi doirasida ishlab chiqilgan variativ topshiriqlar tahlili shuni ko'rsatdiki, turli shakl va variantlardagi masalalar garchi bir xil shart va algoritm asosida yechilsa-da, ularni idrok etish va tasavvur qilish darajasi farq qiladi. ayniqsa, proyeksiyalar fazosining turli choraklarida ishlash zaruriyati talabalardan chuqurroq fazoviy tasavvur, grafik savodxonlik va metodik ko'rsatmalarga asoslangan yondashuvni talab qiladi.

shuningdek, aylanish sirtlari bilan bog'liq masalalar talabalardan nafaqat nazariy bilimni, balki grafik tasvirlash texnikasini puxta o'zlashtirishni ham talab etadi. ayniqsa, haqiqiy kattalikni aniqlashda qo'llaniladigan geometrik qurilmalar va proyeksiyalash usullari mashqlar asosida mustahkamlanadi.

XULOSA: tahlil va muhokamalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-grafik topshiriqlarning variativ berilishi — talabalar tasavvurini turlicha shakllantirishga xizmat qiladi. masala sharti bir xil bo'lsa-da, proyeksiyalashda turli choraklarda ishlash ko'nikmalarini hosil qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

-kesim chizifini aniqlash, kesim shaklini haqiqiy kattaligini va kesilgandan keying yoyilmasini yasash — talabalarni aniqlik, ketma-ketlik va metodik qurilishlar asosida ishlashga o‘rgatadi. bunday masalalar mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shadi.

-nazariy va amaliy bilim uyg‘unligi — ayniqsa aylanish sirtlarida tekislik bilan kesishishni tasvirlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. bu jarayon talabalar grafik madaniyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

-metodik ko‘rsatmalarning ahamiyati — grafik topshiriqlarni to‘g‘ri, mustaqil va aniq bajarishda metodik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. bu esa mustaqil o‘qish malakasini oshiradi.

umuman olganda, mazkur mavzuga oid grafik topshiriqlar “sirtlarning umumiy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishishi” bo‘yicha chuqur bilim, mustahkam malaka va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlari: proyeksiyalash, proyeksiyalovchi tekislik, umumiy vaziyatdagi tekislik, sirt, aylanish sirtlari, kesim chizig‘i, tekislik izi, yoyilma.

Iqtibos uchun: Inoyatov O.S. Sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishish masalalarini ifodalashga metodik yondashuv// Inter education & global study. 2025. №6. B.256-269.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПОСТАНОВКЕ ЗАДАЧ ПЕРЕСЕЧЕНИЯ ПОВЕРХНОСТИ С ПЛОСКОСТЬЮ В ОБЩИХ УСЛОВИЯХ

© О.С.Иноятов[1]✉
[1]Гулистанский государственный педагогический институт, Гулистан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье проанализированы проблемы, с которыми сталкиваются студенты при изучении темы «Пересечение плоскости с поверхностью в общем положении», а также методы их устранения. Кроме того, показана эффективность пошаговых алгоритмов решения и развитие пространственного воображения через решение метрических задач.

ЦЕЛЬ: настоящая статья направлена на анализ задач, способствующих развитию пространственного воображения студентов на основе вариативного подхода, разработку оптимальных методик и их применение в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ научной литературы — изучены учебники, учебные пособия и научные статьи по методическому подходу к решению задач пересечения поверхности с плоскостью в общем положении.

Эмпирические исследования — проведены экспериментальные занятия с преподавателями и студентами направлений изобразительного искусства и инженерной графики, результаты были оценены.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Сравнение и наблюдение — оценивалась эффективность различных методик.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ вариативных заданий, разработанных в рамках темы «Пересечение поверхностей с плоскостями в общем положении», показал, что несмотря на единые условия и алгоритмы решения, восприятие и представление задач различной формы и вариантов отличаются. Особенно выполнение заданий в различных четвертях пространства проекций требует от студентов более глубокого пространственного воображения, графической грамотности и методически обоснованного подхода.

Кроме того, задачи, связанные с поверхностями вращения, требуют от студентов не только теоретических знаний, но и глубокого освоения техник графического изображения. Особенно важно закрепление навыков через практические упражнения при использовании геометрических построений и методов проецирования, применяемых для определения истинных размеров.

ВЫВОДЫ: на основе анализа и обсуждения можно сделать следующие выводы:

• Вариативная подача графических заданий способствует формированию различного типа воображения у студентов. Несмотря на одинаковое условие задачи, выполнение построений в различных четвертях проекционного пространства формирует навыки пространственного мышления.

• Определение линии сечения, построение формы сечения в истинных размерах и развертки после сечения — обучают студентов точности, последовательности и работе на основе методических построений. Такие задачи вносят значительный вклад в повышение эффективности самостоятельного обучения.

• Сочетание теоретических и практических знаний особенно ярко проявляется при изображении пересечения поверхностей вращения с плоскостью. Этот процесс является важным инструментом формирования графической культуры студентов.

• Значение методических указаний — показывает необходимость методического подхода для правильного, самостоятельного и точного выполнения графических заданий. Это способствует развитию навыков самостоятельного обучения.

В целом, графические задания по данной теме способствуют формированию глубоких знаний, прочных навыков и практических умений по теме «Пересечение поверхностей с плоскостью в общем положении».

Ключевые слова: проецирование, проецирующая плоскость, плоскость в общем положении, поверхность, поверхности вращения, линия сечения, след плоскости, развертка.

Для цитирования: Иноятов О.С. Методический подход к выражению задач пересечения поверхности с плоскостью в общей ситуации // Inter education & global study. 2025. №6(1). С. 256-269.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

METHODOLOGICAL APPROACH TO STATEMENT OF PROBLEMS OF INTERSECTION OF A SURFACE WITH A PLANE IN GENERAL CONDITIONS

© Odiljon S. Inoyatov[1]✉
[1]Gulistan State Pedagogical Institute, Gulistan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the challenges students face when studying the topic “Intersection of a surface with a plane in general position” and methods for overcoming them. It also demonstrates how solving metric problems can develop spatial imagination and highlights the effectiveness of step-by-step solution algorithms.

AIM: the aim of this article is to analyze problems aimed at developing students’ spatial imagination based on a variative approach, to create optimal methods, and to implement them in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: analysis of scientific literature – Textbooks, manuals, and scientific articles related to methodological approaches for representing the intersection of a surface with a plane in general position were studied.

Empirical research – Experimental sessions were conducted with teachers and students of fine arts and engineering graphics disciplines; the results were evaluated.

Comparison and observation – The effectiveness of various methods was assessed.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis of variative tasks developed within the topic “Intersection of surfaces with planes in general position” showed that, although the problems are solved using the same conditions and algorithms, the level of perception and spatial understanding varies. Particularly, working in different quadrants of the projection space requires students to demonstrate deeper spatial imagination, graphic literacy, and a methodologically grounded approach.

Moreover, problems involving surfaces of revolution demand from students not only theoretical knowledge but also a solid command of graphical representation techniques. In particular, geometric constructions and projection methods used to determine the true size are reinforced through practical exercises.

CONCLUSION: based on the analysis and discussion, the following conclusions can be drawn:

• Variative presentation of graphical tasks helps shape students' imagination in diverse ways. Even with the same problem condition, it builds skills in working within different quadrants of the projection space.

• Determining the cutting line, constructing the true shape of the section, and drawing its development after cutting teaches students to work based on accuracy, sequence, and methodological constructions. Such problems significantly enhance the effectiveness of independent learning.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

• The integration of theoretical and practical knowledge becomes especially evident when representing intersections of surfaces of revolution with planes. This process plays a key role in forming students' graphic culture.

• The importance of methodological guidance is confirmed by the necessity of a structured approach to completing graphic tasks independently, accurately, and correctly. This contributes to the development of students' self-learning skills.

In general, graphical tasks related to this topic serve to develop deep knowledge, strong skills, and practical competencies in the field of "Intersection of surfaces with planes in general position."

Keywords: projection, projecting plane, plane in general position, surface, surfaces of revolution, cutting line, trace of a plane, development.

For citation: Odiljon S. Inoyatov. (2025) A methodological approach to expressing the problems of intersection of a surface with a plane in a general situation// Inter education & global study (6) P. 256-269. (In Uzbek)

60110500 – "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun "Chizma geometriya" fani bo'yicha o'quv dasturiga kiritilgan mavzular darsliklarda mufassal yoritilgan bo'lib, o'quv qo'llanmalarda esa ushbu mavzular yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar ham taqdim etilgan.

Talabalar "Sirtlar" bo'limini o'rganishda "Sirtlarning umumiy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishishi" mavzusidagi ma'ruzadan olgan nazariy bilimlarini, amaliy mashg'ulotlarda mustahkamlashi va masala yechishdagi malakadan ko'nikma darajasigacha chiqishda grafik masalalarning ilmiy ifodalanishining ahamiyati juda o'rinlidir. Shu bois sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishiga doir masalalarni ifodalashga metodik yondashuv ehtiyoji mavjud bo'ladi.

Sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishi masalalariga oid topshiriqlarni ifodalashda, albatta tekisliklarni ortogonal proyeksiyalarda berilishi haqidagi bilimlarga ega bo'lish lozim. Sababi shundaki grafik masalalarni ifodalashda sirtlarni kesuvchi umumiy vaziyatdagi tekisliklar, bir to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lmagan uchta nuqtaning, bir to'g'ri chiziq va unga tegishli bo'lmagan nuqtaning, ikki parallel yoki kesishuvchi to'g'ri chiziqlarning, shuningdek tekis geometrik shakllarning ortogonal proyeksiyalari bilan va tekislikning izlari bilan beriladi. Bundan tashqari umumiy vaziyatdagi tekislik sirtga nisbatab tutgan o'rni va holati ham masalani oddiydan-murakkablikka darajalash imkonini beradi.

Talabalarning "Sirtlarning umumiy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishishi" mavzusida auditoriyada olgan bilimlarini mustaqil ravishda chuqurlashtirishlari uchun metodik jihatdan puxta ishlab chiqilgan grafik masalalar to'plami va amaliy ko'rsatmalarga ehtiyoj mavjud bo'ladi. Ayniqsa, fan bo'yicha o'zlashtirishning qariyib 50 foizi mustaqil ta'lim shaklida amalga oshirilishini inobatga olganda, mazkur maqolada ko'tarilgan masalaning dolzarbligi yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

“Sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishi” mavzusi bo‘yicha Sh.Murodov umumiy tahriri asosida nashr etilgan “Chizma geometriya kursi” darsligida quyidagi masalalar keltirilgan: 1-masala, To‘g‘ri doiraviy silindrning $Q(Q_H, Q_V)$ tekislik bilan kesishish chizig‘ini proyeksiyalari yasalsin (9.21-rasm). 2-masala, To‘g‘ri doiraviy konusning berilgan tekislik bilan kesishuvidagi kesim yuza proyeksiyalari yasalsin (9.22-rasm). 3-masala, Shar sirtining $Q(a \cap b)$ tekislik bilan kesishishidagi kesim yuzaning proyeksiyalari yasalsin (9.23-rasm). 4-masala, H tekislikda joylashgan to‘g‘i doiraviy silindrning ixtiyoriy vaziyatdagi $P(P_H, P_V)$ tekislik bilan kesishishidagi kesim yuza proyeksiyalari yasalsin (9.24-rasm). 5-masala, Asosi V tekislikda joylashgan to‘g‘i doiraviy konusning $P(P_H, P_V)$ tekislik bilan kesishishidagi kesim yuza proyeksiyalari yasalsin (9.25-rasm). [1;200-205-b]. Darslikdagi ushbu masalalarda sirtni kesuvchi umumiy vaziyatdagi tekisliklar o‘zaro parallel ikki to‘g‘ri chiziqlarning proyeksiyalari bilan, o‘zaro kesishuvchi to‘g‘ri chiziqlarning proyeksiyalari bilan va tekislikning izlari bilan berilgan. Sirt bilan tekislikning kesishish chizig‘ini yasashda ishtirok etadigan proyeksiyalovchi tekislikni to‘g‘ri qo‘llash ko‘rsatilgan. Beshta masalada ham umumiy vaziyatdagi tekislik bilan proyeksiyalovchi tekislikning kesishish chizig‘i- to‘g‘ri chiziq kesmasi birinchi chorakda hosil bo‘ladi. Masalalarda to‘g‘i doiraviy silindr, konus va sharlar ordali misol keltirilgan. Kesim chizig‘ni yasashda tekislikka tegishli nuqtalarni topishning qulay amallari yoritilgan.

J.Yodgorov muallifligida chiqqan “Chizma geometriya” darsligida “Sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishi” mavzusida 162-shaklda asosi H tekislikda joylashgan to‘g‘ri doiraviy silindr umumiy vaziyatdagi $P(P_H, P_V)$ tekislik bilan kesishishi ko‘rsatilgan. 165-shaklda aylanish sinning umumiy vaziyatdagi $P(P_H, P_V)$ tekislik bilan kesganda hosil bo‘ladigan kesim chizig‘i proyeksiyalarini yasash ko‘rsatilgan. [2;166-172-b]. Ikkala misolda ham sirtni kesuvchi tekisliklar, tekislikning izlari bilan berilgan. Sirt bilan tekislikning kesishish chizig‘ini yasashda ishtirok etadigan proyeksiyalovchi tekislik, berilgan umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishidan hosol bo‘ladigan to‘g‘ri chiziq kesmasi birinchi chorakda bo‘ladi. Kesim yuzasini yasashda tekislikka tegishli nuqtalarni topish ko‘rsatib berilgan.

U.Abdullayev muallifligida chiqqan “Chizma geometriya va chizmachilik asoslari” darsligida “Sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishi” mavzusida quyidagi masalalar keltirilgan. 3-masala, Doiraviy silindr bilan umumiy vaziyatdagi Σ $(a \cap b)$ tekislikning kesishgan chizirini yasash kerak (235-shakl). 4-masala. Konus sirti bilan ixtiyoriy $\Sigma(\Sigma_H, \Sigma_V)$ tekislikning kesishish chizig‘ini topish kerak (236-shakl). 3-masalada umumiy vaziyatdagi Σ tekislik o‘zaro kesishuvchi ikki to‘g‘ri chiziq orqali berilgan. 4-masalada umumiy vaziyatdagi Σ tekislikning izi bilan berilgan. [3;161-165-b]. Ikkala masalada ham sirt bilan tekislikning kesishishidan hosil bo‘ladigan kesim yuzasining simmetrik o‘qini beruvchi to‘g‘ri chiziq kesmasining ikkala uchi ham birinchi chorakka tegishlidir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3


A. Valiyevning “Chizma geometriya” II-qism (Grafik vazifalarni bajarishga oid metodik tavsiyalar va variantlar) nomli metodik qo‘llanmasida “Sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishi” mavzusiga doir uslubiy ko‘rsatmalar hamda majburiy grafik ishlarga oid individual variantlar keltirilgan.

Individual variantlar tahlil qilinganda, kesim yuzasini hosil qilishda bajariladigan simmetrik o‘q — ya’ni, berilgan umumiy vaziyatdagi tekislikning iziga perpendikulyar o‘tkazilgan proyeksiyalovchi tekislik bilan kesishish chizig‘i — ni hosil qiluvchi to‘g‘ri chiziq kesmasining uchi birinchi chorakda, ikkinchi uchi esa boshqa choraklarda joylashgan topshiriqlar mavjud. Bunday variantlar talabalar fazoviy tasavvurlarini kengaytiradi, grafik savodxonligini oshiradi, shuningdek, fikrlash va idrok etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Yuqorida qayd etilgan darslik va qo‘llanmalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishish masalalarini o‘rgatishda metodik yondashuv zarur. Ushbu yondashuvni quyidagi masalalar asosida tahlil va taqqoslash orqali ko‘rib chiqamiz:


1-masala. To‘g‘ri doiraviy silindr umumiy vaziyatdagi $P(P_H, P_V)$ tekislik bilan kesilgan. Kesim shaklining proyeksiyalarini yasab, uning haqiqiy kattaligi aniqlansin (1-shakl: *a, b, c*). Masala sharti barcha hollarda bir xil bo‘lsa-da, $P(P_H, P_V)$ tekislikning proyeksiyalar tekisliklariga nisbatan og‘ish burchagi turlicha.

1-shakl, *a*. dagi topshiriqni talaba darslik va o‘quv qo‘llanmalarga asoslanib mustaqil yecha oladi. Ammo 1-shakl, *b* va *c*. dagi variantlar talabadan masala mohiyatini chuqur anglash, fazoviy tasavvur qilish va epyurda to‘g‘ri tasvirlash malakalarini talab qiladi. Talabada bu ko‘nikmalar to‘liq shakllanmagan bo‘lsa, masalani to‘g‘ri yechish uchun uslubiy ko‘rsatmalarga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Shu tarzda, topshiriq talaba oldiga muammo qo‘yadi va uni mustaqil hamda ijodiy izlanishga undaydi.



a) *b)* *c)*

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3




a) *b)* *c)*

1-shakldagi barcha topshiriqlarda umumiy vaziyatdagi tekisliklar uzlari bilan berilgan. Mazkur masalalarda umumiy vaziyatdagi tekisliklar boshqa usullar bilan ham — 2-shakl, *a, b, c.* dagi kabi — berilishi mumkin. Buni ham to‘g‘ri doiraviy silindr misolida ko‘rib chiqamiz:

- 2-shakl, *a*. da tekislik o‘zaro parallel ikki to‘g‘ri chiziq orqali;
- 2-shakl, *b*. da o‘zaro kesishuvchi ikki to‘g‘ri chiziq orqali;
- 2-shakl, *c*. da esa uchburchak ko‘rinishidagi geometrik shakl orqali ifodalangan.


Ushbu tekisliklarning turlicha berilishi aylanish sirtlari, ikkinchi tartibli aylanish sirtlari va chiziqli aylanish sirtlarida qo‘llanib, masalalarning yanada xilma-xil variantlarini yaratish imkonini beradi. Bu esa talabalarni individual, maqsadli topshiriqlar bilan ta’minlash bilan birga, ularning har biri uchun muammoli vaziyatlar yaratish imkonini beradi. 3-shakl, *a, b, c, d.* da bunga oid namunalar keltirilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



a) *b)* *c)* *d)*

Shuningdek, chiziqli aylanish sirtlarining og‘ma vaziyatlaridan namunalar 4-shaklda keltirildi.




a) *b)* *c)*


Adabiyotlar tahlili natijasida shunday xulosaga kelindiki, talabalarning mavzuga doir bilim va grafik savodxonligini oshirish hamda ularga qo‘yilgan ta’limiy muammolarni mustaqil hal qilishlari uchun, darslik va qo‘llanmalardan tashqari, mukammal yondashilgan uslubiy ko‘rsatmalarga ehtiyoj mavjud.

“Sirtning umumiy vaziyatdagi tekislik bilan kesishishi” mavzusiga doir masalalarni ifodalashda, yuqorida qilingan tahlillar asosida taklif etilgan grafik ish topshiriqlariga to‘xtalamiz.


ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



a)



b)



5-shakl, *c.*

Namuna sifatida berilgan 1-shakldagi, *a, b, c* da to‘g‘ri doiraviy silindrni kesuvchi tekisliklar umumiy vaziyatda. Buroq silindrni kesuvchi tekisliklar turlicha ifodalangani bilan, bu masalarni yechishning ketma-ketlik amallari bir xil bo‘lgani bilan *b*, *c* variantlardagi masala, *a* variantdagi masaladan ko‘proq fazoviy tasavvur va grafik sovodxonlik talab etadi. Sababi *b*, *c* variantlardagi masalada boshqa chorakda ham ishlashga to‘g‘ri keladi. Buni 1-masalaning shartiga asosan 5-shakldagi *a, b, c* chizmalarni taqqoslash orqali ko‘raylik.

To‘g‘ri doiraviy konus barcha yasovchilarini kesgan tekislik proeksiyalar tekisligiga nisbatan og‘ma vaziyatda bo‘lsa kesim shakli ellips chizig‘ni hosil qiladi. Demak ellipsni yasash uchun uning katta va kichik o‘qlari yetarli bo‘ladi. Hozirgi ko‘rilayotgan masalada ham kesim shakli ellips chizig‘ni hosil qiladi. Demak, ellipsni katta va kichik o‘qlarini yasashdan boshlaymiz. 5-shakl, *a*. ga qaraymiz. Masalaning algoritimiga asosan silindr asosi aylana markazi *0'* dan *P* tekislikka perpendikulyar gorizontal proyeksiyalovchi *Q* tekislik o‘tkaziladi. Ularning kesishish chizig‘i *MN*(*M'N'*, *M''N''*) topiladi. Kesishish chizig‘ining

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3


gorizontal proyeksiyasi *M'N'* aylanada *A'B'* nuqtani hosil qiladi, uning frontal proyeksiyasi *A"B"* bog‘lovchi va *M"N"* kesishish chizig‘i bilan uchrashishidan hosil qilinadi. Shunda hosil bo‘lgan *AB*(*A'B'*, *A"B"*) ellipsr katta o‘qining proyeksiyalari bo‘ladi. Uning kichik o‘qi *CD*(*C'D'*, *C"D"*), kesim chizig‘ning markazi *0"* dan o‘tkazilgan *T*(T_V) gorizontal tekislik bilan topiladi. Huddi shunday masalaga o‘xshash 5-shakl, *b*. ga qaraylik, *MN*(*M'N'*, *M"N"*) kesim chizig‘ining *M* uchi uchinchi, to‘rtinchi chorak chegarasida ekanligi sabab uning frontal *M"* proyeksiyasi *OX* o‘qidan pastda ko‘rinadi. Buni esa talaba metodik ko‘rsatmalarsiz tasavvur qilishi qiyin bo‘ladi. Yana taqqoslamoqchi bo‘lgan uchinchi variantdagi, 5-shakl, *c*. da silindrning asosi aylana frontal proyeksiyada. Bunday vaziyatda ham proyeksiyalovchi *Q* tekislik silindrning asosi aylana markazi *0"* dan o‘tkazib, tekisliklarning kesishish chiziqi *MN*(*M'N'*, *M"N"*) topiladi. Bu chiziqning *M* uchi ikkinchi, uchunchi chorak chegarasida. Epyurda *M'* nuqtaning proyeksiyasi *OX* o‘qidan yuqorida joylashadi. Uning asosi frontalda bo‘lganligi va *P*(P_H, P_V) tekislik izlari proyeksiyada bitta to‘g‘ri chiziq ko‘rinishda bo‘lib qoilganligi sababli talaba kesim chizig‘i-ellips bo‘lishini biladi. Epyurda yasashga kelganda esa ma’lum bir ko‘makka ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj mukammal ishlangan metodik ko‘rsatmalar bilan qoplanadi. Shunda talaba mustaqil ta’limning samaradorligini his etadi va mustaqil ta’lim yuklamasini sifatli o‘zlashtiradi.

1-masalani shartiga asosan 5-shakl, *c*. varianti bo‘yicha davom ettiramiz (6-shakl).

Kesim shakli-ellipsni katta o‘qi *AB*(*A'B'*, *A"B"*) va kichik o‘qi *CD*(*C'D'*, *C"D"*) proyeksiyalari aniqlangandan so‘ng, silindrning eng chetki yasovchilarini aniqlanadi. Buning uchun aylana markazi *0*(*0'*, *0"*) dan *P* tekislikning gorizontal chizig‘i *KL*(*K'L'*, *K"L"*) o‘tkaziladi. Kesim chizig‘i proyeksiyada ravon chizilishi uchun silindr asosi aylana muntazam 8 yoki 12 qisimga bo‘linadi. Bu masalada boshlang‘ich nuqtasi *A*(*A"*) dan aylana muntazam 8 qisimga bo‘lingan. Shu nuqtalardan tekislikning frontal chiziqlari o‘tkazilib gorizontal proyeksiyada kesim chizig‘iga tegishli *1'2'3'4* nuqtalar va frontalida *1"2"3"4"* nuqtalar aylananing o‘zida bo‘ladi. Topilgan *A2D3LB4C1K* (*A'2'D'3'L'B'4'C'1'K'*) nuqtalar shu ketmaketlikda lekalo leneykasi yordamida ravon tutashtirilib kesim shakli-ellipsning proyeksiyasi hosil qilinadi. Yasalgan ellips chizig‘i silindirning asosini *56*(*5'6'*, *5"6"*) to‘g‘ri chiziq kesmasi bo‘yicha kesadi va kesim yuzasining shaklini hosil qiladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



6-shakl.

Maslaning navbatdagi shartiga ko‘ra kesim shaklining haqiqiy kattaligi yasalishi so‘ralgan. Bu bo‘yich darslik va ko‘llanmalarda ham yasashning turli usullarini ko‘rishimiz mumkin. Bu masala uchun eng optimali, epyurni qayta qurishning parallel harakatlantirish usuli bo‘ladi. Uning yordamida kesim shakli- ellipsning katta o‘qi AB($A'B'$, $A''B''$) ni haqiqiy uzunligi topiladi. Buning uchun AB ning gorizontal proyeksiyasini o‘lchab OX o‘qqa parallel qilib H tekislikka qo‘yiladi va AB ning yangi gorizontal proyeksiyasi $A_1'B_1'$ hosil qilinadi. Bog‘lovchi chiziqlar bilan uning frontal proyeksiyasi $A_1''B_1''$ topiladi. So‘ngra ellipsning kichik o‘qi CD (haqiqiy uzunlikda proyeksiyalangan) AB ning markazidan o‘tkazilgan perpendikulyar chiziqqa simmetrik qo‘yiladi va ellipasning katta, kichik o‘qlari orqali yasaladi. Unga tegishli qolgan nuqtalarni yasalishiga hech qanday hojat qolmaydi. Shu tariqa kesim shakli-ellipisning haqiqiy kattaligi hosil qilindi.

Chizmalarni qiyoslash natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, masalalarning sharti va ularni yechish algoritmi bir xil bo‘lsa-da, tasavvur qilish darajasi turlicha bo‘ladi.

2-shaklning *a, b, c* variantlaridagi topshiriqlarni 1-shaklning *a, b, c* variantlaridagi masalalar bilan qiyoslaganda, quyidagi farq aniqlanadi: 1-shakldagi masalalar tekislikning izlari yordamida yechilgan bo‘lsa, 2-shakldagi masalalarda esa tekislikni hosil qiluvchi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘zaro parallel yoki kesishuvchi to‘g‘ri chiziqlar hamda uchburchak shakli orqali kesim shakli aniqlanadi. Har ikki holatda ham masala sharti bir xil bo‘lib, lekin yechish usuli farqlanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha beriladigan mustaqil va grafik ishlar talabalar tasavvurini rivojlantirib, ularni mashq qilishga yo‘naltiradi.

3-shaklning *a, b, c* variantlaridagi topshiriqlar esa aylanish sirtlari bilan tekislikning kesishish chizig‘ini aniqlashga doir bo‘lib, yuqoridagi 1- va 2-shakldagi masalalardan farqli o‘laroq, bu yerda aylanish sirtining yasovchilari hisobga olinadi. Bu esa nafaqat masalalarning xilma-xilligini, balki talabalardan nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy va grafik savodxonlikni ham talab qiladi.

4-shakldagi topshiriqlarda ham chiziqli aylanish sirtlari bilan bog‘liq masalalar berilgan. Ushbu barcha topshiriqlar “Sirtlarning umumiy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishishi” mavzusi bo‘yicha zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

“Sirtlarning umumiy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishishi” mavzusi doirasida ishlab chiqilgan grafik topshiriqlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, turli shakl va variantlardagi masalalar garchi bir xil shart va algoritm asosida yechilsa-da, ularni idrok etish va tasavvur qilish darajasi farq qiladi. Ayniqsa, 1-shakl, *b* va *c* variantlardagi topshiriqlarda proyeksiyalar fazosining turli choraklarida ishlash zaruriyati talabalardan chuqurroq fazoviy tasavvur, grafik savodxonlik va metodik ko‘rsatmalarga asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Shuningdek, aylanish sirtlari bilan bog‘liq masalalar (3- va 4-shakllar) talabalardan nafaqat nazariy bilimni, balki grafik tasvirlash texnikasini puxta o‘zlashtirishni ham talab etadi. Ayniqsa, haqiqiy kattalikni aniqlashda qo‘llaniladigan geometrik qurilmalar va proyeksiyalash usullari mashqlar asosida mustahkamlanadi.

Tahlil va muhokamalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Grafik topshiriqlarning variantli berilishi — talabalar tasavvurini turlicha shakllantirishga xizmat qiladi. Masala sharti bir xil bo‘lsa-da, proyeksiyalashda turli choraklarda ishlash ko‘nikmalarini hosil qiladi.

2. Kesim chizifini aniqlash, kesim shaklini haqiqiy kattaligini va kesilgandan keying yoyilmasini yasash — talabalarni aniqlik, ketma-ketlik va metodik qurilishlar asosida ishlashga o‘rgatadi. Bunday masalalar mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shadi.

3. Nazariy va amaliy bilim uyg‘unligi — ayniqsa aylanish sirtlarida tekislik bilan kesishishni tasvirlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu jarayon talabalar grafik madaniyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

4. Metodik ko‘rsatmalarning ahamiyati — grafik topshiriqlarni to‘g‘ri, mustaqil va aniq bajarishda metodik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa mustaqil o‘qish malakasini oshiradi.

Umuman olganda, mazkur mavzuga oid grafik topshiriqlar “Sirtlarning umumiy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishishi” bo‘yicha chuqur bilim, mustahkam malaka va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

Sh.K.Murodov, A.A.Xolmurzaev, A.N.Valiyev. Chizma geometriya kursi. “History and page” nashriyoti, 2022.-540 b.

2. J.Yodgorov. Chizma geometriya. “Turon-iqbol” nashriyoti, 2007.-232 b.

3. R.Ismatullayev. Chizma geometriya. Nizomiy nomidagi TDPU, 2003.-110 b.

4. Sh.Abdurahmonov. Chizma geometriya. “Aloqachi” nashriyoti, 2005.-189 b.

5. B.Qilnazarov. Chizma geometriya. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2006.-144 b.

6. A.Karimov. Chizma geometriya. “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2017.-208 b.

7. O.Inoyatov- Chizma geometriyadan masalalar va ularning yechimi, “Ziyo nashr-matbaa”, 2024.-120 b.

8. N.Yakubova, Chizma geometriya. “Ziyo nashr-matbaa”, 2025.-105 b.

9. Pardaboevich, JN. (2023). Sharq mutafakkirlari merosidan ta’lim va tarbiyada foydalanish zarurati. Innovatsiyalar, ijodkorlik va san'at jurnali , 2 (3), 23-28. https://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/108

10. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1489-1494.
https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Inoyatov Odiljon Sobit o`g`li**, o’qituvchi [**Иноятов Одилжон Собит угли,** Старший преподаватель кафедры истории и искусствоведения];**Odiljon S,Inoyatov** Senior lecturer of the Department of History and Art Studies manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston, Talabalar ko'chasi, 49 [адрес: 120100, Сырдарьинская область, г. Гулистан, ул. Студенческая, 49], [address: 120100, Syrdarya region, Gulistan, Students Street, 49];

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

MILLIY TARBIYA ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani misolida)

© Z.M. Sadriddinova[1]✉

[1]Qo`qon davlat universiteti, Qo`qon, O’zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada milliy tarbiya asosida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasi tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar va ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida pedagogik mahoratni shakllantirishning ahamiyati, Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar kontekstida yoritilgan. Tadqiqot natijalari pedagoglarning kasbiy malakasini doimiy oshirish va milliy tarbiya jarayonida samarali faoliyat yuritish zaruratini ko‘rsatadi, bu esa boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

MAQSAD: ushbu maqola milliy tarbiya asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasini tahlil qilish, samarali metod va texnologiyalarni aniqlash, shuningdek, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanida ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini asoslashga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: ilmiy adabiyotlar tahlili – milliy tarbiya, pedagogik mahorat va tarbiyaviy ishlar metodikasi bo‘yicha mahalliy va xorijiy manbalar o‘rganildi. Empirik tadqiqotlar – oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari bilan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi, ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarligi baholandi.

Suhbat va intervyu – tajribali pedagoglar, professor-o‘qituvchilar va talabalardan iborat guruhlar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar tashkil etishdi. Test metodlari – talabalar bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga qaratilgan maxsus diagnostik testlar tuzildi va tahlil qilindi.

Taqqoslash va kuzatish – an’anaviy va milliy tarbiya asosida olib borilgan darslar taqqoslanib, samaradorlik darajalari kuzatildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy tarbiya asosida pedagogik mahoratni shakllantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Suhbat metodining qo‘llanilishi – milliy qadriyatlar, urf-odatlar, oila va jamiyatga oid mavzularda tashkil etilgan suhbatlar talabalar ongida tarbiyaviy tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi, ularni shaxsiy hayotiy tajribasi bilan bog‘laydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Hikoya va badiiy tahlil usuli – xalq ertaklari, tarixiy shaxslar hayoti asosida tuzilgan hikoyaviy matnlar orqali talabalar milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni anglaydi va o‘z faoliyatiga tadbiq eta boshlaydi.

Test metodlari orqali refleksiya – milliy qadriyatlar asosida tayyorlangan test savollari orqali talabalar o‘zining bilim darajasi va munosabatini baholay oladi, shaxsiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasi shakllanadi.

Milliy tarbiyaviy topshiriqlar va loyiha ishlari – talabalar o‘z hududlaridagi urf-odatlar, rasm-rusumlar, ota-onalar tarbiyasi haqidagi loyihalarni ishlab chiqish orqali pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni amaliy jihatdan chuqurlashtiradi.

Mahorat darslarida differensial yondashuv – talabalarning individual salohiyati, madaniy-ijtimoiy tajribasi hisobga olinib, ularning har biriga mos metodik yondashuv tanlandi.

XULOSA: milliy tarbiya asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish samarali metodika yaratish imkonini beradi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanida suhbat, hikoya, test kabi usullardan variativ va kompleks yondashuv asosida foydalanish natijasida: talabalar milliy qadriyatlar asosida shakllangan shaxsiy pozitsiyaga ega bo‘ladi; mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalari rivojlanadi; pedagogik faoliyatga nisbatan ichki motivatsiya va ijtimoiy mas’uliyat hissi kuchayadi.

Mazkur yondashuv oliy ta’lim tizimida pedagogik tayyorgarlikni milliy mafkuraviy ruhda chuqurlashtirish, zamonaviy va milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash yo‘lida muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: milliy, tarbiya, boshlang‘ich ta’lim, pedagog, mahurat, muloqot.

Iqtibos uchun:Sadriddinova Z.M. Milliy tarbiya asosida boshlang`ich ta`lim o`qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasi (tarbiyaviy ishlar metodikasi fani misolida)// Inter education & global study. 2025. №6. B.270-280.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ОТЕЧЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (на примере дисциплины методика обучения)

© З.М. Садриддинова[1]✉
[1]Кокандский государственный университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ. в данной статье анализируется методика развития педагогического мастерства учителей начальных классов на основе национального воспитания. Важность формирования педагогических навыков на основе национальных ценностей и духовно-нравственных принципов подчеркивается в контексте "Концепции непрерывного духовного образования" Кабинета Министров и современных педагогических подходов. Результаты исследования показывают

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

необходимость постоянного повышения профессиональной квалификации педагогов и эффективной деятельности в процессе национального воспитания, что служит повышению качества начального образования.

ЦЕЛЬ. данная статья направлена на анализ методики развития педагогического мастерства будущих учителей начальных классов на основе национального воспитания, выявление эффективных методов и технологий, а также обоснование возможностей их практического применения в науке методики воспитательной работы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проведен анализ научной литературы - изучены отечественные и зарубежные источники по национальному воспитанию, педагогическому мастерству и методике воспитательной работы. Эмпирические исследования - проводились практические занятия со студентами направления начального образования в высших учебных заведениях, оценивалась их готовность к педагогической деятельности. Беседы и интервью - были организованы углубленные беседы с группами, состоящими из опытных педагогов, преподавателей и студентов. Тестовые методы - составлены и проанализированы специальные диагностические тесты, направленные на определение знаний и умений студентов. Сравнение и наблюдение - сравнение уроков, проводимых на основе традиционного и национального воспитания.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что в формировании педагогического мастерства на основе национального воспитания важное значение имеют следующие факторы:

Применение метода беседы - беседы, организованные на темы, связанные с национальными ценностями, традициями, семьей и обществом, служат формированию воспитательных понятий в сознании студентов, связывают их с личным жизненным опытом.

Метод рассказа и художественного анализа - через повествовательные тексты, основанные на народных сказках, жизни исторических личностей, студенты осознают такие качества, как национальная гордость, патриотизм, трудолюбие и начинают применять их в своей деятельности.

Рефлексия посредством тестовых методов - посредством тестовых вопросов, подготовленных на основе национальных ценностей, студенты могут оценить свой уровень знаний и отношения, формируются навыки личного мышления и самостоятельного вывода.

Национальные воспитательные задания и проектные работы - студенты о традициях, обычаях, воспитании родителей в своем регионе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие педагогического мастерства будущих учителей начального образования на основе национального воспитания позволяет создать эффективную методику. В результате использования таких методов, как беседа, рассказ, тест в методике воспитательной работы на основе вариативного и комплексного подхода:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

студенты имеют личную позицию, сформированную на основе национальных ценностей;

развиваются навыки самостоятельного мышления, культуры общения и воспитательного воздействия;

усиливается внутренняя мотивация и чувство социальной ответственности в отношении педагогической деятельности.

Данный подход служит важной методической основой для углубления педагогической подготовки в системе высшего образования в национальном идеологическом духе, обеспечения гармонии современных и национальных ценностей.

Ключевые слова: национальный, воспитание, начальное образование, учитель, навык, общение

Для цитирования: Садриддинова З.М. Методика развития педагогического мастерства учителя начального образования на основе народного образования (на примере дисциплины методика обучения) // Inter education & global study. 2025. №6. С. 270-280.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE PEDAGOGICAL SKILLS OF FUTURE PRIMARY TEACHERS ON THE BASIS OF NATIONAL EDUCATION (on the example of the discipline of educational methodology)

© Zulfiya M. Sadriddinova[1]✉
[1]Kokand State University, Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION. this article analyzes the methodology for developing the pedagogical skills of primary school teachers based on national upbringing. The importance of the formation of pedagogical skills based on national values and spiritual and moral principles is highlighted in the context of the "Concept of Continuous Spiritual Education" of the Cabinet of Ministers and modern pedagogical approaches. The research results show the need for continuous improvement of the professional qualifications of teachers and effective activity in the process of national upbringing, which serves to improve the quality of primary education.

AIM: this article is aimed at analyzing the methodology of developing the pedagogical skills of future primary school teachers based on national education, identifying effective methods and technologies, and substantiating the possibilities of their practical application in the science of educational work methodology.

MATERIALS AND METHODS: an analysis of scientific literature was conducted - domestic and foreign sources on national upbringing, pedagogical mastery, and the methodology of educational work were studied.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Empirical research - practical classes were conducted with students of primary education in higher educational institutions, and their readiness for pedagogical activity was assessed.

Conversations and interviews - in-depth discussions were organized with groups consisting of experienced teachers, instructors, and students.

Test methods - special diagnostic tests aimed at determining students' knowledge and skills were compiled and analyzed.

DISCUSSION AND RESULTS: the research results showed that the following factors are important in the formation of pedagogical skills based on national upbringing:

The use of the conversation method - discussions organized on topics related to national values, traditions, family, and society - serves to form educational concepts in students' minds, connecting them with personal life experiences.

The method of narration and artistic analysis - through narrative texts based on folk tales, the lives of historical figures, students realize such qualities as national pride, patriotism, diligence, and begin to apply them in their activities.

Reflection through test methods - through test questions prepared on the basis of national values, students can assess their level of knowledge and attitudes, develop personal thinking skills and independent conclusions.

CONCLUSION: developing the pedagogical skills of future primary school teachers based on national upbringing allows for the creation of an effective methodology. As a result of using such methods as conversation, storytelling, and testing in the methodology of educational work based on a variable and integrated approach:

students have a personal position formed on the basis of national values;

develops independent thinking skills, a culture of communication and educational influence;

internal motivation and a sense of social responsibility towards pedagogical activity are strengthened.

This approach serves as an important methodological basis for deepening pedagogical training in the higher education system in the national ideological spirit, ensuring the harmony of modern and national values.

Keywords: national, upbringing, primary education, teacher, skill, communication.

For citation: Zulfiya M. Sadriddinova. (2025) Methodology for developing pedagogical skills of primary education teachers based on national education (on the example of the discipline of educational methodology) // Inter education & global study. (6) P. 270-280. (In Uzbek)

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimining oldida turgan asosiy vazifalardan biri – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda, barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu jihatdan qaralganda, milliy tarbiya zamonaviy pedagogik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan taqdirda, nafaqat o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantiradi, balki kelajak o‘qituvchilarning ham kasbiy va pedagogik mahoratini yuksaltirishda muhim omilga aylanadi.

O‘zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va ma’naviy o‘zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilishni boshlab berdi. Endilikda barcha sohani mamlakatning milliy ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib avlod-ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an’analari, urf-odatlari hamda tarixiy tajribalarini hisobga olgan holda rivojlantirish muhim dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bu esa respublikaning milliy davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy kamol toptiruvchi o‘z taraqqiyot yo‘lini rivojlantirish, milliy istiqlol mafkurasini qaror toptirish va uni barcha xalq ommasi ongiga singdirish zaruriyatini taqozo etadi. Bu nafaqat hozirgi avlod taqdiri, balki kelajak avlodlarning taqdiri ham shunga bog‘liq ekanligini anglatadi. Ma’lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta’lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog‘liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan umumdavlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo‘lib, o‘z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shunga ko‘ra yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni esa asosan xalq ta’limi tizimidagi muassasalar va bu muassasalarda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchimurabbiylar bajara oladi.[3]

1.O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda.

Ushbu talablar doirasida ta’lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma’naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

2. O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.
Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiymetodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.[1]

Yuqoridagi yondashuvlardan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi bosqichda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda tarbiyalashda uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi hal qiluvchi o‘rin egallaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tarbiya -“Pedagogiga”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur.

Ilmi axloqning asosi tarbiya o‘ldug‘indan shul hususda bir oz so‘z so‘ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maskini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan asrab o‘sdurmakdur. Tarbiya qilguchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga da’vo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jaxl maraziga”yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘I lozimdur. Zeroki, “Hassinu axloqiko‘m” amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg‘a amr o‘linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadur.[2]

Insonning barcha davrlar va jamiyki ijtimoiy tuzumlarda eng oliy qadriyat deb baholanishi bejiz emas, albatta. Chunki, unda boshqa jonli mavjudotlardan farq qiladigan eng muhim belgilar-ong, aql-idrok, did-farosat, bilim, odob-ahloq, din, tafakkur, hulq, orzu-umid va baht-saodatga intilish, mas’uliyat tuyg‘usi, imon-e’tiqod, maqsad va ehtiros, aqliy kamolot, or-nomus, ishq-muhabbat, g‘urur, nafrat va boshqa ma’naviy javohirlar jamuljamdir.Insonlar hayoti ijtimoiy munosabatlarga asoslangandir. Inson mavjudot sifatida tabiat mahsuli bo‘lsa, ammo odam sifatida u faqat jamiyatda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy munosabatlar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Inson inson bilan tirik. Inson borki hayot bor. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy, taraqqiyot, o‘zgarish va rivojlanishning asosida inson mehnati, uning yaratuvchilik amaliy faoliyati yotadi. Inson mehnati, aql zakovati, istedodi va ijodiyoti - bularning hammasi uning buyukligi, oliy qadriyat ekanligidan nishonadir.[5]

Shuningdek, insonning ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanishi va rivojlanishi, uning oliy qadriyat sifatidagi o‘rni va mehnat orqali o‘z ifodasini topishi muhim ekanligini ochib beradi.

Anton Semyonovich Makarenko’ning “Pedagogik poema” asarida, Makarenko bolalarni jamoa orqali tarbiyalashga e’tibor qaratadi. U jamoaviy mehnat va o‘zaro yordam orqali bolalarda mas’uliyat va intizomni shakllantiradi. Makarenko jamoani “tarbiya vositasi” deb qaraydi. Unga ko‘ra, bola jamoada o‘zining ijtimoiy rolini anglaydi, o‘zining boshqa tengdoshlari oldidagi mas’uliyatli bo‘lib tarbiya topishiga asos bo‘ladi, shaxsiy manfaatlarini jamoaviy qadriyatlarga bo‘ysundirishni tushunib yetadi. Shu orqali bola o‘zini boshqarish, mehnatsevarlik, tartib-intizom, hamkorlik, o‘zaro yordam kabi ijtimoiy fazilatlarni shakllantiradi. Bu yondashuv bolani hayotga tayyorlashning eng real yo‘li sifatida qaraladi.

Bilish faoliyati natijalari: bilim, usul, fikrlash va harakat. Bular oqibatida yangi yuqori natija va yangicha yechimlar topiladi. Ta’lim-tarbiya tashkilotchilari bo’lgan uqituvchilar faoliyatini organishning ko’rsatishicha, ular maxsus bilimlarni yaxshi biladilar, ammo ularning nazariy asoslari, hamda ularni amaliyotda qo’llash va o’qitsuvchilarga yetkazish, tushuntirishda qiynaladilar. Pedagogika va psixologiyaning nazariy asoslarini bilish o’z-o’zicha o’qitish metodikasi bo’yicha o’qituvchining mahoratini belgilanmaydi. O’qituvchi pedagogik mahoratining shakllanishi yoki mavjud bilimlarni ta’lim-tarbiya

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

san’atiga aylanishi faoliyat konkret texnologiyasining namoyon bo’lishi kabi ko’p omillarga bog’liq[4].

Milliy tarbiya orqali talabalarga dars jarayonlarida turli xil metodlardan foydalanildi.

Amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish

Talabalar bilan milliy tarbiya elementlarini o‘z ichiga olgan dars ishlanmalari asosida amaliy darslar tashkil etiladi.

Masalan: “Avloniyning axloqiy qarashlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tarbiya berish” mavzusida dars namunasi.

1. **Kuzatuv**

Talabalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy jarayondagi xatti-harakatlarini kuzatishadi (masalan, sinfdagi intizom, o‘zaro munosabatlar, odob ko‘rsatkichlari).

Kuzatuv varaqalari tuzilib, o‘quvchilarning axloqiy fazilatlari (to‘g‘rilik, sadoqat, mehnatsevarlik.do‘stlik) ni baholash uchun mezonlar belgilanadi.

Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot” degan fikri asosida baholovchi mezonlar belgilanadi.

2. **So‘rovnoma va intervyu**

Talabalar o‘qituvchilar va ota-onalarga Avloniyning axloqiy qarashlari amalda qanday qo‘llanilayotganini aniqlash uchun **so‘rovnoma** o‘tkazadi.

Savollar:

1.“Farzandingizda halollik, odob, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda qanday usullar qo‘llasiz?”

2.farzandingizga do‘stlik tushunchani singdirish uchun aynan qanday amaliy usullardan foydalanasiz?

3. farzandingiz ko‘p yolg‘on so‘zlasa qanday tadbirni qo‘llaysiz?

4.Farzandingizni tarbiyalashda hikoya, ertak, ibratli hikmatli so‘zlardan qay darajada qo‘llaysiz?

Ota-onalarga shu kabi savollar berilib ularning farzand tarbiyasidagi muammo va yutuqlar tahlil qilinadi, real muammolar va yechimlar yuzasidan xulosa chiqariladi.

3. **Eksperiment (tajriba dars)**

Talabalar o‘zlari “Avloniyning axloqiy qarashlariga asoslangan**”** tarbiyaviy mashg‘ulot darsini loyihalashadi va olib borishadi.

Masalan: “Halollik” mavzusida ertak, hikmatli so‘zlar va hayotiy vaziyatlar asosida dars o‘tkaziladi.

Darsdan oldin va keyin o‘quvchilarning fikrlari, qadriyatga munosabati so‘rovnoma orqali o‘lchanadi.

4. **Tahlil va natijalar**

Talabalar tajriba davomida to‘plangan materiallarni statistik va sifatli usullar bilan tahlil qilishadi.

Ular Avloniyning axloqiy qarashlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsini shakllantirishda qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashadi.

Yakuniy xulosa (hisobot uchun)

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Empirik metodlar orqali o‘tkazilgan kuzatuvlar, so‘rovnomalar va tajriba darslar shuni ko‘rsatdiki, Avloniyning axloqiy qarashlari zamonaviy o‘quvchilarda milliy qadriyatlar asosida ijobiy fazilatlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Test metodi — bu ta’lim va tarbiya jarayonida talabalar yoki o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, qobiliyat hamda malakalarini aniqlash va baholash uchun mo‘ljallangan maxsus savollar yoki topshiriqlar jamlanmasidir.

Bu metod yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazadi, o‘qituvchi esa ularning qaysi jihatlarda kuchli yoki zaif ekanligini aniqlaydi.

Test savollari (variantli va qisqa javob):

1. Milliy tarbiya tushunchasi nimani anglatadi?

A) Millatning tarixiy madaniyati
B) Millatning tarbiyaviy qadriyatlari va odatlari asosida shakllangan tarbiya tizimi
C) Millatning iqtisodiy taraqqiyoti
D) Xalqaro ta’lim standartlari

2. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi uchun pedagogik mahorat nima?

A) Faqat nazariy bilimlarga ega bo‘lish
B) Talabalarni baholash qobiliyati
C) Ta’lim va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish qobiliyati
D) Faqat ona tilini mukammal bilish

3. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani nimaga yo‘naltirilgan?

A) Talabalarni sportga jalb qilishga
B) Talabalarni tarbiyalash va ularning axloqiy, ma’naviy, madaniy rivojlanishiga
C) Faoliyatga oid huquqiy bilimlarni oshirishga
D) Matematikani o‘qitishga

4. Milliy tarbiyani rivojlantirishda qaysi usullar muhim hisoblanadi? (Qisqa javob)

5. Pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun o‘qituvchilarda qaysi asosiy sifatlar bo‘lishi kerak? (Qisqa javob)

6. Tarbiyaviy ishlar metodikasida o‘qituvchi qaysi faoliyatlarga ko‘proq e’tibor qaratadi?

A) Dars rejasini tuzishga
B) Talabaning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganishga va ularni tarbiyalashga
C) Faoliyatni nazorat qilishga
D) Sinfni bezashga

7. Pedagogik mahoratning rivojlanishi uchun qaysi faoliyat turi muhim?

A) Faqat kitob o‘qish
B) Amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etish va o‘z ustida ishlash
C) Sinfni bezatish
D) O‘z fikrini boshqalarga majburlash

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsida amaliy ko‘nikmalarning shakllanib borishini ta’minlab, pedagogik mahorat va pedagogik texnika asoslarini egallab olishga xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Aql-zakovat, yuksak madaniyat pedagog uchun dam kasbiy va dam insoniy xislatlarini belgilovchi mudim xususiyatdir. Chunki barkamollikka erishmagan pedagog komil insonni tarbiyalay olmaydi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini milliy tarbiya asosida rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada A. Avloniy pedagogik faoliyatda milliy qadriyatlarni, ma’naviyatni shakllantirishning uzluksizligini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, ta’lim faqat bilim berish emas, balki milliy ruhda tarbiyalash jarayoni bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, pedagogning vazifasi shaxsning nafaqat akademik, balki ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ta’minlashdir.

Pedagogik mahoratni pedagogning o‘z faoliyatini doimiy takomillashtirish orqali tarbiyaviy jarayonda uzluksiz ta’sir ko‘rsatish san’ati sifatida ko‘radi. U pedagogik jarayonning jamoaviy, tizimli va doimiy xarakterini urg‘ulaydi, bu esa boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchining milliy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun muhimdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli qarori “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da pedagoglarning kasbiy mahoratini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida doimiy oshirib borishi zarurligi belgilangan. Qarorda pedagogik mahorat milliy tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘riladi va pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta’kidlanadi.

Mazkur manbalar asosida aytish mumkinki, pedagogik mahoratni milliy tarbiya asosida rivojlantirish — nafaqat o‘qituvchining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, balki milliy madaniyat va axloqiy qadriyatlarni o‘quvchilarga singdirish jarayonini ham doimiy va samarali tashkil etishdir. Bu esa boshlang‘ich ta’limda ta’lim sifati va milliy ruhda tarbiyalashni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi takliflarni beramiz;

1. ***Pedagoglarning uzluksiz malaka oshirish tizimini rivojlantirish*** — boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini milliy tarbiya asosida oshirish uchun doimiy kasbiy rivojlanish kurslari, seminarlar va treninglar tashkil etilishi zarur.
2. ***Milliy qadriyatlarni o‘quv dasturlariga integratsiyalash*** — ta’lim jarayonida milliy madaniyat, tarix va ma’naviyat elementlarini yanada ko‘proq joriy qilish, shuningdek pedagoglarga bu borada maxsus metodik ko‘rsatmalar berish muhim.
3. ***Pedagogik faoliyatda innovatsion metodlarni qo‘llashni rag‘batlantirish*** — o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda zamonaviy texnologiyalar va interfaol usullarni keng joriy etish.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan islohotlar o‘qituvchidan nafaqat kasbiy bilim, balki chuqur pedagogik mahorat va yuksak ma’naviy saviyani talab etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu talablar yanada muhim ahamiyatlidir. Chunki aynan shu davrda o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishi, ma’naviy-axloqiy qarashlari, odob-axloq me’yorlariga bo‘lgan munosabati asos qilib olindi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Pedagogik mahoratni milliy tarbiya asosida rivojlantirish esa o‘qituvchining shunchaki bilim beruvchidan ziyoda — yosh avlodning yetuk inson bo‘lib voyaga yetishida yo‘lboshchi bo‘lishini ta’minlaydi. Bunday yondashuv nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki yosh avlodni jamiyatda faol, vatanparvar va madaniyatli fuqaro bo‘lib kamol topishiga zamin hozirlaydi.

Shunday ekan, o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirish, uni zamonaviy metodlar va milliy tarbiya ruhida boyitish — bu sohadagi ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa ta’lim sifatining yuksalishi va kelajak avlodning sog‘lom shakllanishiga asos bo’lib hizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1.Uzluksiz ma’naviy tarbiya KONSEPSIYASI, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son

2. A.Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”

3. D.A.Abdurahimova, R.A.Mavlonova. Pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma). –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 240 bet.

4. Гулбоев, А. Т. Укитувчилар фаолиятини педагогик ташхисяаш [Матн] : кувметодик кулланма / А. Т. Гулбоев. - Бухоро : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2019. - 172 6.

5. Safiyeva Shohista Shuxrat qizi, TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNING O’RNI. International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS

6. Mirzaliyevna, S. Z. (2024). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI IJODKORLIKKKA O‘RGATISHDA MAHALLIY VA XORIJ TAJRIBALARINI QIYOSIY TAHLILI.*University Research Base*, 414-418.

7. Mirzaliyevna, S. Z., & Muxlisaxon, V. (2024). BOSHLANG‘ICH SINLARDA NUTQIY XATOLARNI BARTARAF ETISHNING USULLARI.*University Research Base*, 441-444.

8. Irodaxon, X. (2025). O’ZBEKISTONNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIKNING TUTGAN O'RNI.*ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(5), 134-138.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sadriddinova Zulfiya Mirzali qizi**, o’qituvchi, [**Садриддинова Зулфия Мирзали кизи,** преподаватель]; [**Zulfiya M,Sadriddinova** teacher] manzil: Qo‘qon shahri,Qo`qon,Turkiston ko‘chasi, 28A [адрес: г. Коканд, г. Коканд, улица Туркистон, 28A],[address: Kokand city, Kokand, Turkiston street, 28A];

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

YASHIL AXBOROT TEXNOLOGIYALARI: QAYTA ISHLASH VA RESURS TEJAMKOR AXBOROT PLATFORMALARINING RIVOJLANISHI

© N.A. Qilichev[1]✉
[1]O'zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur ishda yashil axborot texnologiyalarining mazmuni, ularning ekologik va iqtisodiy ahamiyati, elektron chiqindilarni qayta ishlash, energiya samaradorligini oshirish va resurs tejamkor platformalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

MAQSAD: ishning maqsadi bulutli hisoblash, virtualizatsiya va energiya tejovchi uskunalarning ahamiyati hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: mavzu doirasida xalqaro va mahalliy tajribalarga ham murojaat qilingan. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, ularning energiya sarfi, chiqindilar hajmi va karbonat izlari ortib bormoqda. Shu sababli, energiya samaradorligi yuqori bo'lgan, ekologik xavfsiz va qayta ishlashga yaroqli axborot tizimlari va platformalarni ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ishda ekologik barqarorlikka hissa qo'shuvchi axborot texnologiyalari, ma'lumot markazlarining optimallashtirilgan ishlashi, bulutli texnologiyalarning resurs tejamkorligi kabi jihatlar tahlil qilingan. Tadqiqot Green IT'ning iqtisodiy, ekologik va texnologik afzalliklarini ko'rsatib beradi.

XULOSA: yashil axborot texnologiyalari bugungi kunda global muammolarga barham berishda muhim rol o'ynamoqda. Qayta ishlash, resurslarni tejash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va IT infratuzilmasining optimallashuvi orqali yashil texnologiyalar nafaqat tabiat, balki iqtisodiy taraqqiyot uchun ham foydalidir. Shu boisdan, davlat va xususiy sektor darajasida yashil IT siyosatini joriy qilish va ilgari surish dolzarb vazifalardan biridir. Yashil axborot texnologiyalarini joriy etish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya tejamkorligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Texnologik taraqqiyot ekologik muvozanatni saqlagan holda amalga oshirilishi kerak. Ekologik jihatdan barqaror axborot tizimlari kelajakda IT sohasining ajralmas qismi bo'lishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: yashil texnologiyalar, axborot tizimlari, ekologik xavfsizlik, elektron chiqindilar, qayta ishlash, energiya samaradorligi, bulutli hisoblash, virtualizatsiya, resurs tejamkorlik, raqamli infratuzilma.

Iqtibos uchun: Qilichev N.A. Yashil axborot texnologiyalari: qayta ishlash va resurs tejamkor axborot platformalarining rivojlanishi. // Inter education & global study. 2025, №6. B.281–286.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ЗЕЛЁНЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: РАЗВИТИЕ ПЛАТФОРМ ДЛЯ ПЕРЕРАБОТКИ И РЕСУРСОСБЕРЕЖЕНИЯ

© Н.А. Киличев[1]✉
[1]Национального университета Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной работе рассматриваются содержание зелёных информационных технологий, их экологическая и экономическая значимость, вопросы переработки электронных отходов, повышения энергоэффективности и развития ресурсосберегающих платформ.

ЦЕЛЬ: целью исследования является анализ значимости облачных вычислений, виртуализации и энергосберегающего оборудования, а также мер, направленных на снижение негативного воздействия на окружающую среду.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в рамках темы были рассмотрены как международные, так и отечественные практики. В условиях стремительного развития цифровых технологий увеличивается энергопотребление, объём отходов и углеродный след. Поэтому разработка информационных систем и платформ, обладающих высокой энергоэффективностью, экологической безопасностью и пригодностью к переработке, становится актуальной задачей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в работе проанализированы аспекты, способствующие экологической устойчивости, такие как оптимизация работы дата-центров, ресурсосбережение облачных технологий и прочее. Исследование демонстрирует экономические, экологические и технологические преимущества концепции Green IT.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: зелёные информационные технологии играют важную роль в решении глобальных проблем современности. Через переработку, экономию ресурсов, обеспечение экологической безопасности и оптимизацию IT-инфраструктуры зелёные технологии приносят пользу не только окружающей среде, но и экономическому развитию. Поэтому внедрение и продвижение политики Green IT на государственном и частном уровнях является актуальной задачей. Зелёные ИТ позволяют сохранять природу, повышать энергоэффективность и достигать экономической эффективности. Технологическое развитие должно происходить при сохранении экологического баланса. Ожидается, что экологически устойчивые информационные системы станут неотъемлемой частью IT-сферы будущего.

Ключевые слова: зелёные технологии, информационные системы, экологическая безопасность, электронные отходы, переработка, энергоэффективность, облачные вычисления, виртуализация, ресурсосбережение, цифровая инфраструктура.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Для цитирования: Киличев Н.А. Зелёные информационные технологии: развитие платформ для переработки и ресурсосбережения. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 281–286.

GREEN INFORMATION TECHNOLOGIES: DEVELOPMENT OF RECYCLABLE AND RESOURCE-EFFICIENT INFORMATION PLATFORMS

© Nodirjon A. Kilichev[1]✉
[1]National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this study explores the essence of green information technologies, their ecological and economic importance, the recycling of electronic waste, energy efficiency improvement, and the development of resource-efficient platforms.

AIM: the purpose of the research is to analyze the importance of cloud computing, virtualization, and energy-saving equipment, as well as measures aimed at reducing the negative impact on the environment.

MATERIALS AND METHODS: both international and local practices were examined within the scope of the topic. As digital technologies continue to develop rapidly, energy consumption, waste volume, and carbon footprints are increasing. Therefore, the development of information systems and platforms that are highly energy-efficient, environmentally safe, and recyclable has become a pressing issue.

DISCUSSION AND RESULTS: the study analyzes aspects of information technologies that contribute to ecological sustainability, including the optimized operation of data centers and the resource efficiency of cloud technologies. The research highlights the economic, ecological, and technological advantages of Green IT.

CONCLUSION: green information technologies play a significant role in addressing today's global challenges. Recycling, resource conservation, ensuring environmental safety, and optimizing IT infrastructure make green technologies beneficial not only for nature but also for economic development. Therefore, promoting and implementing Green IT policies at both governmental and private levels is essential. Through the adoption of green IT, it is possible to protect the environment, improve energy efficiency, and achieve economic effectiveness. Technological progress must be achieved while maintaining ecological balance. Environmentally sustainable information systems are expected to become an integral part of the IT industry in the future.

Key words: green technologies, information systems, environmental safety, electronic waste, recycling, energy efficiency, cloud computing, virtualization, resource efficiency, digital infrastructure.

For citation: Nodirjon A. Kilichev. (2025) 'Green information technologies: development of recyclable and resource-efficient information platforms', Inter education & global study, (6), pp. 281–286. (In Uzbek).

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Axborot texnologiyalari (AT) jamiyatning har bir jabhasiga chuqur kirib bormoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining ekologik izlari — ya'ni energiya sarfi, chiqindilar, elektron qurilmalarining yaroqsiz holga kelishi va boshqa salbiy ta'sirlari ham ortmoqda. Shu sababli, "yashil axborot texnologiyalari" (Green IT) tushunchasi paydo bo'ldi. Yashil axborot texnologiyalari (Green Information Technology, Green IT) — bu axborot texnologiyalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, energiya va resurslardan samarali foydalanish hamda IT mahsulotlarining hayot aylanish bosqichlarida ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan konsepsiyadir. Green IT tushunchasi ilk bor 2007-yilda Gartner tadqiqot kompaniyasi tomonidan ilgari surilgan bo'lib, bugungi kunda global miqyosda muhim yo'nalishlardan biriga aylangan.Yashil axborot texnologiyalarining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Energiya samaradorligini oshirish – ma'lumot markazlari (data centers), serverlar va kompyuter qurilmalarining elektr energiyasini kamroq sarflashi.
2. Qayta ishlash va utilizatsiya – eskirgan IT uskunalarni qayta ishlash orqali chiqindilarni kamaytirish.
3. Virtualizatsiya va bulutli texnologiyalar – jismoniy qurilmalardan ko'ra kamroq energiya sarflovchi texnologiyalardan foydalanish.
4. Hayotiy siklni boshqarish – IT mahsulotlarining ishlab chiqarishdan to utilizatsiyagacha bo'lgan davrda ekologik xavfsizlikni ta'minlash.

Yashil texnologiyalar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlaydi. Masalan, bulutli texnologiyalardan foydalanish korxona xarajatlarini kamaytiradi, qayta ishlash esa yangi mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, "yashil" yondashuv korxonalarning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Green IT faoliyatini baholashda turli xalqaro mezonlar va standartlar qo'llaniladi:ISO 14001 – ekologik boshqaruv tizimi,Energy Star – energiya samarador qurilmalar sertifikati,EPEAT (Electronic Product Environmental Assessment Tool) – elektron qurilmalarni ekologik baholash tizimi,

Resurs tejamkor axborot platformalari — bu IT infratuzilmani energiya, xotira, hisoblash quvvati kabi resurslardan optimal foydalangan holda ishlashga yo'naltirilgan tizimlardir. Bunday platformalar virtualizatsiya, avtomatlashtirilgan monitoring, yuklama muvozanatini boshqarish, sun'iy intellekt asosida energiyani boshqarish funksiyalariga ega bo'ladi. Yashil AT – bu atrof-muhitga zarar keltirmaslikni ko'zlagan, energiyani tejaydigan, chiqindilarni kamaytiradigan va resurslardan oqilona foydalanadigan texnologiyalar majmuasidir.Yashil axborot texnologiyalari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:Energiya samaradorligi – kompyuterlar, serverlar, ma'lumot markazlari kam energiya sarflashi;Qayta ishlash – ishlamay qolgan qurilmalarni yoki ularning qismlarini qayta ishlash;Atrof-muhitga zarar yetkazmaslik – zararli moddalar (masalan, qo'rg'oshin, simob) ishlatilgan qurilmalardan foydalanishni kamaytirish;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Uzoq muddatli foydalanish – texnologik qurilmalarning umrini uzaytirish;Virtualizatsiya – serverlarni, operatsion tizimlarni va ilovalarni virtual platformalarda birlashtirish orqali resurslarni tejash.Elektron chiqindilar (e-chiqindilar) — bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri. Har yili millionlab tonna kompyuter, printer, mobil telefon va boshqa qurilmalar chiqindiga aylanadi. Ularni noto‘g‘ri yo‘q qilish esa atrof-muhit va inson salomatligiga zarar yetkazadi.Shu sababli:Elektron chiqindilarni qayta ishlash markazlari ochilmoqda.Qurilmalarning modulligini oshirish — ya’ni faqat ishdan chiqqan qismini almashtirib, qolganini ishlatishda davom etish.Qayta foydalanishga yaroqli qismlarni ajratib olish – masalan, qattiq disklar, RAM modullari, mikrosxemalar. So‘nggi yillarda IT-platformalar yanada ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lish yo‘nalishida rivojlanmoqda. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:Bulutli texnologiyalar (Cloud computing) Bulutli texnologiyalar bir nechta foydalanuvchilarga yagona server orqali xizmat ko‘rsatadi.Shu orqali har bir foydalanuvchi alohida server saqlashga hojat qolmaydi.Bu esa serverlar sonini, elektr energiya sarfini kamaytiradi.

Virtual mashinalar yordamida bitta jismoniy serverda ko‘p dastur va tizimlarni yuritish mumkin.Masalan, Docker va Kubernetes kabi texnologiyalar. Energiya tejovchi apparatlar "Energy Star" sertifikatiga ega kompyuterlar, monitorlar, printerlar.SSD disklar, past quvvatli ARM protsessorlar.Yashil IT ni joriy etishdagi afzalliklari shundan iboratki,iqtisodiy tejash – energiya va jihozlar xarajatlari kamayadi,ekologik foyda – chiqindilar va zararli gazlar kamayadi,brend imijini yaxshilash – kompaniyalar uchun ekologik yondashuv ijobiy obro‘ keltiradi,yangi ish o‘rinlariga ega bo’lish mimkin – qayta ishlash va texnologik modernizatsiya sohasida.

Yashil axborot texnologiyalari (Green IT) — bu IT infratuzilmasining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan yondashuvlar majmuasidir.Har bir katta ma’lumot markazi (data center) minglab kilovatt-soat energiya sarflaydi. Yashil texnologiyalar bu sarfni kamaytiradi. Kompyuterlar, serverlar va boshqa IT qurilmalarining qayta ishlashga yaroqli qismlarini ishlab chiqish ekologik jihatdan muhim sanaladi.Bulutli texnologiyalar, virtualizatsiya va samarali sovitish tizimlari resurs tejamkorlikka xizmat qiladi.Davlat siyosati va korporativ strategiyalarda “yashil texnologiyalar” tobora ko‘proq o‘rin egallamoqda.

Takliflar:

1. Davlat va xususiy sektorlar Green IT tamoyillarini o‘z strategiyalariga kiritishi lozim.
2. Universitetlar va ilmiy markazlar yashil texnologiyalar bo‘yicha alohida kurslar va tadqiqot yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘ymog‘i kerak.
3. IT kompaniyalari qayta ishlashga yaroqli qurilmalar ishlab chiqarishni kengaytirishi zarur.
4. Data markazlar energiya samaradorligi va ekologik xavfsizlik bo‘yicha xalqaro standartlarga javob beradigan tizimlarga o‘tishi kerak.
5. Axborot savodxonligini oshirish orqali foydalanuvchilarni energiya tejamkor dasturiy vositalardan foydalanishga o‘rgatish lozim.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Abdurahmonov Q.X., Tursunov B.O. Axborot texnologiyalari va tizimlari. – Toshkent: «Iqtisodiyot», 2020.
3. Qodirov A.A., Xusanov A.T. Ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2021.
4. Xudoyberdiyev A., Saidov I. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asoslari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2022.
5. Tursunov N. Kompyuter tizimlari va ekologik xavfsizlik. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4422-son qarori: “Yashil iqtisodiyotga o‘tish konsepsiyasi”, 2019-yil 4-oktabr.
7. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi axborot byulleteni. – Toshkent, 2023.
8. “Elektron chiqindilarni boshqarish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. – Qonunchilik ma’lumotlari bazasi, 2021.
9. Axmedov A.A., Tadjibayeva D.T. Axborot texnologiyalari va ularning ekologik jihatlari. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2023.
10. “Raqamli iqtisodiyotda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishning dolzarb masalalari” – Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Toshkent, 2022.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qilichev Nodirjon Abrarovich**, mustaqil tadqiqotchi, [**Киличев Нодиржон Абрарович,** Независимый исследователь], [**Kilichev Nodirjon Abrarovich**, Independent researcher]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko’chasi, 4-uy [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, Олмазорский район, улица Университетская, дом 4], [address: Uzbekistan, 4, Universitet Street, Olmazor District, Tashkent City] kilichevnodirjon@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

UZLUKSIZ INKLYUZIV TA'LIMDA BOLALARNING SHAXSIY RIVOJLANISHINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

© Sh.X. Kobilova[1]✉

[1]Chirchiq davlat pedagogika instituti, Chirchiq, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada uzluksiz inklyuziv ta'lim tizimida bolalarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashning psixologik va pedagogik asoslari chuqur tahlil etilgan. Muallif pedagogik moslashuv, psixologik diagnostika va oila–maktab hamkorligi doirasida zamonaviy yondashuvlarni ilgari suradi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni global ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar ta'sirida chuqur transformatsiyalarga yuz tutmoqda. Bu o'zgarishlar fonida uzluksiz inklyuziv ta'lim konsepsiyasi har bir bolaga — ularning yoshi, salomatligi, intellektual va ijtimoiy rivojlanishidagi farqlaridan qat'i nazar — ta'lim olish imkoniyatini ta'minlovchi barqaror tizim sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu tizimning muvaffaqiyati bolaning individual psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu yondashuv orqali ijtimoiy integratsiya, shaxsiy o'sish va ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanishi ta'minlanadi.

MAQSAD: mazkur maqolaning asosiy maqsadi — uzluksiz inklyuziv ta'lim tizimida bolalarning shaxsiy rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi pedagogik va psixologik omillarni aniqlash, ularni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shuningdek, inklyuziv muhitda differensial yondashuvlar, innovatsion strategiyalar va oilaviy-iqtisodiy ko'makning ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro amaliyot namunalariga oid adabiyotlar, shuningdek, 2019–2022-yillarda qabul qilingan qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi. Metod sifatida nazariy tahlil, kontent tahlili, qiyosiy-tahliliy yondashuvlar, shuningdek, amaliy tajriba asosida ilg'or pedagogik metodlar va psixologik qo'llab-quvvatlash shakllari baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsiy rivojlanish — bu bola intellektining, emotsional barqarorligining, kommunikativ qobiliyatining va ijtimoiy moslashuvchanligining izchil rivojlanishidan iborat. Bu jarayonda pedagogning differensial va individual yondashuvi, psixologik xizmatlar, oilaning emotsional qo'llab-quvvatlashi va innovatsion ta'lim strategiyalari muhim rol o'ynaydi. Interfaol metodlar, STEAM yondashuvi va reflektiv mashg'ulotlar orqali bolalarda mustaqil fikrlash, motivatsiya va ijtimoiy faollik rivojlanadi. Shuningdek, oilaviy muhit va mahalliy ijtimoiy xizmatlarning hamkorligi bolaning inklyuziv muhitga moslashuvini kuchaytiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

XULOSA: uzluksiz inklyuziv ta’lim sharoitida bolalarning shaxsiy rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlash integratsiyalashgan pedagogik-psixologik yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ta’lim, oila va jamiyatning o‘zaro hamkorligi, pedagog va psixologlarning uzviy ishlashi, hamda bolaning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi innovatsion strategiyalar asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yo‘nalishda tizimli tadqiqotlar va kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish orqali inklyuzivlik prinsiplarini yanada samarali amalga oshirish mumkin.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta’lim, uzluksizlik, shaxsiy rivojlanish, psixologik qo‘llab-quvvatlash, pedagogik strategiya, oila, emotsional intellekt.

Iqtibos uchun: Kobilova Sh.X. Uzluksiz inklyuziv ta’limda bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning pedagogik-psixologik asoslari. // Inter education & global study. 2025, №6. B.287–293.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОПРОВОЖДЕНИЯ ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ В НЕПРЕРЫВНОМ ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

© Ш.Х. Кобилова[1]✉
[1]Чирчикский государственный педагогический институт, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье дан глубокий анализ психолого-педагогических основ обеспечения личностного развития детей в системе непрерывного инклюзивного образования. Автором выдвигаются современные подходы в рамках педагогической адаптации, психологической диагностики и семейно-школьного сотрудничества.

Современный образовательный процесс претерпевает глубокие трансформации под влиянием глобальных социальных и культурных изменений. На этом фоне концепция непрерывного инклюзивного образования выступает как устойчивая система, обеспечивающая каждому ребёнку — вне зависимости от его возраста, состояния здоровья, интеллектуального и социального развития — равные возможности получения образования. Успех данной системы напрямую связан с уровнем поддержки личностного развития ребёнка с учётом его индивидуальных психологических потребностей. Такой подход способствует социальной интеграции, личностному росту и формированию социальных компетенций.

ЦЕЛЬ: основной целью настоящей статьи является выявление, анализ и практическое обоснование педагогических и психологических факторов, способствующих эффективной поддержке личностного развития детей в системе непрерывного инклюзивного образования. Кроме того, рассматривается значимость дифференцированных подходов, инновационных стратегий и семейно-экономической поддержки в условиях инклюзивной среды.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были проанализированы научные труды узбекских учёных, примеры международной практики, а также законодательные документы, принятые в 2019–2022 годах. Использовались такие методы, как теоретический анализ, контент-анализ, сравнительно-аналитический подходы, а также оценка эффективных педагогических методик и форм психологической поддержки на основе практического опыта.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что личностное развитие включает в себя последовательное развитие интеллекта ребёнка, эмоциональной устойчивости, коммуникативных способностей и социальной адаптивности. В этом процессе ключевую роль играют дифференцированный и индивидуальный подходы педагога, услуги психологической поддержки, эмоциональное участие семьи и внедрение инновационных образовательных стратегий. С помощью интерактивных методов, STEAM-подхода и рефлексивных занятий развиваются навыки самостоятельного мышления, мотивация и социальная активность. Кроме того, взаимодействие с семьёй и местными социальными службами способствует успешной адаптации ребёнка к инклюзивной среде.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: эффективная поддержка личностного развития детей в условиях непрерывного инклюзивного образования требует интегративного педагогико-психологического подхода. В этом процессе важную роль играют сотрудничество между системой образования, семьёй и обществом, согласованная работа педагогов и психологов, а также использование инновационных стратегий, способствующих раскрытию индивидуального потенциала ребёнка. Более эффективная реализация принципов инклюзивности возможна благодаря системным исследованиям и укреплению профессиональной подготовки специалистов.

Ключевые слова: инклюзивное образование, преемственность, личностное развитие, психологическое сопровождение, педагогическая стратегия, семья, эмоциональный интеллект.

Для цитирования: Кобилова Ш.Х. Педагогико-психологические основы сопровождения личностного развития детей в непрерывном инклюзивном образовании. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 287–293.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL BASIS OF SUPPORTING THE PERSONAL DEVELOPMENT OF CHILDREN IN CONTINUOUS INCLUSIVE EDUCATION

© Shakhnoza Kh. Kobilova[1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical Institute, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article provides an in-depth analysis of the psychological and pedagogical foundations of ensuring the personal development of children in the system

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

of continuous inclusive education. The author puts forward modern approaches within the framework of pedagogical adaptation, psychological diagnostics and family-school cooperation.

The modern educational process is undergoing profound transformations under the influence of global social and cultural changes. Against this backdrop, the concept of continuous inclusive education emerges as a stable system that ensures every child — regardless of age, health status, or differences in intellectual and social development — has access to quality education. The success of this system is closely linked to the level of support provided for each child's personal development, considering their individual psychological needs. This approach facilitates social integration, personal growth, and the development of social competencies.

AIM: the main goal of this article is to identify, analyze, and provide practical recommendations for pedagogical and psychological factors that effectively support children's personal development within a continuous inclusive education system. Additionally, the significance of differentiated approaches, innovative strategies, and family-economic support in an inclusive environment is also examined.

MATERIALS AND METHODS: the research analyzed scientific works of Uzbek scholars, literature on international best practices, and legal documents adopted between 2019 and 2022. The study used theoretical analysis, content analysis, comparative-analytical approaches, as well as the assessment of effective pedagogical methods and forms of psychological support based on practical experience.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis showed that personal development consists of the consistent growth of a child's intellect, emotional stability, communication skills, and social adaptability. In this process, the teacher's differentiated and individualized approach, psychological services, emotional support from the family, and the implementation of innovative educational strategies play a crucial role. Interactive methods, the STEAM approach, and reflective exercises contribute to the development of independent thinking, motivation, and social engagement in children. Furthermore, collaboration between families and local social services enhances the child's adaptation to an inclusive environment.

CONCLUSION: effective support for children's personal development in continuous inclusive education requires an integrated pedagogical and psychological approach. Key factors include cooperation between the education system, family, and society; the coordinated work of teachers and psychologists; and innovative strategies that help realize each child's individual potential. The effective implementation of inclusivity principles can be further achieved through systematic research and strengthening of professional training.

Key words: inclusive education, continuity, personal development, psychological support, pedagogical strategy, family, emotional intelligence.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

For citation: Shakhnoza Kh. Kobilova. (2025) 'Pedagogical-psychological basis of supporting the personal development of children in continuous inclusive education', Inter education & global study, (6), pp. 287–293. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'zgarayotgan global ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlarda Uzluksiz inklyuziv ta'lim — bu bolalarning har qanday yosh bosqichida (maktabgacha, maktab va maktabdan keyingi) maxsus ehtiyojlari, salomatlik holati, intellektual yoki ijtimoiy rivojlanishidagi farqlarga qaramasdan, ta'lim olish huquqini ta'minlashni ko'zda tutadigan kompleks tizimdir. Mazkur tizimning samaradorligi, avvalo, bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki bolalarning individual psixologik ehtiyojlarini e'tiborga olmagan holda ularni ijtimoiy muhitga integratsiya qilish, shaxsiy o'sishini rag'batlantirish va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish deyarli imkonsiz bo'lib qoladi [1].

Shaxsiy rivojlanish kategoriyasi o'z mohiyatiga ko'ra kompleks va ko'p darajali jarayon bo'lib, u bolaning intellektual salohiyati, emotsional barqarorligi, kommunikativ kompetensiyasi va o'zini anglash qobiliyatining rivoji bilan tavsiflanadi. Shu boisdan, uzluksiz inklyuziv ta'limda bolaning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni tashkil etish psixologik xizmatlar tizimi, individual yondashuv, differensial pedagogika va oilaviy-ijtimoiy ko'mak strategiyalarini integratsiyalashni talab qiladi [2].

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni joriy etish yo'lida muhim normativ-huquqiy asoslar yaratilmoqda. Xususan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun (2019-yil) hamda Prezident qarorining (PQ–5283, 2021-yil) qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatini mustahkamladi. Shu bilan birga, psixologik xizmatlarni takomillashtirish, maxsus pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va individual rivojlanish trajektoriyalarini yaratish masalalari hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

Uzluksiz inklyuziv ta'lim tizimida bolalarning shaxsiy rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi pedagogik va psixologik omillar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Bu borada O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tadqiqotlar, hamda amaliy tajribalarga tayanib, muammoning nazariy-metodologik va amaliy asoslari yoritiladi.

Shaxsiy rivojlanish — bu bolaning intellektual, emotsional, ijtimoiy va axloqiy jihatdan takomillashuvini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Inklyuziv ta'limda bu jarayon individual imkoniyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. A.Abdullaeva (2022) fikricha, shaxsiy rivojlanishning asosiy psixologik ko'rsatkichlari — bu o'zini anglash, ijtimoiy rolni qabul qilish, ijobiy o'z-o'zini baholash va kommunikativ moslashuv hisoblanadi.

Inklyuziv muhitda pedagogning asosiy vazifasi — didaktik yondashuvlar orqali boladagi mavjud salohiyatni aniqlash, uni rivojlantirish va mustahkamlashdir. Shu nuqtai nazardan, differensial yondashuv, refleksiv tahlil, kognitiv faoliyatga yo'naltirilgan o'yin metodlari samarali hisoblanadi [Karimova, 2019].

Inklyuziv ta'limda shaxsiy rivojlanish tushunchasining psixologik asoslari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Inklyuziv ta’lim kontseptsiyasi doirasida bola shaxsining rivojlanishi uning individual ehtiyojlariga, qobiliyatlariga va sotsial adaptatsiya darajasiga mos pedagogik-psixologik muhitda shakllanishi bilan izohlanadi. Shaxsiy rivojlanish murakkab ko‘p komponentli tizim bo‘lib, unda intellektual, emotsional, ijtimoiy va axloqiy omillar o‘zaro aloqadorlikda kechadi. Vygotskiy (1982) nazariyasiga ko‘ra, bola rivoji sotsiokultural muhit ta’sirida ro‘yobga chiqadi, bu esa inklyuziv muhitda o‘zaro muloqot va qo‘llab-quvvatlovchi vositalarning ahamiyatini oshiradi.

Uzluksiz ta’lim zanjirida pedagogik moslashuv va psixologik qo‘llab-quvvatlash tamoyillari

Ta’lim bosqichlari o‘rtasida uyg‘unlik bo‘lishi – bolani har bir yangi bosqichga moslashtirish va stresssiz o‘tishiga imkon beruvchi muhim shartdir. Pedagogik moslashuv o‘quv dasturlarining moslashtirilgan shakllarini, ko‘p darajali baholash tizimini va psixologik treninglarni o‘z ichiga oladi (Toshpulatova, 2021). Psixologik qo‘llab-quvvatlash esa diagnostika, korrektsiya va rivojlantirish komponentlarini qamrab oladi.

Innovatsion yondashuvlar: Differensial va individual ta’lim strategiyalari

Zamonaviy inklyuziv ta’limda individual yondashuvlar asosida ta’lim berish alohida ahamiyatga ega. Bolaning qiziqishi, rivojlanish sur’ati, o‘rganish uslublari va ehtiyojlariga mos keluvchi metodlar orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Interfaol texnologiyalar, STEAM yondashuvi, reflektiv metodlar kabi innovatsion strategiyalar bola shaxsining har tomonlama kamolotiga xizmat qiladi (Islomova, 2022).

Oilaviy muhit – bolaning birlamchi sotsial rivojlanish kontekstidir. Inklyuziv sharoitda ota-onaning faolligi, pedagogik savodxonligi va emotsional qo‘llab-quvvatlashi bola moslashuvi va motivatsiyasining asosiy omillaridan biridir (Mardonova, 2020). Shu bilan birga, ijtimoiy xizmatlar, psixologik maslahat markazlari va mahalla institutlarining hamkorligi kengaytirilmoqda.

Uzluksiz inklyuziv ta’lim sharoitida bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash pedagogik va psixologik strategiyalarning integratsiyasini talab etadi. Inklyuzivlik nafaqat ta’lim jarayoniga, balki sotsial muhitga, oila, jamiyat va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalarga ham daxldordir. Bolaning individual rivojlanishini ta’minlash uchun pedagog va psixologlarning uzviy hamkorligi, o‘zaro ishonchli va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Mavjud ilmiy izlanishlar va tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, inklyuziv ta’lim tizimi doirasida bola rivojining ichki imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari mavjud. Shu bois, ushbu yo‘nalishda chuqurroq nazariy-empirik tadqiqotlar, professional tayyorgarlik va tizimli yondashuv zarurdir.

Farzandning shaxsiy rivojlanishida oilaning psixologik muhitini inkor etib bo‘lmaydi. Ota-onalarning motivatsiyasi, bolaga bo‘lgan munosabat, kommunikativ strategiyalari hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi bolaning inklyuziv muhitga moslashuvi va shaxsiy shakllanishida muhim omillardandir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullaeva, A. (2022). Inson shaxsining psixologik rivojlanish bosqichlari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Qodirova, D. (2021). Psixologik xizmatlar tizimining inklyuziv muhitdagi roli. Psixologik izlanishlar jurnali, 2(3), 55–60.
3. To‘lqinova, M. (2020). Oila va maktab hamkorligida bolani psixologik qo‘llab-quvvatlash omillari. Ilmiy-amaliy psixologiya, 1(1), 36–41.
4. G‘ulomova, S. (2020). Ta’limda inklyuziv yondashuvlar va ularning amaliyotdagi roli. O‘zbekiston psixologiyasi, 1(4), 44–49.
5. Karimova, N. (2019). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: “Ilm ziyo” nashriyoti.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-dekabrdagi PQ–5283-son qarori. (2021). www.norma.uz

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna**, Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), [**Кобилова Шахноза Худайшукуровна,** Педагогический факультет, кафедра специальной педагогики. Доктор философии по педагогическим наукам (PhD)], [**Shakhnoza Kh. Kobilova**, Faculty of Pedagogy, Department of Special Pedagogy. Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)]; manzil: O‘zbekiston, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy, [адрес: Узбекистан, г. Чирчик, улица Амира Темура, дом 104], [address: Uzbekistan, 104 Amir Temur Street, Chirchiq City]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARINING VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY TAJRIBALAR

© J.N. Seitkasimov[1]✉

[1]Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog’iston

Annotatsiya

KIRISH: mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy, tarixiy va geografik farqlarga qaramay, ularning barchasi yoshlarda ham, umuman jamiyatda ham vatanparvarlikni tarbiyalashda o‘xshash muammolarga duch kelmoqda. Boshqa mamlakatlarning yuzaga keladigan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish usullarining qo‘llanilishini o‘rganish o‘z fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy strategiyasini ishlab chiqishga, o‘z amaliyotini yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga olib kelib, dunyodagi o‘zgarishlarga moslashuvchan tarzda javob berishga yordam berishi mumkin.

MAQSAD: vatanparvarlik tarbiyasining xalqaro tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlariga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Davr talabi, yangi ijtimoiy va siyosiy talab aksariyat mamlakatlarni nafaqat o‘z fuqarolarida o‘z mamlakati bilan faxrlanish va unga muhabbat tuyg‘usini tarbiyalashga, balki uni boshqa mamlakatlar va xalqlar manfaatlarini hisobga olmagan holda himoya qilish zarurligiga qaratilgan dasturlarni joriy etish va takomillashtirishga majbur qildi.

MATERIALLAR VA METODLAR: vatanparvarlik tuyg‘usi, avvalo, insonda yurtga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllanishiga xizmat qiladi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashda tashabbuskor bo‘lish, tinchlikni ko‘z qorachig‘idek asrash, unga fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi.

Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - bu millati, tili va kasbidan qat’i nazar, ularda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyati hisoblanadi. Talabalarda davlat va jamiyat oldidagi o‘zlarining mas’uliyatini anglab hissini tarbiyalash, buning uchun «o‘quv-tarbiyaviy jarayonga yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash samarali shakllari va metodlarini tatbiq

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

etish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, samarali metodik hamda moddiy-texnik bazasi zarur.

XULOSA: vatanparvarlik tuyg‘usi, avvalo, insonda yurtga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllanishiga xizmat qiladi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashda tashabbuskor bo‘lish, tinchlikni ko‘z qorachig‘idek asrash, unga fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi.

Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi.

Kalit so'zlar: vatan, vatanparvar, vatanparvarlik, davlat, jamiyat, shaxs.

Iqtibos uchun: Seitkasimov J.N. Oliy o‘quv yurtlari talabalarining vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga oid xorijiy tajribalar. // Inter education & global study. 2025, №6. B.294–304.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ, СВЯЗАННЫЙ С ФОРМИРОВАНИЕМ ПАТРИОТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

© Ж.Н.Сейткасимов[1]✉
[1]Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: несмотря на культурные, исторические и географические различия между странами, все они сталкиваются со схожими проблемами в воспитании патриотизма у молодежи и в обществе в целом. Изучение применения методов успешного решения возникающих проблем других стран может помочь разработать национальную стратегию воспитания своих граждан в духе патриотизма, доведения ее практики до высоких показателей эффективности, гибкого реагирования на изменения в мире.

ЦЕЛЬ: особенно возрос интерес к международному опыту патриотического воспитания и возможностям его применения в Узбекистане. Требование времени, новый общественный и политический запрос заставили большинство стран внедрять и совершенствовать программы, направленные не только на воспитание у своих граждан чувства гордости и любви к своей стране, но и на необходимость ее защиты без учета интересов других стран и народов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: воспитание студентов в духе патриотизма - это многоуровневая, систематическая, целенаправленная и скоординированная деятельность государственных органов, общественных объединений и других организаций независимо от национальности, языка и профессии, направленная на формирование у них чувства верности Родине, воспитание их как личностей, способных выполнять свои гражданские обязанности и конституционные обязанности, защищать интересы общества и государства. Воспитывать у студентов

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

понимание своей ответственности перед государством и обществом, для этого «необходимо применять в образовательном процессе эффективные формы и методы духовно-нравственного воспитания молодежи, использование передовых педагогических технологий, эффективной методической и материально-технической базы».

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: воспитание студентов в духе патриотизма - это многоуровневая, систематическая, целенаправленная и скоординированная деятельность государственных органов, общественных объединений и других организаций независимо от национальности, языка и профессии, направленная на формирование у них чувства верности Родине, воспитание их как личностей, способных выполнять свои гражданские обязанности и конституционные обязанности, защищать интересы общества и государства. Воспитывать у студентов осознание своей ответственности перед государством и обществом, для этого необходимо «применять в образовательном процессе эффективные формы и методы нравственного и нравственного воспитания молодежи, использовать передовые педагогические технологии, эффективную методическую и материально-техническую базу.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: чувство патриотизма, прежде всего, служит формированию у человека прочного иммунитета для предотвращения внутренних и внешних угроз стране. Оно мотивирует проявлять инициативу в борьбе за развитие Родины, мир страны и благополучие народа, хранить мир как зеницу ока и самоотверженно служить ему.

Чем глубже в сердце человека обязанности и чувства к нации, Родине, духу предков, тем больше вместо ограничений возникает национальных идей. У людей с этими качествами формируются святые чувства борьбы, инициативы, самосознания, защиты чести и интересов нации и Родины.

Ключевые слова: родина, патриот, патриотизм, государство, общество, личность.

Для цитирования: Сейткасимов Ж.Н. Зарубежный опыт, связанный с формированием патриотических ценностей студентов высших учебных заведений. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 294–304.

FOREIGN EXPERIENCE RELATED TO THE FORMATION OF PATRIOTIC VALUES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

© Jan'abay N. Seitkasimov[1]✉
[1]Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: despite the cultural, historical and geographical differences between countries, they all face similar problems in raising patriotism in youth and in society as a whole. Studying the application of methods for successfully solving emerging

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

problems in other countries can help develop a national strategy for raising citizens in the spirit of patriotism, bringing its practice to high efficiency rates, and flexible response to changes in the world.

AIM: interest in international experience of patriotic education and the possibilities of its application in Uzbekistan has grown especially. The demands of the times, new social and political demands have forced most countries to implement and improve programs aimed not only at instilling in their citizens a sense of pride and love for their country, but also at the need to protect it without taking into account the interests of other countries and peoples.

MATERIALS AND METHODS: educating students in the spirit of patriotism is a multi-level, systematic, targeted and coordinated activity of state bodies, public associations and other organizations regardless of nationality, language and profession, aimed at developing in them a sense of loyalty to the Motherland, educating them as individuals capable of fulfilling their civic duties and constitutional obligations, protecting the interests of society and the state. To cultivate in students an understanding of their responsibility to the state and society, for this "it is necessary to apply in the educational process effective forms and methods of spiritual and moral education of young people, the use of advanced pedagogical technologies, an effective methodological and material and technical base."

DISCUSSION AND RESULTS: educating students in the spirit of patriotism is a multi-level, systematic, targeted and coordinated activity of state bodies, public associations and other organizations regardless of nationality, language and profession, aimed at developing in them a sense of loyalty to the Motherland, educating them as individuals capable of fulfilling their civic duties and constitutional obligations, protecting the interests of society and the state.

CONCLUSION: the feeling of patriotism, first of all, serves to form a strong immunity in a person to prevent internal and external threats to the country. It motivates to take initiative in the struggle for the development of the Motherland, the peace of the country and the well-being of the people, to keep peace as the apple of one's eye and selflessly serve it. The deeper in the heart of a person are the duties and feelings for the nation, the Motherland, the spirit of ancestors, the more national ideas arise instead of restrictions. People with these qualities develop sacred feelings of struggle, initiative, self-awareness, protection of the honor and interests of the nation and the Homeland.

Key words: homeland, patriot, patriotism, country, society, personality

For citation: Jan'abay N. Seitkasimov. (2025) 'Foreign experience related to the formation of patriotic values of students of higher educational institutions', Inter education & global study, (6), pp. 294–304. (In Uzbek).

Mamlakatlar o'rtasidagi madaniy, tarixiy va geografik farqlarga qaramay, ularning barchasi yoshlarda ham, umuman jamiyatda ham vatanparvarlikni tarbiyalashda o'xshash

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

muammolarga duch kelmoqda. Boshqa mamlakatlarning yuzaga keladigan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish usullarining qo‘llanilishini o‘rganish o‘z fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy strategiyasini ishlab chiqishga, o‘z amaliyotini yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga olib kelib, dunyodagi o‘zgarishlarga moslashuvchan tarzda javob berishga yordam berishi mumkin.

Vatanparvarlik tarbiyasining xalqaro tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlariga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Davr talabi, yangi ijtimoiy va siyosiy talab aksariyat mamlakatlarni nafaqat o‘z fuqarolarida o‘z mamlakati bilan faxrlanish va unga muhabbat tuyg‘usini tarbiyalashga, balki uni boshqa mamlakatlar va xalqlar manfaatlarini hisobga olmagan holda himoya qilish zarurligiga qaratilgan dasturlarni joriy etish va takomillashtirishga majbur qildi.

Zamonaviy dunyoning asosiy mamlakatlaridan bo‘lgan AQSH, Xitoy, Rossiya mamlakatlarining vatanparvarlik tarbiyasi tajribasiga murojaat qilamiz.

Vatanparvarlikni tarbiyalash bo‘yicha AQSh tajribasi O‘zbekiston nazariyasi va amaliyoti uchun quyidagi sabablarga ko‘ra foydalidir: a) mamlakatlarimizning ko‘p madaniyatliligi jihatidan o‘xshashligi, bu esa «turli millat, konfessiya va madaniyat vakillarini yagona davlat fuqarolari sifatida tarbiyalash va o‘qitish muammosini dolzarblashtiradi» [1, B. 59-62]; b) o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha yetarlicha boy pedagogik tajribaning mavjudligi. Bugungi kunda AQShning dunyodagi o‘rni ancha ziddiyatli. Bir tomondan, AQSh davlati xalqaro va harbiy mojarolarni keltirib chiqarib, «jahon jandarmi»ning yetakchi mavqeini egallashga intilmoqda. Boshqa tomondan, Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘z fuqarolarining ravnaqi va farovonligini ta’minlaydigan dunyodagi eng yirik iqtisodiyotlardan biridir. Xalqning bu ishonchi, o‘zining noyobligi va yengilmasligiga ishonchi nimaga asoslanadi? Avvalo, bu yuksak tuyg‘ular zamirida fuqarolarning vatanparvarligi yotadi. Ko‘pchilik Amerika vatanparvarligi noyob hodisa ekanligini ta’kidlaydi. Amerikaliklarning vatanparvarligi etnik, milliy yoki til asosiga ega emas. Amerika vatanparvarligining mohiyati «Novus Ordo Seclorum»da (so‘zma-so‘z «Yangi asrlar tartibi») - Amerika demokratik qadriyatlarining ustunligiga ishonchdir. U kelajakka qaratilgan, o‘tmishdan ideal izlamaydi.

AQShda doimiy ravishda o‘tkaziladigan ijtimoiy so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, amerikaliklarning taxminan to‘rtdan uch qismi o‘z mamlakati bilan faxrlanadi [2, B. URL://https:// www.statista.com/topics/2482/patriotism-in-the-us/]. Amerikaliklarning taxminan yarmi o‘z uyini milliy bayroq bilan bezatadi, haydovchilarning 15-20 foizi avtomobilga Amerika bayrog‘ini o‘rnatadi. AQShda vatanparvarlik namoyishlarini hokimiyat organlari emas, balki dunyoning aksariyat mamlakatlaridan farqli o‘laroq, amerikaliklarning o‘zlari uyushtirmoqda. Bunday tadbirlarda ishtirok etish ixtiyoriydir, shunga qaramay, AQShda ular yetarlicha mashhur bo‘lib, o‘nlab va yuz minglab ishtirokchilarni to‘playdi.

Vatanparvarlikning markaziy g‘oyalari erkinlik, tenglik va adolat tamoyillari hisoblanadi. Amerikalik faylasuf M.Adlerning ta’kidlashicha, aynan «... jamiyatimiz hayoti ana shu uch g‘oya asosiga quriladi. Ular insoniyat hozirda erishishga intilayotgan va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kelajakda o‘z avlodlariga yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oyalarni ifodalaydi» [3, B. 22]. Vatanparvar shaxsning xarakter xislatlari mardlik, mas’uliyat, ta’sischilar oldida minnatdorlik, umumiy manfaati yo‘lida fidoyilikdir. Amerika xalqining o‘z-o‘zini anglashi adolatning alohida shakli sifatida Amerika milliy g‘oyasining o‘ziga xosligini nazarda tutadi, bu esa hal qiluvchi qarorlar qabul qilish jarayonida amerikalik bo‘lmagan boshqa odamlarning fikrini hisobga olmaslikka imkon beradi.

Birinchi sinfdan boshlab, darslar boshlanishidan oldin, amerikalik o‘quvchilar har kuni bayroqqa sodiqlik qasamyodini qabul qilishadi. Qasamyod qisqa va lo‘nda jaranglaydi: «Men Amerika Qo‘shma Shtatlari bayrog‘iga va u ramzi bo‘lgan Respublikaga sodiq qolishga, Xudo qo‘l ostidagi yagona, bo‘linmas, hamma uchun erkin va adolatli Millatga qasamyod qilaman». Biroq, AQShda tez-tez uchraydiganidek, bunday amaliyot keng tarqalmagan. Ba’zi shtatlarda Qasamyod umuman aytilmaydi, ba’zi hollarda oyiga bir marta, ba’zi maktablarda uni faqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aytishadi.

Vatanparvarlikni tarbiyalashda AQSH oliy o‘quv yurtlariga alohida o‘rin ajratilgan. AQShda 1350 dan ortiq mahalliy kollejlar va 2000 ga yaqin kollej va universitetlar mavjud. Xususiy ta’lim muassasalari soni jami ta’lim muassasalarining 65 foizini tashkil etadi. Amerika oliy ta’lim tizimi o‘quv dasturlari, o‘rganiladigan kurslar va fanlarning sezilarli darajada xilma-xilligi bilan ajralib turadi, muhim iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy funksiyalarni, shu jumladan o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni amalga oshiradigan yagona ijtimoiy institutni tashkil etadi.

AQShda vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan mamlakat ta’lim siyosatining yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan fuqarolik tarbiyasi kabi yo‘nalish doirasida olib boriladi: «Milliy va ijtimoiy xizmat to‘g‘risidagi qonun» (1990); «Demokratiya uchun ta’lim to‘g‘risidagi qonun» (2001) va boshqalar.

AQShda vatanparvarlikning asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqamiz.

1. AQSH Konstitutsiyasi bo‘yicha axloq va erkinliklarni amalga oshirish. Bu komponent AQShda vatanparvarlikning asosini tashkil etadi. V.Kovalevskiy: «Amerikaliklar o‘z huquqlarini amalga oshirishni juda vatanparvarlik deb biladilar. Bu siyosatni o‘zgartirish uchun hokimiyatni ochiqchasiga tanqid qilish va boshqa fuqarolarni umumiy muammolarni hal qilishga safarbar qilish imkonini beradi». Bunday huquqni AQSH fuqarolariga so‘z, matbuot, yig‘ilishlar, diniy e’tiqod erkinligi huquqlarini cheklashi mumkin bo‘lgan qonunlar qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaydigan 1791-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga kiritilgan birinchi tuzatish ta’minlaydi.

2. Barcha amerikaliklar tomonidan qadrlanadigan va tan olinadigan davlat ramzlari (madhiya va bayroq). AQSH madhiyasi «The Star-Spangled Banner» (Yulduzli-chiziqli bayroq) bo‘lib, 1812-yilda inglizlar Mak-Genri qal’asini qamal qilish paytida Amerika bayrog‘i sharafiga yozilgan va faqat 1931-yilda davlatning rasmiy madhiyasi sifatida tan olingan. Madhiya an’anaviy ravishda muhim jamoat va sport tadbirlarida ijro etiladi. U ko‘pincha jonli ijro etilib, lahzaning tantanavorligini oshiradi. Ko‘pchilik amerikaliklar madhiya so‘zlarini bilishadi va uni ijro etish paytida qo‘shilib kuylashadi [4, B. 229]. Har bir shtat o‘z bayrog‘iga ega va aholi uni ko‘pincha milliy bayroq yoniga osib qo‘yadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kongressmenlar va senatorlar har doim o‘z ofislarida AQSH bayrog‘i yonida o‘z shtatlarining bayrog‘ini qo‘yib qo‘yadilar, bu ularning o‘z saylovchilari manfaatlariga sodiqligini ta’kidlaydi.

Keyingi asosiy ramzlardan biri AQSH gerbi bo‘lib, unda oq boshli burgut qanotlarini yozib turibdi. Gerb 1782-yilning yozida qabul qilingan bo‘lib, unda chizilgan tasvir millatning buyuk intilishlari, mustaqilligi va yaxshi kelajakka bo‘lgan umidining ramzidir. A. I. Soljenitsin amerikaliklarning vatanparvarligiga shunday baho beradi: «... Qo‘shma Shtatlarda vatanparvarlik yuksak darajada turadi. Nafaqat hech kim undan uyalmaydi, balki Amerika o‘z vatanparvarligi bilan nafas oladi, u bilan faxrlanadi - va turli xalq guruhlari unda birlashadi. Amerikaning har bir maktab sinfida milliy bayroq osilgan va ko‘plab maktablarda unga sodiqlik so‘zlari aytiladi» [5, B. 153].

Shuni ta’kidlash kerakki, Amerika vatanparvarligi bu mamlakatga yangi hayot izlab kelgan millionlab amerikalik fuqarolarni, turli mamlakatlardan kelgan muhojirlarni birlashtiruvchi fermentdir. Agar vatanparvarlik tarbiyasining puxta o‘ylangan va samarali dasturi bo‘lmaganida, muhojirlar mamlakati parchalanib ketgan va buyuk davlatlardan biriga aylana olmagan bo‘lardi. Amerika vatanparvarligi milliy, etnik yoki til asosiga ega emasligi e’lon qilinadi. AQShda barcha millat vakillari yashaydi. Amerikaliklar uchun boshqa madaniyatlar bilan o‘zaro ta’sir qilish imkoniyati qimmatlidir. Ko‘plab xorijliklar tahsil olayotgan ta’lim muassasalarida xalqaro kunlar va haftaliklar o‘tkazilib, unda xohlovchilar o‘zlarining milliy liboslarini namoyish etishlari va madaniy an’analari haqida so‘zlab berishlari mumkin. Boshqa xalqlarning sog‘lom vatanparvarligi amerikaliklarda hurmat uyg‘otadi.

«Xalqqa xizmat qil!»

Zamonaviy dunyoda AQSH bilan bir qatorda asosiy iqtisodiy va geosiyosiy o‘yinchi sifatida Xitoy alohida rol o‘ynaydi. Har bir xitoylik nafaqat mamlakatning, balki shahar va qishloqning, hatto o‘zi tug‘ilgan uyning ham vatanparvaridir. U o‘z mamlakati, provinsiyasi, posyolkasining hududi qandayligini, unda qancha aholi yashashini biladi. Bo‘linmas Xitoy g‘oyasi XIX asr oxirida konfutsiychilar asarlarining ommalashuvi va Kan Yu-vey tomonidan shakllantirilgan Dutun konsepsiyasi («buyuk birlik va tenglik» g‘oyasi) yordamida dunyoqarashda mustahkam ildiz otdi. Tayvanni yoki hozirda Yaponiya yurisdiksiyasi ostida bo‘lgan bir qator orollarni qaytarib olishning iloji yo‘qligi xitoylik uchun shaxsiy fojia sifatida qabul qilinadi, Gonkong va Makaoning qo‘shilishi esa oilaviy bayram, shaxsiy bayram sifatida nishonlanadi. Xitoylik uchun asosiy qadriyatlar - bu uning Vatani, ona tili, oilasi va o‘z o‘chog‘idir.

Bularning barchasi butun Xitoy pedagogikasining bosh g‘oyasi bo‘lgan vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq. O‘tgan asrning 80-yillaridayoq Xitoy matbuoti materiallarida «vatanparvarlik xitoy millatining eng yaxshi an’anasi va eng yuksak axloqiy fazilati» ekanligi qayd etilib, vatan tarixini o‘rganish «vatanparvarlik tarbiyasining bir shakli» deb e’lon qilingan edi. Shu bilan birga, «Jahon tarixiga oid kitoblarni o‘rganishda ulardan foydalanish, agar ularda chet elga sig‘inish bo‘lmagan holattagina, o‘zini oqlashi» ta’kidlangan [6, B. 134-144]. Xitoyning hamma narsasini targ‘ib qilish va chet elning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hamma narsasini taqiqlash jarayoni hozir ham to‘xtamayapti va tarbiyaning boshqa barcha turlari faqat vatanparvarlik prizmasi orqali ko‘rib chiqilmoqda. 1989-yilda Tanyanmen maydonida yuzlab norozilik namoyishlari ishtirokchilarining halok bo‘lishi bilan bog‘liq dramatik voqealar Xitoy vatanparvarligiga sezilarli turtki berdi. Shundan so‘ng Xitoy kommunistlari vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga e’tibor qaratish zarurligini tushundilar. Xitoy maktablarida o‘quvchilarga Xitoy eng buyuk kashfiyotlarga sabab bo‘lgan qadimiy sivilizatsiya ekanligi tushuntirila boshlandi. Zamonaviy Xitoy davlati mafkurasida o‘zlikni anglash va mamlakat bilan faxrlanish darajasini oshirish uchun an’anaviy qadriyatlar ajralmas ravishda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xuddi shunday, qadimgi Xitoy kosmografiyasining «dunyoning to‘rt tomoni» varvarlari bilan o‘ralgan O‘rta podsholik haqidagi g‘oyasi, Osmon osti imperiyasining rolini uyg‘unlashtirgan holda, mamlakat o‘z tarixi davomida dushmanlar va nonko‘r qo‘shnilar halqasida bo‘lganligi haqidagi g‘oyaga aylandi.

Maktabning rasmiy davlat siyosatini joriy etish o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni tayyorlash doirasida axloqiy tarbiya bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqilgan bo‘lib, u ko‘plab bo‘limlarni, jumladan, vatanparvarlik tarbiyasi, Xitoy ruhini tarbiyalash, Xitoy tarixi, an’analari va madaniyatini o‘rganishga oid bo‘limni o‘z ichiga oladi.

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning fikricha, uzluksiz, besh ming yildan ortiq sivilizatsiya tarixiga ega bo‘lgan Xitoy millati o‘zining keng qamrovli va chuqur madaniyatini yaratdi, insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga o‘zining so‘nmas hissasini qo‘shdi. «Bizning o‘tmishimiz va bugunimiz bizning ideallarimiz va e’tiqodlarimiz mushtarakligi bilan sug‘orilgan, biz ularga qat’iy amal qilamiz» [7, B. 59-63]. Shuni ta’kidlash kerakki, turli vositalardan foydalangan holda, Xitoy universitetlari komsomol ittifoqlari bilan birgalikda milliy bayramlar va tarixiy sanalarni nishonlash paytida vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha turli ma’ruzalar va tadbirlar o‘tkazadilar, jumladan, Xitoy Yangi yili, Xitoy yoshlari kuni, Xitoy Xalq Respublikasi Ta’lim kuni va XXR Ta’lim kuni.

«Internet resurslari orqali vatanparvarlik tarbiyasi Xitoy ijtimoiy tarmog‘ining o‘zaro ta’siri sharoitida talabalarning vatanparvarlik mavzusiga bo‘lgan qiziqishini rivojlantiradi. Internet, jumladan, Wechat, Weibo, QQ tarqalishi sharoitida ixtisoslashtirilgan saytlar va forumlar yaratish xitoylik talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning juda samarali vositasi hisoblanadi» [8, B. 73-75].

Muallifning fikricha, internet tarmog‘idagi «Vatanparvarlik filmlari oyligi», «Onlayn volontyor», «Nankin qirg‘inida halok bo‘lganlar xotirasi» kabi tadbirlar talabalarda tarixga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga o‘z hissasini qo‘shadi. Xitoy maktablarida axloqiy-g‘oyaviy va siyosiy tarbiya berish maqsadida qo‘shiq, musiqa kabi darslardan keng foydalaniladi. XXR Davlat ta’lim qo‘mitasi 100 ga yaqin turli qo‘shiq va musiqa asarlarini o‘rganishni tavsiya qiladi, jumladan: Mamlakat madhiyasi, «Vatan haqida», «Birlik kuchdir», «Kompartiyasiz Xitoy yo‘q» va boshqalar. XXR Davlat ta’lim qo‘mitasining Axloqiy tarbiya boshqarmasi «Davlat bayrog‘ini ko‘tarish marosimi va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

axloqiy-vatanparvarlik tarbiyasi» nomli uslubiy qo‘llanmani nashr etdi va mamlakatning barcha maktablariga foydalanish uchun tavsiya etdi [9, B. 92-98] .

Vatanparvarlik tarbiyasi markazlarida mamlakatning ko‘p asrlik tarixi, xitoy xalqining dushmanlarga qarshi qahramonona kurash olib borgan shonli yo‘li, xitoy millatining yuksak madaniyati har tomonlama aks ettirilgan. Yangi format, mazmunning boyligi, ko‘rgazmali taqdimot Markazlarni vatanparvarlik tarbiyasining tobora muhim platformasi va ajralmas qismiga aylantirmoqda. Barcha darajadagi va turdagi ta’lim muassasalari sinf (auditoriya) devorlaridagi o‘quv faoliyatini ta’lim oluvchilarning vatanparvarlik tarbiyasi markazlarida bo‘lish davridagi darsdan tashqari amaliy faoliyati bilan uyg‘unlashtirishga intiladi. Tarix, madaniyat, san’at va boshqa xilma-xil materiallar bilan tanishish yoshlarga vatanparvarlikning chuqur ma’nosini turli nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi va ularda hissiy kechinmalarni namoyon etishga undaydi.

Rossiyada vatanparvarlik tarbiyasi tajribasi

1991-yilda SSSR parchalanganidan so‘ng, yangi Rossiyada o‘ylanmagan liberal islohotlar, shu jumladan ta’lim tizimida ham boshlandi. "Shok terapiyasi" usuli bilan bozor munosabatlariga o‘tish boshlangach, ko‘plab ta’lim muassasalari inqiroz holatiga tushib qoldi. Ta’limning tarbiyaviy komponenti ikkinchi darajaga surib qo‘yildi, ta’lim bozorda xizmat sifatida taklif etila boshlandi. O‘sha 1990-yillar sharoitida vatanparvarlik tarbiyasi shunchaki unutilgan edi.

2000-yillarning boshidan Rossiyada vatanparvarlik qadriyatlarini singdirish, Rossiyaning harbiy o‘tmishini ulug‘lash va Vatanga muhabbat asosida aholining vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va vatanparvarlik madaniyatini rivojlantirish muammosiga jamiyat qiziqishining qayta tiklanishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda vatanparvarlik tarbiyasi davlat ichki siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bundan tashqari, Rossiya jamiyatida milliy g‘oya va milliy manfaatlar atrofida birlashish uchun ongli ehtiyoj mavjud bo‘lib, vatanparvarlik va fuqarolikni rivojlantirish milliy xavfsizlikning muhim strategik ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Davlat muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlariga ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilish, mamlakat tarixini buzib ko‘rsatishdan himoya qilish, yosh avlodni Rossiya davlatining madaniyati va an’analari bilan tanishtirish bo‘yicha vatanparvarlik tarbiyasi siyosati ta’lim tizimiga kiritilgan.

Siyosiy kun tartibida vatanparvarlik tarbiyasining roli tobora ko‘proq birinchi o‘ringa chiqmoqda. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. V. Putin vatanparvarlik g‘oyasini jamiyatning siyosiy, ma’naviy va madaniy hayotini birlashtiradigan milliy g‘oya sifatida taklif qilgan: «...vatanparvarlik Rossiya jamiyatining eng muhim qadriyatlaridan biri va mamlakat davlatchiligining asosiy tarkibiy qismidir». Ushbu yondashuv rasmiy doktrinada 2015-yil 30-dekabrdagi «2016-2020-yillarda Rossiya Federatsiyasi fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash» davlat dasturida mustahkamlangan. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi «Rossiya Federatsiyasini 2030-yilgacha rivojlantirishning milliy maqsadlari to‘g‘risida»gi 474-sonli Farmonida Rossiya Federatsiyasi xalqlarining ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, tarixiy va milliy-madaniy an’analari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

asosida barkamol va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash masalalari diqqat markazida turadi.

Vatanparvarlik mazmuniga ko'plab tarkibiy qismlar kiradi: fuqarolik identlik, milliy va ijtimoiy birlik, mamlakat taqdiriga daxldorlik hissi, harbiy jasoratlar va qahramonlarni ulug'lash va boshqalar. Shu munosabat bilan vatanparvarlik tarbiyasi tizimi ta'lim-tarbiya va ma'rifiy faoliyat asosiga qurilishi lozim. Vatanparvarlik tarbiyasi davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati, oilaning fuqarolarda Vatanga muhabbat va hurmat, o'z mamlakatiga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish bo'yicha tizimli va maqsadli faoliyatiga asoslanishi kerak. Uni oilaga, ona yurtiga, o'z xalqi tarixi va madaniyatiga, o'z Vataniga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish sifatida tushunish lozim [12, B. 14-16] .

Ushbu sohadagi davlat siyosati federal va mintaqaviy darajadagi davlat hokimiyati organlarining vatanparvarlik tarbiyasi asoslarini shakllantirish bo'yicha qonun ijodkorligi faoliyati, vatanparvarlik tarbiyasining idoraviy dasturlarini ishlab chiqish va ushbu sohadagi ish yo'nalishlarini kelishilgan holda rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha faoliyati bilan tavsiflanadi. Vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish davlat siyosati tizimiga quyidagilar kiradi: Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, Federal Majlis, Hukumat, federal ijro etuvchi hokimiyat organlari, Rossiya Federatsiyasi subyektlarining hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari. Vatanparvarlik tarbiyasi sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etuvchi fuqarolik jamiyati institutlari: siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlari, diniy tashkilotlar va boshqalar bilan hamkorlik davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [13, B. 34-44].

Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg'ular qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, mahdudlik o'rniga milliy g'oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o'z o'zini anglash, millat, Vatan sha'ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg'ular shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Бессарабова И. С. Поликультурное образование в России и США: к постановке проблемы // Современные проблемы науки и образования. 2008. № 5. С. 59–62. 59-bet
2. Statista. Patriotism in the U. S. — Statistics & Facts» [Электронный ресурс]. URL://https:// www.statista.com/topics/2482/patriotism-in-the-us/ (дата обращения: 18.05.2025).
3. Адлер М. Шесть великих идей. М.: МИФ, 2015. 22-bet
4. Borger J. We are still all Americans // Patriotism, Democracy, and Common Sense: Restoring America's Promise at Home and Abroad. Rowman & Littlefeld Publishers, 2005. 239-b.
5. Solzhenitsyn A. I. Russia in a collapse. M. : Russian way, 2006. 208 p. 153-bet

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

6. Калашник Л. С. «Великая четверка» —[Электронный ресурс] // Электронный периодический научный журнал «Sci-Article.ru». 2014. № 10. С. 134–144. URL: http://sci-article.ru/stat.php?i=1402594605 (дата обращения: 20.05.2025).
7. Васильева Н.Б. Патриотическое воспитание студентов в вузах КНР // European Research / XX Международная научно-практическая конференция «European Research: Innovation in Scince, Education and Technology» (Лондон, Великобритания, 28–29 сентября 2016). Иваново : Олимп, 2016. С. 59–63.
8. Се Илинь, Коврижных О. А. Об опытах патриотического воспитания студентов в Китае // Социально-политические и культурные проблемы современности: сборник научных трудов по материалам I Международной научно-практической конференции 31 мая 2016 г. Нижний Новгород: НОО «Профессиональная наука», 2016. С. 73–75. 75-bet.
9. Клепиков В.З. Современный Китай: вопросы воспитания // Педагогика. 2000. № 5. С. 92– 98. 96-bet.
10. Ёлкин С. М., Косова А. А. О содержании понятий «патриотизм» и «патриотическое воспитание» // Вестник Новгородского государственного университета. – 2017. – № 1.– С. 14–16. С.15
11. Сковиков А. К. Взаимодействие гражданского общества с органами государственной власти в формировании патриотизма // PolitBook. – 2017. – № 3. – С. 34–44. 35-b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Seitkasimov Jan’abay Nukusbaevich**, Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (tarix) 3-bosqich tayanch doktaranti, [**Сейткасимов Жанабай Нукусбаевич** Теория и методика образования (история) базовая докторантура 3 курс,], [**Seitkasimov Jan’abay Nukusbaevich**, Theory and Methodology of Education (History) Basic Doctoral Studies 3rd year,]; manzil: O‘zbekiston, Nukus sh., Tachabbus ko'chasi, 15-uy [адрес: Узбекистан, ул. Tachabbus, 15, г. Нукус], [address: Uzbekistan, 15, Tachabbus st., Nukus city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

XORAZM JADID MA'RIFATPARVARLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARIDAN TARBIYA FANI DARSLARIDA FOYDALANISH MEXANIZMLARI

© T.X. Ismailov[1]✉

[1]Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada Xorazm jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or g'oyalari, ularning ijtimoiy-pedagogik qarashlari, milliy uyg'onish davrida tutgan o'rni ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – Xorazm jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid pedagogik qarashlarini tizimli o'rganish, ularning tarbiyaviy merosini zamonaviy tarbiya fani mazmuniga uyg'unlashtirish hamda umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini samarali tashkil etishda bu merosdan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada tarbiya fani darslarida tarixiy-pedagogik manbalar asosida vatanparvarlik, milliy g'urur, ma'naviy poklik va ijtimoiy faollik kabi qadriyatlarni o'quvchilarga singdirishda Xorazm jadidlarining merosidan foydalanish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, o'quvchilarni ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan dars shakllari, interaktiv uslublar, jadid pedagogikasining asosiy tamoyillari asosida izohlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari esa hozirgi tarbiya fanining mazmunini boyitish va metodikasini takomillashtirishga qaratilgan dolzarb echimlarni taklif etadi.

XULOSA: xorazm jadidlarining ta'lim-tarbiyaviy merosi bugungi tarbiya fanining nazariy va metodik asoslarini boyitishga xizmat qiladi. Ularning qarashlarini amaliyotga tatbiq etish orqali tarbiya darslari nafaqat bilim berish vositasiga, balki shaxsni tarbiyalovchi, milliy ong va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi muhim vositaga aylanishi mumkin.

Kalit so'zlar: xorazm jadidlari, tarbiya fani, pedagogik meros, ta'lim-tarbiya metodikasi, milliy uyg'onish, interaktiv usullar, qadriyatlar tarbiyasi, ijtimoiylashuv, zamonaviy dars.

Iqtibos uchun: Ismailov T.X. Xorazm jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan tarbiya fani darslarida foydalanish mexanizmlari. // Inter education & global study. 2025, №6. B.305–312.

МЕХАНИЗМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОДХОДОВ ХОРЕЗМСКИЕ ДЖАДИДЫ К ОБРАЗОВАНИЮ НА УРОКАХ "ТАРБИЯ"

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© Т.Х. Исмаилов[1]✉
[1]Ургенчский государственный педагогический институт, Ургенч, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье дается научно-методологический анализ прогрессивных идей джадидских просветителей Хорезма в сфере образования, их социально-педагогических взглядов, а также их роли в период национального возрождения.

ЦЕЛЬ: основной целью данного исследования является системное изучение педагогических взглядов просветителей нового Хорезма на образование, гармонизация их педагогического наследия с содержанием современной педагогической науки и разработка научно-методических основ использования этого наследия в эффективной организации учебных занятий в средних школах.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье на основе историко-педагогических источников разрабатываются практические предложения по использованию наследия джадидов Хорезма в воспитании у учащихся таких ценностей, как патриотизм, национальная гордость, духовная чистота, общественная активность на уроках воспитания. Также объясняются форматы уроков и интерактивные методы, оказывающие положительное влияние на социализацию учащихся, основанные на основных принципах современной педагогики.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования предлагают актуальные решения, направленные на обогащение содержания и совершенствование методологии современной педагогической науки.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: образовательное наследие джадидов Хорезма служит обогащению теоретических и методологических основ современной педагогической науки. Претворяя свои взгляды в жизнь, образовательные уроки могут стать не только средством передачи знаний, но и важным инструментом воспитания личности, формирования национального самосознания и социальной ответственности.

Ключевые слова: хорезмские джадиды, образование, педагогическое наследие, образовательная методика, интерактивные методы, ценностное воспитание, социализация, современный урок.

Для цитирования: Исмаилов Т.Х. Механизмы использования подходов хорезмские джадиды к образованию на уроках “тарбия” // Inter education & global study. 2025, №6. С. 305–312.

MECHANISMS OF USING THE APPROACHES OF KHOREZM JADIDS TO EDUCATION IN “TARBIYA” LESSONS

© Tokhirjon Kh. Ismailov[1]✉
[1]Urgench State Pedagogical Institute, Urgench, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

INTRODUCTION: this article scientifically and methodologically analyzes the progressive ideas of the Khorezm Jadid Enlightenment on education, their socio-pedagogical views, and their role in the period of national revival.

AIM: the main goal of this study is to systematically study the pedagogical views of the Khorezm Jadid Enlightenment on education, to integrate their educational heritage into the content of modern education, and to develop scientific and methodological foundations for using this heritage in the effective organization of education lessons in secondary schools.

MATERIALS AND METHODS: the article develops practical proposals on using the heritage of the Khorezm Jadid Enlightenment in instilling in students such values as patriotism, national pride, spiritual purity, and social activism in education lessons based on historical and pedagogical sources. Also, the forms of lessons that have a positive impact on the socialization of students, interactive methods, and the main principles of Jadid pedagogy are explained.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study offer relevant solutions aimed at enriching the content and improving the methodology of the current educational science.

CONCLUSION: the educational heritage of the Khorezm Jadids serves to enrich the theoretical and methodological foundations of today's educational science. By applying their views to practice, educational lessons can become not only a means of imparting knowledge, but also an important tool for educating a person, forming national consciousness and social responsibility.

Key words: Khorezm jadids, educational science, pedagogical heritage, educational methodology, interactive methods, values education, socialization, modern lesson.

For citation: Tokhirjon Kh. Ismailov. (2025) ‘Mechanisms of using the approaches of khorezm jadids to education in “tarbiya” lessons’, Inter education & global study, (6), pp. 305–312. (In Uzbek).

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida kechgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy uyg‘onish jarayonlari, ayniqsa, Xorazm hududida faoliyat yuritgan jadid ma’rifatparvarlar faoliyati milliy pedagogika tarixida muhim burilish nuqtasini tashkil etadi. Bu davrda vujudga kelgan jadidchilik harakati, avvalo, xalqni jaholatdan qutqarish, uni ilm-ma’rifat asosida uyg‘otish, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish g‘oyalariga asoslangan edi. Xorazm jadidlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik konsepsiyalar – ma’rifiy tarbiya, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy yuksalish, ijtimoiy faollik kabi tushunchalar hozirgi zamon tarbiya fanining metodologik asosi sifatida o‘rganilishi va amaliyotga tatbiq etilishi nihoyatda dolzarbdir.

Tarbiya fani zamonaviy pedagogikaning asosiy bo‘g‘inlaridan biri sifatida nafaqat bolalar va o‘smirlarni ijtimoiylashtirish, balki ularni yuksak insoniy fazilatlarga ega shaxslar

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Xorazm jadidlarining tarbiya masalalariga doir qarashlari, ularning didaktik va axloqiy merosi, xalqchil va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yondashuvlari bugungi ta'lim jarayoniga boy metodik asoslar olib kiradi. Jadid pedagogik tafakkuri o'z zamonasida yangicha dars tashkil etish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ma'naviy tarbiya orqali ijtimoiy ongni shakllantirish, ijtimoiy adolat, erkin fikr, mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratgan. Ayniqsa, Xorazm jadidlarining o'ziga xos pedagogik falsafasi – milliy qadriyatlarni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish, ta'lim-tarbiyani xalqparvarlik ruhida olib borish g'oyalari hozirgi ta'lim konsepsiyalari bilan uyg'unlashadi.

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol, vatanparvar, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifaga aylangan hozirgi davrda, tarixiy-pedagogik tajribalarga ilmiy asosda tayanish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, Xorazm jadidlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish va ularni tarbiya fani darslariga metodik integratsiyalash orqali, dars mazmunini boyitish, pedagogik ta'sirchanlikni oshirish hamda milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash mumkin. Mazkur maqola aynan shu yo'nalishda – Xorazm jadidlarining tarbiyaviy qarashlarini tizimli tahlil qilish, ularning pedagogik merosini amaliy metodika sifatida o'quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmlarini yoritishga qaratilgan. Bu esa nafaqat tarbiya fani rivoji, balki milliy pedagogik tafakkurning zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashuvi yo'lida muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarbiya tizimi doimo jamiyat taraqqiyotining aks-sadosi sifatida qaraladi. Shu boisdan, pedagogik tadqiqotlar jarayonida tarixiylik va zamonaviylikning dialektik birligini saqlagan holda, an'anaviy merosni hozirgi ta'lim mazmuniga metodik integratsiya qilish ilmiy yondashuvlarning markazida turadi. Xususan, Xorazm jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish va ularni tarbiya fani darslarida amaliy qo'llash imkoniyatlarini aniqlash, pedagogik metodologiyaning tarixiy-pedagogik, g'oyaviy-ma'rifiy va didaktik tarmoqlari bilan uzviy bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi, avvalo, tarixiy-pedagogik tahlil asosida Xorazm jadidlarining asarlari, nutqlari, maktab dasturlari va o'quv-uslubiy qo'llanmalarining mazmunini aniqlash, ularning tarbiyaviy g'oyalarini sistemalashtirishni o'z ichiga oladi. Bunda manbashunoslik yondashuvi orqali jadidlar faoliyatiga oid asosiy yozma manbalar, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonovning "Tarbiya" asari, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", Mahmudxo'ja Behbudiyning maqolalari asosiy ob'ekt sifatida tanlab olindi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda komparativ (taqqoslovchi) metod asosida jadidlar tomonidan ilgari surilgan pedagogik g'oyalar bilan zamonaviy tarbiya fanining didaktik tamoyillari o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali, tarixiy qadriyatlarni zamonaviy metodik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishning asosli yo'llari aniqlanishiga erishildi.

Bundan tashqari, eksperimental-pedagogik kuzatuv usuli orqali umumta'lim maktablarida tarbiya darslarining mazmunini boyitishda jadid pedagogik merosidan foydalanish samaradorligi tahlil etildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida Xorazm viloyatidagi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ayrim maktablarda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar va o‘quvchilar tanlab olinib, ularning tarbiya fani darslaridagi ishtirok darajasi, ijtimoiy faolligi, axloqiy-estetik qiziqishlari o‘rganildi. Metodologik asos sifatida esa, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o‘qitish, faol ta’lim metodlari, xususan, debat, loyiha metodi, tarixiy rolli o‘yinlar, mini-tadqiqotlar kabi texnologiyalar asosida darslarda jadid g‘oyalarini tatbiq etish yo‘llari ishlab chiqildi. Bu esa o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ma’naviy baholash va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu tariqa, ushbu ilmiy izlanishda tarixiy-pedagogik asosda aniqlangan jadid g‘oyalarini zamonaviy ta’lim mazmuniga uyg‘unlashtirish, ularni metodik jihatdan integratsiya qilish va pedagogik amaliyotda qo‘llashga oid mexanizmlar tizimlashtirilgan holda bayon etildi. Bu esa, o‘z navbatida, tarbiya fanining mazmunini boyitish, darslarda milliy-ma’naviy qadriyatlarni jonlantirish hamda o‘quvchilarda fuqarolik ongini shakllantirishda mustahkam poydevor yaratadi.

Xorazm jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini o‘rganish bugungi pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu mavzuni chuqur o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish uchun milliy va xorijiy adabiyotlar, tarixiy-pedagogik manbalar, shuningdek zamonaviy metodik tadqiqotlar muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Avvalo, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Tarbiya”[2; 96 b] asari milliy tarbiya nazariyasining dastlabki yozma manbalaridan biridir. Unda muallif maktabda beriladigan tarbiya nafaqat bilim berish, balki insonni axloqiy, jismoniy va aqliy jihatdan mukammal shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilishi kerakligini asoslaydi. Abdurashidxonovning qarashlari shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasiga juda yaqin bo‘lib, bugungi pedagogik tamoyillar bilan uyg‘unlashadi.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”[1; 175] nomli asari esa o‘z mazmuni va ta’sir kuchi bilan o‘zbek pedagogik tafakkurining bebaho durdonasidir. Muallif axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik kabi tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning “Maorifga oid maqolalar”i ham maktab tizimini isloh qilish, o‘qituvchilik kasbining ahamiyatini oshirishga qaratilgan g‘oyalarga boy.

Tarbiya fani va uning zamonaviy metodikasi bo‘yicha M. Mahmudov[4; 210 b], X. S. Islomov[5; 185 b] kabi olimlar tomonidan yaratilgan qo‘llanmalar esa hozirgi o‘quv jarayonida qadriyatlar asosida tarbiya berishning samarali yondashuvlarini ishlab chiqqan. Ularning yondashuvlari jadidlarning g‘oyalari bilan uyg‘unlashuvi orqali milliylik va zamonaviylikni birlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, Davlat ta’lim standartlari, umumiy o‘rta ta’lim tarbiya konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid qaror va farmonlari Xorazm jadidlarining g‘oyalarini zamonaviy maktab tizimida metodik qo‘llash uchun huquqiy-me’yoriy asosni tashkil etadi.

Xorijiy adabiyotlarda esa, milliy uyg‘onish davri, jadidchilik harakati va uning ta’limiy xususiyatlari haqida Adeeb Khalid[6; 347 b] , Robert McChesney[8; 230 b], Edward Allworth[7; 480 b] kabi tadqiqotchilar chuqur tahlillar olib borgan. Ularning izlanishlari jadidchilik fenomenining global ma’rifiy jarayonlar bilan aloqadorligini ko‘rsatadi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari zamonaviy pedagogik jarayonga moslashtirilgan holda qo‘llanilishi mumkin. Bu esa tarbiya fanining mazmunini boyitish, darslarni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan boy qilish va o‘quvchilarda milliy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv va axborot asrida yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi yuksak fazilatlarni shakllantirish ta’lim-tarbiya tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Bu borada milliy pedagogik meros, ayniqsa, Xorazm jadid ma’rifatparvarlarining ilg‘or g‘oyalari pedagogik amaliyotda g‘oyat muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ularning tarbiya haqidagi qarashlari faqat o‘z davrining mahsuli bo‘lib qolmay, balki zamonaviy tarbiya fanining g‘oyaviy-nazariy negizini tashkil etadi. Jadidlar maktab ta’limining faqat diniy emas, balki dunyoviy, zamonaviy bilimlar asosida olib borilishini talab qilgan holda, tarbiyani inson kamolotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida tushunganlar. Munavvarqori Abdurashidxonovning “Tarbiya” asarida ilgari surilgan – aqliy, jismoniy va axloqiy tarbiyaning uyg‘unlikdagi talqini hozirgi ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv konsepsiyasi bilan mushtaraklik kasb etadi. Bu esa, jadidlarning pedagogik qarashlarini bugungi dars jarayoniga tatbiq etish zarurligini tasdiqlaydi.

Muhokama davomida aniqlanganki, Xorazm jadidlarining pedagogik merosi o‘ziga xos didaktik tamoyillarga asoslanadi: ma’rifat orqali ijtimoiy ongni uyg‘otish, ta’lim-tarbiyada hayotiylik prinsipiga amal qilish, o‘quvchini faollikka undash, mustaqil fikr yuritishga yo‘naltirish. Ushbu tamoyillarni tarbiya fanining dars mazmuniga singdirish orqali darslar faqat ma’lumot berishga emas, balki shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy maydonga aylanishi mumkin. Bunda, ayniqsa, darslarda interaktiv metodlar – tarixiy rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar, milliy meros asosida yaratilgan loyiha ishlari, ijodiy topshiriqlardan foydalanish katta samara beradi. Bu kabi metodik yondashuvlar orqali o‘quvchilar jadidlar ilgari surgan g‘oyalarni nafaqat o‘rganadi, balki ularni zamonaviy ijtimoiy voqeliklar bilan bog‘lab tahlil qilishga ham o‘rganadi. Masalan, Behbudiy yoki Avloniy asarlaridagi tarbiyaviy xitoblarni zamonaviy yoshlar hayoti bilan qiyoslash orqali tanqidiy tafakkur, ijtimoiy ong, vatanparvarlik va axloqiy pozitsiya shakllantiriladi.

Muhokama jarayonida e’tirof etish kerakki, hozirgi darslik va metodik qo‘llanmalarda jadidlar merosiga bag‘ishlangan materiallar etarli darajada tizimlashtirilmagan, bu esa tarbiya darslarini milliy ruhda tashkil etishda muayyan bo‘shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu boisdan, Xorazm jadidlarining asarlaridan namunalarni tarbiya fani darslarining muayyan mavzulariga uyg‘unlashtirish, ular asosida maxsus metodik qo‘llanmalar yaratish dolzarb masala sifatida qaralishi kerak. Tadqiqotda o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, jadidlar g‘oyalari asosida tashkil etilgan tarbiya darslari o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, ularni mustaqil fikrlashga, milliy qadriyatlarni anglashga undaydi, tarixga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Bu esa pedagogik faoliyatda tarixiy merosdan samarali foydalanish nafaqat mumkin, balki zarurligini ko‘rsatadi. Xorazm jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiyaviy qarashlari bugungi tarbiya fanining metodik mazmunini boyitishga, darslar samaradorligini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

oshirishga va o‘quvchining ijtimoiy ongini shakllantirishga xizmat qiladigan kuchli pedagogik resurs hisoblanadi. Muhimi, bu merosdan foydalanishda uni zamonaviy texnologiyalar, ta’limiy metodikalar bilan uyg‘unlashtirish zarur, shundagina u darslarda jonli, ta’sirchan va istiqbolli metodik asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Boboohun Salimovning pedagogik faoliyati tahlili.[3; 72 b] Xorazm jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Boboohun Salimov o‘zining serqirra faoliyati, xalqparvarlik ruhidagi ishlari va zamonaviy ta’lim g‘oyalarini ilgari surgan pedagogik qarashlari bilan ajralib turadi. Uning faoliyati ta’lim taraqqiyoti tarixida o‘ziga xos davrni tashkil etib, ayniqsa, Xorazm vohasida milliy uyg‘onish, maktab islohotlari va zamonaviy bilimlarning joriy etilishi yo‘lida muhim rol o‘ynagan. Boboohun Salimov ta’lim-tarbiyani xalq taraqqiyotining poydevori, millat kelajagining kafolati deb bilgan. U jadidchilik harakatining ilg‘or g‘oyalari asosida, maktabda faqatgina diniy emas, balki dunyoviy fanlarni ham o‘qitish, zamonaviy metodlarni joriy etish zarurligini targ‘ib qilgan. Salimovning pedagogik qarashlarida shaxsning komillikka erishuvi – axloqiy tarbiya, mehnatga e’tibor, ma’naviy etuklik va vatanparvarlik bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Uning fikricha, ta’lim shunchaki bilim berish vositasi emas, balki shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy jarayondir. Shu boisdan u o‘quvchini faqat passiv bilim oluvchi emas, balki faol ijtimoiy subyekt sifatida shakllantirish g‘oyasini ilgari surgan.

Boboohun Salimov jadidchilik harakatining asosiy tamoyillarini – zamonaviy ilmga asoslangan maktab, o‘qituvchi nufuzini oshirish, xalqni ma’rifat orqali uyg‘otish g‘oyalarini hayotga tatbiq etishda faol ishtirok etgan. U nafaqat pedagog, balki ma’naviy etakchi sifatida ham xalq orasida katta e’tibor va hurmat qozongan. Shuningdek, u yoshlarni mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashga da’vat qilgan, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish orqali milliy ong va mustaqil tafakkurni rivojlantirishga intilgan.

Boboohun Salimovning pedagogik faoliyati, afsuski, sovet davrida siyosiy sabablarga ko‘ra e’tibordan chetda qoldi. Ammo mustaqillikdan keyingi yillarda uning merosini o‘rganish, xalqparvarlik faoliyatini tadqiq qilishga bo‘lgan e’tibor ortmoqda. Uning ilg‘or pedagogik g‘oyalari bugungi ta’lim-tarbiya tizimida, ayniqsa, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya konsepsiyasida o‘z aksini topmoqda. Boboohun Salimov merosi – faqat tarixiy xotira emas, balki amaliy pedagogik qadriyatdir. U tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar hozirgi tarbiya fanining mazmunini boyitish, darslarda milliylikni chuqurlashtirish va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni rivojlantirish uchun asos bo‘la oladi.

Xorazm jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiyaga oid ilg‘or qarashlari o‘zining tarixiy ahamiyati bilan birga, bugungi zamonaviy pedagogik amaliyot uchun ham dolzarb nazariy-metodik manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning shaxsga yo‘naltirilgan, milliy qadriyatlar va umuminsoniy fazilatlarni uyg‘unlashtirgan tarbiyaviy yondashuvlari, zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan mutanosibdir. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, Xorazm jadidlarining pedagogik merosini tarbiya fani darslarida samarali qo‘llash, o‘quvchilarda mustahkam axloqiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, tanqidiy tafakkur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Boboohun Salimov, Bekchon Rahmon, Polvonniyoz

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Hoji Yusupov kabi ma'rifatparvarlarning qarashlaridan foydalanish, tarbiya darslarining mazmunini boyitadi, ularni ruhiy-ma'naviy ta'sirchanlik jihatidan yuqori bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, Xorazm jadidlarining tarbiyaga doir qarashlarini zamonaviy pedagogik metodlar – loyiha usuli, munozaralar, tarixiy rolli o'yinlar, mini-tadqiqotlar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'limning innovatsion va milliy asoslarini uyg'un holatda shakllantirish imkoniyati mavjud.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Xorazm jadidlarining ta'lim-tarbiyaviy merosi bugungi tarbiya fanining nazariy va metodik asoslarini boyitishga xizmat qiladi. Ularning qarashlarini amaliyotga tatbiq etish orqali tarbiya darslari nafaqat bilim berish vositasiga, balki shaxsni tarbiyalovchi, milliy ong va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi muhim vositaga aylanishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, milliy ta'lim tizimining ma'naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq / A. Avloniy. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 175 b.
2. Abdurashidxonov, M. Tarbiya / M. Abdurashidxonov. – Toshkent: Turon, 2000. – 96 b.
3. Salimov, B. Ta'lim va tarbiya masalalaridagi nutq va maqolalar. – Xorazm: Xorazm nashriyoti, 1927. – 72 b.
4. Mahmudov, M. Jadidchilik va xalq ta'lim tarixi / X. Hasanov. – Toshkent: Fan, 2014. – 210 b.
5. Islomov, X.S. O'zbekistonda jadidchilik harakatining pedagogik tamoyillari / S. Tursunxo'jaev. – Toshkent: Fan, 2007. – 185 b.
6. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia / A. Khalid. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 347 p.
7. Allworth, E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present / E. Allworth. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – 480 p.
8. McChesney, R. Waqf in Central Asia: Four Hundred Years in the History of a Muslim Shrine, 1480–1889 / R. McChesney. – Princeton: Princeton University Press, 1991. – 230 p.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ismailov Tohirjon Xushnudbek o'g'li**, Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi, [**Исмаилов Тоҳиржон Хушнудбек ўғли**, Независимый научный сотрудник Ургенчского государственного педагогического института], [**Ismailov Tokhirjon Khushnudbek uhli**, Independent researcher of Urganch State Pedagogical Institute]; manzil: O'zbekiston, Urganch sh., Gurlan ko'chasi, 1A-uy [адрес: Узбекистан, Ургенч, ул. Гурлан, 1A], [address: Uzbekistan, 1A, Gurlan st., Urgench city] E-mail: ismailovtohir4349@gmail.com ; ORCID: https://orcid.org/0000-0002-8571-3653

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TALABA-YOSHLARDA POZITIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

© B.Sh.Aymbetov[1]✉

[1]Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus, Qoraqalpog'iston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada "pozitiv fikrlash" tushunchasining mazmuni va mohiyati ochib berilgan bo'lib, uning asosiy xususiyatlari zamonaviy ta'lim va tarbiya maqsadlari bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Shuningdek, pozitiv fikrlashni rivojlantirishning talaba-yoshlarda o'qib bilim olishga bo'lgan ishtiyohining oshishi, mustaqil ta'lim traektoriyasini belgilashi hamda ta'lim olish jarayonida uchraydigan stress va turli xil risklarga bardoshlilikni rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asoslangan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi "pozitiv fikrlash" tushunchasining mazmuni va mohiyatini ochib berish orqali uni talaba-yoshlarda rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqotning metodologik asosini "pozitiv fikrlash" tushunchasining mazmunini aniqlash va uning talaba-yoshlarda rivojlantirishga doir ilmiy manbalarni o'rganish, tahlil etish, sintez, xulosalar chiqarish singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: pozitiv fikrlash tushunchasining pedagogik mazmuni, uni talabalarning ta'lim va tarbiya jarayonlariga integratsiyalashning bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning asosiy omili ekanligi ilmiy tahlil etilgan.

XULOSA: bolalarning yoshlik davridan boshlab pozitiv fikrlashni tarbiyalash uning kelajakda muvaffaqiyatga erishishga xizmat qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, talaba-yoshlarda ushbu sifatni rivojlantirish maktab hayotida pozitiv muhitni yaratishga xizmat qiladi. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda talab-yoshlarda pozitiv fikrlashini rivojlantirishga doir muhit vash art-sharoitlar yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: pozitiv fikrlash, talaba-yoshlar, bo'lajak o'qituvchilar, ta'lim, tarbiya, shaxsiy rivojlanish, psixologik barqarorlik, stress va turli xil risklarga bardoshlilik.

Iqtibos uchun: Aymbetov B.Sh. Talaba-yoshlarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida. // Inter education & global study. 2025, №6. B.313–319.

РАЗВИТИЕ ПОЗИТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

© Б.Ш.Аимбетов[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Каракалпакского государственного университета, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье раскрывается содержание и сущность понятия «позитивное мышление», анализируются его основные характеристики в контексте современных целей обучения и воспитания. Научно обосновывается значимость развития позитивного мышления для повышения интереса студентов к получению знаний, определения самостоятельной образовательной траектории, а также формирования стрессоустойчивости и толерантности к различным рискам, возникающим в процессе обучения.

ЦЕЛЬ: основной целью исследования является изучение научно-теоретических основ развития позитивного мышления у студенческой молодежи путем раскрытия содержания и сущности данного понятия.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в основу методологии исследования положены такие научно-исследовательские методы, как изучение, анализ, синтез и формулирование выводов на основе научных источников, посвященных определению содержания понятия «позитивное мышление» и его развитию у студенческой молодежи.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: проведен научный анализ педагогического содержания понятия позитивного мышления, а также его интеграции в образовательный и воспитательный процессы студентов как ключевого фактора в подготовке будущих учителей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: воспитание позитивного мышления с раннего возраста является фактором, способствующим достижению успеха в будущем. В частности, развитие этого качества у студенческой молодежи способствует созданию позитивной атмосферы в образовательной среде. Для этого целесообразно создавать в педагогических процессах, организуемых в высших учебных заведениях, среду и условия, способствующие развитию позитивного мышления у студентов.

Ключевые слова: позитивное мышление, студенческая молодежь, будущие учителя, образование, воспитание, личностное развитие, психологическая устойчивость, стрессоустойчивость и толерантность к различным рискам.

Для цитирования: Аимбетов Б.Ш. Развитие позитивного мышления у студенческой молодежи как актуальная педагогическая проблема // Inter education & global study. 2025, №6. С. 313–319.

DEVELOPMENT OF POSITIVE THINKING AMONG STUDENT YOUTH AS A RELEVANT PEDAGOGICAL ISSUE

© Bayrambay Sh. Aymbetov[1]✉
[1]Karakalpak State University, Nukus, Karakalpakstan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

INTRODUCTION: this article elucidates the content and essence of the concept of "positive thinking," analyzing its key characteristics within the context of modern educational and upbringing goals. The study scientifically substantiates the importance of developing positive thinking to enhance students' interest in acquiring knowledge, to facilitate the formation of independent educational trajectories, and to foster stress resilience and tolerance to various risks encountered during the learning process.

AIM: the primary aim of the research is to study the scientific and theoretical foundations for the development of positive thinking among student youth by revealing the content and essence of this concept.

MATERIALS AND METHODS: the methodological basis of the research includes scientific research methods such as study, analysis, synthesis, and formulation of conclusions based on academic sources dedicated to defining the content of the concept of "positive thinking" and its development among student youth.

DISCUSSION AND RESULTS: a scientific analysis of the pedagogical content of positive thinking is conducted, alongside its integration into the educational and upbringing processes of students, identifying it as a key factor in the preparation of future teachers.

CONCLUSION: the cultivation of positive thinking from an early age is a factor contributing to future success. In particular, the development of this quality among student youth promotes the creation of a positive atmosphere within the educational environment. Accordingly, it is advisable to establish environments and conditions within pedagogical processes organized at higher education institutions that facilitate the development of positive thinking among students.

Key words: positive thinking, student youth, future teachers, education, upbringing, personal development, psychological resilience, stress resistance, tolerance to various risks.

For citation: Bayrambay Sh. Aymbetov. (2025) 'Development of positive thinking among student youth as a relevant pedagogical issue', Inter education & global study, (6), pp. 313–319. (In Uzbek).

Ma'lumki, bugungi tezkor va o'zgaruvchan jamiyatda ta'lim tizimi va uning mazmunini zamon talablari doirasida takomillashtirish, texnologik, ijtimoiy, psixologik va madaniy o'zgarishlarda o'zini boshqarish, jarayonlarga moslashish, tegishli ijobiy xulosalarga erishish va o'zligini anglashga qodir yoshlarni tarbiyalash talab etiladi. Chunki axborot hajmining kengayishi, ta'limning globallashuvi va raqamlashtirish sharoitlari, ta'lim muassasalarida raqobatning kuchayishi singari ko'plab jarayonlar talabalarda xavotirlanish, ichki zo'riqish, stress holatlari va turli risklarni keltirib chiqarmoqda. Bunday vaziyatlarda talaba-yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan barqaror qadriyatlar tizimini shakllantirish alohida dolzarblik kasb etadi. Talaba-yoshlarda pozitiv

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish bu kabi muammolar yechimini topishning alohida yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Falsafa, pedagogika, psixologiya singari ko‘plab ijtimoiy-gumanitar fan sohalarida insonning fikr yuritishi, tafakkur falsafasi, dunyoqarashi masalalari har doir olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan muammolarning biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ilm-fanda “mustaqil fikrlash”, “tanqidiy fikrlash”, “mantiqiy fikrlash”, “kreativ fikrlash”, “ijodiy fikrlash”, “analitik fikrlash”, “sanogen fikrlash”, “abstrakt fikrlash”, “intuitiv fikrlash”, “aniq fikrlash”, “ixtiyoriy fikrlash”, “ixtiyorsiz fikrlash”, “realistik fikrlash”, “autistik fikrlash”, “impirik fikrlash”, “reproduktiv fikrlash”, “sog‘lom fikrlash”, “emotsional fikrlash” singari fikrlashning ko‘p turlari alohida tadqiqot ob’ekti sifatida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganilib kelinayotgan muammolarning biri hisoblanadi.

Psixologiya va pedagogika fanida ta’lim oluvchilarning fikrlashida an’anaviy tarzda, qaysidir ma’noda aksiomatik xarakterga ega bo‘lgan fikrlashning qo‘yidagi klassifikatsiyasi tan olingan va ta’lim jarayonida aynan fikrlashning shu kabi turlar dominantlik qiladi. Bularga psixik jarayonlar bilan bog‘liq tarzda ko‘rgazmali-amaliy tafakkur, aniq-predmetli tafakkur, abstrakt-mantiqiy fikrlash; psixik jarayonlarning darajasi bo‘yicha “analitik fikrlash”, “intuitiv fikrlash”, “realistik fikrlash”, “autistik fikrlash”, “patogen fikrlash”, pedagogik nuqtai nazardan ko‘rgazmali-amaliy tafakkur, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur, verbal (so‘zlashuv orqali)-mantiqiy tafakkur singari fikrlash bilan bog‘liq jarayonlar har doim olimlarni qiziqtirib kelayotgan muammolarning biri hisoblanadi. Chunki dunyoni bilish sezgi orqali amalga oshiriladigan jarayon bo‘lsa, tafakkur va fikrlash uni o‘zgartirish bilan bog‘liq jarayonlar hisoblanadi. Shunday ekan, fikrlash jarayoni, inson tafakkuri juda murakkab va keng qamrovli integrativ hususiyat bo‘lib, bu kabi tafakkur va fikrlashni tarbiyalab borish talab etiladi.

Pozitiv fikrni shakllantirish, rivojlantirish va tarbiyalash masalalari buguni yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan bu muammo pedagogik emas, ko‘proq psixologik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Masalan, T.O.Gordeeva bilan Ye.N.Osinlar pozitiv fikrash – bu ta’limda muvaffaqiyatlarga erishish faktorlaridan biri sifatida qaraydi hamda dispozitsion optimizm, optimistik atributiv stil hamda shaxsning o‘zi haqidagi pozitiv qarashlari uning bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan aspetlari bo‘lishiga qaramasdan uarni alohida kategoriyalar sifatida tahlil etilishi lozimligi haqidagi g‘oyalarini ilgari suradi [2]. Sh.K.Sattorova esa talabalardagi pozitiv fikrlashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tahlil etgan holda ulardagi bu sifatning o‘ziga xix hususityatlari sifatida qo‘yidagilarni belgilaydi: kundalik hayoti, kelajakka bo‘lgan pozitiv munosabat, kayfiyati, mustaqil harakat qilishi, baxt haqidagi tasavvurlari, o‘zligini anglashi, o‘qishga bo‘lgan pozitiv kayfiyatining ta’limdagi natijaviyligi, ma’naviy vaziyatlar va psixologik muammolar [5]

D.A.Joldoshbaev bilan A.J.Attokurovalar kasbiy faoliyatda pozitiv kayfiyatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tahlil etadi. Ular bevosita bo‘lajak pedagog-o‘qituvchilarning pozitiv fikrlariga ta’sir etuvchi omillari sifatida diskresion o‘zini o‘zi nazorat qilish, muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan motivaisya, avtonomiya, o‘z-o‘ziga bo‘lgan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

adekvat baholash, barqarorlik, boshqalarni ular qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilish, agressivlikning past darajasi, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, kommunikabellik, tolerantlik va frustratsiya, pozitiv munosabat, refleksivnost deb belgilab beradi. Shu bilan bir qatorda ular pozitiv fikrlashning ratsional hususiyatlarini o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan erkin harakatlanish deb biladi [3] M.Seligman pozitiv psixologiyaning insonlarni baxtga eltishi haqidagi g‘oyalarini ilgari surgan pozitiv ta’lim masalasiga alohida to‘xtab o‘tadi. Psixolog olim maktabda bolalarni muvaffaqiyatga erishishga o‘rgatish lozimligin ta’kidlaydi hamda Djilong maktabining loyixasi, pozitiv kompyuter texnologiyalari hamda farovon hayoning yangi ko‘rsatkichlari haqida o‘zining ilmiy g‘oyalarini ilgari suradi. Shuningdek olim inson fe’l-atvorining pozitiv jihatlarining biri sifatida intellekni alohida ta’kidlaydi hamda “qat’iylik, xarakter va muvaffaqiyatni” intellektning yangi nazariyasi sifatida e’tirof etadi [6]. Psixolog olim B.Fridrikson ijtimoiy hayotda muammolarning bo‘lishi tabiiy, lekin pozitiv yo‘naltirilgan insonlarning muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan imkoniyati ko‘proq ekanligini ta’kidlagan holda o‘zining “kengaytir va yasab-qur” ((broaden-and-build theory) nazariyasini ishlab chiqadi. Bu nazariyaga ko‘ra pozitiv emotsiyalar insonlarni nafaqat xatga eltadi, balki ulardagi diqqat, fikrlash, ijodiy salohiyatni oshirish orqali munosabatlarni natijaga erishishga doir resurslarni qurish imkoniyatiga ega bo‘lishga doir mazmunga ega [1]

Psixolog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning o‘ziga bo‘lgan past bahosi, hayojonlanish, ilojsizlik, ishdani konfliktlar, og‘riqli emotsiyalar, sog‘liq bilan bog‘liq muammolar, o‘zidan qanoatlanmaslik, har doim yomon narsalar haqida o‘ylash, optimizmning sustligi ularning pozitiv fikrlashiga xalaqt qiladigan jihatlar hisoblanadi. Ya’ni, psixologiya fanida pozitiv fikrlash fenomeniga qiziqish ortib borayotgan bo‘lsa-da, pedagogika fanida u hali ham aniq va tizimli ta’rifga ega emas

Pedagogik nuqtai nazardan esa pozitiv fikrlash masalasiga nisabatan ijodiy fikrlash masalasi ko‘proq ilmiy jihatdan keng o‘rganilgan muammolardan hisoblanadi. Ba’zi holatlarda, ya’ni amalda ularni ijobiy, ya’ni pozitiv fikrlash bilan chalkashtirish holatlari ham uchrab turadi. Lekin “ijodiy fikrlash” bilan “ijobiy fikrlash”, ya’ni pozitiv fikrlash bir-biri bilan bog‘liq, ammo ular o‘ziga hos jihatlari bilan bir-biridan farq qiladigan tushunchalar hisoblanadi. Pedagogik nuqtai nazardan “pozitiv fikrlash” masalasini tahlil etar ekanmiz eng avvalo “Avesto” asaridagi hamda ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan “Ezgu niyat, ezgu amal, ezgu xulq-atvor” singari aksiomaga aylangan g‘oya metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, A.Krutovskaya pozitiv fikrlashni bolalik davrlan boshlab tarbiyalash haqidagi fikrlarini ilgari suradi va u pozitiv fikrlash – bu hayotga optimistik nuqtai nazardan qarash hamda shunchaki emas, balki yaxshiliklarga bo‘lgan ishonch”, - degan ta’rifni beradi. U pozitiv fikrlashga taalluqli bo‘lgan negativ emotsiyalardan qochish va insonning o‘ziga bo‘lgan samimiy munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan “toksik pozitiv” tushunchasini ilgari so‘radi hamda bolalarda pozitiv fikrlashni shakllantirishning qo‘yidagi usullarini tavsiya etadi [4]:

- pozitiv dialogga kirishga o‘rgatish,
- murakakab vaziyatlarni hamkorlikda muhokama qilish,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- atrofdagi yaxshi voqea, hodisa va jarayonlarni ko‘rib bilishga o‘rgatish,
- o‘z emotsiyalarini anglashga hamkorlikda qarab chiqish,
- o‘z-o‘zini nazorat qilish malakalarini egallashi,
- bolaning har qanaqa muvaffaqiyatini qayd etish,
- bola yo‘l qo‘ygan xatolarga qatiy yumshoq munosaatda bo‘lish.

Bolalik davrdan boshlab pozitiv tafakkurning shakllanishi ijtimoiy hayotdagi har qanday vaziyatda ham xursandchilik uchun sabab topa olishi, muvaffaqiyatsizliklarni boricha qabul qilish orqali undan faqatgiga muammoni ko‘rmasdan, balki vaziyatlarni hal etish yo‘llarini topishga intilish, uning ijobiy tomonlarini ham ko‘rib bilish qobiliyatiga erishishga imkon beredi. Bu qobiliyatning ayniqsa, talaba-yoshlarda shakllantirishi va rivojlantirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogika ilmida asosan axloqiy tarbiya, ko‘nikma va malakalar yoki hissiy intellekt nuqtai nazaridan talqin qilinganligini inobatga oladigan bo‘lsak ushbu fenomenni ilmiy o‘rganishdagi yondashuvlarning tarqoqligini ko‘rish mumkin. Bunday tarqoqlik ta’lim amaliyotida, ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda metodik jihatdan qo‘llashni qiyinlashtiradi.

Ta’limning insonparvarlik paradigmasi sharoitida pozitiv fikrlashni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish va tarbiyaviy ishlar tizimiga amaliy transformatsiya qilishni talab etadigan muhim pedagogik kategoriya sifatida ko‘rib chiqish lozim. U ta’lim jarayoniga tasodifiy tarzda emas, balki hamkorlik, refleksiya, bag‘rikenglik, hissiy barqarorlik va axloqiy yetuklik ko‘nikmalarini shakllantiruvchi didaktik texnologiyalar orqali maqsadli ravishda kiritilishi kerak. Demak, pedagogik nuqtai nazardan pozitiv fikrlash - bu eng avvalo talabalarning barqaror shaxsiy munosabati bo‘lib, u muammolarni hal qilishga intilish, hissiy barqarorlik, o‘z kuchiga ishonch va ta’limni o‘z-o‘zini rivojlantirish vositasi sifatida idrok etishia namoyon bo‘ladigan qadriyatli yo‘nalganlik hisoblanadi. Chunki, bunday pozitsiya tizimli qadriyatlar asosida tarbiyalash, talabalarga refleksiv xarakterga ega bo‘lgan topshiriqlarni berish (o‘quv vaziyatlarini tahlil qilish, o‘zini baholash, muvaffaqiyat kundaliklari), ularni mazmunli, ijtimoiy ahamiyatga ega va rag‘batlantiruvchi faoliyatga jalb etish singari ishlarni olib borish orqali rivojlantirilib boriladi.

Pozitiv fikrlash talaba-yoshlarda:

- ta’lim, bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish,
- ta’lim olishdagi faolligini oshirish,
- stresslar va turli xil risklarga bo‘lgan bardoshlilik va hayotiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyatini shakllantirish,
- jamoaviy ishlash ko‘nikmasini oshiradi, hamdardlik, bag‘rikenglik va hissiy intellektni rivojlantiish;
- o‘z-o‘zini anglash va shaxsiy yetuklikka intilish singari sifatlarlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunda pedagogik jarayonlarda qo‘yidagi shart-sharoitlarni yaratish zarur:

- pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi kurslarining mazmuniga poizitiv fikrlash va shaxsning qadriyatli yo‘nalganligini tarbiyalashga doir mavzularini kiritish,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- pedagogik optimizm va empatik muloqotni rivojlantirishga doir mashg‘ulotlarni tashkil etish,
- o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida mulohaza yuritishga doir muhitni yaratish (fikr-mulohaza doiralari),
- ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda ishtirok etish,
- ijobiy pedagogik muloqot,
- rag‘batlantiruvchi metodlarni qo‘llash (muvaffaqiyatga yo‘naltirish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, talaba-yoshlarning tashabbuslarini e’tirof va h.k.),
- pedagogik jarayonlarni fasilitatorlik mazmunda tashkil etish va h.k.

Demak, pozitiv fikrlash talaba-yoshlarning nafaqat ruhiy xususiyati, balki maqsadli pedagogik ta’sirning natijasi, ularning shaxsiy salohiyatini ochish va tez o‘zgaruvchan dunyoda samarali ijtimoiylashuvining kaliti hisoblanadi. Uni shakllantirish va rivojlantirish tizimli ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Barbara L Fredrickson. Positivity: Groundbreaking research reveals how to embrace the hidden strengths of positive emotions, overcome negativity and thrive. //InterAction. 2009, VOLUME 1, NUMBER 1. 89-92C. https://www.researchgate.net/publication/263378499_ e
2. Гордеева Т.О., Осин Е.Н. Позитивное мышление как фактор учебных достижений старшеклассников. //Вопросы психологии. - 2010. №1. 24-33 С. https://fdp.hse.ru
3. Жолдошбаев Д.А., Аттокурова А.Ж. Факторы влияющие на позитивное мышление будущего педагога. //Бюллетень науки и практики. Т.10. №2. 2024. 492-496 С.
4. Крутовская А. Формирование позитивного мышления у ребёнка. //Вестник. Электронный ресурс: https://externat.foxford.ru/polezno-znat/formirovanie-pozitivnogo-myshleniya-u-rebenka
5. Сатторова Ш.К. Особенности развития позитивного мышления в студенческом возрасте. //Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2023-й. №5
6. Селигман М. Путь к процветанию. Новое понимание счастья и благополучия. / Мартин Селигман; пер. с англ. яз. Е.Межевич, С.Филина. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2013. -440 С.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Aymbetov Bayrambay Sharapatdinovich**, mustaqil izlanuvchi, [**Аймбетов Байрамбай Шарапатдинович,** соискатель], [**Aymbetov Bayrambay Sharapatdinovich**, Doctorial Researcher]; manzil: O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh., Ch.Abdirov ko‘chasi [адрес: Узбекистан, Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. Ч.Абдирова], [address: Uzbekistan, Republic of Karakalpakstan, Nukus, Ch. Abdirov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

INKLYUZIV TA'LIMDA SUN'IY INTELEKTGA ASOSLANGAN RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI

© F.S.Sadikova[1]✉

[1]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

Yana bir muhim metodologik asos bu – aks ettiruvchi ta’lim (refleksiv ta’lim) yondashuvidir. Bu yondashuv orqali talabalar o‘z madaniy ildizlari, tarixiy xotiralari, oilaviy va mahalliy qadriyatlar haqida mushohada yuritib, o‘z “men”ini milliy kontekstda anglashga harakat qiladi. Refleksiya asosida shakllangan ongli yondashuv, o‘z navbatida, shaxsiy identitet va ijtimoiy mas’uliyatni mustahkamlaydi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil metodlari uyg‘unlashtirildi. So‘rovnomalar, kuzatuvlar, testlar, intervyular orqali talabalarning madaniy meros haqidagi bilimlari, unga bo‘lgan munosabati va amaliy faoliyati o‘rganildi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari asosida metodik vositalarning

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

samaradorligi baholandi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot metodologiyasi ko‘p komponentli va fanlararo xususiyatga ega bo‘lib, u milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi madaniy-ma’naviy vositalarni chuqur tahlil qilish va ta’limiy jarayonga metodik asosda integratsiyalash imkonini berdi.

Talabalarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya fanlari kesimida faol o‘rganilayotgan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylangan. Ushbu kompetensiyaning mazmun-mohiyatini ochib berishda ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari g‘oyasi va Yangi O‘zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichi konsepsiyasi doirasida yosh avlodda tarixiy xotira, madaniy identitet, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash hissini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, Sh. Mirziyoyev asarlarida yoshlar tarbiyasida madaniy merosning tarbiyaviy kuchi alohida urg‘u bilan ta’kidlangan.

Ilmiy-nazariy jihatdan olganda, A. A. Saidov, M. X. Xolmuhamedov, Z. T. Toshkenboyeva kabi pedagog olimlar milliy qadriyatlar asosida kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan. Ular ta’lim tizimida milliy o‘zlikni anglashni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, madaniy yondashuv va innovatsion metodlar orqali amalga oshirish lozimligini ta’kidlaydilar. Etnopedagogik yondashuv asoslari A. N. Jumanazarova, N. Q. Yo‘ldoshev va Sh. S. Abdullayeva tomonidan yoritilgan bo‘lib, ularning tadqiqotlarida xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar va madaniy an’analar yosh avlod tarbiyasida vosita sifatida o‘rganiladi. Ushbu manbalarda madaniy merosni ta’lim jarayoniga integratsiyalash orqali talabalarda estetik did, madaniy iftixor, tarixiy ong va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Xorijiy adabiyotlarda esa bu masala multikulturalizm va madaniy identitet nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Masalan, E. Erikson shaxsiy va ijtimoiy identitetning shakllanishini o‘sish bosqichlariga bog‘lagan bo‘lsa, S. Hall va B. Anderson milliy identitetni sotsial-konstruktsion modelda ko‘rsatadi. Bu qarashlar madaniy meros vositasida shaxsda ijtimoiy-madaniy uyg‘unlikni shakllantirishda foydalidir.

UNESCO va ISESCO kabi xalqaro tashkilotlarning ta’limda madaniy merosdan foydalanishga doir hisobotlari ham ushbu mavzuni yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularning tavsiyalarida ta’limda madaniy xilma-xillikni saqlash, merosni saqlash va uni yosh avlodga yetkazish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy kompetensiyalar tizimini ishlab chiqqan OECD (The Organisation for Economic Co-operation and Development) hujjatlarida fuqarolik kompetensiyasi, madaniy ong va ijtimoiy mas’uliyat yoshlar ta’limining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirish madaniy merosdan samarali foydalanishni nazariy va amaliy jihatdan asoslashni talab qiladi. Milliy va xorijiy manbalarning uyg‘un tahlili asosida ushbu yo‘nalishda samarali metodik yondashuvlar ishlab chiqish imkoni mavjud.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Milliy o‘zlikni anglash masalasi zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy, madaniy va fuqarolik jihatdan shakllanishi uchun hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, bu jarayonda yoshlar, xususan, talabalarning o‘z xalqiga, tarixiy ildizlariga, madaniy qadriyatlariga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish ustuvor pedagogik vazifa hisoblanadi. Mazkur kompetensiyani rivojlantirishda madaniy merosdan foydalanish – ta’lim mazmunini milliy asosda boyitish va talabaning ichki dunyosiga bevosita ta’sir ko‘rsata oladigan kuchli manbadir.

Madaniy meros – bu nafaqat tarixiy xotira, balki shaxsiy identitet va jamoaviy ong shakllanishida ishtirok etadigan ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Milliy liboslar, qadimiy me’moriy obidalar, xalq og‘zaki ijodi, an’anaviy musiqa, xalq amaliy san’ati kabi meros turlari orqali yosh avlod o‘zini shu xalqning vakili sifatida his eta boshlaydi. Bu esa o‘z navbatida ularda “kimman?”, “qayerdanman?”, “qaysi qadriyatlar menga xos?” degan fundamental savollarga javob topish ehtiyojini uyg‘otadi. Bu ehtiyoj qondirilgan taqdirdagina, milliy o‘zlik anglanadi va mustahkamlanadi. Pedagogik jarayonda madaniy merosdan foydalanishning samaradorligi, avvalo, uning talaba uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lishiga bog‘liq. Agar talaba tarixiy obida, maqol yoki doston mazmunida o‘z shaxsiy hayoti, oilasi yoki mahallasi bilan uyg‘unlikni ko‘rsa, u bu merosni faqat o‘tmishga oid emas, balki bugungi hayotida faol ishtirok etayotgan qadriyat sifatida qabul qiladi. Shu sababli, madaniy merosni ta’limga integratsiyalashda kontekstual yondashuv, ya’ni o‘quvchining hayotiy tajribasiga bog‘lab o‘qitish muhim metodik tamoyil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda madaniy meros vositasida milliy o‘zlikni anglatish masalasi nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonining ichki tarkibiy qismi, balki milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy immunitetni shakllantirish omili sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalarida madaniy merosga oid darslar, to‘garaklar, loyihalar, ekskursiyalar, ijodiy uchrashuvlar va musobaqalar orqali bu qadriyatlar nafaqat o‘rgatilmoqda, balki yashatilmoqda. Chunki meros faqat bilish ob’ekti emas, balki yashash usuli, fikrlash mezoni va jamiyatdagi o‘rningni anglash vositasidir. Shu bilan birga, talabalarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishda muayyan muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hollarda madaniy merosga nisbatan sathiy, formal yondashuv, faqatgina bayramlar yoki darsliklar bilan cheklanish, uning zamonaviy yoshlar mentalitetiga mos tarzda talqin qilinmasligi natijasida bu qadriyatlar ichki ehtiyojga aylanmay qolmoqda. Bunday sharoitda pedagog innovatsion, interaktiv va talabaning shaxsiy qiziqishlariga mos metodlar orqali madaniy merosni “jonlantirishga” harakat qilishi zarur.

Muhim jihatlardan biri shundaki, madaniy meros faqat “o‘tmishni bilish” emas, balki zamonaviylikni anglash, madaniy kompetensiyani rivojlantirish va global dunyoda o‘z milliy qiyofasini yo‘qotmasdan yashash imkoniyatidir. Shu bois, talabalarga madaniy merosni zamonaviy texnologiyalar orqali o‘rganish – raqamli muzeylar, virtual ekskursiyalar, multimediya darslari orqali yetkazish ularning estetik va identitet jihatdan o‘sishiga xizmat qiladi. Bu esa raqamli avlod vakillari uchun madaniy merosni zamonaviy tarzda talqin qilishga zamin yaratadi. Milliy o‘zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishda madaniy merosdan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda, shaxsiy va ijtimoiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

identitetni mustahkamlashda, fuqarolik mas'uliyatini uyg'otishda strategik vosita hisoblanadi. Buning uchun esa chuqur metodik tayyorgarlik, innovatsion yondashuv va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarur.

Bugungi globallashuv va raqamli axborot oqimi kuchaygan davrda milliy o'zlikni anglash masalasi nafaqat shaxsiy, balki butun jamiyatning barqarorligi va rivoji bilan uzviy bog'liq masalaga aylangan. Ayniqsa, talabalik davri — shaxsiy qarashlar, ijtimoiy pozitsiya, madaniy-estetik did va hayotiy qadriyatlar shakllanuvchi muhim bosqich hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirish bugungi oliy ta'lim tizimining dolzarb va strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi zarur. Mazkur tadqiqot davomida aniqlanganki, milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishda madaniy merosning roli beqiyosdir. Bu meros – xalq ruhining aksidir. U jamiyatning tarixiy xotirasi, milliy tafakkur shakllari, san'at va estetik qarashlar, urf-odat va an'analarning majmuasi sifatida talabaning ichki olamiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Madaniy meros orqali talaba o'zining milliy mansubligini, tarixiy ildizlarini, estetik va axloqiy mezonlarini ongli ravishda anglaydi. Bu jarayon esa ularning shaxsiy va fuqarolik kompetensiyalarining shakllanishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilish mumkinki, madaniy merosdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun u faqat ta'lim mazmunining tarkibiy qismi emas, balki pedagogik jarayonning faol elementi sifatida qaralishi lozim. Buning uchun o'qituvchi avvalo o'zi madaniy merosni chuqur anglagan, unga ishonchli va samimiy munosabatda bo'lgan holdagina talabaning ichki e'tiborini jalb eta oladi. Shu bilan birga, madaniy merosni talabalarga etkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan — loyiha asosidagi ta'lim, muammoli vaziyatlar, simulyatsiyalar, raqamli platformalar va interaktiv uslublardan keng foydalanish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, madaniy meros orqali milliy o'zlikni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ayrim hollarda yetarli darajada tizimlashtirilmagan, epizodik va formal tusda kechayotgani ham kuzatildi. Bu esa ushbu sohadagi metodik va konseptual yondashuvlarni yanada chuqurlashtirish, mavjud tajribalarni tahlil qilish, yangicha yondashuvlar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Maqolada bayon etilgan tahlil va natijalar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin:

milliy o'zlikni anglash kompetensiyasi – bu faqat bilim emas, balki shaxsiy munosabat, qadriyatga aylangan tushunchadir.

madaniy meros bu kompetensiyani shakllantirishda fundamental manba, tarbiyaviy vosita va milliy identitetni mustahkamlovchi kalit omildir.

pedagogik jarayonda madaniy merosdan foydalanish tizimli, innovatsion va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

bu yo'nalishda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va madaniy kompetentligini oshirish – jarayon muvaffaqiyatining muhim kafolatidir.

Shu bois, talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan har bir pedagogik faoliyat – bu nafaqat bilim berish, balki shaxsda milliy g'urur, tarixiy xotira va ijtimoiy mas'uliyat uyg'otishdek yuksak maqsadga xizmat qilishi lozim. Bu

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

esa o‘z navbatida Yangi O‘zbekistonning ongli, fidoyi va ma’naviy yetuk avlodini tarbiyalash yo‘lida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullaeva Sh.S. O‘zbek xalqining og‘zaki ijodiy merosi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari. // “Ta’lim va fan” ilmiy-amaliy jurnali. – 2021. – №4. – B. 45–49.
2. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York: Norton, 1968. – 336 p.
3. Hall S. Cultural Identity and Diaspora. // Framework: The Journal of Cinema and Media. – 1990. – №36. – P. 222–237.
4. Toshkenboeva Z.T. Ta’limda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish: nazariy va amaliy asoslar. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2020. – 184 b.
5. Jumanazarova A.N. Etnopedagogika: nazariya va amaliyot. – T.: “O‘qituvchi”, 2012. – 168 b.
6. Yoldoshev N.Q. Milliy an’analar va zamonaviy ta’lim. – T.: Iqtisodiyot va ta’lim, 2016. – 120 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston — inson qadri ulug‘langan davlat. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 400 b.
8. Saidov A.A. Milliy o‘zlikni anglash falsafasi. – T.: Fan, 2002. – 196 b.
9. Xolmuxamedov M.X. Milliy qadriyatlar va ta’lim mazmuni. – T.: TDPU nashriyoti, 2014. – 152 b.
10. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris: UNESCO Publishing, 2003. – 34 p.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Salavatova Xurshida San’at qizi,** Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi [**Салаватова Хуршида Санъат қизи,** Независимый исследователь, Ургенчский государственный педагогический институт], [**Salavatova Xurshida San’at qizi,** Independent researcher of the Urgench State Pedagogical Institute]; manzil: O‘zbekiston, Urganch sh., Gurlan ko'chasi, 1A-uy [адрес: Узбекистан, Ургенч, ул. Гурлан, 1A], [address: Uzbekistan, 1A, Gurlan st., Urgench city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DIALOGLI MULOQOTNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

© D.S.Abdisamatova[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan faol va samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish muhim omillardan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan darslarda dialogli muloqot o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, fikrlash va fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichida dialogli muloqotni shakllantirishning samarali usullari, ularning amaliyotdagi o‘rni va natijadorligi yoritiladi.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dialogli muloqotni shakllantirish bo‘yicha samarali usullarni aniqlash, ularni amaliyotga joriy etish hamda bu jarayon orqali o‘quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Kuzatuv metodi – boshlang‘ich sinf darslarida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni tahlil qilish uchun.
- Suhbat va so‘rovnoma metodi – o‘quvchilarning muloqotga munosabatini o‘rganish maqsadida.
- Amaliy tajriba – dialogli muloqot usullarini sinfda joriy etish va kuzatish. Material sifatida esa maktabdagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borilgan darslar, o‘quv rejalari hamda metodik qo‘llanmalardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dialogli muloqotni yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- Savol-javob asosidagi muloqot **–** o‘quvchining mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi.
- Rol o‘ynash mashqlari (dialog dramasi) **–** muloqot madaniyatini rivojlantiradi.
- Juftlik va guruhli ishlash **–** o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik va tinglash ko‘nikmasini shakllantiradi. Ushbu usullarni tizimli va maqsadli qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etish darajasi oshgani kuzatildi.

XULOSA: dialogli muloqot boshlang‘ich ta’limda nafaqat til o‘rgatish, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining to‘g‘ri yondashuvi, interfaol metodlardan foydalanishi, har bir o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash orqali dialogli muloqot samaradorligini oshirish mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kalit so'zlar: dialogli muloqot, boshlang‘ich ta’lim, interfaol usullar, kommunikativ kompetensiya, savol-javob, guruhli ish.

Iqtibos uchun: Abdisamatova D.S. Boshlang‘ich sinflarda dialogli muloqotni shakllantirishning samarali usullari. // Inter education & global study. 2025, №6. B.342–349.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПОСТРОЕНИЯ ДИАЛОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

© Д.С.Абдисаматова[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в современном образовательном процессе одним из важных факторов является установление активного и эффективного общения с учащимися. Особенно в начальных классах диалоговое общение способствует развитию речевой активности учащихся, их мышления и навыков выражения мнений. В данной статье освещаются эффективные методы формирования диалогового общения на начальной ступени образования, их практическое значение и результативность.

ЦЕЛЬ: определить эффективные методы формирования диалогового общения у учащихся начальных классов, внедрить их в практику и через данный процесс развить речевые и коммуникативные компетенции учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы следующие методы:

- Метод наблюдения — для анализа взаимодействия между учителем и учеником на уроках в начальных классах;
- Метод интервью и анкетирования — с целью изучения отношения учащихся к общению;
- Практический эксперимент — внедрение методов диалогового общения в классе и наблюдение за процессом. В качестве материала использовались уроки с участием учащихся начальных классов, учебные планы и методические пособия.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что для организации диалогового общения эффективными являются следующие методы:

- Общение на основе вопросов и ответов — стимулирует самостоятельное мышление учащихся;
- Игры на ролевое взаимодействие (диалог-драма) — развивают культуру общения;
- Работа в парах и группах — формирует навыки сотрудничества и умения слушать. Систематическое и целенаправленное применение этих методов способствовало росту уровня свободного выражения мыслей учащимися.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: диалоговое общение в начальном образовании играет важную роль не только в обучении языку, но и в развитии социальных и коммуникативных

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

способностей учащихся. Повышение эффективности диалогового общения возможно за счет правильного подхода учителя, использования интерактивных методов и обеспечения активного участия каждого ученика.

Ключевые слова: диалоговое общение, начальное образование, интерактивные методы, коммуникативная компетенция, вопрос-ответ, групповая работа.

Для цитирования: Абдисаматова Д.С. Эффективные методы построения диалогического общения в начальных классах. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 342–349.

EFFECTIVE METHODS FOR BUILDING DIALOGIC COMMUNICATION IN PRIMARY GRADES

© Dildora S. Abdisamatova[1]✉
[1]Termiz State Pedagogical Institute, Termiz, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: in the modern educational process, establishing active and effective communication with students is one of the key factors. Especially in primary school lessons, dialogic interaction enhances students' speech activity and develops their thinking and expression skills. This article highlights effective methods for developing dialogic communication at the primary education stage, their practical application, and effectiveness.

AIM: to identify effective methods for developing dialogic communication among primary school students, implement these methods in practice, and foster students' speech and communicative competencies through this process.

MATERIALS AND METHODS: the study employed the following methods:

- Observation method – to analyze teacher-student communication during primary school lessons;
- Interview and survey method – to explore students' attitudes toward communication;
- Practical experiment – implementing dialogic communication techniques in the classroom and monitoring the outcomes. The materials included lessons conducted with primary school students, educational plans, and methodological manuals.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study showed that the following methods are effective in establishing dialogic communication:

- Question-and-answer-based dialogue – encourages independent thinking;
- Role-playing exercises (dialogue drama) – foster communication culture;
- Pair and group work – develop cooperation and listening skills among students.

Systematic and purposeful application of these methods increased students' ability to express their thoughts freely.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

CONCLUSION: dialogic communication in primary education is important not only for language acquisition but also for enhancing students' social and communicative potential. The effectiveness of dialogic communication can be increased through the teacher's appropriate approach, the use of interactive methods, and ensuring active participation of each student.

Key words: dialogic communication, primary education, interactive methods, communicative competence, question-answer, group work.

For citation: Dildora S. Abdisamatova "Effective methods for building dialogic communication in primary grades", Inter education & global study, (6), pp. 342–349. (In Uzbek).

Har bir o‘quvchining o‘ziga xos o‘rganish uslubi bor, shuning uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchiga individual yondashishi kerak. Ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab ta'lim jarayonini moslashtirish o‘quvchilarning samarali o‘rganishiga yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘yinlar va turli faoliyatlar o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, bilimlarni mustahkamlash va o‘quvchilarni qiziqtirish uchun muhimdir Muloqot boshqa birovning nuqtai nazaridan ko‘rilgan fikrlarni ifodalash qobiliyatini anglatadi; u (birinchi navbatda ochiq) savol va javoblar zanjiri bilan tavsiflanadi; u bitta dars davomida yoki darslar davomida barqaror bo‘lishi mumkin; va u "izlanish nutqi" g‘oyasiga asoslanadi, bunda o‘quvchilar umumiy bilimlarni quradilar va o‘z fikrlarini o‘zgartirishga va o‘z g‘oyalarini tanqid qilishga tayyor bo‘ladi. Muloqot “shunchaki gapirish” dan ko‘proq narsadir. Bu o‘qituvchilar va o‘quvchilarning bir-birining g‘oyalariga asoslanishini, savollar berishini va birgalikda talqin qilishni o‘z ichiga oladi.

Ona tili darslarida dialogik muloqot o‘quvchilar o‘rtasida interfaol, dinamik va mazmunli almashish muhimligini ta’kidlaydi. Bu nafaqat lingvistik kompetentsiyani, balki kognitiv, ijtimoiy va hissiy qobiliyatlarni ham oshiradi, talabalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Diologli muloqotni o‘zlashtirishda ijtimoiy o‘zaro ta'sirning ahamiyatini ta'kidlaydigan sotsial-madaniy nazariyasiga asoslanib, dialogik o‘qitish maqsadli dialog orqali tanqidiy fikrlash, chuqurroq tushunish va muammolarni birgalikda hal qilishga yordam beradi. U yondashuv o‘quvchilarni bir-birlari bilan muloqotga kirishishga, o‘z fikrlari haqida mulohaza yuritishga va turli kontekstlarda g‘oyalarni samarali ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi. Dialogik muloqotni o‘z ichiga olgan holda, o‘qituvchilar faol o‘rganish, tengdoshlar bilan hamkorlik va yuqori darajadagi fikrlashni osonlashtiradigan muhitni yaratishi mumkin. Bu o‘quvchilarga turli nuqtai nazarlarni o‘rganish, ma'nolarni muhokama qilish va jamoaviy bilimlarni shakllantirish imkonini beradi. Ushbu maqolada dialogik muloqotni ona tilini o‘qitishga integratsiyalashning amaliy strategiyalari ko‘rsatilgan, bunda tilning haqiqiy, hamkorlikda va aks ettiruvchi ishlatilishini rag‘batlantiradigan usullarga e'tibor qaratiladi. Ushbu usullar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ijodkorlikni rag‘batlantirish va pirovardida o‘quvchilarning umumiy til, kommunikativ kompetentsiya va madaniy xabardorligini oshirishga qaratilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Muloqot muhiti aniq, hamkorlikda ishlab chiqilgan me'yorlardan boshlanadi, ular o‘quvchilarni hurmat qilishlarini, tinglashlarini va ishtirok etishga undashlarini ta'minlaydi. Ushbu me'yorlarni o‘rnatish juda muhim, chunki ular o‘zaro hamkorlik uchun tizimli asos yaratadi va munozaralar paytida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni minimallashtiradi. O‘qituvchilar inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish uchun faol tinglash, navbatni qabul qilish va hurmat bilan kelishmovchilik kabi me'yorlarning muhimligini ochiqchasiga etkazishlari kerak.

Birgalikda ijod qilishning roli.

Talabalarni ushbu me'yorlarni yaratishga jalb qilish ularning sinf madaniyatiga egalik qilishlariga yordam beradi. Misol uchun, o‘qituvchilar davr boshida muhokama o‘tkazishi mumkin, unda talabalar birgalikda quyidagi qoidalarni kelishib olishadi:

Xalaqit bermasdan tinglang.

“Hammaning fikrini hurmat qiling, garchi rozi bo‘lmasangiz ham.” “Jimroq sinfdoshlarni o‘z g‘oyalarini baham ko‘rishga undash.”

Ushbu hamkorlikdagi yondashuv nafaqat o‘quvchilarni me'yorlarga rioya qilish ehtimolini oshiradi, balki o‘z-o‘zini tartibga solish va tengdoshlarning javobgarligini rag‘batlantiradi.

Normlarni mustahkamlash strategiyalari.

Xulq-atvorni modellashtirish: O‘qituvchilar kutilgan xatti-harakatlarni doimiy ravishda modellashtirishlari kerak, masalan, tinglashda sabr-toqat ko‘rsatish yoki o‘quvchilarning hissalariga hurmat bilan javob berish.

Vizual eslatmalar: sinfdagi me'yorlar ro‘yxatini ko‘rsatadigan plakatlar yoki jadvallarni ko‘rsatish. Misol uchun, afishada shunday bo‘lishi mumkin: “Birma-bir gapiring” yoki “Odamlarga emas, fikrlarga e'tiroz bildiring”.

Rol o‘ynash faoliyati: Talabalar me'yorlarga rioya qilishni mashq qiladigan munozarani taqlid qiling, masalan, mavzuni muhokama qilish va hamma gapirish imkoniyatini ta'minlash.

Ro‘yxatdan o‘tish: Sinf yig‘ilishlari paytida me'yorlarga rioya qilinayotganligi va tuzatishlar kerakmi yoki yo‘qligini o‘ylab ko‘ring.

Talabalar boshqalarni xafa qilmasdan qarama-qarshi fikrlarni aytishni o‘rganishlari kerak. O‘qituvchilar quyidagi kabi jumlalarni boshlashlari mumkin:

“Men sizning fikringizni tushunaman, lekin menimcha ...”

“Bu borada boshqa nuqtai nazarni ko‘rib chiqsak bo‘ladimi?”

Ushbu iskalalarni taqdim etish orqali talabalar farqlarni konstruktiv tarzda boshqarishga ishonch hosil qiladilar.

Normlarning ta'limga ta'siri.

Me'yorlar izchil mustahkamlansa, talabalar tanqidiy fikrlash, empatiya va hamkorlik kabi asosiy dialogik qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Bu qobiliyatlar sinfdan tashqariga chiqib, o‘quvchilarni akademik, professional va ijtimoiy muhitda samarali muloqot qilishga tayyorlaydi. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yaxshi belgilangan me'yorlarga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ega bo‘lgan sinflarda yuqori darajadagi ishtirok etish, tashvishlanishning pasayishi va talabalarning umumiy faolligi yaxshilanadi

Jismoniy va ijtimoiy sozlash.

Sinf xonasining jismoniy va ijtimoiy tuzilishi o‘quvchilarning mazmunli muloqot qilish qobiliyatiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Inklyuzivlik va hamkorlikni rivojlantirishda o‘tiradigan joylarni tartibga solish ayniqsa muhimdir. O‘rindiqlarni dumaloq yoki U shaklidagi tartibda joylashtirish barcha ishtirokchilarning bir-birlarini ko‘rishlari va muloqot qilishlarini ta'minlaydi, bu esa ko‘z bilan aloqa qilish va faol tinglashga yordam beradi. Ushbu sozlash ierarxik to‘siqlarni minimallashtiradi va teng ishtirokni rag‘batlantiradi, jamiyat tuyg‘usini yaratadi.

Muz to‘sar faoliyati boshlang‘ich tashvishlarni kamaytirish va talabalar o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash orqali ijtimoiy muhitni yanada yaxshilaydi. Masalan, “Kimdirni toping” mashg‘ulotida o‘quvchilar sinfda aylanib, “Boshqa davlatga sayohat qilgan odamni toping” kabi aniq mezonlarga mos keladigan odamlarni topish uchun tengdoshlariga savollar berishadi. Ushbu faoliyat tabiiy suhbatni rivojlantiradi va o‘quvchilarga savol berish va javob berishni mashq qilishga yordam beradi.

Dialogik faoliyatni tuzish.

Rol o‘ynash. Rol o‘ynash - bu haqiqiy hayotdagi muloqot stsenariylarini taqlid qilishning samarali usuli bo‘lib, talabalarga xavfsiz va tuzilgan muhitda til ko‘nikmalarini mashq qilish imkonini beradi. Ushbu tadbirlarda talabalar ishga da'vogar, intervyu beruvchi yoki sayohat agenti kabi muayyan rollarni o‘z zimmalariga oladilar va haqiqiy vaziyatlarni taqlid qiluvchi dialoglarda qatnashadilar. Misol uchun, sayohatni rejalashtirish stsenariysida bir talaba ta'til bo‘yicha maslahat so‘ragan mijoz rolini o‘ynashi mumkin, boshqasi esa tavsiyalar beradigan sayohat agenti sifatida ishlaydi. Ushbu sozlash talabalarga kontekstga xos lug‘atdan foydalanish, muloyim so‘rovlarni mashq qilish va muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Rol o‘ynashning afzalliklarini oshirish uchun o‘qituvchilar mashg‘ulotdan oldin aniq ko‘rsatmalar va tegishli lug‘at bilan ta'minlashlari kerak. Ko‘rgazmali qurollar, masalan, dialog ko‘rsatmalari yoki situatsion kartalar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini tartibga solish va javoblarini shakllantirishda qo‘shimcha yordam berishi mumkin.

Dialogik o‘yinlar. Dialogik o‘yinlar o‘yin-kulgini til o‘rganish bilan samarali birlashtirib, ularni mazmunli o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun qimmatli vositaga aylantiradi. Munozara formatlari va hamkorlikda hikoya qilish kabi tadbirlar talabalarni tanqidiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatiga qarshi kurashuvchi maqsadli dialoglarga jalb qiladi. Masalan, munozarada o‘quvchilarga “Maktab formasi majburiy bo‘lishi kerakmi?” kabi mavzu bo‘yicha qarama-qarshi fikrlar bildiriladi. Bu format ularni argumentlar tuzishga, faol tinglashga va ishonarli javob berishga undaydi. Boshqa tomondan, hamkorlikda hikoya qilish o‘quvchilarni navbat bilan hikoya tuzishni o‘z ichiga oladi, ular izchillik va oqimni saqlash uchun o‘z hissalarini moslashtirishni talab qiladi.

Ushbu interaktiv o‘yinlar nafaqat lingvistik ravonlikni rivojlantiradi, balki jamoada ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham oshiradi. O‘qituvchilar muayyan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

lug‘at yoki grammatika nuqtalarini o‘z ichiga olgan holda bunday o‘yinlarning murakkabligini yanada oshirishi mumkin. O‘yin-kulgi va qiyinchilik o‘rtasidagi muvozanatni o‘rnatgan holda, dialogik o‘yinlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan dinamik va qiziqarli o‘quv muhitini yaratadi.

Dialogli muloqotning ahamiyati.

Dialogli muloqot o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u quyidagi jihatlar orqali ta’lim sifatini oshiradi:

1. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish – O‘quvchilar og‘zaki nutq madaniyatini o‘rganadi va uni faol qo‘llay boshlaydi.
2. Ijodiy tafakkurni shakllantirish – Dialog jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashga o‘rganadi.
3. Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish – Guruhda ishlash, tinglash, hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalari shakllanadi.

Samarali usullar

Boshlang‘ich sinflarda dialogli muloqotni shakllantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

Foydalanish usuli:

- O‘quvchilarga muayyan vaziyatlar bo‘yicha rollar taqsimlanadi.
- O‘quvchilar o‘z rollari doirasida dialog quradilar.
- O‘qituvchi muloqot madaniyatini shakllantirishga e’tibor qaratadi.

Interfaol texnologiyalar

Zamonaviy interfaol texnologiyalar dialogli muloqotni rivojlantirishga katta yordam beradi. Bunda turli multimedia vositalari, masalan, video, audio va interaktiv doskalar orqali o‘quvchilarning qiziqishi orttiriladi.

Foydalanish usuli:

- Dars jarayonida interaktiv taqdimotlardan foydalanish.
- O‘quvchilarga qisqa video lavhalar orqali muhokama imkoniyatini yaratish.
- Savol-javob shaklida o‘zaro muloqotni rag‘batlantirish.

3. “Savol va javob” metodi

Bu metod orqali o‘quvchilar muloqot jarayonida faol ishtirok etib, o‘z fikrlarini erkin bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanish usuli:

- O‘qituvchi muayyan mavzu bo‘yicha savollar tayyorlaydi.
- O‘quvchilar savollarga javob berib, o‘z fikrlarini bildirishadi.
- Javoblarni baholash orqali muloqotga jalb qilish rag‘batlantiriladi.

4. Kichik guruhda ishlash

Guruhda ishlash usuli orqali o‘quvchilar muloqot qobiliyatlarini oshirish bilan birga, jamoada ishlashni o‘rganadilar.

Foydalanish usuli:

- O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- Har bir guruhga muayyan mavzu bo‘yicha topshiriq beriladi.
- Natijalar taqdim qilinadi va umumiy muhokama o‘tkaziladi.

5. Dialog namunalarini ko‘rsatish

O‘quvchilarga namunali dialoglarni namoyish etish orqali ularning muloqot madaniyatini shakllantirish mumkin.

Foydalanish usuli:

- O‘qituvchi tayyor namunali dialoglarni ko‘rsatadi.
- O‘quvchilar ushbu dialoglardan foydalanib, o‘z nutqini takomillashtiradilar.
- Mashg‘ulot yakunida refleksiya qilinadi.

Boshlang‘ich sinflarda dialogli muloqotni shakllantirish uchun rolli o‘yinlar, interfaol texnologiyalar, savol-javob usuli, kichik guruhda ishlash va namunaviy dialoglardan foydalanish kabi usullar samarali hisoblanadi. Ushbu metodlarning tizimli va to‘g‘ri qo‘llanilishi o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida dialogli muloqotni keng qo‘llash orqali o‘quvchilarning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Xojayev Sh. (2020). Ona tili va adabiyot o‘qitishda innovatsion metodlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Tursunov I. (2021). Modellashtirish metodikasi va uning ta’limdagi o‘rni. Samarqand: Pedagogika nashriyoti.
3. Dovudov A. (2019). Ona tili o‘qitishning metodik asoslari. Buxoro: O‘qituvchi.
4. Abdullayev F. (2022). Dialogli muloqot madaniyatini rivojlantirishning metodik yondoshuvlari. Toshkent: Pedagogika.
5. J.J.Jalolov G.I.Maxamova, Sh.S.Ashurov Ona tilini o‘qitish metodikasi –T.: “Fan va texnologiya”, 2015, 335.
6. Bobomurodova A. Ona tili ta‘limi jarayonida o‗yin-topishmoqlardan foydalanish. T. : Musiqa. 2009.
7. A.G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O‘qituvchi", 1992.
8. A.Zunnunov va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. — T.: „O‘qituvchi41, 1992.
9. Abdisamatova, D. (2024). MODELLASHTIRISH ASOSIDA ONA TILI DARSLARIDA DIOLOGLI MULOQOT MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI. *Наука и инновация*, *2*(38), 158-160.
10. Rafiyev A., G‘ulomova N. Ona tili . T. , ―Sharqǁ, 2013.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Abdisamatova Dildora Sobirovna**, o’qituvchi [**Абдисаматова Д.С.,** преподаватель], [**Dildora S.Abdisamatova,** teacher]; manzil: O‘zbekiston, Termiz, I.Karimov, 228 uy [адрес: O‘zbekiston, Termiz, I.Karimov, 228], [аддресс: Ўзбекистон, Термиз, И.Каримов, 228 уй];

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KOMPETENSIYA SHAKLLANISHI

© S.A.Shovdirov[1]✉

[1]Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va kompetensiyalarni shakllantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda nazariy asoslar va amaliy natijalar tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari ijodiylik va kompetensiya o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Global ta'lim muhitida innovatsion yondashuvlar va kompetensiyaviy modellar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoev ta'limni milliy yuksalish poydevori sifatida belgilab, sifatli ta'limga alohida e'tibor qaratmoqda. 2030 yilgacha ta'limni rivojlantirish davlat dasturida ijodiy va mustaqil fikrlaydigan shaxs tayyorlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu jarayonda tasviriy san'at ta'limi muhim ahamiyatga ega.

MAQSAD: tasviriy san'at darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishni nazariy va amaliy jihatdan asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tahlil, kuzatuv, test va suhbat usullari qo'llanildi. Tajriba va nazorat guruhlari ishtirokida darslar o'tkazilib, natijalar vizual diagrammalar orqali tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Tajriba guruhi natijalari:

- Darsgacha ijodiy fikrlash: 45%
- Darsdan so'ng ijodiy fikrlash: 80%
- Kompetensiya o'sishi: +35%

Bu natijalardan ma'lum bo'lishicha, tasviriy san'at darslarida ijodiy yondashuv va vizual-amaliy faoliyatni keng jalb qilish o'quvchilarning kompetensiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

XULOSA: tasviriy san'at darslari orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarning nafaqat fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, estetik idrok va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Ushbu metodik yondashuvlar kompetensiyaviy ta'limning amaliy samarasini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, ijodiy fikrlash, kompetensiya, metodika, ta'lim.

Iqtibos uchun: Shovdirov S.A. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish orqali kompetensiya shakllanishi. // Inter education & global study. 2025, №6. B.350–358.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

© С.А.Шовдиров[1]✉
[1]Навоийский государственный университет, Навоий, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются вопросы развития творческого мышления и формирования компетенций учащихся на уроках изобразительного искусства. Проанализированы теоретические основы и практические результаты. Экспериментальные работы показали положительное влияние на рост креативности и компетентности. В глобальном образовательном пространстве инновационные подходы и компетентностные модели приобретают особую актуальность. Президент Ш.М. Мирзиёев определяет образование как основу национального прогресса и уделяет большое внимание его качеству. В Государственной программе развития образования до 2030 года приоритетом определено воспитание креативно и самостоятельно мыслящей личности. В этом процессе важную роль играет преподавание изобразительного искусства.

ЦЕЛЬ: теоретически и практически обосновать формирование компетенций учащихся через развитие творческого мышления на уроках изобразительного искусства.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались анализ, наблюдение, тестирование и интервью. Занятия проводились с участием экспериментальной и контрольной групп, результаты проанализированы с использованием визуальных диаграмм.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты экспериментальной группы:

- Творческое мышление до занятий: 45%
- Творческое мышление после занятий: 80%
- Рост компетенций: +35%

Эти результаты показывают, что творческий подход и активное вовлечение в визуально-практическую деятельность положительно влияют на развитие компетенций учащихся

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие творческого мышления на уроках изобразительного искусства не только повышает интерес учащихся к предмету, но и формирует навыки самостоятельного мышления, эстетического восприятия и творческого подхода. Эти методические подходы обеспечивают практическую эффективность компетентностного обучения.

Ключевые слова: изобразительное искусство, творческое мышление, компетенция, методика, образование.

Для цитирования: Шовдиров С.А. Формирование компетенций учащихся через развитие творческого мышления на уроках изобразительного искусства. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 350–358.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DEVELOPING STUDENTS' COMPETENCIES THROUGH CREATIVE THINKING IN VISUAL ARTS CLASSES

© Sunnat A. Shovdirov[1]✉
[1]Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article addresses the issue of developing students' creative thinking skills and competencies through visual arts lessons. Theoretical foundations and practical outcomes are analyzed. Experimental work demonstrated a positive impact on creativity and competency growth. In the global educational context, innovative approaches and competency-based models are becoming increasingly important. President Sh.M. Mirziyoyev emphasizes education as the foundation of national development and prioritizes high-quality education. The State Program for the Development of Education until 2030 identifies the training of creative and independent thinkers as a key goal. In this process, visual arts education plays a significant role.

AIM: to theoretically and practically justify the development of students' competencies through the enhancement of creative thinking in visual arts lessons.

MATERIALS AND METHODS: the study employed analysis, observation, testing, and interviews. Lessons were conducted with experimental and control groups, and the results were analyzed using visual diagrams.

DISCUSSION AND RESULTS: results from the experimental group:

• Creative thinking before the lessons: 45%
• Creative thinking after the lessons: 80%
• Competency growth: +35%

These results show that incorporating creative approaches and visual-practical activities in visual arts lessons has a positive impact on students' competency development

CONCLUSION: developing creative thinking through visual arts lessons not only increases students' interest in the subject, but also shapes their independent thinking, aesthetic perception, and creative skills. These methodological approaches ensure the practical effectiveness of competency-based education.

Key words: visual arts, creative thinking, competency, methodology, education.

For citation: Sunnat A. Shovdirov. (2025) 'Developing students' competencies through creative thinking in visual arts classes', Inter education & global study, (6), pp. 350–358. (In Uzbek).

Bugungi globallashuv sharoitida jahon ta'lim maydonida yangicha yondashuvlar, innovatsion g'oyalar va kompetensiyaviy tahlim modellari keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'lim sohasiga alohida e'tibor qarata, ta'lim tizimini "milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" harakatdagi kuch deb baholaydi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xususan, “Ta’lim sifatini oshirish – yangi O‘zbekistonni barpo etishning asosiy shartlaridan biri”[1], – deb ta’kidlaganlar.

Mamlakatimizda 2030 yilgacha umumiy o‘rta ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha Davlat dasturi doirasida ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan shaxslarni tayyorlash asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Mazkur jarayonlarni muvafaqiyatli amalga oshirishda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan tasviriy san’at ta’limi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘quv fani o‘quvchilarning estetik tafakkurini, vizual idrokini, yangicha g‘oyalar yaratish qobiliyatini shakllantiradi. Xususan, tasviriy san’at darslari mazkur maqsadga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi desak, xato bo‘lmaydi. Bu o‘quv fanidan olib boriladigan dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilar nafaqat ko‘rgazmali obrazlar bilan ishlashni, balki, tasavvur qilish, yangicha g‘oyalar yaratish, vizual tahlil qilishlari orqali ijodiy fikrlash kabi qobiliyatlari rivojlana boradi.

Ijodiy fikrlash – bu yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noan’anaviy yondashuvni qo‘llash va mavjud bilimlardan yangicha holatda foydalanish qobiliyatidir.

Pedagogik psixologiyada ijodiy fikrlash masalasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, J.P. Gilford modellarida ijodkorlikni divergent fikrlash bilan bog‘lab, yangicha g‘oyalar yaratishni aqliy jarayon sifatida izohlaydi. U divergent fikrlashni “fluens” (fikrlar oqimi), “fleksibilitы” (muvofiqlashuvchanlik), “originallik” va “elaboratsiya” (rivojlantirish) komponentlari orqali ifodalaydi[2]. E.P. Torrens ishlanmalarida ijodiy fikrlashni muammoga nisbatan hissiyot, taxmin, sinash va natijalarni tahlil qilish jarayoni sifatida ta’riflaydi[3]. J.Dyui esa ta’limda tajribaga asoslangan fikrlash va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishni ijodiy tafakkurning asosi sifatida ko‘radi[4].

Ta’lim jarayonida ijodiy fikrlash o‘quvchilarda faol kognitiv faollikni shakllantiradi. Ular o‘z bilimlarini amaliy holatlarda qo‘llash, mulohaza yuritish va yangicha yondashuvlar taklif etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim nazariyasida “kompetensiya” tushunchasiga bir qator olimlar tomonidan ta’riflar berilgan. Jumladan, A.V. Xutorskoy kompetensiyani shaxsning muayyan faoliyat sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar yig‘indisi deb ta’riflaydi. Unga ko‘ra, kompetensiya – “integrativ xususiyatga ega, amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan va shaxsning yetukligini ifodalovchi tuzilma” hisoblanadi[5]. yevropalik tadqiqotchi J.M. Zimnyaya esa

[1] SH.M. Mirziyoev, 2023 yilgi Murojaatnomadan
[2] Gilford J.P. "Structure of Intellect" 1967.
[3] Torrens E.P. “Torrance Tests of Creative Thinking” 1966.
[4] Dyui J. Dewey, "How We Think", 1910.
[5] A.V.Xutorskiy. Klyuchevыe kompetensii i obrazovatelbnыe standartы. 2002 g.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kompetensiyani “bilim, ko‘nikma va munosabatlarning uyg‘unlikda namoyon bo‘lishi, insonning muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyati” sifatida ta’riflaydi[6].

Shu asosda umumlashtirilganda, kompetensiya – bu shaxsning muayyan sohada bilim, ko‘nikma va munosabatlar uyg‘unligi asosida faoliyat yuritishga tayyorligini anglatadi.

Tasviriy san’at ta’limida quyidagi turdagi kompetensiyalar shakllanishi mumkin:

– vizual kompetensiya (tasvirlarni idrok qilish, tahlil qilish);

– ijodiy kompetensiya (yangi obrazlar yaratish, kompozitsiya tuzish);

– kommunikativ kompetensiya (san’at vositasida fikrni ifodalash);

– texnik kompetensiya (turli materiallar va usullar bilan ishlash).

Ijodiy fikrlash esa mazkur kompetensiyalarning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy tadqiqotlar tajriba-sinovlar natijasida qo‘lga kiritildi.

2025 yil bahor oylarida Navoiy shahridagi uchta umumiy o‘rta maktabda (5-7-sinflar) tajriba-sinov ishlari tasviriy san’at o‘quv fanidan olib borildi. Tasviriy san’at o‘quv fanidan olib borilgan dars mashg‘ulotlarida ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, tasavvur asosidagi mashqlar tajriba-sinov tariqasida tatbiq qilindi. Ushbu olib borgan tadqiqot ishlarimizning tajriba-sinov jarayonlarida 60 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishlarimizda qo‘llanilgan metodlar qo‘yidagilardan iborat bo‘ldi:

1. Ijodiy topshiriqlar (tasavvurdan rasm chizish);
2. Kuzatuv va anketa orqali natijalarni baholash;
3. “Ijodiy fikrlash shkalasi” orqali o‘sish dinamikasini aniqlash.

Natijalar jadvali:

Guruh	Darsgacha ijodiy fikrlash (%)	Darsdan so‘ng (%)	Kompetensiya o‘sishi
Tajriba	45%	80%	+35%

Demak, natijalardan ko‘rinib turibdiki, maxsus ishlab chiqilgan ijodiy topshiriqlar, yangicha yondashuvlar qo‘llangan darslar o‘quvchilarda faqat ijodiy fikrlashni emas, balki umumiy predmet kompetensiyalarini shakllantirishda ham yuqori samara berdi.

Tajriba-sinov ishlari 5-7-sinf o‘quvchilari o‘rtasida olib borildi. Darslarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol usullar, vizual tahlil, kompozitsiya yaratish, fantaziyani rag‘batlantiruvchi topshiriqlar asosida o‘qitish amalga oshirildi. Jarayonda kutilgan natijalar sifatida quyidagilar belgilab olingan edi:

– yangi g‘oya yaratish qobiliyati;

– vizual materialni tahlil qilish va qayta ishlash ko‘nikmalari;

[6] "...Zimnyaya I. A. Kompetentnostnыy podxod. Kakovo yego mesto v sisteme sovremennыx podxodov k problemam obrazovaniya (teoretiko-metodologicheskiy aspekt) // Vыssheye obrazovaniye segodnya. – 2006. – № 8...." [Istochnik: https://psychlib.ru/mgppu/periodica/IYaSh062012/ZKk-002.htm]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

– estetik baholash, mustaqil fikr bildirish qobiliyati;

– topshiriqni notipik yechimlar bilan bajarishga urinish.

Tajriba davomida olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilinganda, o‘quvchilardagi ijodiy fikrlash darajasi 45% dan 80% ga oshgani kuzatildi. Bu o‘sish ularning tasviriy san’at darslariga munosabatida ham ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ushbu o‘zgarishlarni quyidagi omillar bilan bog‘lash mumkin:

Faol ta’lim usullari: – “Breynstorming”, “Klaster”, “Vizual tahlil” kabi usullar o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga undadi;

Integrativ yondashuv: – tarix, tabiatshunoslik, texnologiya kabi fanlar bilan bog‘liq tasviriy san’at fani mavzulari ijodiy yechim talab qiladi;

Shaxsiy tajribaga asoslangan ishlab chiqish: **–** o‘quvchilar o‘z hayoti, oilasi yoki orzulari haqidagi tasviriy loyihalarda ishtirok etib, o‘ziga xos yondashuvni shakllantirdi.

Natijada, tajriba-sinov ishlari ijodiy fikrlash orqali faoliyatga jalb etish, o‘quvchining ichki intellektual salohiyatini ochish va sohaga oid kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilganini ko‘rsatdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik tahlil, kuzatuv, test va suhbat usullaridan foydalanildi. Ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlari tashkil etildi. Tajriba guruhiga ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dars mazmuni asosida o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etildi.

Darslar jarayonida tasviriy san’atning turli yo‘nalishlari – kompozitsiya, ranglar uyg‘unligi, obraz yaratish, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, vizual tahlil qilish kabi faoliyatlar orqali o‘quvchilarni ijodiy jarayonga jalb etishga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, “xarakterini toping”, “tavsiflab chizing”, “erkin tasvirlang” kabi ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, yangicha yondashish, tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlantirildi.

O‘rganish jarayonida har bir bosqichda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash darajasi baholanib borildi. Darsdan avval va so‘ng tuzilgan test savollari natijalari o‘zaro taqqoslandi. Qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar asosida diagrammalar tuzildi va tahlil qilindi. Ushbu tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, maxsus metodik yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyalarini sezilarli ravishda oshirgan.

Shunday qilib, N.V.Samsonova shunday yozadi: “shaxsning konfliktologik madaniyatida insonning ijtimoiy konfliktlarni (shaxslararo va millatlararo) oldini olish va hal qilish istagi (ehtiyoj, xohish) va qobiliyatida yotadi”. N.V.Kuklevaning so‘zlariga ko‘ra, o‘qituvchining konfliktologik madaniyati uning birgalikdagi faoliyatda ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishish uchun konfliktni tan olish, uni oldini olish yoki (agar oldini olish mumkin bo‘lmasa) konstruktiv hal qilish qobiliyati va tayyorligidir. “Shaxsning konfliktologik madaniyati” va “mutaxassisning konfliktologik madaniyati” tushunchalarini farqlash kerak. Shaxsning konfliktologik madaniyati insonning ijtimoiy konfliktlarni oldini olish va hal qilish istagi (ehtiyoj, xohish) va qobiliyatidan iborat. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy konfliktni hal qilish shaxsni ijtimoiylashtirishning eng muhim omilidir. Shu bilan birga, N.V.Grishina ta’kidlaganidek, shaxslararo konfliktlar– bu birgalikdagi faoliyatning obyektiv– maqsadli asosda obyektiv ravishda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarning namoyon bo'lish shakli. Ijtimoiy-ishlab chiqarish sohasining obyektiv xususiyatlariga, xususan, mehnat faoliyatining o‘ziga xos mazmuni, uning texnik va tashkiliy xususiyatlari va ular tomonidan belgilanadigan jamoaning kasbiy va malaka tarkibi, mehnatni rag'batlantirish tamoyillari, boshqaruv xususiyatlari kiradi. “Bahslashish mumkin”, deb yozadi N. V. Grishina, - konflikt immanent ravishda kasbiy faoliyatga xosdir va kasbiy madaniyatni konfliktologik tarkibiy qism bilan uyg‘unlashuvi tabiiy hodisadir.

Mutaxassisning konfliktologik madaniyati kasbiy konfliktlarni idrok etish va keyinchalik kasbiy konflikt sharoitida kasbiy funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus, kasbiy yo'naltirilgan konfliktologik bilimlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Mashhur nemis konflikti bo'yicha mutaxassis Gerxard Shvarts “konfliktli vaziyatlarni boshqarish: konfliktni tashxislash, tahlil qilish va hal qilish" kitobida asta-sekin rivojlanib boradigan, konflikt bilan ishlashning oddiy shakllaridan (parvoz, yo‘q qilish) eng murakkabgacha (murosaga kelish, kelishuv) rivojlanib boradigan konfliktologik madaniyatni tasvirlab berdi. Bundan tashqari, konflikt bilan ishlashning yanada murakkab strategiyalarini o'zlashtirishda ifodalangan konfliktologik madaniyatni rivojlantirish jarayoni har bir shaxs uchun ham, butun insoniyat uchun ham davom etadi. “Menimcha, konflikt paytida odamning xatti harakati o‘quv jarayoniga aylanadi. Ushbu o‘quv jarayoni alohida shaxslarning tarixida ham, hayotida ham, ba'zan hatto bir xil konfliktda ham uchraydi”. Konfliktologik madaniyatning shakllanishi mutaxassislar tomonidan ham har xil yo‘llar bilan belgilanadi shunday qilib, O.I.Sherbakovaning fikriga ko‘ra, konfliktologik madaniyat insonning konfliktologik tayyorgarligining eng yuqori darajasidir.

Konfliktologik tayyorgarlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- konfliktologik savodxonlik- konfliktlarni tahlil qilish va ular bilan ishlash mexanizmlari va texnologiyalarini bilishda emas, balki ularni intuitiv tushunishda namoyon bo‘ladigan asosiy daraja sifatida, bu shaxsga umuman konfliktlarni konstruktiv ravishda hal qilishga imkon beradi;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- konfliktologik kompetentsiya- konfliktologik tayyorgarlikning alohida darajasi sifatida, bu mutaxassisning o‘qishi davomida maxsus shakllangan va ishlab chiqilgan konflikt to‘g‘risida ilmiy va amaliy bilimlar tizimini olishdan iborat.

Shunga ko‘ra, konfliktologik madaniyat - bu shaxsning konfliktologik tayyorgarligining eng yuqori darajasi. U bitta kompleksga bog‘langan va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan turli xil tarkibiy qismlardan (“madaniyatlar”) iborat. Ushbu kompleksning elementlariga quyidagilar kiradi: fikrlash madaniyati, his-tuyg‘ular madaniyati, kommunikativ madaniyat, qiymat-semantik soha madaniyati, xulq-atvor konfliktologik madaniyati. Shuning uchun:

- fikrlash madaniyati konflikt haqidagi nazariy g‘oyalarga asoslanadi va shaxsning konfliktni oqilona tahlil qilish, asosiy va ikkilamchi narsalarni ajratib ko‘rsatish, o‘z xatti-harakatlarida olingan xulosalardan foydalanish imkoniyatidan iborat;

- tuyg‘ular madaniyati - bu his-tuyg‘ular bilan ishlash bilan bog'liq ko‘nikmalar, birinchi navbatda o'zingizning: his-tuyg‘ularni tushunish, salbiy his tuyg‘ular bilan ishlash qobiliyati, hamdardlik ko'rsatish va boshqalar.;

- kommunikativ madaniyat-dialog, sheriklik suhbatini o‘tkazishga tayyorlik;

- qiymat-semantik soha madaniyati - konfliktda konstruktiv o‘zaro ta’sirga qaratilgan shaxs qadriyatlari to‘plami;

- xulq-atvor konfliktologik madaniyati - konflikt bilan bevosita ishlash qobiliyati, ya’ni konfliktni hal qilish, uning avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, konfliktni boshqarish va boshqalar [6].

I.S.Pochekaevaning so‘zlariga ko‘ra, konfliktologik madaniyat uchta tarkibiy qismdan iborat:

- ratsional komponent– konfliktning mohiyati, uning tuzilishi va dinamikasi, turlari, hal qilish usullari va boshqalar to‘g‘risida nazariy bilimlardan iborat.;

- hissiy komponent– konfliktli vaziyatda shaxsning hissiy holatini belgilaydi;

- xulq-atvor komponenti– amaliy ko'nikmalar va konflikt bilan konstruktiv ishlash qobiliyatlari tizimi sifatida.

Bunday tushunchalarni hisobga olgan holda, N.U.Yarichev konfliktologik madaniyatni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi:

- kognitiv komponent– konfliktning nazariy tushunchalari;

- pertseptiv komponent– insonni odamlar tomonidan idrok etish to'g'risidagi bilimlarni qo'llashi;

- aksiologik komponent– qadriyatlarni aks ettiradi: zo'ravonlik, hayot, boshqalar va boshqalar;

- fikrlashga doir komponent– axborotni qayta ishlash va konfliktlarni konstruktiv hal qilish usullarini topish qobiliyati;

- kommunikativ-ijodiy komponent – konfliktli o‘zaro ta’sirda ham muloqot qobiliyatlari, ham shaxsning ijodiy imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. H.V.Samsonova mutaxassisning konfliktologik madaniyati tuzilishini hisobga olgan holda to‘rtta blokni ajratadi:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Konflikt haqidagi bilimlarni o‘z ichiga olgan axborot bloki: uning ta’rifi, tuzilishi, dinamikasi, xususiyatlari va boshqalar.

2. Aksiologik blok mutaxassisning individualligining fazilatlari va xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bunga intellektual soha (fikrlashning moslashuvchanligi va kengligi, shaxsning ijodiy qobiliyatlari bilan bog'liq fazilatlar) va hissiy soha (o‘ziga ishonch, his-tuyg‘ularni boshqarish qobiliyati, hamdardlik va boshqalar); motivatsion soha (konfliktga munosabat, konfliktni konstruktiv ravishda hal qilish zarurligini tushunish); ixtiyoriy soha, o‘zini o‘zi boshqarish sohasi va ekzistensial soha (o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini namoyon qilish istagi) kiradi. Bunday holda, aksiologik blok konflikt bilan konstruktiv ish paytida yuzaga keladigan transformatsion faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Operatsion blok konflikt bilan muayyan ishning ko‘nikmalari va qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi: konfliktli vaziyatni tahlil qilish, uni oldindan bashorat qilish, konfliktning oldini olish yoki hal qilish qobiliyati.

4. Shaxsiy fazilatlar bloki konfliktda va kelajakda, konfliktdan keyingi o‘zaro munosabatlarda konstruktiv faoliyat uchun zarur bo‘lgan barcha fazilatlarni o‘z ichiga oladi: bular adolat, mas’uliyat, ijtimoiylik (axloq, insonparvarlik), o‘ziga ishonch (o‘zini namoyon qilish, aloqa va boshqalar), yetuklik (halol, o‘zaro manfaatli munosabatlarni amalga oshirish qobiliyati). Adabiyotda ko‘pincha ikkita juda yaqin tushunchalar mavjud: “konfliktologik madaniyat” va “konfliktologik kompetentsiya”. Ular sinonim emas, shuning uchun ularning o'xshashliklari va farqlari nimada ekanligini aniqlash joiz.

Z.A.Tagirovaning ta’kidlashicha, “konfliktologik kompetensiya” umumiy ijtimoiy kompetentsiyaning ajralmas qismi sifatida, ya’ni “haqiqiy konfliktda konfliktlarni oldini olish faoliyatini amalga oshirish qobiliyati va tayyorligi, konfliktlarning buzg‘unchi shakllarini minimallashtirish qobiliyati va ularni konstruktiv yo‘nalishga aylantirish va kerak bo‘lsa, konfliktni hal qilishda vositachi sifatida harakat qilish”. A.M.Mityaevaning so‘zlariga ko‘ra, “konfliktologik kompetensiya – bu haqiqiy konfliktdagi ishtirokchining (tashkilot, ijtimoiy guruh, ijtimoiy harakat va boshqalar) ushbu konfliktning buzg‘unchi shakllarini minimallashtirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatidir. Bu qarama-qarshi tomonlarning mumkin bo‘lgan strategiyalari to‘g‘risida xabardorlikni va muayyan konfliktli vaziyatda konstruktiv hamkorlikni amalga oshirishga yordam berish qobiliyatini ifodalaydi». Konfliktologik kompetentsiya tuzilishi ikki darajadan iborat:

1. Mavjud konfliktni tan olish, shuningdek, uni hal qilish qobiliyati.

2. Muayyan natijaga erishish uchun zarur bo'lgan konfliktni loyihalash ko'nikmalari. M.V.Bashkin shaxsning konflikt kompetentsiyasini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning quyidagi tarkibiy xususiyatlarini beradi:

- kognitiv– shaxsning muayyan konfliktli vaziyatni tahlil qilish qobiliyatini nazarda tutadi;
- motivatsion– shaxsning konfliktni hal qilishga yo‘naltirilganligi;
- tartibga solish– konfliktda o‘zini va hissiy holatini boshqarish qobiliyati.

E.N. Ivanovaning fikricha, konfliktologik kompetensiya bir qator strategik va taktik komponentlarni, jumladan, konfliktli vaziyatlarni konstruktiv boshqarishga yordam

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

beradigan shaxsiy xususiyatlar, munosabatlar, bilim va ko'nikmalarni o‘z ichiga oladi. Konfliktologik kompetentsiya bir qator elementar ko'nikmalar va xatti-harakatlar algoritmlarining mexanik to'plami emas. Aksincha, bu murakkab, global, ko‘p darajali hodisa bo‘lib, turli darajadagi xabardorlikdagi shaxsning asosiy kognitiv strategiyalariga ta'sir qiladi.

Yuqoridagi ta’riflar va tuzilmalarga asoslanib, biz konfliktologik kompetentsiya ikki ma’noda talqin etiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin:

1) tor ma’noda– ko'nikma va bilimlar to‘plami sifatida, buning natijasida ularga ega bo‘lgan shaxs ma’lum bir konflikt sharoitida o‘zini konstruktiv tuta oladi va maksimal darajada muammolarni hal qila oladi.

2) keng ma’noda– amaliy jihatdan konfliktologik madaniyatning sinonimi sifatida, ya’ni konflikt bilan ishlash uchun zarur bo'lgan bilim va amaliy ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida (konflikt bilan ishlash texnologiyalari, his tuyg‘ularni tartibga solish, muloqot qobiliyatlari va boshqalar). Shuningdek, nazariy tayyorgarlik va muayyan qiymat yo‘nalishlari. Konfliktologik kompetentsiyani aniqlashda ko‘proq amaliy komponentga, ya’ni konfliktni o‘ziga xos hal qilishga e’tibor beriladi. Konfliktologik madaniyat esa ancha murakkab tushunchadir. Shuningdek, adabiyotda “konfliktologik kompetensiya” va “konfliktologik madaniyat”, “konflikt kompetensiyasi” va “konflikt madaniyati” tushunchalarini ham uchratish mumkinligini ta’kidlaymiz. Bu ishda “konflikt” va “konfliktologik” tushunchalari madaniyat va malakaga nisbatan sinonim sifatida qaraladi. Yuqoridagi ta’riflarga asoslanib, biz konfliktologik madaniyat tushunchasini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Konfliktologik madaniyat– bu shaxsning ijtimoiy hayoti va ijtimoiy faoliyati mahsuli bo‘lib, u umumiy madaniyatning ma’lum bir turi va tizimiga aylanib, shaxsning tavsiflash, o‘rganish va ishlashga tayyorligi va qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ushbu ishda biz aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan madaniyatni tushunamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Черняева, Т.В. К вопросу об актуальности конфликтологических исследований / Т.В. Черняева // Социальная психология в образовании: проблемы и перспективы: материалы международной научной конференции. 4.2. Саратов: «Научная книга», 2007.– С. 283-286.
2. Тренинг лидерства.– М.: Ось-89, 2005.– 144 с.
3. Thomas K.W. Conflict and negotiation // Handbook of industrial and organizational psychology/ Eds. M.D. Dunnette. Palo Alto, CA, 1992.– P. 889 935.
4. Степанов Е.И., Баныкина С.В. Конфликты в современной школе. Изучение и управление./ Серия “Социальные конфликты: экспертиза, прогнозирование, технологии разрешения”.– М.: КомКнига, 2006.– 208 с.
5. Jamoldinova S.N. O‘qituvchining konfliktalogik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati. Namangan davlat pedagogika instituti “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali 2024-yil №: 6-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37, 44-50 betlar.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

6. Jamoldinova S.N. Neyropedagogikada neyrodidaktik yondashuvlarning ahamiyati. “Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: tahlillar, takliflar, tavsiyalar” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Namangan davlat pedagogika instituti 2025-yil, 22-aprel, 138-140 betlar.

7. Jamoldinova S.N. Bo‘lajak o‘qituvchilar konfliktologik madaniyatini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili. Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti, “Zirhli qalqon” ilmiy-axborot jurnali - 26 (40) / 2025, 304-309 betlar.

8. Jamoldinova, S. N. (2024). Bo‘lajak o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirishning asosiy tamoyillari va mohiyati. “Xalqaro tajribalar asosida kasbiy ta’lim muassasalarining yangi qiyofasini yaratish va kadrlar tayyorlashni sifat bosqichiga olib chiqishning muammo va yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman,1(1),526-529.

9. Jamoldinova S.N. Bo‘lajak o‘qituvchilar konfliktologik madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi. Congress on modern sciences-iv "global prospects for multidisciplinary research and education" chirchik state pedagogical university april 08-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan, 453-459 p.

10. Jamoldinova S.N., Abdualiyeva J.A, Zamonaviy pedagog kompetensiyasi: bugungi kun talabi. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2025-yil 2-soni NamDPI,1159-1167 betlar.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi,** Pedagogika fakulteti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi, [**Джамолдинова Сайёра Надирбек кизи,** Научный руководитель, преподаватель кафедры педагогики, факультет педагогики], [**Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi**, Lecturer, Department of Pedagogy, Faculty of Pedagogy]; manzil: O‘zbekiston, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy, [адрес: Узбекистан, г. Чирчик, улица Амира Темура, дом 104], [address: Uzbekistan, 104 Amir Temur Street, Chirchiq City] ORCID ID: https://orcid.org/0009-0006-4669-0483 jamoldinova.cspu@gmail.com +998917766446

✉**Abdualiyeva Jasmina Abduqaxxor qizi**, “Pedagogika” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi, [**Абдуалиева Жасмина Абдукаххор кизи,** Студентка 3-го курса], [**Abdualiyeva Jasmina Abduqaxxor qizi**, 3rd-year student]; manzil: O‘zbekiston, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy, [адрес: Узбекистан, г. Чирчик, улица Амира Темура, дом 104], [address: Uzbekistan, 104 Amir Temur Street, Chirchiq City] +998770993442

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA ART PEDAGOGIKA VOSITASIDA O'QUVCHILARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

© A.T. Gulboyev [1]✉

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida art pedagogika usullarini qo'llash orqali o'quvchilarning emotsional intellektini shakllantirish metodikasini tahlil qiladi. Kirish qismida emotsional intellekt tushunchasi va uning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Keyingi bo'limlarda tasviriy san'at, musiqa, teatr va raqs san'ati vositalaridan foydalangan holda hissiy dunyoni boyitish, ijodkorlik va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirish usullari bayon etiladi. Har bir metodik vosita uchun amaliy mashg'ulot misollari, kutilayotgan natijalar va pedagogik-estetik afzalliklar batafsil yoritilgan.

MAQSAD: art pedagogika usullari yordamida o'quvchilarning hissiy-intellektual ko'nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish metodikasini ochib berishdir. Shuningdek, san'atning turli shakllarini qo'llash orqali yosh avlodning stressni boshqarish, empatiya va ijodiy fikrlash salohiyatini mustahkamlash yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada tasviriy san'at, musiqa, teatr va raqs mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning hissiy intellekti va ijodiy ko'nikmalari rivojlantiriladi. Shuningdek, guruhiy muhokama, konstruktiv tanqid va kichik san'at loyihalari orqali tanqidiy fikrlash, mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalari mustahkamlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ushbu maqolada art pedagogika usullarini qo'llash o'quvchilarning hissiy barqarorligi va empatiya darajasi ortganini ko'rsatdi. Tasviriy san'at va musiqa mashg'ulotlari orqali talabalar o'z his-tuyg'ularini aniqroq ifodalashni o'rgandilar, teatr va raqs mashg'ulotlari esa jamoaviy hamkorlikni mustahkamladi. Guruhiy muhokamalar va konstruktiv tanqid sessiyalari natijasida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va mas'uliyat hissi kuchaydi. Ushbu metodlar umumta'lim maktablarida emotsional intellekt va ijodiy ko'nikmalarni izchil rivojlantirishda samarali ekanligi tasdiqlandi.

XULOSA: art pedagogika usullari yordamida o'quvchilarning emotsional intellekti, empatiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalari samarali rivojlantiriladi. Tasviriy san'at, musiqa, teatr va raqs mashg'ulotlari ularning hissiy barqarorligini, jamoaviy hamkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Kichik san'at loyihalari va konstruktiv tanqid sessiyalari esa mas'uliyat va ijodiy tashabbusni oshiradi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo integratsiya, ta'lim taraqqiyoti, pedagogik jarayon, raqamli texnologiyalar, global kompetensiyalar, art-pedagogika.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Iqtibos uchun: Gulboyev A.T. Zamonaviy ta'lim tizimida art pedagogika vositasida o'quvchilarning emotsional intellektini shakllantirish metodikasi. // Inter education & global study. 2025, №6. B.379–386.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА УЧАЩИХСЯ СРЕДСТВАМИ АРТ-ПЕДАГОГИКИ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

© А.Т. Гулбоев[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье данная статья анализирует методику формирования эмоционального интеллекта учащихся посредством применения арт-педагогических методов рассматриваются понятие эмоционального интеллекта и его роль в воспитании молодого поколения. В последующих разделах описаны способы обогащения эмоционального мира, развития креативности и эмпатии через изобразительное искусство, музыку, театр и танец. Для каждого метода приведены практические примеры занятий, ожидаемые результаты и педагогико-эстетические преимущества.

ЦЕЛЬ: это раскрытие методики систематического развития эмоционально-интеллектуальных навыков учащихся с помощью арт-педагогических приемов. Кроме того, она включает демонстрацию способов укрепления у молодого поколения способности управлять стрессом, развивать эмпатию и творческое мышление посредством использования различных форм искусства.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в этой статье через занятия изобразительным искусством, музыкой, театром и танцем развиваются эмоциональный интеллект и творческие навыки учащихся. Кроме того, посредством групповых обсуждений, конструктивной критики и небольших художественных проектов укрепляются навыки критического мышления, ответственности и сотрудничества.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в данной статье применение арт-педагогических методов показало повышение эмоциональной устойчивости и уровня эмпатии учащихся. Занятия изобразительным искусством и музыкой научили студентов точнее выражать свои чувства, а занятия театром и танцами укрепили навыки коллективного взаимодействия. В результате групповых обсуждений и конструктивных критических сессий у учеников развились навыки критического мышления и чувство ответственности. Эти методы подтвердили свою эффективность для систематического развития эмоционального интеллекта и творческих навыков в общеобразовательных школах.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: с помощью арт-педагогических методов эффективно развиваются эмоциональный интеллект, эмпатия и творческое мышление учащихся. Занятия изобразительным искусством, музыкой, театром и танцем укрепляют их

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

эмоциональную устойчивость, навыки коллективного взаимодействия и критического мышления. Небольшие художественные проекты и сессии конструктивной критики повышают чувство ответственности и творческую инициативу.

Ключевые слова: межкультурная интеграция, развитие образования, педагогический процесс, цифровые технологии, глобальные компетенциив современной системе образования.

Для цитирования: Гулбоев А.Т. Методика формирования эмоционального интеллекта учащихся средствами арт-педагогики в современной системе образования. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 379–386.

METHODOLOGY FOR SHAPING STUDENTS' EMOTIONAL INTELLIGENCE THROUGH ART PEDAGOGY IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

© Akbar T. Gulboyev[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the methodology for shaping students' emotional intelligence through the use of art pedagogy methods in the modern education system. The introduction defines emotional intelligence and discusses its importance in the development of young learners. Subsequent sections detail how visual arts, music, theater, and dance can enrich emotional awareness, foster creativity, and build empathy. Each pedagogical tool is accompanied by practical activity examples, anticipated outcomes, and pedagogical-aesthetic advantages.

AIM: it is an exposition of a methodology for systematically developing students' emotional-intellectual skills through art-pedagogical methods. It also demonstrates ways to strengthen the younger generation's ability to manage stress, cultivate empathy, and enhance creative thinking by applying various forms of art.

MATERIALS AND METHODS: in this article, students' emotional intelligence and creative skills are developed through visual arts, music, theater, and dance activities. additionally, critical thinking, responsibility, and collaboration skills are strengthened through group discussions, constructive criticism, and small-scale art projects.

DISCUSSION AND RESULTS: this article demonstrates that the application of art pedagogy methods has increased students' emotional stability and levels of empathy. through visual arts and music activities, students learned to express their emotions more clearly, while theater and dance sessions enhanced their ability to collaborate in groups. as a result of group discussions and constructive criticism sessions, students developed stronger critical thinking and a deeper sense of responsibility. these methods have proven effective in consistently developing emotional intelligence and creative skills in general education schools.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

CONCLUSION through art pedagogy methods, students' emotional intelligence, empathy, and creative thinking skills are effectively developed. Visual arts, music, theater, and dance activities strengthen their emotional resilience, teamwork, and critical thinking abilities. Small art projects and constructive critique sessions enhance their sense of responsibility and creative initiative.

Key words: intercultural integration, educational development, pedagogical process, digital technologies, global competencies.

For citation: Akbar T. Gulboyev. (2025) 'Methodology for shaping students' emotional intelligence through art pedagogy in the modern education system', Inter education & global study, (6), pp. 379–386. (In Uzbek).

Ta'lim tizimida yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish vazifasi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ushbu jarayonda emotsional intellektni shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, art pedagogika usullaridan foydalanib, o'quvchilarning hissiy dunyosini boyitish, estetik did va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda. Art pedagogika orqali yosh avlodga berilayotgan ta'lim nafaqat san'atga oid bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi, balki shaxsiy rivojlanish va ruhiy sog'lomlikka ham ta'sir ko'rsatadi. Bu orqali yoshlar o'zlarining hissiyotlarini aniq anglay boshlaydilar, o'zaro muloqotda tushunish va hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rganadilar. Shuningdek, art pedagogika usullari orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish, tanqidiy va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Yoshlarning emotsional barqarorligi va ijodkorligini oshirish orqali ularning nafaqat maktabdagi muvaffaqiyati, balki kelajakdagi kasbiy va shaxsiy hayotida ham yuksak natijalarga erishish imkoniyatlari ortadi.

Ta'lim jarayoniga art pedagogika usullarining keng qo'llanishi o'quvchilarning umumiy madaniy saviyasini ham oshirib, ularni badiiy-estetik qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Shu bilan birga, bu jarayon yosh avlodning jamoaviy faoliyatga, jamoaviy fikrlash va hamkorlik qilish ko'nikmalariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, art pedagogika usullarining ta'lim tizimiga samarali qo'llanilishi yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishda muhim va zarur vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Art pedagogika, ya'ni san'at vositasida tarbiya va ta'lim berish usuli, o'quvchilarda nafaqat badiiy-estetik qobiliyatlarni rivojlantiradi, balki ularning hissiy-emotsional sohasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu usul orqali yoshlar o'zlarini yanada yaxshi anglash, atrofdagi odamlarning his-tuyg'ularini chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, art pedagogika o'quvchilarda stressga qarshi turish, nizoli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash, empatiya va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Art pedagogika orqali amalga oshiriladigan mashg'ulotlarda yoshlar hissiyotlarini erkin ifodalash va ular bilan ishlashni o'rganadilar, bu esa ularning ichki xotirjamligini va psixologik barqarorligini oshiradi. Shuningdek, san'at bilan shug'ullanish davomida yuzaga keladigan ijodiy muhit yoshlarning o'zaro hamjihatlik ruhini rivojlantiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Art pedagogika orqali o‘quvchilar o‘zlarining ichki salohiyatini kashf etadilar va bu salohiyatni samarali tarzda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, san’at orqali ta’lim olgan yoshlar kundalik hayotda yuzaga keladigan hissiy tangliklarni samarali yechish mexanizmlariga ega bo‘lishadi. Natijada, art pedagogika nafaqat badiiy-estetik rivojlanishga, balki yoshlarning shaxs sifatida to‘laqonli shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Ushbu metodikaning navbatdagi bosqichi sifatida o‘quvchilar o‘z ijodiy ishlarini tahlil qilishga va konstruktiv fikr bildirishga o‘rgatiladi. Bu esa ularni o‘z asarlarini kritik nazar bilan ko‘rib chiqishga, zaif va kuchli jihatlarini aniqlashga o‘rgatadi. Darslarda yaratilgan san’at asarlarini ota-onalar, sinfdoshlar va jamoatchilik oldida namoyish etish ularning sahna oldida chiqish madaniyatini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, san’at vositalari yordamida tashkil etilgan kichik ta’limiy loyihalar o‘quvchilarda mas’uliyat hissini kuchaytiradi va guruh bo‘lib ishlashni mustahkamlaydi. Art pedagogika mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini guruh bilan baham ko‘rish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari yaratiladi, bu esa jamoaviy ruhni yanada mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, san’at jarayonida yuzaga keladigan muvaffaqiyatsizliklar va xatolardan saboq olish orqali ular chidamlilik va qayta urinib ko‘rish qobiliyatini rivojlantiradilar. Yakunda, art pedagogika yordamida rivojlantirilgan ko‘nikmalar nafaqat darslardagina, balki kundalik hayotda ham o‘quvchilarga yordam beradi va ularni barkamol shaxs sifatida shakllantiradi.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat intellektual, balki hissiy intellektini rivojlantirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Art pedagogika usullari san’at orqali o‘quvchilarga o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish imkonini beradi. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida rang va shakl tanlovi o‘quvchilarning ruhiy holatini ifodalashni o‘rgatadi. Musiqa darslarida turli janrlarni tinglash va ijro etish hissiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Teatr mashg‘ulotlari esa empatiya va hamjihatlik ko‘nikmalarini chuqur his qilishga yordam beradi. Raqs bilan shug‘ullanish jismoniy ifoda orqali ichki dunyo bilan bog‘lanishni kuchaytiradi.

Har bir san’iy faoliyat doirasida amalga oshiriladigan guruhiy loyihalar jamoaviy hamkorlik va mas’uliyat hissini oshiradi. Konstruktiv tanqid sessiyalari o‘quvchilarga o‘z ishlarini baholash va takomillashtirish imkonini beradi. Improvizatsiya mashg‘ulotlari ijodiy fikrlash va muammolarni tez hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Art pedagogika darslari o‘quvchilarga stressni kamaytirish va tinchlanish usullarini amalda qo‘llashni o‘rgatadi. San’at asarlarini tahlil qilish jarayonida talaba so‘z va obraz uyg‘unligini anglab yetadi. Ustoz rahbarligida tashkil etilgan kichik ko‘rgazmalar o‘quvchilarda o‘z ishlariga nisbatan g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi. San’at bilan muntazam shug‘ullanish bolalarda e’tibor va sabr-toqatni kuchaytiradi. Art pedagogika metodikasi o‘quvchilarning ijodkorlik potentsialini aniqlashda samarali vosita bo‘ladi. Natijada, art pedagogika usullari ta’lim jarayonida yoshlarning hissiy-intellektual salohiyatini tizimli rivojlantirib, ularni mustaqil va barkamol shaxsga aylantiradi.

Art-pedagogika metodlarini turli yoshdagi o‘quvchilarga moslashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tasviriy san’at

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mashg‘ulotlarida sodda geometrik shakllar va rang kombinatsiyalari orqali hissiyotlarning asosiy rang-barangligini o‘rganish maqsadga muvofiq. 4–6-sinf o‘quvchilari bilan musiqa darslarida turli janrlarni talqin qilish va qo‘shiq matnlariga mos sahnalashtirish ishlari empatiya hissini mustahkamlaydi. O‘rta maktab o‘quvchilari uchun teatr sahnalashtirish va personaj psixologiyasini tahlil qilish san’at orqali murakkab hissiy holatlarni anglashga yordam beradi. 10–11-sinf o‘quvchilari bilan raqs kompozitsiyalari yaratish va koreografik variantlarni muhokama qilish jamoaviy mas’uliyatni oshiradi. Har bir yosh bosqichi uchun qisqa ta’limiy loyihalar ishlab chiqilib, o‘quvchilar ijodiy topshiriqlar orqali o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalashni davom ettiradilar.

Yosh o‘quvchilarda hissiy barqarorlikni yo‘lga qo‘yish uchun darslarga stressni yengish texnikalari, nafas olish mashqlari va vizualizatsiya elementlari kiritiladi. O‘rtacha yoshdagi talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun san’at asarlarini guruh bo‘lib tahlil qilish mashg‘ulotlari tashkil etiladi. Kattaroq yosh guruhlarida loyiha metodikasi yordamida teatr va musiqani uyg‘unlashtirib, ijtimoiy mavzularni sahnalashtirish bo‘yicha amaliy seminarlar o‘tkaziladi. Darslar davomida har bir yosh segmenti uchun mos o‘lchovli baholash kriteriyalari ishlab chiqilib, ijodiy rivojlanish va hissiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Yoshlar art-pedagogika mashg‘ulotlaridan so‘ng o‘z natijalarini ota-onalar va jamiyat oldida namoyish etish orqali ishonchni mustahkamlaydilar. Shuningdek, o‘quvchilar uchun rahbarlik qilish va kichik guruhlar bilan tajriba almashish sessiyalari tashkil etiladi. Turli yosh guruhlarida san’at vositalarini qo‘llash yordamida pedagoglar o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hamda hissiy-intellektual salohiyatni aniqlash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Yakunda, art-pedagogika yoshga qarab moslashtirilganda ta’lim jarayonida yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

Tasviriy san'at mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar ranglar, shakllar va obrazlar yordamida o‘z hissiyotlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon ularning ichki dunyosini ochib beradi, o‘z-o‘zini anglash va boshqalarning emotsiyalariga e’tiborli bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Rasm chizish, bo‘yash va kollaj yaratish kabi faoliyatlar o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, sabr-toqat va kreativlikni rivojlantiradi. Bundan tashqari, turli uslublarni sinab ko‘rish orqali o‘quvchilar o‘z individual ijodiy uslubini topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mashg‘ulotlar davomida beriladigan konstruktiv tanqid o‘quvchilarning o‘z ishlariga nisbatan ob’ektiv baho berish malakasini oshiradi. Shuningdek, guruh bo‘lib ishlash jarayonida ular bir-birining ishlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, fikr almashish va o‘zaro hamkorlikda ijod qilishni o‘rganadilar. San’at asarlarini tahlil qilish va muhokama qilish orqali o‘quvchilar san’atshunoslik asoslarini o‘zlashtiradi, bu esa ularning intellektual salohiyatini yanada rivojlantiradi. Eng muhimi, bu faoliyat o‘quvchilarda hissiy erkinlik va o‘zini ifoda etishiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Musiqa tinglash va ijro qilish orqali o‘quvchilar emotsiyalarini boshqarishni o‘rganadilar. Har xil janrdagi musiqalarni tinglash orqali ular kayfiyat va ruhiy holatlarni his qilishni va boshqarishni mashq qiladilar. Cholg‘u asboblarini chalish yoki qo‘shiq kuylash esa ularning ijodiy fikrlash va hissiy ifoda ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Darslarda musiqiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

dramatizatsiya yoki mavzuga mos qisqa improvizatsiyalar uyushtirish o‘quvchilarda his-tuyg‘ularni yanada ongliroq ifodalashga yordam beradi. Ustozlarning boshqaruvidagi guruhiy ijro mashg‘ulotlari nafaqat texnik mahoratni, balki jamoaviy musiqaga bo‘lgan hurmat va bir-birini tinglash madaniyatini shakllantiradi. Shuningdek, turli davr va mamlakat musiqalari tarixini o‘rganib, ularni ijro etish o‘quvchilarda san’atga bo‘lgan qiziqish va madaniy xilma-xillikka hurmatni mustahkamlaydi.

Musiqani muhokama qilish, uning tuzilishi va kayfiyatiga tahliliy yondashuv esa nafaqat hissiy, balki intellektual rag‘batni ham oshiradi. Shu tariqa, musiqa darslari o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilish, boshqalarning hislarini tushunish va badiiy ifoda orqali muloqot qilish ko‘nikmalarini izchil o‘rgatadi. Raqs mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar o‘z tanasi orqali emotsiyalarini ifoda etishni o‘rganadilar. Raqs harakatlari va jamoaviy chiqishlar ularning jismoniy faolligi bilan birga hissiy ifodalash va jamoaviylik hissini kuchaytiradi. Bu esa o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Art-pedagogika usullarini joriy etishda o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglar ilg‘or metodika bo‘yicha treninglardan o‘tib, san’at elementlarini dars rejasiga qanday integratsiya qilishni o‘rganadilar. Mashg‘ulotlarni olib borishda didaktik materiallar, vizual yordam vositalari va multimediya resurslari keng qo‘llaniladi. Har bir dars davomida o‘quvchilarning hissiy holati kuzatib boriladi va kerak bo‘lsa, individual psixologik qo‘llab-quvvatlash tashkil etiladi. Art-pedagogika metodikasida baholash — nafaqat texnik mahorat, balki hissiy o‘zgarish va ijodiy faollikni ham qamrab oladi. O‘quvchilar o‘z ijodiy portfoliolarini shakllantirib, undagi ishlar orqali rivojlanish darajasini kuzatadilar. Sinf muhitida san’at faoliyati uchun qulay va ilhom beruvchi atmosfera yaratish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun rang-barang dekoratsiyalar, o‘quvchilarning asarlari ko‘rgazmalari va ijrochilar bilan video uchrashuvlar tashkil etiladi.

Art-pedagogika mashg‘ulotlarida ota-onalar ishtiroki ham rag‘batlantiriladi, chunki uyda ham ijodiy muhitni davom ettirish bolalarning hissiy intellekti uchun foydali. Respublika va xalqaro san’at tanlovlarida ishtirok etish o‘quvchilarda nufuzli maydonda o‘zini sinab ko‘rish imkonini beradi. Pedagoglar doimiy ravishda metodik seminarlarda qatnashib, tajriba almashadilar va dars usullarini takomillashtiradilar. Innovatsion texnologiyalar — virtual san’at galereyalari, onlayn studiyalar — dars jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kiradi. Bunday yondashuv, bir tomondan, o‘quvchilarning texnologik savodxonligini oshirsa, ikkinchi tomondan, hissiy-intellektual ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Yakunda, art-pedagogika metodikasini zamonaviy resurslar bilan muvofiqlashtirish ta’lim jarayonini yanada boy va samarali qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida art pedagogika usullarini samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish mumkin. Ushbu metodlar nafaqat o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini boyitadi, balki ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishiga mustahkam asos yaratadi. Art pedagogikaning ta’lim jarayonida keng qo‘llanilishi yosh avlodning barkamol shaxs sifatida tarbiyalanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// https://president.uz/oz/lists/view/3864
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni // https://lex.uz/docs/-5085999
3. Bozhovich, Yu. P. Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi. / Yu. P. Bojovich. - M.: Argumentlar va faktlar, 1993. - 608 b. - ISBN 5-85272-006-2
4. Yo‘ldoshev J.G’, Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T.,”Fan va texnologiya”, 2008,132 bet.
5. Gulboev.A.T “Harakatlar strategiyasi-buyuk kelajagimizning yangi bosqichi” “Pedagogik maxorat”. -Buxoro, 2019.-№3.-B.36- 39 – 3 - bet
6. Kaldibekova A., Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019. 50-b.
7. Gulboyev, A. T. Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalash // Pedagogik mahorat (ilmiy-nazariy va metodik jurnal). – 2023. – № 8. – 4-b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Gulboyev Akbar Tuxtayevich**, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.n, [**Гулбоев Акбар Тухтаевич,** Кандидат педагогических наук, доцент Бухарского государственного педагогического института], [**Akbar Tukhtayevich Gulboyev**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor at Bukhara State Pedagogical Institute, PhD in Pedagogy]; manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Piridastgir ko‘chasi, 2-uy, [адрес: Бухарская область, г. Бухара, ул. Пиридастгир, д. 2], [address: Bukhara region, Bukhara, Piridastgir str., 2.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILINI O‘QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH YO‘LLARI

© Sh.S. Umaraliyeva[1]✉
[1]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov, O‘zbekiston

Annotatsiya:

KIRISH: bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni jadallik bilan kechmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ona tili fanini o‘qitishda AKT vositalarini integratsiyalash orqali dars jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qilish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirib, mustaqil fikrlashga undaydi.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf ona tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash, ularni o‘qituvchilar tomonidan samarali integratsiya qilish usullarini o‘rganish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida quyidagi materiallar va metodlardan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasining ta’limga oid qonun hujjatlari va normativ-me’yoriy hujjatlar tahlili, Ona tili darsliklari va metodik qo‘llanmalar, Pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma va suhbat metodlari, Darslarda interaktiv taqdimotlar, animatsion dasturlar, video va audio materiallardan foydalanish tajribasi, Google Classroom, PowerPoint, LearningApps, Wordwall kabi AKT vositalari tahlili.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ona tili darslarida AKT vositalarining qo‘llanilishi quyidagi afzalliklarni beradi:

- O‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqish oshadi;
- Yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish samarali kechadi;
- Mustaqil ishlash ko‘nikmalari shakllanadi;
- Dars mazmuni osonroq tushuniladi va tezroq yodlanadi;
- O‘quvchi o‘zini ijodkor sifatida ko‘rsatishga intiladi.

Biroq, AKT vositalaridan foydalanish jarayonida o‘qituvchilarning texnik tayyorgarligi, uslubiy yondashuvi va internet imkoniyatlarining mavjudligi muhim omillardan hisoblanadi.

XULOSA: boshlang‘ich sinf ona tili darslarida AKT vositalarini integratsiyalash o‘quv jarayonining sifatini oshiradi. Bu texnologiyalarni to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llash orqali bolalarning savodxonligi, muloqot madaniyati hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

shakllantirish mumkin. Kelgusida o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, AKT bo‘yicha malaka oshirish kurslarini kengaytirish zarur.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, AKT, integratsiya, raqamli resurslar, ta’lim sifatini oshirish, interaktiv darslar.

Iqtibos uchun: Umaraliyeva Sh.S. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash yo‘llari.// Inter education & global study. 2025. №6. B.387-393.

ПУТИ ИНТЕГРАЦИИ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

© Умаралийева Ш.С.[1]✉
[1]Институт предпринимательства и педагогики Денова, Денов, Узбекистан

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: в настоящее время процесс цифровой трансформации в системе образования развивается стремительными темпами. Особенно важно использование информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в начальном образовании, так как они играют значительную роль в развитии знаний, умений и навыков учащихся. Интеграция ИКТ в преподавание родного языка позволяет сделать учебный процесс более эффективным, интерактивным и увлекательным. Это способствует повышению уровня усвоения материала учащимися и стимулирует их к самостоятельному мышлению.

ЦЕЛЬ: выявить возможности использования информационно-коммуникационных технологий на уроках родного языка в начальных классах, изучить эффективные методы их интеграции учителями и разработать предложения по их внедрению в учебный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы следующие материалы и методы: анализ законодательных и нормативно-правовых документов Республики Узбекистан в сфере образования, изучение учебников и методических пособий по родному языку, педагогические наблюдения, анкетирование и интервью, практическое применение интерактивных презентаций, анимационных программ, видео- и аудиоматериалов на уроках, а также анализ ИКТ-инструментов, таких как Google Classroom, PowerPoint, LearningApps, Wordwall.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: исследования показали, что использование ИКТ на уроках родного языка имеет следующие преимущества:

- Повышается интерес учащихся к урокам;
- Эффективно развиваются навыки письменной и устной речи;
- Формируются умения самостоятельной работы;
- Учебный материал становится легче для понимания и быстрее усваивается;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

• Учащиеся стремятся проявлять себя как творческие личности.

Однако успешное применение ИКТ зависит от технической подготовки учителей, их методического подхода и наличия доступа к интернету.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: интеграция ИКТ в уроки родного языка в начальных классах способствует повышению качества учебного процесса. При правильном и целенаправленном использовании этих технологий возможно формирование у детей грамотности, культуры общения и творческого мышления. В дальнейшем рекомендуется разработать методические пособия для учителей и расширить курсы повышения квалификации по ИКТ.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, информационно-коммуникационные технологии, ИКТ, интеграция, цифровые ресурсы, повышение качества образования, интерактивные уроки.

Для цитирования: Умаралийева Ш.С. Пути интеграции информационно-коммуникационных технологий в преподавание родного языка в начальных классах.// Inter education & global study. 2025. №6. С. 387-393.

WAYS TO INTEGRATE INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES

© Shahlo S. Umaralieva[1]✉
[1]Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Denov, Uzbekistan

Annotation:

INTRODUCTION: nowadays, the process of digital transformation in the education system is rapidly advancing. In particular, the use of information and communication technologies (ICT) in primary education plays a crucial role in developing students' knowledge, skills, and competencies. Integrating ICT tools into the teaching of the mother tongue can make lessons more effective, interactive, and engaging. This, in turn, enhances students' comprehension and encourages independent thinking.

AIM: to identify the possibilities of using information and communication technologies in primary school mother tongue lessons, to study effective methods for their integration by teachers, and to develop practical recommendations for their implementation in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the research used the following materials and methods: analysis of the educational legislation and normative documents of the Republic of Uzbekistan; study of mother tongue textbooks and methodological manuals; pedagogical observation, surveys, and interviews; practical use of interactive presentations, animated programs, video and audio materials in lessons; analysis of ICT tools such as Google Classroom, PowerPoint, LearningApps, and Wordwall.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: research shows that the use of ICT tools in mother tongue lessons offers the following benefits:

- Increases students' interest in lessons;
- Effectively develops written and oral speech skills;
- Builds independent learning habits;
- Makes lesson content easier to understand and memorize;
- Encourages students to express themselves creatively.

However, successful integration depends on teachers' technical readiness, methodological approach, and availability of internet access.

CONCLUSION: integrating ICT tools into primary school mother tongue lessons improves the quality of the educational process. When used correctly and purposefully, these technologies help foster literacy, communication culture, and creative thinking skills in students. It is recommended to develop methodological manuals and expand professional development courses on ICT for teachers.

Keywords: primary education, mother tongue, information and communication technologies, ICT, integration, digital resources, improving education quality, interactive lessons.

For citation: Shahlo S. Umaralieva (2025) "Ways to integrate information and communication technologies in teaching the mother tongue in primary grades", Inter education & global study, (6), pp. 387-393. (In Uzbek).

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarga berilayotgan ta’lim-tarbiya talablari o‘zgarib bormoqda. Bu holat ilm-fan rivojining ta’siri ostida maktab ta’limining mazmunida yuz berayotgan jiddiy o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ta’limning texnik asoslari, jamiyat a’zolarining hayot tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, zamonaviy ilmiy kashfiyotlar va texnologiyalar jamiyat ma’naviy qiyofasini o‘zgartirib yubordi. Ilm-fan yutuqlari inson hayotining barcha jabhalariga kirib borganligi bois, rivojlangan mamlakatlar maktab ta’limining mazmuni va tuzilmasi ham yangilanib bormoqda.

Ona tili fanidan Davlat ta’lim standarti (DTS) talablariga binoan, o‘quvchilarda o‘z-o‘zini har tomonlama rivojlantirish – jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va ijodiy taraqqiy etish, mustaqil o‘rganish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifa sanaladi. Shuningdek, til imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘z fikrini ravon ifoda etish, o‘z xatti-harakatini baholash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Metodik izlanishlarda o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish dolzarb muammo sifatida keng ko‘rib chiqilgan. Ko‘pgina tadqiqotlarda bu masala o‘quvchilarning mustaqilligi va faolligini tarbiyalash bilan bevosita bog‘lab o‘rganilgan. Jumladan, I.A. Allayorov, A.K. G‘ulomov, N.A. Lashkarova, O.R. Roziqov, T.I. Shamova, Sh. Yusupova kabi mutaxassislarning ishlari bunga misol bo‘la oladi. Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

sinflarda ona tili darslarining samaradorligini oshirishga doir tadqiqotlar bir nechta guruhlarga ajratib tahlil qilingan. Ayrim tadqiqotlar, masalan, N.F. Talizina, A.M. Matyushkin, Ya.A. Ponomaryev tomonidan o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va bu jarayonda kompyuterdan foydalanish muammolari o‘rganilgan.

Ona tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o‘rgatishga asos bo‘ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy ifodaliligi o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg‘ulariga ta’sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o‘quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o‘stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Keyigi yillarda maktab ona tili darsliklari va o‘qituvchilar uchun nashr qilingan qo‘llanmalar materiali mazmuniga qo‘yilgan talablar anchagina ortdi. Materialning asosiy mezoni matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmati, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog‘lanishi, matnlarning g‘oyaviy-mavzuviy yo‘naltirilganligi, kichik yoshdagi o‘quvchilarga mosligidir.

Shunday qilib, tilni o‘rganish jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga o‘qituvchining metodologik yondashuvi, o‘quvchilar o‘zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi til haqidagi bilimlar majmuasi, o‘quvchilar o‘rganib oladigan bilish usuli, tilni o‘rganishga asos bo‘ladigan materialning bilim berishdagi, g‘oyaviy-siyosiy va badiiy qimmati hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatar ekan.

Ushbu usullarni qo‘llash orqali siz boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish darslariga axborot resurslarini integratsiyalashning keng qamrovli tizimini yaratishingiz va shu orqali o‘quvchilarning o‘rganish tajribasini oshirishingiz va ularning ona tilini bilish darajasini oshirishingiz mumkin. Bu esa o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda muhimm sanaladi.

O‘quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantirish aslida ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi.

Boshlang‘ich 1-4-sinflarda tilning hamma tomonlari o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so‘z yasalishi haqida elementar bilim beriladi. Fanning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o‘zaro ta’sir etadigan bir butun hodisa sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Tilni o‘rganishga bunday yondashish ta’lim jaryonini o‘quvchilar nutqini o‘stirish vazifasini hal etishga yo‘naltirish imkonini beradi.

Dars jarayonini tashkil qilish va o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini takomillashtirishda o‘quv fanlariaro aloqadorlikka muammoli yondashish zarurdir.

Ta’lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan dars davomida o‘quv va ijodiy masalalar hamda mavjud bilim, malakalar darajasi, o‘quvchilarning aqliy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rivojlanishi o‘rtasida vujudga keladigan foydali qarama-qarshiliklardan iborat. O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayonining muhim vazifalaridan biri – ularda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishdir. Bu esa, avvalo, o‘quvchini har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida rivojlantirish orqali amalga oshadi. Quyidagi omillar boshlang‘ich sinflarda tilni o‘rgatishda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi:

1. Til – bu ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning asosiy vazifasi – aloqa vositasi bo‘lishidadir. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda til o‘rgatish jarayoni o‘quvchilarda tilning kommunikativ xususiyatini anglatishga yo‘naltirilishi lozim.
2. Til va tafakkur o‘zaro chambarchas bog‘liq: tafakkur til orqali ifodalanadi, til esa tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

Maktab amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, tilni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rgatishda tanlangan metodologik yondashuv, sifatli til materiallarining mavjudligi va o‘qituvchining metodik mahorati hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Ushbu omillar birgalikda o‘quvchilarda tilni chuqur va ilmiy anglash imkonini beradi.

Tilning rivojlanish jarayonini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asosan so‘z turkumlarini o‘rganish orqali anglaydilar. “So‘zning tarkibi” bo‘limi esa bu borada katta imkoniyatlarga ega. O‘quvchilar tilning boyish jarayonini kuzatish orqali yangi so‘zlarning qanday yaratilishini tushunib yetadilar. Masalan, mavjud so‘zlar asosida yangi so‘zlar yasaladi: limon → limonzor, ish → ishli, ishsiz, ishchi kabi.

Boshlang‘ich sinflarda tilga ilmiy qarashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, til leksikasi misolida o‘quvchilarga jamiyat rivoji bilan bog‘liq til o‘zgarishlarini tushuntirish mumkin. Bu esa bolalarning umumiy tafakkur doirasini kengaytiradi.

Tilni o‘rgatishda o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish zarur. O‘qituvchi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirib, bolalarning kundalik hayoti bilan bog‘lab o‘qitadi. Bunda o‘quvchilar nutqining sifatli, ongli shakllanishi ta’minlanadi.

Dialektik tafakkur, ya’ni hodisalarni o‘zaro bog‘liq va rivojlanishda ko‘ra olish ko‘nikmasi, o‘quvchilarda bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu esa ularning tahlil qilish, umumlashtirish va kuzatish faoliyatini kuchaytiradi. Hozirgi kunda izlanish asosidagi ta’lim yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Tilni o‘rganishda esa faktlarni yod olishdan ko‘ra ularni mustaqil aniqlab, tahlil qilish samaraliroq sanaladi.

Ona tili darslarida tanlangan materialning g‘oyaviy yo‘nalishi, mazmuniy chuqurligi va badiiy qiymati o‘quvchilar tafakkuriga bevosita ta’sir etadi. Bu esa ularning tilga va xalq og‘zaki ijodiga nisbatan mehrini oshiradi. So‘nggi yillarda ona tili darsliklari hamda metodik qo‘llanmalarga qo‘yilayotgan talablar ortib bormoqda.

Tilni o‘rganish jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o‘qituvchining metodologik yondashuviga, tanlangan til materialining g‘oyaviy-badiiy ahamiyatiga, o‘quvchilarning bilish faoliyatiga bog‘liq. Bu usullar orqali boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish darslariga axborot texnologiyalarini integratsiyalash ham mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirib, ularning tilga bo‘lgan munosabatini mustahkamlaydi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Boshlang‘ich sinflarda tilning barcha jihatlari – fonetika, leksika, grammatika, so‘z yasalishi – o‘zaro bog‘liq holda o‘rganiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilar nutqini rivojlantirish uchun samarali zamin yaratadi. Darslarni tashkil etishda fanlararo aloqadorlik va muammoli yondashuv asosiy o‘rin tutadi. Ushbu aloqadorlik asosida darslarni uch turga ajratish mumkin: ko‘rgazmali, mavzulararo va umumlashtiruvchi. Bular orqali darslar mazmuni boyitiladi, o‘quvchilar ilmiy tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mavlonova R.A., To‘rayeva O.T., Xoliqberdiyev K.M. – “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2013-y.
2. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. “Pedagogika” – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2014-y.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., S.Hasanov, M.Shirinov. “Magistrantlarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash. O‘quv metodik qo‘llanma. Fan va texnologiyalar. T: 2017-y.
4. Jurayev R.H.,Tolipov U.Q., Sharipov Sh.S., “Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarni kasbhunarga yo‘nalitirishning ilmiy-pedagogik asoslari” T.:, Fan nashiryoti, 2015- yil.
5. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. –163 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi**, o‘qituvchi [**Умаралийева Шахло Сайфулло кизи,** преподаватель], [**Shahlo S. Umaraliyeva,** teacher]; manzil: manzil: O‘zbekiston, Denov, Yangi Turon, 2-a uy [адрес: Узбекистан, Denov, Sharof Rashidov, 360], [address: Uzbekistan, Denov, Sharof Rashidov, 360]; E-mail: mail: rustamkhurramov@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

RAQAMLI TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELTEKT TEXNOLOGIYALARI

© U.S. Asanova[1]✉

[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, Qoraqalpog'iston

Annotatsiya

KIRISH: hozirgi kunda yangi gadjetlar bilan kimnidir ajablantirishi juda qiyin. Texnologiyalar kundan kunga rivojlanib bormoqda. O'qituvchilar ta'limda ko'plab zamonaviy vositalardan foydalanmoqda.

MAQSAD: zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va ilg'or texnologik qurilmalarning tutgan o'rnini yoritish, hamda ular yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatishdir. Bugungi kunda yoshlar texnologiyani tez va oson o'zlashtirayotgan bir paytda, o'qituvchilar ham ularga zamonaviy usullar bilan bilim berishlari talab etiladi. Shuning uchun zamonaviy o'qituvchi bo'lish uchun ilg'or qurilmalardan foydalanish, texnologik imkoniyatlarni o'quv jarayoniga samarali joriy etish dolzarb masalaga aylangan.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada ta'lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladigan quyidagi zamonaviy qurilmalar o'rganildi

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa:

* «Cho'ntak projektori» kabi qurilmalar orqali istalgan vaqtda, istalgan joyda o'quv mashg'ulotini tashkil etish mumkin.

* «Bluetooth klaviaturalari» o'quvchilarni yozuv ishlarida tezkorlikka, mustaqil izlanishga undaydi.

* «Media Share Hub» kabi vositalar internet cheklangan joylarda ham o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida samarali axborot almashinuvini ta'minlaydi.

* «Google Cardboard» orqali murakkab ilmiy tushunchalarni qiziqarли va interaktiv usulda yetkazish mumkin.

* «Aqlli doskalar» va ularning mobil variantlari — narxi past, foydalanishda sodda va ko'p funksiyali bo'lib, an'anaviy dars uslublaridan ancha samaraliroq ekani kuzatildi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt va zamonaviy texnologik vositalar bugungi ta'lim tizimida juda katta ahamiyat kasb etmoqda. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi samarali axborot almashinuvi, interaktiv o'qitish metodlari va vizual ta'lim vositalari orqali bilim olish jarayoni ancha qulay va samarali bo'lib bormoqda. Bunday texnologiyalar orasida cho'ntak projektori, Bluetooth klaviaturalari, Media Share Hub, Google Cardboard va zamonaviy aqlli doskalar alohida o'rin egallaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kalit so'zlar: zamonaviy o‘quv vositalari, ta'lim sifati, o‘quv jihozlari, axborot va kompyuter texnologiyalari, cho‘ntak projektori, virtual simsiz klaviatura, google cardboard, aqlli doska, media share hub, bluetooth texnologiyalari, simsiz texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Asanova U.S. Raqamli ta'lim tizimida sun'iy inteltekt texnologiyalari.// Inter education & global study. 2025, №6. B.394–400.

ТЕХНОЛОГИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ

© У.С. Асанова[1]✉
[1]Аджиниёзский Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Каракалпакстан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в наше время очень сложно кого-либо удивить новыми гаджетами. Технологии развиваются с каждым днем. Учителя используют в образовании множество современных инструментов.

ЦЕЛЬ: выделить место искусственного интеллекта и передовых технологических устройств в современном образовательном процессе, а также показать пути повышения эффективности обучения с их помощью. Сегодня, когда молодежь быстро и легко осваивает технологии, от учителей также требуется давать им знания с использованием современных методов. Поэтому для того, чтобы стать современным учителем, актуальным вопросом стало использование передовых устройств и эффективное внедрение технологических возможностей в образовательный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данной статье рассматриваются следующие современные устройства, которые делают образовательный процесс интерактивным, интересным и эффективным.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что искусственный интеллект и современные технологии значительно облегчают образовательный процесс и повышают интерес учащихся к уроку. В частности:

* Такие устройства, как «карманный проектор», можно использовать для организации урока в любое время и в любом месте.
* «Bluetooth-клавиатуры» побуждают учащихся быстро писать и самостоятельно искать.
* Такие инструменты, как «Media Share Hub», обеспечивают эффективный обмен информацией между преподавателями и учениками даже в местах с ограниченным доступом в Интернет.
* «Google Cardboard» можно использовать для передачи сложных научных концепций интересным и интерактивным способом.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

* «Умные доски» и их мобильные версии недороги, просты в использовании и многофункциональны, и, как было замечено, намного эффективнее традиционных методов обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что искусственный интеллект и современные технологические инструменты становятся очень важными в современной системе образования. Процесс получения знаний посредством эффективного обмена информацией между преподавателями и студентами, интерактивных методов обучения и визуальных средств обучения становится все более удобным и результативным. Среди таких технологий особое место занимают карманные проекторы, Bluetooth-клавиатуры, Media Share Hub, Google Cardboard и современные смарт-доски.

Ключевые слова: современные образовательные инструменты, качество образования, учебное оборудование, информационно-компьютерные технологии, Карманный проектор, виртуальная беспроводная клавиатура, google cardboard, смарт-доска, media share hub, технологии bluetooth, беспроводные технологии.

Для цитирования: Асанова У.С. Технологии искусственного интеллекта в системе цифрового образования. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 394–400.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM

© Uldaulet S. Asanova[1]✉
[1]Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Karakalpakstan

Annotation

INTRODUCTION: nowadays, it is very difficult to surprise anyone with new gadgets. Technologies are developing every day. Teachers use many modern tools in education.

AIM: to highlight the place of artificial intelligence and advanced technological devices in the modern educational process, as well as to show ways to improve the effectiveness of learning with their help. Today, when young people quickly and easily master technologies, teachers are also required to give them knowledge using modern methods. Therefore, in order to become a modern teacher, the use of advanced devices and the effective implementation of technological capabilities in the educational process has become an urgent issue.

MATERIALS AND METHODS: this article discusses the following modern devices that make the educational process interactive, interesting and effective

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study show that artificial intelligence and modern technologies greatly facilitate the educational process and increase students' interest in the lesson. In particular:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

* Devices such as the "pocket projector" can be used to organize a lesson anytime and anywhere.
* "Bluetooth keyboards" encourage students to write quickly and search independently.
* Tools such as the "Media Share Hub" ensure effective information exchange between teachers and students even in places with limited Internet access.
* "Google Cardboard" can be used to convey complex scientific concepts in an interesting and interactive way.
* "Smart boards" and their mobile versions are inexpensive, easy to use and multifunctional, and have been shown to be much more effective than traditional teaching methods.

CONCLUSION: in conclusion, it should be noted that artificial intelligence and modern technological tools are becoming very important in the modern education system. The process of obtaining knowledge through effective exchange of information between teachers and students, interactive teaching methods and visual learning tools is becoming more and more convenient and effective. Among such technologies, pocket projectors, Bluetooth keyboards, Media Share Hub, Google Cardboard and modern smart boards occupy a special place.

Key words: modern educational tools, quality of education, educational equipment, information and computer technologies, Pocket projector, Virtual wireless keyboard, Google Cardboard, Smart board, Media Share Hub, Bluetooth technologies, wireless technologies.

For citation: Uldaulet S. Asanova. (2025) ‘Artificial intelligence technologies in the digital education system’, Inter education & global study, (6), pp. 394–400. (In Uzbek).

Sun'iy intellekt - bu kompyuterlar yordamida inson imkoniyatlarini oshirishni texnik jihatdan o‘rganish. Bugungi kunda maktab va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim zamonaviy qurilmalar yordamida yangi bosqichga ko‘tarildi, deyish mumkin. Bir necha yil avval o‘quvchilarga biror jarayon yoki hodisani tushuntirish qo‘lda doskada, qog‘ozda yoki boshqa mavjud vositalar yordamida amalga oshirilar edi. O‘qituvchi juda ko‘p ma'lumotlarni o‘zi tayyorlashi kerak edi. Hozirgi vaqtda odamlar uchun sun'iy intellektni rivojlantirish muammolariga kompyuter tomonidan ekspert sifatida belgilangan sohada boshqarish, avtomobil navigatsiyasi, teoremani isbotlash, tasvirni aniqlash, shaxsni aniqlash va boshqalar kiradi. Shuningdek, talabalarning o‘zlari texnologiyani juda tez va oson o‘rganmoqdalar.

Darhaqiqat, olimlar bugungi kunda texnologiyaning asosiy iste’molchilari yoshlar ekanligini isbotladilar. Shunday ekan, o‘qituvchilar yoshlarga har qanday ma’lumot berishda orqada qolmoqda, desak xato bo‘lmaydi. Bugungi kunda talabalar doimiy ravishda mobil qurilmalar bilan sayohat qilishadi va avvalgidek daftar va kitob olib yurgan talabalarni ko‘rish kamdan-kam uchraydi. Internet, elektron kitoblar, video darslar va video kurslar bugungi kun talabalarining o‘quv qurollari hisoblanadi. Bunday haqiqatda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

zamonaviy o‘qituvchi bo‘lish, zamonaviy vositalar va texnologiyalardan foydalana olish juda muhimdir.

1. Cho‘ntak projektori



Ayni paytda ko‘plab ta’lim muassasalarida maxsus xona va proyektorlar bilan jihozlangan o‘quv xonalari tayyorlandi. Bu xonalarda ko‘pchilik talabalarga ma’lumotni proyektor yordamida taqdim etish joriy mavzuni tushuntirishni osonlashtiradi. Biroq, bu xonalar qimmatbaho jihozlar bilan jihozlangan va ularning soni cheklangan bo‘lib, u erda istalgan vaqtda ta'lim berish mumkin emas. Agar o‘quv mashg'ulotida proyektor kerak bo‘lsa, o‘qituvchi o‘zi bilan cho‘ntak proyektorini olib yurishi uchun qulaydir.

2. Bluetooth klaviaturasi va Virtual simsiz klaviatura



Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bugungi kunda o‘quvchilar mobil texnologiyalarni juda yaxshi bilishadi, o‘qituvchilar ham planshetlardan foydalanishadi. Bluetooth klaviaturasi va Virtual simsiz klaviatura o‘quv jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchilarga mobil planshet va telefonlariga ma’lumotlarni tez va oson kiritishga yordam beruvchi klaviatura qurilmalari hisoblanadi.

3. Media almashish markazi



Ma’lumki, axborot zamonaviy ta’lim jarayonining asosidir. Axborotni talabalarga tarqatish va o‘quvchilarga yetkazish eng muhim masala hisoblanadi. Albatta, bugungi kunda axborotni tarqatishning ko‘plab usullari mavjud. Bularga elektron pochta orqali yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali va axborot almashish saytlari orqali talabalarga ma'lumot tarqatish kiradi. Ushbu usullar keng qo‘llaniladi, ammo ularda ba'zi muammolar mavjud. Masalan, hozirda maktabda internet mavjud bo‘lmasa yoki ma’lumotni chekka qishloqlardagi o‘quvchilarga tarqatish kerak bo‘lsa yoki uni bir necha guruh yoki sinflarga tarqatish zarur bo‘lsa, boshqacha aytganda, ko‘p sonli o‘quvchilarga tarqatish kerak bo‘lsa yoki seminarda ma’lumot tarqatish kerak bo‘lsa, ularning barchasidan elektron pochta manzillarini olish va bu manzillarni klaviatura yordamida terish ancha vaqt va kuch talab etadi. Bu erda bizning birinchi zamonaviy vositamiz, Media Share Hub yordamga keladi. Ushbu qurilma yordamida o‘qituvchi tasvirda ko‘rsatilganidek, USB flesh, SD karta, tashqi HDDda saqlangan ma’lumotlarni almashishi mumkin. Ushbu qurilmaning o‘zi WIFI texnologiyasidan foydalangan holda ma'lumot uzatishi mumkin.

4. Google Cardboard



Ya'ni, agar siz ko‘p sonli talabalarga tarqatishingiz kerak bo‘lsa yoki seminarda ma'lumot tarqatishingiz kerak bo‘lsa, ularning barchasidan elektron pochta manzillarini olish va bu manzillarni klaviatura yordamida yozish juda ko‘p vaqt va kuch talab qiladi. Ushbu qurilma yordamida o‘qituvchi USB flesh, SD karta, tashqi HDDda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

saqlangan ma’lumotlarni almashishi mumkin. Ushbu qurilmaning o‘zi WIFI texnologiyasidan foydalangan holda ma'lumot uzatishi mumkin.

Bu qurilma yordamida ko‘plab jarayonlarni uch o‘lchamli texnologiya yordamida o‘quvchilarga juda qiziqarli tarzda tushuntirish mumkin. Bugungi kunda o‘quv jarayonida uch o‘lchovli texnologiyalar qo‘llanilmoqda. Masalan, ushbu texnologiya yordamida astronomiya bilimlarini tushuntirish, menimcha, nihoyatda qulay bo‘ladi. Yoki bu qimmatbaho asboblarni o‘zlashtirishning eng qulay va arzon usullaridan biri. Albatta, bu texnologiya ko‘pincha o‘yinlarda qo‘llaniladi, ammo u o‘quv jarayonlarida ham muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin. Google Cardboard qimmat 3D texnologiyalarda qo‘llaniladigan maxsus ko‘zoynaklarga arzon muqobildir.

5. Aqlli doska



Hozirgi vaqtda smartboardlar universitetlar va yirik biznes markazlarida keng qo‘llanilmoqda. Qimmatbaho proyektor, noutbuk va maxsus elektron doskadan iborat aqlli doskaning narxi deyarli 3000-11000 AQSh dollarini tashkil etadi. Bular, albatta, juda aniq va sifatli ko‘rinish va yoqimli tajribani ta'minlaydi. Ikkinchi o‘rinni maxsus interaktiv proyektorlar egallaydi. Bu projektorlar oddiygina devorga barmoqlaringiz yoki maxsus qalam bilan proyeksiya qilish orqali ishlaydi. Biroq, so‘nggi paytlarda aqlli taxta xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan arzon va mobil qurilmalar sotuvga chiqarildi. Ushbu qurilmalar IPEVO IS-01, BoardShare, UBoard va boshqalar kabi boshqa nomlar ostida sotilishi mumkin. Ularning eng muhim jihati shundaki, ular arzon, mobil, maxsus ruchka va kam quvvatli proyektordan iborat.

Ilg'or texnologiyalar va axborot bilan ta'minlash har doim ta'limda juda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yoshlarni tarbiyalash eng muhim masalalardan biri bo‘lishi kerak. Ta’limda boshqalardan hamqadam bo‘lsak, bir xil tezlikda va bir yo‘lda bo‘lsak, biz hamisha oldinda bo‘lamiz. Shuning uchun o‘qituvchilar imkon qadar o‘zidan boshlab, o‘quvchilari bilan davom etib, axborot va texnologiyaga chanqoq bo‘lishlari kerak. Bilimga chanqoqlik bugungi kun talabidir. Ta'limni oson va qiziqarli qilish uchun zamonaviy vositalardan foydalanilsa maxsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Halaweh, M. (2023). ChatGPT in education: Strategies for responsible implementation. Contemporary Educational Technology, 15(2), ep421. https://doi.org/ 10.30935/cedtech/13036
2. Чупрасова В.А. Современные технологии в образовании. -М., 2020
3. Mamatov N. va boshqalar. Sun’iy intellekt vositalarini ta’limni nazorat qilish va baholashda qo‘llash. ТАТУ имени Мухаммада аль-Хоразми ISSN 2181-4252 Том: 1 | Выпуск: 4 | 2023 год
4. Asanova U.S. The use of modern teaching technologies in the educational process. ll Web of Technology: Multidimensional Research Journal 2.6 2024. -p. 4l-46.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. Asanova U.S. Bilimlendiriwde jasalma intellektten paydalanıw. “Muғallim xәm үзликсиз тәлим”. 2025-jıl, 3/3-san

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Asanova Uldaulet Sagindikovna**, “Informatika o‘qitish metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, [**Асанова Улдаулет Сагындыковна,** Старший преподаватель кафедры «Методика преподавания информатики»], [**Asanova Uldaulet Sagindikovna**, Senior Lecturer, Department of “Informatics Teaching Methods”]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh. P.Seytov ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, ул. П. Сейтова] [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov Street]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA O'QITUVCHI FAOLIYATINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

© D.A. Xalmatova[1]✉, © O'.Y. Ro'ziboyeva[2]✉
[1,2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada pedagogik diagnostikaning mohiyati, vazifalari hamda u o'qituvchilik kasbining tarkibiy qismi sifatida tutgan o'rni atroflicha tahlil qilingan. Pedagogik diagnostikaning nazariy asoslari, turlari, usullari va o'quv jarayoniga ta'siri yoritilib, o'qituvchining diagnostik kompetensiyasi zamonaviy ta'limdagi asosiy kasbiy ko'nikma sifatida baholangan. Pedagogik diagnostikaning ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlash va samarali pedagogik qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini asoslab beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimining murakkablashib borishi o'qituvchining roli va vazifalarini kengaytirmoqda. Endilikda pedagog faqatgina bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini kuzatuvchi, tahlil qiluvchi va zarur holatlarda korreksiya jarayonlarini amalga oshiruvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu ma'noda, pedagogik diagnostika o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim va ajralmas omil sifatida e'tirof etiladi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, bilim darajasini va rivojlanish sur'atlarini aniqlash orqali ta'lim jarayonini samarali yo'naltirish imkonini yaratadi.

MAQSAD: mazkur maqolaning maqsadi pedagogik diagnostikaning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini yoritish, uning o'qituvchi kasbiy kompetentligini oshirishdagi ahamiyatini tahlil qilish va diagnostika vositalarining o'quvchilarning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, pedagogik diagnostikaning tarixiy ildizlari, asosiy vazifalari va qo'llash mexanizmlarini o'rganish orqali, uning ta'lim sifati va samaradorligiga qo'shayotgan hissasi aniqlanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda nazariy tahlil usulidan foydalangan holda pedagogik diagnostika bilan bog'liq ilmiy manbalar, jumladan, Karlxayns Ingenkamp, L.V. Grebennikova va boshqa olimlarning qarashlari asos qilib olindi. Shuningdek, o'qituvchi faoliyati va o'quvchilarning rivojlanish jarayonlariga oid diagnostik ko'rsatkichlar tizimli tahlil qilindi. Tahlil obyekti sifatida o'qituvchining kasbiy faoliyatida diagnostika vositalaridan foydalanish amaliyoti ko'rib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: pedagogik diagnostika o'qituvchi faoliyatining markaziy qismiga aylanib borayotgani ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Diagnostika orqali o'quvchilarning bilim darajasi, rivojlanish sur'atlari va psixologik holati aniqlanadi, bu esa dars mazmunini moslashtirishga imkon beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, diagnostika o‘qituvchining rejalashtirish, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash jarayonlarini yanada chuqurlashtiradi. Shu bilan birga, u ta’lim natijalarining sifatli monitoringi, o‘quvchilarning individuallashtirilgan rivojlanish yo‘nalishini belgilashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

XULOSA: zamonaviy pedagogik amaliyotda diagnostika vositalarining ahamiyati ortib bormoqda. Har bir o‘qituvchi pedagogik diagnostika asoslarini chuqur egallab, uni amaliy faoliyatda to‘g‘ri qo‘llay bilishi ta’limning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik diagnostika o‘quvchilar rivojini izchil tahlil qilish, muammolarni erta aniqlash, individual yondashuvni ta’minlash va o‘qituvchi kasbiy kompetentligini oshirishning asosiy omilidir. Shu sababli pedagogik tashxis har bir o‘qituvchining kundalik faoliyatida markaziy o‘rin tutmog‘i lozim.

Kalit so'zlar: pedagog, pedagogik diagnostika, korreksiya, kompetentsiya, individuallik, differensial.

Iqtibos uchun: Xalmatova D.A., Ro‘ziboyeva O‘.Y. Pedagogik diagnostika o’qituvchi faoliyatining tarkibiy qismi sifatida. // Inter education & global study. 2025, №6. B.401–408.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА КАК СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

© Д.А. Халматова[1]✉, © У. Ё. Рузибоева[2]✉
[1,2]Чирчикский государственный педагогический институт, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье всесторонне проанализированы сущность и функции педагогической диагностики, а также её место как составной части педагогической профессии. Рассмотрены теоретические основы, виды и методы педагогической диагностики, её влияние на образовательный процесс. Также дана оценка диагностической компетентности учителя как одной из ключевых профессиональных умений в современной системе образования. Обосновано значение педагогической диагностики в повышении качества образования, обеспечении индивидуального развития учащихся и принятии эффективных педагогических решений.

Усложнение современной системы образования расширяет роль и обязанности учителя. Сегодня педагог — это не только носитель знаний, но и специалист, который наблюдает за личностным и интеллектуальным развитием учащихся, анализирует и, при необходимости, проводит коррекционную работу. В этом контексте педагогическая диагностика признаётся важным и неотъемлемым элементом профессиональной деятельности учителя. Она позволяет эффективно направлять образовательный процесс, выявляя индивидуальные особенности, уровень знаний и темпы развития учащихся.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ЦЕЛЬ: целью данной статьи является освещение роли педагогической диагностики в современной образовательной системе, анализ её значения в повышении профессиональной компетентности учителя, а также определение влияния диагностических инструментов на развитие учащихся. Кроме того, на основе изучения исторических корней, основных задач и механизмов применения педагогической диагностики раскрывается её вклад в повышение качества и эффективности образования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании применён метод теоретического анализа научных источников, связанных с педагогической диагностикой, в частности, взгляды таких учёных, как Карлхайнц Ингенкамп, Л.В. Гребенникова и других. Системно проанализированы диагностические показатели, относящиеся к профессиональной деятельности учителя и процессам развития учащихся. В качестве объекта анализа рассматривается практика применения диагностических инструментов в профессиональной деятельности педагога.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: педагогическая диагностика всё больше становится центральным элементом деятельности учителя, играя ключевую роль в повышении эффективности образовательного процесса. С помощью диагностики определяются уровень знаний учащихся, темпы их развития и психологическое состояние, что позволяет адаптировать содержание уроков. Результаты исследования показывают, что диагностика углубляет процессы планирования, рефлексии и самооценки у педагога. Кроме того, она служит эффективным инструментом для качественного мониторинга учебных результатов и определения индивидуальных траекторий развития учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в современной педагогической практике значение диагностических инструментов продолжает возрастать. Каждый учитель должен глубоко овладеть основами педагогической диагностики и уметь правильно применять их в своей деятельности, поскольку это имеет решающее значение для повышения качества образования. Педагогическая диагностика является основным фактором в системном анализе развития учащихся, раннем выявлении проблем, обеспечении индивидуального подхода и повышении профессиональной компетентности педагога. Следовательно, педагогическая диагностика должна занимать центральное место в ежедневной работе каждого учителя.

Ключевые слова: педагог, педагогическая диагностика, коррекция, компетентность, индивидуальность, дифференциация.

Для цитирования: Халматова Д.А., Рузибоева У. Ё. Педагогическая диагностика как составная часть деятельности учителя. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 401–408.

PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS AS AN INTEGRAL PART OF TEACHING PRACTICE

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© Dilobad A. Khalmatova[1]✉, © Ulmasoy Y. Roziboyeva[2]✉
[1,2]Chirchik State Pedagogical Institute, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article provides an in-depth analysis of the essence and functions of pedagogical diagnostics, emphasizing its role as a key component of the teaching profession. The theoretical foundations, types, and methods of pedagogical diagnostics are discussed, along with its impact on the learning process. The article also evaluates the teacher's diagnostic competence as a crucial professional skill in modern education. Furthermore, the significance of pedagogical diagnostics in improving education quality, supporting students' individual development, and making effective pedagogical decisions is substantiated.

The increasing complexity of the modern education system is expanding the role and responsibilities of teachers. Today, a teacher is no longer merely a transmitter of knowledge but is also expected to monitor, analyze, and, if necessary, correct the personal and intellectual development of students. In this context, pedagogical diagnostics is recognized as a vital and integral part of a teacher's professional activity. It enables the effective direction of the educational process by identifying students' individual characteristics, knowledge levels, and developmental dynamics.

AIM: the purpose of this article is to highlight the significance of pedagogical diagnostics in the contemporary education system, analyze its role in enhancing teachers' professional competence, and determine how diagnostic tools influence students' development. In addition, by examining the historical background, main functions, and implementation mechanisms of pedagogical diagnostics, the article aims to assess its contribution to improving educational quality and effectiveness.

MATERIALS AND METHODS: the study employed theoretical analysis of scientific sources related to pedagogical diagnostics, particularly the views of scholars such as Karlheinz Ingenkamp, L.V. Grebennikova, and others. Diagnostic indicators related to teachers' professional activities and student development processes were systematically analyzed. The object of analysis was the practical application of diagnostic tools in teachers' professional activities.

DISCUSSION AND RESULTS: pedagogical diagnostics is increasingly becoming central to teachers' professional work, playing a crucial role in enhancing the effectiveness of the educational process. Through diagnostics, teachers can determine students' levels of knowledge, developmental progress, and psychological state, enabling them to adapt lesson content accordingly. Research results show that diagnostics deepens teachers' planning, reflection, and self-assessment processes. Moreover, it serves as an effective tool for qualitative monitoring of educational outcomes and for designing individualized development trajectories for students.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

CONCLUSION: in today's pedagogical practice, the importance of diagnostic tools continues to grow. Every teacher must master the fundamentals of pedagogical diagnostics and apply them effectively in practice, as this plays a key role in improving the quality of education. Pedagogical diagnostics is essential for consistently analyzing student development, identifying problems early, ensuring individual approaches, and enhancing teacher competence. Therefore, pedagogical diagnostics must occupy a central place in every teacher's daily professional activities.

Key words: pedagogue, pedagogical diagnostics, correction, competence, individuality, differentiation.

For citation: Dilobad D. Khalmatova, Ulmasoy Y. Roziboyeva. (2025) 'Pedagogical diagnostics as an integral part of teaching practice', Inter education & global study, (6), pp. 401–408. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning rivojlanish jarayonini tahlil qiluvchi, yo'naltiruvchi, korreksiya qiluvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, pedagogik diagnostika o'qituvchining kasbiy faoliyatining ajralmas va muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Pedagogik diagnostika — bu ta'lim jarayonining holatini, o'quvchilarning individual xususiyatlari va bilim darajasini aniqlash, o'quv jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashga qaratilgan faoliyatdir. Bugungi kunda o'qituvchi kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotgan "Pedagogik diagnostika"ning tarixida nemis olimi Karlxayns Ingenkampning alohida o'rni bor.Aynan Karlxayns Ingenkamp 1968 yilda ta'lim sohasida "pedagogic diagnostika"tushunchasini qo'llash taklifini ilgari surgan.Muallif tashxisga asoslanuvchi pedagogik faoliyat negizida sifatning zarur ilmiy mezonlarini saqlab qolgan holda o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini anketa yordamida kuzatish, nazorat va so'rovlar natijalarini qayta ishlash orqali xatti-harakatlari mohiyatidan ularni xabardor kilish, natijalar uchun negiz bo'lgan sabablarni yoritish va istiqbolni izohlash jarayonini tushungan edi. "Diagnostika" (tashxislash) tushunchasi yunon tilidan tarjima qilinganda lug'aviy jihatdan "bilish", "aniqlash", nazariy jihatdan esa "aniqlashga qodirlik", "aniqlashga imkon berish" ma'nolarini anglatadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar, sub'ektlarning hayot tarzidan kelib chiqqan holda "diagnostika" tushunchasi turli sohalarda ham qo'llanila boshlandi. Pedagogning turli pedagogik vaziyatlarda mavjud muammolarni hech bir qiyinchiliksiz, oqilona hal etishi uning yuqori darajada kasbiy kompetentlika ega bo'lishiga bog'liq. Qolaversa, inson resurslariga bo'lgan ehtiyoj tobora o'sib borayotgan hamda mehnat bozorida kuchli raqobat yuzaga kelayotgan mavjud sharoitda pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik tashxislash orqali pedagog faoliyatini aniqlashtirish, uni amaliy vazifalarni hal qilishga yo'naltirish, pedagogning kasbiy kompetentligini takomillashtirish,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘quvchilarning bilim hamda tarbiyalanganlik darajasini, shuningdek, o‘quvchilar jamoasining tarbiyalovchi ta’sirini kuchaytirish mumkin.

L.V.Grebennikovaning qayd etishicha, o‘qituvchi faoliyatini tahlil qilish orqali tashxislash u tomonidan tashkil etilayotgan kasbiy mehnat bilan uning natijasi o‘rtasidagi farq (ta’lim oluvchilarning aqliy, madaniy rivojlanishi, zakovati, nazariyaning amaliyot bilan bog‘lay olish ko‘nikma, malakalariga egaliklari)ni ko‘rish, o‘qituvchi mehnatida zamonaviy hamda ana’aviy yondashuvlarni ongli ravishda o‘zaro uyg‘unlashganligini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Qaysi soha bo‘lishidan qat’i nazar tashxislash murakkab jarayon sanaladi.

Binobarin, bu jarayonda barcha omillarni inobatga olish, qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni har tomonlama tahlil qilish, natijalarni xolis baholash talab etiladi. Bordi-yu, tashxis jarayonida bu talablardan biri inobatga olinmasa, u holda pedagogning faoliyati, qolaversa, unga bog‘liq ravishda o‘quv-tarbiya ishlarining samaradorligi ham baholanmaydi.

O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni mustaqil ravishda tahlil qilib,baholab borish malakalariga ega bo‘lishlarini ta’minlashga erishish zarur.Pedagoglarning kasbiy kompetentlikka egalikni mustaqil tahlil va baholash ko‘nikmalariga egaliklari o‘z ustida ishlashlari, kamchiliklarni izchil bartaraf etish, yutuqlarni muntazam ravishda boyitib borishga odatlanishlariga yordam beradi.

O‘qituvchi faoliyatida diagnostikaning o‘rni.

O‘qituvchi kasbining samaradorligi o‘quvchilar bilan olib boriladigan tahliliy ishlarga bevosita bog‘liq. Quyidagi jihatlar diagnostikaning ahamiyatini ko‘rsatadi:

1. Ta’lim jarayonining sifatini oshiradi.Diagnostika orqali o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlar aniqlanadi va shu asosda o‘qitish metodlari moslashtiriladi.

2. Individuallashtirish va diferensial yondashuvni ta’minlaydi.Har bir o‘quvchining o‘ziga xos rivojlanish sur’ati, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish imkonini beradi.

3. O‘qituvchining rejalashtirish faoliyatini asoslaydi.Dars mazmuni, metodikasi va vositalari diagnostik natijalarga ko‘ra shakllantiriladi.

4. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholashga yordam beradi.O‘qituvchi o‘z faoliyatining samarasini tahlil qilib, kerakli o‘zgarishlar kiritadi.

Pedagogik diagnostikaning o‘qituvchi faoliyatidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash va baholash
- O‘quvchilarning psixologik holatini, rivojlanish darajasini aniqlash
- Pedagogik jarayon samaradorligini tahlil qilish
- O‘quv faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish
- O‘quvchilar rivojlanishini nazorat qilish va individual yo‘nalishlarni belgilash kabilar.

XIX asrning II yarmida maktabda ta'lim turlarining keng tarqalishi munosabati bilan baholash usullarini takomillashtirish zarurati tug'ildi. Pedagogik diagnostikaning rivojlanishi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

psixodiagnostika usullarini yaratish bilan parallel ravishda amalga oshirildi va bu jarayonlar integrallashdi. Aksariyat psixologik testlar maktab ehtiyojlari uchun maxsus yaratilgan yoki pedagogik jarayonda foydalanish uchun tezda moslashtirildi.

K.Ingenkamp fikricha «Pedagogik diagnostika, birinchidan, individual ta'lim jarayonini optimallashtirishga mo'ljallangan bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim natijalarini to'g'ri aniqlashni ta'minlash, uchinchidan, jamiyat manfaatlariga mos keladi. Shuningdek talabalarni bir o'quv guruhidan boshqasiga o'tkazishda, ularni turli kurslarga taqsimlashda va ta'lim ixtisosligini tanlashda xatolarni minimallashtirish uchun ishlab chiqilgan mezonlarga bo'ysunadi».

Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika vositalarini o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlay oladigan darajada takomillashtirish talab qilinadi. Qolaversa, har bir o‘quvchining muammo va yutuqlariga tayangan holda uni rivojlantirish traektoriyasini oqilona belgilash maqsadga muvofiqdir. Bunda, eng muhimi, pedagogik diagnostika jarayoni bosqichlari to‘g‘ri belgilash va ularni izchil tashkil etish muhim ahamiyatga ega.Demak, zamonaviy sharoitda har bir o‘qituvchi har o‘qituvchi pedagogic diagnostika asoslarini puxta bilishi, bu boradagi mavjud bilimlaridan ta’lim va tarbiya jarayonida samarali foydalana olishi zarur. Zero, shunda pedagogic jarayonning samaradorligini ta’minlash va o‘quvchilarni har tomonlama rivojlangan shaxs etib tarbiyalashga erishiladi.

Pedagogik diagnostika o‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi, ta’lim sifatini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanish yo‘lini kuzatuvchi, baholovchi va kerakli o‘zgarishlarni joriy qiluvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu sababli pedagogik diagnostika o‘qituvchining har kunlik ish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika. -Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010 - 256 b.
2. Abdullayeva Sh. A. O' quvchilami pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar//Xalq ta’limi, 2016 ,№3, 40-45 b.b.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi/
4. M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar. Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. -Toshkent:
5. D.O.Ximmataliyev, S.B.Allayarova, D.Xalmatova, R.R.Karimov, I.N.Buxorov, Sh.V.Usmonov, M.O‘.Xakimova. Pedagogik diagnostika va korreksiya O‘quv qo‘llanma. – Toshkent
6. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin, 1991- 240 p.
7. Педагогическая диагностика в школе/Под ред. А.И. Кочетова - Мн., 19875.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

8. Педагогический энциклопедический словарь. - М., 2002. С. 190.
9. Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlami tashkil qilish metodikasi.-Toshkent: O'qituvchi, 1996 - 178 b.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xalmatova Dilobad Alimjanovna**, o'qituvchi, [**Халматова Дилобад Алимжановна,** преподаватель], [**Khalmatova Dilobad Alimjanovna**, Lecturer]; manzil: O'zbekiston, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy, [адрес: Узбекистан, г. Чирчик, улица Амира Темура, дом 104], [address: Uzbekistan, 104 Amir Temur Street, Chirchiq City]

✉**Ro'ziboyeva O'lmasoy Yo'ldosh qizi**, talaba, [**Рузибоева Улмасой Ёлдош кизи,** студентка], [**Roziboyeva Ulmasoy Yo'ldosh qizi**, student]; manzil: O'zbekiston, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy, [адрес: Узбекистан, г. Чирчик, улица Амира Темура, дом 104], [address: Uzbekistan, 104 Amir Temur Street, Chirchiq City]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

ZAMONAVIY MATEMATIK DARS METODLARI: METODIK TAVSIYALAR

© B.R. Xanimkulov[1]✉

[1] Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada zamonaviy matematika dars metodlarining mazmuni, ularning didaktik ahamiyati va dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosida faol o‘qitish metodlari, loyihaviy yondashuv va raqamli texnologiyalarning dars jarayonidagi afzalliklari ochib berilgan. Maqola so‘ngida amaliyotchi o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar keltirilgan.

Zamonaviy ta’lim tizimida matematika fani faqat nazariy bilimlarni o‘rgatish vositasi emas, balki mantiqiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish, algoritmik tafakkur kabi ko‘nikmalarni shakllantirish vositasi sifatida qaralmoqda. Bu o‘zgarishlar o‘qituvchidan an’anaviy metodlardan voz kechib, innovatsion va interfaol yondashuvlarga asoslangan yangi metodikani joriy etishni talab etadi. Mazkur maqolada matematik ta’limda zamonaviy metodlarning o‘rni, ular orqali o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi matematika darslarida qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni tahlil qilish hamda ularning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va muammoni yechish kompetensiyalariga ta’sirini aniqlashdan iborat. Shuningdek, o‘qitish jarayonining har bir bosqichida metodik yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining matematika darslariga oid metodik materiallar, amaliy dars kuzatuvlari, o‘quvchilarning ishtirokini baholash, va raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning samaradorligini tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi. Shuningdek, faol o‘qitish metodlari, loyiha asosida o‘qitish va onlayn vositalar (GeoGebra, Desmos, Quizizz) amaliyotda qo‘llanilib, ularning natijalari o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o‘rganilgan metodlar natijasida darslarda o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va matematik tushunchalarni real hayot bilan bog‘lash darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Faol metodlar orqali o‘quvchilarda muloqot qilish, guruhda ishlash, muammoli topshiriqlarni hal etish ko‘nikmalari shakllandi. Raqamli texnologiyalar darslarni vizual jihatdan boyitdi va baholashni avtomatlashtirishga yordam berdi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

XULOSA: matematika ta’limida zamonaviy metodlardan foydalanish o‘quvchilarni nafaqat bilim oluvchiga, balki faol ishtirokchi, tahlilchi va ijodkorga aylantirishga xizmat qiladi. Bu metodlar orqali o‘qitish jarayoni samarali va o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi. Shuning uchun har bir matematik darsda faol metodlar, raqamli vositalar va tahliliy yondashuvlar uyg‘unlashgan holda qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: matematika ta’limi, interfaol metodlar, raqamli vositalar, kompetensiyaviy yondashuv, metodik tavsiyalar.

Iqtibos uchun: Xanimkulov B.R. Zamonaviy matematik dars metodlari: metodik tavsiyalar. // Inter education & global study. 2025, №6. B.409–414.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ: МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ

© Б.Р. Ханимкулов [1]✉
[1]Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье проанализировано содержание современных методов преподавания математики, их дидактическая значимость и роль в повышении эффективности уроков. В частности, раскрываются преимущества активных методов обучения, проектного подхода и цифровых технологий в учебном процессе на основе компетентностного подхода. В конце статьи приведены методические рекомендации для практикующих учителей.

В современной системе образования математика рассматривается не только как средство передачи теоретических знаний, но и как инструмент формирования логического мышления, анализа проблем, поиска решений и алгоритмического мышления. Эти изменения требуют от учителя отказа от традиционных методов и внедрения новых методик, основанных на инновационном и интерактивном подходе. В статье рассматривается роль современных методов в математическом образовании и анализируются возможности формирования активной позиции учащихся в учебном процессе.

ЦЕЛЬ: основной целью статьи является анализ современных педагогических методов и технологий, применяемых на уроках математики, а также определение их влияния на развитие у учащихся самостоятельного мышления и компетенций в решении проблем. Кроме того, предполагается разработка рекомендаций по совершенствованию методического подхода на каждом этапе учебного процесса.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались методические материалы, касающиеся уроков математики в общеобразовательных учреждениях, наблюдение за проведением занятий, оценка активности учащихся, а также анализ эффективности обучения с применением цифровых технологий. На практике применялись активные методы обучения, проектное обучение и онлайн-платформы (GeoGebra, Desmos, Quizizz), результаты которых были изучены.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в результате применения изученных методов было зафиксировано значительное повышение активности учащихся на уроках, их самостоятельного мышления и способности связывать математические понятия с реальной жизнью. Активные методы способствовали развитию навыков коммуникации, работы в группе и решения проблемных заданий. Цифровые технологии обогатили визуальную сторону уроков и способствовали автоматизации процесса оценивания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: использование современных методов в преподавании математики способствует превращению учащихся из пассивных получателей знаний в активных участников, аналитиков и творческих личностей. Эти методы делают учебный процесс более эффективным, а уроки — интересными и доступными для понимания. Поэтому рекомендуется, чтобы на каждом уроке математики использовался хотя бы один активный метод обучения, цифровые инструменты внедрялись поэтапно, а по окончании занятия проводился методический анализ с учетом мнения учащихся.

Ключевые слова: математическое образование, интерактивные методы, цифровые инструменты, компетентностный подход, методические рекомендации.

Для цитирования: Ханимкулов Б.Р. Современные методы обучения на уроках математики: методические рекомендации. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 409–414.

MODERN TEACHING METHODS IN MATHEMATICS LESSONS: METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS

© Bahrom R. Khanimkulov[1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the content of modern teaching methods in mathematics, their didactic significance, and their role in increasing lesson effectiveness. In particular, it highlights the advantages of active teaching methods, project-based approaches, and digital technologies in the classroom, based on a competency-based perspective. At the end of the article, methodological recommendations are provided for practicing teachers.

In the modern education system, mathematics is no longer viewed merely as a subject for acquiring theoretical knowledge. Rather, it is recognized as a tool for developing logical thinking, problem analysis, solution strategies, and algorithmic reasoning. These changes require teachers to move away from traditional methods and adopt new methodologies grounded in innovative and interactive approaches. This article explores the role of modern methods in mathematics education and analyzes how they can help transform students into active participants in the learning process.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

AIM: the main purpose of the article is to analyze the modern pedagogical methods and technologies currently used in mathematics lessons and to determine their impact on students' independent thinking and problem-solving competencies. Additionally, the article aims to develop practical recommendations for improving methodological approaches at each stage of the teaching process.

MATERIALS AND METHODS: during the study, methodological materials related to mathematics lessons in general secondary education institutions, classroom observations, assessment of student engagement, and analyses of the effectiveness of digital teaching tools were utilized. Active teaching methods, project-based learning, and online platforms (such as GeoGebra, Desmos, and Quizizz) were applied in practice and their outcomes were studied.

DISCUSSION AND RESULTS: as a result of applying the studied methods, a significant increase in students' classroom engagement, independent thinking, and ability to connect mathematical concepts to real-life situations was observed. Active teaching strategies helped students develop communication, teamwork, and problem-solving skills. Digital technologies enriched the visual aspect of lessons and facilitated automated assessment processes.

CONCLUSION the use of modern methods in mathematics education helps transform students from passive recipients of knowledge into active participants, analysts, and creators. These methods make the teaching process more effective and the lessons more engaging and understandable for learners. Therefore, it is recommended that each mathematics lesson integrates at least one active teaching method, incorporates digital tools gradually, and involves analytical reflection based on student feedback after class.

Key words: mathematics education, interactive methods, digital tools, competency-based approach, methodological recommendations.

For citation: Bahrom R. Khanimkulov. (2025) 'Modern teaching methods in mathematics lessons: methodological recommendations', Inter education & global study, (6), pp. 409–414. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim tizimida matematika fanining roli faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki mantiqiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, yechim topish, algoritmik tafakkur kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Bu esa o'z navbatida dars jarayonining metodologiyasini yangilash, innovatsion va interfaol yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. An'anaviy metodlardan foydalanish darsda passivlik, takroriylik, va qatnashuvchilar orasida farqni keskin oshiradi. Shu sababli matematik darsni tashkil etishda zamonaviy metodlarga asoslanish dolzarb hisoblanadi.

1. Zamonaviy ta'lim talablari kontekstida matematika darsining o'rni

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim konsepsiyasi o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish, real hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu esa:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- darsda o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash,
- ularni mustaqil fikrlashga undash,
- muammoli vazifalarni yechishga jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Matematika fanining tabiati – aniq tartib, izchillik, mantiqiylik – o‘qituvchi oldiga qat’iy va aniq maqsad qo‘yadi: o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirish. Bu esa dars metodikasini zamonaviylashtirishni taqozo etadi.

2. Zamonaviy metodlarning turlari va ta’limdagi ahamiyati

Zamonaviy metodlar asosan quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

a) Faol o‘qitish metodlari:

“Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Akvarium”, “Rol o‘ynash” kabi metodlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Bu metodlar orqali o‘quvchilar mavzuni chuqur tushunadi va o‘zaro fikr almashish orqali bilimlarini boyitadi.

b) Loyihalash metodlari:

O‘quvchilarga real hayotiy vaziyatlarga asoslangan matematik loyihalar beriladi (masalan, byudjet tuzish, xaridlar taqqoslanmasi, grafik chizish).

Bu metod o‘quvchini ijodiy fikrlashga va fanni hayot bilan bog‘lashga o‘rgatadi.

c) Raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish:

GeoGebra, Desmos, Kahoot, Quizizz, Plickers kabi onlayn platformalar darsga interaktivlik olib kiradi.

Vizualizatsiya orqali tushunchalar aniqroq, esda qolarli bo‘ladi.

Bunday vositalar oraliq va yakuniy baholashni avtomatlashtirishga yordam beradi.

3. Metodik tavsiyalar

1. Darsning har bir bosqichi uchun metod tanlash:

Kirish qismida – “Insert”, “Klaster” metodlari orqali mavjud bilimlarni aniqlash.

Asosiy qismda – misollar tahlili, muammo asosida o‘qitish.

Yakunida – test, baholovchi kartochkalar, refleksiya.

2. Individual yondashuvni ta’minlash:

O‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati va qiziqishlariga qarab guruhlarga bo‘lish va mos metodlar tanlash.

3. Baholashni tizimlashtirish:

Formativ baholash (oraliq topshiriqlar)

Summativ baholash (imkon darajasida raqamli platformalarda)

4. O‘quvchini motivatsiyalash:

Amaliy misollar, hayotiy vazifalar, qiziqarli faktlar asosida mavzuni tushuntirish.

Xulosa va takliflar

Matematika darslarining zamonaviy metodlar asosida tashkil etilishi:

- o‘quvchilarda mustaqil fikrlash,
- muammoni yechish kompetensiyasi,
- muloqot qilish va guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ilmiy asoslangan, zamonaviy metodlardan foydalanish orqali o‘quv jarayoni samarali, o‘quvchi uchun esa qiziqarli va tushunarli bo‘ladi.

Tavsiya etiladi:

- Har bir matematik darsda kamida bitta faol o‘qitish metodidan foydalanish.
- Raqamli vositalarni darsga bosqichma-bosqich integratsiya qilish.
- Darsdan keyin o‘quvchi fikrini inobatga olib, metodik tahlil yuritish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Karimov, I.A. (2016). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat.
2. Maxmudova D.M., Xanimkulov B.R. (2025). Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. –T. ZEBO PRINT nashriyoti.
3. Xanimkulov B.R. Yuksalib birlashgan yaxshimi yoxud birlashib yuksalish?.. "Ma’rifat" gazetasining 2025-yil 4-iyun, № 22(9555).
4. Axmedov, S. (2021). Matematika darslarida innovatsion metodlar. – T.: O‘qituvchi nashriyoti.
5. Nazarova, G. (2020). “Faol ta’lim metodlarining samaradorligi.” // Xalq ta’limi, №4, 52–56-bet.
6. Dewey, J. (1997). Experience and Education. – New York: Simon & Schuster.
7. Mishra, P. & Koehler, M. (2006). “Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge.” // Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
8. www.geogebra.org – GeoGebra platformasi rasmiy veb-sayti.
9. www.quizizz.com – Onlayn baholash vositasi sifatida Quizizz ilovasi.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xanimkulov Baxrom Roxmonqulovich**, dotsent, [**Ханимкулов Бахром Рахмонкулович,** Доцент], [**Khanimkulov Bahrom Rakhmonkulovich**, Associate Professor]; manzil: O‘zbekiston, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy, [адрес: Узбекистан, г. Чирчик, улица Амира Темура, дом 104], [address: Uzbekistan, 104 Amir Temur Street, Chirchiq City] xonimqulovb152@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

FONETIK O‘RGATISH METODIKASI BO‘YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR: AUDIOLINGVAL, KOMMUNIKATIV VA FONETIK-DIFFERENSIAL METODLAR TAHLILI

© Azamat Ergashev[1]✉
[1]Namangan davlat chet tillar instituti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: xorijiy tillarni o‘rgatishda fonetik kompetensiya, ya’ni to‘g‘ri talaffuz, urg‘u va intonatsiyani egallash o‘quvchi nutqining ravonligi va tushunarli bo‘lishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu maqolada ushbu kompetensiyani shakllantirishda qo‘llaniladigan uch asosiy metod – audiolingval, kommunikativ va fonetik-differensial metodlarning nazariy asoslari tahlil etiladi.

MAQSAD: har bir metodning fonetik kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni, o‘quvchi faolligini oshirishdagi imkoniyatlari, hamda amaliy yutuq va cheklovlarini ko‘rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili, tajriba asosida olingan natijalar va ilg‘or xorijiy metodik manbalarga tayangan holda taqqosloviy metod qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ metod fonetik kompetensiyani rivojlantirishda interaktivlik, kontekstual yondashuv va tinglab-tushunishga asoslangan samarali mashqlar orqali ajralib turadi. Audiolingval metod esa avtomatizatsiyani kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Fonetik-differensial metod esa talaffuzdagi nozik farqlarga e’tibor qaratish imkonini beradi.

XULOSA: har uch metodning birgalikda qo‘llanilishi o‘quvchilar fonetik kompetensiyasini yanada chuqur shakllantirishda muhim vosita bo‘la oladi. O‘qituvchilar bu metodlardan kombinatsiyalangan holda foydalanib, dars samaradorligini oshirishlari mumkin.

Kalit so'zlar: fonetik kompetensiya, audiolingval metod, kommunikativ metod, fonetik-differensial yondashuv, talaffuz, urg‘u, intonatsiya, xorijiy til o‘rgatish.

Iqtibos uchun: Azamat Ergashev. Fonetik o‘rgatish metodikasi bo‘yicha nazariy yondashuvlar: audiolingval, kommunikativ va fonetik-differensial metodlar tahlili. // Inter education & global study. 2025, №6. B.415–425.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К МЕТОДИКЕ ФОНЕТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ: АНАЛИЗ АУДИОЛИНГВАЛЬНОГО, КОММУНИКАТИВНОГО И ФОНЕТИКО-ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО МЕТОДОВ

© Азамат Эргашев[1]✉
[1]Наманганский государственный институт иностранных языков, Наманган, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в овладении иностранными языками фонетическая компетенция, то есть правильное произношение, ударение и интонация, играют важную роль в формировании беглой и понятной речи. В данной статье анализируются теоретические основы трех методов, направленных на развитие фонетической компетенции: аудиолингвального, коммуникативного и фонетико-дифференциального.

ЦЕЛЬ: показать эффективность каждого из методов в развитии фонетических навыков, а также раскрыть их возможности и ограничения в учебном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использовались сравнительный анализ научной литературы, обзор экспериментальных данных и современных методических источников.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: коммуникативный метод эффективен благодаря своей интерактивной природе, контекстуальному подходу и упражнениям на понимание на слух. Аудиолингвальный метод усиливает автоматизацию речевых навыков, а фонетико-дифференциальный подход помогает акцентировать внимание на тонких различиях в произношении.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: комплексное применение всех трех методов позволяет углубленно формировать фонетическую компетенцию учащихся. Учителям рекомендуется использовать комбинированный подход для повышения эффективности уроков.

Ключевые слова: фонетическая компетенция, аудиолингвальный метод, коммуникативный метод, фонетико-дифференциальный подход, произношение, ударение, интонация, обучение иностранным языкам.

Для цитирования: Азамат Эргашев. Теоретические подходы к методике фонетического обучения: анализ аудиолингвального, коммуникативного и фонетико-дифференциального методов. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 415–425.

THEORETICAL APPROACHES TO PHONETIC TEACHING METHODOLOGY: ANALYSIS OF AUDIOLINGUAL, COMMUNICATIVE, AND PHONETIC-DIFFERENTIAL METHODS

© Azamat Ergashev[1]✉
[1]Namangan State Institute of Foreign Languages, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: phonetic competence—accurate pronunciation, stress, and intonation—plays a central role in developing fluent and intelligible speech in foreign language learners. This article analyzes the theoretical foundations of three primary

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

methods used to enhance this competence: the Audiolingual, Communicative, and Phonetic-Differential methods.

AIM: to demonstrate the role, strengths, and limitations of each method in phonetic instruction and their practical application in classroom settings.

MATERIALS AND METHODS: the study employs a comparative analysis of academic literature, experimental findings, and recent methodological sources.

DISCUSSION AND RESULTS: the communicative method stands out for its interactivity, contextual focus, and listening-based exercises. The audiolingual method supports automatization of speech patterns, while the phonetic-differential approach allows focus on fine phonetic distinctions.

CONCLUSION: the integrated application of these three methods can significantly enhance learners' phonetic competence. Language instructors are encouraged to adopt a blended methodology to improve instructional outcomes.

Key words: phonetic competence, audiolingual method, communicative method, phonetic-differential approach, pronunciation, stress, intonation, foreign language instruction.

For citation: Azamat Ergashev. (2025) 'Theoretical approaches to phonetic teaching methodology: analysis of audiolingual, communicative, and phonetic-differential methods', Inter education & global study, (6), pp. 415–425. (In Uzbek).

Xorijiy til o'qitish jarayonida fonetik kompetensiya — ya'ni to'g'ri talaffuz, urg'u va intonatsiyadan to'laqonli foydalanish — til egallashning markaziy jihatlaridan biri sanaladi. Fonetik jihatdan to'g'ri va tabiiy nutq nafaqat tinglovchi uchun tushunarli bo'ladi, balki o'rganuvchining o'z fikrini ifodalashdagi ishonchini oshiradi (Munro & Derwing, 2021). Shunday ekan, fonetikani puxta va tizimli o'rgatish xorijiy til metodikasining ajralmas qismiga aylangan.

Zamonaviy til o'rgatish nazariyasida kommunikativ yondashuv ustuvorlik qilayotgan bo'lsa-da, fonetik ko'nikmalarning shakllanishi ko'pincha ikkinchi darajali deb qaraladi. Bu esa talaffuzdagi xatolar, muloqotda tushunmovchiliklar va eshitishdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin (Levis, 2020). Shu sababli, fonetikani o'rgatishda metodik yondashuvlar tanlovi, ularning lingvistik va psixopedagogik asoslari, ayni damda o'quvchilar ehtiyojlariga moslashuvchanligi alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi (Thomson & Derwing, 2015).

Ushbu maqola xorijiy til fonetikasi o'rgatishida qo'llaniladigan uch asosiy metod — audiolingval, kommunikativ va fonetik-differensial yondashuvlarni nazariy tahlil, amaliy qo'llanish, va afzallik-cheklovlari nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan. Har bir metodni amaliyotda qo'llashga oid misollar, tajribalar va zamonaviy tadqiqotlar bilan boyitilgan holda ko'rib chiqish, fonetikani o'rgatishda integratsiyalashgan yondashuvlarni ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin (Couper, 2021; Chen & van Heuven, 2022).

Audiolingval metod: Nazariy asoslari va amaliy qo'llanishi

Audiolingval metod 20-asrning 40–50-yillarida AQShda shakllangan bo'lib, til o'rganishga behavioristik psixologiya va strukturaviy lingvistika asosida yondashuvchi yirik

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

metodlardan biridir. Ushbu yondashuv II Jahon urushi davrida amerikalik askarlarning xorijiy tillarni tez va samarali o‘zlashtirish ehtiyojidan kelib chiqqan. Metodning asoschilari sifatida Charles Fries (lingvistika) va B.F. Skinner (psixologiya) ko‘rsatiladi (Richards & Rodgers, 2014).

Audiolingval metodning nazariy poydevori asosan quyidagi g‘oyalarga tayanadi:

- Behaviorizm: O‘rganish — bu rag‘bat va jazoga asoslangan reflekslar hosil qilish jarayonidir. Til o‘rganish ham aynan stimulyatsiya va takroriy javob orqali shakllanadi (Skinner, 1957).
- Strukturaviy lingvistika: Til — bu qat’iy tartibga ega bo‘lgan strukturadir. Til birliklari (tovushlar, so‘zlar, gaplar) ierarxik tarzda tuzilgan va o‘rganiladigan birliklar segmentlarga bo‘linib o‘rganilishi kerak (Bloomfield, 1933).
- O‘rganish orqali avtomatizatsiya: Talaffuz, urg‘u va intonatsiya ko‘nikmalari faqat ko‘p marta takrorlash va mustahkamlash orqali shakllanadi (Celce-Murcia et al., 2010).

Ushbu yondashuvda o‘rganilayotgan til nutq namunasi sifatida taklif etiladi va o‘quvchi ushbu namunalarni takrorlash, eshitish, dastlabki darajada avtomatik tarzda qo‘llash orqali fonetik va grammatik ko‘nikmalarni egallashi kutiladi. Asosiy urg‘u og‘zaki tilga, xususan to‘g‘ri talaffuzga qaratiladi (Brown, 2007).

Zamonaviy tadqiqotlar, ayniqsa fonetik kompetensiya shakllanishi bo‘yicha olib borilgan izlanishlar, audiolingval metodning fonetikani o‘rgatishdagi samaradorligini, ayniqsa boshlang‘ich bosqichlarda to‘g‘ri talaffuzni avtomatlashtirishda foydali ekanini ko‘rsatmoqda (Couper, 2021; Thomson & Derwing, 2015). Shu bilan birga, bu metodni zamonaviy kommunikativ yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish lozimligi ham qayd etiladi.

Audiolingval metodning fonetika darslarida qo‘llanish usullari va amaliy texnikalari

Audiolingval metod fonetika darslarida, ayniqsa bosqichma-bosqich talaffuzni avtomatlashtirish maqsadida keng qo‘llaniladi. Bu metodning fonetik kompetensiyani rivojlantirishdagi asosiy tamoyili — eshitish asosida modellashtirish va takrorlash orqali mustahkamlash hisoblanadi (Celce-Murcia et al., 2010). Quyida ushbu metodning darslarda qo‘llanishiga oid eng samarali texnikalar tahlil qilinadi.

1. Pattern Drill (na'muna asosida takroriy mashqlar)

Bu mashqlar fonetik strukturalarni avtomatiklashtirish uchun ishlatiladi. Masalan:

O‘qituvchi: *This is a pen.*
O‘quvchilar: *This is a pen.*
O‘qituvchi: *This is a book.*
O‘quvchilar: *This is a book.*

Talaffuzda urg‘u va intonatsiyaning to‘g‘ri modelini eshitgan o‘quvchi uni takrorlash orqali tovushlarni avtomatik tarzda qo‘llashni o‘rganadi (Brown, 2007). Bu texnika ayniqsa urg‘uli bo‘g‘inlarni ajratish va intonatsion konturlarni shakllantirishda foydalidir.

2. Minimal Pair Drills (minimal juftlik mashqlari)

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Minimal pair mashqlari fonologik farqlilikni o‘rganishda muhim vosita bo‘lib, fonemal farqlarga diqqatni jamlashga yordam beradi:

ship – sheep, bit – beat, pen – pan

Bunday mashqlar tovushlarni segmental tahlil qilish, o‘xshash fonemalarni ajratish, va eshitish sezuvchanligini oshirishga xizmat qiladi (Munro & Derwing, 2021).

3. Backward Build-up Drills (orqaga qarab qurish texnikasi)

Murakkab fonetik birliklarni asta-sekin, qismlarga ajratib, o‘quvchi uchun osonlashtirilgan tarzda o‘rgatish texnikasi. Misol:

internationalization

→ -lization → -alization → -tionalization → internationalization

Bu texnika urg‘u joylashuvi va bo‘g‘in strukturasini anglashda foydalidir (Richards & Rodgers, 2014).

4. Choral Repetition (jamoaviy takrorlash)

O‘qituvchi talaffuzni model qiladi, guruh esa uni birgalikda takrorlaydi. Bu texnika o‘quvchilarning shaxsiy ishtirokini sezmasligi mumkin, biroq intonatsiya va urg‘uni o‘zlashtirishda foydali bo‘ladi.

5. Transkripsion yozuv bilan bog‘liq mashqlar

IPA (International Phonetic Alphabet) yordamida tovush tahlili olib borish, ayniqsa o‘qituvchilar uchun foydali. Misollar Praat dasturi orqali akustik analiz bilan birgalikda amalga oshiriladi (Boersma & Weenink, 2022).

Thomson va Derwing (2015) fikricha, aynan takroriy mashqlar (drill-based practice) fonetikani avtomatlashtirishda juda samarali bo‘lib, ayniqsa boshlang‘ich bosqichda talabalar fonemalarni to‘g‘ri eshitish va talaffuz qilishni mashq qilishadi. Couper (2021) esa bu metodni kommunikativ yondashuvlar bilan integratsiyalash orqali undan samaraliroq foydalanish mumkinligini ta’kidlaydi.

Audiolingval metodning afzalliklari va cheklovlari

Audiolingval metod o‘zining strukturaviy va avtomatizatsiyalangan yondashuvi bilan fonetikani o‘rgatishda bir qator afzalliklarga ega. Biroq, metodning kommunikativ ehtiyojlarga kam moslashuvchanligi va shaxsiylashtirilmagan o‘qitish usuli uni hozirgi zamonaviy metodikalardan chekinishga majbur qilmoqda.

Afzalliklari

◆ 1. Fonetik avtomatizatsiya va mustahkamlashga xizmat qiladi

Audiolingval metod ayniqsa boshlang‘ich bosqichda talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishda juda samarali hisoblanadi. Tovush birliklarining ko‘p marotaba takrorlanishi o‘quvchilarda segmental va suprasegmental darajadagi nutq avtomatizmini hosil qiladi (Celce-Murcia et al., 2010). Bu, ayniqsa urg‘u va intonatsiyani mukammallashtirishda yordam beradi (Thomson & Derwing, 2015).

◆ 2. Minimal juftlik mashqlari orqali fonemik farqlilikni kuchaytiradi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Minimal pair drills (masalan, *bit–beat*, *pen–pan*) orqali o‘quvchi tovush farqlarini aniqlab eshitishni o‘rganadi. Bu esa fonologik farqlilikka nisbatan eshitish sezuvchanligini oshiradi (Munro & Derwing, 2021).

🔷 3. Tashqi ko‘mak (input)ga asoslangan ta’lim

Metod o‘quvchining faqat o‘qituvchiga tayangan holda emas, balki modellashtirilgan tovushlar va intonatsiya namunalariga tayanib o‘rganishini ta’minlaydi. Shu sababli, u fonetik input sifati yuqori bo‘lgan holatlarda samarali ishlaydi (Couper, 2021).

Cheklovlari

⚠️ 1. Reproduktiv va sun’iy yondashuv

Metodning asosiy tanqidlardan biri — u reproduktiv (takrorlovchi) xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchini erkin nutqqa o‘rgatmaydi. O‘rganilgan gaplar kontekstdan uzilgan va sun’iy holatlarda ishlatiladi (Richards & Rodgers, 2014).

⚠️ 2. Shaxsiylashtirilmagan ta’lim

Barcha o‘quvchilardan bir xil mashqlarni bajarish talab qilinadi, bu esa individual ehtiyojlar va talaffuzdagi o‘ziga xos kamchiliklarni hisobga olmaydi (Brown, 2007).

⚠️ 3. Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanmasligi

Gapni eshitib-takrorlashga asoslangan bu metod real muloqotga tayyorlamaydi. O‘quvchilar nutqda o‘z fikrini ifodalashda qiynaladi, chunki dialogik muloqot, ijtimoiy kontekst va pragmatik vaziyatlar yetishmaydi (Levis, 2020).

⚠️ 4. Zamon talablariga to‘liq mos kelmasligi

Yangi til o‘rgatish paradigmalari — xususan communicative language teaching va task-based learning — o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida ko‘radi. Audiolingval metodda esa o‘quvchi passiv tinglovchi va takrorlovchiga aylanadi (Gatbonton & Segalowitz, 2005).

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, audiolingval metod fonetik ko‘nikmalarni shakllantirishda foydali, ammo uni kommunikativ metodlar bilan birlashtirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin (Thomson & Derwing, 2015; Couper, 2021). Shu bois, ushbu metodni mustaqil holda emas, balki kompleks integratsiyalangan yondashuv sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Kommunikativ metod: Interaktiv fonetik kompetensiyani rivojlantirish

Kommunikativ metod (Communicative Language Teaching — CLT) 1970-yillarda til o‘rganishni real muloqot kontekstida olib borish g‘oyasiga asoslangan yondashuvdir. Bu metod lingvistik qoidalarni bilishdan ko‘ra ularni real vaziyatda qo‘llay olishga urg‘u beradi (Richards, 2006). Kommunikativ metodning nazariy asoslari kommunikativ kompetensiyaning to‘rt tarkibiy qismini o‘z ichiga oladi: grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar (Canale & Swain, 1980).

Fonetik kompetensiya bu modelda ancha kech tan olingan bo‘lsa-da, hozirgi kunda talaffuz va intonatsiya kommunikativlik uchun zarur vosita sifatida qaralmoqda (Levis, 2020). Ayniqsa, interaktiv muloqotda eshitish-tushunish va so‘zlovchilarning bir-birini to‘g‘ri anglashida fonetikaning roli muhim (Munro & Derwing, 2021).

Talaffuz va intonatsiyani o‘rgatishdagi o‘rni

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kommunikativ metodda talaffuzni o‘rgatish — bu dialoglar, rol o‘yinlari, vazifa asosidagi mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. Talaffuz bo‘yicha mashqlar muloqot kontekstida integratsiyalashgan holatda taqdim etiladi, bu esa fonetik ko‘nikmalarni ma’no bilan bog‘laydi (Gilbert, 2012).

Bunday yondashuvda o‘qituvchi noto‘g‘ri talaffuzni aniqlab, uni darhol tuzatishga emas, balki muloqot maqsadida anglashuvga qaratadi. Natijada o‘quvchi tabiiy muhitda talaffuz ustida ish olib boradi va intonatsiyani muloqot vositasi sifatida shakllantiradi (Derwing & Munro, 2015).

Darslar uchun mashq turlari

1. Information Gap Activities: O‘quvchilar bir-biriga noma’lum bo‘lgan ma’lumotni to‘g‘ri talaffuz va intonatsiya bilan yetkazishadi.
2. Role Plays: Real hayotiy vaziyatlar asosida sahnalashtirilgan dialoglar orqali interaktiv talaffuzni rivojlantirish.
3. Intonation Drills in Context: Bir nechta gap variantlari ustida ishlanadi, ohang o‘zgarishiga qarab ma’no qanday o‘zgarishi ko‘rsatiladi.
4. Shadowing: O‘quvchi audiodan eshitgan nutqni real vaqt rejimida takrorlaydi — bu mashq intonatsiya va urg‘uni yaxshilashda foydali (Foote & Trofimovich, 2018).
5. Interactive pronunciation journals: O‘quvchilar o‘z nutqlarini yozib, o‘qituvchi va guruhdoshlar fikri bilan takomillashtiradi.

Amaliy yutuq va kamchiliklar

Afzalliklari:

- Fonetik ko‘nikmalar real muloqot kontekstida shakllanadi.
- O‘quvchining motivatsiyasi yuqori bo‘ladi, chunki faol ishtirok muhim.
- Tovush, urg‘u va intonatsiya semantik anglashuv bilan bog‘lanadi.

Cheklovlari:

- Talaffuzdagi xatolar o‘z vaqtida tuzatilmasligi mumkin.
- O‘qituvchi fonetik xatoni “to‘g‘rilamaslik” siyosatida muvozanatni saqlashi kerak.
- Har doim strukturaviy fonetik mashqlar bilan to‘ldirish zarur (Couper, 2021).

Yangi tadqiqotlar kommunikativ metod fonetika o‘rgatishda samarali natija berishini ko‘rsatmoqda. Derwing & Munro (2015) ta’kidlaganidek, kommunikativ mashg‘ulotlar natijasida o‘quvchilarning intonatsiya va urg‘u aniqligi, eshitishdagi sezuvchanlik va o‘zaro anglashuv darajasi oshgan. Gilbert (2012) esa fonetikani kontekstual holatda integratsiyalash real muhitda nutqni yaxshilashda muhimligini qayd etadi.

Trofimovich va Gatbonton (2016) tajribalariga ko‘ra, o‘quvchilar fonetik jihatdan sodir qilayotgan xatolarini oraliq baholash, eshitish feedbacki va interaktiv tuzatishlar orqali mustaqil tahlil qila boshlaydi. Bu o‘z-o‘zini monitoring qilish va metakognitiv yondashuvni rivojlantiradi.

Fonetik-differensial metod: Individual talaffuz kamchiliklarini bartaraf etish yondashuvi

Fonetik-differensial metod (FDM) — bu o‘quvchilarning individual talaffuzdagi xatolarini aniqlab, ularga mos tuzatish strategiyalarini ishlab chiqishga asoslangan metodik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yondashuvdir. Bu metodning asosiy nazariy poydevori differensial tilshunoslik, kognitiv fonetika, va individual yondashuv pedagogikasiga tayanadi (Flege, 1995; Derwing & Munro, 2015).

Bu yondashuvga koʻra, har bir oʻquvchining fonetik oʻzlashtirish qobiliyati, ona tili interferensiyasi, nutq organlarining harakatchanligi, eshitish differensialligi turlicha boʻlishi mumkin (Best & Tyler, 2007). Shu sababli fonetikani oʻrgatishda "hamma uchun bitta yondashuv" samarali boʻlmasligi mumkin — aynan FDM shu muammoni hal etishga xizmat qiladi.

Metodning asosiy komponentlari

Fonetik-differensial metod quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Diagnostika: Oʻquvchining nutqi tahlil qilinib, segmental (tovush darajasida) va suprasegmental (urgʻu, intonatsiya) xatolar aniqlanadi. Buning uchun koʻpincha Praat, ELAN, yoki boshqa fonetik analiz vositalari qoʻllaniladi (Boersma & Weenink, 2022).
2. Fonetik kontrast tahlili: Oʻquvchining ona tilidagi fonetik tizim bilan oʻrganilayotgan tilning tizimi solishtiriladi. Masalan, inglizcha [θ] tovushini oʻzbek tilida yoʻqligi sababli koʻp oʻquvchilar [s] bilan almashtiradi — bu FDM doirasida interferensiya xatolari deb ataladi (Flege, 1995).
3. Individuallashtirilgan mashqlar toʻplami: Har bir oʻquvchining xatolariga mos maxsus mashqlar ishlab chiqiladi (masalan, oʻziga xos minimal pair, akustik taqqoslash, oral-motor mashqlar).
4. Takroriy tahlil va monitoring: Davriy ravishda oʻquvchining talaffuzi qayta tahlil qilinadi va mashqlar moslashtiriladi — bu iterativ (qayta-qayta yangilanadigan) yondashuv metodning asosiy belgilaridan biridir (Levis, 2020).

Mashq turlari va metodik texnikalar

Mashq turi	**Maqsadi**	**Namuna yoki vosita**
Eshitish differensial mashqlari	Oʻxshash tovushlarni ajrata olishni oʻstirish	/l/ vs /r/, /s/ vs /ʃ/
Praat asosida spektral tahlil	Tovush sifatlarini vizual koʻrinishda tahlil qilish	Formantlar, intonatsiya konturi
Vizual feedback texnikasi	Oʻquvchi oʻz talaffuzini grafik shaklda koʻrishi	Waveform, pitch tracking
Artikulyatsion mashqlar	Lab, til, ogʻiz harakatlarini oʻrgatish va rivojlantirish	Mirror drill, slow articulation
Minimal pair shadowing	Tovush juftliklari ustida real vaqtda ishlash	[bit] vs [beat]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Self-monitoring jurnal	O‘quvchi o‘z taraqqiyotini yozib boradi va tahlil qiladi	Audio-diaries + self-reflection

Ushbu mashqlar individual ehtiyojga moslab tanlanadi va bu metodni **shaxsiylashtirilgan fonetik reja** tuzishda foydali qiladi (Couper, 2021).

Afzalliklari va cheklovlari

Afzalliklari:

- Har bir o‘quvchining fonetik muammolari aniqlanadi va manzilli ishlanadi.
- Fonetik muammolarni vizual va akustik jihatdan anglash imkoniyati mavjud.
- Diagnostikaga asoslangan metod bo‘lgani sababli natija kuzatuvli va baholanuvchi bo‘ladi.
- O‘quvchi fonetik kamchiligini o‘zi anglaydi va u bilan faol ishlaydi — bu metakognitiv faollikni oshiradi.

Cheklovlari:

- Har bir o‘quvchi bilan individual ishlash o‘qituvchidan ko‘proq vaqt va texnik imkoniyat talab etadi.
- Guruh darslarida to‘liq differensial yondashuvni qo‘llash qiyin.
- Texnologik vositalar (Praat, spektral analiz) bo‘lmagan holatda samaradorlik pasayadi.

So‘nggi yillarda fonetik differensial metod bo‘yicha tadqiqotlar intensiv ravishda olib borilmoqda. Misol uchun, Foote & Trofimovich (2018) o‘quvchilarga talaffuzni to‘g‘rilashda audio feedback va spektrogramma asosidagi vizual analiz katta natijalar berganini ta’kidlaydi. Levis (2020) esa individual diagnostikaga asoslangan fonetika mashg‘ulotlari intelligibility va comprehensibility ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatgan. Gilbert (2012) fikricha, o‘quvchining o‘z xatolarini tahlil qilish qobiliyati — bu fonetik taraqqiyotning kaliti. Bu esa aynan fonetik-differensial metodning markaziy maqsadi bilan mos keladi.

Fonetik kompetensiya — xorijiy tilni o‘zlashtirishda asosiy ko‘nikmalardan biridir. Ushbu maqolada tahlil etilgan audiolingval, kommunikativ va fonetik-differensial metodlar har biri o‘ziga xos yondashuvga ega bo‘lib, fonetikani o‘rgatishda turli darajadagi maqsadlarga xizmat qiladi. Tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Audiolingval metod nutqning avtomatizatsiyasi va fonologik kontrastlarni shakllantirishda foydali bo‘lsa-da, real muloqot kontekstida cheklanganlik kasb etadi. Bu metod fonetik mashqlarni tuzishda strukturaviy yondashuvni qo‘llaydi, ammo kommunikativlikni rivojlantirishda sustlik qiladi.
2. Kommunikativ metod fonetik kompetensiyani interaktiv, mazmunli va kontekstga mos mashg‘ulotlar orqali rivojlantiradi. Talaffuz, urg‘u va intonatsiyaning tabiiylik bilan shakllanishi bu metodning kuchli jihati bo‘lib, u o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etadi. Shunga qaramay, aniqlik va tuzatish mexanizmlarining yetishmasligi ba'zi fonetik xatolarning davomiyligiga olib kelishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Fonetik-differensial metod — bu diagnostika, differensial tahlil va individual yondashuvga asoslangan metod bo‘lib, o‘quvchining fonetik kamchiliklarini aniqlash va tuzatishda eng aniq, individual va manzilli yondashuvni taklif etadi. Bu metod ko‘proq vaqt, texnik resurslar va tajribani talab qilsa-da, yuqori darajadagi natijalarga olib keladi.

Zamonaviy til o‘qitish kontekstida ushbu metodlarni komplementar tarzda integratsiyalash — ya’ni, har birining kuchli jihatlaridan samarali foydalanish — fonetik kompetensiyani kompleks ravishda shakllantirishning eng optimal yondashuvlaridan biri sifatida e’tirof etiladi (Derwing & Munro, 2015; Levis, 2020; Couper, 2021).

Shu bilan birga, fonetik ta’lim jarayonini texnologik vositalar (masalan, Praat dasturi, audio/video qaydlar, interaktiv ilovalar) bilan boyitish ham natijadorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Yakuniy tavsiya sifatida, o‘qituvchilar fonetik o‘rgatish metodikasida egiluvchan, differensial va kommunikativ integratsiyalashgan yondashuvlarni tanlab, har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos individual ta’lim muhitini yaratishlari maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Best, C. T., & Tyler, M. D. (2007). Nonnative and second-language speech perception: Commonalities and complementarities. In O.-S. Bohn & M. J. Munro (Eds.), *Language experience in second language speech learning* (pp. 13–34). John Benjamins.
2.Bloomfield, L. (1933). *Language*. New York: Holt.
3.Boersma, P., & Weenink, D. (2022). *Praat: Doing phonetics by computer* [Computer program]. Version 6.3. https://www.praat.org/
4.Brown, H. D. (2007). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy* (3rd ed.). Pearson Longman.
5.Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics, 1*(1), 1–47. https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1
6.Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Goodwin, J. M. (2010). *Teaching pronunciation: A course book and reference guide* (2nd ed.). Cambridge University Press.
7.Couper, G. (2021). Teaching pronunciation: Focus on English as a lingua franca. *Journal of Second Language Pronunciation, 7*(2), 203–223. https://doi.org/10.1075/jslp.20008.cou
8.Derwing, T. M., & Munro, M. J. (2015). *Pronunciation fundamentals: Evidence-based perspectives for L2 teaching and research*. John Benjamins.
9.Flege, J. E. (1995). Second language speech learning: Theory, findings, and problems. In W. Strange (Ed.), *Speech perception and linguistic experience* (pp. 233–277). York Press.
10.Foote, J. A., & Trofimovich, P. (2018). Pronunciation teaching and learning: Effects of instruction and practices. In J. Levis (Ed.), *Proceedings of the 9th Pronunciation in Second Language Learning and Teaching Conference*, 2–13.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

11.Gatbonton, E., & Segalowitz, N. (2005). Rethinking communicative language teaching: A focus on access to fluency. *The Canadian Modern Language Review, 61*(3), 325–353. https://doi.org/10.3138/cmlr.61.3.325
12.Gilbert, J. B. (2012). *Clear speech: Pronunciation and listening comprehension in North American English* (4th ed.). Cambridge University Press.
13.Levis, J. M. (2020). *Intelligibility, oral communication, and the teaching of pronunciation*. Cambridge University Press.
14.Munro, M. J., & Derwing, T. M. (2021). Pronunciation teaching in L2 classrooms: What the research tells us. *TESOL Quarterly, 55*(2), 312–329. https://doi.org/10.1002/tesq.300
15.Richards, J. C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge University Press.
16.Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
17.Skinner, B. F. (1957). *Verbal behavior*. Appleton-Century-Crofts.
18.Thomson, R. I., & Derwing, T. M. (2015). The effectiveness of L2 pronunciation instruction: A narrative review. *Applied Linguistics, 36*(3), 326–344. https://doi.org/10.1093/applin/amu076
19.Trofimovich, P., & Gatbonton, E. (2016). Transferability and task design in L2 pronunciation teaching. *Studies in Second Language Acquisition, 38*(3), 485–505. https://doi.org/10.1017/S027226311500035X

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Azamat Ergashev**, Mustaqil tadqiqotchi, [**Азамат Эргашев,** Независимый исследователь], [**Azamat Ergashev**, Independent researcher] manzil: O‘zbekiston, Namangan sh., Uychi ko'chasi, 316-uy [адрес: Узбекистан, ул. Уйчи, 316, г. Наманган], [address: Uzbekistan, 316, Uychi st., Namangan city] azamat.ergashev.98@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

© N. I. Sharofova[1]✉
[1] Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: nutq - inson aqliy tafakkurining mahsuli. “Uning asl mohiyati-ishontirishdir”, deyiladi manbalarda. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularga fikrni erkin va asosli qilib ifodalashni o‘rgatish biz pedagoglarning muhim vazifalarimizdan biridir.

MAQSAD: maqolaning maqsadi boshlang’ich sinf o‘quvchilarining nutqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan metodlar va ularning samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda boshlang’ich sinf o‘quvchilarining nutqiy savodxonligini rivojlantirishga oid adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, turli didaktik metodlar jumladan, “Aksincha aytish”, “So‘z ichida so‘z” “So‘z o‘yini” kabi turli metodlar va ularning samaradorlik darajasi tadqiq qilindi

MUHOKAMA VA NATIJALAR: nutq faoliyati tizimli ravishda rivojlanib, barqarorlashib boradigan jarayon hisoblanadi. Qanchalik ko‘p kitob mutolaa qilinsa, shunchalik so‘z boyligi oshadi, ularni o‘rinli qo‘llash malakasi shakllanadi, o‘quvchilarda hozirjavoblik xususiyati rivojlanadi.

XULOSA: ifodali o‘qish -bu san’at. Xoh she’r bo‘lsin, xoh hikoya obrazlarning ichki kechinma va his- hayajonlarini ohang orqali tinglovchiga chiroyli qilib yetkazib berish, ta’sir qilish- bu mahorat. Boshlang’ich sinfdan boshlab bu ko’nikmani o‘quvchilarda rivojlantirish ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: nutq, matn, obraz, tafakkur, boshlang‘ich ta’lim, ohang, savodxonlik

Iqtibos uchun: Sharofova N.I. Savod o‘rgatish davrida nutq malakalarini shakllantirish, // Inter education & global study 2025. №6 B.426–431.

ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ

© Н.И. Шарофова[1]✉
[1]Бухарского государственного педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ВВЕДЕНИЕ: речь — это продукт интеллектуального мышления человека. «Ее истинная сущность — убеждение», — говорят источники. Развитие устной и письменной речи учащихся начальной школы, обучение их свободному и обоснованному выражению своих мыслей — одна из наших важных задач как педагогов.

ЦЕЛЬ: цель статьи — проанализировать методы, направленные на повышение устной грамотности учащихся начальной школы и их эффективность

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования была проанализирована литература по развитию устной грамотности у учащихся начальной школы. Также были изучены различные дидактические методы, в том числе «Скажи наоборот», «Слово в слове», «Словенная игра», и уровень их эффективности.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: речевая деятельность развивается системно, представляет собой процесс, который становится все более устойчивым. Чем больше читаются книги, тем больше увеличивается словарный запас, тем больше формируются навыки их правильного использования и тем больше ответственности развиваются у учащихся.

ВЫВОД: выразительное чтение — это искусство. Будь то стихотворение или рассказ, это умение красиво передавать внутренние чувства и эмоции персонажей слушателю через мелодию, влиять на него. Важно развивать этот навык у учащихся, начиная с начальной школы

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: речь, текст, изображение, мышление, начальное образование, тон, грамотность.

Для цитирования: Шарофова Н.И. Формирование речевых навыков в процессе обучения грамоте. // Inter education & global study. 2025. №6. С. 426–431.

FORMATION OF SPEECH SKILLS DURING LITERACY TRAINING

© Nilufar I. Sharofova [1]✉
[1] Bukhara State Pedagogical Institute , Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: speech is a product of human intellectual thingking. “Its true essence is persuasion,”sources say. Developing the oral and written speech of primary school students and teaching them to express their thoughts freely and well-foundedly is one of our important tasks as educators.

PURPOSE: the purpose of the article is to analyze methods aimed at improving the oral literacy of primary school students and their effectiveness

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed literature on the development of oral literacy of primary school students. Also, various didactic methods, including "Say the opposite", "Word in a word", "Word game", and their level of effectiveness were studied.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

DISCUSSION AND RESULTS: speech activity develops systematically, is a process that is becoming more and more stable. The more books are read, the more vocabulary increases, the more skills are formed to use them appropriately and the more responsibility students develop.

CONCLUSION: expressive reading is an art. Whether it is a poem or a story, it is a skill to beautifully convey the inner feelings and emotions of the characters to the listener through melody, to influence them. It is important to develop this skill in students starting from elementary school

KEY WORDS: speech, text, image, thinking, primary education, tone, literacy

For citation: Nilufar I. Sharofova. (2025) Formation of speech skills during literacy training. Inter education & global study, (6), pp. 426–431. (In Uzbek).

Ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limining o‘zlashtirish samaradorligi o‘quvchilarning og’zaki va yozma nutqi qay darajada rivojlanganligi bilan o‘z tasdig’ini topadi. Ayni darslikda berilgan topshiriqlarning asl mohiyati ham boshlang’ich ta’limdan boshlab o‘quvchilarning nutqiy tafakkurini oshirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Ushbu davrda boshlang’ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirish vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ bolalar nutqidagi kamchiliklarni to‘g’irlash;
- ✓ ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog’liq holda lug’atini boyitish;
- ✓ o‘quvchilar nutqidagi ayrim so‘zlarning ma’nosiga aniqlik kiritish;
- ✓ gap va uch-to‘rt gapli kichik hikoyacha (bog’lanishli nutq)ni og’zaki to‘g’ri tuzish ko‘nikmasini o‘stirishdan iborat.

Nutqni rivojlantirishdagi dastlabki bosqichda o‘quvchilarga adabiy til haqida tushuncha berilishi lozim. Ma’lumki, har bir hududning o‘ziga xos shevasi mavjud, ammo ta’lim jarayoni adabiy til me’yorlariga rioya qilingan holda tashkil etiladi. Biz ko‘pincha boshlang’ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqlarida ham shevaga xos bo‘lgan so‘zlarni ishlatishlariga guvoh bo‘lamiz va albatta bu kamchilikni bosqichma-bosqich to‘g’irlab borishimiz lozim. Aslida adabiy til shevalar asosida vujudga kelgan va biz o‘quvchilarga shevaga xos so‘zlar va adabiy til o‘rtasidagi farqli jihatlarni, ishlatilish o‘rinlarini to‘laqonli izohlab berishimiz lozim. Jarayon tezlik bilan o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi, sababi darsliklardagi matnli vositalarni o‘qib, yod olgan o‘quvchilar ta’lim jarayonida so‘zlarning muqobil variantini qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi. Nutq faoliyati tizimli ravishda rivojlanib, barqarorlashib boradigan jarayon hisoblanadi. Qancha ko‘p kitob mutolaa qilinsa, shunchalik so‘z boyligi oshadi, so‘zlarni o‘rinli qo‘llash malakasi shakllanadi, o‘quvchilarda hozirjavoblik xususiyati ancha rivojlanadi.

FOR STUDY USE ONLY

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarda berilgan matnli vositalar ta'limiy hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, hatto sahifalarda aks etgan suratlar ham nutqni shakllantirish manbai hisoblanadi.

1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan yuqoridagi rasmda oila a'zolari aks etgan bo'lib, o'quvchilarga rasmni dastavval ta'riflaydilar. Ayni jarayonda o'quvchilar rasmga sarlavha qo'yishlari mumkin. Bu esa kelajakda katta -katta insholar, esselar yozilishi uchun zamin hisoblanadi, so'ngra rasm asosida matn tuzish va ularni izohlashlari kerak bo'ladi. Oila a'zolarining nomlarini bitta harf bilan o'zgartirsa boshqa qarindoshning ismi kelib chiqishi va o'quvchilar bu so'zlarni topishlari kerak bo'ladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar oila haqida o‘z tasavvurlarini matnga muhrlash bilan birga so‘z o‘yini ya’ni **a**ka- **u**ka,o**t**a-o**n**a,buv**a**-buv**i** singari so‘zlarni bir -biriga yaqin ekanligini bilib olishadi.

R.A. Qo‘ldoshev o‘zining “Savod o‘rgatish davrida nutq va yozuv malakalarini shakllantirish” nomli monografiyasida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Maktabda ilm o‘rganish jarayonida o‘quvchi nutqini o‘stirish, lug’atini boyitish inson umrining boshqa davrlariga nisbatan ancha samarali kechadi, chunki har bir fan bola nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega”. Monagrafiyada boshlang’ich sinf o‘quvchilarining nutqini boyitishda o‘yin tarzidagi topshiriqlardan unumli foydalanish samarali hisoblanishi aytib o‘tiladi va muallif bir qancha o‘yin turlarini dars jarayonida qo‘llashni tavsiya beradi.

“Aksincha aytish”o‘yini.

O‘yin quyidagicha tashkil qilinadi: Biror bir predmetning sifati yo belgisini aytib shar yoki kaptok o‘quvchiga irg’itiladi. O‘quvchiuning qarama qarshi ma’nosini anglatadigan so‘zni aytishadi. Masalan: shirin- nordon, baland-past.

“So‘z ichida so‘z” o ‘yini. Ushbu oyin o`quvchilarning fikrlash faoliyatini o`stiradi. So`z tarkibi va so`z turkumlari va so`zning luga`viy ma`nosini yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi. O`quvchida har bir so`zga va tovushga alohida diqqat bilan qarash ko`nikmasi shakllanadi. Buning uchun o`qituvchi xattaxtaga bitta so`zni yozib qo`yadi. O`quvchilar ana shu so`z ichidagi tovushlar ishtirokida yangi so`zlar tashkil qiladi. Agar o`yin guruhlar o`rtasida o`tkazilsa har bir guruh navbatma – navbat bittadan so`zni xattaxtaga yozib boradi. So`z topa olmagan guruh yengilgan hisoblanadi.

Masalan, “Qirqoyoq” so‘zini olamiz, shu so‘zning tarkibidagi harflardan foydalanib, boshqa so‘z hozil qilamiz: qirq, oyoq, qor, oy, oq, qir va hk…

Tavsiya qilingan metodlar o‘quvchilarni faollikka, birdamlikka, jamoa bo‘lib ishlash bilan bir qatorda ularda lug’at boyligini ham oshirishga xizmat qiladi. Tilimizda qanchalik so‘zlar ko‘p bo‘lsa nutqiy faollik shunchalik sifatli va ravon bo‘lishi monografiyada misollar orqali dalillangan. Qo‘llanmada keltirilgan “So‘z o‘yini” didaktik topshirig’i bunga misol bo‘la oladi.

Ayni topshiriq orqali o‘quvchilar so‘zlarning lug’aviy ma’nosini anglaydilar, ularni turkumlar bo‘yicha tahlil qilishni o‘rganadilar.

Og’zaki nutq yozma nutq uchun tayanch vazifasini o‘taydi. Fikrni ham og’zaki ham yozma

Bil	**besh**	**boz**	**bozor**
Bal	bo‘sh	bez	**bezor**
Bel	bosh	bo‘z	**bezor**
Bo‘l		biz	**bazor**

ifodalash mumkin va yozma nutq mas’uliyat talab qiladi. Bu jarayonda grammatik savodxonlik juda katta ahamiyatga ega sanaladi. So‘zlarning lug’aviy ma’nosini anglash,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ularni bir- biriga bog'lashda qo'shimchalarni to'g'ri qo'llay olish va matn tarkibidagi so'zlarning mantiqiy jihatdan ham o'zaro mos bo'lishi lozim. Mashhur rus pedagogi K.D. Ushinskiy ta'kidlaganidek, har bir fan hamisha so'z orqali o'zlashtirilishi va bayon qilinishi kerak, uning uchun o'quvchi tushunmagan har bir so'zni tushuntirib borish muhim ahamiyatga ega.

Sh.Sariyev o'zining "Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish" nomli monografiyasida o'quvchilar nutqini matn orqali rivojlantirish metodlarini ishlab chiqadi va quyidagilarni keltiradi:

- **Ifodali o'qish metodi**
- **Qayta hikoya qilish metodi**
- **Lug'at ustida ishlash metodi**
- **Matn bilan mustaqil ishlash metodi**

Matnni ifodali o'qish -bu san'at. Xoh she'r bo'lsin, xoh hikoya obrazlarning ichki kechinma va his- hayajonlarini ohang orqali tinglovchiga chiroyli qilib yetkazib berish, ta'sir qilish- bu mahorat. Boshlang'ich sinfdan boshlab bu ko'nikmani o'quvchilarda rivojlantirish ahamiyatlidir.

Qayta hikoyada asosan matn mazmunini o'quvchi ongida saqlagan ma'lumotlar orqali ifodalaydi: kimdir mayda detallargacha qayta hikoya qilsa, kimdir voqealarni qisqaroq hikoya qiladi.

Matn tarkibida notanish so'zlar bo'lishi tabiiy. O'qituvchilar lug'at so'zlarning ma'nosini o'quvchilarga tushuntirib, shu so'zlar orqali yangi gaplar tuzdirsalar bu so'zlar o'quvchilar xotirasida yaxshiroq o'rnashadi.

Bu kabi metodlarni o'quvchi mustaqil ravishda matnni analiz qila oladigan bo'lguncha qo'llash va nazoratni ushlash o'qituvchi hamda ota-onalarning vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. R.A.Qo'ldoshev "Savod o'rgatish davrida nutq va yozuv malakalarini shakllantirish" {Monografiya}2020 -yil, 85 b
2. Sh.Sariyev "Boshlangich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish" {Monografiya} "ILM ZIYO ZAKOVAT" TOSHKENT- 2022, 122 b
3. Yuldasheva D.Sh "Ona tili" Darslik. 1-sinf I qism 89 b

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sharofova Nilufar Ilhom qizi**, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti [**Шарофова Нилуфар Илхом кызы,** базовый докторант Бухарского государственного педагогического института], [**Sharofova Nilufar Ilhom kizi**, basic doctoral student of the Bukhara State Pedagogical Institute] manzil: Buxoro shahar Amir Temur ko'chasi 52-uy, [Адрес: г. Бухара, улица Амира Темура, 52], [Address: 52 Amir Temur Street, Bukhara city] E-mail: nilufarsharofova94@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

MILLIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG‘UNLASHGAN LIBOSLARGA HOZIRGI ZAMONDA BO‘LGAN TALAB

© T.A. Nematova[1]✉
[1]Navoiy Davlat Universitetining, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: bugungi globallashuv davrida milliylikni asrash va uni zamonaviy ko‘rinishda ifodalash moda industriyasida muhim yo‘nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, o‘zbek xalqining boy madaniy merosi, bezak san’ati va milliy libos elementlarini zamonaviy kiyimlarga moslashtirish orqali nafaqat go‘zallik, balki milliy o‘zlik ifodalanadi. Shu sababli ham milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashgan liboslarga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda.

MAQSAD: milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashgan kiyimlarga bo‘lgan ijtimoiy talabni aniqlash, bu talabni shakllantiruvchi omillarni aniqlash va bunday kiyimlarning yoshlar ongiga, didiga ta’sirini baholashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot doirasida 18-30 yosh oralig‘idagi 70 nafar respondent o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi. Ularning kiyinishdagi tanlovlari, milliy motivli kiyimlarga munosabati, kundalik hayotda foydalanish holatlari o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 82 foizi milliy elementlar bilan boyitilgan zamonaviy kiyimlarni afzal ko‘rishini bildirgan. Ayniqsa, ayollar orasida atlas, adras, zardo‘zi kabi matolardan tayyorlangan liboslarga qiziqish yuqori bo‘lib, bu nafaqat bayramlar, balki kundalik hayotda ҳам sezilmoqda. Dizaynerlar tomonidan yaratilayotgan zamonaviy ko‘rinishdagi milliy liboslar yoshlarning o‘z madaniyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirayotgani va ularning estetik qarashlarini shakllantirayotgani kuzatildi.

XULOSA: milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashgan liboslar yoshlar orasida katta talabga ega bo‘lib, bu o‘zbek milliy identitetini zamonaviy ko‘rinishda saqlab qolish va targ‘ib qilishning samarali yo‘lidir. Dizaynerlar tomonidan estetik va funksional jihatdan qulay liboslar yaratish orqali bu yo‘nalishni yanada rivojlantirish mumkin.

Kalit so'zlar: milliy libos, zamonaviy moda, dizayn, yoshlar didi, estetik tarbiya, madaniy identitet, atlas, adras, urf-odat.

Iqtibos uchun: Nematova T.A., Milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashgan liboslarga hozirgi zamonda bo‘lgan talab. // Inter education & global study. 2025, №6. B.432–438.

СПРОС НА ОДЕЖДУ, СОЧЕТАЮЩУЮ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННОСТЬ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© Т.А. Нематова[1]✉
[1]Навоийский государственный университет, Навоий, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в эпоху глобализации важным направлением в модной индустрии стало сохранение национальной идентичности через современную одежду. Особенно в Узбекистане, где богатое культурное наследие отражается в традиционных тканях, орнаментах и символике. Интеграция этих элементов в современную одежду способствует не только эстетике, но и выражению национальной гордости.

ЦЕЛЬ: цель исследования — изучить общественный спрос на одежду, сочетающую национальные и современные элементы, выявить формирующие его факторы, а также проанализировать влияние данной тенденции на идентичность и вкусы молодежи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: опрос проводился среди 70 респондентов в возрасте от 18 до 30 лет. Изучались их предпочтения в одежде, отношение к национальным мотивам и использование таких нарядов в повседневной жизни. Также анализировались дизайнерские выставки и модные тренды в социальных сетях.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что 82% участников отдают предпочтение современной одежде с национальными элементами. Особенно популярны у женщин изделия из тканей *атлас*, *адрас*, *зардози*, которые используются не только в торжественных случаях, но и в повседневной жизни. Такие дизайнерские решения способствуют формированию эстетического вкуса и укреплению культурной самобытности молодежи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: одежда, сочетающая традиции и современность, пользуется высоким спросом среди молодежи и служит эффективным средством сохранения и популяризации национальной идентичности. Создание удобной и эстетичной одежды способствует дальнейшему развитию этого направления. Таким образом, одежда становится не только модным выбором, но и символом культурной гордости.

Ключевые слова: национальный костюм, современная мода, дизайн, вкус молодежи, эстетическое воспитание, культурная идентичность, атлас, адрас, традиции

Для цитирования: Нематова Т.А. Спрос на одежду, сочетающую национальные традиции и современность в современном обществе. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 432–438..

THE DEMAND FOR CLOTHING COMBINING NATIONAL TRADITIONS AND MODERNITY IN TODAY'S SOCIETY

©Tursuntosh A. Nematova[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the era of globalization, preserving national identity through modern fashion has become an important trend. Especially in Uzbekistan, the integration of rich cultural heritage – traditional fabrics, patterns, and symbolism – into modern clothing design reflects not only beauty but also a sense of national pride. This has led to increasing popularity and demand for garments that harmoniously combine tradition and modern style.

AIM: the aim of the study is to assess the social demand for clothing that blends national and modern elements, to identify factors shaping this demand, and to analyze the impact of such styles on youth's cultural identity and aesthetic preferences.

MATERIALS AND METHODS: a sociological survey was conducted among 70 respondents aged 18-30. Their clothing preferences, attitudes toward national motifs in fashion, and use of such clothing in daily life were studied. Additionally, several designer exhibitions and fashion trends on social media were analyzed.

DISCUSSION AND RESULTS: survey results revealed that 82% of participants prefer modern clothing enriched with national elements. Interest is especially high among women in garments made of fabrics like *atlas*, *adras*, and *zardozi*, not only for special occasions but also for everyday wear. Designers who successfully merge tradition with fashion trends contribute to strengthening cultural awareness and shaping youth's aesthetic values.

CONCLUSION: modernized national clothing is in high demand among young people and serves as an effective means of preserving and promoting national identity in contemporary form. Designers can further enhance this direction by creating clothing that is both aesthetically appealing and practical. In this way, clothing becomes not only a matter of style but also a symbol of cultural pride and heritage.

Key words: national costume, modern fashion, design, youth taste, aesthetic education, cultural identity, atlas, adras, tradition

For citation: Tursuntosh A. Nematova. (2025) 'The demand for clothing combining national traditions and modernity in today's society', Inter education & global study, (6), pp. 432–438. (In Uzbek).

Odamning shakl-u shamoyili, bo'y-basti, ko'rinishi, jussasi, tusi, ko'z qarashlari, ovozi, tarovati, xullas, ichki va tashqi dunyosi u tavallud topgan, unib o'sgan va kamolotga yetgan joyga monand bo'ladi. Bizning har birimiz o'z yurtimizning bir zarrasimiz. Biz qayerda bo'lmaylik, o'zbekligimizni o'z tashqi qiyofamiz, so'zimiz bilan ifoda etamiz. Shunday ekan, bizning kiyinish madaniyatimiz ma'naviyatimiz ko'zgusidir.

Xalqning kiyim-kechaklaridagi o'zgarishlar, asosan, XX asr boshlarida sezilarli ravishda namoyon bo'ladi va undagi transformatsiya, asosan, shaharlarda ochiq ko'zga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tashlanadi. An’anaviy o‘zbek libosi asosan, ustki ko‘ylak, ishton va chopondan, boshga do‘ppi, oyoqqa mahsikalish yoki etikdan iborat bo‘lgan. Erkak-ayol va bolalar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba‘zan qaychisiz va ulgusiz, yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani 2 ga buklab yelka tomoniga ko‘ndalangga 2 yeng bilan bir parcha to‘rtburchak xishtak (qo‘ltig‘iga solingan)ni tikib qo‘yilavergan. Erkaklarning an’anaviy yaktak ko‘ylagi uzunligi tizzagacha, ayollar va qizlarniki to‘pig‘igacha bo‘lgan.

Etno-uslub (folklor uslubi). Zamonaviy kiyimda milliy va an’anaviy libos elementlarining ishlatilishi. Boshqacha qilib aytganda, milliy libos asosida zamonaviy kiyimni uslublashtirish. Bunda libos ansambli butunlay yoki uning bir qismi uslublashtirilishi mumkin. Ba’zan esa modellarga an’anaviy libosning rostmana haqiqiy elementlari kiritilishi mumkin

O‘zbek milliy kiyimlari xalqimiz tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u moddiy-ma’naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o‘ziga xosligini aks ettirib, etnik belgilari bilan ajralib turadi.

O‘zbek xalqining kiyimlari juda xilma-xil, rang-barang va jozibalidir. Ular – erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlaridan iborat bo‘lib, inson umrining fasllariga qarab ham ajratilgan: yoshlar, o‘rta yoshlilar, keksalar uchun. Shuningdek, hududlar bo‘yicha ham o‘ziga xoslikni tashkil qiladi. Kiyimlarda insonning ijtimoiy mavqei, u yashagan joy va zamon, hayotidagi quvonchli yoxud qayg‘uli voqealar ham namoyon bo‘ladi.

O‘zbek milliy kiyimlarini o‘rganishda XV-XIX aslarda Hirot va Buxoro maktablariga mansub musavvirlar yaratgan miniatyura san’ati asarlari juda qimmatbaho manba hisoblanadi.

Manbaalardan ko‘rinadiki milliy libos deganda faqatgina adras va yoki atlasni, turli do‘ppilarnigina hisoblash xatodir, matosidan qatiy nazar tikilish jihatidan ham o‘zbek milliy libosi deb atalishga haqli libsolar juda ko‘p ekan. Xatto milliy bosh kiyimlarimizdan biri bo‘lgan do‘ppining yuzdan ortiq turlari mavjud ekan.

Milliylik, xalqimizga xos o‘ziga xoslik aksariyat dizaynerlar faoliyatidan mustahkam o‘rin olmoqda. Uzoq yillar davomida unutilgan milliy matolarimiz turlariga, kiyim shakllariga, bichimlariga va ulardagi jozibador naqshlarga qayta-qayta murojaat etilmoqda. Tarixiy-milliy an’analarni qayta tiklash asosida yangilik yaratish, ya’ni milliy liboslarimizni bugungi kun talablari asosida transformatsiyalash milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan e’tibor sifatida e’zozlidir.

Go‘zallik o‘ziga xos estetik timsoldir. Shuning uchun, moda har doim o‘z-o‘zidan harakat qiladi. Har doim ayollar chiroyli ko‘rinishga intilishgan. Chiroyli ko‘rinishni yaratishda kiyim muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy moda ayollari turli xil uslublarga rioya qilishadi, bizning davrimizda modada ko‘plab alternativlar mavjud, kiyim tanlash ajoyibdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda milliy libos bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar mahalliy dizaynerlar va hunarmandlarning salmoqli hissasi bilan jadal tus oldi. An’anaviy naqsh va ranglardan foydalangan holda zamonaviy qirqim va detallar qo‘shilgan holda milliy liboslar yangilanib, yanada zamonaviy qiyofa kasb etdi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Milliy liboslarning zamonaviy dizayni O‘zbekistonda mahalliy dizayner va hunarmandlar hissasi bilan jadal rivojlanib borayotgan jarayondir. An‘anaviy naqshlar zamonaviy qirqimlar bilan uyg‘unlashgan bu asarlar milliy liboslarning yangilanib, yanada zamonaviy qiyofa kasb etishini ta‘minlamoqda.



1-rasm

Zamonaviy liboslarda naqshlarni tug‘ilishi milliy hunarmandchilikni yangicha bir ko‘rinishda tanita boshladi.

Zamonaviy liboslardagi naqshlar ranglarini uyg‘unlashuvi esa kishida zavq uyg‘otib, shu buyumni sevib va asrab kiyishga sababchi bo‘ladi.

Milliy o‘zbek kostyumining ranglari juda keng. Mamlakatning turli mintaqalarida yashovchilarning o‘ziga xos rang imtiyozlari mavjud, ammo o‘zbeklar to‘q rangli kiyimlarni yoqtirmaydilar, chunki ular fikricha, to‘q ranglar muammolarni jalb qilishlari mumkin.

Qadimdan elimizning ayollari hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelishgan. Har bir qiz o‘z onalari, buvilari tomonidan bolaligidan o‘z liboslarini o‘zlari tikishlikga, kashtalar, quroqlar tikishga o‘rgatilib borilgan.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, zamonaviy liboslardan bichimlarini olgan holda ularga milliy arnamentlarni qo‘llash, (kashtalar, quroqlar, milliy taqinchoqlar, popoplar) milliy bichimlarimizdan foydalanib zamonaviy aksesuarlarni qo‘llash orqali milliylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish mumkin. Tarixsiz kelajak bo‘lmaydi deganlari kabi milliylik o‘ziga xos liboslarimiz ularning turfa jozibasi bilan ajralib turadi va buni dizaynerlarimiz ijodlari orqali butun dunyo ko‘rgazmalarida olayotgan olqishlari misol bo‘la oladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



2-rasm

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Khamidovna, K. G., & Usmonovna, A. Z. (2022). The Role of Embroidery and Ethno Interaction in Traditional Art Crafts. *Eurasian Scientific Herald*, *7*, 275-278.
2. A 87 F.Z. Ataxanova. Dizayn-loyihalash. -T.: «Fan va texnologiya», 2018, 368 bet. ISBN 978-9943-11-890-4
3. Saydiganiyeva Azizaxon Saydinosirovna O‘ZBEKISTON ZAMONAVIY MODA DIZAYNIDA MILLIY O‘ZIGA XOSLIKNI ANGLASH JARAYONI VOLUME 2 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7
4. Isaqova Gulmira Ilhomidinovna MILLIY LIBOSLARDA KO‘YLAK VA UNING TURLARI HAQIDA MA’LUMOT Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(1), Jan., 2023159-163
5. Aslonov Furkat Botirovich*; Rajabova Nilufar Shukhratovna PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF INCREASING THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN ART CLASSES ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal . -58-64, 2022-yil. 10.5958/2249-7137.2022.00032.5
6. Rajabova Nilufar Shuhratovna RANGTASVIR ASARLARINI YARATISH JARAYONIDA KOMPOZITSIYANING O'RNI VA AHAMIYATI"IJODKOR O'QITUVCHI" RESPUBLIKA ILMIY -USLUBIY JURNALI. -32-35, 2024-yil.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

7. Vosiyeva A. USE OF TRANSFORMATION IN THE DIRECTION OF DESIGN AND ITS IMPORTANCE //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. A4. – C. 31-33

8. Vosiyeva A. T. X., Amonova Z. U. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O 'QUVCHILARNI KASB–HUNARGA YO 'NALTIRISH //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 340-343.

9. Shavdirov S. Method of organization of classes in higher education institutions using flipped classroom technology //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2025. – T. 3268. – №. 1.

10. Shovdirov S. Analyzing the sources and consequences of atmospheric pollution: A case study of the Navoi region //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 587. – C. 02016.

11. Шавдиров С. А. Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 109-110.

12. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1.

13. Guljamol M. SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 191-197

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nematova Tursintosh Alisher qizi**, talaba [**Nematova Tursintosh Alisher qizi,** student], [**Nematova Tursintosh Alisher qizi,** студент]; manzil: O'zbekiston, 117036, Navoiy shahar, Islom Karimov kochasi 90 - uy 98 xonadon, address: Uzbekistan, 117036, Navoi city, Islam Karimov street 90 - 98 apartments, адрес: Узбекистан, 117036, город Навои, улица Ислама Каримова 90 дом 98 квартиры. nematovatursuntosh@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

PRODYUSERLIK IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT SIFATIDA (ilmiy-metodologik masalalari)

© U.T. Todjidinov[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada prodyuserlik faoliyati ijtimoiy-madaniy sohaga xos professional amaliyot sifatida ko‘rib chiqiladi. Unda prodyuserlikning ko‘p yo‘nalishli tabiati, uning menejer, marketolog, rejissyor, imijmeyker kabi kasblar bilan o‘zaro aloqasi va farqlari tahlil qilinadi. Shuningdek, prodyuserlikning funksional jihatlari — kreativlik, tashkilotchilik, rejalilik, tijorat, tadbirkorlik, marketing va o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tamoyillari doirasida yoritiladi. Muallif prodyuserlikni san’atkor va auditoriya, ijodiy jarayon va iste’molchi o‘rtasida muvozanatni ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy vosita sifatida asoslab beradi. Maqola san’at va madaniyat sohasida prodyuserlik kasbining o‘ziga xosligi va dolzarbligini falsafiy, iqtisodiy va tashkiliy nuqtayi nazardan tahlil etadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi — prodyuserlik faoliyatining ijtimoiy-madaniy faoliyat sifatidagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish, uning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish hamda zamonaviy jamiyatda prodyuserlikning rolini ilmiy nuqtai nazardan yoritishdir. Shuningdek, bu faoliyat turining madaniyat, san’at va ommaviy kommunikatsiyadagi ijtimoiy funksiyalarini aniqlash orqali prodyuserlikni kasbiy soha sifatida shakllantirish yo‘llarini ko‘rsatish maqsad qilingan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida ijtimoiy-madaniy faoliyat, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, san’atshunoslik va kommunikatsiya sohalaridagi ilmiy manbalar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, amaliy prodyuserlik tajribalari o‘rganildi. Tahlil va solishtirma metodlar, sistemali yondashuv, kontent tahlili, empirik kuzatuv hamda intervyu usullaridan foydalanildi. Materiallar sifatida O‘zbekiston va xorijdagi madaniy loyihalarning prodyuserlik asoslari tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, prodyuserlik faoliyati nafaqat san’atkorlar va ijodiy guruhlar ishini muvofiqlashtiradi, balki ijtimoiy-madaniy kommunikatsiyani shakllantirishda, auditoriyaga estetik, tarbiyaviy va axborot xabarlarini yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Prodyuserlikni ijtimoiy-madaniy faoliyat sifatida qarash, uni faqat tijorat manfaati bilan bog‘lamasdan, keng ijtimoiy kontekstda tushunishga olib keladi. Shuningdek, bu faoliyat turi metodologik asoslarda ilmiy o‘rganilishi zarur bo‘lgan mustaqil fanlararo soha sifatida qaralmoqda.

XULOSA: prodyuserlik zamonaviy ijtimoiy-madaniy hayotda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. U madaniyatni rivojlantirish, innovatsion san’at loyihalarini amalga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

oshirish, auditoriya bilan samarali aloqa o‘rnatish, ijodiy salohiyatni namoyon etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, prodyuserlik faoliyatining ilmiy-metodologik asoslarini chuqur o‘rganish va oliy ta’lim tizimiga integratsiyalash orqali bu sohaning kasbiy va akademik rivojlanishiga zamin yaratish lozim.

Kalit so'zlar: prodyuser, ijtimoiy-madaniy, menejer, ekzistensial, realizatsiya, immanent, marketolog, imijmeyker, buxgalter, rejissyor, kreativlik, universallik, tijorat, shou-biznes, tashkilotchilik psixologiyasi, retsipiyent, potensial iste’molchi, mablag’, tadbirkor, tavakkalchilik.

Iqtibos uchun: Todjidinov T.U. Prodyuserlik ijtimoiy-madaniy faoliyat sifatida (ilmiy-metodologik masalalari). // Inter education & global study. 2025, №6. B. 439–447.

ПРОДЮСИРОВАНИЕ КАК СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ (научно-методологические вопросы)

© У.Т.Тоджидинов[1]✉
[1]Узбекский государственный институт искусств и культуры, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается продюсерская деятельность как форма профессиональной практики в социально-культурной сфере. Анализируется её многопрофильный характер, а также связь и различие между продюсером и такими профессиями, как менеджер, маркетолог и имиджмейкер. Особое внимание уделяется функциональным аспектам: креативности, организаторским способностям, планированию, коммерческой направленности, предпринимательской инициативе, маркетингу и принципу самоокупаемости. Автор обосновывает продюсерскую деятельность как социально-культурный механизм, обеспечивающий взаимодействие между артистом и аудиторией, творческим процессом и потребителем. В статье комплексно раскрывается специфика и значимость профессии продюсера в сфере искусства и культуры с философской, экономической и организационной точек зрения.

ЦЕЛЬ: цель настоящего исследования — раскрыть значение и роль продюсерской деятельности как социально-культурной практики, проанализировать её теоретико-методологические основы, а также осветить роль продюсерства в современном обществе с научной точки зрения. Кроме того, посредством выявления социальных функций данной деятельности в культуре, искусстве и массовых коммуникациях, определяются пути формирования продюсерства как профессиональной сферы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования были изучены научные источники по социально-культурной деятельности, культурологии, социологии, искусствоведению и коммуникации, а также нормативно-правовые документы и практический опыт продюсерской деятельности. Применялись методы анализа и сопоставления, системный подход, контент-анализ, эмпирическое наблюдение и

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

интервью. В качестве материалов были проанализированы продюсерские основы культурных проектов Узбекистана и зарубежных стран.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что продюсерская деятельность не только координирует работу артистов и творческих коллективов, но и служит важным инструментом формирования социально-культурной коммуникации, донесения до аудитории эстетических, воспитательных и информационных посланий. Рассмотрение продюсерства как социально-культурной деятельности позволяет выйти за рамки исключительно коммерческого подхода и осмысливать его в широком общественном контексте. Кроме того, эта сфера требует научного изучения как самостоятельного междисциплинарного направления.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: продюсерская деятельность играет важную стратегическую роль в современной социально-культурной жизни. Она способствует развитию культуры, реализации инновационных художественных проектов, эффективному взаимодействию с аудиторией и раскрытию творческого потенциала. Поэтому необходимо углублённое научно-методологическое изучение продюсерства и его интеграция в систему высшего образования для обеспечения профессионального и академического развития данной сферы.

Ключевые слова: продюсер, социально-культурный, менеджер, экзистенциальный, реализация, имманентный, маркетолог, имиджмейкер, бухгалтер, режиссёр, креативность, универсальность, коммерция, шоу-бизнес, психология организаторской деятельности, реципиент, потенциальный потребитель, средства, предприниматель, риск.

Для цитирования: Тоджидинов У.Т. Продюсирование как социально-культурная деятельность (научно-методологические вопросы). // Inter education & global study. 2025, №6. С. 439–447.

PRODUCING AS A FORM OF SOCIO-CULTURAL ACTIVITY (Scientific and Methodological Aspects)

©Umid T. Todjidinov[1]✉
[1]Uzbek State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses producing as a form of professional activity in the socio-cultural domain. It highlights its multi-dimensional nature and the relationship between the producer and other roles such as manager, marketer, and image-maker. The article focuses on functional elements of producing: creativity, coordination, planning, commercial orientation, entrepreneurial drive, marketing, and self-financing. The author conceptualizes producing as a socio-cultural tool that mediates between the artist and the audience, and between the creative process and consumer demands. The paper offers a

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

comprehensive perspective on the uniqueness and relevance of producing in the arts and culture sector from philosophical, economic, and organizational viewpoints.

AIM: the purpose of this research is to reveal the significance and role of producing as a form of socio-cultural activity, analyze its theoretical and methodological foundations, and examine the role of producing in modern society from a scientific perspective. In addition, by identifying the social functions of this activity in culture, art, and mass communication, the study aims to determine the ways of forming producing as a professional field.

MATERIALS AND METHODS: the research involved the study of academic sources in the fields of socio-cultural activity, cultural studies, sociology, art studies, and communication, as well as legal documents and practical experiences in producing. Analytical and comparative methods, a systematic approach, content analysis, empirical observation, and interviews were employed. The materials analyzed included the producing foundations of cultural projects in Uzbekistan and abroad.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the research show that producing not only coordinates the work of artists and creative teams, but also serves as an important tool for shaping socio-cultural communication and delivering aesthetic, educational, and informational messages to audiences. Viewing producing as a socio-cultural activity allows us to go beyond commercial interests and understand it in a broader social context. Furthermore, this type of activity is increasingly being recognized as an independent interdisciplinary field requiring scientific exploration.

CONCLUSION: producing plays a significant strategic role in the modern socio-cultural sphere. It contributes to the development of culture, the implementation of innovative art projects, effective communication with audiences, and the realization of creative potential. Therefore, an in-depth scientific and methodological study of producing and its integration into higher education systems is essential for the professional and academic development of this field.

Key words: producer, socio-cultural, manager, existential, implementation, immanent, marketer, image-maker, accountant, director, creativity, versatility, commercial activity, show business, psychology of organizational leadership, recipient, potential consumer, financial resources, entrepreneur, risk.

For citation: Umid T. Todjidinov. (2025) 'Producıng as a form of socıo-cultural actıvıty, (scientific and methodological aspects)', Inter education & global study, (6), pp. 439–447 (In Uzbek).

Ijtimoiy-madaniy borliqning tez o‘zgaruvchan xususiyati badiiy-ijodiy sohalarda yangi-yangi kasblar va mutaxassislarning paydo bo‘lishiga turtki bermoqda. Bugun teatr menejeri, kino menejeri, nashriyot menejeri, ommaviy- madaniy tadbirlar menejeri, san’at marketologi kabi kasb-kor va mutaxassislar paydo bo‘lmoqda. Prodyuserlik ham ana shunday yangi kasb-kor va mutaxassislardan biridir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Prodyuser ishlab chiquvchi, prodyuserlik ishlab chiqish kasbi, sohasi degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur atamani ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarish sohasi deb talqin qilmaslik kerak, u noishlab chiqarish jarayonlariga, ijtimoiy-madaniy faoliyatga taalluqli voqelikdir. To‘g‘ri, ishlab chiqarish sohasidagi prodyuserlik bilan ijtimoiy-madaniy sohadagi prodyuserlik o‘rtasida mushtaraklik, ekzistensial o‘xshashlik bor. Masalan, ularning ikkalasi ham aholining talab va ehtiyojlarini o‘rganadi, bozor iqtisodiyoti qonunlariga tayanadi, o‘z mahsulotlarini sotadi, realizatsiya qiladi. Ammo ijtimoiy-madaniy sohadagi prodyuserlikda tavakkal qilib mablag‘ tikish imkoniyatlari va yutqazish xavfi katta. Ishlab chiqarish sohasidagi mahsulot esa bugun bo‘lmasa ertaga yoki bir haftadan keyin ham sotilishi, sarflagan mablag‘ qoplanishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy-madaniy sohada ijodiy imkoniyatlarni, yashirin qobiliyatni ro‘yobga chiqarish, har bir tadbirga kreativ va nostandart yondashish mumkin. Ular o‘rtasidagi funksional farqlarni yana keltirish, ushbu farqlarga oid immanent belgilarni ochib berish mumkin. Ushbu maqolada biz noishlab chiqarish yoki ijtimoiy-madaniy sohadagi prodyuserlik haqida fikr yuritamiz.

Prodyuserlik sohaga xizmat qiluvchi, sohaga oid mahsulotlarni realizatsiya qilish, ularni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan ijodiy-texnologik jarayonlarni tashkil qilish, iste'molchilar topish, talab va ehtiyojlarni va ularning dinamikasini o‘rganish, tushumlarni taqsimlashda qatnashishi, jamoani boshqarish siyosatini shakllantirish kabilarni amalga oshiradi. Agar diqqat qilsak, yuqoridagi vazifalarda prodyuser mahsulotlar yoki tadbirlar tayyorlash, sotish jarayonlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis ekanini sezamiz. Biroq uni ijtimoiy-madaniy hayotning barcha jarayonlariga aralashtirish xavfi mavjud. Masalan, menejerning tashkilotchilik ishlariga. Ha, bir jamoa bo‘lib ishlaganda ular uchrashishi, bir biriga tayanishi va oraliqdagi vazifalarni birgalikda bajarishi tabiiy holdir. Agar menejer bilan prodyuser ijodiy hamkorlik qilsa, yaxshi, ko‘pincha ular vazifa taqsimlash ustida ziddiyatlar, nizolar uyg‘otadilar. Bu muammoni avvalo kvalifikatsion xarakteristikaga muvofiq hal etish zarur.

Prodyuserlik nima degan savolga javob berish hali turli yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Hatto ular uchida prodyuserlikni mutlaqlashtirishga intilish ham mavjud. Masalan, A.Rodnyanskiyning fikricha, “prodyuserlik-hayotga yondashuvdir. Prodyuserlik har qanday vazifani hal etishdir” (1,S.8). Ha, madaniyat va san'at sohasida ishlovchi mutaxassis turli vaziyat va muammolarga duch keladi. A'lo mazmundagi spektaklni sahnalashtirish yetarli emas, uni realizatsiya qilish uchun retsipiyent, iste'molchi topish, reklama uyushtirish, hatto qishloqlardan tomoshabinlarni obkelish uchun transport tashkil etish ham zarur. Mazkur “ikir-chikir” tashkiliy ishlar prodyuser zimmasiga tushadi. Taniqli adibimiz Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” spektakli B.Yo‘ldoshev tomonidan akademik drama teatrida saxnalashtirilganida, nafaqat poytaxtga yaqin tumanlardan, hatto boshqa viloyatlardan ham tomoshabinlar kelishga intilgan. Ushbu istak va ehtiyojni qondirish tashkiliy ishlar bilan shug‘ullanuvchi direktor o‘rinbosari va kassir zimmasiga tushgan. U paytlar menejer yoki prodyuser haqida tasavvur yo‘q edi. Akademik drama teatri va Abror Hidoyatov nomidagi drama teatriga menejer shtati 2021 yili kiritilgan. Ammo bugun menejer bilan prodyuser o‘rtasida sezilarli farq borlig‘i ayon bo‘lmoqda. Ba'zan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

prodserlik vazifasini marketolog bajaradi, natijada prodyuser, menejer va marketolog kvalifikatsiyasiga oid tasavvurlarga aniqlik kiritish talab etiladi.

Menejerni rejissyor, dirijyor, imijmeyker, direktorning xo‘jalik ishlari bo‘yicha yordamchisi, hatto buxgalter bilan aynanlashtirish mumkin. Ilmiy talqinlarga ko‘ra, menejer xo‘jalik va ijodiy ishlarni tashkil etuvchi, yo‘lga qo‘yuvchi mutaxassisdir (2). Agar prodyusera berilgan ta’riflarga qarasak, xuddi shu vazifalarni prodyuser ham bajaradi. Biroq farq shundaki, menejer ko‘pincha texnologik jarayonlarni amalga oshiradi, uning ijodiy ishlarni tashkil etishi ham texnologik jarayondir. Prodyuser ijodiy jarayonlarga bevosita ta’sir etishi bilan rejissyor va dirijyorga yaqin turadi. Ammo ularning ijodiy izlanishlariga, aktyor va musiqachilarni tayyorlash jarayonlariga doim ham aralashmaydi. Imijmeyker esa ijodkor, jamoa imijini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqadi, shu asosda ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi mutaxassis hisoblanadi (3, S.11-12). Marketolog asosan savdo-sotiq bilan shug‘ullanadi. F. Kotler ta’rifiga ko‘ra, "ayiraboshlash asosida talab va ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan inson faoliyati ko‘rinishidir. U ehtiyoj, talab, tovar, ayirboshlash, kelishuv va bozor bilan bog‘liqdir"(4, S.47). Mazkur yo‘nalishlar bevosita prodyuserga ham tegishlidir. A.G.Zanko ta’rifiga ko‘ra, prodyuser "oldin ko‘ra olish, tavakkal qilish, talab etish, ishonish, tasarruf etish, chidash, tejash, hisob-kitob qilish, ilhomlantirish, dadillashtirish kabi xislatlarga ega bo‘lishi lozim... U jamoaning professional yuksaltirishga oid ijodiy, iqtisodiy, boshqaruv va huquqiy xususiyatlarini bilishi darkor" (5, S.6-7). Bunaqa qiyosiy tahlillarni yana keltirish mumkin.

Prodyuserlikka avvalo ijtimoiy-madaniy faoliyat turi sifatida qarash darkor. Bu uning nafaqat funksional xususiyatlariga, shuningdek, keng ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rniga, badiiy-estetik ijod jarayonlarining maqsadlariga ham muvofiqdir.

Ma’lumki, ijtimoiy-madaniy borliq inson va sotsium o‘rtasidagi dialektik, ekzistensional aloqalarning mahsuli sifatida jamiyatdagi barcha munosabatlar mohiyatini belgilab keladi. Shu nuqtayi nazardan inson yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar, olib boradigan ijodiy faoliyat universallik kasb etadi (6, 8-9 b.). Madaniyatning universal xususiyati u bilan bog‘liq ijodiy izlanishlarga, faoliyat turlariga universallik baxsh etadi. Agar prodyuserlikka berilgan yuqoridagi ta’riflarni eslasak, ularda madaniyatga xos universallik borlig‘ini sezamiz. Bu tadqiqotchi istagi mahsuligina emas, balki prodyuser, rejissyor, imijmeyker, marketolog, menejer faoliyatining ichki, immanent belgilari ta’siridir.

Ushbu ijtimoiy-madaniy yondashuvdan kelib chiqib, prodyuserlikka quyidagi faoliyat yo‘nalishlari xosdir, deyishimiz mumkin :

-ijodiy faoliyat turi bo‘lish (kreativlik);
-rejalashtirilganlik (yoki mantiiqiylik);
-tijorat (sotish va foyda orttirish);
-uyushtirish (koorporativlik);
-tavakkal qilish (tadbirkorlik);
-talab va ehtiyojdan kelib chiqish (marketing);
-o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta’milash prinsipidan kelib chiqish.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Kreativlik prodyuser faoliyatining o‘zagini, yadrosini tashkil etadi. Aynan ijodiy xususiyati prodyuserlikni maftunkor va zavqli faoliyat turiga aylantiradi (Qarang:7-9). Yangi asarlarni sahnaga, auditoriya oldiga olib chiqishdan tortib to uning badiiy-estetik maqsadiga erishishgacha bo‘lgan jarayonlar prodyuser e’tiboridan chekkada qolmaydi. Ijodiy jarayonlarga aralashish prodyuserning vazifasi emas, ammo u iste’molchilarning talab va ehtiyojlari mavjudligini san’atkorlar esiga solib turadi.

Iste’molchilarning talab va ehtiyojlari bilan san’atkorlar ijodiy erkinligini muvofiqlashtirish prodyuserning bosh vazifasidir. Uning kreativlik faoliyati ushbu mezon bilan o‘lchanadi.

Mantiqiylik prodyuser faoliyatiga rejalilik baxsh etadi. Aniq reja (iste’molchilar ning qiziqishlarini va bo‘sh vaqtini o‘rganish, loyihalar tuzish, mablag‘ topish va uni taqsimlash, yordamchilar va ijrochilar yollash, san’atkorlar bilan shartnomalar tuzish, hisob-kitob yuritish, maydon yoki sahna topish, uni badiiy bezatish kabilar) faoliyatni, ijodiy jarayonlarni kuzatib borish, zarur bo‘lsa ularga tuzatish, o‘zgartirish kiritish imkonini beradi. Tadbirning yaxlit ijtimoiy-madaniy voqelik, asar bo‘lishi barcha qismlarni ratsional uyg‘urlashtirishga bog‘liqdir. Eklektiklik tadbir ichidagi qismlararo uyg‘unlikni buzadi. Retsipiyent-iste’molchi bilan ijrochi-san’atkor (tomoshabin-senariyachi-rejissyor-aktyorlar-sahna bezatuvchilari-marketolog) o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlamay badiiy-estetik maqsadga erishish mushkul.

Tijorat, ya’ni asarni sotish, undan foyda ko‘rish shou-tomoshalarda keng tarqalgan. Soha sirlardan uzoq kishiga an’atkor yugurib, sahnaga chiqib ketaveradi. O‘z imiji haqida qayg‘uradigan san’atkor grim va kiyinishdan tortib qaysi mimikasi yoki kuy-qo‘shiqdagi avji auditoriyada zavq uyg‘otishi zarurligacha rejalashtiradi. San’atkor xatti-harakatlarida kuzatiladigan noodatiylik ba’zan tomoshabinga g‘ayrihayotiy ko‘rinishi mumkin, ammo san’atkor buni rejalashtirsa, shakllantirsa, ijodiy yangilik bo‘ladi. Yangilikni pullash, sotish, ayniqsa san’at, shou-biznes sohasida tez amalga oshadi.

Uyushtirish qobiliyatisiz prodyuser hech nimaga erisholmaydi. Iste’molchi bilan ijrochi, auditoriya bilan sahna, tomoshabin bilan san’atkor o‘rtasida ijodiy hamkorlikni uyushtirish nafaqat san’at, ijod sirlaridan xabardorlikni, shuningdek, tashkilotchilik psixologiyasini taqozo etadi. Mashhur prodyuserlar tajribasi ko‘rsatadiki, hatto san’at, ijod sirlaridan yaxshi xabardor bo‘lmagan, ammo yaxshi tashkilotchi ko‘zlagan maqsadiga erishadi (1, S.7-8). Tashkilotchilik psixologiyasida obyektlar ruhiyati va kayfiyatini anglashdek jihatga e’tibor qaratiladi, bu jihati bilan kishi suhbatdoshini o‘ziga do‘st, hammaslak, yordamchi, bizning misolimizda esa, doimiy retsipiyentga aylantirishi mumkin (10, 137-138 b.). Doimiy retsipiyent tadbirlar yoki san’atkor ijodi "fanati", ixlosmandi, potensial tomoshabindir. Bunday tomoshabinga ega bo‘lishni istamaydigan san’atkor yo‘q. Demak, prodyuserning tashkilotchiligi potensial iste’molchi, retsipiyentni shakllantirishida aks etadi.

Prodyuserdan tadbirkorlik ham talab etiladi. Tadbirkor o‘zi mablag‘ini tikib foyda ko‘rishni istaydigan shaxsdir. Mablag‘ tikish orqali aholiga madaniy xizmat ko‘rsatishdan tushadigan mablag‘ni taqsimlash ham tadbirkor roziligi va ishtiroki bilan amalga oshiriladi(11, 8-9 b.). Prodyuser ham o‘zi mablag‘ini tikish huquqiga ega. Biroq bu

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tashabbus va faollik adliya idoralari tomonidan tasdiqlangan mehnat shartnomalari orqali amalga oshiriladi. Prodyuser mudom tadbirkorlik ko‘rsatishi mumkin, ammo hamma tadbirkor ham prodyuser bo‘lavermaydi. Ijtimoiy-madaniy sohaning ichki xususiyatlarini bilmaydigan kishining tadbirlar uyushtirishga mablag‘ tikishini hali prodyuserlik atab bo‘lmaydi. Mablag‘ tikish tavakkallik demakdir. Tadbirkor tavakkal qiladi, u tikkan mablag‘ini qaytarib ololmasligi mumkin.

Prodyuser tadbirlar uyushtirishda aholi talab va ehtiyojlaridan kelib chiqar ekan, bozor iqtisodiyoti qonunlariga rioya etadi. Bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlaridan biri o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta’minlash, shu asosda faollik, tashabbus ko‘rsatishdir. Mazkur prinsip ijtimoiy-madaniy sohadagi faoliyatlarga ham tegishlidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, prodyuserlik ijtimoiy-madaniy faoliyat turi sifatida kishilarning ijodiy faolligi va tashabbuslarining zamonaviy ko‘rinishidir. U menejer, marketolog, imijmeyker, buxgalter, rejissyor kabi ijodkorlarga yaqin turadi, ular hamkorlik qiladi, ammo iste’molchi manfaatlarini ustun qo‘yadi. Marketolog tayyor mahsulotni realizatsiya qiladi, prodyuser esa tovar ishlab chiqishgacha bo‘lgan jarayonni o‘rganadi, iste’molchi manfaatlarini san’atkor-ijrochiga yetkazadi. Bu ijtimoiy-madaniy xususiyat va mohiyatga ega bo‘lgan jihatdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Rodnyanskiy A. Vixodit prodyuser.- Moskva: Mann, Ivanov i Ferber (MIF)", 2016.
2. Qarang: Batra R. Reklamniy menedjment.-Moskva: Izd. dom "Vilyams" 2000.
3. Pochepsov G.G. Professiya imidjmeyker.- SPb.: Aleteyya, 2001.
4.Kotler F. Osnovi marketinga.-Moskva: Progress, 1991.
5. Zanko A.G. Osnovi prodyuserskoy deyatelnosti.- Chelyabinsk: Institut sovremennix znaniy im. A.M.Shirokova, 2019.
6. Alimasov V. Madaniyat falsafasi.-Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023.
7.Osnovi prodyuserstva. Sost.G.L.Ivanov i dr.-Moskva: Yuniti-Dana, 2003.
8. Konovalov A. Malenkiye sekreti bolshogo shou-biznesa. -SPb.: Piter, 2004.
9.Korneyeva S.M. Kak zajigayut zvyozdi. Texnologiya muzikalnogo prodyusirovaniya. -SPb.: Piter, 2004.
10. Qarang: Ahmetjanova M.Teatr va zamonaviy retsipieet: falsafiy ekzistensional tahlil. Monografiya.- Tashkent: Innovatsiya Ziyo, 2022.
11.Ro‘ziyev R. Tadbirkorlikning huquqiy asoslari.- Toshkent: Falsafa va huquq, 2009.
12. Todjidinovich T. U. PRODYUSERLIK FAOLIYATINING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI //Research Focus International Scientific Journal. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 252-257.
13. Todjidinov U. T. SHOU BIZNESDA PRODYUSERLIK KASBINING O ‘RNI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 529-537.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

14. Todjidinov U. T. MADANIYAT VA SAN ‘AT BOSHQARUVINING NAZARIY ASOSLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 301-306.

15. Todjidinov U. T. MADANIYAT VA SAN ‘AT MENEJMENTI VA UNING ZAMONAVIY KO ‘RINISHLARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 307-315.

16. Todjidinov, Umid Todjidinovich. "KINO SANOATINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQQAN NETFLIX." *Oriental Art and Culture* 5.3 (2024): 387-390.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Todjidinov Umid Todjidinovich**, “Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi katta o’qituvchisi, [**Тоджидинов Умид Тоджидинович,** старший преподаватель кафедры, «Менеджмент культуры и искусства»], [**Umid T. Todjidinov**, Senior Lecturer, Department of Culture and Art Management]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh. Mirzo Ulug’bek tumani, Yalang’och dahasi 127 «A» uy. [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, массив Ялангач, дом 127 «А»], [address: Uzbekistan, 127A Yalangoch district, Mirzo Ulugbek district, Tashkent city] utodjidinov@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

KONSERTMEYSTAR TAYYORLASHDA IMPROVIZATSIYA VA TRANSPOZITSIYA KO‘NIKMALARINING AHAMIYATI

© D.A. Sattorov[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada konsertmeystar tayyorlash jarayonida improvizatsiya va transpozitsiya ko‘nikmalarining musiqiy ta’limdagi roli va ahamiyati yoritib berilgan.

MAQSAD: maqolada ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishda foydalaniladigan zamonaviy metodikalar, amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni hamda pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, milliy va xorijiy musiqiy pedagogika tajribalari solishtirilib, konsertmeystarlik tayyorlov kurslari uchun amaliy tavsiyalar keltiriladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: konsertmeystarning ijrochilik faoliyati nafaqat texnik mahorat, balki musiqiy fikrlash, moslashuvchanlik va ijodiy yondashuvni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, improvizatsiya — ya’ni asarni erkin ijod qilish, va transpozitsiya — musiqani turli tonalliklarga ko‘chira olish qobiliyatlari konsertmeystar malakasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ushbu maqolada konsertmeystar tayyorlash jarayonida improvizatsiya va transpozitsiya ko‘nikmalarining musiqiy ta’limdagi roli va ahamiyati yoritib berilgan.

XULOSA: yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, konsertmeystar tayyorlash jarayonida improvizatsiya va transpozitsiya ko‘nikmalarini shakllantirish musiqa ta’limining zamonaviy talablari bilan uzviy bog‘liqdir.

Kalit so'zlar: konsertmeystar, improvizatsiya, transpozitsiya, ijrochilik, musiqiy tafakkur, pedagogik yondashuv, musiqa ta’limi, amaliy ko‘nikma.

Iqtibos uchun: Sattorov D.A. Konsertmeystar tayyorlashda improvizatsiya va transpozitsiya ko‘nikmalarining ahamiyati. // Inter education & global study. 2025, №6. B.448–455.

ЗНАЧЕНИЕ НАВЫКОВ ИМПРОВИЗАЦИИ И ТРАНСПОЗИЦИИ В ПОДГОТОВКЕ КОНЦЕРТМЕЙСТЕРОВ

© Д.А. Сатторов[1]✉

[1]Узбекская государственная консерватория, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье подчеркивается роль и значение навыков импровизации и транспонирования в музыкальном образовании в процессе подготовки концертмейстеров.

ЦЕЛЬ: в статье анализируются современные методики, роль практических занятий и педагогические подходы, используемые в формировании этих навыков. Одновременно сравнивается отечественный и зарубежный опыт музыкальной педагогики и даются практические рекомендации по подготовке концертмейстеров.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исполнительская деятельность концертмейстера требует не только технического мастерства, но и музыкального мышления, гибкости и творческого подхода. С этой точки зрения навыки импровизации, то есть свободного создания произведения, и транспонирования, то есть умения переносить музыку в разные тональности, считаются неотъемлемыми составляющими квалификации концертмейстера.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в данной статье подчеркивается роль и важность навыков импровизации и транспонирования в музыкальном образовании в процессе подготовки концертмейстеров.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: на основании вышеприведенного анализа можно сказать, что развитие навыков импровизации и транспонирования в процессе подготовки концертмейстеров неразрывно связано с современными требованиями музыкального образования.

Ключевые слова: концертмейстер, импровизация, транспонирование, исполнение, музыкальное мышление, педагогический подход, музыкальное образование, практические навыки.

Для цитирования: Сатторов Д.А. Значение навыков импровизации и транспозиции в подготовке концертмейстеров. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 448–455.

IMPORTANCE OF IMPROVISATION AND TRANSPOSITION SKILLS IN CONCERTMASTER TRAINING

© Dilshodjon A. Sattorov[1]✉
[1]State Conservatory of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article highlights the role and importance of improvisation and transposition skills in musical education in the process of concertmaster training.

AIM: the article analyzes modern methodologies, the role of practical exercises, and pedagogical approaches used in the formation of these skills. At the same time, the experience of national and foreign music pedagogy is compared and practical recommendations for concertmaster training courses are given.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MATERIALS AND METHODS: the performance activity of a concertmaster requires not only technical skills, but also musical thinking, flexibility, and a creative approach. From this point of view, improvisation - that is, the ability to freely create a work, and transposition - the ability to transfer music to different keys - are considered to be one of the integral components of the concertmaster's qualifications.

DISCUSSION AND RESULTS: this article highlights the role and importance of improvisation and transposition skills in music education in the process of training a concertmaster.

CONCLUSION: based on the above analysis, it can be said that the formation of improvisation and transposition skills in the process of training a concertmaster is inextricably linked to the modern requirements of music education.

Key words: concertmaster, improvisation, transposition, performance, musical thinking, pedagogical approach, music education, practical skills.

For citation: Dilshodjon A. Sattorov. (2025) 'Importance of improvisation and transposition skills in concertmaster training', Inter education & global study, (6), pp. 448–455. (In Uzbek).

Hozirgi davrda musiqiy ijrochilik va pedagogika sohasi taraqqiyotining jadalligi, musiqa ta'limining mazmun va shakllarida yangilanishlarni, xususan, ijodiy tafakkurga asoslangan yondashuvlarni zarurat sifatida ilgari surmoqda. Xususan, professional konsertmeystar (kontsertmistr) tayyorlash tizimida ijodiy-texnik ko'nikmalarni shakllantirish muhim metodik masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Konsertmeystar san'ati o'z mohiyatiga ko'ra ham hamkorlikda ijro etish madaniyatiga, ham muayyan musiqiy holatlarda tezkor qaror qabul qilish, improvizatsion yondashuv va tonalliklar o'zgarishiga moslasha olishga asoslanadi.

Improvizatsiya — bu musiqiy tafakkurning yuqori bosqichdagi ifodasi bo'lib, ijrochining o'ziga xos estetik didi, texnik mahorati va badiiy ongini sinovdan o'tkazadi. U konsertmeystarning turli ansambl holatlarida partnyorlikni to'g'ri his eta olish, dinamik va faktura jihatidan moslashuvchanlik namoyon eta olish qobiliyatini rivojlantiradi. Transpozitsiya esa — musiqiy asarni boshqa tonallikka ko'chira olish qobiliyati bo'lib, bu nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajriba, tezkor fikrlash va muvozanatli eshitish malakalarini talab etadi. Bu ikki ko'nikmaning uyg'un rivoji konsertmeystarning sahnadagi moslashuvchanligini, ijodiy mustaqilligini va umumiy musiqiy kompetentligini oshirishda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi musiqa ta'limida konsertmeystarlarni tayyorlash jarayonida improvizatsiya va transpozitsiya elementlarini integratsiyalash metodikasini ishlab chiqish, ularga asoslangan mashg'ulotlar tizimini takomillashtirish va ularni ta'lim jarayoniga to'laqonli joriy etish — zamonaviy musiqa pedagogikasining dolzarb vazifasidir. Ushbu maqolada ayni shu masalaning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi, mavjud yondashuvlar tanqidiy ko'rib chiqiladi hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Musiqiy ijrochilikda konsertmeystar faoliyati ko‘p komponentli, murakkab va yuqori darajada integrativ kompetensiyalarni talab qiluvchi professional jarayon hisoblanadi. Uning tayyorlov jarayonida, ayniqsa, improvizatsiya va transpozitsiya kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Bu ko‘nikmalar nafaqat ijrochilik darajasini, balki musiqiy tafakkurning chuqurligini, eshituv tahlilining aniqligini, shuningdek, kognitiv moslashuvchanlik va motor koordinatsiyasini ham shakllantiradi.

Improvizatsiya ko‘nikmasining strukturaviy asoslari

Improvizatsiya ko‘nikmasi — bu musiqiy-fikr jarayonining tezkorligi, melodik-faktural rivojlanish qonuniyatlarini ichki his qilish, Garmoniya va ritmik strukturalarni anglab, ularni real vaqt rejimida ifodalay olishdan iborat. Konsertmeystarning improvizatsion salohiyati quyidagi elementlar asosida shakllanadi:

Melodik tafakkur – musiqiy g‘oyaning erkin va mantiqiy rivojlanishini ta’minlovchi kognitiv jarayon;

Garmonik intuitsiya – tonal asoslar va funksional bog‘liqliklarni tez va aniq idrok eta olish qobiliyati;

Ritmik plastiklik – turli musiqiy o‘lchovlar, sinkopa, poliritmiya elementlarida erkin harakatlana olish;

Dialogik musiqiy eshituv – partnyor ijrosiga moslashish, o‘z partiyasini uyg‘unlashtirish.

Improvizatsiya mashg‘ulotlari konsertmeystarda musiqiy holatlarni tezda tahlil qilish, ijodiy qarorlar qabul qilish, emotsional ifodaning yuqori darajasiga erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday ko‘nikmalar vokal ansambllar, kamera asarlar, xor repetitsiyalari va boshqa interaktiv musiqiy shakllarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Transpozitsiya ko‘nikmasining didaktik va amaliy jihatlari

Transpozitsiya ko‘nikmasi konsertmeystar uchun universal vosita bo‘lib, turli registrdagi vokal yoki cholg‘u ijrochilariga moslashtirilgan partiyalar bilan ishlashda zaruriy amaliy kompetensiyani ta’minlaydi. U quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantiriladi:

Tonalliklararo assotsiativ tafakkur – tonalliklar tizimidagi funksional o‘zaro bog‘liqliklarni idrok eta olish;

Intervallarni tezkor hisoblash – tonal markazni o‘zgartirganda intervallarni mos ravishda ko‘chirish;

Notani mental ko‘chira olish – musiqiy matnni yangi tonallikda tasavvur qilib ijro etish qobiliyati;

Garmonik tahlili asosida transpozitsiya qilish – avval garmonik tahlil qilinib, keyin mos ravishda qayta tashkil etish.

Bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda ko‘p bosqichli metodik yondashuv asosida qurilgan mashg‘ulotlar tizimi qo‘llaniladi. Jumladan, dastlabki bosqichda transpozitsiyani nazariy asoslar yordamida tushuntirish, keyinchalik amaliy topshiriqlar asosida o‘zlashtirish, oxirgi bosqichda esa real sahna sharoitlarida mustahkamlash yo‘li tanlanadi. Mashg‘ulotlar davomida tonal balandlikni eshituv asosida aniqlash, mental modulyatsiya, intonatsion moslashuv kabi psixomusikologik komponentlar ham rivojlantiriladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Konsertmeystar tayyorlash jarayonida improvizatsiya va transpozitsiyani o‘rgatish bo‘yicha quyidagi metodik prinsiplar muhim ahamiyat kasb etadi:

Integrativlik prinsipi – nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni yagona tizimda uyg‘unlashtirish;

Aktiv musiqiy tafakkurni shakllantirish – o‘quvchini ijodiy izlanishga undovchi topshiriqlar asosida ishlash;

Refleksiv yondashuv – o‘z ijrosini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va bartaraf etish orqali mustaqil o‘rganish;

Modulyar o‘qitish – improvizatsiya va transpozitsiyani bosqichma-bosqich, murakkablik darajasini oshirib borish asosida o‘rgatish.

Shuningdek, xorijiy va milliy musiqa ta’limi tizimlarida improvizatsiya va transpozitsiya o‘rgatilishiga doir tajribalar solishtirilib, ularning konsertmeystar tayyorlashdagi amaliy samarasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Konsertmeystar tayyorlash masalalari musiqa pedagogikasining muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Jumladan, xorijiy va mahalliy adabiyotlarda konsertmeystarlik san’ati — bu faqatgina texnik jihatdan mukammal ijro emas, balki ijodiy tafakkur, kommunikativ ko‘nikmalar, improvizatsion salohiyat va funksional moslashuvchanlikni o‘z ichiga olgan kompleks kompetensiya sifatida talqin etiladi.

Xususan, E. A. Barinova o‘zining “Konsertmeystarning ansambl madaniyati”[1; 128] nomli tadqiqotida konsertmeystar faoliyatining asosiy jihatlarini tafsiliy ochib beradi va ijrochilik jarayonida improvizatsiya elementlarining tabiiyligi haqida fikr bildiradi. Uning fikricha, konsertmeystar uchun improvizatsiya — bu ijodiy vaziyatga moslashish vositasi bo‘lib, vokal va cholg‘u ansambllarda muhim amaliy ahamiyatga ega.

I. V. Alekseeva esa transpozitsiya ko‘nikmalarining musiqiy eshituvni rivojlantirishdagi roli haqida so‘z yuritib, bu jarayonni “intonatsion tafakkurni differensial shakllantirish”[2; 51] deb ataydi. U ta’lim jarayonida tonal o‘zgarishlarga tezkor reaksiya bildiradigan mashqlar tizimini ishlab chiqadi va ularning o‘quvchilar muvofiqlashtiruvchi (koordination) salohiyatiga ijobiy ta’sirini qayd etadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan S. R. Abduvaliyev o‘zining “Musiqa ta’limida improvizatsiyaning metodik asoslari”[3; 117] mavzusidagi maqolasida o‘zbek musiqa ta’lim tizimida improvizatsiya ko‘nikmalariga etarlicha e’tibor berilmayotganini tanqidiy tahlil qiladi. U improvizatsion faoliyatni rivojlantirish uchun integrativ mashg‘ulotlar, ya’ni nazariy bilimlar bilan amaliy topshiriqlar uyg‘unligini ta’minlaydigan metodik modelni taklif qiladi.

Bundan tashqari, A. S. Solovyov tomonidan taklif etilgan "Tonallikni idrok qilish bo‘yicha transpozitsion yondashuv" modeli[4; 176] o‘zining tahliliy-tadqiqiy asoslanganligi bilan e’tiborga molik. Solovyov modelida transpozitsiya nafaqat texnik ko‘nikma sifatida, balki musiqiy tafakkurning yangi bosqichi — intellektual eshituvning shakllanish bosqichi sifatida izohlanadi.

Improvizatsiyani psixologik aspektda tahlil qilgan L. S. Vigotskiyning “Ijod psixologiyasi”[5; 350] asarida esa har qanday ijodiy faoliyat, xususan musiqiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

improvizatsiya, “yaqin rivojlanish zonasi” bilan bog‘liq holda shakllanishi ta’kidlanadi. Bu g‘oya musiqiy pedagogikada improvizatsion ko‘nikmalarni sotsiokognitiv metodlar asosida rivojlantirish zarurligini anglatadi.

O‘zbek musiqiy merosida esa transpozitsiya va improvizatsiyaning amaliy namunalarini maqom ijrochiligi an’analarida ko‘rish mumkin. Jumladan, Shashmaqom tizimida bastakor va ijrochilarning tonalliklararo ko‘chishlari, ijodiy variantlar yaratish qobiliyati xalqona musiqiy tafakkurning amaliy ifodasi bo‘lgan. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, konsertmeystar tayyorlash jarayonida improvizatsiya va transpozitsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha metodik konsepsiyalar mavjud, biroq ularning kompleks integratsiyasi, zamonaviy o‘qitish texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirilgan holda joriy etilishi hozirgi pedagogik jarayonning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Konsertmeystar tayyorlash jarayonida improvizatsiya va transpozitsiya ko‘nikmalarining shakllanishi musiqiy ijrochilik kompetentligining integral komponenti sifatida qaralishi zarur. Mazkur ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quvchilarda nafaqat texnik mahorat, balki musiqiy tafakkur, emotsional ekspressivlik, sahnadagi kommunikativ moslashuvchanlik, hamda ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatini chuqurlashtiradi. Bu jihatlar zamonaviy musiqa ta’limining asosiy tarkibiy tendensiyalaridan biri bo‘lgan kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir.

Konsertmeystar faoliyati tabiatiga xos bo‘lgan adaptiv ijrochilik modeli, musiqiy material bilan erkin ishlash, ifodaviy vositalarni turli kontekstlarda moslashtirish va ansambl doirasida dinamik o‘zgaruvchanlikka tayyorlikni talab qiladi. Improvizatsiya bu erda ijrochining kreativ-intuitiv faoliyatini faollashtiruvchi, u orqali musiqiy fikrni erkin ifodalashga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Shuningdek, improvizatsiya qobiliyati konsertmeystarda intonatsion refleksiya, ya’ni musiqiy bo‘laklarni ichki eshituv orqali ongli qayta ishlab chiqish mexanizmini rivojlantiradi.

Transpozitsiya esa, o‘z navbatida, kognitiv avtomatizm, intonatsion-motorik moslashuv, va funksional eshituv mexanizmlari orqali shakllanadi. Ushbu ko‘nikma konsertmeystarning musiqiy materialga universal yondasha olish salohiyatini ta’minlaydi. Xususan, turli tonalliklardagi vokal partiyalarni, xilma-xil diapazon va registrdagi cholg‘u asboblarini akkompanimentlash jarayonida transpozitsion tafakkur ajralmas ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u ijrochilik jarayonida intonatsion stabillik, funksional harakatchanlik va analitik-garmonik fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, shuni ta’kidlash lozimki, mazkur ikki ko‘nikma – improvizatsiya va transpozitsiya – o‘zaro dialektik bog‘liqlikka ega bo‘lib, ular konsertmeystar tayyorlashning konstruktiv-pedagogik modelida birgalikda o‘rgatilganda eng samarali natijani beradi. Afsuski, amaliyotda ularni alohida yoki ikkinchi darajali masala sifatida o‘rgatish holatlari ko‘p uchraydi, bu esa konsertmeystar tayyorgarligining bir qator sifat ko‘rsatkichlarini pasaytiradi. Shu bois, mazkur ko‘nikmalarni modullashtirilgan o‘qitish tizimi asosida, ya’ni bosqichma-bosqich, integratsion yondashuv orqali shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Shuningdek, musiqiy ta’limda improvizatsiya va transpozitsiyani rivojlantirishda didaktik interaktivlik, problematik vazifalar qo‘yish, reflektiv tahlil asosida mustahkamlash kabi metodlar o‘zini oqlagan. Bu metodlar yordamida o‘quvchi nafaqat ma’lum bir texnik topshiriqni bajaradi, balki musiqiy ong, eshituv va tafakkur orqali ularni anglab, qayta ijod qiladi. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar asosida, konsertmeystar tayyorlov tizimini yangicha metodik konsepsiya asosida qayta ko‘rib chiqish, ta’lim dasturlarini improvizatsion va transpozitsion komponentlar bilan boyitish, o‘qituvchi-trenerlar malakasini oshirish orqali ushbu muammoning kompleks echimiga erishish mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, konsertmeystar tayyorlash jarayonida improvizatsiya va transpozitsiya ko‘nikmalarini shakllantirish musiqa ta’limining zamonaviy talablari bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu ko‘nikmalar konsertmeystarning ijodiy salohiyatini ochib berishda, ijrochilik faoliyatida mustaqillik, moslashuvchanlik va texnik mukammallikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Improvizatsiya — ijodiy fikrlash va sahnadagi tezkor qaror qabul qilishni rivojlantirsa, transpozitsiya — musiqiy materialga erkin yondashish, turli ijrochilik holatlarida funksional eshituvni faollashtirishga xizmat qiladi. Mazkur ko‘nikmalarni o‘quv jarayoniga metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilgan, bosqichma-bosqich va integratsion usullar orqali joriy etish, konsertmeystar tayyorlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, musiqiy pedagogikada improvizatsiya va transpozitsiyani mustaqil yo‘nalish sifatida emas, balki konsertmeystar kasbiy kompetentligining ajralmas qismi sifatida shakllantirish zarur. Bu esa o‘z navbatida, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilish, innovatsion metodik vositalardan samarali foydalanish va o‘qituvchilarning metodik savodxonligini oshirish kabi kompleks yondashuvlarni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Баринова Е. А. Культура ансамблевого музицирования концертмейстера: учебное пособие. — М.: Музыка, 2015. — 128 с.

2. Алексеєва И. В. Методика развития навыков транспонирования у студентов музыкальных вузов // Вестник музыкального образования. — 2012. — № 2. — С. 45–51.

3. Abduvaliev S. R. Musiqa ta’limida improvizatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi // Pedagogik mahorat jurnali. — 2020. — № 4. — B. 112–118.

4. Соловьёв А. С. Тональное восприятие и методика транспонирования: теория и практика. — СПб.: Лань, 2008. — 176 с.

5. Выготский Л. С. Психология искусства. — М.: Искусство, 1965. — 350 с.

6. Rustamova N. M. Transpozitsiya va improvizatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar // O‘zbekistonda pedagogik izlanishlar. — 2022. — № 2(10). — B. 55–60.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sattorov Dilshodjon Akrom o'g'li,** O'zbekiston davlat konservatoriyasi o'qituvchisi, [**Сатторов Дилшоджон Акром ўғли,** и.о. доцент, Государственная консерватория Узбекистана], [**Sattorov Dilshodjon Akrom o'g'li,** Acting docent, Uzbekistan State of Conservatory]; manzil: O'zbekiston, Toshkent sh., Botir Zokirov ko'chasi, 1-uy [адрес: Узбекистан, Ташкентский район, улица Ботыр Закиров, 1 дом], [address: Uzbekistan, Tashkent district, Batir Zakirov street, 1 house].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

O‘ZBEK AYOLLARIMIZNING SAN’ATIMIZ RIVOJIGA QO‘SHGAN O‘RNI

© D.A. Djamalova[1]✉
[1]O’zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: o‘zbek san’ati tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda porlagan yulduzlar qatorida o‘z iste’dodi, fidoyiligi va millatga sadoqat bilan xizmat qilgan buyuk ayollarimizning o‘rni alohida e’tiborga loyiqligini ko‘ramiz. Ushbu maqolada ham O‘zbek san’atining zabardast ayol namoyandalari balerina va baletmeyster Galiya Izmaylova, birinchi o‘zbek ayol dirijyori Dilbar Abdurahmonova, milliy raqs san’atimizning asoschisi, dunyo tan olgan raqqosa Mukarrama Turg‘unboyeva, san’at ta’limi va ma’rifat sohasini rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan ustoz, pianistka, mohir pedagog Ofeliya Yunusovalarning ilmiy-ijodiy merosi, pedagogik faoliyati, musiqiy estetik qarashlari va o‘zbek milliy san’atidagi o‘rni haqida mulohaza yuritamiz. Chunki, bunday san’atimizning darg‘alari nafaqat bir ijodkor, balki butun bir musiqiy maktab, bir davrning badiiy ifodachisi sifatida O‘zbekiston madaniy hayotida o‘chmas iz qoldirgan siymolardir.

MAQSAD: ushbu maqolada o‘zbek ayollarining san’at sohasidagi faoliyati, ularning milliy madaniyat va san’atimiz rivojiga qo‘shgan bebaho hissasi, shuningdek, bugungi kunda san’atda tutgan o‘rni va ahamiyatini yoritish maqsad qilingan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot olib borilayotgan fan va texnologiyalarni talabalarda qay darajada o‘zlashtira olish va ularni bu fanni o‘zlashtirishdagi qulayliklar va qiyinchiliklarni o‘rganishdan keyingi ta’sir qilishini tahlil qilish uchun 5 ta ilmiy maqoladan iborat korpus yaratildi. Yig‘ilgan maqolalar 2020-2025 yillar oralig‘ida xalqaro va milliy akademik jurnallarda chop etilgan. Bu maqolalar tahlil qilindi va qiyosiy tahlil olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o‘zbek ayollari san’atning turli yo‘nalishlarida — musiqa, teatr, kino, raqs va amaliy san’atda faol ishtirok etib kelmoqda. Ular milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yangi avlodni estetik tarbiyalash va madaniy merosni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Ayol san’atkorlar nafaqat ijodkor sifatida, balki ustoz va tashkilotchi sifatida ham o‘z o‘rnini mustahkamlamoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zbek ayollarining san’at sohasiga qo‘shgan hissasi san’atimiz ravnaqida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning mehnati nafaqat respublika, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda. Shu bois, ayollar ijodiga ko‘proq e’tibor qaratish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biridir.

XULOSA: o‘zbek ayollarining san’at sohasidagi o‘rni va faoliyati yillar davomida madaniyatimiz taraqqiyotida muhim omillardan biri bo‘lib kelmoqda. Ular o‘zining betakror

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ijodi, mahorati va fidoyiligi bilan nafaqat milliy qadriyatlarni saqlab qolishga, balki ularni zamonaviy san'at bilan uyg'unlashtirishga erishmoqda. Musiqa, teatr, kino, raqs va boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan ayollarimiz yosh avlod uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ayollar uchun yaratilgan imkoniyatlar ularning san'atdagi faolligini yanada oshirdi.

Bugungi kunda ayol san'atkorlarning ijtimoiy hayotdagi mavqei, ijodiy izlanishlari va erishgan yutuqlari ularning jamiyatda tutgan o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bois, san'at sohasida faoliyat yuritayotgan ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatini qadrlash va rag'batlantirish, yangi iste'dodli qizlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbek ayollari san'atimizning buguni va ertasi uchun mustahkam zamin yaratishda davom etmoqda.

Kalit so'zlar: o'zbek ayollari, san'at, madaniyat, ijod, milliy qadriyatlar, musiqa, teatr, kino, raqs, san'atkor ayollar, estetik tarbiya, madaniy meros, ijodiy faoliyat, zamonaviy san'at, yosh avlod tarbiyasi.

Iqtibos uchun: Djamalova D.A. O'zbek ayollarimizning san'atimiz rivojiga qo'shgan o'rni. // Inter education & global study. 2025, №6. B.456–467.

ВКЛАД ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА В РАЗВИТИЕ НАШЕГО ИСКУССТВА

© Д.А. Джамалова[1]✉
[1]Государственной консерватории Узбекистана,Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: оглядываясь на историю узбекского искусства, мы видим, что среди ярких звезд особое внимание заслуживает место наших великих женщин, служивших своей нацией своим талантом, самоотверженностью и преданностью. В этой статье мы поразмышляем о научном и творческом наследии, педагогической деятельности, музыкально-эстетических взглядах и месте в узбекском национальном искусстве выдающихся представительниц узбекского искусства: балерины и хореографа Галии Измайловой, первой узбекской женщины-дирижера Дильбар Абдурахмановой, основоположницы нашего национального танцевального искусства, всемирно известной танцовщицы Мукаррамы Тургунбаевой, педагога, пианистки, искусного педагога Офелии Юнусовой, внесшей вклад в развитие сферы художественного образования и просвещения. Ведь такие мастера нашего искусства — это не просто отдельные художники, но и деятели, оставившие неизгладимый след в культурной жизни Узбекистана как художественные представители целой музыкальной школы и эпохи.

ЦЕЛЬ: цель данной статьи – осветить деятельность узбекских женщин в сфере искусства, их неоценимый вклад в развитие нашей национальной культуры и искусства, а также их роль и значение в искусстве сегодня.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: с целью анализа того, в какой степени студенты могут освоить изучаемую науку и технику, а также влияние легкости и сложности

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

освоения этой науки после обучения, создан корпус из 5 научных статей.Сборник статей 2020-2023 гг., опубликованный в международных и национальных изданиях. академические журналы между годами. Эти статьи были проанализированы и получен сравнительный анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: женщины Узбекистана активно участвуют в различных направлениях искусства - музыке, театре, кино, танцах и прикладном искусстве. Они играют важную роль в сохранении национальных ценностей, эстетическом воспитании нового поколения и пропаганде культурного наследия. Женщины-художницы укрепляют свои позиции не только как творцы, но и как педагоги и организаторы.

Исследования показывают, что вклад женщин Узбекистана в сферу искусства служит важным фактором развития нашего искусства. Их труд признан не только на республиканском, но и на международном уровне. Поэтому уделять больше внимания женскому творчеству и оказывать им всестороннюю поддержку является одной из актуальных задач.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: роль и деятельность узбекских женщин в сфере искусства на протяжении многих лет являются одним из важных факторов развития нашей культуры. Благодаря своему уникальному творчеству, мастерству и самоотверженности им удается не только сохранять национальные ценности, но и сочетать их с современным искусством. Наши женщины, работающие в музыке, театре, кино, танцах и других областях, служат образцом для молодого поколения. Особенно в годы независимости созданные для женщин возможности еще больше повысили их активность в искусстве. Сегодня положение женщин-художниц в общественной жизни, их творческие поиски и достижения еще раз подтверждают их место в обществе. Поэтому очень важно всемерно поддерживать женщин, работающих в сфере искусства, ценить и поощрять их труд, уделять особое внимание воспитанию новых талантливых девушек. Узбекские женщины продолжают создавать прочную основу для настоящего и будущего нашего искусства.

Ключевые слова: узбекские женщины, искусство, культура, творчество, национальные ценности, музыка, театр, кино, танец, женщины-художницы, эстетическое воспитание, культурное наследие, творческая деятельность, современное искусство, воспитание подрастающего поколения.

Для цитирования: Джамалова Д.А. Вклад женщин узбекистана в развитие нашего искусства. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 456–467.

THE CONTRIBUTION OF OUR UZBEKISTAN WOMEN TO THE DEVELOPMENT OF OUR ART

© Dildora A. Djamalova [1]✉
[1]State Conservatory of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

INTRODUCTION: looking back at the history of Uzbek art, we see that, among the shining stars, the place of our great women who served the nation with their talent, dedication, and loyalty deserves special attention. In this article, we will reflect on the scientific and creative heritage, pedagogical activity, musical aesthetic views, and place in Uzbek national art of outstanding female representatives of Uzbek art: ballerina and choreographer Galiya Izmailova, the first Uzbek female conductor Dilbar Abdurakhmanova, the founder of our national dance art, world-renowned dancer Mukarrama Turgunboyeva, and teacher, pianist, and skilled teacher Ofelia Yunusova, who contributed to the development of the field of art education and enlightenment. Because such masters of our art are not just individual artists, but also figures who left an indelible mark on the cultural life of Uzbekistan as artistic representatives of an entire musical school and era.

AIM: this article aims to highlight the activities of Uzbek women in the field of art, their invaluable contribution to the development of our national culture and art, as well as their role and significance in art today.

MATERIALS AND METHODS: in order to analyze the extent to which students can master the science and technology they are studying, as well as the influence of the ease and complexity of mastering this science after training, a corpus of 5 scientific articles was created. A collection of articles 2020-2023, published in international and national publications. academic journals between years. These articles were analyzed and a comparative analysis was obtained.

DISCUSSION AND RESULTS: Uzbek women are actively involved in various areas of art - music, theater, cinema, dance and applied arts. They play an important role in preserving national values, aesthetic education of the new generation and promotion of cultural heritage. Female artists are strengthening their position not only as creators, but also as teachers and organizers.

Research shows that the contribution of Uzbek women to the field of art serves as an important factor in the development of our art. Their work is recognized not only at the republican, but also at the international level. Therefore, paying more attention to women's creativity and providing them with comprehensive support is one of the urgent tasks.

CONCLUSION: the role and activities of Uzbek women in the field of art have been one of the important factors in the development of our culture for many years. With their unique creativity, skill and dedication, they manage not only to preserve national values, but also to combine them with modern art. Our women working in music, theater, cinema, dance and other areas serve as a model for the younger generation. Especially during the years of independence, the opportunities created for women have further increased their activity in art. Today, the position of women artists in social life, their creative research and achievements once again confirm their place in society. Therefore, it is of great importance to fully support women working in the field of art, appreciate and encourage their work, and

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

pay special attention to educating new talented girls. Uzbek women continue to create a solid foundation for the present and future of our art.

Key words: Uzbek women, art, culture, creativity, national values, music, theater, cinema, dance, women artists, aesthetic education, cultural heritage, creative activity, contemporary art, education of the younger generation.

For citation: Dildora A. Djamalova. (2025) 'The contribution of our uzbekistan women to the development of our art', Inter education & global study, (6), pp. 456–467. (In Uzbek).

San'at – bu insoniyat qalbining eng nozik tuyg'ularini, jamiyatning madaniy ko'zgusini aks ettiruvchi ilohiy kuchdir. Har bir xalqning ruhiy dunyosi, qadriyatlari, orzu-armonlari, avvalo san'at orqali namoyon bo'ladi. O'zbek san'ati ham ko'p asrlik tarixga, teran ma'naviy ildizlarga ega bo'lgan bebaho meros hisoblanadi. Ushbu merosni asrab-avaylash, boyitish va yangi bosqichga olib chiqishda, ayniqsa, ayollarning o'rni beqiyosdir. O'zbek ayollari nafaqat jamiyatning tayanchi va ma'naviyatimizning asrori sifatida, balki san'at olamining eng go'zal, chuqur va ilhomlantiruvchi qahramonlari sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirganlar.

San'atning turli jabhalarida porlagan, o'z fidoyiligi, iqtidori va izlanuvchanliklari bilan yuksak cho'qqilarni egallagan o'zbek ayollarining siymosi bugun ham biz uchun ilhom manbaidir. Jumladan, o'zbek balet san'atining ilk porloq yulduzlaridan biri – balerina va baletmeyster Galiya Izmaylova, sahnada harakat orqali so'zlagan, raqsni ruhiy kechinmalarning teran ifodasiga aylantirgan ijodkor sifatida san'at tarixida o'chmas iz qoldirdi [1]. U o'zining har bir sahnadagi chiqishi orqali o'zbek raqs madaniyatini dunyo miqyosida tanitgan, yosh avlod uchun esa mahorat maktabiga aylangan buyuk siymodir. Galiya Izmaylova o'zbek baleti, mumtoz raqs san'ati va xoreografiyasining shakllanishida, rivoj topishida, jahon sahnasiga chiqishida muhim rol o'ynagan, o'z davrining san'at korifeylaridan biri, sahnadagi nafis harakatlar orqali butun bir millatning estetik didini, ichki dunyosini, urf-odatlarini, orzu va armonlarini ifodalagan noyob iste'dod egasi edi.



Galiya Izmaylova 1923-yil 12-dekabrda Rossiyaning Tomsk shahrida tug'ilgan bo'lsa-da, uning butun hayoti va ijodi O'zbekiston bilan chambarchas bog'langan. U o'zining ilk san'at saboqlarini Toshkent balet maktabida olib, 1941-yilda ushbu muassasani tugatgan. Keyinchalik esa Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutida tahsil olib, nazariy bilimlarini boyitgan. Ana shu yillardan boshlab uning sahnadagi yulduzli yo'li boshlangan. 1941-yildan boshlab Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

teatrida yetakchi balet yakkaxoni sifatida faoliyat yuritib, balet san'atining eng murakkab va mahorat talab qiluvchi rollarini mahorat bilan ijro etgan. Keyinchalik u bosh baletmeyster, so'ngra baletmeyster sifatida bu sahnaning nafaqat ijrochisi, balki sahnalashtiruvchisi, ilhomchisi va murabbiyiga aylandi.

U sahnada yaratgan Semurg', Mariya, Zarema, Tao Xoa, Odetta-Odiliya, Guloyim, Layli, Karmen, Chundari, Egina kabi rollar nafaqat texnik mukammalligi, balki badiiy chuqurligi, ruhiy ifodaning teranligi bilan ajralib turardi. Ayniqsa, "Oqqush ko'li", "Layli va Majnun", "Spartak", "Don Kixot", "Karmensyuita" kabi asarlardagi obrazlari orqali u san'atning nozik jihatlarini tomoshabinga yetkazishda mohirlik ko'rsatgan [2]. Uning ijodida Yevropa balet maktabi bilan an'anaviy o'zbek raqsi harakatlarining uyg'unlashuvi, bir-birini to'ldirishi, raqsda yangi estetik fazilatlarning yuzaga chiqishi kuzatiladi. Bu jihatlar esa uni nafaqat ijrochi, balki o'ziga xos uslubga ega bo'lgan baletmeyster sifatida e'tirof ettirdi.

Galiya Izmaylova o'z faoliyatida faqatgina mavjud asarlarni ijro etish bilan cheklanmay, balki yangi sahnaviy ko'rinishlar, xoreografik asarlar yaratishga katta e'tibor qaratgan. "Oqqush ko'li", "Navro'z", "Shahrizoda", "Sevgi tumori", "Kashmir afsonasi", "Umar Xayyom", "Al-Farg'oniy", "Esmeralda", "Orzu" kabi ko'plab balet va opera asarlarining raqs sahnalarini sahnalashtirib, milliy va zamonaviy san'atning uyg'unlashuviga xizmat qilgan. Ayniqsa, u yaratgan xoreografik miniatyuralar – "So'g'diyona", "Hind", "Arab", "Farg'ona" kabi raqslar o'zbek sahna san'atiga yangi joziba baxsh etdi.

U san'atni faqat ijro maydoni deb emas, balki tadqiqot, o'rganish, ilgari surish va xalqaro miqyosda targ'ib qilish vositasi sifatida ham qabul qilgan. Farg'ona, Buxoro, Xorazm xalq raqslarini chuqur o'rgangan, ularni sahna estetikasi bilan uyg'unlashtirgan holda zamonaviy mumtoz raqs maktabining shakllanishiga xizmat qilgan. Uning ijodida hind, indonez, misr, suriyaliklar, meksikaliklar, kubaliklar, argentinaliklarning milliy raqslarini sahnaga olib chiqishi xalqaro xoreografik san'atga bo'lgan chuqur e'tiborining isboti edi. U tuzgan "Jahon xalqlari raqslari" konsert dasturi orqali san'at xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlovchi, madaniy diplomatiya vositasiga aylangan edi.

Galiya Izmaylova umri davomida san'atga, milliy madaniyatga fidoyilik bilan xizmat qildi. Uning hayoti "Umrga teng raqs" nomli film orqali ham e'tirof etilgan bo'lib, bu nom bejiz emas. U butun umrini harakat, ohang, joziba, badiiyat bilan yo'g'rilgan balet san'atiga bag'ishlagan. Uning mehnati munosib ravishda O'zbekiston xalq artisti unvoni (1951), Hamza nomidagi Davlat mukofoti (1970), "Shuhrat" medali (1997) va "Do'stlik" ordeni (1998) kabi yuksak mukofotlar bilan e'tirof etilgan [3]. Bugun biz Galiya Izmaylova siymosida nafaqat iste'dodli balerina va baletmeyster, balki o'zbek sahna san'atining daho namoyandasini, milliy va xalqaro san'atni uyg'unlashtirgan fidoyi ijodkorni, ayol san'atkor sifatida o'zbek ayollarining san'atdagi bebaho o'rnini yorqin ifodalagan tarixiy shaxsni ko'ramiz. U nafaqat san'atda, balki butun jamiyat hayotida ayol obrazini kuchli, ilhomli va yetakchi timsoli sifatida qalblarda abadiy yashatib kelmoqda.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

O‘zbek musiqiy madaniyatining boshqa bir zabardast namoyandasi birinchi o‘zbek ayol dirijyori Dilbar Abdurahmonova esa nafaqat o‘zbek ayollari, balki umuman Markaziy Osiyo madaniyati tarixida mutlaqo yangicha sahifani ochdi. Uning kuchli irodasi, yuksak musiqiy bilimi va badiiy qarashlari tufayli o‘zbek simfonik san’ati rivojida tub burilishlar yuz berdi.

Dilbar Abdurahmonova 1936-yil 1-may kuni Moskvada, taniqli davlat arbobi va ma’rifatparvar olim G‘ulom Abdurahmonov oilasida tug‘ildi. U bolalikdanoq san’atga oshno bo‘lib ulg‘aydi. R.Glier nomidagi musiqa maktabida puxta bilim olib, musiqaning nozik sir-asrorlariga chuqur kirib bordi [4]. So‘ngra o‘zining iqtidorini Toshkent Davlat konservatoriyasida yanada kamol toptirib, bu maskanda ilmiy-nazariy bilim bilan amaliy tajriba uyg‘unligiga erishdi. Bu yillar uning musiqaga, ayniqsa orkestr ijrosiga bo‘lgan chuqur mehri va bag‘rikengligini mustahkamladi. U musiqani faqat san’at emas, balki bir butun ruhiy olam deb anglab, unga sidqidildan xizmat qilishga bel bog‘ladi.



1957-yildan boshlab u o‘z mehnat faoliyatini Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat akademik katta teatrida oddiy skripkachi sifatida boshlagan bo‘lsa-da, bu izchil mehnat va o‘z ustida tinimsiz ishlash uni ko‘p o‘tmay orkestr oldida turgan dirijyor kursisiga olib chiqdi. 1960-yilda rasmiy ravishda dirijyor sifatida ish boshlagan va 1974-yildan 1990-yilgacha bosh dirijyor lavozimida ishlagan. Bu yillar davomida u O‘zbekistondagi eng yirik sahna asarlarini, dunyo mumtoz musiqasi durdonalarini muvaffaqiyatli ijro ettirib, tomoshabin va mutaxassislar e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Ayniqsa, ayol kishi uchun tarixan og‘ir va erkaklarga xos deb qaralgan san’at sohasi, yani, dirijyorlikni tanlagan Dilbar Abdurahmonova o‘zining jasorati, kuchli irodasi, musiqiy tafakkuri va ijodiy jamoani boshqarishdagi betakror iste’dodi bilan o‘zbek ayoli uchun yangi yo‘l ochdi.

Uning ijodiy faoliyatida ko‘plab yirik asarlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, ilk bor Juzeppe Verdining “Aida” operasiga dirijyorlik qilganida, u yosh bo‘lishiga qaramay, butun orkestr va sahna ijrochilarini o‘z energiyasi bilan ilhomlantirgan edi. Keyinchalik u P.Chaykovskiyning “Oqqush ko‘li”, B.Asafyevning “Boqchasaroy favvorasi”, A.Adanning “Jizel”, A.Xachaturyanning “Spartak”, M.Ashrafiyning “Sevgi tumori” va B.Brovsinning “Semurg‘” baletlarini, shuningdek, A.Kozlovskiyning “Tanavor” asarini badiiy jihatdan chuqur, ruhiy teranlik bilan dirijyorlik qildi. Uning dirijyorligida bu asarlar yangi hayot kasb etar, ohanglar orqali dramatik tasvirlar, kuchli kechinmalar, yuksak badiiy ifodalar paydo bo‘lardi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Dilbar Abdurahmonova nafaqat mavjud asarlarni talqin qilish, balki ularga yangicha yondashuv, o‘zbekona badiiy ruhi kiritish bilan ajralib turdi. Ayniqsa, 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarda sahnaga qo‘yilgan “Masharabozlar”, “Bo‘ron”, “Hayotbaxsh o‘lim”, “Olovli farishta”, “Otello” kabi asarlarni to‘liq tahrirda, ya’ni dramaturgik yaxlitlik, musiqa va sahna uyg‘unligiga rioya qilgan holda dirijyorlik qilgani bilan ajralib turadi. Bu esa uni nafaqat ijrochi, balki ijodiy talqinchi, asar ruhi va badiiy mazmunini chuqur anglaydigan mutaxassis sifatida namoyon etdi.

Dilbar Abdurahmonova o‘z faoliyati davomida nafaqat ijodkor sifatida, balki ustoz, murabbiy, yosh kadrlarga yo‘l ko‘rsatgan mehribon inson sifatida ham yodda qolgan. U o‘zbek musiqa madaniyatida ayollarning yuksalishi, faol ishtiroki uchun zamin yaratgan birinchi fidoyi siymolardan biridir. Aynan uning sobit irodasi, san’atga bo‘lgan muhabbati, tashkilotchilik qobiliyati tufayli O‘zbekistonda ayol dirijyorlarga nisbatan yangicha qarash paydo bo‘ldi. U o‘zbek ayolining faqatgina sahna bezagi emas, balki murakkab ijodiy jarayonning boshqaruvchisiga aylanishi mumkinligini amalda isbotlab berdi. 1969-yilda O‘zbekiston xalq artisti unvoni bilan taqdirlangan bo‘lsa, 1973-yilda u Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi [5]. Bu mukofotlar uning san’atga qo‘shgan bebaho hissasining e’tirofi edi. Hayoti davomida u O‘zbekistonning barcha hududlarida, shuningdek, xorijiy davlatlarda gastrolda bo‘lib, o‘zbek musiqa san’atining nufuzini ko‘tarish, milliy madaniyatimizni xalqaro miqyosda tanitishga ulkan hissa qo‘shdi.

Bugun biz Dilbar Abdurahmonovani nafaqat ilk ayol dirijyor sifatida, balki butun bir avlod san’atkorlari uchun ilhom manbai, ustoz, badiiy tafakkurning timsoli, irodali ayol va milliy g‘ururimiz sifatida yodga olamiz. U o‘z hayoti, mehnati, fidoyiligi bilan shunchaki musiqaga emas, balki millat qalbiga yo‘l topgan. U yaratgan sahna asarlari, ijrosi ostidagi simfonik namoyishlar faqat musiqa emas, bu ayol jasorati, san’atga sadoqat va mamlakat rivoji uchun qilingan xizmatlarining ifodasidir.

Xalqimiz qalbidan o‘chmas joy olgan, san’atimizning buyuk darg‘asi, milliy raqs san’atining asoschilaridan biri raqs ustasi Mukarrama Turg‘unboyevadir. Mukarrama Turg‘unboyeva o‘z ijodiy faoliyati davomida o‘zbek xalq raqslari ansamblini tashkil etish, raqsga ilmiy asos kiritish, ularni sahnaviy san’at darajasiga olib chiqishda bebaho xizmat ko‘rsatgan. U kishining har bir sahnadagi chiqishi, har bir raqsi o‘zbek ayolining sha’nini, iftixorini, hayotga muhabbatini, kuchini, go‘zalligini ifodalagan.

Mukarrama Turg‘unboyeva 1950-yillar boshlariga kelib O‘zbekistonning eng mashhur raqqosasi, san’at fidoyisi va yetakchi baletmeysteri sifatida tanilgan. U raqsning mohiyatini faqat go‘zallik va nafislik darajasida emas, balki sahna tilida gapiradigan, mazmunli, ramziy va ijtimoiy ahamiyatga ega badiiy ifoda sifatida qaragan san’atkor edi . Turg‘unboyeva xalq an’analaridan ilhom olib, har bir harakatga ma’no va falsafa bag‘ishlashga intildi. Uning har bir raqsi sahnadagi go‘zallik va hayotiy haqiqatning badiiy sintezidir. Yakka raqslar ijrochiligi borasida u mislsiz mahorat egasi bo‘lib, o‘zbek an’anaviy raqslarini modern sahna estetikasi bilan boyitgan ijodkordir. Turg‘unboyeva faqatgina ijrochi emas, balki yangi raqslarning yaratuvchisi, badiiy rahbar, pedagog va milliy madaniyat targ‘ibotchisi sifatida yuksak e’tiborga loyiqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3



Mukarrama Turg‘unboyeva o‘z ijodida nafaqat o‘zbek raqs merosiga tayangan, balki boshqa xalqlarning raqs an’analarini o‘rganib, ularni milliylik ruhida qayta talqin qilgan. Uyg‘ur, tojik, hind, afg‘on, mo‘g‘ul, koreys xalqlarining raqslariga asoslanib yaratilgan sahna asarlari orqali xalqaro miqyosda madaniy ko‘priklar o‘rnata olgan va turli xalqlar bilan o‘zaro madaniy muloqotga sababchi bo‘lgan. Ayniqsa, Xitoy, Koreya, Albaniya, Italiya, Avstriya, Afg‘oniston, Hindiston, Tailand kabi davlatlarda bo‘lib o‘tgan gastrollar chog‘ida u o‘zbek raqs san’atining yuksak namunalarini namoyon etib, xorij tomoshabinlari qalbida chuqur taassurot qoldirgan. Mukarrama Turg‘unboyeva ijrosidagi “Tanavor”, “Jonon”, “Andijon polkasi” kabi raqslar nafaqat badiiy asar, balki milliy o‘zligini yuksak darajada ifoda etuvchi ma’naviy hodisa sifatida qadrlangan.

Mukarrama Turg‘unboyevaning milliy raqs san’ati rivojiga qo‘shgan eng ulkan hissalaridan biri 1955-yilda tashkil etilgan raqqosa qizlar guruhi asosida 1957-yilda tashkil etilgan “Bahor” raqs ansamblidir. Bu ansambl o‘z nomi bilan har doim yangilanish, go‘zallik, nafislik, quvonch va hayotbaxshlik timsoli bo‘lib kelgan. Turg‘unboyeva ansamblning badiiy rahbari, bosh baletmeysteri sifatida ko‘plab konsert dasturlarini yaratdi. “Bahor”, “Munojot”, “Qo‘g‘irchoq”, “Yetti go‘zal”, “Gulnoz”, “O‘zbekiston valsi”, “Sho‘x qiz”, “Farg‘ona ruboiyati”, “Katta o‘yin”, “Dilbar”, “Lazgi”, “Toshkent piyolasi” kabi o‘nlab raqslar sahnada yuksak badiiy mahorat bilan ifodalandi [7]. Har bir raqsda xalqona ohang, harakatdagi musiqiylik, liboslar uyg‘unligi, ritm va tuyg‘ular dinamikasi Turg‘unboyevaning yuksak estetik qarashlari bilan uyg‘unlashib, tomoshabinda nafaqat zavq, balki ijtimoiy-ma’naviy o‘y ham uyg‘otdi.

1957-yilgi “Jahon yoshlari va talabalar festivali”da “Bahor” ansamblining oltin medalga sazovor bo‘lishi nafaqat san’at yutug‘i, balki o‘zbek ayolining, qolaversa, o‘zbek raqsining xalqaro maydondagi g‘alabasi edi. Turg‘unboyeva san’atni hech qachon bir maromda qoldirmasdan, uni yangilab, takomillashtirib, zamon ruhiga moslashtirib bordi. 1960-yildan boshlab “Bahor” ansambliga davlat maqomi berilishi esa Mukarrama Turg‘unboyevaning fidoyiligi, ijodiy izlanuvlari va rahbarlik salohiyatining amaliy ifodasi bo‘ldi. U umrining oxirigacha ansamblning ijodiy yetakchisi sifatida san’atkorlar mahoratini oshirish, yangi raqs dasturlarini yaratish, yosh iste’dodlarni kashf qilish, milliy raqs merosini o‘rganish va jahon raqs san’ati bilan uyg‘unlashtirish ishlarini davom ettirib keldi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Uning xizmatlari tufayli “Bahor” ansambli nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyoga tanilgan, milliy iftixorga aylangan sahna jamoasiga aylandi. U Germaniya, Shvetsiya, Chexoslovakiya, Polsha, Misr kabi mamlakatlarda o‘zbek raqsining go‘zalligini namoyon qilib, milliy madaniyatimizni xalqaro miqyosda tanitishda muhim rol o‘ynadi. Shu tariqa Mukarrama Turg‘unboyeva o‘zbek ayolining kuch-g‘ayrati, ijodkorligi, yuksak estetik didi va fidoyiligi timsoliga aylandi. Mukarrama Turg‘unboyeva nomi o‘zbek raqs san’atining tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qoldi.

San’at ta’limi va ma’rifat sohasida o‘z izini qoldirgan yana bir ulug‘ ayol, pianistka, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining birinchi rektori, hozirgi kunda ham milliy san’atimiz uchun iqtidorli, jonkuyar va intelektual salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashdan charmaydigan mohir pedagog Ofeliya Yusupovadir. Ofeliya Yusupova nafaqat musiqiy ijrochilikda, balki san’atshunoslik, pedagogika va boshqaruvda ham yuksak salohiyat egasi bo‘lib, yosh musiqachilarning avlodini tarbiyalagan, ilmiy va amaliy faoliyati bilan yurtimiz madaniy hayotiga katta hissa qo‘shgan.

Ofeliya Yusupova ijrochilik faoliyati davomida yevropa klassiklarining – Bax, Motsart, Betxoven, Shopen, Grig, Raxmaninov, Prokofyev kabi musiqachilarning asarlarini yuksak professionallik bilan talqin qilib, ularni o‘zbek tomoshabiniga chuqur hissiy boylik, intellektual mushohada va estetik tafakkur bilan taqdim etdi. Shu bilan birga, u O‘zbekiston kompozitorlarining asarlarini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratdi. G. Mushel, S. Yudakov, X. Izomov, F. Yanov-Yanovskiy, H. Azimov, N. Zokirov, A. Nabiyev kabi bastakorlarning fortepiano musiqalarini targ‘ib etibgina qolmay, ko‘plab konsert dasturlarida birinchi ijrochilik darajasida ularni keng ommaga tanitdi. Bu esa uning milliy san’atni o‘zaro madaniyatlararo muloqotga olib chiqishdagi beqiyos hissasini anglatadi.

Uning pedagogik faoliyati ham diqqatga sazovordir. 1962-yildan boshlab Toshkent davlat konservatoriyasida ishlagan, 1973-yildan esa kafedra mudiri sifatida faoliyat yuritgan. 1987-1997-yillar davomida u ushbu dargoh rektori lavozimida ishlagan va bu davrda musiqiy ta’limda yangi yondashuvlar, metodik yutuqlar, milliy musiqa merosini chuqur o‘rganishga asoslangan tizimlar joriy etilgan. Ayniqsa, 1974-yildan boshlab O‘zbekiston kompozitorlari fortepiano musiqasi festivalining tashabbuskori va tashkilotchisi sifatida yuzlab yosh kompozitor va ijrochilarning iste’dodini yuzaga chiqarishga hissa qo‘shgan [8].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ofeliya Yusupovaning ijodiy va pedagogik mehnatlari nafaqat san'atshunoslar va musiqa ixlosmandlari tomonidan e'tirof etilgan, davlatimiz tomonidan yuksak baholangan. U O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining san'at arbobi unvonlariga sazovor bo'lgan (1994), professorlik darajasiga (1987) erishgan, fortepiano san'atining rivoji yo'lida butun umrini bag'ishlagan.



Shuningdek, u yurtimizning mashhur sozandalari P. Xoliqov, R. Hamroyev, R. Abdullayev, M. Tojiyev kabi ustozlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan fortepiano konsertlarining birinchi ijrochisi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan. Uning ijrolari ikki gramplastinkaga va O'zbekiston radiosining fonotekasiga yozib olingani esa uning ijodining abadiylashgan, avlodlarga manba bo'lib qolgan qimmatli dalilidir.

Mana shunday zabardast, fidoyi, iqtidorli va millatga sidqidildan xizmat qilgan ayollar timsolida biz o'zbek ayolining san'atimiz ravnaqidagi bebaho o'rnini ko'ramiz. Ular o'z sahnadagi har bir raqsi, har bir kuy va sahna asari orqali xalqning qalbini titratgan, uning kechinmalari va orzularini badiiy ifodada namoyon etgan. Ustozlarning ijodi – bugungi kunda nafaqat badiiy san'at namunasi, balki tarixiy xotira, estetik tarbiya va milliy o'zlikni anglash maktabidir. Ularning hayoti va faoliyati yosh ijodkorlar uchun ibrat maktabi, badiiy tafakkur uchun esa bebaho manba bo'lib qolmoqda. Shunday buyuk siymolar orqali biz nafaqat san'at tarixini o'rganamiz, balki o'zligimizni, milliy qadriyatlarimizni, ayol sha'ni va matonatini yana bir bor chuqur anglaymiz. Ular nafaqat o'z davrining iqtidorli san'atkorlari bo'lishgan, balki kelajak avlod uchun ilhom, namunaviy timsol va tarixiy merosni asrab-avaylovchi buyuk zotlarga aylanganlar. Bugun ularning nomlari nafaqat sahnalar, balki qalblarda, tarixda, milliy g'ururimizda barhayotdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Yeshimbetova Aydin. Artictic journey and gallery of images Galiya Izmailova, Uzbekistan's first ballerina. "O'zbekiston va jahon xalqlarining madaniy hamkorlik

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent. Miron-art-design nashriyoti. 2025-yil. 132-141-betlar.

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Galiya_Izmaylova.
4. Зухуров, Махмуд Максетович. "Dirijorlik san'atining turlari va evolyusiyasi." Интернаука 3-3 (2021): 37-39.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dilbar_Abdurahmonova.
6. Madina Muxamedova. "Mukarrama Turg'unboyeva ijodiy merosining o'ziga xosligi." Oriental Art and Culture 5.1 (2024): 158-162.
7. Azimjon Xojimamatov, and Mohinur Muhammadjonova. "O'zbek milliy raqs san'ati qirolichasi – Mukarrama Turg'unboyeva." Gospodarka i Innowacje. 34 (2023): 480-484.
Thus, social networks are not only tools of communication but also powerful influencers of social identity, which in some cases may lead to psychological challenges. Therefore, it is essential to improve digital literacy, cultivate responsible social media usage, and prioritize mental health among youth.

Parents, educators, and relevant institutions must actively participate in this process, working to protect young users from harmful online content and fostering a healthy communication environment.

Furthermore, ensuring youth safety in the digital space and promoting the constructive use of social networks should be considered key priorities in national policy.

Key words: social media, youth, social relationships, psychological impact, mental health, cyberbullying, social comparison, social isolation, online communication, self-expression.

For citation: Bakhtiyor F. Rayimkulov**.** (2025) 'Psychological impacts of social networks on youth's social interactions: positive and negative aspects', Inter education & global study, (6), pp. 515–523.. (In Uzbek).

Ma'lumki, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatning eng kuchli axborot va muloqot vositalaridan biri sifatida, yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi global fenomen darajasiga ko'tarilgan. Ularning tarixiy ildizlari 1990-yillarda Internetning ommalashuvi bilan boshlangan bo'lsa-da, XXI asrning boshlaridan boshlab ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda ular faqat axborot almashinuvi emas, balki yoshlar ongining shakllanishi, ijtimoiy rol va identifikatsiyaning yuzaga chiqishi, shuningdek, psixologik muvozanatga ta'sir etuvchi omil sifatida qaralmoqda.

Nazariy jihatdan olib qaralganda, Bandura (ijtimoiy o'rganish nazariyasi), Vigotskiy (ijtimoiy rivojlanish nazariyasi) va Goffman (sahnalashtirish nazariyasi) kabi olimlarning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qarashlari asosida ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri yanada chuqur anglash mumkin. Yoshlar bu platformalarda o'z shaxsini namoyon etish, boshqalarni kuzatish orqali ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishda faol ishtirok etadilar. Biroq, bu jarayon ijobiy va salbiy psixologik oqibatlarni bir vaqtda yuzaga keltiradi: bir tomondan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ta'limiy imkoniyatlar orqali rivojlanish, boshqa tomondan — kiberhujum, solishtirish sindromi va yolg'izlik tuyg'usi orqali ruhiy salomatlikka tahdid.

Globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlar butun dunyo yoshlarini yagona raqamli makonda birlashtirgan bo'lsa-da, bu jarayon turli madaniyatlar, qadriyatlar va psixologik mexanizmlarning to'qnashuviga olib kelmoqda. Har bir foydalanuvchi ushbu global axborot oqimida yo'l topishi, o'zini anglashi va ijtimoiy mas'uliyatli subyekt sifatida shakllanishi uchun raqamli savodxonlik, axloqiy immunitet va psixologik barqarorlik talab etiladi.

Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning rivojida kuchli transformatsion omil sifatida qaralishi kerak. Ularning ta'sirini samarali boshqarish uchun davlat siyosati, ta'lim tizimi va oilaviy tarbiya uzviy uyg'unlikda ishlashi, yoshlarni raqamli muhitda sog'lom, ongli va faol fuqarolar sifatida shakllantirish yo'lida muvofiqlashtirilgan yondashuv zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Brown, K., et al. (2019). *The impact of cyberbullying on youth mental health.* Journal of Adolescent Psychology, 45(2), 123-137.
2. Greenfield, P. M. (2021). *Mind and media: The effects of television, video games, and computers*. Psychology Press.
3. Johnson, M., & Lee, S. (2020). *Social media and youth creativity: Exploring digital platforms.* New Media & Society, 22(5), 847-864.
4. Smith, A. (2021). *Social media use in the pandemic and its effects on youth.* Pew Research Center Report.
5. Rayimkulov, B. (2024). The place and role of social networks in the formation of social attidutes of young people. NRJ, 1(3), 500-504.
6. Twenge, J. M. (2017). *iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy*. Atria Books.
7. UNICEF (2022). *Youth and social media: Opportunities and challenges*. UNICEF Reports.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Rayimqulov Baxtiyor Farhod o'g'li**, "Pedagogika kafedrasi" o'qituvchisi, [**Раимкулов Бахтиёр Фарход угли,** Преподаватель кафедры педагогики], [**Rayimkulov Bakhtiyor Farhod ugli**, Lecturer at the Department of Pedagogy]; manzil: O'zbekiston, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Talabalar ko'chasi, 49-uy [адрес: Узбекистан, Сырдарьинская область, город Гулистан, улица Талабалар, дом 49 [address: Uzbekistan, 49 Talabalar Street, Gulistan city, Syrdarya region]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

PEDAGOG FAOLIYATIDA NAMOYON BO‘LADIGAN EMOTSIONAL ZO‘RIQISHLARNI YENGISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MODELI

© Husniddin Qobilov[1]✉
[1]Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada pedagogik faoliyatda uchraydigan emotsional zo‘riqish holatlari va ularni yengishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik modelning nazariy asoslari yoritilgan. Emotsional zo‘riqishning pedagog shaxsiga ta’siri, uning kasbiy motivatsiyasi, hissiy barqarorligi va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi. Maqolada o‘qituvchilarning stress holatlarini aniqlash, ularni baholash va profilaktik choralar ko‘rishga yo‘naltirilgan tizimli yondashuvlar bayon etiladi. Xususan, psixologik yordam, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi va o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari asosida shakllantirilgan modelning pedagog amaliyotiga ta’siri ilmiy asosda o‘rganilgan. Mazkur tadqiqot natijalari asosida emotsional zo‘riqishni kamaytirish bo‘yicha aniq takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola psixologlar, pedagoglar, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va kasbiy rivojlanish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga egadir.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi — pedagoglarning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan emotsional zo‘riqishlarni aniqlash, ularni yengishga yordam beruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganish hamda samarali model ishlab chiqishdir. Bu model orqali pedagoglarning ruhiy barqarorligi va kasbiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash ko‘zda tutilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Empirik metodlar: so‘rovnoma, psixologik diagnostika (masalan, Maslach Burnout Inventory), intervyu;

Nazariy tahlil: psixologik, pedagogik va sotsiologik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish;

Statistik usullar: to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilishda korrelyatsiya va regressiya tahlillari ishlatildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot davomida pedagogik faoliyatda emotsional zo‘riqishning asosiy sabablari — ortiqcha ish yuklamasi, psixologik qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi va shaxsiy boshqaruv ko‘nikmalarining zaifligi ekani aniqlandi. Ushbu holatlarni yengish maqsadida shaxsiy resurslar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanishni o‘z ichiga olgan ijtimoiy-psixologik model ishlab chiqildi. Amaliy sinovlar ushbu modelning pedagoglarning stressga bardoshliligini oshirishda samarali ekanini ko‘rsatdi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

XULOSA: xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagoglarning ruhiy salomatligi va emotsional barqarorligiga bog‘liq. Shu sababli, har bir ta’lim muassasasi, rahbariyat va jamiyat o‘qituvchining stressini anglab, uni kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Faqat shundagina biz barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi sog‘lom va professional pedagogik muhitni shakllantira olamiz.

Kalit so'zlar: emotsional zo‘riqish, Ijtimoiy-psixologik model, Pedagogik stress, Psixologik himoya mexanizmlari, Kasbiy charchoq, Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, Psixologik salomatlik.

Iqtibos uchun: Husniddin Qobilov. Pedagog faoliyatida namoyon bo‘ladigan emotsional zo‘riqishlarni yengishning ijtimoiy-psixologik modeli. // Inter education & global study. 2025, №6. B.524–532.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ПРЕОДОЛЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ НАПРЯЖЕНИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА

© Хусниддин Кобилов[1]✉
[1]Каршинского государственного университета, Карши, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются теоретические основы социально-психологической модели преодоления эмоционального стресса в педагогической деятельности. Анализируется влияние эмоционального стресса на личность педагога, его профессиональную мотивацию, эмоциональную устойчивость и взаимодействие с социальной средой. В статье описываются системные подходы, направленные на выявление, оценку и проведение профилактических мероприятий по стрессу педагогов. В частности, научно изучается влияние модели, сформированной на основе психологической помощи, развития коммуникативных компетенций, системы социальной поддержки и стратегий самоуправления на педагогическую практику. По результатам данного исследования разработаны конкретные предложения и практические рекомендации по снижению эмоционального стресса. Статья имеет практическое значение для психологов, учителей, преподавателей высших учебных заведений и специалистов, занимающихся профессиональным развитием.

ЦЕЛЬ: цель данного исследования — выявить эмоциональные перегрузки, возникающие в профессиональной деятельности педагогов, изучить социально-психологические факторы, способствующие их преодолению, а также разработать эффективную модель. Через данную модель предполагается определить возможности повышения психологической устойчивости и профессиональной эффективности педагогов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были использованы следующие методы:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- Эмпирические методы: анкетирование, психологическая диагностика (например, Maslach Burnout Inventory), интервью;
- Теоретический анализ: изучение и анализ психологической, педагогической и социологической литературы;
- Статистические методы: корреляционный и регрессионный анализ собранных данных.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе исследования было установлено, что основными причинами эмоционального перенапряжения в педагогической деятельности являются: чрезмерная рабочая нагрузка, недостаточная психологическая поддержка и слабые навыки саморегуляции. С целью преодоления этих проблем была разработана социально-психологическая модель, включающая личностные ресурсы, социальную поддержку и профессиональное развитие. Практическое применение данной модели показало её эффективность в повышении устойчивости педагогов к стрессу.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что успех системы образования во многом зависит от психологического здоровья и эмоциональной стабильности педагогов. Поэтому каждой образовательной организации, её руководству и обществу в целом необходимо осознавать стресс, испытываемый учителями, и внедрять комплексные меры по его снижению. Только в этом случае можно сформировать здоровую и профессиональную педагогическую среду, способствующую воспитанию гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: эмоциональный стресс, социально-психологическая модель, педагогический стресс, психологические защитные механизмы, профессиональное выгорание, социальная поддержка, психологическое здоровье.

Для цитирования: Хусниддин Кобилов. Социально-психологическая модель преодоления эмоциональных напряжений в деятельности педагога. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 524–532.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MODEL OF OVERCOMING EMOTIONAL STRESSES IN TEACHER ACTIVITY

© Husniddin Qobilov[1]✉
[1]Karshi State University, Karshi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the theoretical foundations of the socio-psychological model aimed at overcoming emotional stress in pedagogical activities. The impact of emotional stress on the personality of a teacher, his professional motivation, emotional stability and interaction with the social environment are analyzed. The article describes systematic approaches aimed at identifying, assessing and taking preventive measures for teachers' stress. In particular, the impact of the model formed on the basis

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

of psychological assistance, development of communicative competencies, social support system and self-management strategies on pedagogical practice is scientifically studied. Based on the results of this study, specific proposals and practical recommendations for reducing emotional stress have been developed. The article is of practical importance for psychologists, teachers, teachers of higher educational institutions and specialists involved in professional development.

AIM: the aim of this study is to identify the emotional stress experienced by teachers in their professional activities, to explore the socio-psychological factors that help to overcome it, and to develop an effective model. This model aims to determine the possibilities for improving teachers' psychological resilience and professional efficiency.

MATERIALS AND METHODS: the following methods were used in the research:

- Empirical methods: surveys, psychological diagnostics (e.g., Maslach Burnout Inventory), interviews;
- Theoretical analysis: review and analysis of psychological, pedagogical, and sociological literature;
- Statistical methods: correlation and regression analysis of the collected data.

DISCUSSION AND RESULTS: the study revealed that the main causes of emotional stress in pedagogical activity are excessive workload, lack of psychological support, and weak self-management skills. To address these issues, a socio-psychological model was developed, which includes personal resources, social support, and professional development. Practical trials demonstrated the model's effectiveness in increasing teachers' stress resistance.

CONCLUSION: in conclusion, the success of the education system largely depends on the psychological well-being and emotional stability of teachers. Therefore, every educational institution, its administration, and society as a whole must recognize the stress experienced by teachers and implement comprehensive measures to reduce it. Only then can we create a healthy and professional teaching environment that contributes to raising a well-rounded generation.

Key words: emotional stress, Socio-psychological model, Pedagogical stress, Psychological defense mechanisms, Professional burnout, Social support, Psychological health.

For citation: Husniddin Qobilov. (2025) 'Social-psychological model of overcoming emotional stresses in teacher activity', Inter education & global study, (6), pp. 524–532. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim tizimi pedagog shaxsiga yuqori darajada mas'uliyat, emotsional barqarorlik va doimiy psixologik tayyorgarlikni talab qilmoqda. Ta'lim jarayonida o'qituvchining ruhiy holati, ayniqsa emotsional zo'riqish holatlari, uning kasbiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bugungi kunda pedagoglar faoliyatida uchraydigan psixologik bosim, stress va emotsional charchoq holatlarini aniqlash hamda ularni yengish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy masalaga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

aylangan. Pedagogik faoliyat mohiyatan murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, unda shaxslararo muloqot, tarbiyaviy ta’sir, muomala madaniyati va hissiy barqarorlik doimiy kesishadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning ijtimoiy roli, jamoaviy munosabatlari, yuklangan vazifalar ko‘lami, ota-onalar va ma’muriyat bilan munosabatlardagi ziddiyatlar emotsional zo‘riqish holatlarini yuzaga keltiradi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagoglarning katta qismi mehnat faoliyati davomida doimiy psixologik bosim ostida ishlaydi, bu esa ularning ruhiy holati va kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir o‘tkazadi.

Ushbu muammo pedagog shaxsini stressga chidamli qilish, uni psixologik qo‘llab-quvvatlash, ichki resurslarini safarbar etish va kasbiy motivatsiyasini mustahkamlash zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday yondashuvda emotsional zo‘riqishni nafaqat shaxsiy muammo sifatida, balki ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o‘rganish lozim bo‘ladi. Bu jarayonda emotsional holatlarni baholash, tahlil qilish, va yengishning samarali ijtimoiy-psixologik modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur maqolada pedagogik faoliyatda uchraydigan emotsional zo‘riqish holatlari, ularning asosiy sabablari, salbiy oqibatlari hamda bu holatlarni yengishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik modelning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagoglarning ruhiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi individual va tizimli strategiyalar, muassasaviy yondashuvlar ham ko‘rib chiqiladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, pedagoglar salomatligi va psixologik farovonligi nafaqat o‘qituvchining shaxsiy hayoti, balki butun ta’lim tizimi sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Emotsional zo‘riqish - bu insonning tashqi yoki ichki salbiy ta’sirlarga nisbatan psixologik va fiziologik javobidir. Pedagoglar faoliyatida bu holat yuqori darajadagi psixologik yuklama, mas’uliyat va kommunikativ bosim natijasida vujudga keladi. O‘qituvchi har kuni turli yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlaydi, o‘z darslarini sifatli o‘tkazishi, intizomni ta’minlashi va o‘z faoliyatini samarali tashkil etishi zarur. Bularning barchasi o‘z navbatida hissiy charchoq, ruhiy toliqish va emotsional beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bu zo‘riqish holatlari tajovuzkorlik, depressiv kayfiyat, befarqlik, mehnatga bo‘lgan ishtiyoqning kamayishi kabi belgilar bilan kechadi. Emotsional zo‘riqishning turli shakllari mavjud: yashirin stress, ochiq emotsional reaksiya, tashqi tahdidga nisbatan passivlik va psixosomatik namoyonlar. Pedagogda ushbu holatlarning mavjudligi uning kasbiy faoliyatini yomonlashtiradi, o‘quvchilar bilan bo‘lgan munosabatlar buziladi. Shuning uchun bu holatning erta aniqlanishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog kasbi inson omiliga bog‘liq faoliyat bo‘lib, o‘qituvchilar kundalik ish davomida ko‘plab ijtimoiy va shaxsiy omillar ta’siriga duch keladilar. Dars rejalariga amal qilishdagi vaqt bosimi, baholashdagi adolatli yondashuv, sinf intizomini saqlashdagi murakkabliklar stressning asosiy manbalari hisoblanadi. Bundan tashqari, ota-onalar bilan muloqotda yuzaga keladigan nizolar, maktab ma’muriyatining talabchanligi va jamoa ichidagi ijtimoiy ziddiyatlar ham pedagogning emotsional holatiga salbiy ta’sir qiladi. O‘qituvchilar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini bostirishga majbur bo‘ladilar, bu esa ichki norozilikni keltirib chiqaradi. Uzoq muddatli zo‘riqish esa ruhiy charchoq va professional

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

“yonib ketish” sindromiga olib keladi. Ayniqsa, pandemiya kabi global vaziyatlar o‘qituvchilarga qo‘shimcha stress yuklamalarini keltirib chiqardi. Yana bir muhim omil - pedagogik faoliyatda mehnat haqi va ijtimoiy qadrlanish darajasining pastligi bo‘lib, bu holat o‘ziga nisbatan ishonchning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Pedagoglardagi emotsional zo‘riqish nafaqat psixologik, balki fiziologik jihatdan ham o‘z aksini topadi. Ruhiy bosim ostida bo‘lgan pedagoglar ko‘pincha asabiylik, e’tiborsizlik, tashvish, tushkunlik kabi holatlarga duch keladilar. Bu holat ularning ish unumdorligini pasaytiradi, dars jarayonining sifati yomonlashadi. Doimiy emotsional zo‘riqish holati inson organizmida gipertenziya, yurak-qon tomir kasalliklari, migren, immunitetning pasayishi kabi jismoniy kasalliklarni chaqirishi mumkin. Psixologik tomondan esa, zo‘riqish depressiya, xavotirlik buzilishi, professional motivatsiyaning yo‘qolishi va umidsizlik holatlarini keltirib chiqaradi. Emotsional holat yomonlashgan pedagoglar o‘quvchilarga yetarli mehr-muhabbat ko‘rsatmaydi, ularga befarq bo‘lib qoladi. Bunday holat esa ta’lim sifati va ijtimoiy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli stress oqibatlarini erta aniqlash va oldini olish muhimdir.

Emotsional zo‘riqishni o‘z vaqtida aniqlash va baholash pedagogik faoliyatda ruhiy salomatlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biridir. Bunda psixodiagnostik metodlar, so‘rovnomalar va testlar keng qo‘llaniladi. Masalan, Maslachning professional yonib ketish shkalasi, Lusher testi, Hamilton tashvish shkalasi va Bek depressiya shkalalari pedagoglarning ichki holatini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, individual suhbatlar va guruh diagnostikalari orqali ham o‘qituvchining emotsional muvozanat holati baholanadi. Biologik ko‘rsatkichlar (masalan, yurak urish ritmi, nafas olish tezligi) orqali ham stress holatini aniqlash mumkin. Baholash jarayonida pedagoglarning emotsional chidamliligi, ichki resurslari va ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘rganiladi. Bu esa, yengil stressdan tortib, og‘ir depressiv holatlarga qadar bo‘lgan bosqichlarni farqlashga imkon yaratadi.

Ijtimoiy-psixologik model bu insonning emotsional holatini tushunish va uni yengishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Bu model orqali shaxsiy, guruhiy va tashkiliy darajadagi omillar bir butun sifatida ko‘rib chiqiladi. Pedagogik faoliyatda bu model stressni aniqlash, baholash va yengishga xizmat qiluvchi vositalarni o‘z ichiga oladi. Modelda o‘qituvchining ichki resurslari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘i, tashkilot ichidagi muhit va kommunikatsion vositalar tahlil qilinadi. Har bir darajadagi omil stressning shakllanishiga qanday ta’sir qilishi aniqlanadi. Shuningdek, bu modelda individual reaksiya shakllari temperament, emotsional barqarorlik, moslashuvchanlik hisobga olinadi. Ijtimoiy-psixologik model shaxsni stressdan holi qilish emas, balki uni boshqarishni, unga moslashishni va ruhiy sog‘lom muhitni yaratishni ko‘zlaydi.

Pedagogik amaliyotda emotsional zo‘riqishni kamaytirish uchun turli strategiyalar mavjud. Birinchi navbatda, stress omillarini bartaraf etish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish zarur. Shaxsiy darajada autogen mashqlar, meditatsiya, dam olish texnikalari samarali usullardir. Psixologik maslahat, individual va guruh terapiyalari ham o‘qituvchining ruhiy holatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash do‘stlar, oila va hamkasblar tomonidan beriladigan hissiy yordam

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

stressga qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi. Muassasa darajasida esa psixologik xizmatlar faoliyatini kengaytirish, stressga qarshi treninglar o‘tkazish, profilaktik tadbirlar tashkillashtirish zarur. Shuningdek, rag‘batlantirish tizimlari, malaka oshirish dasturlari ham motivatsiyani oshiradi. Bularning barchasi o‘qituvchini professional faoliyatida psixologik barqarorlikka erishishga olib keladi.

Ijtimoiy-psixologik model asosida samarali psixologik yordam tizimini yaratish uchun bir nechta muhim bosqichlar mavjud. Avvalo, maktab va ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarni tizimli yo‘lga qo‘yish zarur. Bu xizmatlar pedagoglarning ruhiy holatini kuzatib borishi, stress belgilarini erta aniqlashi kerak. Keyingi bosqich pedagoglar uchun muntazam psixologik treninglar, seminarlar va konsultatsiyalarni tashkil etish. Shuningdek, rahbarlar o‘rtasida ham psixologik yetakchilik madaniyatini shakllantirish muhimdir. O‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashinuvi va emotsional qo‘llab-quvvatlash guruhlari ham yaxshi natija beradi. Har bir pedagog o‘z shaxsiy stress yondashuvini ishlab chiqishi va ichki resurslarini aniqlashi kerak. Ushbu tizim doirasida doimiy monitoring olib borish orqali tizimning samaradorligi baholanadi.

Pedagoglarning ruhiy salomatligi butun ta’lim jarayonining barqarorligini ta’minlaydi. Shu sababli, ushbu maqolada berilgan tahlillarga asoslanib, bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Avvalo, har bir ta’lim muassasasida stress monitoringi yo‘lga qo‘yilishi zarur. Pedagoglar uchun dam olish kunlari, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari, ijtimoiy tadbirlar muntazam tashkil qilinishi kerak. Rahbariyat tomonidan o‘qituvchilarga adolatli yondashuv, ochiq muloqot va psixologik qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatilishi lozim. Malaka oshirish kurslarida stressga qarshi kurash bo‘yicha alohida modul kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Ommaviy axborot vositalarida o‘qituvchi mehnatini qadrlovchi materiallar ko‘paytirilmog‘i lozim. Shuningdek, pedagoglar o‘z ruhiy holatiga e’tiborli bo‘lishi, emotsiyalarini anglab, ijobiy boshqarishni o‘rganishi zarur. Bu esa nafaqat individual, balki tizimli darajada ruhiy salomatlikni ta’minlaydi.

Pedagogik faoliyat - bu inson psixikasi va jamiyat taraqqiyotining kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab kasb turlaridan biri bo‘lib, doimiy emotsional, kognitiv va ijtimoiy yuklamalar bilan tavsiflanadi. Mazkur tahlillarda emotsional zo‘riqish tushunchasining pedagoglar faoliyatida qanday namoyon bo‘lishi, uning ijtimoiy va psixologik manbalari chuqur ko‘rib chiqildi. Ayniqsa, stressning kelib chiqish sabablari orasida professional mas’uliyat, o‘quvchilar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar, ota-onalar va ma’muriyat bilan murakkab muloqot, ish haqi va ijtimoiy qadrlanishning yetishmasligi yetakchi o‘rin egallashi aniqlandi. Muhokama davomida pedagogning ruhiy holatiga ta’sir qiluvchi omillar ko‘p qatlamli va o‘zaro bog‘liq ekani isbotlandi. Bu omillar faqat individual emas, balki tizimli yondashuvni ham talab qiladi. Ayniqsa, “yonib ketish sindromi” (burnout) holatining o‘qituvchilar orasida tobora keng tarqalayotgani ushbu masalaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Ijtimoiy-psixologik model doirasida stress holatlarini boshqarish, aniqlash va yengishga qaratilgan strategiyalar tizimli tarzda yoritildi. Ushbu model doirasida o‘qituvchilarning ruhiy holatini mustahkamlash uchun shaxsiy, ijtimoiy va institutsional darajada yondashuvlar taklif qilindi. Muhokama shuni ko‘rsatdiki, har bir

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

pedagog o‘zining emotsional salomatligiga ongli ravishda yondashmog‘i, mehnat muassasalari esa bu yo‘nalishda zarur sharoitlarni yaratmog‘i zarur. Emotsional zo‘riqishni vaqtida baholash, individual va guruhiy yordam mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, ta’lim tizimida psixologik xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish bu muammoni hal etishning eng muhim vositalaridandir.

Pedagog faoliyatida emotsional zo‘riqish bu shunchaki individual muammo emas, balki ta’lim tizimining umumiy sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida qaralishi lozim. Tadqiqotda ko‘rsatib o‘tilganidek, o‘qituvchilarning ruhiy salomatligi ularning professional faoliyati, o‘quvchilar bilan muloqoti, shaxsiy hayoti va sog‘lig‘i bilan bevosita bog‘liqdir. Emotsional zo‘riqishning sabablari murakkab bo‘lib, ular ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy va shaxsiy omillardan iboratdir. Shu boisdan, muammoni hal etish ijtimoiy-psixologik model asosida yondashishni talab qiladi. Bu modelda pedagogning individual holati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi, maktab muhitining sifatlari va stressni yengish strategiyalari uzviy holda ko‘rib chiqiladi. Rejalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar autogen mashqlar, psixoterapevtik yordam, mehnat sharoitini yaxshilash, dam olish va motivatsion dasturlar pedagoglar emotsional barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Karimova, Z.T. (2021). Psixologik maslahat va diagnostika asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Lazarus, R.S., & Folkman, S. (1984). Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer Publishing Company.
3. Barlow, D.H., & Durand, V.M. (2015). Abnormal Psychology: An Integrative Approach. Belmont: Cengage Learning.
4. Xolmatova, N.N. (2019). Zamonaviy psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
5. American Psychological Association (APA). (2023). Stress in America Survey Reports. Retrieved from
6. Erkaev, Sh.N., & Hasanov, M.X. (2018). Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
7. Maslach, C., & Leiter, M.P. (1997). The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It. San Francisco: Jossey-Bass.
8. Abdullaeva, G.Sh. (2020). Pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
9. World Health Organization (WHO). (2000). Mental Health and Work: Impact, Issues and Good Practices. Geneva: WHO Press.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Husniddin Qobilov**, tayanch doktorant, [**Хусниддин Кобилов,** Соискатель степени доктора философии (PhD)], [**Husniddin Qobilov**, Doctoral candidate]; manzil: O'zbekiston, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy [адрес: Узбекистан, Город Карши, улица Кучабог, дом 17], [address: Uzbekistan, 17 Kuchabog Street, Karshi city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

TASVIRIY SAN'AT VA PSIXOLOGIYA: UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING EMOTSIONAL VA IJODIY RIVOJLANISHI

© G.J. Bahriddinova[1]✉

[1] Navoiy Davlat Universiteti, Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: hozirgi zamon ta'limida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning psixologik va ijodiy rivojlanishini ta'minlash muhim masalaga aylangan. Ayniqsa, tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarda ruhiy barqarorlik, emotsional muvozanat va ijodiy tafakkurni shakllantirish imkoniyati mavjud. Ushbu maqola san'at va psixologiyaning kesishgan nuqtasida turib, o'quvchi shaxsining shakllanishidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berishga qaratilgan.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi – tasviriy san'at orqali o'quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirish va ularning ijodiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi omillarni psixologik nuqtai nazardan aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda Navoiy shahridagi 5-7-sinflarda tahsil olayotgan 50 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Asosiy metodlar sifatida kuzatuv, psixologik testlar, ochiq suhbat va rasmiy so'rovnomalardan foydalanildi. Har bir o'quvchining dars davomida rasmga bo'lgan munosabati, emotsional ifodalari va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalari o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko'rsatdiki, tasviriy san'at bilan muntazam shug'ullangan o'quvchilarning emotsional holati barqaror, muomala madaniyati yuqori bo'ladi. Ular ijodiy topshiriqlarni mustaqil bajarishga moyil, o'z g'oyalarini rang va shakllar orqali ifodalashga intiluvchan. Bunda ayniqsa, rang tanlashdagi mustaqillik, syujet yaratishdagi erkinlik ularning emotsional holatini ifodalashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, tasviriy san'at darslari o'quvchilarda estetik did, sabr-toqat va psixologik muvozanatni shakllantirishda muhim vosita ekani qayd etildi.

XULOSA: tasviriy san'at maktab o'quvchilari uchun nafaqat ijodiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi, balki emotsional holatni sog'lomlashtiruvchi vosita sifatida muhimdir. San'at vositasida bola o'zini erkin ifoda eta oladi, ruhiy bosimlardan xalos bo'ladi va ijtimoiylashuv jarayoniga faolroq kirishadi. Bu esa tasviriy san'at darslarini psixologik yondashuv bilan olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, psixologiya, emotsional rivojlanish, ijodkorlik, bolalar psixologiyasi, maktab o'quvchilari, san'at terapiyasi.

Iqtibos uchun: Bahriddinova G.J. Tasviriy san'at va psixologiya: umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining emotsional va ijodiy rivojlanishi. // Inter education & global study. 2025, №6. B.533–540.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО И ПСИХОЛОГИЯ: ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ И ТВОРЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ

© Г.Дж. Бахриддинова[1]✉
[1] Навоийский государственный университет, Навоий, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в современной образовательной системе важно не только передавать знания, но и способствовать эмоциональному и творческому развитию учащихся. Уроки изобразительного искусства играют значимую роль в формировании внутренней устойчивости, самовыражения и воображения. Настоящая статья посвящена взаимодействию искусства и психологии в формировании личности школьника.

ЦЕЛЬ: цель исследования – выявить психологические аспекты, способствующие эмоциональной уравновешенности и развитию творческих способностей через уроки изобразительного искусства.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании приняли участие 50 учеников 5-7 классов из города Навои. Применялись методы наблюдения, психологического тестирования, бесед и анкетирования. Изучались эмоциональные реакции учащихся и их отношение к творческим заданиям.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что учащиеся, регулярно занимающиеся изобразительным искусством, обладают более стабильным эмоциональным фоном и развитыми творческими навыками. Они лучше выражают идеи через цвет и форму, чаще проявляют самостоятельность. Искусство способствует формированию эстетического вкуса и эмоциональной устойчивости.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: изобразительное искусство является не только средством творческого самовыражения, но и эффективным инструментом психоэмоциональной поддержки. Оно помогает детям преодолевать внутренние трудности и уверенно взаимодействовать в социуме. Комплексный психологический подход в преподавании ИЗО особенно важен для развития личности учащихся.

Ключевые слова: изобразительное искусство, психология, эмоциональное развитие, творчество, детская психология, школьники, арт-терапия

Для цитирования: Бахриддинова Г.Дж. Изобразительное искусство и психология: эмоциональное и творческое развитие учащихся общеобразовательной школы. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 533–540.

VISUAL ARTS AND PSYCHOLOGY: EMOTIONAL AND CREATIVE DEVELOPMENT OF GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS

© Gulnoza J. Bahriddinova[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1] Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in modern education, it is essential not only to deliver academic knowledge but also to support the emotional and creative development of students. Visual arts play a significant role in fostering emotional stability, self-expression, and imaginative thinking. This article focuses on the intersection of art and psychology in shaping student personality.

AIM: the main purpose of this study is to identify psychological mechanisms that support emotional balance and stimulate creative growth through visual arts education.

MATERIALS AND METHODS: the study involved 50 students from grades 5 to 7 in Navoiy city. Research methods included observation, psychological testing, interviews, and surveys. Students' attitudes toward visual tasks and their emotional responses during art activities were closely examined.

DISCUSSION AND RESULTS: findings show that students who engage regularly in visual art activities demonstrate higher emotional stability and creativity. Their ability to express ideas through color and composition, as well as their independent decision-making, were more advanced. Visual arts contributed to the development of aesthetic taste, emotional resilience, and social adaptation.

CONCLUSION: visual arts serve as both a tool for creative expression and a medium for emotional healing. They allow students to express themselves freely, manage inner stress, and participate more confidently in social interactions. Thus, an integrated psychological approach in art education is highly beneficial for student development.

Key words: visual arts, psychology, emotional development, creativity, child psychology, school students, art therapy.

For citation: Gulnoza J. Bahriddinova**.** (2025) 'Visual arts and psychology: emotional and creative development of general secondary school students', Inter education & global study, (6), pp. 533–540. (In Uzbek).

Bugungi kunning tez o'zgarayotgan, turfa axborotlarga boy jamiyatida o'quvchilarning nafaqat bilim, balki ruhiy va ijodiy salohiyatini ham rivojlantirish talab etiladi. Bu jarayonda turli fanlar kesishmasidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at va psixologiyaning birgalikda qo'llanilishi orqali o'quvchilarning ichki dunyosiga yetib borish, ulardagi hissiyotlar, qiyofa va fikrlash qobiliyatini chuqur anglash, shu orqali shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkoniyati yaratiladi.

Jahon va milliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, tasviriy faoliyat o'quvchilarning nafaqat ko'rgazmali fikrlashini, balki o'zini anglashini, hissiyotlarini ifoda etish qobiliyatini ham shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida ularning psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHu munosabat bilan ushbu maqolada tasviriy san'at va psixologiyaning o'zaro bog'liqligi, bu yo'nalishdagi ilmiy va amaliy yondashuvlar tahlil etiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi oldidagi asosiy vazifalardan biri – o‘quvchi-yoshlarning har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy salohiyatga ega shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashdan iborat. Buning uchun ta’lim jarayonida nafaqat ratsional bilimlar, balki emotsional va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantiradigan fanlarning o‘rni beqiyos. Ayniqsa, tasviriy san’at nafaqat ko‘rgazmali va badiiy fikrlashni, balki ichki dunyo va hissiyotlarni ifoda etish vositasi sifatida o‘quvchilarning shaxsiy o‘sishiga xizmat qiladigan fan sifatida alohida e’tirof etiladi.

Psixologiya fani nuqtai nazaridan esa, o‘quvchi-yoshlarning emotsional holati va ijtimoiy moslashuvi ularning bilim olish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Xususiy hollarda o‘quvchilar o‘z hissiyotlarini so‘z orqali ifoda eta olmasligi mumkin, bunday vaziyatlarda san’at – xususan, tasviriy ifoda eta olish – muqobil xizmat ko‘rsatish vositasi sifatida xizmat qiladi deb aytish joizdir.

Xalqaro tadqiqotlar (masalan, Malchiodi, 2012; Winner et al., 2006) tasviriy faoliyat bilan muntazam shug‘ullanadigan o‘quvchilarda stressni kamaytirish, o‘ziga ishonchni oshirish va ijobiy emotsional holatni shakllantirishda samarali vosita ekanini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, YUNESKOning ta’limda san’atning o‘rniga oid dasturlarida ham ta’limda ijodiy faoliyatlarni keng qo‘llash orqali shaxsiy rivojlanishni ta’minlash muhim ekani qayd etilgan.

O‘zbekistonda ham ta’lim tizimida san’at ta’limiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yangi o‘quv dasturlarida tasviriy san’atning ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanishga urinmalar kuzatilmoqda. Ushbu maqola aynan shunday muammolar va imkoniyatlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, dolzarb va amaliy ahamiyatga ega ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi.

Mavzuga doir olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlarni o‘rganganib qo‘yidagilarni aytishimiz mumkin bo‘ladi:

Tasviriy san’at va psixologiya o‘zaro bog‘liq holda turli ilmiy tadqiqotlarning predmeti bo‘lib kelmoqda. Jahon ilmiy adabiyotida bolalarda ijodiy tafakkur, emotsional intellekt, vizual idrok va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda tasviriy san’atdan foydalanish bo‘yicha bir qator muhim ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Amerikalik psixoterapevt Keti Malchiodi (Cathy A. Malchiodi) tomonidan bolalarda art-terapiya usullari orqali ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator ilmiy asoslangan metodlar ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, Ellen Vinner va Shirli Brislin (Winner & Bresler, 2006) kabi tadqiqotchilar tasviriy san’atning ta’limiy jarayondagi ahamiyati, bolalarda estetik qadriyatlar va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab berishgan.

Milliy miqyosda esa, O‘zbekistonda soha bo‘yicha ilmiy ishlar nisbatan kam sonli bo‘lib, ko‘proq pedagogik yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Oliy ta’lim muassasalari, xususan, pedagogika va psixologiya fakultetlarida tasviriy faoliyatning ta’limdagi roliga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin tasviriy san’at va psixologiyaning kesishmasidagi ilmiy tahlillar hanuzgacha yetarlicha chuqur va keng qamrovli emas. Shu bois, ushbu mavzudagi maqolalar va ilmiy ishlanmalarni ko‘paytirish dolzarb hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – tasviriy san'at va psixologiyaning o'zaro bog'liqligi orqali umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining emotsional holati va ijodiy rivojlanishini ilmiy jihatdan tahlil qilish, amaldagi imkoniyat va muammolarni o'rganish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Maqsaddan kelib chiqib qo'yidagicha vazifalarni belgilab oldek:

– tasviriy san'at va psixologiya o'rtasidagi aloqadorlikni nazariy jihatdan yoritish;

– o'quvchilarda tasviriy faoliyat orqali emotsional va ijodiy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish;

– xalqaro va milliy tadqiqotlar asosida mavzuning ilmiy asoslarini ko'rsatish;

– umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida tasviriy san'atning amaliy ta'sirini o'rganish;

– o'quvchilarning hissiy holati va ijodkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik va psixologik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tasviriy san'at va psixologiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni va ularning o'zaro aloqasi haqidagi muhokama bir qator muhim muammolarni ko'tarib chiqardi. Bu yerda san'atning emosional va ijodiy rivojlanishga ta'siri, tasviriy san'atni ta'lim jarayoniga integratsiyalashning muammolari, shuningdek, psixologiyaning o'quvchilarning shaxsiy o'sishidagi roli haqida kengroq fikr yuritish mumkin.

Birinchidan – Tasviriy san'atning ta'limga integratsiyalanishining muammolari:

– tasviriy san'atning ta'lim jarayonidagi o'rni hamon aniq va chuqur ishlanmagan. Maktablarda tasviriy san'atning psixologiya bilan bog'lanishi orqali o'quvchilarning emotsional va ijodiy salohiyatini shakllantirishga bo'lgan talab oshayotganiga qaramasdan, bu sohadagi amaliy muammolar safi ham bor;

– ayniqsa, maktablarning moddiy-texnik bazasi va o'qituvchilarning malakalari buning asosiy to'sqinliklaridan hisoblanadi. Tasviriy san'at darslari ko'p hollarda faqat estetik qiymatga ega bo'lib, emotsional va psixologik ta'sirning amaliy jihatlari yetarlicha ko'rib chiqilmaydi. Tasviriy san'atni to'g'ri ta'lim jarayoniga integratsiyalash uchun maxsus metodikalar va psixologik yondashuvlar ishlab chiqilishi talab etiladi;

– har qanday ta'lim tizimida muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun mahorat va malaka yuqori bo'lishi kerak. Ushbu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilar va pedagogik mutaxassislar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning tasviriy san'atni ta'lim jarayonida foydalanish qobiliyati va psixologlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatish ularning ishini samarali qilari shubhasiz.

Ikkinchidan – San'atning psixologik yordami:

– tasviriy san'at psixologiya bilan yaqin aloqada bo'lgan soha hisoblanadi. Art-terapiya va tasviriy san'atning o'quvchilarning psixologik holatini yaxshilashga ta'siri haqidagi tadqiqotlar ko'plab ilmiy manbalarda keltirilgan. Bunga qaramay, san'at

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

terapiyasining samaradorligini baholashdagi muammolar kuzatilmoqda. Art-terapiyaning natijalari individual xususiyatlarga, ya'ni o'quvchining ichki holatiga va psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi;

– tasviriy san'atni psixoterapevtik vosita sifatida foydalanish o'quvchilarning ichki dunyosi va hissiyotlarini ifoda etishga ko'maklashadi. Misol uchun, ranglar va shakllarni tanlash orqali o'quvchi o'z hissiyotlarini yoki ularga ta'sir etgan voqealarni ifoda etishi mumkin. Ammo, san'at terapiyasining aniq natijalari uchun metodikalar va baholash mezonlari yaratilmagan. Hozirgi kunda psixoterapevtlar va pedagoglar o'zlarining tajribalarini mavjud metodikaga qo'shib, yangi tahlil vositalarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda. Shu bois, san'at terapiyasining samaradorligi bo'yicha yanada chuqur tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Uchunchidan – Tasviriy san'atning ijodiy rivojlanishga ta'siri:

– tasviriy san'atning ijodiy rivojlanishga ta'siri haqidagi tadqiqotlar ko'p hollarda ijobiy samaralarni ko'rsatmoqda. O'quvchi o'zining hissiyotlari va ichki dunyosi bilan bog'liq muammolarni badiiy asar orqali ifoda etish orqali ijodiy salohiyatini rivojlantira oladi. Shunga qaramasdan, har bir o'quvchi uchun buning natijalari turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zi o'quvchilar uchun tasviriy san'at ijodiy salohiyatni namoyon qilishga yordam beradi, boshqalarida esa bu jarayon stressni kamaytirishga va emotsional barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashadi;

– agar, biz o'quvchilarda ijodiy salohiyatni shakllantirishni maqsad qilib qo'ysak, unda tasviriy san'at va psixologiyani o'z ichiga olgan integrativ yondashuv muvaffaqiyatli bo'ladi. O'quvchining o'zi bilan bog'liq ichki dunyosi, turmush tarzi va jamiyatga munosabatidan kelib chiqib, tasviriy san'atning ijodiy va emotsional rivojlanishga ta'sirini baholashga yaqinlashish mumkin.

To'rtinchidan – Fikr va baholashdagi individual yondashuv:

– tasviriy san'atning emotsional va ijodiy rivojlanishga ta'siri har bir o'quvchi uchun individual bo'lishi kerak. Buning natijasida, ta'lim jarayonida ishlatiladigan usullar har bir o'quvchi uchun maksimal darajada ta'sirchan bo'lishi uchun shaxsiy yondashuv joriy etilishi lozim; masalan, o'quvchiga shaxsiy tasvirlar orqali o'zini ifoda etish imkonini berish u bilan psixologiyaga oid suhbatlar olib borishga yordam berishi mumkin. SHuningdek, pedagogikada faqat standartlashtirilgan o'quv dasturlaridan emas, balki har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan individual usullardan foydalanish muhim. Bu ijodiy ta'limning maqsadi – o'quvchilarning yangi fikrlash uslubini va emotsional izlanishlarini shakllantirishdir.

Beshinchidan – Tasviriy san'at va psixologiyani integratsiyalash bo'yicha tadqiqotlarning kelajagi:

– tasviriy san'at va psixologiyaning o'zaro integratsiyasini to'liq rivojlantirish uchun mavjud ilmiy ishlanmalar va amaliyotlardan ko'proq foydalanish zarur. Buning uchun yangi tadqiqotlar, metodikalar va ishlanmalar ishlab chiqilishi kerak. Ilmiy tadqiqotlar sog'lom va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ijodiy muhit yaratish, bolalarning emotsional barqarorligini ta’minlash va ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlanmalarga yo‘naltirilishi kerak;

